
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

№ 7, 2026



https://bxu.uz

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

2026-yil, 7-son, 1-qism

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan 10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Журнал включён в перечень обязательных научных изданий, в которых должны публиковаться основные результаты диссертационных исследований, решением Президиума ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 29 декабря 2023 года № 347 по следующим научным специальностям: 10.00.00 – филология, 13.00.00 – педагогика, 19.00.00 – психология.

The journal is included in the list of required publications for publishing scientific articles based on the results of dissertation research in the fields of 10.00.00 – Philology, 13.00.00 – Pedagogy, and 19.00.00 – Psychology, in accordance with Resolution No. 347 of December 29, 2023, adopted by the Presidium of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Tuymebayev J.K. – filologiya fanlari doktori, akademik (Qozog'iston)

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Beknazarova L.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qabulov Q.P. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ayrapetova A.G. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zakirov A.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qosimov U.A. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mo'minova L.R. - pedagogika fanlari doktori, professor

Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Shirinov A.Q. - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Tuimebayev Zh.K. – Doctor of Philological Sciences, Academician (Kazakhstan)
Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.Sh. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Beknazarova L.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Qabulov Q.P.-doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Zakirov A.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Qosimov U.A. - candidate of psychological sciences, associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Mo'minova L.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - doctor of philosophy (phd) in philological sciences
Shirinov A.Q. - doctor of philosophy (phd) in philosophical sciences, Associate Professor

Xolmatova Saidaxon Voxobjonovna
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet
tillar instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: xolmatovasaida75@gmail.com

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGNING AXLOQIY DILEMMALARI VA ULARNI HAL ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola globallashuv va ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida inklyuziv ta'limning ahamiyatini ko'rib chiqadi, har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash zaruratini ta'kidlaydi. Inklyuziv ta'lim muhitida pedagoglar duch keladigan asosiy axloqiy dilemmalar, jumladan, tenglik va individual ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanat, konfidensiallik, kollektivning qabul qilishi hamda cheklangan resurslar sharoitidagi optimal yechimlar tahlil qilinadi. Maqolada pedagoglarning inklyuziv-deontologik kompetentligini shakllantirishda fanlararo integratsiya, interaktiv usullar va multimediya vositalaridan foydalanish mexanizmlari yoritilgan, shuningdek, pedagogik etika va deontologiya tamoyillarining o'rni ko'rsatilgan. Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy burchi va axloqiy mas'uliyati, uning kompetentligini tizimli va kompleks rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, pedagog, axloqiy dilemma, deontologiya, inklyuziv-deontologik kompetentlik, fanlararo integratsiya, interaktiv usullar, etik kodeks, maxsus ta'lim ehtiyojlari.*

ЭТИЧЕСКИЕ ДИЛЕММЫ ПЕДАГОГА В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И МЕХАНИЗМЫ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация.*Данная статья рассматривает значимость инклюзивного образования в условиях глобализации и модернизации образования, подчеркивая необходимость обеспечения права каждого ребенка на образование. Анализируются основные этические дилеммы, с которыми сталкиваются педагоги в инклюзивной образовательной среде, включая баланс между равенством и индивидуальными потребностями, конфиденциальность, принятие коллективом, а также поиск оптимальных решений в условиях ограниченных ресурсов. В статье освещены механизмы использования междисциплинарной интеграции, интерактивных методов и мультимедийных средств в формировании инклюзивно-деонтологической компетентности педагогов, а также показана роль принципов педагогической этики и деонтологии. Особо подчеркивается, что в инклюзивном образовании профессиональный долг и этическая ответственность педагога, а также необходимость системного и комплексного развития его компетентности, имеют решающее значение.*

ETHICAL DILEMMAS OF TEACHERS IN INCLUSIVE EDUCATION SETTINGS AND MECHANISMS FOR THEIR RESOLUTION

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, педагог, этическая дилемма, деонтология, инклюзивно-деонтологическая компетентность, междисциплинарная интеграция, интерактивные методы, этический кодекс, особые образовательные потребности.*

Abstract.*This article examines the importance of inclusive education in the context of globalization and educational modernization, emphasizing the necessity of ensuring every child's right to education. It analyzes the main ethical dilemmas faced by pedagogues in an inclusive educational environment, including balancing equality with individual needs, confidentiality, collective acceptance, and finding optimal solutions in conditions of limited resources. The article highlights the mechanisms of using interdisciplinary integration, interactive methods, and multimedia tools in forming pedagogues' inclusive-deontological competence, and also shows the role of pedagogical ethics and deontological principles. It is particularly emphasized that in inclusive education, the professional duty and ethical responsibility of the pedagogue, as well as the need for systematic and comprehensive development of their competence, are crucial.*

Key words: *Inclusive education, pedagogue, ethical dilemma, deontology, inclusive-deontological competence, interdisciplinary integration, interactive methods, ethical code, special educational needs*

Kirish. XXI asr ta'lim tizimida insonparvarlik, adolat va tenglik tamoyillarini ustuvorlik sifatida belgilash, har bir shaxsning shaxsiy salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'lim paradigmasi ta'lim sohasidagi global tendensiyalardan biri sifatida kun tartibiga chiqdi, barcha bolalarning, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, lingvistik yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishini nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalqaro hujjatlar, jumladan, UNESCOning Salamanca bayonoti har bir bolaga ta’lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu pedagoglar zimmasiga yangi va murakkab vazifalarni yuklaydi. Inklyuziv muhitda ishlayotgan pedagoglar ko'plab axloqiy dilemmalar bilan to'qnash keladilar, chunki ular bir vaqtning o'zida turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhining manfaatlarini muvozanatlashlari, cheklangan resurslar sharoitida eng maqbul yechimlarni topishlari va jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini shakllantirishlari lozim. Ushbu maqola inklyuziv ta'lim sharoitida pedagoglar duch keladigan axloqiy dilemmalarni chuqur tahlil qilishga va ularni samarali hal etish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inklyuziv ta'lim va pedagogning axloqiy dilemmalari masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xolmatova S.V.ning ishlari umumiy pedagogika fanining mazmunini inklyuziv ta'lim va pedagogik deontologiya g'oyalari bilan boyitish zaruratini o'rganadi. Muallif inklyuziv-deontologik kompetentlikning tarkibiy elementlari va ularni oliy ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlariga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuvda fanlararo integratsiyaning (psixologiya, huquq kabi fanlar bilan) pedagogik ta'limdagi ahamiyati, zamonaviy qiyinchiliklardan kelib chiqadigan axloqiy muammolarni hal qilish va kasbiy burch hissini rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi. Integratsiyalashgan kurslar, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd etiladi. Globalizatsiya va ta'limni modernizatsiya qilish kontekstida inklyuziv ta'limning ahamiyati muhokama qilinadi. Unda barcha bolalar, shu jumladan maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'limda tenglikni ta'minlash zarurati ta'kidlanadi. Maqolada UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlarning inklyuziv yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi doiraviy hujjatlarining roli ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot kelajak pedagoglarining inklyuziv-deontologik kompetentliklarini interaktiv usullar va multimediya vositalari yordamida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu kasbiy etika, empatiya va inklyuziv muhitda samarali ta'lim berish uchun zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalarni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda nazariy va empirik usullar integratsiyalashgan bo'lib, interaktiv va multimediya usullari an'anaviy usullarga nisbatan talabalarning kompetentliklarini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.

Gaybullayev N.M., Maxkamov U.Sh., Po‘latov B.X “Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kitobi inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini chuqur yoritadi. Djumaniyozov A.N.ning “Pedagogik etika va deontologiya asoslari” asari pedagogning kasbiy axloqiy me'yorlari va burchlarini belgilashda fundamental ahamiyatga ega. Gushchina T.N.ning tadqiqotlari pedagoglarning inklyuziv ta'lim sharoitidagi kasbiy kompetentligini shakllantirishga bag'ishlangan bo'lib, bu maqolaning muhim jihatlaridan biridir. UNESCOning Salamanca bayonoti esa inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[7] mamlakatdagi ta’lim sohasining huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi va inklyuziv ta’limni tashkil etishning qonuniy asoslarini belgilaydi.

Muhokama. Inklyuziv ta'lim muhitida pedagoglar duch keladigan axloqiy dilemmalar murakkab bo'lib, ular ko'pincha pedagogning kasbiy burchi, axloqiy tamoyillari[5] va amaliy imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlardan kelib chiqadi. Quyida ushbu dilemmalar va ularni hal etish mexanizmlari muhokama qilinadi:

Tenglik va individual ehtiyojlar balansi: Pedagogning asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra va xalqaro hujjatlar, xususan Salamanca bayonotiga ko‘ra barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lishdir. Biroq, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega

bo'lgan o'quvchilar ko'pincha ko'proq individual yondashuv, vaqt va qo'shimcha resurslarni talab qiladi. Bu esa sinfdagi boshqa o'quvchilar yoki ularning ota-onalari tomonidan "noteng munosabat" sifatida qabul qilinishi mumkin. Pedagogning dilemması shundan iboratki, u qanday qilib maxsus ehtiyojli o'quvchilarning individual talablarini qondirgan holda, boshqa o'quvchilarning ta'lim sifatini buzmasligi va tenglik tamoyilini saqlashi mumkin. Bu dilemmani hal qilishda pedagogning inklyuziv-deontologik kompetentligi asosiy o'rin tutadi. Bu kompetentlik pedagogga individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish, differensial o'qitish usullarini qo'llash va sinfda hamkorlik muhitini yaratish imkonini beradi. U professional etika, empatiya va samarali muloqot ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Konfidensiallik va hamkorlik: Maxsus ehtiyojli o'quvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash axloqiy me'yor hisoblanadi. Biroq, ularning rivojlanishi uchun ota-onalar, boshqa mutaxassislar (psixologlar, logopedlar, defektologlar) va ma'muriyat bilan samarali axborot almashish zarur. Dilemma shundan iboratki, qayerda konfidensiallik chegarasi tugaydi va qayerdan boshlab samarali hamkorlik uchun ma'lumotlarni almashish mumkin bo'ladi. Bu masalada pedagogning pedagogik deontologiya bo'yicha bilimlari va professional etika kodeksiga rioya qilishi muhimdir. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchining manfaatlarini ko'zlab, ma'lumotlarni faqatgina tegishli mutaxassislar va ota-onalar bilan, ularning roziligi bilan almashish axloqiy jihatdan to'g'ri yechim hisoblanadi.

Kollektivning qabul qilishi va qiyinchiliklar: Ba'zi o'quvchilar yoki ularning ota-onalari maxsus ehtiyojli bolalarning sinfga integratsiyalashuviga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Bu qarshilik bilimsizlik, qo'rquv yoki noto'g'ri tushunchalardan kelib chiqishi mumkin. Pedagogning dilemması nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchining huquqlarini himoya qilish, balki butun kollektivda bag'rikenglik, hurmat va qabul qilish muhitini shakllantirishdir. Bu borada pedagog interaktiv usullar va multimediya vositalaridan foydalangan holda tushuntirish ishlarini olib borishi, sinfdoshlar o'rtasida o'zaro tushunish va empatiyani rivojlantirishi kerak[2]. UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari bu jarayonda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Resurslar cheklovi va optimal yechim: Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham qayd etilganidek, ko'pgina ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim uchun yetarli resurslar (yordamchi o'qituvchilar, maxsus jihozlar, moslashtirilgan o'quv materiallari) mavjud emas. Bunday sharoitda pedagog mavjud cheklangan imkoniyatlar doirasida barcha o'quvchilar uchun eng yaxshi ta'lim sifatini qanday ta'minlash kerakligi haqida axloqiy dilemmaga duch keladi. Bu o'qituvchining kasbiy burchi va amaliy imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Bu vaziyatda fanlararo integratsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog psixologik va huquqiy bilimlarga tayanib, ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilib, mavjud resurslardan samarali foydalanish yo'llarini topishi lozim.

Axloqiy dilemmalarni hal etish mexanizmlari:

Inklyuziv-deontologik kompetentlikni rivojlantirish: Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida inklyuziv ta'lim va pedagogik deontologiya g'oyalarini chuqur o'rgatish orqali ularda maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun zarur bilim, ko'nikma va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhim. Gushchina T.N. ning tadqiqotlari ham aynan shu kompetentlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Fanlararo integratsiya: Umumiy pedagogika kurslarini psixologiya, huquq, sotsiologiya va tibbiyot fanlari bilan integratsiyalash, bu orqali pedagoglarda axloqiy muammolarni hal qilish uchun keng qamrovli tushuncha va yondashuvlarni shakllantirish muhimligi ta'kidlanadi.

Interaktiv usullar va multimediya vositalari: Pedagogik amaliyotda interaktiv mashg'ulotlar, keys-stadi tahlillari, rolli o'yinlar, simulatsiyalar va zamonaviy multimediya vositalaridan foydalanish orqali pedagoglarning empatiya, kommunikativ ko'nikmalar va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirish zarur. Tadqiqotlar interaktiv va multimediya usullari an'anaviy usullarga nisbatan talabalarning kompetentliklarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda[2].

Kasbiy etika kodekslari va deontologik prinsiplar: Pedagogik jamoalar uchun aniq belgilangan kasbiy etika kodekslari va deontologik prinsiplarni ishlab chiqish va ularga qat'iy rioya etilishini ta'minlash muhim. Djumaniyozov A.N. ning pedagogik etika bo'yicha ishlari bu borada nazariy asos bo'la oladi.

Doimiy malaka oshirish va mutaxassislar bilan hamkorlik: Pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlari, shuningdek, maxsus pedagoglar, psixologlar, shifokorlar va ijtimoiy xodimlar bilan muntazam hamkorlik qilishlari.

Ota-onalar bilan ochiq muloqot: Ota-onalar bilan ishonchli va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish va birgalikda yechim topish.

Xulosa. Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagoglar duch keladigan axloqiy dilemmalar o'ta murakkab va serqirra bo'lib, ularni samarali hal etish pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy tayyorgarlikni talab qiladi. Inklyuziv-deontologik kompetentlikni shakllantirish bu jarayonning markaziy elementi hisoblanadi. Bu kompetentlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiya, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv va innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda doimiy kasbiy rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy usullarga nisbatan interaktiv va multimediya usullari pedagoglarning kompetentliklarini sezilarli darajada oshirishini inobatga olgan holda, bu yo'nalishdagi ishlar yanada kuchaytirilishi lozim. Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'yicha izlanishlar, shuningdek, pedagogik etika[5] va kasbiy kompetentlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar pedagoglarni har tomonlama tayyorlashning asosidir. Pedagoglarni har tomonlama tayyorlash orqali biz nafaqat O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida va UNESCOning Salamanca bayonotida belgilanganidek, har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlaymiz, balki ularda adolat, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi universal qadriyatlarni ham mustahkamlaymiz. Bu esa jamiyatning har bir a'zosi to'liq ishtirok eta oladigan haqiqiy inklyuziv jamiyat qurishning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. – Paris : UNESCO, 1994. – 47 p.

2. G‘aybullayev N. M., Maxkamov U. Sh., Po‘latov B. X. Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. – 148 b.

3. Jumaniyozov A. N. Pedagogik etika va deontologiya asoslari. – Toshkent : Tafakkur bo‘stoni, 2019. – 160 b.

4. Гущина Т. Н. Формирование профессиональной компетентности педагогов в условиях инклюзивного образования // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. – 2017. – № 4. – С. 136–140.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 24.09.2020 y. – № 03/20/637/1313.

Атабекова Амина Байрамбековна
Преподаватель кафедры узбекского и русского языков
Университета мировой экономики и дипломатии
E-mail: atabekovaab@gmail.com

СИМУЛЯЦИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ПЕРЕГОВОРОВ: РОЛЬ ДИАЛОГА И ИНТЕРВЬЮ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье рассматривается значение симуляции дипломатических переговоров как эффективного инструмента в подготовке будущих специалистов в области международных отношений и дипломатии. Особое внимание уделяется роли диалога и интервью в процессе обучения, позволяющим студентам развивать навыки коммуникации, критического мышления и стратегического планирования. Исследуются методические подходы к организации симуляций, а также их влияние на формирование профессиональных компетенций у студентов. Анализируются примеры успешных практик, где симуляция переговоров способствовала углубленному пониманию сложных международных вопросов и развитию личностных качеств, необходимых для эффективной работы в сфере дипломатии.*

Ключевые слова: *Диалог, интервью, симуляция дипломатических переговоров, подготовка специалистов, коммуникационные навыки, международные отношения, критическое мышление, профессиональные компетенции.*

SIMULATION OF DIPLOMATIC NEGOTIATIONS: THE ROLE OF DIALOGUE AND INTERVIEWS IN TRAINING FUTURE SPECIALISTS IN RUSSIAN LANGUAGE INSTRUCTION

Annotation. *The article examines the importance of simulating diplomatic negotiations as an effective tool in training future specialists in the field of international relations and diplomacy. Particular attention is paid to the role of dialogue and interviewing in the learning process, allowing students to develop communication, critical thinking and strategic planning skills. Methodological approaches to organizing simulations are explored, as well as their impact on the development of professional competencies among students. Examples of successful practices are analyzed, where simulation of negotiations contributed to an in-depth understanding of complex international issues and the development of personal qualities necessary for effective work in the field of diplomacy.*

Key words: *Dialogue, interview, simulation of diplomatic negotiations, training of specialists, communication skills, international relations, critical thinking, professional competencies.*

DIPLOMATIK MUZOKARALARNI SIMULYATSIYA QILISH: RUS TILINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA DIALOG VA INTERVYUNING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada diplomatik muzokaralar simulyatsiyasining xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi samarali vosita sifatidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ta’lim jarayonida dialog va intervyuning roli alohida yoritilib, ular talabalarga kommunikatsiya ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va strategik rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini berishi ta’kidlanadi. Simulyatsiyalarni tashkil etishning metodik yondashuvlari hamda ularning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, muzokaralar simulyatsiyasi murakkab xalqaro masalalarni chuqurroq anglash va diplomatiya sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan muvaffaqiyatli amaliyotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *dialog, intervyu, diplomatik muzokaralar simulyatsiyasi, mutaxassislar tayyorlash, kommunikatsion ko‘nikmalar, xalqaro munosabatlar, tanqidiy fikrlash, kasbiy kompetensiyalar.*

Введение. В современном мире дипломаты играют ключевую роль в поддержании международных отношений, разрешении конфликтов и укреплении сотрудничества между государствами. Успех в этой сфере во многом зависит от коммуникативных навыков, способности вести переговоры и находить общий язык с представителями различных культур и политических систем. В связи с этим, симуляция дипломатических переговоров становится важным элементом образовательного процесса для будущих специалистов. [1]

Основная часть. Данный метод позволяет моделировать реальные коммуникативные ситуации, в которых язык используется не абстрактно, а в функционально нагруженном контексте. В отличие от традиционных упражнений, направленных на закрепление лексико-грамматического материала, симуляции создают условия для спонтанной речи, требующей не только языковых знаний, но и стратегического мышления [2]. Теоретическую основу данного подхода составляют работы таких исследователей, как Д. Хаймс, разработавший концепцию коммуникативной компетенции, и М. Кэнейл с М. Суэйн, предложившие её многокомпонентную модель, включающую грамматическую, социолингвистическую, дискурсивную и стратегическую составляющие. Применительно к дипломатическому дискурсу особую значимость приобретает именно стратегическая компетенция умение компенсировать языковые трудности и достигать коммуникативной цели в условиях неопределённости.

Ключевую роль в структуре таких симуляций играют диалог и интервью. Диалог как базовая форма речевого взаимодействия обеспечивает развитие навыков двусторонней коммуникации. В условиях дипломатических переговоров он приобретает специфические характеристики как регламентированность, вежливость, дипломатическая осторожность, использование эвфемизмов и косвенных форм выражения позиции. Освоение этих особенностей невозможно без регулярной практики в ситуациях, приближенных к реальным. Примером такой практики может служить симуляция заседания Совета Безопасности ООН, где студентам предлагается отстаивать позицию конкретного государства по актуальному международному вопросу к примеру введению санкций, урегулированию регионального конфликта или обсуждению гуманитарного кризиса. Подобные задания требуют предварительной подготовки изучения официальной позиции страны, знакомства с дипломатическим протоколом и речевыми формулами, принятыми в международных организациях и другие.

Интервью, в свою очередь, представляет собой более структурированную форму общения, в которой особое значение приобретают навыки формулирования вопросов и ответов. В дипломатической практике интервью может выступать как инструмент публичной коммуникации, средство получения информации или способ позиционирования государства на международной арене. В учебном процессе данный формат способствует развитию аналитического мышления, умения выделять ключевые аспекты проблемы и формулировать аргументированные ответы [3]. Конкретным примером может служить ролевое упражнение «Пресс-конференция министра иностранных дел» где одни студенты выступают в роли журналистов различных международных изданий, задавая острые вопросы о позиции страны по спорной теме, другие в роли официальных представителей, которые должны отвечать уклончиво, но содержательно, не допуская прямых высказываний, способных осложнить дипломатические отношения. Такое упражнение формирует навык «мягкого отказа» и владения техникой уклончивого ответа являющими важнейшими элементами дипломатической риторики.

Важно подчеркнуть, что использование диалогов и интервью в обучении русскому языку как иностранному выходит за рамки чисто языковой подготовки. Оно способствует формированию межкультурной компетенции, которая является неотъемлемой частью профессиональной деятельности дипломата [4]. Студенты учатся учитывать культурные различия, адаптировать речевое поведение в зависимости от контекста и избегать коммуникативных конфликтов. В этом отношении показателен пример освоения русской коммуникативной культуры в отличие от ряда западных традиций, русский дипломатический дискурс тяготеет к более категоричным формулировкам и прямолинейной аргументации при внешней церемониальности. Непонимание этой особенности нередко ведёт к ошибочной интерпретации намерений российской стороны на переговорах.

Задания на анализ аутентичных дипломатических текстов как речей в ООН, официальных заявлений МИД, записей переговоров помогают студентам освоить эти культурно обусловленные особенности.

С методической точки зрения симуляции дипломатических переговоров опираются на коммуникативный и задачный подходы (Task-Based Language Teaching, TBLT). Первый акцентирует внимание на использовании языка как средства общения, а второй на выполнении конкретных практических задач [5]. Их сочетание позволяет создать эффективную образовательную среду, в которой язык усваивается через деятельность. Согласно принципам TBLT, разработанным Н. Prabhu и впоследствии систематизированным Д. Уиллисом и Дж. Уиллис, задания должны иметь коммуникативную цель, реальный результат и предполагать подлинный информационный обмен между участниками. Симуляция переговоров по заключению торгового соглашения, где каждая «делегация» располагает закрытой информацией об интересах своей стороны и должна добиться наилучших условий, отвечает всем этим критериям студенты оказываются в подлинной коммуникативной ситуации, где успех зависит не от знания правил, а от умения ими пользоваться.

При этом важно, чтобы задания имели чёткую профессиональную направленность и отражали реальные сценарии дипломатической практики. Можно выделить несколько типов симуляционных сценариев, градуированных по степени сложности. На начальном уровне это двусторонние встречи по заранее известной повестке с использованием опорных фраз и клише. На среднем многосторонние переговоры с распределёнными ролями и элементами неожиданности (введение новых условий в ходе обсуждения). На продвинутом уровне симуляции кризисных ситуаций, требующие немедленной реакции и импровизации на русском языке в условиях коммуникативного давления.

Не менее значимым является вопрос оценки результатов обучения. Традиционные формы контроля, такие как тесты и письменные работы, не в полной мере отражают уровень сформированности коммуникативной компетенции [6]. В условиях симуляций более адекватными представляются критерии, учитывающие не только языковую правильность, но и прагматическую уместность, логичность аргументации, способность к взаимодействию и достижению коммуникативной цели. На практике это может реализовываться через оценочные рубрики, разработанные на основе шкал CEFR (Общеевропейских компетенций владения иностранным языком) и адаптированные к специфике дипломатического дискурса. Такая рубрика может включать следующие параметры как точность и уместность используемой лексики, соблюдение речевого этикета и регистра, эффективность аргументации, реакция на реплики партнёра и общий коммуникативный результат. Дополнительным инструментом самооценки и рефлексии может служить видеозапись симуляций с последующим совместным разбором: студенты получают возможность наблюдать себя со стороны и анализировать допущенные коммуникативные просчёты.

Отдельного внимания заслуживает роль преподавателя в организации симуляций. В рамках данного подхода он выступает не столько источником знаний, сколько фасилитатором то есть организатором учебной среды, который создаёт условия для самостоятельной речевой деятельности, обеспечивает ролевые инструкции, при необходимости вводит дополнительные вводные и осуществляет рефлексивный разбор после завершения симуляции. Этап дебрифинга признаётся большинством исследователей обязательным компонентом метода: именно в ходе совместного обсуждения допущенные ошибки осознаются и закрепляются в качестве учебного опыта.

В перспективе можно говорить о дальнейшем развитии данного направления, включая использование цифровых технологий, онлайн-симуляций и межвузовских проектов. Так, платформы синхронной видеокоммуникации позволяют организовывать международные симуляции с участием студентов из разных стран, что приближает учебный процесс к условиям реальной международной деятельности.

Опыт ряда университетов показывает, что такой формат существенно повышает мотивацию студентов и уровень их иноязычной подготовки. Всё это позволяет расширить возможности практики и сделать обучение русскому языку как иностранному более гибким, адаптивным и соответствующим требованиям современной дипломатии.

Заключение. Таким образом, симуляция дипломатических переговоров с активным использованием диалога и интервью представляет собой эффективный инструмент подготовки будущих специалистов в области международных отношений. Она обеспечивает интеграцию языковых и профессиональных навыков, способствует развитию коммуникативной и межкультурной компетенции и приближает учебный процесс к реальным условиям профессиональной деятельности. В условиях глобализации и усложнения международных коммуникаций данный подход становится не просто актуальным, но необходимым элементом современного образования.

Список использованной литературы.

1. Hymes, D. On communicative competence / D. Hymes // Sociolinguistics : Selected readings / eds. J. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth : Penguin, 1972. – P. 269–293.

2. Canale, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M. Canale, M. Swain // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.

3. Prabhu, N. S. Second Language Pedagogy / N. S. Prabhu. – Oxford : Oxford University Press, 1987. – 153 p. – ISBN 0-19-437084-4.

4. Willis, J. A Framework for Task-Based Learning / J. Willis. – Harlow : Longman, 1996. – 183 p. – ISBN 0-582-25973-8.

5. Willis, J. Doing Task-Based Teaching / J. Willis, D. Willis. – Oxford : Oxford University Press, 2007. – 232 p. – ISBN 978-0-19-442180-8.

6. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка / Департамент по языковой политике Совета Европы ; пер. с англ. – Москва : Изд-во МГЛУ, 2003. – 256 с.

7. Пассов, Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / Е. И. Пассов. – 2-е изд. – Москва : Просвещение, 1991. – 223 с.

8. Верещагин, Е. М. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного / Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Русский язык, 1990. – 246 с.

9. Щукин, А. Н. Обучение иностранным языкам: теория и практика : учебное пособие для преподавателей и студентов / А. Н. Щукин. – 4-е изд. – Москва : Филоматис : Омега-Л, 2010. – 480 с. – ISBN 978-5-98144-084-9.

10. Азимов, Э. Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. – Москва : Изд-во ИКАР, 2009. – 448 с. – ISBN 978-5-7974-0207-7.

Mehmonova Chinora Ro'ziboy qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistri

JADIDLAR TA'LIMOTIDA INSONPARVAR PEDAGOG TIMSOLI VA UNING IJTIMOIY REABILITATSIYADAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida insonparvar pedagog timsolining mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy hamda Munavvarqori Abdurashidxonovlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari asosida zamonaviy pedagog shaxsining asosiy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda insonparvarlik, axloqiy tarbiya, individual yondashuv va ijtimoiy moslashtirish tamoyillarining ijtimoiy reabilitatsiya jarayonidagi pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Maqolada jadidlar pedagogik merosining zamonaviy reabilitatsion pedagogika bilan uyg'un jihatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *jadid pedagogikasi, insonparvar pedagog, ijtimoiy reabilitatsiya, tarbiya, pedagogik yondashuv, ma'rifatparvarlik, gender yondashuv.*

ОБРАЗ ГУМАНИСТИЧЕСКОГО ПЕДАГОГА В УЧЕНИИ ДЖАДИДОВ И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В СОЦИАЛЬНОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется сущность образа гуманистического педагога в педагогических взглядах джадидских просветителей. На основе идей Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбуди и Мунавваркори Абдурашидханова о воспитании и образовании раскрываются основные качества современного педагога. В исследовании освещается педагогическое значение принципов гуманизма, нравственного воспитания, индивидуального подхода и социальной адаптации в процессе социальной реабилитации. Также научно обоснованы общие аспекты педагогического наследия джадидов и современной реабилитационной педагогики.*

Ключевые слова: *джадидская педагогика, гуманистический педагог, социалья нареабилитация, воспитание, педагогический подход, просветительство, гендерный подход.*

THE IMAGE OF A HUMANISTIC TEACHER IN JADIDIST TEACHINGS AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE IN SOCIAL REHABILITATION

Annotation. *This article analyzes the essence of the humanistic teacher image in the pedagogical views of Jadid enlighteners. Based on the educational ideas of Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, and Munavvarqori Abdurashidxonov, the main characteristics of a modern teacher are highlighted. The study reveals the pedagogical significance of humanism, moral education, individual approach, and social adaptation principles in the process of social rehabilitation. The article also scientifically substantiates the harmony between Jadid pedagogical heritage and modern rehabilitation pedagogy.*

Key words: *Jadid pedagogy, humanistic teacher, social rehabilitation, education, pedagogical approach, enlightenment, gender approach.*

Bugungi kunda inson shaxsini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash hamda jamiyatga moslashtirish masalalari pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlarida insonparvar pedagogik yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy pedagogika uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Jadid mutafakkirlari ta'lim va tarbiya masalasiga jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida yondashib, pedagog shaxsiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning qarashlarida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Abdulla Avloniy tarbiya masalasini inson hayotidagi eng muhim omillardan biri sifatida baholab,

“tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” deb ta’kidlaydi. Ushbu fikr jadidlar pedagogik qarashlarining insonparvarlik mohiyatini ochib beradi. Jadid pedagogikasida inson qadri, ma’naviy yetuklik va axloqiy tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z qarashlarida ilm-ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy vositasi sifatida ko‘rsatib, pedagog zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Jadidlarning fikricha, pedagog avvalo ma’naviy yetuk, adolatli va insonparvar bo‘lishi lozim. Chunki pedagogning shaxsiy fazilatlari ta’lim oluvchilarning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan jadidlar tomonidan ilgari surilgan pedagog timsoli bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida ham pedagog shaxsining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy reabilitatsiya insonni jamiyatga qayta moslashtirish, uning ma’naviy-ruhiy holatini tiklash hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda insonparvar pedagogik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bunday jarayonda pedagogning individual yondashuvi, empatiyasi va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashi shaxsning ijtimoiy tiklanishiga yordam beradi. Pedagog shaxsga bosim o‘tkazuvchi emas, balki uni tushunuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi kerak.

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan ma’naviy tarbiya tamoyillari bugungi reabilitatsion pedagogika uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ularning qarashlarida insonni tarbiyalash orqali jamiyatni o‘zgartirish mumkinligi alohida qayd etiladi. Jadidlar tarbiyada zo‘ravonlik va majburlash usullarini inkor etib, ongli tushuntirish va ma’rifat orqali ta’sir ko‘rsatishni ustuvor deb bilganlar. Bu esa zamonaviy insonparvar pedagogikaning asosiy tamoyillariga mos keladi. Jadid pedagogik merosini zamonaviy ijtimoiy reabilitatsiya kontekstida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tarbiya jarayonida shaxsning ichki motivatsiyasi va ma’naviy qadriyatlari asosiy omil sifatida qaralishi lozim. Insonni jamiyatga qayta moslashtirish faqat tashqi nazorat yoki tartib-intizom orqali emas, balki uning ongida ijobiy o‘zgarishlar hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jihatdan jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifat orqali isloh qilish g‘oyasi bugungi reabilitatsion pedagogikaning metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida pedagogning kasbiy kompetensiyalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagogdan nafaqat pedagogik bilim va ko‘nikmalar, balki psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetensiya hamda turli ijtimoiy guruhlar bilan ishlash qobiliyati talab etiladi. Ayniqsa, noqulay ijtimoiy muhitdan chiqqan shaxslar bilan ishlashda pedagogning bag‘rikengligi va sabr-toqati muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jihatlar jadidlar ilgari surgan ma’naviy yetuk ustoz modeliga hamohangdir. Zamonaviy ta’lim tizimida reabilitatsion pedagogika va inklyuziv yondashuv o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Har ikkala yo‘nalishda ham shaxsni kamsitmasdan, uning imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Jadid pedagogikasida ham ta’lim oluvchini ijtimoiy kelib chiqishi yoki holatiga qarab ajratmaslik, balki uni jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida shakllantirish g‘oyasi ilgari surilgan. Bundan tashqari, reabilitatsion jarayonlarda ma’naviy tarbiya bilan bir qatorda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Shaxsning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi uning muloqot madaniyati, mehnat ko‘nikmalari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga bog‘liqdir. Bu jarayonda pedagogik ta’sirning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi samaradorlikni oshiradi. Jadidlar merosini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ular ta’limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsni ma’naviy jihatdan qayta qurish vositasi sifatida talqin etganlar. Ushbu yondashuv bugungi kunda reabilitatsion pedagogika, korraksion ta’lim va ijtimoiy pedagogika yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topmoqda. Shu bois jadid pedagogik qarashlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb metodologik asos bo‘lib qolmoqda.

Reabilitatsion pedagogika jarayonida shaxsning ijtimoiy rolni qayta o‘zlashtirishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u faqat xulq-atvorni o‘zgartirish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning o‘z-o‘zini anglash darajasini ham sifat jihatdan yangilashni talab etadi. Shu jihatdan pedagogik faoliyat shaxsning ichki resurslarini faollashtirish, uning mavjud imkoniyatlarini aniqlash va ijtimoiy jihatdan maqbul yo‘nalishga yo‘naltirishga qaratilishi lozim. Bunda kognitiv (bilish) va affektiv (hissiy) sohalarning o‘zaro bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, faqat bilim berishga asoslangan yondashuv reabilitatsiya samaradorligini to‘liq ta’minlay

olmaydi. Shaxsda ijobiy emotsional holatni shakllantirish, o‘ziga ishonchni oshirish va kelajakka nisbatan istiqbol hissini kuchaytirish pedagogik ta’sirning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuningdek, reabilitatsion jarayonning samaradorligi uzluksizlik va tizimlilik tamoyillariga bevosita bog‘liqdir. Pedagogik ta’sirning qisqa muddatli yoki epizodik ko‘rinishi shaxs xulqida barqaror o‘zgarishlarni ta’minlamaydi. Shu bois reabilitatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, har bir bosqichda esa natijalar monitoring qilinishi va qayta tahlil etilishi zarur. Ijtimoiy muhit omili ham reabilitatsiya jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shaxsning xulq-atvori ko‘p hollarda u mansub bo‘lgan referent guruhlar ta’siri ostida shakllanadi. Shu sababli pedagogik jarayonda ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish, salbiy stereotiplarni kamaytirish va konstruktiv muloqot madaniyatini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Reabilitatsiya jarayonida qadriyatlar tizimini qayta shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Shaxsning axloqiy me’yorlar, ijtimoiy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch haqidagi tasavvurlari uning kelajakdagi xulqini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyat qadriyatlar bilan ishlashga, ularni ongli ravishda shakllantirishga va ichkilashtirishga yo‘naltiriladi. Zamonaviy yondashuvlarda shaxs reabilitatsiya jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Bu yondashuvga ko‘ra, shaxs o‘z o‘zgarish jarayonining bevosita ishtirokchisi bo‘lib, qaror qabul qilishda va o‘z rivojlanish yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi. Pedagog esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va metodik yordam ko‘rsatuvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi.

Reabilitatsion pedagogika jarayonida shaxsning ijtimoiy rolni qayta o‘zlashtirishi, xulq-atvorini qayta strukturaviy tashkil etishi va jamiyatga moslashuvi murakkab pedagogik tizim sifatida qaraladi. Bu jarayon faqat tashqi intizomni shakllantirish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki qaror qabul qilish mexanizmlarini o‘zgartirish, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va mas’uliyatli tanlov qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan reabilitatsion yondashuvda kognitiv qayta qurish, motivatsion rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichlari muhim o‘rin tutadi.

Abstract. *In the rapidly evolving landscape of global communication, the interaction between media discourse, pragmatics, and pragmalinguistics has become a central topic in linguistic research. This extended thesis aims to integrate these three interrelated domains in order to provide a comprehensive understanding of how meaning is constructed, interpreted, and strategically manipulated in contemporary communication, particularly within media contexts.*

Media discourse represents a highly influential form of language use that not only transmits information but also shapes public perception, constructs social realities, and reinforces ideological frameworks. Pragmatics, as a theoretical discipline, offers essential tools for analyzing how meaning is derived from context, going beyond the literal interpretation of linguistic expressions. Pragmalinguistics, in turn, focuses on the specific linguistic resources and structures that speakers employ to perform communicative acts effectively.

This study explores how these fields intersect and complement each other in explaining communication processes, with particular emphasis on pragmatic strategies such as implicature, presupposition, speech acts, framing, and politeness. It argues that a combined approach allows for a deeper and more nuanced understanding of language use in modern society.

Key words: *media discourse, pragmatics, pragmalinguistics, discourse analysis, communication strategies, implicature, presupposition, speech acts, framing, politeness theory, ideological representation.*

РОЛЬ ПРАГМАТИКИ, ПРАГМАЛИНГВИСТИКИ И МЕДИАДИСКУРСА В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В условиях стремительно развивающегося глобального коммуникативного пространства взаимодействие медиадискурса, прагматики и прагмалингвистики стало одной из центральных тем лингвистических исследований. Данная расширенная работа направлена на интеграцию этих трёх взаимосвязанных областей с целью обеспечения комплексного понимания того, как значение конструируется, интерпретируется и стратегически манипулируется в современной коммуникации, особенно в медиаконтексте.*

Медиадискурс представляет собой высоко влиятельную форму использования языка, которая не только передаёт информацию, но и формирует общественное восприятие, конструирует социальные реальности и укрепляет идеологические рамки. Прагматика как теоретическая дисциплина предоставляет важные инструменты для анализа того, как значение выводится из контекста, выходя за пределы буквального понимания языковых выражений. Прагмалингвистика, в свою очередь, сосредоточена на конкретных языковых средствах и структурах, которые говорящие используют для эффективного осуществления коммуникативных актов.

Данное исследование рассматривает, как эти области пересекаются и дополняют друг друга в объяснении коммуникативных процессов, с особым акцентом на прагматические стратегии, такие как импликатура, пресуппозиция, речевые акты, фрейминг и вежливость. Утверждается, что комплексный подход позволяет достичь более глубокого и многогранного понимания использования языка в современном обществе.

Ключевые слова: *медиадискурс, прагматика, прагмалингвистика, дискурс-анализ, коммуникативные стратегии, импликатура, пресуппозиция, речевые акты, фрейминг, теория вежливости, идеологическая репрезентация.*

Introduction. Language is a fundamental tool for human interaction, but its function extends far beyond the transmission of information. In real-life communication, meaning is not simply encoded in words and sentences; rather, it is dynamically constructed through context, intention, and social interaction. This perspective lies at the heart of pragmatics and its related field, pragmalinguistics.

At the same time, media discourse has emerged as one of the most powerful domains of language use in the modern world. Through newspapers, television, and digital platforms, media influences how individuals perceive events, form opinions, and interact with others. The integration of pragmatics and media discourse analysis provides valuable insights into how language operates in these contexts.

The concept of pragmatics was significantly developed by H. P. Grice, who introduced the Cooperative Principle and the theory of implicature, emphasizing that speakers often convey meanings indirectly. Similarly, John Searle highlighted that language is a form of action, not just a system of representation. These foundational theories are essential for understanding how communication functions both in everyday interaction and in media discourse.

This thesis seeks to synthesize these perspectives by examining how pragmatic principles and pragmalinguistic tools are employed in media communication to construct meaning and influence audiences.

Theoretical Integration of Pragmatics and Media Discourse

Pragmatics provides a framework for understanding how meaning is shaped by context, including situational, social, and cultural factors. In media discourse, context plays a crucial role in determining how messages are interpreted. Media texts are not isolated linguistic units; they are embedded within broader social and ideological frameworks.

Pragmalinguistics contributes to this analysis by focusing on the linguistic forms used to express communicative intentions. These include sentence structures, lexical choices, discourse markers, and stylistic devices. Together, pragmatics and pragmalinguistics allow researchers to analyze both the “how” and the “why” of communication.

Media discourse, therefore, can be seen as a practical application of pragmatic principles. It relies heavily on indirectness, implied meaning, and strategic language use to achieve its communicative goals. This makes it an ideal domain for studying the interaction between language, meaning, and society.

Pragmatic Strategies in Media Communication

One of the key connections between these fields is the use of pragmatic strategies in media discourse. These strategies enable media producers to convey messages effectively while shaping audience interpretation.

Implicature is widely used in media texts to communicate meanings indirectly. By implying rather than stating information explicitly, media can influence audience perception while maintaining a degree of ambiguity.

Presupposition allows media to present certain ideas as given or unquestionable. This can subtly shape beliefs and attitudes without overt persuasion.

Speech acts, as described by John Searle, play a crucial role in media communication. News reports often use assertive acts to present information as factual, while editorials and advertisements may use directive or expressive acts to influence opinions and behavior.

Framing is another important strategy that determines how information is presented. By selecting certain aspects of a story and emphasizing them, media can shape how events are understood.

Politeness strategies, developed by Penelope Brown and Stephen C. Levinson, are used to maintain social harmony and manage relationships, particularly in interviews and political discourse.

These strategies demonstrate how pragmalinguistic tools are used in media discourse to achieve communicative goals.

The Role of Ideology and Power

An important aspect of media discourse is its relationship with ideology and power. Language is not neutral; it reflects and reinforces social structures and power relations. Media discourse often presents information in ways that support particular viewpoints or interests.

From a pragmatic perspective, this involves the strategic use of language to guide interpretation and influence beliefs. For example, framing, lexical choice, and presupposition can all be used to promote certain ideologies.

Understanding these mechanisms is essential for developing critical awareness and media literacy. It allows individuals to recognize how language is used to shape perceptions and influence decision-making.

Implications for Language Learning and Communication

The integration of pragmatics, pragmalinguistics, and media discourse has important implications for language education. In many cases, language learners focus on grammar and vocabulary but lack pragmatic competence. This can lead to misunderstandings and ineffective communication.

By incorporating pragmatic and media discourse analysis into language teaching, educators can help learners develop the ability to interpret implied meanings, use appropriate communication strategies, and understand cultural differences.

This is particularly important in the context of English as a global language, where communication often occurs between speakers from different cultural backgrounds.

Conclusion

In conclusion, the integration of pragmatics, pragmalinguistics, and media discourse provides a comprehensive framework for understanding modern communication. These fields collectively demonstrate that meaning is not fixed or purely linguistic but is dynamically constructed through context, interaction, and communicative intention.

Media discourse serves as a powerful example of how language can be used strategically to inform, persuade, and influence audiences. Pragmatics explains how meaning is interpreted in context, while pragmalinguistics identifies the linguistic tools used to achieve communicative goals.

Together, they offer valuable insights into the relationship between language, society, and power. In an increasingly media-driven world, understanding these concepts is essential for both effective communication and critical engagement with information.

References.

1. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and semantics / P. Cole, J. L. Morgan (Eds.). – New York : Academic Press, 1975. – Vol. 3. – P. 41–58.

2. Searle J. R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge : Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

3. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge : Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

4. Yule G. Pragmatics. – Oxford : Oxford University Press, 1996. – 138 p.

5. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge : Cambridge University Press, 1983. – 420 p.

6. van Dijk T. A. Ideology: A multidisciplinary approach. – London : Sage Publications, 1998. – 384 p.

7. Fairclough N. Critical discourse analysis: The critical study of language. – 2nd ed. – London : Routledge, 2013. – 608 p.

8. Maingueneau D. Discourse and analysis. – London : Bloomsbury, 2014. – 208 p.

9. Culpeper J. Impoliteness: Using language to cause offence. – Cambridge : Cambridge University Press, 2011. – 292 p.

10. Jucker A. H., Taavitsainen I. English historical pragmatics. – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2013. – 240 p.

Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich
Namangan davlat universiteti doktoranti
E-mail: mbannayev92@gmail.com

O‘SPIRINLIK DAVRIDA DEPRESSIV HOLATLAR NAMOYON BO‘LISH DARAJASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada o‘spirinlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasi hamda ularning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida William W. K. Zung tomonidan ishlab chiqilgan Zung depressiya shkalasi (SDS) metodikasidan foydalanilib, o‘spirinlarda depressiv simptomlarning ifodalanish darajasi empirik jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot natijalari o‘spirinlarning ma’lum qismida yengil va o‘rta darajadagi depressiv simptomlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, depressiv holatlarning emotsional tushkunlik, xavotir, psixologik zo‘riqish, ijtimoiy passivlik hamda motivatsion pasayish bilan bog‘liqligi aniqlandi. Olingan natijalar o‘spirinlar ruhiy salomatligini muhofaza qilish va psixoprofilaktik ishlarni tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *o‘spirinlik davri, depressiv simptomlar, depressiv holat, ruhiy salomatlik, emotsional tushkunlik, psixodiagnostika, Zung depressiya shkalasi, affektiv buzilishlar.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION LEVEL OF DEPRESSIVE STATES IN ADOLESCENCE

Abstract. *This scientific article analyzes the level and psychological characteristics of depressive symptoms among adolescents. During the study, the William W. K. Zung Zung Self-Rating Depression Scale (SDS) was used to empirically assess the severity of depressive symptoms in adolescents. The findings revealed that a certain proportion of adolescents demonstrated mild and moderate levels of depressive symptoms. In addition, depressive conditions were found to be associated with emotional distress, anxiety, psychological tension, social passivity, and decreased motivation. The obtained results have important scientific and practical significance for the protection of adolescent mental health and the organization of psychoprophylactic interventions.*

Key words: *adolescence, depressive symptoms, depressive state, mental health, emotional distress, psychodiagnostics, Zung Depression Scale, affective disorders.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ УРОВНЯ ДЕПРЕССИВНЫХ СОСТОЯНИЙ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной научной статье проанализированы уровень проявления депрессивных симптомов у подростков и их психологические особенности. В ходе исследования для эмпирического изучения степени выраженности депрессивных симптомов была использована шкала депрессии Зунга (SDS), разработанная William W. K. Zung. Результаты исследования показали наличие у определённой части подростков лёгких и умеренных депрессивных симптомов. Также было установлено, что депрессивные состояния связаны с эмоциональной подавленностью, тревожностью, психологическим напряжением, социальной пассивностью и снижением мотивации. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для сохранения психического здоровья подростков и организации психопрофилактической работы.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, депрессивные симптомы, депрессивное состояние, психическое здоровье, эмоциональная подавленность, психодиагностика, шкала депрессии Зунга, аффективные расстройства.*

Kirish. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, depressiya global miqyosda mehnatga layoqatsizlik va funksional cheklanishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi hamda dunyo bo‘yicha 280 milliondan ortiq inson ushbu ruhiy buzilishdan aziyat chekadi [1].

Ayniqsa, o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortishi kuzatiladi. O‘spirinlik davri (taxminan 14–18 yosh) shaxsning biologik, emotsional, ijtimoiy hamda kognitiv jihatdan intensiv rivojlanish bosqichi bo‘lib, mazkur davrda ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar alohida psixologik ahamiyat kasb etadi [2].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida bolalar va o‘spirinlar ruhiy salomatligi masalasiga e’tibor kuchaymoqda. Zamonaviy psixologik va psixiatrik tadqiqotlar o‘spirinlar orasida depressiv simptomlarning uchrash chastotasi ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda [3]. Depressiv simptomlar o‘spirinlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ faolligi hamda o‘quv motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasini empirik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Psixologiya fanida depressiv holatlarni tushuntirishga qaratilgan turli nazariy yondashuvlar mavjud. Xususan, biologik model depressiv buzilishlarni neyrotransmitterlar faoliyatidagi buzilishlar bilan izohlasa [4], biopsixososial yondashuv depressiv simptomlarning biologik, psixologik va ijtimoiy omillar integratsiyasi natijasida yuzaga kelishini ta’kidlaydi [5]. Mazkur yondashuv o‘spirinlik davridagi depressiv simptomlarni tushuntirishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu yosh bosqichida biologik yetilish, emotsional sezgirlik va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari parallel ravishda rivojlanadi.

Depressiv simptomlarni izohlashda kognitiv-xulq-atvor yondashuvi ham alohida o‘rin egallaydi. Aaron T. Beck ning kognitiv nazariyasiga ko‘ra, depressiv holatlarning asosida salbiy avtomatik fikrlar, disfunksional e’tiqodlar hamda kognitiv distorsiyalar yotadi [6]. Beckning “kognitiv triada” konsepsiyasiga muvofiq, depressiv shaxs o‘zini qadrsiz, atrof-muhitni dushmanona va kelajakni umidsiz deb qabul qiladi. Mazkur salbiy kognitiv sxemalar o‘spirinlik davrida emotsional tushkunlik va psixologik zo‘riqishning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, Abramson, Seligman va Teasdale tomonidan ishlab chiqilgan “o‘rganilgan nochorlik” nazariyasi ham depressiv simptomlarning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi [7]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs salbiy hayotiy vaziyatlarga ta’sir qila olmasligini his qilganida passivlik, umidsizlik va emotsional tushkunlik rivojlanadi. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy bosim yoki emotsional zo‘riqish kabi omillar depressiv simptomlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlar o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning emotsional tushkunlik, xavotir, psixologik zo‘riqish, motivatsion pasayish va ijtimoiy passivlik bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatmoqda [8]. Ayrim tadqiqotlarda esa ijtimoiy tarmoqlar, akademik bosim va emotsional stress omillari o‘spirinlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan [9].

Shu nuqtayi nazardan, o‘spirinlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasini empirik jihatdan o‘rganish, ularning psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ruhiy salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan

Depressiv simptomlar muammosi zamonaviy psixologiya va psixiatriya fanlarining eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning namoyon bo‘lishi shaxsning emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sababli ushbu muammo ko‘plab ilmiy tadqiqotlar markazida turadi.

Depressiyani tushuntirishga qaratilgan dastlabki ilmiy yondashuvlardan biri biologik model hisoblanadi. Mazkur modelga ko‘ra, depressiv buzilishlarning rivojlanishi serotonin, dopamin va norepinefrin kabi neyrotransmitterlar faoliyatidagi disbalans bilan bog‘liqdir [4]. Goodwin va Jamison tomonidan olib borilgan tadqiqotlar affektiv buzilishlarning biologik mexanizmlarini o‘rganish psixofarmakologik davolash usullarini rivojlantirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilganligini ko‘rsatadi.

Biroq zamonaviy ilmiy qarashlarda depressiyani faqat biologik omillar bilan izohlash yetarli emasligi ta’kidlanadi. Shu sababli biopsixososial model keng qo‘llaniladigan nazariy yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi [5]. Mazkur model biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro integrativ ta’siri natijasida depressiv simptomlar shakllanishini asoslaydi. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida biologik yetilish, emotsional o‘zgarishlar va ijtimoiy moslashuv jarayonlari parallel rivojlangani sababli biopsixososial yondashuv mazkur yosh bosqichini tushuntirishda samarali hisoblanadi.

Depressiv simptomlarni tushuntirishda kognitiv-xulq-atvor yondashuvi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Aaron T. Beck hamda Albert Ellis tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarga ko‘ra, depressiv holatlarning asosida salbiy avtomatik fikrlar, disfunksional e’tiqodlar va irratsional kognitiv sxemalar yotadi [6]. Kognitiv yondashuvga muvofiq, shaxsning o‘zini qadrsiz deb his qilishi, kelajakka nisbatan pessimistik munosabati va emotsional nochorlik hissi depressiv simptomlarning rivojlanishiga olib keladi.

Abramson, Seligman va Teasdale tomonidan ishlab chiqilgan “o‘rganilgan nochorlik” nazariyasi ham depressiv simptomlarni tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi [7]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs salbiy vaziyatlarni nazorat qila olmasligini his qilganida passivlik va umidsizlik shakllanadi. O‘spirinlik davrida esa emotsional sezgirlikning yuqoriligi sababli bunday psixologik reaksiyalar kuchliroq namoyon bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘spirinlarda depressiv simptomlarning emotsional tushkunlik, xavotir, motivatsion pasayish, ijtimoiy passivlik hamda psixologik zo‘riqish bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatmoqda [8]. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar, kiberbulling, akademik bosim va emotsional stressning o‘spirin ruhiy salomatligiga salbiy ta’siri ham zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda [9].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning shakllanishi murakkab biopsixososial mexanizmlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur muammoni kompleks psixologik yondashuv asosida empirik o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda Namangan davlat pedagogika institutining 42 nafar 2-kurs talalabalri ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida o‘spirinlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash maqsadida V. Zungning depressiyani o‘z-o‘zini baholash shkalasi metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika depressiv holatlarning subyektiv ifodalanish darajasini baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, klinik va noklinik populyatsiyalarda keng qo‘llaniladi.

Shkala 20 ta bayondan iborat bo‘lib, respondentlar har bir bayon bo‘yicha o‘z emotsional holatini 4 ballik Likert tizimi asosida baholaydilar. Metodika yordamida affektiv, kognitiv, somatik va psixomotor simptomlarning ifodalanish darajasi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda metodika o‘spirinlarning depressiv kayfiyat darajasini aniqlash hamda yaqin interpersonal munosabatlarning psixologik ta’sirini empirik jihatdan tahlil qilish maqsadida qo‘llanildi.


Natijalar. Tadqiqot davomida William W. K. Zung tomonidan ishlab chiqilgan Zung depressiya shkalasi (SDS) yordamida o‘spirinlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasi o‘rganildi. Empirik tahlilda jami 42 nafar respondent ishtirok etdi.

Deskriptiv statistik tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning o‘rtacha depressiya ko‘rsatkichi 36,3 ballni tashkil etdi (SD=5,70). Minimal ko‘rsatkich 22 ballni, maksimal ko‘rsatkich esa 54 ballni tashkil etdi.1-JADVAL. O‘spirinlarda depressiv simptomlarning deskriptiv statistik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Natija
Respondentlar soni (N)	42
O‘rtacha yosh	20,3
Minimal ball	22
Maksimal ball	54
O‘rtacha depressiya balli	36,3
Standart og‘ish	5,70

Standart og‘ish ko‘rsatkichining 5,70 ni tashkil etishi respondentlar natijalarining o‘rtacha darajada tarqalganligini hamda tanlanmada keskin differensial tafovutlar mavjud emasligini ko‘rsatadi. Mazkur natija empirik ma’lumotlarning statistik jihatdan barqaror ekanligini anglatadi.

Depressiv simptomlar darajasi bo‘yicha tahlil natijalari respondentlarning 81,0 foizida depressiv holat normal diapazonda ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, 16,7 foiz respondentda depressiv simptomlarning mavjudligi, 2,4 foiz respondentda esa yuqori darajadagi depressiv holat qayd etildi. Olingan natijalar quyidagi holatda aks etdi



Mazkur natijalar o‘spirinlik davrida ayrim respondentlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish ehtimoli mavjudligini hamda ruhiy salomatlikka oid psixoprofilaktik ishlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning namoyon bo‘lishi zamonaviy psixologiya fanida dolzarb muammolardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Empirik tahlillar respondentlarning aksariyat qismida depressiv simptomlar past darajada ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ma’lum qism o‘spirinlarda yengil va yuqori darajadagi depressiv holatlarning mavjudligi aniqlandi. Bu esa o‘spirinlik davrining emotsional jihatdan sezgir va psixologik xavf omillariga boy rivojlanish bosqichi ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida respondentlarning 16,7 foizida depressiv simptomlarning mavjudligi, 2,4 foizida esa yuqori darajadagi depressiv holat qayd etildi. Mazkur natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ma’lum darajada mos keladi. Xususan, Aaron T. Beck ning kognitiv nazariyasiga ko‘ra, depressiv simptomlarning shakllanishida salbiy emotsional tajribalar, disfunksional fikrlash tizimi va psixologik stress muhim rol o‘ynaydi. O‘spirinlik davrida esa shaxsning o‘zini anglash jarayoni faol shakllanishi sababli emotsional zo‘riqishlarga sezgirlik kuchayadi.

Tadqiqot natijalari respondentlarning asosiy qismida depressiv simptomlar klinik darajaga yetmaganligini ko‘rsatdi. Bu holat o‘spirinlarning katta qismi psixologik jihatdan nisbatan moslashganligini anglatadi. Shu bilan birga, depressiv simptomlarning ayrim respondentlarda uchrashi o‘spirinlar ruhiy salomatligini muntazam monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Jinsiy tafovut bo‘yicha olingan natijalarda erkak respondentlarda depressiv simptomlarning o‘rtacha ko‘rsatkichi ayol respondentlarga nisbatan biroz yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Biroq mazkur tafovut statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi. Bu holat tadqiqot tanlanmasining nisbatan kichikligi hamda yosh oralig‘ining bir-biriga yaqinligi bilan izohlanishi mumkin. Zamonaviy ilmiy

adabiyotlarda ko‘pincha ayol o‘spirinlarda depressiv simptomlar yuqoriroq uchrashi qayd etiladi, biroq ayrim tadqiqotlarda gender tafovutining kuchsizligi ham kuzatiladi.

Yosh va depressiv simptomlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ham muhim ilmiy jihatlardan biridir. Mazkur natija depressiv simptomlarning shakllanishida biologik yoshdan ko‘ra individual psixologik xususiyatlar, emotsional barqarorlik, oilaviy muhit va ijtimoiy omillar muhimroq rol o‘ynashi mumkinligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari o‘spirinlik davrida emotsional tushkunlik, xavotir, motivatsion pasayish va psixologik zo‘riqish elementlari uchrashi mumkinligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, yuqori depressiv ko‘rsatkich qayd etilgan respondentlarda psixologik yordam va psixoprofilaktik ishlarning zarurligi kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, o‘spirinlarning emotsional holatini diagnostika qilish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalarning xalqaro tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlili

Olingan empirik natijalar xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda ma'lum darajada o'xshashliklarni namoyon etadi. Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamda so‘nggi yillarda olib borilgan epidemiologik tadqiqotlarda o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning uchrash chastotasi tobora ortib borayotgani qayd etilgan. Tadqiqotimizda respondentlarning aksariyat qismida depressiv simptomlar me'yoriy diapazonda qayd etilgan bo‘lsada, ayrim ishtirokchilarda yengil va yuqori darajadagi depressiv holatlarning aniqlanishi xalqaro kuzatuvlar bilan mos keladi.

Mazkur natijalar o‘spirinlik davrida emotsional zo‘riqishning individual xususiyatlarga, oilaviy muhitga, tengdoshlar bilan munosabatlarga hamda ta'lim jarayonidagi psixologik bosimga bog‘liqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli kommunikatsiya vositalaridan intensiv foydalanish, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, kiberbulling va akademik yuklamaning ortishi depressiv simptomlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda e'tirof etilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari biopsixososial modelning nazariy qoidalarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ya'ni depressiv simptomlarning shakllanishi faqat biologik omillar bilan emas, balki psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta'siri bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan emotsional tushkunlik, motivatsion pasayish va ijtimoiy passivlik ko‘rsatkichlari aynan mazkur nazariy yondashuvning amaliy tasdig‘i sifatida baholanishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida psixologik monitoring tizimini takomillashtirish zarurligini ham ko‘rsatadi. O‘spirinlarning ruhiy salomatligini muntazam baholab borish, depressiv simptomlarni erta aniqlash hamda individual psixologik yordam ko‘rsatish kelgusida affektiv buzilishlarning og‘irlashuvining oldini olish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, psixologik diagnostika natijalarini profilaktik va korreksion dasturlar bilan uyg‘unlashtirish o‘spirinlarning ruhiy farovonligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, respondentlar sonining nisbatan kamligi hamda tadqiqotning faqat bitta psixodiagnostik metodika asosida olib borilgani natijalarni umumlashtirish imkoniyatini ma’lum darajada cheklaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda katta tanlanma asosida ko‘p metodikali va longitudinal yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan empirik natijalar o‘spirinlik davrida depressiv simptomlarning ma’lum darajada uchrashini tasdiqlaydi hamda ruhiy salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan psixoprofilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida o‘spirinlarda depressiv simptomlarning namoyon bo‘lish darajasi empirik jihatdan o‘rganildi hamda olingan natijalar statistik tahlil asosida ilmiy jihatdan interpretatsiya qilindi. Tadqiqotda William W. K. Zung tomonidan ishlab chiqilgan Zung depressiya shkalasi (SDS) metodikasidan foydalanildi.

Empirik tahlil natijalari respondentlarning aksariyat qismida depressiv simptomlar normal diapazonda ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, respondentlarning ma’lum qismida yengil va yuqori darajadagi depressiv simptomlarning mavjudligi qayd etildi. Bu holat o‘spirinlik davrida emotsional beqarorlik, psixologik zo‘riqish va affektiv tushkunlik elementlari uchrashi mumkinligini ko‘rsatadi. Deskriptiv statistik tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning o‘rtacha depressiya ko‘rsatkichi

me'yoriy diapazonda bo'lib, standart og'ish qiymatining normal darajada ekanligi ma'lumotlarning statistik jihatdan barqarorligini tasdiqladi. Minimal va maksimal qiymatlar orasidagi tafovut respondentlarda depressiv simptomlarning turli darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Jins va yosh omillarining tahlili natijasida depressiv simptomlarning namoyon bo'lishida statistik jihatdan sezilarli tafovut aniqlanmadi. Bu holat tadqiqot tanlanmasida depressiv simptomlarning individual-psixologik omillar bilan ko'proq bog'liq bo'lishi mumkinligini anglatadi. Tadqiqot natijalari o'spirinlik davrida ruhiy salomatlikni muhofaza qilish, depressiv simptomlarni erta diagnostika qilish hamda psixoprofilaktik ishlarni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish hamda o'spirinlarning emotsional holatini muntazam monitoring qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu natijadan kelib chiqqan holda taa'lim muassasalarida o'spirinlarning ruhiy salomatligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish , o'spirinlarda depressiv simptomlarni erta aniqlash uchun psixodiagnostik metodikalardan muntazam foydalanish, ta'lim muassasalari tomonidan emotsional zo'riqish, xavotir va depressiv simptomlarning profilaktikasiga qaratilgan psixoprofilaktik treninglar tashkil etish hamda ota-onalar uchun o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlariga oid psixologik-pedagogik seminarlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari o'spirinlarning emotsional holatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish, o'spirinlarda depressiv simptomlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi oilaviy, ijtimoiy va individual-psixologik omillarni chuqurroq o'rganish qolaversa ruhiy salomatlik bo'yicha psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot va profilaktik dasturlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. World Health Organization. Depression fact sheet. – Geneva: WHO, 2023.
2. Steinberg L. Adolescence. – New York: McGraw-Hill Education, 2017. – 608 p.
3. Thapar A., Collishaw S., Pine D.S., Thapar A.K. Depression in adolescence // The Lancet. – 2012. – - Vol . 379. – №9820 –P. 1056–1067.
4. Goodwin F.K., Jamison K.R. Manic-Depressive Illness: Bipolar Disorders and Recurrent Depression. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 1262 p.
5. Engel G.L. The need for a new medical model: A challenge for biomedicine // Science. – 1977. – Vol. 196. – №4286. – P. 129–136.
6. Beck A.T. Depression: Causes and Treatment. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1967. – 370 p.
7. Abramson L.Y., Seligman M.E.P., Teasdale J.D. Learned helplessness in humans: Critique and reformulation // Journal of Abnormal Psychology. – 1978. – Vol. 87. – №1. – P. 49–74.
8. Mufson L., Dorta K.P., Moreau D., Weissman M.M. Interpersonal Psychotherapy for Depressed Adolescents. – New York: Guilford Press, 2004. – 289 p.
9. Twenge J.M., Joiner T.E., Rogers M.L., Martin G.N. Increases in depressive symptoms among adolescents after 2010 and links to screen time // Clinical Psychological Science. – 2018. – Vol. 6. – №1. – P. 3–17.
10. M.S.Bannayev. O'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari. (2025). Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(3).

Ablyakimova Refide Izmerovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta'lim menejmenti kafedra katta o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA XOTIN-QIZLARNING LIDERLIK VA BOSHQARUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlarning boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishda gender tenglik, pedagogik muhit, innovatsion ta'lim texnologiyalari va ijtimoiy faollikning o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar tahlili asosida talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning samarali usullari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *gender tenglik, liderlik, boshqaruv kompetensiyasi, talaba-qizlar, pedagogik mexanizm, ijtimoiy faollik, ta'lim jarayoni.*

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ И УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ЖЕНЩИН В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В данной статье проанализированы социально-педагогические механизмы развития лидерских и управленческих навыков женщин в образовательном процессе. Также освещена роль гендерного равенства, педагогической среды, инновационных образовательных технологий и социальной активности в формировании управленческих компетенций женщин. В ходе исследования на основе анализа научных источников были определены эффективные методы подготовки студенток к управленческой деятельности.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, лидерство, управленческая компетенция, студентки, педагогический механизм, социальная активность, образовательный процесс.*

SOCIO-PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING LEADERSHIP AND MANAGEMENT SKILLS AMONG WOMEN IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *This article analyzes the socio-pedagogical mechanisms for developing leadership and managerial skills of women in the educational process. It also highlights the role of gender equality, pedagogical environment, innovative educational technologies, and social activity in the formation of women's managerial competencies. During the research, effective methods for preparing female students for managerial activities were identified based on the analysis of scientific sources.*

Key words: *gender equality, leadership, managerial competence, female students, pedagogical mechanism, social activity, educational process.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va demokratik tamoyillarning rivojlanishi natijasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli ta'lim tizimida xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni boshqaruv faoliyatiga keng jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulushini oshirish, ularning rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Ta’lim jarayoni shaxsning ijtimoiylashuvi va liderlik sifatlarini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talaba-qizlarda tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ madaniyat, jamoani boshqarish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar yuqori samaradorlikka ega. Jumladan, Rossiyada “Ayol – Lider” dasturi, Yevropa davlatlaridagi gender tenglik strategiyalari hamda BMTning ayollar huquqlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslari xotin-qizlarning rahbarlik faoliyatidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mazkur jarayonning pedagogik mexanizmlarini chuqur ilmiy asoslash zarurati mavjud. Shu jihatdan mazkur tadqiqot xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Metodologiya. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotning nazariy asosini xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, gender tenglik, liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga oid falsafiy, pedagogik va sotsiologik ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Xususan, X.O.Shayxova, N.R.Nishonova, T.K.Narbayeva, M.K.G‘afforova, M.P.Ergasheva va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Tadqiqotda xotin-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi, pedagogik muhit va ijtimoiy omillarning ta’siri o‘rganildi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talaba-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan mavjud dasturlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bir qator ijtimoiy-pedagogik omillarga bog‘liq.

Birinchidan, ta’lim jarayonida gender tenglik tamoyillarining samarali joriy etilishi talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Gender tenglikka asoslangan pedagogik muhit qizlarning o‘z salohiyatini erkin namoyon etishiga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, liderlik kompetensiyalarini shakllantirishda kommunikativ madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida talaba-qizlarning jamoa bilan ishlash, nutq madaniyati, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishi aniqlandi.

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan “Qizlarjon” klublari, mentorlik tizimi va trening mashg‘ulotlari qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

To‘rtinchidan, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi xotin-qizlarning liderlik salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya qizlarda mas’uliyat, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikni shakllantiradi.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish talaba-qizlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish va muammoli vaziyatlarni modellashtirish liderlik sifatlarini shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari davlat va jamiyat boshqaruvida ayollar ulushining ortib borayotganini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda rahbarlikka tayyorlanayotgan xotin-qizlar zaxirasining ko‘payishi mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik muhitning o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur.

Bugungi kunda xotin-qizlarning rahbarlik faoliyatidagi ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ta’lim tizimida talaba-qizlarning boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligini kuchaytirish zarur.

Olimlarning ilmiy qarashlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, Jumladan, faylasuf olima X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida o‘zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlari, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni masalalari, markaziy o‘rinda turadi.

X.O.Shayxova zamonaviy ayollarni ijtimoiy faoligini oshirib borayotgani tadqidlagan xolda “Biror soha yuqki, - ayol o‘z bilimi faolligi, iste’dodini namoyon qilmasin. Mulkdorlar sinfi vakili, tadbirkor, fermer, kichik va ko‘shma korxona sohibi, tijoratchi, biznes va menejer kabi kasb egalari yoki mudofaa va huquq-tartibot soxasida minglab iqtidorli, saloxiyatli, akl-zakovatda uktam ayollarning faoliyat ko‘rsatishi shakllanayotgan fuqarolik jamiyatimiz uchun oddiy holdir” degan xulosaga keladi.[1]

N.R.Nishonova o‘z tadqiqotlarda davlat organlari rahbarlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligiga rioya etilishi bilan davlat organlarining rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishda teng huquqlilikni, ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq ta’minlash orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi. [2]

A.A.Huseynova ayollarning davlat boshqaruv va siyosiy partiyalar faoliyatidagi ishtiroki, ular ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o‘rni masalalarini o‘rganadi. Uning xulosasiga ko‘ra, davlat boshqaruv tepasida “asosan erkaklar turishibdi. Shuning uchun “ayollar masalasi”dagi eng murakkab va turli qarama-qarshi yondashuvlarni keltirib chiqarayotgan muammo ham xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvda keng ishtirok etishiga erishishda” muhim ekanligini deb ta’qidlaydi.[3]

M.A.Karimova tomonidan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida, xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashning qaror topish yo‘llari, uning davlat qonunlari bilan mustahkamlanishi zarur degan xulosaga keladi.[4]

Sotsiolog T.K.Narbayeva o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli tahliliga to‘xtalar ekanmiz shunday deydi: Xotin-qizlarning bilim olish, kasb tanlash, lavozimga ko‘tarilishda erkaklar bilan ayollarga bir xil imkoniyatlar yaratilishi orqali gender tenglikning hayotimizdan tobora kengroq o‘rin olinishiga erishilishi xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishdagi innovatsion modelning tarkibiy jihati hisoblanib, ularning o‘z xaq-xuquqlarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi xotin-qizlar ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishning kafolatidir xulosalarga kelgan.

T.K.Narbayeva esa ta’lim va tarbiya uyg‘unligi xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil ekanligini qayd etadi.[5]

Xorijiy tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarda liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etishni ham talab etadi. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlandiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida talaba-qizlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish maqsadida mentorlik dasturlari, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), servis-learning, debat klublari hamda talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati keng yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur yondashuvlar talabalarda strategik fikrlash, mas'uliyat, jamoa bilan ishlash va samarali kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn treninglar, virtual loyiha guruhlari hamda raqamli hamkorlik vositalari talaba-qizlarning boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya muhiti talabalarning tashabbuskorligini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini va liderlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya va konfliktlarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalari samarali liderning ajralmas sifatlari sifatida e'tirof etiladi. Shu bois ta'lim jarayonida faqat boshqaruv nazariyasini o‘qitish emas, balki amaliy treninglar, psixologik mashg‘ulotlar, keys-stadilar va refleksiv faoliyatni tashkil etish orqali talaba-qizlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bosqichma-bosqich joriy etilishi xotin-qizlarning boshqaruv salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada bo‘lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy bilimlari, balki strategik fikrlashi, ijtimoiy mas'uliyati, tashabbuskorligi va samarali liderlik kompetensiyalari ham shakllanadi. Bu esa davlat va jamiyat boshqaruvida malakali hamda raqobatbardosh ayol rahbarlar zaxirasini kengaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda quyidagi pedagogik mexanizmlar samarali hisoblanadi:

liderlik treninglarini tashkil etish;
mentorlik va tutorlik tizimini rivojlantirish;
ijtimoiy loyihalarda qizlarning ishtirokini kengaytirish;
debat va munozara klublarini tashkil etish;
innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
gender tenglikka asoslangan pedagogik muhit yaratish.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida xotin-qizlarning boshqaruv faoliyatiga qiziqishini oshirish uchun ularni davlat va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatiga keng jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda gender tenglik, pedagogik muhit, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy faollik muhim ahamiyatga ega. Talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash orqali ularning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish mumkin. Bu esa kelajakda davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ta’lim tizimida xotin-qizlarning liderlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik dasturlarni keng joriy etish hamda amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Shayxova X. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B.88.

2.Nishonova N.R. “O‘zbekiston davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili”. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020 y.

3.Xuseynova A.A. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B.27.

4.Karimova M.A. “O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashda islomiy qadriyatlarning o‘rni”. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008 y.

5.Narbayeva T.K. “O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli”. Sotsiologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020 y.

Komilova Nilufar Abdilkadimovna
Senior teacher (PhD) of English philology department
Fergana State University
E-mail:a.komilova@pf.fdu.uz

THE PROBLEM OF SOCIAL AND CULTURAL FACTORS IN THE UNIVERSAL LINGUISTIC THEORY OF THE GENDER PHENOMENON

Abstract. *This article looks at the conceptual bases behind gender as some kind of universal linguistic happening, but it really keeps zooming in on how social, cultural forces shape the way gendered speech gets used, across rather different language communities. It kind of draws from a comparative look at several influential works in sociolinguistics, cognitive linguistics and gender studies, and it says that a single universal idea about linguistic gender can't be treated as fully finished, not really, unless it also has a careful mapping of the sociocultural settings where language gets made and then kept going.*

Key words: *gender linguistics, sociocultural factors, universal linguistics, language and gender, gender stereotype, linguistic identity*

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В УНИВЕРСАЛЬНОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ГЕНДЕРНОГО ФЕНОМЕНА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы гендера как универсального лингвистического явления, с особым акцентом на роли социальных и культурных факторов в формировании гендерного речевого поведения в различных языковых сообществах. На основе сравнительного анализа ключевых работ в области социолингвистики, когнитивной лингвистики и гендерных исследований в статье обосновывается тезис о том, что ни одна универсальная теория лингвистического гендера не может считаться завершённой без систематического учёта социокультурных контекстов, в которых язык производится и воспроизводится.*

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, социокультурные факторы, универсальная лингвистика, язык и гендер, гендерный стереотип, языковая идентичность.*

GENDER FENOMENINING UNIVERSAL LINGVISTIK NAZARIYASIDA IJTIMOIY-MADANIY OMILLAR MUAMMOSI

Umuman olganda, tanlangan 10 ta adabiyot maqolaning ilmiy bazasini mustahkamlaydi va Shajarayi turk asaridagi etnonimlarni lingvistik, tarixiy va semantik jihatdan chuqur o‘rganish imkonini yaratadi. Ular turkiy xalqlarning tarixiy va etnik kontekstini yoritishda, qabila va urug‘ nomlarining morfologik va semantik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, maqolada keltirilgan diagrammalar va tahlillar ushbu adabiyotlar bilan uyg‘un holda ilmiy asosni yanada mustahkamlaydi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlarni o‘rganish jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi etnonimlarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash bo‘lganligi sababli, tilshunoslik va tarixshunoslik fanlariga xos metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Xususan, tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, semantik hamda etnolingvistik tahlil metodlari tadqiqotning asosiy ilmiy usullarini tashkil etdi.

Tavsifiy metod metod yordamida Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlar aniqlanib, ularning qo‘llanish shakllari va lingvistik xususiyatlari tavsiflab berildi. Tavsifiy tahlil etnonimlarning fonetik shakli, morfologik tuzilishi hamda matndagi qo‘llanish kontekstini aniqlash imkonini berdi. Natijada asarda uchraydigan qabila va elat nomlarining til tizimidagi o‘rni haqida dastlabki ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy metod ham muhim o‘rin tutdi. Bu metod orqali Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlar boshqa tarixiy manbalar va turkiy xalqlar tarixiga oid yozma yodgorliklar bilan taqqoslab o‘rganildi. Qiyosiy tahlil natijasida ayrim etnonimlarning tarixiy shakllari, fonetik o‘zgarishlari hamda turli manbalarda qanday ko‘rinishda qo‘llanganligi aniqlashtirildi. Bu esa etnonimlarning tarixiy rivojlanish jarayonini aniqlashga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqotda semantik tahlil metodi ham qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida etnonimlarning ma’no jihatidan qanday semantik xususiyatlarga ega ekanligi o‘rganildi. Ma’lumki, etnonimlar ko‘pincha xalqning yashash hududi, kasb-hunari, ijtimoiy tuzilishi yoki tarixiy kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli semantik tahlil etnonimlarning ichki ma’nosini, ularning tarixiy va madaniy kontekst bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, etnolingvistik yondashuv ham tadqiqotning muhim metodologik asoslaridan biri bo‘ldi. Etnolingvistika til va xalq madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganadigan fan bo‘lib, etnonimlarning kelib chiqishi va qo‘llanishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv yordamida Shajarayi turk asaridagi etnonimlar turkiy xalqlarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida matnlarni tahlil qilish, tarixiy manbalarni o‘rganish va lingvistik ma’lumotlarni umumlashtirish kabi ilmiy usullar ham qo‘llanildi. Natijada etnonimlarning lingvistik xususiyatlari, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda turkiy xalqlar til tarixidagi o‘rni haqida

ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Shu tariqa tadqiqot metodlari Shajarayi turk asaridagi etnonimlarni kompleks tarzda o‘rganish va ularning lisoniy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi [5-7].

Jadval-1.

Shajarayi turk asarida uchraydigan ayrim etnonimlarning lisoniy xususiyatlari

№	Etnonim	Kelib chiqishi	Lisoniy (morfologik) tuzilishi	Semantik ma’nosi	Izoh
1	Turk	Qadimgi turkiy	Oddiy ildizli etnonim	Turkiy xalqlarning umumiy nomi	Turkiy xalqlarning eng qadimgi umumiy etnonimlaridan biri
2	O‘g‘uz	Qadimgi turkiy	Ildiz + ko‘plik ma’nosi beruvchi element	Qabila yoki qabila ittifoqi	O‘g‘uzlar ko‘plab turkiy xalqlarning ajdodlari sifatida tilga olinadi
3	Qipchoq	Qadimgi turkiy	Ildiz shaklli etnonim	Qipchoq qabilasi nomi	Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq hududlarida yashagan
4	Qangli	Qadimgi turkiy	Ildiz + -li affiksi	Ma’lum qabila yoki urug‘ nomi	-li qo‘shimchasi mansublik ma’nosini bildiradi
5	Nayman	Mo‘g‘ul-turkiy	Ildiz shaklli etnonim	Qabila nomi	“Nayman” so‘zi mo‘g‘ul tilida “sakkiz” degan ma’noni bildiradi

Jadvalda Shajarayi turk asarida uchraydigan ayrim etnonimlarning kelib chiqishi, morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, asarda uchraydigan etnonimlarning aksariyati qadimgi turkiy ildizlarga ega bo‘lib, ular turkiy xalqlarning tarixiy shakllanish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir.

Birinchi navbatda, “Turk” etnonimi eng umumiy va qadimgi nomlardan biri hisoblanadi. Ushbu etnonim turkiy xalqlarning umumiy nomi sifatida qo‘llanib, tarixiy manbalarda keng tarqalgan. Lingvistik jihatdan u oddiy ildiz shaklida bo‘lib, qo‘shimcha affikslarsiz qo‘llanadi.

“O‘g‘uz” etnonimi esa turkiy qabilalar ittifoqini bildiruvchi nom sifatida muhim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarda o‘g‘uzlar ko‘plab turkiy xalqlarning ajdodlari sifatida tilga olinadi. Ushbu etnonimning semantik mazmuni qabila yoki qabila ittifoqini anglatadi.

“Qipchoq” etnonimi ham turkiy xalqlar tarixida muhim o‘rin egallaydi. Qipchoqlar Dashti Qipchoq hududida yashagan ko‘chmanchi qabilalar bo‘lib, ular Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa tarixida muhim rol o‘ynagan. Etnonim lingvistik jihatdan oddiy ildiz shaklida qo‘llanadi.

“Qangli” etnonimi morfologik jihatdan qiziqarli hisoblanadi. Bu nomda -li affiksi mavjud bo‘lib, u turkiy tillarda mansublik yoki tegishlilik ma’nosini bildiradi. Shu sababli bu etnonim tilshunoslik nuqtai nazaridan morfologik tuzilishi bilan ajralib turadi.

“Nayman” etnonimi esa turkiy va mo‘g‘ul xalqlari tarixiga bog‘liq bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra mo‘g‘ul tilida “sakkiz” degan ma’noni anglatadi. Bu esa qabila ittifoqining sakkiz urug‘dan tashkil topganligini bildirishi mumkin.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan etnonimlar Shajarayi turk asarining etnolingvistik boyligini namoyon etadi. Ularning lingvistik tahlili turkiy xalqlarning kelib chiqishi, qabilaviy tuzilishi hamda til tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqot jarayonida Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida uchraydigan etnonimlar lingvistik jihatdan o‘rganildi hamda ularning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asarda keltirilgan etnonimlar turkiy xalqlarning tarixiy shakllanishi, qabilaviy tuzilishi hamda ularning o‘zaro genealogik aloqalarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, etnonimlar orqali qadimgi turkiy tilning ayrim leksik qatlamlari va morfologik xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlarning katta qismi qadimgi turkiy tilga mansub bo‘lib, ular asosan qabila yoki elat nomlarini ifodalash uchun

qo‘llanilgan. Masalan, “turk” etnonimi asarda umumiy etnik birlikni ifodalovchi nom sifatida ishlatiladi. Bu etnonim turkiy xalqlarning umumiy nomi sifatida qo‘llanib, tarixiy manbalarda keng tarqalgan. Lingvistik jihatdan u oddiy ildizli leksik birlik bo‘lib, qo‘shimchasiz shaklda qo‘llanadi. Bu esa etnonimning qadimiyligini va umumiy etnik birlikni ifodalashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.


Asarda tez-tez uchraydigan etnonimlardan yana biri “o‘g‘uz” hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘g‘uzlar turkiy qabilalar ittifoqi bo‘lib, ular ko‘plab turkiy xalqlarning ajdodlari sifatida qaraladi. Lingvistik jihatdan bu etnonimning tarkibida qadimgi turkiy tilga xos fonetik xususiyatlar saqlanib qolgan. Misol uchun, Shajarayi turk asarida o‘g‘uz qabilalari haqida so‘z yuritilganda ularning turli urug‘ va bo‘linmalarga ajralgani haqida ma’lumot beriladi. Bu holat etnonimlarning genealogik tizimni ifodalashdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asarda uchraydigan ayrim etnonimlar morfologik jihatdan affikslar yordamida shakllangan. Bunga “qangli” etnonimini misol qilish mumkin. Ushbu etnonim tarkibidagi -li qo‘shimchasi turkiy tillarda mansublik yoki tegishlilik ma’nosini bildiradi. Demak, “qangli” etnonimi ma’lum qabila yoki urug‘ga mansublikni ifodalovchi nom sifatida shakllangan. Bu esa etnonimlarning morfologik tuzilishini o‘rganish orqali turkiy tillarda affiksatsiya jarayonining tarixiy ildizlarini aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi [8,9].

Bundan tashqari, tadqiqot davomida ayrim etnonimlarning boshqa tillar bilan aloqadorligi ham kuzatildi. Masalan, “nayman” etnonimi turkiy va mo‘g‘ul xalqlari tarixida uchraydigan qabila nomi bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra u mo‘g‘ul tilidagi “sakkiz” ma’nosini bildiruvchi so‘z bilan bog‘liq. Bu esa qabila ittifoqining sakkiz urug‘dan tashkil topganligini anglatishi mumkin. Ushbu misol etnonimlarning faqat lingvistik birlik emas, balki tarixiy va etnografik ma’lumotlarni ham o‘zida mujassamlashtirganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “qipchoq” etnonimi ham asarda keng uchraydi. Qipchoqlar Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq hududlarida yashagan yirik qabilalardan biri bo‘lib, ular turkiy xalqlar tarixida muhim rol o‘ynagan. Lingvistik jihatdan bu etnonim oddiy ildizli birlik bo‘lsa-da, uning tarixiy qo‘llanishi turli hududlarda turlicha fonetik shakllarda uchrashini ko‘rsatadi. Bu esa etnonimlarning tarixiy rivojlanish jarayonida fonetik o‘zgarishlarga uchrashi mumkinligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari Shajarayi turk asaridagi etnonimlar turkiy xalqlarning etnik tarkibi, tarixiy taraqqiyoti hamda til rivojlanishini o‘rganishda muhim ilmiy manba ekanligini ko‘rsatdi. Etnonimlarning lingvistik tahlili orqali qadimgi turkiy tilning leksik boyligi, morfologik xususiyatlari va semantik tizimi haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu sababli Shajarayi turk asaridagi etnonimlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi [10].



1-rasm. Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida uchraydigan etnonimlarning uchrash chastotasining chiziqli tasviri.

Yuqorida keltirilgan chiziqli diagramma Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida uchraydigan ayrim etnonimlarning uchrash chastotasini grafik tarzda ifodalaydi. Diagrammada Turk,

O‘g‘uz, Qipchoq, Qangli va Nayman etnonimlari tanlab olingan bo‘lib, ular asarda turkiy xalqlarning kelib chiqishi, qabilaviy tuzilishi va genealogik aloqalarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Diagramma natijalariga ko‘ra, “Turk” etnonimi eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu holat mazkur etnonimning asarda umumiy etnik birlikni ifodalovchi markaziy tushuncha sifatida qo‘llanganligini ko‘rsatadi. “Turk” nomi turkiy xalqlarning umumiy nomi bo‘lib, genealogik tasnif va tarixiy bayonlarda asosiy tayanch tushuncha sifatida ishlatilgan. Shu sababli uning uchrash chastotasi boshqa etnonimlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi tabiiy hisoblanadi.

Diagrammada “O‘g‘uz” etnonimi ikkinchi o‘rinda joylashgan. Bu holat o‘g‘uz qabilalari turkiy xalqlar tarixida muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘g‘uzlar ko‘plab turkiy xalqlarning ajdodlari sifatida qaraladi. Shajarayi turk asarida ham o‘g‘uz qabilalari, ularning kelib chiqishi hamda turli urug‘larga bo‘linishi haqida keng ma’lumotlar berilgan. Shu sababli ushbu etnonimning nisbatan yuqori uchrash ko‘rsatkichiga ega bo‘lishi ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, “Qipchoq” etnonimi o‘rtacha ko‘rsatkichga ega. Qipchoqlar tarixiy manbalarda Dashti Qipchoq hududida yashagan yirik qabilalardan biri sifatida tilga olinadi. Ular Markaziy Osiyo, Qozog‘iston va Sharqiy Yevropa hududlarida muhim tarixiy rol o‘ynagan. Asarda qipchoq qabilalari haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, ular umumiy genealogik tizimda “turk” yoki “o‘g‘uz” kabi keng qamrovli etnik birliklardan keyinroq tilga olinadi.

Shuningdek, diagrammada “Qangli” va “Nayman” etnonimlari nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega ekanligi ko‘rinadi. Bu etnonimlar turkiy xalqlarning ayrim qabila yoki urug‘ nomlarini ifodalaydi. Ular asarda ma’lum tarixiy voqealar yoki qabilaviy aloqalar kontekstida tilga olinadi. Shu sababli ularning uchrash chastotasi umumiy etnik birliklarni ifodalovchi etnonimlarga nisbatan kamroq bo‘lishi tabiiydir.

Umuman olganda, chiziqli diagramma natijalari shuni ko‘rsatadiki, Shajarayi turk asarida umumiy etnik birlikni ifodalovchi etnonimlar (masalan, turk va o‘g‘uz) ko‘proq uchraydi, qabila yoki urug‘ nomlarini bildiruvchi etnonimlar esa nisbatan kamroq qo‘llanadi. Bu holat asarning asosiy maqsadi turkiy xalqlarning kelib chiqishi va genealogiyasini yoritish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Diagramma orqali olingan natijalar etnonimlarning asardagi qo‘llanish darajasi hamda ularning tarixiy-lisoniy ahamiyatini yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida uchraydigan etnonimlarning lisoniy xususiyatlari tahlil qilindi hamda ularning turkiy xalqlar tarixini yoritishdagi ilmiy ahamiyati o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida etnonimlarning fonetik, morfologik va semantik jihatlari ko‘rib chiqilib, ular turkiy xalqlarning kelib chiqishi, qabilaviy tuzilishi hamda tarixiy taraqqiyoti haqida muhim ma’lumotlar beruvchi lingvistik birliklar ekanligi aniqlandi.

Tahlillar natijasida Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlarning katta qismi qadimgi turkiy til qatlamiga mansub ekanligi kuzatildi. Xususan, turk, o‘g‘uz, qipchoq, qangli, nayman kabi etnonimlar turkiy xalqlarning tarixiy shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim nomlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu etnonimlar asarda nafaqat tarixiy voqealarni bayon etish vositasi sifatida, balki turli qabila va elatlarning genealogik aloqalarini ko‘rsatish maqsadida ham qo‘llanilgan. Bu esa etnonimlarning til tizimidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari etnonimlarning morfologik tuzilishida turkiy tillarga xos affikslarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Masalan, ayrim etnonimlarda uchraydigan -li kabi qo‘shimchalar mansublik yoki tegishlilik ma’nosini ifodalab, qabila nomlarining shakllanishida faol ishtirok etgan. Bu holat etnonimlarni lingvistik jihatdan o‘rganish turkiy tillarning tarixiy morfologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, etnonimlarning semantik tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular ko‘pincha xalqning yashash hududi, qabilaviy tuzilishi yoki tarixiy kelib chiqishi bilan bog‘liq ma’nolarni ifodalaydi. Shu sababli etnonimlar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ayniqsa, Shajarayi turk kabi tarixiy asarlarda uchraydigan etnonimlar turkiy xalqlarning etnik tarkibi va tarixiy rivojlanishini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlar beradi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari Shajarayi turk asaridagi etnonimlarni lingvistik jihatdan o‘rganish turkiy xalqlarning til tarixi, etnik shakllanish jarayoni hamda madaniy aloqalarini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu

yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar etnonimlarning yanada kengroq lingvistik va tarixiy tahlilini amalga oshirish hamda turkiy xalqlar til tarixini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abduvaliyeva, K. “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning grammatik tuzilishi va yasalishi / K. Abduvaliyeva // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2025. — J. 1, № 2. — B. 77–82.
2. Bartold, V. V. Turkiy xalqlar tarixidan ocherklar / V. V. Bartold. — Moskva–Leningrad : Fan, 1963.
3. Ergashev, K. The work of Abulgazi Bahadur Khan and the development of Uzbek historical prose / K. Ergashev // Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. — 2025. — Vol. 5, № 3.
4. Mavlonova, D. The work “Shajarayi Turk” and the reflection of the history of the people of Movarounnahr in it / D. Mavlonova // Journal of Education, Ethics and Value. — 2024. — Vol. 3, № 6. — P. 242–244.
5. Mashrapova, M. Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon va uning tarixiy asari Shajarayi turk / M. Mashrapova // USTOZLAR UCHUN pedagoglar jurnali. — 2025.
6. Saotboyev, R. M. “Shajarayi turk” ta’sirida yaratilgan tarixiy asarlar / R. M. Saotboyev // ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR. — 2024. — J. 2, № 3. — B. 10–14.
7. Saidjonova, G. D. Abulg‘oziy Bahodirxonning Shajarayi turk asarida qabilalar nomlarining kelib chiqishi / G. D. Saidjonova // USTOZLAR UCHUN. — 2025. — J. 84, № 4. — B. 118–121.
8. Shavkat qizi, A. “Shajarayi turk” asarining o‘rganilish tarixi / A. Shavkat qizi // Involta Scientific Journal. — 2024. — J. 3, № 6.
9. Turg‘unboyeva, G. Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarining o‘zbek tarixshunosligidagi o‘rni / G. Turg‘unboyeva // USTOZLAR UCHUN. — 2025.
10. Boymurodova, E. I. “Shajarayi turk” asaridagi antroponimlar va etnonimlar semantikasi / E. I. Boymurodova // OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE. — 2025. — J. 82, № 4. — B. 11–16.

Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich
Innovatsion texnologiyalar universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

TALABALARDA METAKOGNITIV VA METAREFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Interfaol metodlar – muammoli o'qitish, hamkorlikda o'rganish, "aqliy hujum", keys-stadi va loyiha asosida ta'lim – talabalarning o'z bilim jarayonini anglash, rejalashtirish va baholash ko'nikmalarini kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol yondashuvlar metakognitiv faollikni oshirib, refleksiv fikrlashni chuqurlashtiradi hamda mustaqil ta'lim olish madaniyatini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *metakognitsiya, metarefleksiya, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiyalar, talaba faolligi, mustaqil ta'lim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ МЕТАКОГНИТИВНЫХ И МЕТАРЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется педагогическая эффективность интерактивных образовательных технологий в развитии метакогнитивных и метарефлексивных способностей студентов. Интерактивные методы обучения, такие как проблемное обучение, кооперативное обучение, «мозговой штурм», кейс-стади и проектное обучение, способствуют осознанию студентами собственного познавательного процесса, его планированию и оценке. Результаты исследования показывают, что данные подходы повышают уровень метакогнитивной активности, углубляют рефлексивное мышление и формируют культуру самостоятельного обучения.*

Ключевые слова: *метакогниция, метарефлексия, интерактивное обучение, педагогические технологии, учебная активность, самостоятельное обучение.*

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' METACOGNITIVE AND METAREFLECTIVE ABILITIES

Abstract. *This article examines the pedagogical effectiveness of interactive learning technologies in developing students' metacognitive and metareflective abilities. Interactive methods such as problem-based learning, cooperative learning, brainstorming, case studies, and project-based learning enhance students' awareness of their cognitive processes, including planning, monitoring, and evaluation. The findings indicate that these approaches significantly increase metacognitive engagement, deepen reflective thinking, and foster a culture of independent learning among students in higher education contexts.*

Key words*: metacognition, metareflection, interactive learning, pedagogical technologies, student engagement, independent learning.*

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida faqat bilim berish emas, balki talabalarda mustaqil fikrlash, o'z o'quv jarayonini boshqarish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlar – ya'ni shaxsning o'z bilish jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash hamda o'z faoliyatiga tanqidiy munosabat bildira olish qobiliyatlari – zamonaviy ta'limning muhim kompetensiyalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha farmon va qarorlarida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham ta’lim jarayonida interfaol va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Bu esa metakognitiv yondashuvni rivojlantiruvchi interfaol ta’lim texnologiyalarining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xalqaro miqyosda esa UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda XXI asr ko‘nikmalari orasida o‘z-o‘zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va refleksiv tahlil qilish kompetensiyalari eng muhim komponentlar sifatida ko‘rsatilgan. OECD’ning PISA dasturi natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, yuqori natijaga ega davlatlar ta’lim tizimida aynan o‘quvchilarning metakognitiv strategiyalarini rivojlantirishga katta e’tibor beradi.

Shuningdek, AQSh, Finlyandiya va Singapur ta’lim tajribalarida interfaol o‘qitish texnologiyalari (case-study, problem-based learning, collaborative learning) talabalarning refleksiv fikrlashini kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish, xatolarini anglash va bilim olish strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu bois, talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligini o‘rganish nafaqat milliy ta’lim tizimi uchun, balki global ta’lim tendensiyalari nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi hamda mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari bilan bevosita bog‘liq holda tubdan yangilanib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil o‘qish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda o‘z o‘quv faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu jihatdan metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlar zamonaviy pedagogikaning eng muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Metakognitsiya tushunchasi ilk bor J. Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u shaxsning o‘z bilish jarayonini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Metarefleksiya esa shaxsning o‘z faoliyati, qarorlari va fikrlash jarayoniga chuqur tahliliy yondashuvi sifatida talqin qilinadi. Ushbu ikki kompetensiya talabalarning akademik muvaffaqiyati, mustaqil ta’lim olish samaradorligi hamda kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, OECD tomonidan o‘tkaziladigan PISA tadqiqotlarida yuqori natijalarga erishayotgan davlatlar ta’lim tizimida aynan o‘quvchilarning metakognitiv strategiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, Finlyandiya va Singapur ta’lim modelida interfaol o‘qitish texnologiyalari (problem-based learning, collaborative learning, case-study) keng joriy etilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning refleksiv fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va raqamli ta’lim muhitini kengaytirishga katta e’tibor berilmoqda. Prezident farmonlari va davlat dasturlarida ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa interfaol ta’lim texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari ilk bor amerikalik olim J. Flavell tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u metakognitsiyani “o‘z bilish jarayonlari haqida bilish va ularni boshqarish” sifatida talqin etgan. Flavellning ishlari metakognitsiyani ikki asosiy komponentga — metakognitiv bilim va metakognitiv boshqaruvga ajratib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritib bergan.

Keyingi tadqiqotlarda Schraw, Moshman, Pintrich kabi olimlar bu tushunchani yanada rivojlantirib, rejalashtirish, monitoring va baholash kabi jarayonlarni metakognitiv ko‘nikmalar tarkibiga kiritgan.

Rossiyalik olimlar, xususan V. V. Davydov, A. N. Leontyev va L. S. Vygotskiylar faoliyat yondashuvi doirasida o‘quvchi shaxsining bilish faoliyatini ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘lab o‘rganishgan. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi metakognitsiyaning shakllanishida ijtimoiy o‘zaro ta’sir va o‘qituvchi yordami muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bu yondashuvga ko‘ra, refleksiv fikrlash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi.

G‘arbiy olimlar, jumladan A. Bandura, D. Schunk va B. Zimmerman tadqiqotlarida metakognitsiya o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulated learning) tizimining asosiy komponenti sifatida ko‘riladi. Zimmerman modeliga ko‘ra, talaba o‘z o‘quv jarayonini oldindan rejalashtiradi, jarayon davomida nazorat qiladi va yakunda o‘z faoliyatini baholaydi. Bu jarayon metarefleksiv fikrlashning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yevropa va AQSh ta’lim tizimlarida olib borilgan empirik tadqiqotlar ham metakognitiv strategiyalar va akademik muvaffaqiyat o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. OECD tomonidan olib borilgan PISA tadqiqotlarida yuqori natijaga ega davlatlar (Finlyandiya, Singapur, Kanada) ta’lim jarayonida interfaol metodlar — muammoli o‘qitish, hamkorlikda o‘qish, loyiha asosida ta’lim va keys-stadi kabi texnologiyalardan keng foydalanishi aniqlangan. Bu texnologiyalar talabalarda mustaqil fikrlash, refleksiya va metakognitiv nazoratni rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi bilan birga metakognitsiyani o‘rganishga oid yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotlarda (Winne, Efklides, Veenman) metakognitiv jarayonlar nafaqat individual, balki texnologik vositalar orqali ham rivojlanishi mumkinligi isbotlangan. Interfaol ta’lim platformalari, onlayn simulyatsiyalar va adaptiv o‘quv tizimlari talabaning o‘z bilim jarayonini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu tarzda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlar shaxsning intellektual rivojlanishi, mustaqil ta’lim faoliyati va kasbiy kompetensiyalarining muhim asosi hisoblanadi. Interfaol ta’lim texnologiyalari esa ushbu qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar hamda empirik tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv doirasida olib borildi. Tanlanma sifatida 120 nafar talaba (eksperimental va nazorat guruhlari) ishtirok etdi. Eksperimental guruhda interfaol ta’lim texnologiyalari (muammoli o‘qitish, keys-stadi, hamkorlikda o‘qitish va loyiha asosida ta’lim) tizimli ravishda qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an’anaviy ma’ruza usuli saqlab qolindi.

Tadqiqot jarayonida metakognitiv va metarefleksiv darajani aniqlash uchun Schraw va Dennison tomonidan ishlab chiqilgan “Metacognitive Awareness Inventory (MAI)” adaptatsiyalashgan varianti hamda A. Karpovning refleksivlik diagnostika so‘rovnomasi qo‘llanildi. Olingan natijalar SPSS 26.0 dasturi yordamida tahlil qilindi. Statistik ishlov berishda tavsifiy statistika (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish), mustaqil tanlanmalar t-testi hamda korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi.

Quyida SPSS asosida qayta ishlangan natijalar keltiriladi:

Jadval -1.

Interfaol ta’lim texnologiyalarining metakognitiv qobiliyatlarga ta’siri (SPSS natijalari)

Guruh	N	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)	t qiymat	p daraja
Eksperimental guruh	60	78.4	6.2	4.87	0.001
Nazorat guruhi	60	69.1	7.0	—	—

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksperimental guruh talabalari metakognitiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija qayd etgan ($p < 0.01$). Bu esa interfaol ta’lim texnologiyalarining talabalarda o‘z-o‘zini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Jadval-2.

Metarefleksiv qobiliyatlar va interfaol ta’lim o‘rtasidagi korrelyatsiya (SPSS Pearson tahlili)

Ko‘rsatkichlar	1	2
1. Interfaol ta’lim darajasi	1	—
2. Metarefleksiv qobiliyatlar	0.71**	1

Izoh: **p < 0.01

Korrelyatsion tahlil natijalari interfaol ta’lim texnologiyalari darajasi va metarefleksiv qobiliyatlar o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ($r = 0.71$) ko‘rsatdi. Bu esa talabalarning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarni anglash va o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalari interfaol metodlar orqali sezilarli darajada rivojlanishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan interfaol pedagogik texnologiyalar talabalarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni, balki metakognitiv va metarefleksiv kompetensiyalarni shakllantirishda ham yuqori samaradorlikka ega. SPSS dasturi asosida olingan statistik natijalar esa ushbu xulosalarni empirik jihatdan asoslab beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarining yuqori pedagogik samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Olingan empirik ma’lumotlar va ularning statistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan talabalarning o‘z o‘quv faoliyatini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish hamda baholash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa metakognitiv jarayonlarning faollashuvi orqali o‘quv samaradorligining oshishiga olib keladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, eksperimental guruh talabalari o‘z bilim jarayoniga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirgan bo‘lib, ular o‘quv materialini faqat o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki uni tahlil qilish va qayta ishlashga ham faol kirishgan. Bu holat metarefleksiv fikrlashning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, keys-stadi, muammoli o‘qitish va hamkorlikda o‘qitish metodlari talabalarda o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini kuchaytirgan.

Metakognitiv ko‘nikmalarning rivojlanishi talabalarning akademik muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liq ekanligi ham tadqiqotda o‘z tasdig‘ini topdi. Talabalar o‘z o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlash, murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish va xatolarini tahlil qilish orqali bilimni chuqurroq o‘zlashtirgan. Bu jarayon J. Flavell tomonidan ilgari surilgan metakognitsiya nazariyasining amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, L. S. Vygotskiy va uning izdoshlarining ijtimoiy konstruktivistik yondashuvi ham tadqiqot natijalari bilan uyg‘unlashadi. Chunki interfaol ta’lim jarayonida talabalar o‘zaro muloqot, hamkorlik va fikr almashinuvi orqali nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrlash jarayonini ham qayta ko‘rib chiqadi. Bu esa metarefleksiv ongning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba bilan solishtirganda ham o‘xshash tendensiya kuzatiladi. OECD va UNESCO tadqiqotlarida qayd etilishicha, Finlyandiya, Singapur va Kanada kabi ta’lim tizimlarida interfaol metodlar keng qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiv fikrlash darajasi yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu esa mazkur tadqiqot natijalarining global ilmiy xulosalar bilan mos kelishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar interfaol ta’lim texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Natijalar

shuni tasdiqlaydiki, ushbu texnologiyalar nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki talabalarda mustaqil fikrlash va refleksiv tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatdan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish, interfaol metodlarni tizimli ravishda joriy etish hamda raqamli ta'lim vositalarini integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarini amaliy qo'llashning pedagogik mexanizmlari

Interfaol ta'lim texnologiyalarining metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi ularning pedagogik jarayonni talaba markaziga yo'naltirishi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuvda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va qayta tashkil etuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda talabaning o'z bilish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalari izchil shakllanadi.

Interfaol metodlarning muhim afzalliklaridan biri shundaki, ular talabalarda refleksiv muloqot muhitini yaratadi. Guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar, loyiha faoliyati va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish jarayonida talabalar nafaqat o'z fikrlarini asoslaydi, balki boshqa ishtirokchilarning nuqtayi nazarini tahlil qiladi, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqadi hamda muqobil yechimlarni izlashga odatlanadi. Bu esa metarefleksiv tafakkurning rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi muntazam refleksiya bosqichlarining tashkil etilishi bilan ham bog'liq. Har bir mashg'ulot yakunida o'quv faoliyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash, uchragan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish talabalarning metakognitiv monitoring ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ular o'z o'quv faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini mustaqil aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish ham ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron ta'lim tizimlari, virtual muhokama maydonchalari, interaktiv testlar, elektron portfoliolar va adaptiv o'quv dasturlari talabalarga o'z bilim darajasini doimiy monitoring qilish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda shaxsiy ta'lim strategiyalarini takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, elektron refleksiv kundaliklardan foydalanish talabaning o'z fikrlash jarayonlarini muntazam tahlil qilishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, interfaol ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etish pedagogdan yuqori metodik tayyorgarlikni talab qiladi. O'qituvchi mashg'ulot davomida bilim manbai emas, balki fasilitator, maslahatchi va refleksiv faoliyatni boshqaruvchi sifatida ishtirok etishi lozim. Pedagog tomonidan yaratiladigan ochiq kommunikativ muhit talabalarning erkin fikr bildirishiga, xatolarni tahlil qilishiga hamda yangi bilimlarni mustaqil konstruksiya qilishiga sharoit yaratadi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari, raqamli refleksiv platformalar va individual o'quv trajektoriyalarini qo'llash orqali metakognitiv hamda metarefleksiv kompetensiyalarni yanada samarali rivojlantirish imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda. Bu esa oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish va talabalarning umrbod ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining o'ta muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy oliy ta'lim jarayonida faqat bilimlarni uzatish emas, balki talabani o'z o'quv faoliyatini anglash, tahlil qilish va boshqarishga yo'naltirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib bormoqda. Shu jihatdan interfaol yondashuvlar talabaning faolligini oshirib, uni bilim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoli o'qitish, keys-stadi, hamkorlikda o'qitish va loyiha asosida ta'lim kabi interfaol texnologiyalar talabalarda o'z fikrlash jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa metakognitiv ongning

shakllanishi va metarefleksiv tahlilning chuqurlashishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada talabalar nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtiradi, balki uni tanqidiy tahlil qilish, xatolarini anglash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, SPSS dasturi asosida olingan empirik natijalar interfaol ta’lim texnologiyalari va metakognitiv hamda metarefleksiv qobiliyatlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat ilgari surilgan ilmiy farazlarni amaliy jihatdan tasdiqlab, tadqiqotning ishonchliligini oshiradi.

Xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, interfaol ta’lim texnologiyalarini keng joriy etgan ta’lim tizimlarida talabalar mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiv tahlil qilish bo‘yicha yuqori natijalarga erishmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishning nafaqat pedagogik, balki strategik ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalarini tizimli va maqsadli qo‘llash zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalarni yanada keng joriy etish, pedagog kadrlarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish hamda raqamli ta’lim vositalari bilan integratsiyani kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34(10). – P. 906–911.

2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

3. Leontiev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978.

4. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – New Jersey: Prentice Hall, 1986.

5. Zimmerman B. J. Self-regulated learning and academic achievement: An overview // Educational Psychologist. – 1990. – Vol. 25(1). – P. 3–17.

6. Schraw G., Dennison R. S. Assessing metacognitive awareness // Contemporary Educational Psychology. – 1994. – Vol. 19(4). – P. 460–475.

7. Pintrich P. R. The role of metacognitive knowledge in learning, teaching, and assessing // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41(4). – P. 219–225.

8. Efklides A. Metacognition and affect: What can metacognitive experiences tell us about the learning process? // Educational Research Review. – 2006. – Vol. 1(1). – P. 3–14.

9. Veenman M. V. J., Van Hout-Wolters B. H. A. M., Afflerbach P. Metacognition and learning: Conceptual and methodological considerations // Metacognition and Learning. – 2006. – Vol. 1. – P. 3–14.

10. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.

11. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Tashkent, 2019.

Gaziyeva Nozima Shoirjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti stajor o‘qituvchi

OLIY TA’LIMDA INNOVATSION BOSHQARUV VA NIZOLAR PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni oldini olishning tashkiliy-psixologik va boshqaruv mexanizmlarini ilmiy asoslashga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi innovatsiyalarni joriy etish sharoitida nizolar profilaktikasini ta’minlaydigan omillar, bosqichlar va indikatorlar tizimini konseptuallashtirish hamda oliy ta’lim boshqaruvida qo‘llash mumkin bo‘lgan profilaktik modelni taklif etishdan iborat. Metodologiya sifatida institutsional tahlil, konfliktologik yondashuv, ta’lim menejmenti nazariyasi, normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili hamda taqqoslama-mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy yangilik innovatsion o‘zgarishlarning konfliktogen ta’sir “manba, dinamik, risk, profilaktika” zanjiri orqali izohlovchi integrativ model va uning uchun amaliy indikatorlar to‘plamini taklif etish bilan belgilanadi. Natijalar oliy ta’lim muassasalarida adolatli boshqaruv, kommunikativ shaffoflik va erta ogohlantirish mexanizmlari nizo ehtimolini pasaytirishini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, innovatsion rivojlanish, nizolar profilaktikasi, ta’lim menejmenti, tashkiliy madaniyat, kommunikatsiya, mediatsiya*

ИННОВАЦИОННОЕ УПРАВЛЕНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *Статья посвящена научному обоснованию организационно-психологических и управленческих механизмов профилактики конфликтов, возникающих в процессе инновационного развития учреждений высшего образования. Цель исследования заключается в концептуализации факторов, этапов и системы индикаторов, обеспечивающих профилактику конфликтов в условиях внедрения инноваций, а также в предложении профилактической модели, применимой в управлении высшим образованием. Методология включает институциональный анализ, конфликтологический подход, теории менеджмента образования, контент-анализ нормативно-правовых документов и сравнительно-логическое обобщение. Научная новизна определяется разработкой интегративной модели, объясняющей конфликтогенное воздействие инновационных изменений через цепочку «источник, динамика, риск, профилактика», а также предложением набора практических индикаторов для мониторинга. Полученные результаты показывают, что справедливое управление, коммуникативная прозрачность и механизмы раннего предупреждения снижают вероятность эскалации конфликтов и поддерживают устойчивость инновационных преобразований.*

Ключевые слова: *высшее образование; инновационное развитие; профилактика конфликтов; менеджмент образования; организационная культура; коммуникация; медиация*

INNOVATIVE MANAGEMENT AND CONFLICT PREVENTION IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article substantiates organizational-psychological and managerial mechanisms for preventing conflicts that emerge during the innovative development of higher education institutions. The study aims to conceptualize the factors, stages, and indicators that ensure conflict prevention under innovation implementation, and to propose a prevention-oriented model applicable to higher education governance. The methodology integrates institutional analysis, a conflict studies perspective, education management theory, content analysis of regulatory documents, and comparative logical synthesis. Scientific novelty lies in an integrative model that explains the conflictogenic impact of innovation through a “source, dynamics, risk, prevention” chain and in a set of practical indicators for continuous monitoring. The results demonstrate that procedural justice in decision-making, communication transparency, and early warning arrangements reduce the probability of*

conflict escalation while strengthening the sustainability and acceptance of innovative change in universities.

Key words: *higher education; innovative development; conflict prevention; education management; organizational culture; communication; mediation*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalari innovatsion rivojlanish sharoitida bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zgarish konturlarini boshdan kechiradi: ta’lim dasturlari yangilanishi, raqamli transformatsiya, ilmiy tadqiqotlar natijadorligini boshqarish, akademik va ma’muriy jarayonlar standartlashuvi, xalqaro hamkorlik va sifatni tashqi baholash amaliyotlari kengayishi. Ushbu o‘zgarishlar institutning moslashuvchanligini kuchaytirishi bilan birga, ichki munosabatlar tizimida ziddiyatlar ehtimolini ham oshiradi. Innovatsiya ko‘pincha resurslarni qayta taqsimlash, vakolatlarni qayta belgilash, qadriyatlar va ish usullarini o‘zgartirishni talab qiladi; bularning barchasi manfaatlar to‘qnashuvi, adolat haqidagi tasavvurlar farqi hamda kommunikatsion uzilishlar orqali nizolarni yuzaga keltiruvchi konfliktogen omillarni faollashtiradi. Ta’lim tashkilotlarida nizo har doim ham salbiy hodisa sifatida ko‘rilmasligi mumkin, chunki u konstruktiv boshqarilganda yangilanishlar uchun turtki bo‘lishi ehtimoli mavjud. Biroq innovatsion jarayonlar barqarorligi nuqtayi nazaridan nizo eskalatsiyasi, yashirin qarshilik, kasbiy kuyish, kadrlar almashinuvi va akademik hamkorlikning yemirilishi kabi oqibatlar yuqori xavf zonasi hisoblanadi. Shuning uchun muammo nizo mavjudligi emas, balki uni erta aniqlash, oldini olish va konstruktiv yo‘naltirishni ta’minlaydigan profilaktik mexanizmlarning institutsional darajada yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganidadir.

Mavjud ilmiy yondashuvlar nizolarning kelib chiqishini turli darajalarda izohlaydi: individual darajada psixologik moslashuv va stress, guruh darajasida rol va status tarangliklari, institutsional darajada esa resurslar va qoidalar tizimidagi nomuvofiqliklar. Ta’lim menejmenti adabiyotlarida innovatsiyalarni joriy etishdagi qarshilik muammosi ko‘p yoritilgan bo‘lsa-da, aynan nizo profilaktikasini innovatsion rivojlanish boshqaruvi bilan integratsiyalashgan, indikatorlar bilan o‘lchanadigan tizim sifatida berish ko‘pincha yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Konfliktologik adabiyotlar nizo dinamikasini, bosqichlarini va eskalatsiya mexanizmlarini tushuntiradi, biroq oliy ta’limning o‘ziga xos professional avtonomiya, akademik erkinlik va kollegial boshqaruv elementlari bilan bog‘liq sharoitlari doim ham yetarlicha hisobga olinmaydi [1; 4]. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv, sifat menejmenti, raqamlashtirish va kadrlar siyosati bo‘yicha tadqiqotlar rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, nizo profilaktikasini institutsional dizayn va boshqaruv sikllari bilan bog‘lab, amaliy indikatorlar darajasida asoslash ehtiyoji saqlanib qolmoqda [2; 3]. Shuningdek, xalqaro tajribada oliy ta’limdagi o‘zgarishlarni boshqarishda kommunikatsiya, adolat, ishtirok va mediatsiya mexanizmlari nizo ehtimolini pasaytiruvchi omillar sifatida qayd etiladi [5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirish jarayonida nizolar profilaktikasini ta’minlaydigan integrativ konseptual modelni ishlab chiqish va uni amaliy boshqaruvga tatbiq etish uchun indikatorlar tizimini asoslashdan iborat. Vazifalar sifatida innovatsion o‘zgarishlarning konfliktogen manbalarini tasniflash, nizo dinamikasini oliy ta’limning institutsional xususiyatlari bilan bog‘lash, profilaktikaning bosqichma-bosqich mexanizmini hamda monitoring ko‘rsatkichlarini taklif etish belgilandi. Ilmiy yangilik innovatsion transformatsiya sharoitida nizo profilaktikasini “manba, dinamik, risk, profilaktika” zanjiri sifatida modellashtirish va profilaktika samaradorligini baholashga xizmat qiladigan indikatorlar to‘plamini taklif etish bilan ifodalanadi. Amaliy ahamiyat esa universitet boshqaruvchilari, sifat bo‘limlari, kadrlar xizmati va fakultet darajasidagi rahbarlar uchun erta ogohlantirish hamda nizolarni konstruktiv boshqarish bo‘yicha institutsional yechimlar paketini metodik asoslashdir.

Tadqiqot nazariy-metodologik xususiyatga ega bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion rivojlanish va nizo profilaktikasini bog‘lovchi konseptual doirani yaratishga qaratildi. Ma’lumotlar bazasi sifatida ta’lim menejmenti va konfliktologiya bo‘yicha ilmiy manbalar, oliy ta’lim tizimida boshqaruv va innovatsiyalarni joriy etishga doir normativ-huquqiy hujjatlar va tashkilot ichki reglamentlarining tipik tuzilmalari, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlarida uchraydigan nizoli vaziyatlar tavsiflangan amaliy holatlar bo‘yicha ikkilamchi ma’lumotlardan foydalanildi. Nazariy usullar qatorida institutsional tahlil oliy ta’limdagi qoidalar, vakolatlar va resurslar orqali nizo manbalari bilan bog‘lash uchun tanlandi, konfliktologik yondashuv nizo dinamikasini latent bosqichdan

eskalatsiyaga qadar izohlashga xizmat qildi, taqqoslama-mantiqiy umumlashtirish esa turli yondashuvlardan olingan tushunchalarni bir modelga keltirish imkonini berdi. Kontent-tahlil metodi boshqaruv hujjatlarida kommunikatsiya, shaffoflik, javobgarlik, shikoyatlarni ko‘rib chiqish va mediatsiya tartiblarining aks etish darajasini konseptual baholash uchun qo‘llandi. Metodologik tanlovning ilmiy asosliligi shundaki, innovatsion rivojlanishning konfliktogen ta’siri faqat shaxsiy omillar bilan cheklanmaydi, balki institutsional dizayn va boshqaruv sikllari bilan belgilanadi; demak, integrativ yondashuv zarur [4; 6].

Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta’lim muassasalarida nizolar profilaktikasini tushuntiruvchi integrativ model quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda asoslandi: manbalar, dinamik jarayon, risk zonalari, profilaktik mexanizmlar va baholash indikatorlari. Manbalar blokida konfliktogen omillar besh guruhga ajratildi: resurslar bilan bog‘liq omillar (moliya, vaqt, laboratoriya va raqamli infratuzilma, grantlar), vakolat va rol omillari (qaror qabul qilish darajalari, kollegiallik va ma’muriy vertikal o‘rtasidagi taranglik), maqsadlar va motivatsiya omillari (innovatsiya natijalarini turlicha talqin qilish, KPI va akademik qadriyatlar ziddiyati), kommunikatsion omillar (axborot asimmetriyasi, noaniq talablar, norasmiy mish-mishlar), hamda tashkiliy madaniyat omillari (adolat hissi, ishonch darajasi, ochiqlik va xatolarga munosabat). Dinamik blokda nizo odatda latent norozilik, pozitsiyalar qotishi, ochiq qarama-qarshilik va institutsional oqibatlar bosqichlari orqali rivojlanishi, innovatsiya bosqichlari esa aynan ushbu dinamikani tezlashtirishi qayd etildi.

Risk zonalari innovatsion o‘zgarishlar hayotiy sikliga bog‘landi. Dastlabki dizayn va rejalashtirish bosqichida risk ko‘proq maqsadlarning noaniqligi, manfaatdor tomonlarning cheklangan ishtiroki va resurslar va’dasi bilan real imkoniyatlar o‘rtasidagi tafovutda namoyon bo‘ldi. Joriy etish bosqichida risk jarayonlar yuklamasining oshishi, vakolatlarning qayta taqsimlanishi va yangi texnologiyalarni egallashdagi tengsizliklar bilan kuchaydi. Konsolidatsiya bosqichida esa baholash mezonlari va rag‘batlantirish tizimining adolatli qabul qilinishi, natijalarni tan olish va kadrlar siyosatidagi shaffoflik asosiy risk determinantlariga aylandi. Shunga mos ravishda profilaktik mexanizmlar uch darajada tizimlashtirildi: normativ-institutsional daraja (aniq reglamentlar, shikoyat va apellyatsiya yo‘llari, etik kodeks va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartiblari), boshqaruv-kommunikatsion daraja (ishtirokchi rejalashtirish, muntazam muloqot kanallari, qarorlarning asoslarini ochiq e’lon qilish, qayta aloqa), hamda psixologik-pedagogik daraja (konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish, rahbarlar uchun muzokara va mediatsiya ko‘nikmalari, stress va kasbiy kuyishni profilaktika qilish).

Modelning amaliy ishlashini ta’minlash uchun indikatorlar tizimi taklif qilindi. Erta ogohlantirish indikatorlariga anonim so‘rovlar orqali ishonch va adolat indekslari, kommunikatsiya qoniqish ko‘rsatkichlari, jamoalarda “axborot bo‘shlig‘i” darajasi, shikoyatlar dinamikasi, kadrlar almashinuvi va mehnat intizomi buzilishlari chastotasi kiritildi. Jarayon indikatorlari sifatida qaror qabul qilishda ishtirok ulushi, reglamentlarning bajarilish darajasi, nizoli holatlarni ko‘rib chiqish muddati va mediatsiya seanslari ulushi belgilandi. Natija indikatorlari esa ochiq nizolar sonining kamayishi, sudgacha yetib boradigan kelishmovchiliklar ulushi pasayishi, innovatsion loyihalar muddatida yakunlanishi, hamda xodimlar qoniqishining barqarorlashuvi bilan ifodalandi. Ushbu indikatorlar universitetning sifat menejmenti sikliga integratsiyalashishi mumkin bo‘lgan kuzatuv konturini hosil qiladi.

Olingan natijalar innovatsion rivojlanish va nizo profilaktikasini alohida boshqariladigan yo‘nalishlar emas, balki yagona institutsional boshqaruv arxitekturasining o‘zaro bog‘liq komponentlari sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Konfliktologiyada nizo manbalari ko‘pincha resurslar va idrok etilgan adolatsizlik bilan izohlanadi; ta’lim tashkilotlarida esa bu omillar akademik erkinlik, professional avtonomiya va kollegiallik kabi qadriyatlar bilan murakkab kesishadi [1; 4]. Taklif etilgan model aynan shu kesishuvni boshqaruv sikllari va innovatsiya bosqichlari bilan bog‘lab, profilaktikani “oldindan ko‘rish va muvofiqlashtirish” logikasiga o‘tkazadi. Xalqaro adabiyotlarda o‘zgarishlarni boshqarish bo‘yicha yondashuvlar ishtirok, kommunikatsiya va adolatni muvaffaqiyatning muhim shartlari sifatida qayd etadi; bizning natijalar ham ushbu tezisni oliy ta’limning ichki nizolar dinamikasi kontekstida aniqlashtiradi, xususan, adolatni faqat rag‘bat taqsimoti emas, balki qaror qabul qilish jarayonining shaffofligi va izohlanishi sifatida talqin qiladi [5; 7]. O‘zbekiston sharoitida

innovatsion boshqaruvning normativ va tashkiliy modernizatsiyasi davom etayotgan bir paytda, profilaktika indikatorlarini sifat menejmenti tizimiga kiritish amaliy jihatdan muhim, chunki u nizo bilan ishlashni reaktiv choradan proaktiv boshqaruvga aylantiradi [2; 3].

Nazariy jihatdan, “manba, dinamik, risk, profilaktika” zanjiri nizolarni muqarrar “psixologik mos kelmaslik” natijasi sifatida emas, balki institutsional sharoitlar va boshqaruv qarorlarining kutilmagan oqibatlari sifatida ko‘rishga yordam beradi. Amaliy jihatdan, indikatorlar to‘plami rahbarlar uchun murakkab ijtimoiy jarayonni o‘lchab borish imkonini yaratadi, biroq bunday o‘lchashning ehtiyotkor etik chegaralari mavjud: anonimlik, ma’lumotlarning maxfiyligi va xodimlarni nazorat qilish emas, balki qo‘llab-quvvatlash maqsadining ustuvorligi ta’minlanmasa, indikatorlar o‘zi konfliktogen omilga aylanishi mumkin. Tadqiqot cheklovlari shundaki, u asosan nazariy sintez va ikkilamchi manbalarga tayangan; indikatorlar tizimi turli universitet turlarida empirik validatsiyani talab qiladi, shuningdek, fakultetlar kesimidagi madaniy farqlar, fanlar xususiyati va hududiy kontekstlar profilaktika mexanizmlarining ishlashiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalish sifatida universitetlarda erta ogohlantirish indikatorlarining prognoz kuchini statistik sinovdan o‘tkazish, mediatsiya institutining tashkiliy samaradorligini baholash va innovatsion loyihalar portfeli boshqaruvida nizo risklarini modellashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi jarayonida nizolar profilaktikasi barqaror o‘zgarishlar uchun zarur institutsional shart ekanini asoslab berdi. Innovatsiyalar nizo ehtimolini oshiruvchi resurs, vakolat, motivatsiya, kommunikatsiya va tashkiliy madaniyat omillarini faollashtirishi, nizo dinamikasi esa innovatsiya bosqichlariga bog‘liq ravishda tezlashishi konseptual tarzda ko‘rsatildi. “Manba, dinamik, risk, profilaktika” zanjiri asosida ishlab chiqilgan integrativ model profilaktik mexanizmlarni normativ-institutsional, boshqaruv-kommunikatsion va psixologik-pedagogik darajalarda uyg‘unlashtirish zarurligini belgiladi. Amaliy natija sifatida erta ogohlantirish, jarayon va natija indikatorlaridan iborat monitoring konturi taklif etildi. Ushbu yondashuv universitetlarda nizolarni reaktiv hal etishdan ko‘ra, ularni oldindan ko‘ra bilish, konstruktiv muloqot va adolatli boshqaruv orqali eskalatsiyani cheklash hamda innovatsion tashabbuslarning legitimligi va qabul qilinishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология: учебник. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. 551 с.

2. Қодиров Б. Р. Таълим менежменти: назария ва амалиёт. Тошкент: Фан ва технология, 2021. 312 б.

3. Рахимов Ш. М. Олий таълим муассасаларини бошқаришда инновацион ёндашувлар. Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. 240 б.

4. Deutsch M., Coleman P. T., Marcus E. C. The Handbook of Conflict Resolution: Theory and Practice. San Francisco: Jossey-Bass, 2014. 1088 p.

5. Kotter J. P. Leading Change. Boston: Harvard Business School Press, 1996. 208 p.

6. Schein E. H. Organizational Culture and Leadership. 5th ed. Hoboken: John Wiley and Sons, 2017. 464 p.

7. Robbins S. P., Judge T. A. Organizational Behavior. 18th ed. Harlow: Pearson, 2019. 784 p.

Mardiyeva Dilorom
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESS VA BURNOUT SINDROMINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktab o’qituvchilarida kasbiy kuyish (burnout) sindromining kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu psixologik zo’riqish jarayonining pedagoglarning kasbiy faoliyatiga ta’siri va ushbu ta’sir natijasida ta’lim jarayonidagi oqibatlari tahlil qilinadi. Maqola so’ngida kasbiy kuyish (burnout) kelib chiqishining asosiy sabablari va aniqlash metodikalari bo’yicha nazariy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *kasbiy kuyish, stress, o’qituvchi, emotsional zo’riqish, ta’lim tizimi, Maslach, MBI metodikasi, Boyko kuyish testi*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА И СИНДРОМА БУРНОУТ У УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются причины возникновения синдрома профессионального выгорания (выгорания) у школьных учителей. Также анализируется влияние этого процесса психологического напряжения на профессиональную деятельность педагогов и последствия этого влияния на образовательный процесс. В конце статьи представлены теоретические данные об основных причинах возникновения профессиональных ожогов (выгорания) и методах их выявления.*

Ключевые слова: *профессиональное выгорание, стресс, учитель, эмоциональное напряжение, система образования, Маслач, методика MBI, тест на выгорание Бойко*

CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF PROFESSIONAL STRESS AND BURNOUT SYNDROME IN TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the causes of the origin of occupational burnout (burnout) syndrome in school teachers. The impact of this psychological strain process on the professional activities of teachers and the consequences of this impact on the educational process are also analyzed. At the end of the article, theoretical data on the main causes of the origin of Occupational burns (burnout) and methods of detection are presented.*

Key words: *professional burnout, stress, teacher, emotional stress, education system, Maslach, MBI methodology, Boyko burnout test*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyatning muhim bo’g’ini sifatida o’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim va ko’nikmalarni berishdek o’ta mas’uliyatli vazifani o’z zimmasiga olgan. Shu o’rinda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar faoliyati tobora murakkablashmoqda. Bu esa o’qituvchilarda turli psixologik muammolar, xususan kasbiy kuyish (burnout) sindromining kelib chiqishiga sabab bo’lmoqda. Kasbiy kuyish-bu uzoq muddatli stress natijasida kelib chiqadigan jismoniy va aqliy charchoq holatidir. Ushbu muammo faqat o’qituvchining o’zigagina emas balki ta’lim sifati, o’quvchilarning rivojlanish darajasiga ham ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kasbiy kuyish (burnout) tushunchasi ilk bor 1974-yilda taniqli psixolog olim Hilbert Freudenberger tomonidan kiritilgan. U kasbiy kuyishni o’tkir jismoniy, ruhiy va ruhiy charchoqqa olib keladigan jiddiy va stressli holat deb ta’riflagan. Dunyo olimlari tomonidan ushbu muammoni aniqlashning bir qancha metodlari ishlab chiqilgan. Quyida burnoutni aniqlashda o’qituvchilar uchun eng mos bo’lgan bir nechta metodikalar keltirilgan:

Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasi. Christina Maslach burnout muammosini chuqur o’rgandi va 1981-yilda Maslach Burnout inventory (MBI) metodikasiga asos soldi. Ushbu metodika kasbiy kuyish (burnout) darajasini aniqlab beruvchi dunyodagi eng mashhur psixodiagnostik

metodikalardan biri hisoblanadi. Metodika asosan insonning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan emotsional holatini baholaydigan asosiy 3 komponentdan iborat:

a. Emotsional charchash – bu holda o‘qituvchida energiya tugaydi, hissiy kuchlanish ortadi, uyqu buziladi, stress kuchayadi.

b. Depersonalizatsiya (Cynicism) - o‘quvchilarga nisbatan sovuqlashish, befarqlik, ularni texnik obyekt sifatida qabul qilish, qo‘pollashish.

c. Professional yutuqlarning pasayishi - o‘z kasbiy yutuqlarini past baholash, “men hech narsaga yaramayman” degan kayfiyatning kuchayishi, motivatsiyaning yo‘qolishi.

Metodika odatda 22 ta savoldan iborat bo’lib, har bir savolga respondent o’z ichki holatidan kelib chiqib javob beradi. Javoblar Likert shkalasi (1dan 6 gacha) asosida baholanadi. Natijalar 3 komponent bo’yicha alohida tavsiflanadi va uchala ko’rsatkich birgalikda insonda burnout darajasini aniqlab beradi. Metodika asosan o’qituvchilar, shifokorlar, psixologlar va ijtimoiy xodimlarda ko’p qo’llaniladi. Maslach va Leiter birgalikda olib borgan tadqiqot natijalariga ko’ra o’qituvchilar va shifokorlar eng ko’p burnoutga uchraydigan kasb egalari sifatida aniqlangan. O’qituvchilar faoliyati doimiy muloqot, jiddiy kasbiy mas’uliyat va yuqori ijtimoiy talablarga asoslanganligi sababli ushbu sindromga moyillik ularda birmuncha yuqori bo’ladi.

Boyko bo‘yicha emotsional kuyish testi. 1996-yilda rus olimi Viktor Boyko tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo’lib, insonda emotsional kuyish darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ham aynan o’qituvchilar, shifokorlar, psixologlar kabi “insonlar bilan ishlovchi“ kasblar uchun juda muhim hisoblanadi. Metodika testlari 3 fazadan iborat:

a. Zo’riqish (tension) fazasi – bu fazada insonda ichki stress va tashvish kuchayadi. Shaxs “tuzoq” (chiqib ketolmaslik) hissiga tushib qoladi.

b. Rezistentlik (Resistance) fazasi – bu fazada inson stressga moslashishga harakat qiladi. Mijoz yoki o’quvchilarga nisbatan sovuqqonlik oshadi.

c. Charchash (Exhaustion) fazasi – bu faza eng og’ir bosqich hisoblanib, psixomatik kasalliklar, xususan, bosh og’rig’i, uyqusizlik kabilar bilan xarakterlanadi.

Boyko testi 84 ta savoldan iborat bo’lib, har bir savolga “ha” yoki “yo’q” tarzida javob beriladi. Natijalar har bir faza bo’yicha alohida talqin qilinadi.

Copenhagen Burnout Inventory (CBI) metodikasi. Ushbu metodika emotsional kuyish darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan zamonaviy psixologik metodika hisoblanadi. Metodika 2005-yili National Institute for Occupational Health Denmark tomonidan yaratilgan bo’lib asosiy ilmiy asoslari Kristensen Tage Sondergaard va uning hamkasblari tomonifdan chop etilgan tadqiqotlarda bayon etilgan. Metodika MBIga muqobil sifatida amaliyotda keng qo’llaniladi. Boshqa metodikalardan farqli ravishda CBI burnoutni faqat ish bilan bog’liq emas, balki umumiy charchash va insonlar bilan munosabatdagi zo’riqishlar orqali ham baholaydi. Metodika 3 ta asosiy shkaladan iborat:

a. Shaxsiy burnout (Personal burnout) – umumiy jismoniy va emotsional charchashni o’lchaydi

b. Ish bilan bog’liq burnout (Work-related burnout) – Ish jarayonidagi stress va charchoq darajasini o’lchaydi

c. Mijozlar bilan bog’liq burnout (Client-related burnout) – insonlar bilan ishlashdan keladigan zo’riqish

Metodika testlari odatda 19 ta savoldan iborat bo’lib javoblar Likert shkalasida beriladi. Har bir javob foizlarga aylantirilib har bir shkala bo’yicha o’rtacha ball olinadi

Oldenburg Burnout Inventory (OLBI) metodikasi. Ushbu metodika 2003-yilda Evangelia Demerauti va Arnold Bakker tomonidan yaratilgan bo’lib burnoutni faqat emotsional zo’riqish emas, balki ishdan uzoqlashish (disengagement) orqali ham baholaydi. Ayni shu jihati bilan MBIdan farq qiladi.

Metodika tarkibiy jihatdan 2 ta asosiy komponent:

Charchash (Exshaustion) – jismoniy, emtsional va kognitiv holdan toyish. Ishdan charchash hissi

Uzoqlashish (Disengagement) – ishga nisbatan befarqlik, ishdan “ichki uzoqlashish” holati kabilar bilon ifodalanadi.

Metodika test ko'rinishida bo'lib, savollar soni 16 tadan iborat. Javoblar Likert shkalasida beriladi. Farqli jihati savollarning bir qismi teskari (reverse) shaklda beriladi, bu esa natijalarning ishonchliligini oshiradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan burnout atamasi aynan qo'llanilmagan bo'lsada, unga mazmunan juda yaqin bo'lgan – stress, emotsional zo'riqish va pedagogik muammolar keng o'rganilgan. Xususan E.G'oziyev psixologik jihatdan insonning emotsional holatlari va ruhiy jarayonlarini keng tadqiq qilgan.

So'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston ta'lim tizimi pedagoglarida balki, dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimi pedagoglarida ham kasbiy kuyish (burnout) darajasi yuqorilab bormoqda. Xususan Singapurda 18-25%, Finlandiyada 10-15%, Buyuk Britaniyada 25-40%, AQSHda 40-60%, Germaniyada 30-40%, Yaponiyada 45-55%, Kanadada 64%, O'zbekistonda 74,1% o'qituvchilarda burnout sindromi kuzatilmoqda. Bu holat asosan yuqori ish yuklamasi, ta'lim tizimlarining tez o'zgarishi, moddiy va psixologik bosimlar, o'quvchilar ota-onalar va rahbarlar bilan munosabatlardagi nizolar ta'sirida kelib chiqmoqda.

Tahlil va natijalar. Psixologik adabiyotlarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishiga olib keladigan omillarning uchta guruhi mavjud: huquqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar, shaxsiy xususiyatdagi omillar, ijtimoiy-psixologik xarakterdagi omillar.

Deformatsiyaning dastlabki shartlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Deformatsiyaning dastlabki shartlari. oxir-oqibat odamni psixologik to'siqqa olib keladigan monoton funktsiyalar va harakatlar: agar u o'zini yangi sharoitda topsa, unga moslashish qiyin bo'ladi; kasb tanlash motivlariga e'tibor berish: bu o'zining muhimligini isbotlash, ma'lum bir ijtimoiy mavqega ega bo'lish, hokimiyatga erishish istagi bo'lishi mumkin; super umidlar oxirida haqiqatga mos kelmaydigan kasbiy faoliyatning boshlanishi.

Bu omillar faqat oldingi shartlar bo'lib, oxir-oqibat, ertami-kechmi ishchi dim)ning kasbiy deformatsiyasiga olib keladi. Deformatsiya rivojlanishining asosiy sabablari: bu sohada ishlashni istamaslik - ba'zilar bu ish ular uchun emasligini darhol tushunishadi, kimdir yillar kerak; ish yillari davomida to'plangan rofessional charchoq; yoshga bog'liq o'zgarishlar - yoshligingizda bu kasb sizga mos edi va endi siz o'z vazifalaringizni avtomatik ravishda bajarasiz, garchi maqsadlar yosh bilan o'zgargan bo'lsa ham; o'z ishining maqsadlarini noto'g'ri tushunish; onotoniya - doimiy monoton ish; ortiqcha ish yuki; yuqori o'ziga ishonch;yuqori darajadagi asabiylashish, charchoq; doimiy stress; noto'g'ri intizom; sizning xizmatlaringiz hamkasblar tomonidan tan olinmagan taqdirda o'zingizni ishlashga bag'ishlash; keskinlik, hamkasblar o'rtasidagi nizolar; ijodkorlik va yangi g'oyalar muhokamasiz rad etilganda, o'zini namoyon qilish uchun sharoit yo'qligi; qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish, kasbiy o'sishning mumkin emasligi.Muayyan odamda deformatsiyaning sabablari biroz boshqacha bo'lishi mumkin - har birimiz individualmiz. Umumiy sabablar orasida ishning monotonligi, monoton funktsiyalari, yuqori darajadagi stress, charchoq, professional charchoq asosiy sabablarga kiradi. Professional deformatsiya ham foydali, ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zida deformatsiya haqiqatan ham foydalidir, chunki ba'zi sof professional ko'nikmalar kundalik hayotda ko'p yordam berishi mumkin. Misol uchun, xo'jayin lavozimini egallagan kishi o'z qobiliyatlarini qandaydir oilaviy tadbirni tashkil qilish uchun ishlatishi mumkin. Shifokor har doim birinchi yordamni qanday ko'rsatishni biladi. Eng muhimi, ish va hayot o'rtasidagi chegara haqida unutmang. Siz qisqacha kiritishingiz mumkin professional ishchi normal sharoitda, lekin faqat qisqa vaqt uchun.

Kasbiy deformatsiyaning salbiy qibatlar ko'proq: Ma'muriy zavqlanish hissi - ozmi-ko'pmi muhim mavqega ega bo'lgan odam atrofdagilarga past nazar bilan qarasa; Hissiy charchash - ish shunchalik ko'p singib ketganda, psixologik himoya to'sig'i tushib qolsa, odam yonib ketadi va hayotning ma'nosini ko'rmaydi; Boshqaruv eroziyasi - deformatsiya natijasida rahbar samarasiz va tez jazolanadigan zolimga aylanganda; Shaxsning moslashuv qobiliyatining pasayishi - inson o'z kasbida yangi narsa qidirmaganda; Boshqalar bilan munosabatlarning yomonlashishi - ishdagi aloqa shakllari oddiy hayotga o'tkazilganda. Deformatsiyaning bunday oqibatlarini oldini olish uchun uning birinchi belgilarini o'z vaqtida sezish va ularni yo'q qilish kerak. Muammo psixologik xususiyatga ega bo'lganligi sababli, uning barcha sabablari o'zimizda yotadi va shuning uchun uni faqat biz o'zimiz yenga olamiz.

Kasbiy stress va burnout sindromining o‘zaro bog‘liqligi hamda profilaktikasi

Kasbiy stress va burnout sindromi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan psixologik hodisalardir. Kasbiy stress doimiy ravishda davom etib, o‘z vaqtida bartaraf etilmasa, u asta-sekin emotsional, kognitiv va jismoniy resurslarning kamayishiga olib keladi hamda burnout sindromining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli ko‘pgina zamonaviy tadqiqotlarda burnout uzoq davom etuvchi va samarali boshqarilmagan kasbiy stressning yakuniy bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik faoliyat o‘zining yuqori emotsional yuklamasi, doimiy muloqot, mas'uliyat va vaqt bosimi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi. O‘qituvchi nafaqat ta'lim beruvchi, balki tarbiyachi, maslahatchi va ijtimoiy muammolarni hal etuvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli kasbiy stress manbalari ko‘p qirrali bo‘lib, ularga ortiqcha hujjatlashtirish ishlari, dars yuklamasining yuqoriligi, sinfdagi intizom muammolari, ota-onalar bilan muloqot, ma'muriy nazorat, ta'lim tizimidagi islohotlarning tez-tez o‘zgarishi hamda raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish zarurati kiradi. Ushbu omillarning uzoq muddat davom etishi o‘qituvchilarda emotsional charchash, kasbiy motivatsiyaning pasayishi va ish samaradorligining kamayishiga olib keladi.

Tashkiliy darajada esa ta'lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish, o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirish, ortiqcha byurokratik yuklamalarni qisqartirish, ish va dam olish vaqtining muvozanatini ta'minlash hamda muntazam psixologik monitoringni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Shuningdek, yosh pedagoglar uchun mentorlik dasturlarini tashkil etish, kasbiy rivojlanish treninglarini o‘tkazish va psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish burnoutning oldini olishning samarali mexanizmlaridan biridir.

Shunday qilib, kasbiy stressni erta aniqlash va uning profilaktikasini tizimli tashkil etish o‘qituvchilarning ruhiy salomatligini saqlash, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarning psixologik farovonligini ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy salomatligiga, balki o‘quvchilarning ta'lim sifati, motivatsiyasi va umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda o’qituvchilarda kasbiy kuyish (burnout) sindromi kelib chiqishi ko’p omilli hodisa bo’lib, uning yuzaga kelishida kasbiy, psixologik, tashkiliy, moddiy va ijtimoiy omillar o’zaro birlashgan holda namoyon bo’ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun Jahon mamlakatlarida onlayn qo‘llab-quvvatlash ilovalari (Calm, Headspace Education. AQSh), “Education Staff Wellbeing Charter” (Buyuk Britaniya), stressni boshqarish bo’yicha majburiy treninglar, “Teacher Well-being Day” (oyiga 1 kun ruhiy tiklanish. Singapur), mentorlik tizimi (Singapur), “Kokoro-no keikaku” ruhiy salomatlik dasturi (Yaponiya), meditatsiya va psixologik treninglar ishlab chiqilgan bo’lib, bularning barchasi pedagoglar faoliyatini qo’llab quvvatlash, moddiy va ma’naviy jihatdan rag’batlantirish, ish yuklamalarini optimallashtirish va psixologik yordam tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Freudenberg, H. J. Staff burn-out / H. J. Freudenberg // Journal of Social Issues. — 1974. — Vol. 30, № 1.
2. Maslach, C. The truth about burnout: How organizations cause personal stress and what to do about it / C. Maslach, M. P. Leiter. — San Francisco : Jossey-Bass, 1997.
3. G’oziyev, E. Umumiy psixologiya / E. G’oziyev. — Toshkent, 2010.
4. Maslach, C. Understanding the burnout experience / C. Maslach, M. P. Leiter // World Psychiatry. — 2016. — Vol. 15, № 2. — P. 103–111.
5. Kristensen, T. S. The Copenhagen Burnout inventory: A new tool for the assessment of burnout / T. S. Kristensen, M. Borritz, E. Villadsen, E. Kristensen // Work & Stress. — 2005. — Vol. 19, № 3. — P. 192–207.
6. Demerouti, E. The Oldenburg Burnout Inventory: A good alternative to measure burnout / E. Demerouti, A. Bakker. — 2003.

Boboniyozova Manzura Karim qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistri

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ROMANLARI: “YALDO KECHASI” ROMANIDA QODIRIY AN’ANALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada istiqlol davri o‘zbek romanchiligida Abdulla Qodiriy ijodiy an’analarining davomiyligi “Yaldo kechasi” romani misolida tahlil qilinadi. Maqolada Qodiriy romanlariga xos tarixiylik, milliy ruh, obraz yaratish mahorati, ijtimoiy-ma’naviy muammolarning badiiy talqini hamda xalqona ifoda uslubining zamonaviy o‘zbek romanlarida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, “Yaldo kechasi” romanida milliy qadriyatlar, insoniy munosabatlar, ruhiy kechinmalar va davr muammolarining badiiy ifodalanishi Qodiriy an’analari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari istiqlol davri o‘zbek nasrida mumtoz romanchilik tajribasi va zamonaviy badiiy tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *istiqlol davri, o‘zbek romani, “Yaldo kechasi”, Abdulla Qodiriy, Qodiriy an’analari, milliy ruh, tarixiylik, badiiy obraz, roman poetikasi, adabiy vorislik.*

УЗБЕКСКИЕ РОМАНЫ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ: ТРАДИЦИИ КАДЫРИ В РОМАНЕ “НОЧЬ ЯЛДО”

Аннотация. *В данной статье анализируется преемственность творческих традиций Абдуллы Кадыри в узбекской романистике периода независимости на примере романа “Ночь Ялдо”. В статье рассматриваются такие характерные особенности романов Кадыри, как историзм, национальный дух, мастерство создания художественных образов, художественная интерпретация социально-нравственных проблем, а также народность стиля выражения. Особое внимание уделяется тому, как в романе “Ночь Ялдо” отражены национальные ценности, человеческие отношения, внутренние переживания героев и проблемы эпохи. Эти особенности изучаются в сопоставлении с традициями Кадыри. Результаты исследования способствуют раскрытию органической связи между опытом классической узбекской романистики и современным художественным мышлением в узбекской прозе периода независимости.*

Ключевые слова: *период независимости, узбекский роман, “Ночь Ялдо”, Абдулла Кадыри, традиции Кадыри, национальный дух, историзм, художественный образ, поэтика романа, литературная преемственность.*

UZBEK NOVELS OF THE INDEPENDENCE PERIOD: QODIRIY TRADITIONS IN THE NOVEL “YALDO KECHASI”

Abstract. *This article analyzes the continuity of Abdulla Qodiriy’s creative traditions in Uzbek novels of the independence period through the example of the novel “Yaldo Kechasi”. The article examines such characteristic features of Qodiriy’s novels as historicity, national spirit, mastery of character creation, artistic interpretation of social and moral issues, and the use of a folk-oriented expressive style. Special attention is paid to the artistic representation of national values, human relationships, psychological experiences, and problems of the period in “Yaldo Kechasi”. These aspects are studied in comparison with Qodiriy’s literary traditions. The results of the study help to reveal the close connection between the experience of classical Uzbek novel writing and modern artistic thinking in Uzbek prose of the independence period.*

Key words: *independence period, Uzbek novel, “Yaldo Kechasi”, Abdulla Qodiriy, Qodiriy traditions, national spirit, historicity, literary image, novel poetics, literary continuity.*

Kirish. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida roman janri badiiy tafakkur, tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash va inson ruhiyatini chuqur tasvirlash imkoniyatlari bilan alohida ahamiyat kasb

etadi. Mustaqillik yillarida yaratilgan romanlarda xalqimizning o‘tmishi, ijtimoiy hayoti, ma’naviy qadriyatlari, inson taqdiri, shaxs va jamiyat munosabatlari yangicha badiiy yondashuv asosida talqin qilina boshladi. Bu davr romanchiligida milliy adabiy an’analarga murojaat qilish, xususan, Abdulla Qodiriy ijodiy tajribasidan samarali foydalanish muhim adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi sifatida milliy nasr taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutadi. Uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida tarixiy voqelik, milliy ruh, xalq hayoti, ijtimoiy ziddiyatlar, insoniy munosabatlar va badiiy obraz yaratish mahorati yuksak darajada ifodalangan. Qodiriy romanlarida tarixiylik va hayotiylik, xalqona til va badiiy uslub, shaxs taqdiri va jamiyat muammolari uyg‘un holda tasvirlanadi. Shu bois uning ijodiy an’analari keyingi davr o‘zbek romanchiligi, jumladan, istiqlol davri nasri uchun ham muhim adabiy maktab vazifasini bajaradi.

Istiqlol davri romanlarida Qodiriy an’analari turli shakllarda davom ettiriladi. Bunda tarixiy voqelikni badiiy talqin qilish, milliy qadriyatlarni ulug‘lash, obrazlar ruhiyatini chuqur ochish, ijtimoiy-ma’naviy muammolarni inson taqdiri orqali ko‘rsatish kabi jihatlar alohida ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, “Yaldo kechasi” romanida inson qalbidagi iztirob, davr ziddiyatlari, ma’naviy izlanishlar, milliy xotira va axloqiy qarashlar badiiy tasvir vositasida yoritiladi. Ushbu asarda Qodiriy ijodiga xos bo‘lgan milliylik, tarixiy tafakkur, ruhiy tahlil va xalqona ifoda an’analarining zamonaviy talqini kuzatiladi.

“Yaldo kechasi” romanini Qodiriy an’analari bilan bog‘liq holda o‘rganish istiqlol davri o‘zbek romanchiligidagi adabiy vorislik masalasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki har bir davr adabiyoti avvalgi badiiy tajribalar asosida rivojlanadi, yangi mavzu va g‘oyalarni ilgari surar ekan, milliy adabiyotning mustahkam an’analariga tayanadi. Qodiriy ijodiy maktabi ham zamonaviy o‘zbek romanlarida obraz yaratish, voqelikni badiiy umumlashtirish, milliy xarakter va ma’naviy muammolarni yoritishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Istiqlol davri o‘zbek romanchiligida tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, adabiy vorislik va badiiy an’analarni yangicha talqin qilish masalalari muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy ijodiy maktabi va uning keyingi davr o‘zbek romanlariga ta’sirini o‘rganish adabiyotshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi sifatida milliy nasr taraqqiyotiga yangi shakl, mazmun va badiiy-estetik mezon olib kirgan ijodkor sifatida baholanadi.

Adabiyotshunoslikda Qodiriy ijodi, avvalo, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali tahlil qilinadi. Ushbu asarlarda tarixiy voqelik, milliy xarakter, oilaviy-maishiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, shaxs taqdiri va jamiyat muammolari badiiy jihatdan chuqur yoritilgan. Tadqiqotchilar Qodiriy romanlarida tarixiylik va hayotiylikning uyg‘unligi, milliy ruhning kuchli ifodasi, xalqona til, obraz yaratish mahorati hamda ijtimoiy-ma’naviy muammolarning badiiy talqini yetakchi o‘rin tutishini qayd etadilar.

Qodiriy an’analarini o‘rganishda adabiy vorislik tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Adabiy vorislik deganda avvalgi adabiy tajriba, badiiy uslub, obraz yaratish tamoyillari va g‘oyaviy-estetik qarashlarning keyingi davr ijodkorlari tomonidan davom ettirilishi va yangicha mazmunda rivojlantirilishi tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, istiqlol davri romanlarida Qodiriy ijodiy tajribasiga murojaat qilish milliy adabiyotning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Istiqlol davri o‘zbek romanlari haqidagi ilmiy qarashlarda tarixiy haqiqatga yangicha munosabat, milliy qadriyatlarni tiklash, xalq xotirasini badiiy talqin qilish, mustamlakachilik davri fojialarini ochish va inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish masalalari alohida ta’kidlanadi. Mustaqillikdan keyingi davrda yozilgan romanlarda tarixiy mavzular faqat o‘tmishni tasvirlash vositasi bo‘lib qolmay, balki bugungi kun ma’naviy ehtiyojlarini anglash, milliy ong va o‘zlikni mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

“Yaldo kechasi” romani aynan shu jarayonda e’tiborga molik asar sifatida baholanadi. Manbalarda Xayriddin Sulton qalamiga mansub “Yaldo kechasi” asari adabiy hayotda muhim voqea bo‘lgani, romanda mustabid tuzum qabihliklari arxiv materiallari, tarixiy ma’lumotlar va mustam-

lakachilik davri zulmini ko‘rgan insonlar hikoyalari asosida yoritilgani qayd etiladi. Shuningdek, ayrim adabiy-ma’rifiy chiqishlarda roman milliy ozodlik harakati namoyandalari hayotini aks ettirgan yangi obrazlar va yangicha talqinlar bilan qimmatli ekani ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Yaldo kechasi” romanini Qodiriy an’analari bilan bog‘liq holda o‘rganish bir necha ilmiy yo‘nalishda olib borilishi mumkin. Birinchidan, romanda tarixiy voqelik va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi tahlil qilinadi. Bu jihat Qodiriy romanlariga ham xos bo‘lib, adib tarixiy davr manzarasini shaxs taqdiri, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy ziddiyatlar orqali ochib bergan. “Yaldo kechasi”da ham tarixiy haqiqat badiiy tafakkur orqali qayta talqin qilinadi.

Ikkinchidan, Qodiriy an’analarining muhim ko‘rinishlaridan biri milliy ruh va milliy xarakter masalasidir. Qodiriy qahramonlari o‘z davrining ijtimoiy-madaniy muhiti, axloqiy qarashlari va milliy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi. “Yaldo kechasi” romanida ham xalq taqdiri, milliy ozodlik g‘oyasi, tarixiy adolat, ma’naviy uyg‘onish va insoniy mas’uliyat kabi masalalar yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa asarni Qodiriy ijodiy an’analari bilan qiyosiy o‘rganish imkonini beradi.

Uchinchidan, mavjud ilmiy-adabiy manbalarda “Yaldo kechasi” zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi muhim badiiy-estetik hodisa sifatida baholanib, uning g‘oyaviy mazmuni, tarixiy asoslari va badiiy yechimlari tahlilga loyiq ekani ko‘rsatiladi. Bu fikrlar romanni faqat tarixiy mavzudagi asar sifatida emas, balki adabiy an’ana, badiiy izlanish va milliy tafakkur davomiyligi nuqtayi nazaridan ham o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. Istiqlol davri o‘zbek romanchiligida milliy tarix, xalq xotirasi, shaxs taqdiri va ijtimoiy-ma’naviy muammolarni yangicha badiiy talqin qilish jarayoni kuchaydi. Bu davr adabiyotida tarixiy mavzularga murojaat qilish oddiy o‘tmish tasviri emas, balki milliy o‘zlikni anglash, xalqning murakkab kechmishini badiiy idrok etish va zamonaviy inson tafakkuri bilan bog‘liq muammolarni yoritish vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Shu jihatdan “Yaldo kechasi” romanida Abdulla Qodiriy ijodiy an’analarining davom etishi istiqlol davri o‘zbek romanlaridagi adabiy vorislik masalasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Yaldo kechasi” romanida Qodiriy an’analarining eng muhim ko‘rinishlaridan biri tarixiylik tamoyilidir. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida tarixiy davr manzarasini shaxs taqdiri, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar va milliy muhit orqali yoritgan edi. “Yaldo kechasi” romanida ham tarixiy voqelik badiiy tafakkur orqali qayta talqin qilinadi. Asarda tarixiy muhit, davr ziddiyatlari, xalq boshidan kechirgan og‘ir sinovlar va inson ruhiyatidagi iztiroblar badiiy obrazlar vositasida ochib beriladi.

Romanda Qodiriy an’analariga xos bo‘lgan milliy ruh va xalqona tafakkur kuchli seziladi. Qodiriy asarlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oila, or-nomus, vatanparvarlik, adolat va insoniylik kabi tushunchalar asosiy g‘oyaviy mezonlardan biri bo‘lgan. “Yaldo kechasi” romanida ham xalq taqdiri, tarixiy xotira, ma’naviy uyg‘onish, insoniy mas’uliyat va milliy ozodlik kabi masalalar yetakchi o‘rin tutadi. Bu jihat romanning faqat tarixiy voqealarni tasvirlash bilan cheklanmasdan, balki milliy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarni badiiy ifodalashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Asarda obraz yaratish mahorati ham Qodiriy an’analari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Abdulla Qodiriy o‘z romanlarida qahramonlarni biryoqlama emas, balki ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, axloqiy tanlovi va jamiyat bilan munosabati orqali tasvirlagan. “Yaldo kechasi” romanida ham qahramonlar ruhiyati, ularning tarixiy voqelik oldidagi munosabati, ichki kurashi va hayotiy pozitsiyasi badiiy tahlil qilinadi. Bu esa romanda inson shaxsini tarixiy jarayon bilan bog‘liq holda ko‘rsatish an’anasi davom ettirilganini bildiradi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, “Yaldo kechasi” romanida Qodiriy ijodiga xos ijtimoiy-ma’naviy muammolarni badiiy talqin qilish usuli ham davom ettiriladi. Qodiriy romanlarida jamiyatdagi adolatsizlik, jaholat, eskilik va yangilik kurashi, inson erki va ma’naviy tanlov masalalari muhim o‘rin egallagan. “Yaldo kechasi”da ham davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasi, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, tarixiy adolatsizlik oqibatlari va ma’naviy izlanishlar badiiy ifodasini topadi. Bu holat romanning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi.

Romanda “yaldo kechasi” ramziy ma’noga ega badiiy obraz sifatida talqin qilinadi. Yaldo - uzun va qorong‘i tun ma’nosini anglatib, asar mazmunida xalq boshidan kechirgan og‘ir tarixiy davr, zulm, iztirob, ma’naviy sinov va yorug‘likka intilish ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ramziy ifoda

Qodiriy romanlaridagi badiiy umumlashtirish an'analariga yaqin turadi. Chunki Qodiriy ham tarixiy voqealarni faqat voqea sifatida emas, balki xalq taqdiri va milliy ruh bilan bog'liq ramziy-badiiy hodisa sifatida talqin qilgan.

Til va uslub masalasida ham Qodiriy an'analarining davomiyligi ko'zga tashlanadi. Qodiriy asarlarida xalqona ifoda, tabiiy dialog, obraz nutqining individualligi va tarixiy davr ruhiga mos badiiy til muhim o'rin tutgan. "Yaldo kechasi" romanida ham badiiy til tarixiy muhitni jonlantirish, qahramonlar ruhiyatini ochish va milliy koloritni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Asardagi tasvirlar, dialoglar, ruhiy kechinmalar va tarixiy manzaralar o'quvchini voqelik mohiyatini chuqurroq anglashga undaydi.

Muhokama. "Yaldo kechasi" romanida Qodiriy an'analarining namoyon bo'lishi istiqlol davri o'zbek romanchiligida adabiy vorislik masalasining muhim jihatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Muhokama jarayonida avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Abdulla Qodiriy asos solgan milliy romanchilik maktabi keyingi davr adabiyoti uchun faqat tarixiy tajriba emas, balki badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi ijodiy mezon vazifasini ham bajaradi. "Yaldo kechasi" romanida ushbu an'analar tarixiy xotira, milliy ruh, inson taqdiri, ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatlar va obrazlar ruhiyatini ochish orqali davom ettiriladi.

Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik shunchaki o'tmish hodisalari tasviri sifatida emas, balki xalq hayoti, milliy qadriyatlar va insoniy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. "Yaldo kechasi" romanida ham tarixiy davr manzarasi inson taqdiri, xalq boshidan kechirgan murakkab sinovlar, zulm va adolatsizliklar orqali badiiy ifodasini topadi. Bu jihat asarni Qodiriy an'analari bilan bog'laydi, chunki har ikki holatda ham tarixiylik inson ruhiyati va jamiyat muammolari orqali ochib beriladi.

Romanda milliy ruh masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Qodiriy ijodida milliylik xalqning urf-odatlari, axloqiy qarashlari, oilaviy munosabatlari, or-nomus, vatanparvarlik va adolat tushunchalari orqali namoyon bo'lgan. "Yaldo kechasi"da esa milliy ruh tarixiy xotira, xalqning ozodlikka intilishi, ma'naviy uyg'onish va millat taqdiri bilan bog'liq holda ifodalanadi. Demak, romanda Qodiriy an'analari yangicha tarixiy sharoitda, istiqlol davri badiiy tafakkuri asosida davom ettirilgan.

Muhokama qilinishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat - obraz yaratish masalasidir. Qodiriy qahramonlari o'z davrining ijtimoiy muhitida shakllangan, ichki kechinmalari, orzu-intilishlari va ma'naviy tanlovi orqali ochib berilgan obrazlardir. "Yaldo kechasi" romanida ham qahramonlar faqat voqealar ishtirokchisi sifatida emas, balki tarixiy jarayonning og'irligini o'z ruhiyati orqali his qiluvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ularning iztiroblari, kurashi, umidi va ma'naviy pozitsiyasi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Romandagi "yaldo kechasi" ramzi ham muhokamaga loyiq. Yaldo - eng uzun va qorong'i tun ma'nosini anglatar ekan, asarda u xalq boshidan kechirgan og'ir davr, zulm, sinov va iztirob ramziga aylanadi. Shu bilan birga, uzun tun ortidan tong otishi haqidagi ramziy ma'no xalqning yorug' kelajakka, ozodlikka va adolatga bo'lgan ishonchini ifodalaydi. Bu badiiy ramz Qodiriy romanlaridagi tarixiy voqelikni keng umumlashtirish an'anasiga yaqin turadi.

"Yaldo kechasi" romanida Qodiriy an'analari til va uslub masalasida ham seziladi. Qodiriy asarlarida xalqona ifoda, tabiiy dialog, obrazlar nutqining individualligi va milliy kolorit muhim o'rin tutgan. "Yaldo kechasi"da ham badiiy til tarixiy muhitni gavdalantirish, qahramonlar ruhiyatini ochish va voqealarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bu holat roman poetikasida milliy nasr an'analarining davomiyligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Yaldo kechasi" romanini Qodiriy an'analarining oddiy takrori sifatida baholab bo'lmaydi. Asarda Qodiriy ijodiga xos tarixiylik, milliylik, obraz yaratish va ijtimoiy muammolarni badiiy talqin qilish tamoyillari saqlangan holda, ular istiqlol davri talablari asosida yangicha mazmun bilan boyitiladi. Qodiriy romanlarida jadidchilik, ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalari kuchli bo'lsa, "Yaldo kechasi"da tarixiy xotirani tiklash, mustamlakachilik davri fojialarini anglash va milliy ozodlik ruhini yoritish yetakchi o'ringa chiqadi.

Xulosa. "Yaldo kechasi" romanida Abdulla Qodiriy an'analarining badiiy davomiyligini o'rganish istiqlol davri o'zbek romanchiligida adabiy vorislik masalasi muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, ushbu romanda Qodiriy ijodiga xos bo'lgan tarixiylik, milliy

ruh, xalq taqdiri, obraz yaratish mahorati, ijtimoiy-ma'naviy muammolarni badiiy talqin qilish va inson ruhiyatini chuqur ochish kabi jihatlar o'ziga xos tarzda davom ettirilgan.

Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik xalq hayoti, milliy qadriyatlar va shaxs taqdiri bilan bog'liq holda tasvirlangan bo'lsa, "Yaldo kechasi" romanida ham tarixiy xotira, mustamlakachilik davri fojialari, millat taqdiri va inson qalbidagi iztiroblar badiiy ifoda topadi. Bu esa asarning Qodiriy an'analari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Romanda milliy o'zlikni anglash, ozodlikka intilish, adolat, ma'naviy uyg'onish va insoniy mas'uliyat kabi g'oyalar yetakchi o'rin egallaydi. "Yaldo kechasi" ramzi orqali xalq boshidan kechirgan og'ir tarixiy davr, zulm va iztiroblar, shu bilan birga, yorug' kelajakka bo'lgan ishonch badiiy umumlashtiriladi. Bu jihat Qodiriy romanlaridagi ramziy-badiiy talqin an'analarining zamonaviy davrdagi davomiyligini namoyon etadi.

Shuningdek, asarda obrazlar ruhiyatini ochish, tarixiy voqelikni inson taqdiri orqali ko'rsatish, badiiy til va uslubdan samarali foydalanish kabi jihatlar ham Qodiriy ijodiy maktabi bilan bog'liqdir. Biroq "Yaldo kechasi" romani Qodiriy an'analarini oddiy takrorlamaydi, balki ularni istiqlol davri adabiy-estetik tafakkuri asosida yangicha mazmun bilan boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, "Yaldo kechasi" romani istiqlol davri o'zbek romanchiligida Abdulla Qodiriy an'analarining ijodiy davomiyligini namoyon etuvchi muhim asarlardan biridir. Unda klassik o'zbek romanchiligi tajribasi bilan zamonaviy badiiy tafakkur uyg'unlashadi. Shu bois mazkur romanni Qodiriy an'analari asosida o'rganish o'zbek nasri taraqqiyoti, milliy adabiy vorislik va tarixiy xotiraning badiiy talqinini chuqur anglashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. Roman. - Toshkent: Sharq, 2018.
2. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. Roman. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
3. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
4. Qodiriy, A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
5. Sulton, X. Yaldo kechasi. Roman. - Toshkent: Xaybar-25, 2025.
6. Rizayev, Sh. "Yaldo kechasi" - milliy tarixiy tafakkurni uyg'otgan badiiy hodisa. - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026.
7. "Yaldo kechasi" asarining taqdimoti o'tkazildi. - O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2026.
8. "Yaldo kechasi" - tarixning iztirobli sahifalaridan so'zlovchi asar. - O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2025.
9. "Yaldo kechasi": xulosa va saboqlar. - Jadid.uz, 2026.
10. Mansurova, B. Xayriddin Sulton "Yaldo kechasi" romanining g'oyaviy xususiyatlari. - Global Economic Review Journal, 2026.

Jo‘raqulova Parizoda Otabek qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

A COMPARATIVE ANALYSIS OF CHANGES IN CULTURAL IDENTITY DURING THE LEARNING OF ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *The intricate psychological and sociocultural changes in cultural identity that take place while studying Uzbek and English are examined in this essay. Uzbek is firmly anchored in high-context norms, social hierarchy, and communal responsibility, whereas English is frequently linked to low-context communication and individualistic principles. The study investigates how linguistic patterns, such as honorifics in Uzbek and the egalitarian "you" in English, alter learners' self-perception and social behavior through a comparative comparison of students at the Bukhara State University. The study employs a mixed-methods approach, integrating qualitative interviews with bicultural identification measures to investigate the formation of a "hybrid identity." According to the research, learning a language promotes "identity expansion" rather than the deterioration of the original culture. Students acquire a situational personality that enables them to balance Eastern modesty (andisha) and Western assertiveness. In order to help students, manage the cognitive dissonance that comes with bilingualism and to promote intercultural competency in a globalized educational setting, the study concludes by advocating for the incorporation of cultural psychology into language training.*

Key words: *Cultural identity, English language acquisition, Uzbek linguistics, psycholinguistics, biculturalism, acculturation, social hierarchy, individualistic values, code-switching, cognitive flexibility.*

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINI O‘RGANISH JARAYONIDA MADANIY O‘ZLIKNING O‘ZGARISHI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganish jarayonida madaniy o‘zlikda sodir bo‘ladigan murakkab psixologik va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar tadqiq etiladi. Ingliz tili ko‘pincha past kontekstli muloqot va individualistik qadriyatlar bilan bog‘lansa, o‘zbek tili yuqori kontekstli normalar, ijtimoiy ierarxiya va jamoaviy mas'uliyatga tayanadi. Buxoro davlat universiteti talabalari misolidagi qiyosiy tahlil orqali o‘zbek tilidagi hurmat shakllari (affikslar) va ingliz tilidagi tenglikka asoslangan "you" olmoshi kabi lingvistik modellar o‘rganuvchining o‘zini o‘zi anglashini va ijtimoiy xulq-atvorini qanday o‘zgartirishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda bikutural o‘zlik shkalalari va sifatli intervyularga tayangan aralash metodologiyadan foydalanilib, "gibrid o‘zlik"ning shakllanishi o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish ona madaniyatining inqiroziga (yo'qolishiga) emas, balki "o‘zlikning kengayishi"ga xizmat qiladi. Talabalar G‘arb qat'iyati va Sharq andishasi o‘rtasida muvozanat saqlashga imkon beruvchi situatsion (vaziyatga qarab o‘zgaruvchan) shaxsiyatni shakllantiradilar. Maqola yakunida bilingvizm bilan bog‘liq kognitiv dissonansni boshqarish va globallashgan ta'lim muhitida madaniyatlararo kompetensiyani oshirish maqsadida til pedagogikasiga madaniy psixologiyani integratsiya qilish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Madaniy o‘zlik, ingliz tilini o‘rganish, o‘zbek tilshunosligi, psixolingvistika, bikuturalizm, akkulturatsiya, ijtimoiy ierarxiya, individualistik qadriyatlar, kod almashinuvi, kognitiv egiluvchanlik.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЙ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В данной статье исследуются сложные психологические и социокультурные трансформации культурной идентичности, происходящие в процессе изучения английского и узбекского языков. В то время как английский язык часто ассоциируется с низкоконтекстным общением и индивидуалистическими ценностями, узбекский язык глубоко укоренен в высококонтекстных нормах, социальной иерархии и коллективной ответственности. На*

основе сравнительного анализа учащихся Бухарский государственный университет в работе рассматривается, как лингвистические структуры, такие как формы вежливости в узбекском и эгалитарное «you» в английском, меняют самовосприятие и социальное поведение учащегося. В исследовании используется смешанный метод, сочетающий шкалы бикультурной идентичности и качественные интервью для изучения возникновения «гибридной идентичности». Результаты показывают, что изучение языка ведет не к эрозии родной культуры, а к «расширению идентичности». Учащиеся развивают ситуативную личность, позволяющую им лавировать между западной уверенностью и восточной скромностью (андиша). В заключение обосновывается необходимость интеграции культурной психологии в педагогику для поддержки учащихся в управлении когнитивным диссонансом и развития межкультурной компетенции.

Ключевые слова: *Культурная идентичность, изучение английского языка, узбекская лингвистика, психолингвистика, бикультурализм, аккультурация, социальная иерархия, индивидуалистические ценности, переключение кодов, когнитивная гибкость.*

Introduction. Learning a language involves much more than just mastering syntax, phonology, and vocabulary. Language learning is becoming more widely acknowledged as a significant socio-psychological shift in the modern academic environment, particularly in the multicultural fabric of Uzbekistan. A student at the Bukhara State University is "re-culturing" their identity rather than just "coding" information when they interact with a new language.

tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, subyektiv omillar hayotdan qoniqishga obyektiv omillarga qaraganda ko‘proq ta’sir qiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchilar yetuklik yoshidagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasini ularning qadriyatlari va maqsadlari nuqtai nazaridan baholashni lozim deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham ko‘plab tadqiqotlarda aynan ayollardagi baxtni his qilish va hayotdan qoniqish darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi subyektiv omillar tahlil qilinadi. Bizning fikrimizcha, baxtni his qilish, subyektiv faravonli va hayotdan qoniqish jins, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ham bevosita bog‘liq. Hayotdan qoniqish aynan yosh bilan bog‘liq tushuncha sifatida ko‘rib chiqilganda yoshlar qariyalarga qaraganda kamroq hayotdan qoniqishi aniqlagan. Aynan inson umrining o‘rta yosh bosqichi bo‘lgani uchun ham yetuklik yoshida hayotdan va o‘z- o‘zidan qoniqish, ekzistensial bo‘shliqni to‘ldirish istagi ortadi. Sog‘liqdan tashqari hayotning barcha jabhalaridan qoniqish yoshga qarab ortadi [1].

Xorijiy va mahalliy psixologiyada hayotdan qoniqish ko‘pincha “farovonlik” va “subyektiv farovonlik” tushunchalari bilan parallel ravishda ko‘rib chiqiladi. “Subyektiv farovonlik” insonning o’zidan individual qoniqish va baxt holati sifatida tushuniladi, bu asosan baxtsizlik, tushkunlik, xavotir va umumiy norozilik his-tuyg‘ularining salbiy ta’siri yo‘qligini anglatadi[5].

Ko‘plab o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning amaliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson hayotining uchta sohasi - ijtimoiy munosabatlar, ish va dam olish – hayotdan qoniqishga, subyektiv faravonikni his qilishga erishishning asosiy sohalari hisoblanadi. Bundan tashqari, hayotdan qoniqish turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq (oila qurish yoki yolg‘iz, ish bilan band yoki bekorchi va hokazo)[2].

Yetuklik yoshidagi ayollarda turmush o‘rtog‘i, oila a’zolari, yaqinlarining g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi va hurmatga asoslangan munosabatlari hayotdan qoniqishga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ish haqi, uy-joy sharoitlaridan qoniqish asosan boshqalarning yashash sharoitlari bilan, shuningdek, o‘tmishdagi o‘z yashash sharoitlari bilan taqqoslashga bog‘liq [3].

Hayotdan qoniqish va tashqi ko‘rinish o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjud. Jismoniy jozibadorlik, odatda muhim omil bo‘lmasa-da, ayniqsa yetuklik yoshidagi ayollarda baxt uchun sezilarli darajada muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, jozibali, chiroyli ayollarni ijtimoiy doiralarga osonroq integratsiyalashuvi tufayli yaxshiroq muloqot qobiliyatiga ega ekanligiga ishoniladi [1]. Shunday qilib, hayotdan qoniqishni belgilovchi omillar orasida tadqiqotchilar yosh, millat, sog‘liq, daromad, ta’lim, bo‘sh vaqt, tashqi ko‘rinish va oila, ish, do‘stlar va qo‘shnilar bilan munosabatlar kabi obyektiv omillarni aniqlaydilar. Yetuklik yosh bosqichi o‘z hayotini tushunish va baholash bilan bog‘liq savollarni ko‘ndalang qo‘yish va hal qilish uchun eng qulay davrdir

Tahlil va natijalar. Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar empirik jihatdan asoslab berilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, namoyon bo‘lish xususiyatlari va shaxs faoliyatidagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi.

1-jadval.

S. Maddi va D. Leontyev asosidagi ”Hayotiy chidamlilik diagnostikasi”ning yetuklik yoshidagi ayollarda hayotiy chidamlilik va hayotdan qoniqish o‘rtasidagi tahlil (n = 610)

Shkalalar	Hayotdan qoniqish bilan korrelyatsiya (r)	Mann–Whitney U	P
Moslashuv (adaptatsiya)	0,48**	74812,500	0,000**
Stressga chidamlilik	0,42**	76230,000	0,001**
Umumiy hayotiy chidamlilik	0,50**	73560,000	0,000**

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Metodika natijalarining birlamchi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishning asosiy determinantlari turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, hayotiy

chidamlilikning moslashuv (adaptatsiya) ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan ayollarda hayotdan qoniqish darajasi ham sezilarli darajada yuqori ekanini kuzatishimiz mumkin. (U=74812, p<0,01). Demak, ayolning o‘zini turli ijtimoiy va shaxsiy hayotiy vaziyatlarga moslashtira olish qobiliyati, hayotdan qoniqishning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, stressga chidamlilik darajasi yuqori bo‘lgan respondentlarda hayotdan qoniqish ham ijobiy tarzda oshadi. Bu holat, ayollarning psixologik barqarorligi, muammolarga nisbatan qarshi turish qobiliyati va kundalik hayotdagi qiyinchiliklarni yengish imkoniyatlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillarga asosan aytish mumkinki, yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish nafaqat individual psixologik resurslar bilan, balki ularning ijtimoiy vazifalari, oilaviy va jamiyatdagi roli bilan ham bog‘liq. Shu sababli, hayotiy chidamlilikni oshirish va moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, psixologik maslahatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning shaxsiylashtirilgan shakllari hayotdan qoniqish darajasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, umumiy hayotiy chidamlilik darajasi yuqori bo‘lgan ayollar uchun hayotdan qoniqish ko‘rsatkichlari o‘rtacha va past darajadagi ayollarga nisbatan statistika jihatdan sezilarli farq qiladi (U=73560, p<0,01). Bu esa hayotiy chidamlilikning yetuklik yoshidagi ayollarda subyektiv farovonlik va ijtimoiy qoniqish bilan mustahkam bog‘langanligini tasdiqlaydi. Bu esa yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasini oshirish uchun hayotiy chidamlilikni shakllantirish, stressga chidamlilik va moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik va ijtimoiy strategiyalar zarur ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Hayotdan qoniqishning psixologik determinantlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishning shakllanishi ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda individual xususiyatlar va ijtimoiy muhit omillari o‘zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hayotdan qoniqish faqat tashqi sharoitlar yoki moddiy farovonlik bilan emas, balki shaxsning o‘z hayotini qanday idrok etishi, mavjud vaziyatlarni baholashi va ularga moslashish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, yetuklik davrida ayollar hayot tajribasining ortishi, ijtimoiy rollarning kengayishi hamda oilaviy va kasbiy mas’uliyatlarning ortishi sababli turli psixologik sinovlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda emotsional barqarorlik, rezilentlik va ijobiy o‘zini baholash hayotdan qoniqishning asosiy psixologik resurslari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixologik determinantlar bir-biridan mustaqil emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq tizimni tashkil etadi. Masalan, o‘z-o‘zini yuqori baholaydigan ayollarda emotsional barqarorlik ham yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa stressli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish, muammolarni samarali hal etish va ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi rezilentlikni kuchaytiradi, rezilentlik esa o‘z navbatida hayotdan qoniqish darajasining ortishiga olib keladi. Demak, mazkur determinantlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro ta’sir mexanizmi shakllanadi.

Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida hayot mazmunini anglash alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z hayotining maqsadi va qadriyatlarini aniq belgilagan, o‘z faoliyatining jamiyat va oila uchun ahamiyatini his qiladigan ayollarda subyektiv farovonlik darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Bunday ayollar salbiy hayotiy vaziyatlarni vaqtinchalik qiyinchilik sifatida qabul qilib, ulardan yangi tajriba va rivojlanish imkoniyatlarini izlashga intiladilar. Aksincha, hayot maqsadlarining noaniqligi, kelajakka nisbatan ishonchsizlik va ijtimoiy izolyatsiya hayotdan qoniqish darajasining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalarini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, yetuklik yoshidagi ayollarda psixologik salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Psixologik treninglar, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, rezilentlikni shakllantirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hayotdan qoniqish ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oilaviy psixologik maslahatlar, kasbiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan psixologik xizmatlarni kengaytirish yetuklik yoshidagi ayollarning psixologik farovonligini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, hayotdan qoniqish yetuklik yoshidagi ayollarning shaxsiy kamoloti, psixologik salomatligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ifodalovchi integral ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkichning yuqori darajada shakllanishi emotsional barqarorlik, rezilentlik, ijobiy o‘z-o‘zini baholash, hayot mazmunini anglash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi determinantlarning uyg‘un rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ushbu determinantlarni kompleks ravishda rivojlantirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar nafaqat ayollarning hayotdan qoniqishini oshiradi, balki ularning umumiy psixologik farovonligi va jamiyatdagi faol ishtirokini ham ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan nazariy tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasi bir qator psixologik determinantlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular orasida emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini baholash, rezilentlik, hayot mazmunini anglash, oilaviy munosabatlar sifati hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetakchi o‘rin egallaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi hayotdan qoniqish ayollarning psixologik salomatligi va subyektiv farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksincha, oilaviy nizolar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda stressli hayotiy vaziyatlar hayotdan qoniqish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, yetuklik davrida ayollarning kasbiy faoliyati va ijtimoiy rollari ularning o‘zini anglash jarayonini kuchaytiradi hamda hayotiy tajriba asosida qaror qabul qilish sifatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘rta yoshga xos psixologik inqirozlar ayrim hollarda hayotdan qoniqishning vaqtinchalik pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati .

1. Айзенк Г., Айзенк М. Фактор счастья // Исследование человеческой психики. – М.: ЭКСМО-Пресс, 2001.
2. Габдулина Л.И. Удовлетворённость жизнью и её объективные детерминанты в период взрослости // Северо-Кавказский психологический вестник. – 2008. – № 6(4). – С. 42–48.
3. Куликов Л.В. Детерминанты удовлетворенности жизнью // Общество и политика / Ред. В.Ю. Большаков. – СПб.: Изд-во С.-Петербургского ун-та, 2000.
4. Куликов Л.В. Психогигиена личности: вопросы психологической устойчивости и психопрофилактики. – СПб.: Питер, 2004.
5. M. R. Sultonova. Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o‘ziga ishonch va o‘z-o‘zini qadrlashning ta’siri // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2024. – 4(2). – B. 280–283. https://doi.org/10.5281/zenodo.18711681
6. Султонова М. Р. Факторы психологического развития женщин во взрослом возрасте // Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar ilmiy-nazariy jurnali. – 2026. – № 2. – B. 319–323.
7. Шилова Л.С. Характер проведения семейного досуга и удовлетворенность браком // Стабильность семьи как социальная проблема / Под ред. Янковой А.В. – М., 1978.

Nomozova Latofat Rustamovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:nomozovalatofa@gmail.com

YUQORI SINF O‘QITUVCHILARIDA PSIXOLOGIK KOMPETENTSIYALARNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqola yuqori sinf o‘qituvchilarida psixologik kompetentsiyalar namoyon etilishining ilmiy asoslariga bag’ishlangan bo’lib, maqolada kompetensiya tushunchasi, professional kompetensiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, professional jihatdan barkamol o'qituvchi, yuqori sinf o’qituvchilarida psixologik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik usullari hamda psixologik kompetentsiyalarning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, kompetentlik, pedagogik, psixologik, ijtimoiy, maktab, ta’lim jarayoni.*

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧИТЕЛЕЙ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена научным основам проявления психологических компетенций у преподавателей высшего образования. В статье рассматриваются концепция компетенции, профессиональная компетентность, компетентностный подход, профессионально компетентный преподаватель, педагогико-психологические методы развития качеств психологической компетентности у преподавателей высшего образования, а также факторы, влияющие на развитие психологических компетенций.*

Ключевые слова: *учитель, компетентность, педагогический, психологический, социальный, школьный, образовательный процесс.*

FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL COMPETENCIES IN UPPER-CLASS TEACHERS

Abstract. *This article is devoted to the scientific foundations of the manifestation of psychological competencies in higher education teachers. The article discusses the concept of competence, professional competence, a competency-based approach, a professionally competent teacher, pedagogical and psychological methods for developing the qualities of psychological competence in higher education teachers, and factors influencing the development of psychological competencies.*

Key words: *teacher, competence, pedagogical, psychological, social, school, educational process.*

Kirish. Jahonda yuqori sinf o‘qituvchilarida psixologik kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy modellari amaliyotga tadbiq etilmoqda. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan amalga oshirilgan emotsional intellekt dasturlarida qatnashgan o‘qituvchilarning 62% i stressni boshqarish qobiliyatlarida yaxshilanish qayd etilgan. Ushbu dastur ishtirokchilari orasida o’quvchilarning sinfdagi intizomiy muammolari 27% ga kamaygan. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning talabalarga ko‘rsatgan ijobiy munosabat darajasi 30% ga oshgan. Shuningdek, UNESCO hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab o‘qituvchilarning psixologik salomatligi va ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlanishi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan yuqori sinf o‘qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o’rin tutadigan pedagogik-psixologik moslashuvi, yuqori sinf o‘qituvchilari psixologiyasini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yangilanayotgan O’zbekistonda so‘nggi yillarda davom etayotgan barkamol avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash jarayonlarida ularning kasbiy xususiyatlarini shakllantirish, ruhiy

jihatdan voyaga yetishida psixologik kompetentliklarning o‘rni hamda uning muammolari tadqiqi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ta'lim tizimida yuqori sinf o’qituvchilariga zamonaviy kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan 2022-2026-yillarda umumta'lim maktablarida yuqori sinf o’qituvchilarining psixologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar joriy etilgan. Shu bilan birga, pedagoglar uchun maxsus psixologik treninglar soni 30% ga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda shaxs kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etish va bu muammoning zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlar E.A’zamxo‘jayeva, Sh.Abdullayeva, N.Egamberdiyeva, F.Ganjiyev, S.Jo‘rayeva, V.Karimova, D.Muxamedova, Z.Nishonova, M.Ochilov, L.Olimov, G.Salomova, E.G‘oziyev va boshqalar tomonidan kasbiy kompetentlik va unga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan I.Borg, A.A.Blaginin, G.Birkgoff, S.P.Destra, S.Dollinger, O.Gonina, M.Kaplan, H.A.Murray, L.Nuguist va boshqalar o‘qituvchilarning kasbiy va psixologik kompetentligini rivojlantirishda o‘ziga ishonchni kuchaytirish, ehtiyojlarni qondirish, empatiya, emotsional intellekt, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, shaxsiy identifikatsiya, psixologik ehtiyojlarni tushunish va ratsional-emotiv usullardan foydalanish orqali kasbiy va psixologik o‘sishni ilmiy asoslashgan.

Umuman olganda, kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlikka ega bo‘lish har bir o’qituvchini o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Tabiiyki, kompetentlik amaliy ish tajribasi asosida shakllanadi. Biroq, har qanday tajriba ham kasbiy kompetentlik manbai bo‘la olmaydi. Kompetentlikni asosi nazariy bilim, ko‘nikma va malaka faoliyatni aniq maqsadga yo‘nalganligi va faoliyat jarayonini muvaffaqiyatli yaratish bo‘lsa, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning asosi esa shaxs sifatlarining faoliyat jarayonida bevosita namoyon bo‘ladi.

O.A.Bulavenkoning ta’kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi [2;21-24 c].

Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir turg‘unlik bo‘lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan me’yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya’ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta’sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida [3;222 c].

Kompetentlikning tuzilishini tashkil etuvchi komponentlar uning rivojlanish bosqichi bilan ham bog‘liqligi kuzatiladi. R.Selman tomonidan olib borilgan izlanishlarda mazkur kompetentlikning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. R.Selmanning kompetentlik konsepsiyasiga ko‘ra, u shaxsning ijtimoiylashuvi bilan bog‘lab talqin etilgan [4; 426 c]. Ushbu nazariy yondashuv

J.Piajening operatsional nazariyasi va A.L.Kolbergning axloqiy kamolot nazariyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik ko‘p o‘lchamli, murakkab tuzilishi quyidagi jihatlardan iborat:

1. Kommunikativ – psixologik aloqalar va kommunikativ hamkorlikni ifodalovchi kommunikativ sifatlar integratsiyasi asosida shakllanadigan kompleks xususiyatlar;

2. Shaxs doimo o‘zini-o‘zi hurmat qilishga, yangi g‘oyalarga moyilligi;

3. Ijtimoiy persepsiya, tafakkur, xayol, tasavvur, ijtimoiy hodisalarni, insonlarni va ularning harakatlantiruvchi motivlarini modullashtirish va tushunish qobiliyati;

4. Energetik tavsifi: psixik va jismoniy bardoshlilik, faollik yoki toliqqanlik [5; 63-68].

Ko‘rsatib o‘tilgan sifatlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi kompetentlikning muhim belgisi sifatida baholanadi. Yuqori sinf o’qituvchilarida namoyon bo‘ladigan kompetentlikning ko‘pgina omillarini tahlil qilishda esa, ushbu sifatlarga alohida e’tibor qaratish kerakligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizda yuqori sinf o‘qituvchilarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va tashqi omillar tahlil qilinadi. Bu omillar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida qanday namoyon bo‘lishi va ta’lim jarayonida ularga qanday yordam berishi, shuningdek, ularning ta’lim sifati va o‘quvchilarga bo‘lgan ta’sirini yaxshilash yo‘llarini aniqlash uchun asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Shuningdek, “Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni aniqlash so‘rovnomasi” bo’yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga e’tiborimizni qaratamiz.

1.1-jadval.

“Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni aniqlash so‘rovnomasi” bo’yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=120)

Shkalalar nomi	O‘rtasha(M)		Farqlar
	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar n1=70	besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar n2=50	t
O‘z-o‘zini boshqarish	3,4	6,5	-2,6*
Empatiya	4,7	6,9	-2,9*
Stressni boshqarish	4,9	7,1	-2,8*
Kommunikativ qobiliyat	5,4	7,6	-2,5*

“Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni aniqlash so‘rovnomasi” bo’yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga ko’ra, «o‘z-o‘zini boshqarish» ($t=-2,6$; $p<0,05$), «empatiya» ($t=-2,9$; $p<0,05$), «stressni boshqarish» ($t=-2,8$; $p<0,05$) hamda «kommunikativ qobiliyat» ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillari bo’yicha sezilarli farqlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «o‘z-o‘zini boshqarish» omiliga ko’ra, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan yuqori sinf o’qituvchilarida ahamiyatli farqlar kuzaatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati o‘qituvchilarning ruhiy barqarorligini saqlashda muhim o‘rin tutadi, ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari bilan ishlashda bu qobiliyatning zarurati yanada ortadi. Tajribali o‘qituvchilar turli xil murakkab vaziyatlarda xotirjam bo‘lib qolishadi, bu esa ularga o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilish va mantiqiy qaror qabul qilish imkonini beradi. Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘zlarini stressli vaziyatlarda ham boshqarishga muvaffaq bo‘ladilar va o‘quvchilar oldida ijobiy namuna ko‘rsatishadi. Bunday qobiliyat, nafaqat o‘qituvchining o‘ziga, balki o‘quvchilariga ham ta’sir etib, ularga ruhiy va psixologik jihatdan mustahkam bo‘lishga yordam beradi.

«Empatiya» omiliga ko’ra, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan yuqori sinf o’qituvchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,9$; $p<0,05$). Empatiya o‘qituvchining o‘z o‘quvchilarini yaxshiroq tushunishi uchun zarur bo‘lgan eng asosiy qobiliyatlardan biri bo‘lib, bu ular bilan yanada samimiy va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Besh yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar odatda boshqalarning his-tuyg‘ularini chuqurroq his qilish va tushunishga moyil bo‘ladilar, bu esa o‘quvchilarning ehtiyojlariga e’tiborliroq bo‘lishlariga yordam beradi. Tajribali o‘qituvchilar o‘zlarining empatiya qobiliyatidan foydalangan holda, o‘quvchilarning muammolariga befarq bo‘lmaydi va ularning fikrlarini tushunishga intiladi, natijada ular o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

Navbatdagi «Stressni boshqarish» omili bo’yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan yuqori sinf o’qituvchilarida ijobiy natijalar qayd etildi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Stressni boshqarish

qobiliyati o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida eng muhim ko‘nikmalardan biri hisoblanadi, chunki ularning samaradorligi ko‘p hollarda aynan ruhiy barqarorlikka bog‘liq bo‘ladi. Besh yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan yuqori sinf o‘qituvchilari stressli vaziyatlarni yanada samarali boshqara oladilar, chunki ular o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda barqaror va chidamli bo‘lishga erishgan. Tajribali o‘qituvchilar stressli sharoitlarda o‘zlariga nisbatan yuqori nazoratga ega bo‘lib, har qanday murakkab vaziyatda xotirjam va mantiqiy qarorlar qabul qilishga qodir. Bunday o‘qituvchilar o‘zlarining ruhiy holatini nazorat qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar, bu esa ularning dars o‘tish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan salbiy hissiyotlarni kamaytirishga yordam beradi.

Metodikaning so’nggi «Kommunikativ qobiliyat» omiliga ko’ra, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan yuqori sinf o’qituvchilari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Kommunikativ qobiliyat o‘qituvchilarning o‘quvchilar va hamkasblari bilan samarali va mazmunli muloqot o‘rnatishiga xizmat qiladi, bu esa ta’lim jarayonida ishonchli muhitni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ko‘pincha kommunikativ qobiliyatlarini yaxshiroq rivojlantirgan bo‘ladilar va ular o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunishda ancha ishonchliroqdir. Bu qobiliyat tufayli o‘qituvchilar o‘zlarining fikrlarini tushunarli tarzda ifodalashga muvaffaq bo‘ladilar, bu esa o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotni samarali va tushunarli qiladi. Tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan dars davomida ijobiy muloqotni o‘rnatishga intiladilar va ularga qulay muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydilar. Ushbu qobiliyat o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan erkin va ochiq suhbat qurish imkonini beradi, bu esa ularga dars jarayonida yanada faol bo‘lishlariga yordam beradi.

Yuqori sinf o‘qituvchilarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dastur ularning kasbiy va shaxsiy salohiyatini oshirish uchun puxta ishlab chiqilgan tizimni o‘z ichiga oladi. Ushbu dastur pedagogik faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish, hissiy barqarorlikni ta’minlash, empatiya ko‘nikmalarini mustahkamlash va samarali muloqot uslublarini shakllantirishga xizmat qiladi. Unda o‘qituvchilar uchun maxsus trening mashg‘ulotlari, amaliy seminarlar va tajriba almashish sessiyalari tashkil etilib, ular orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham chuqurlashtiriladi.

Dastur to‘rt o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat tarzda tuzildi:

Tayyorgarlik (diagnostik) bosqichi – o‘qituvchilarning xatti-harakatini boshqarish darajasi aniqlanadi, samarasiz o‘zini boshqarish belgilariga ega shaxslar ajratiladi va umumiy korreksion yo‘nalish belgilanadi.

Korreksion bosqich – salbiy emotsional holatdan ijobiy kayfiyatga tezkor o‘tishni ta’minlash, o‘zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishga o‘rgatish.

Korreksion faoliyat samaradorligini aniqlash bosqichi – o‘zgarishlarning qanchalik bar-qarorligini va malakalar amaliyotda qay darajada ishlashini baholash.

Yakunlovchi (baholovchi) bosqich – umumiy psixologik rivojlanish, kasbiy moslashuvchanlik va emotsional barqarorlikning ortish darajasini o‘lchash.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, psixokorreksion dastur qo‘llanilishi o‘qituvchilar faoliyatida ijobiy dinamikani yuzaga keltirdi, ularning kasbiy rivojlanishidagi psixologik to‘siqlar sezilarli darajada kamaydi, shaxsiy resurslardan samarali foydalanish malakasi mustahkamlandi. Bu esa kelgusida yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ham samaradorlikni oshirishi kutiladi.

Psixotrening dasturi reja asosida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Yakunda barcha ishtirokchilarga dastlabki va yakuniy diagnostika o‘tkazilib, natijalar statistik jihatdan solishtirildi. Bu solishtirish o‘qituvchilarning psixologik kompetentlik darajasidagi ijobiy dinamikani ko‘rsatdi va trening samaradorligini tasdiqladi.

“Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni aniqlash so‘rovnomasi” orqali tajriba va nazorat guruhidan olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=120)

№	Komponentlari	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
			M	S	M	S	t	p
1.	O‘z-o‘zini boshqarish	Tajriba guruhi (n=55)	3,5	1,5	6,7	1,5	-2,8	0,05
		Nazorat guruhi (n=65)	4,1	1,2	4,5	1,6	-1,8	0,14
2.	Empatiya	Tajriba guruhi (n=55)	4,2	1,8	7,4	1,8	-2,4	0,05
		Nazorat guruhi (n=65)	4,7	1,5	5,4	1,3	-1,5	0,12
3.	Stressni boshqarish	Tajriba guruhi (n=55)	4,3	1,8	7,2	2,1	-2,8	0,05
		Nazorat guruhi (n=65)	4,8	1,6	5,4	1,7	-1,9	0,16
4.	Kommunikativ qobiliyat	Tajriba guruhi (n=55)	5,1	1,9	7,9	1,2	-2,1	0,05
		Nazorat guruhi (n=65)	5,4	1,2	6,1	1,3	-1,8	0,17

“Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetensiyalarni aniqlash so‘rovnomasi” orqali olingan qiyosiy natijalar tahliliga ko’ra, «o‘z-o‘zini boshqarish» (t=-2,8; p<0,05), «empatiya» (t=-2,4; p<0,05), «stressni boshqarish» (t=-2,8; p<0,05) hamda «kommunikativ qobiliyat» (t=-2,1; p<0,05) omillari bo’yicha sezilarli farqlar aniqlandi. Mazkur qiyosiy natijalar tahliliga ko’ra, rivojlantiruvchi trening dasturimizdan so’ng, tajriba guruhimizda ijobiy o’zgarishlar qayd etildi. Nazorat guruhida esa ahamiyatli o’zgarishlar kuzatilmadi.

Bu farqlar psixologik trening dasturining samaradorligini va uning tajriba guruhiga ta’sirini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘qituvchilar o‘z-o‘zini boshqarish, empatiya, stressni boshqarish va kommunikativ qobiliyatlar bo‘yicha sezilarli yaxshilanishlarga erishganliklari kuzatildi. Ayniqsa, tajriba guruhi ishtirokchilari o‘zlarining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va ulardan pedagogik faoliyatda foydalanishda katta muvaffaqiyatlarga erishganligi aniqlandi. Bu esa, rivojlantiruvchi trening dasturining o‘qituvchilarning psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tajriba guruhida kuzatilgan o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar, ularga murakkab vaziyatlarda ham o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish imkoniyatini berganligi va bu bilan pedagogik jarayonlar sifatini yaxshilaganligini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning o‘zlarining his-tuyg‘ularini tahlil qilish va o‘zini barqaror tutish qobiliyati, ularning o‘quvchilar oldida ijobiy namuna bo‘lishiga yordam berdi. Bu qobiliyat, ayniqsa, stressli sharoitlarda o‘zini ko‘rsatdi va o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida mantiqiy qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Shu bilan birga empatiya bo‘yicha natijalar o‘qituvchilarning o‘quvchilarning hissiy ehtiyojlarini tushunish qobiliyatini oshirganligini ko‘rsatdi. Treningdan keyin o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilari bilan ochiqroq va ishonchli muloqot o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldilar, bu esa o‘quvchilarni yanada faol va ishtirokchi qilishda muhim rol o‘ynadi. Empatiya darajasining oshishi, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim berish va ularga mos yondashish imkonini berdi. Mazkur jarayonlar tahlili shuni

ko‘rsatdiki, yuqori sinf o‘qituvchilaridagi psixologik kompetensiyalarning rivojlanishi pedagogni o‘quvchilarning hissiy kechinmalarini idrok etishi, baholashi, tushunishi, o‘z kechinmalarini boshqarishi va farqlashi ijtimoiy pertseptsiya bilan determinatsiyalashgan kasbiy-sub’ektiv omil ekanligi tufayli, emotsional intellektning professional “men” obrazi ta’sir darajasida shakllanganligiga bog‘liq ekanligini aniqlashtiradi. Bu esa o‘qituvchilarning nafaqat o‘quvchilar his-tuyg‘ulariga nisbatan sezgirligini, balki o‘z emotsional holatini ham tahlil qilib, uni boshqarish orqali darslarda barqaror psixologik muhit yaratish qobiliyatini kuchaytirganligini ko‘rsatadi

Stressni boshqarish qobiliyatida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar esa, o‘qituvchilarni murakkab va qiyin vaziyatlarda ham o‘zlarini qo‘lga olishga o‘rgatdi. Trening natijasida o‘qituvchilar o‘zlarining ruhiy barqarorligini saqlash va o‘quvchilarga stressli vaziyatlarda qanday muomala qilishni o‘rgatishda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishdi. Bu qobiliyat ularni murakkab sharoitlarda ham dars sifatini saqlab qolishga yordam berdi, natijada, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida ishtiroki va muvaffaqiyatlari oshdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o‘qituvchilarining psixologik kompetensiyalari ularning pedagogik faoliyatida eng zarur qobiliyatlar bo‘lib, bu kompetensiyalar ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar bu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish pedagogik jarayonni sifat jihatidan yaxshilashga yordam berishini ko‘rsatadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Yuqori sinf o'qituvchilari uchun maxsus tayyorlangan trening va seminarlar orqali psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish zarur. Bu dasturlar o‘z-o‘zini boshqarish, empatiya, stressni boshqarish va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

- Yuqori sinf o'qituvchilarini o‘z shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘z-o‘zini refleksiya qilish va tahlil qilish bo‘yicha dasturlar tashkil etish lozim. Bu ularga o‘z kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq anglash va pedagogik faoliyatlarini takomillashtirishda yordam beradi.

- Yuqori sinf o'qituvchilarini psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishda individual yondashuvlardan foydalanish, ularning ehtiyoj va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

2. Abdullaeva Sh.H. O‘qituvchi professional staji va bevosita pedagogik tajribasining o‘z-o‘ziga munosabati tizimiga ta’siri. /Psixologiya ilmiy jurnali, – Buxoro, 2020. № 4. –B. 12-18.

3. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. Образование № 4. – М., 2005.– С. 21-24.

4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М., - 2002. – 222 с.

5. Selman R.L. The grotth of interpersonal understanding. New York: Asademis Press, 2000. - 426 p.

6. Собирова Д.А. Социал-психологик компетентлик концепциясининг яратилиши ва назарий асослари. //Замонавий таълим. – Тошкент, 2019. №2. – Б. 9–18.

7. Kohlberg Lawrence. The Claim to Moral Adequacy of a Highest Stage of Moral Judgment // Journal of Philosophy, USA, 2007. – PP. 63-68.

Kamilova Madina Xamidjanovna
Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK OILALARIDA HUQUQIY SOTSIALIZATSIYA HUQUQIY SAVODXONLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada huquqiy savodxonlik psixologik hodisa sifatida tahlil qilinib, uning oila muhitida shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki psixologik determinantlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi - o‘zbek oilalarida huquqiy sotsializatsiya jarayonini izohlovchi psixologik omillarni nazariy jihatdan tizimlashtirish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi konseptual modelni ishlab chiqishdir. Tahlil natijasida to‘rt asosiy determinant ajratib ko‘rsatildi: huquqiy institutlarga ishonch, huquqiy nigilizm va o‘rganilgan nochorlik, ota-onaning tarbiya uslubi hamda huquqiy o‘z-samaradorlik. Maqola yakunida milliy madaniy kontekstga moslashtirilgan konseptual model va keyingi empirik tadqiqotlar uchun ilmiy gipotezalar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy sotsializatsiya, huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, institutga ishonch, huquqiy nigilizm, o‘rganilgan nochorlik, tarbiya uslubi, huquqiy o‘z-samaradorlik, oila psixologiyasi.*

ПРАВОВАЯ СОЦИАЛИЗАЦИЯ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ДЕТЕРМИНАНТ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируется правовая грамотность как психологический феномен и рассматриваются внутренние психологические детерминанты, влияющие на ее формирование в семейной среде. Цель исследования – теоретическая систематизация психологических факторов, объясняющих процесс правовой социализации в узбекских семьях, и разработка концептуальной модели, отражающей взаимосвязь между ними. В результате анализа были выявлены четыре основных детерминанта: доверие к правовым институтам, правовой нигилизм и выученная беспомощность, стиль воспитания родителей и правовая самоэффективность. В конце статьи предложена концептуальная модель, адаптированная к национальному культурному контексту, и научные гипотезы для дальнейших эмпирических исследований.*

Ключевые слова: *правовая социализация, правовая грамотность, правовое сознание, доверие к институту, правовой нигилизм, выученная беспомощность, стиль воспитания, правовая самоэффективность, семейная психология.*

LEGAL SOCIALIZATION IN UZBEK FAMILIES AS A PSYCHOLOGICAL DETERMINANT OF LEGAL LITERACY

Abstract. *The article analyzes legal literacy as a psychological phenomenon and considers internal psychological determinants that influence its formation in the family environment. The purpose of the study is to theoretically systematize the psychological factors explaining the process of legal socialization in Uzbek families and develop a conceptual model reflecting the relationship between them. As a result of the analysis, four main determinants were identified: trust in legal institutions, legal nihilism and learned helplessness, parental upbringing style and legal self-efficacy. At the end of the article, a conceptual model adapted to the national cultural context and scientific hypotheses for further empirical research are proposed.*

Key words: *legal socialization, legal literacy, legal consciousness, trust in the institution, legal nihilism, learned helplessness, upbringing style, legal self-efficacy, family psychology.*

Kirish. Fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi, ularni amalda qo‘llay olishi hamda huquqiy institutlar bilan ongli munosabatga kirisha olishi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda olib borilayotgan huquqiy islohotlar, jumladan,

aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosati huquqiy savodxonlik muammosini nafaqat huquqiy, balki psixologik nuqtai nazardan o‘rganishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Huquqiy savodxonlik ko‘pincha sof bilim darajasi - qonunlardan xabardorlik sifatida talqin qilinadi. Biroq psixologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, shaxsning huquqiy bilimga ega bo‘lishi va shu bilimga muvofiq xulq-atvor namoyon etishi har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Inson qonunni bilishi mumkin, ammo unga ishonmasligi, undan foydalanishga o‘zida kuch sezmasligi yoki huquqiy faollikni befoyda deb hisoblashi mumkin. Demak, huquqiy savodxonlik faqat bilim emas, balki motivatsion, emotsional va ishonchga oid komponentlarni ham qamrab oluvchi murakkab psixologik tuzilmadir. Bu psixologik tuzilma birinchi navbatda oila muhitida shakllanadi. Bola huquq, adolat, hokimiyat va majburiyat haqidagi dastlabki tasavvurlarini maktab yoki rasmiy huquqiy ta’limdan emas, balki ota-onasining xatti-harakatlari, oiladagi muloqot uslubi va kattalarning huquqiy institutlarga munosabatini kuzatish orqali o‘zlashtiradi. Aynan shu jarayon ilmiy adabiyotda huquqiy sotsializatsiya tushunchasi bilan ifodalanadi.

Huquqiy sotsializatsiya shaxsning huquqiy normalar, qadriyatlar, huquqiy institutlarga oid tasavvur va munosabatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ushbu tushuncha psixologiya faniga XX asrning ikkinchi yarmida kirib keldi va dastlab bola taraqqiyot psixologiyasi doirasida o‘rganildi. Tadqiqotchilar bolaning qonun va adolat haqidagi tasavvurlari yoshga qarab muayyan bosqichlardan o‘tishini, ya’ni jazodan qo‘rqishga asoslangan ibtidoiy tushunchadan ijtimoiy kelishuv va adolat tamoyiliga asoslangan yetuk huquqiy ongga qarab rivojlanishini aniqladilar. Huquqiy sotsializatsiyaning ijtimoiy-psixologik talqini esa shaxsning huquqiy institutlarga bo‘lgan munosabatiga urg‘u beradi. Bu yondashuvga ko‘ra, fuqaroning qonunga rioya qilishi ko‘p hollarda jazo qo‘rquvi yoki qonun mazmunini bilish bilan emas, balki huquqiy institutlar adolatli, halol va e’tiborli deb idrok etilishi bilan belgilanadi. Ya’ni shaxsning huquqiy xulqi uning huquq tizimiga bo‘lgan ishonchi va uni qonuniy deb tan olishiga bog‘liqdir. Bu nazariy qoida mazkur maqola uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u huquqiy savodxonlikni bilimdan ishonchga qarab kengaytiradi.

Oila huquqiy sotsializatsiyaning birlamchi va eng ta’sirchan muhiti hisoblanadi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga muvofiq, bola xulq-atvor namunalarini kattalarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi. Agar ota-ona nizolarni muzokara va qonuniy yo‘l bilan hal qilsa, bola huquqiy yo‘lni samarali deb o‘zlashtiradi; agar kattalar huquqni chetlab o‘tish yoki norasmiy aloqalarga tayanishni namoyish etsa, bola ham ayni shu modelni ichki qabul qiladi. Shu tariqa huquqiy munosabat avloddan avlodga uzatiladi.

Inson taraqqiyotining ekologik tizimlar nazariyasi oilani bola rivojlanishining eng yaqin muhiti mikrotizim sifatida belgilaydi. Oilada o‘zlashtirilgan huquqiy munosabat keyinchalik maktab, mahalla va kengroq ijtimoiy institutlar ta’sirida o‘zgarishi yoki mustahkamlanishi mumkin. Biroq dastlabki va eng chuqur iz aynan oilada qoladi. Shuning uchun huquqiy savodxonlikning psixologik ildizlarini o‘rganishda oila muhitini markaziy tahlil birligi sifatida olish metodologik jihatdan asoslangan.

Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish huquqiy savodxonlikning oila muhitida shakllanishiga ta’sir etuvchi bir qancha psixologik omilni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Quyida mazkur maqola doirasida eng muhim deb baholangan to‘rt determinant ko‘rib chiqiladi.

1. Huquqiy institutlarga ishonch. Huquqiy savodxonlikning eng muhim psixologik asoslaridan biri shaxsning sud, huquq-tartibot organlari va davlat institutlariga bo‘lgan ishonch darajasidir. Institutga ishonch yuqori bo‘lganda, fuqaro o‘z huquqlarini bilishga va ulardan foydalanishga ichki rag‘bat sezadi, chunki huquqiy yo‘l unga real natija berishi mumkin deb hisoblaydi. Ishonch past bo‘lganda esa hatto huquqiy bilimga ega shaxs ham huquqiy faollikdan tiyiladi. Oilada kattalarning institutlar haqidagi mulohazalari - ishonch yoki ishonchsizlik ohangi - bolaga bevosita uzatiladi va uning kelajakdagi huquqiy munosabatini oldindan belgilab beradi.

2. Huquqiy nigilizm va o‘rganilgan nochorlik. Huquqiy nigilizm - huquqning ijtimoiy qadriyat sifatidagi ahamiyatini inkor etuvchi yoki uni befoyda deb baholovchi psixologik munosabatdir. U ko‘pincha o‘rganilgan nochorlik hodisasi bilan birga namoyon bo‘ladi: shaxs o‘tmishdagi muvaffaqiyatsiz tajribalari natijasida “mening harakatim baribir natija bermaydi” degan ishonchni o‘zlashtiradi va huquqiy passivlikka beriladi. Oilada kattalarning “qonundan foyda yo‘q” qabilidagi

takror mulohazalari bolada huquqiy passivlikni mustahkamlaydi. Bu determinant huquqiy bilim mavjud bo‘lsa-da, nima uchun huquqiy xulq namoyon etilmasligini izohlaydi.

3. Ota-onaning tarbiya uslubi. Oiladagi tarbiya uslubi huquqiy sotsializatsiyaning yo‘nalishini belgilovchi muhim omildir. Avtoritar uslubda - bunda kattalarning talabi so‘zsiz itoatga asoslanadi - bola huquqlar emas, balki bo‘ysunish tajribasini o‘zlashtiradi; uning o‘z fikrini bildirish va manfaatini himoya qilish ko‘nikmasi cheklanadi. Demokratik (avtoritetli) uslubda esa bola muzokara, kelishuv va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatni o‘rganadi, bu esa huquqiy sub’ektlilikning psixologik negizini shakllantiradi. Permissiv (e’tiborsiz) uslub esa huquqiy chegaralar haqida aniq tasavvur bermaydi. Shunday qilib, tarbiya uslubi huquqiy savodxonlikning rivojlanishi uchun zamin yaratuvchi yoki uni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Huquqiy o‘z-samaradorlik. Huquqiy o‘z-samaradorlik - shaxsning “men o‘z huquqimni tushuna olaman va uni himoya qila olaman” degan ishonchidir. Bu omil huquqiy bilimni real huquqiy xulqqa aylantiruvchi psixologik bo‘g‘in vazifasini bajaradi. O‘z-samaradorlik past bo‘lganda, shaxs bilimga ega bo‘lsa-da, huquqiy harakatdan o‘zini ojiz his qiladi. Bu ishonch oilada - bolaga o‘z fikrini bildirish, qaror qabul qilish va natijani ko‘rish imkoniyati berilganda - bosqichma-bosqich shakllanadi.

Ko‘rib chiqilgan to‘rt determinant bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ish ko‘radi. Ularning o‘zaro ta’siri navbatdagi bo‘limda konseptual model shaklida tahlil qilinadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan psixologik determinantlar umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lsada, ularning namoyon bo‘lish shakli muayyan madaniy muhitga bog‘liq holda o‘zgaradi. O‘zbek oilasining bir qator madaniy-psixologik xususiyatlari huquqiy sotsializatsiya jarayoniga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi va shu sababli alohida tahlilni talab etadi.

Birinchidan, o‘zbek oilasiga kollektivistik qadriyatlar tizimi xosdir. Bunda shaxsiy manfaat ko‘pincha oila yoki jamoa manfaatiga bo‘ysundiriladi. Bu xususiyat huquqiy savodxonlikka ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkin: bir tomondan, u o‘zaro mas’uliyat va majburiyatlarni anglashni kuchaytiradi; ikkinchi tomondan, individual huquqiy sub’ektlilik - shaxsning o‘z huquqini mustaqil himoya qilish tashabbusini cheklashi mumkin, chunki nizoni rasmiy huquqiy yo‘l bilan hal qilish jamoa hamjihatligini buzish sifatida qabul qilinishi ehtimoli mavjud.


Ikkinchidan, mahalla instituti o‘zbek jamiyatida nizolarni hal qilishning norasmiy mexanizmi sifatida muhim o‘rin tutadi. Mahalla orqali muammoni hal qilish ko‘p hollarda rasmiy huquqiy institutlarga murojaat qilishdan ustun qo‘yiladi. Bu hodisa huquqiy savodxonlikning shakllanishiga qarama-qarshi ta’sir ko‘rsatadi: u nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi, ammo ayni paytda rasmiy huquqiy institutlardan foydalanish tajribasini va ularga ishonchni cheklab qo‘yishi mumkin.

Uchinchidan, o‘zbek oilasida yosh ierarxiyasi va kattalar avtoriteti kuchli ifodalangan. Bolaga nisbatan ko‘pincha so‘zsiz itoat kutiladi, uning o‘z fikrini ochiq bildirishi har doim ham rag‘batlantirilmaydi. Bu xususiyat avtoritar tarbiya uslubining tarqalganligini izohlaydi va huquqiy o‘z-samaradorlikning shakllanishini sekinlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur kontekstual xususiyatlar bir ma’noli salbiy yoki ijobiy emas. Ular huquqiy sotsializatsiya jarayoniga murakkab, ko‘p yo‘nalishli ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu murakkablik g‘arb ilmiy adabiyotidagi modellarni o‘zbek oilasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmasligini va milliy kontekstga moslashtirilgan tahlil zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida o‘zbek oilalarida huquqiy savodxonlikning shakllanishini izohlovchi konseptual modelni taklif etish mumkin. Model determinantlarni izolyatsiyalangan omillar ro‘yxati sifatida emas, balki sababiy zanjir tarzida tasavvur qiladi.Modelning markaziy g‘oyasi quyidagicha. Oiladagi tarbiya uslubi boshlang‘ich shart-sharoit sifatida ish ko‘radi: demokratik uslub huquqiy o‘z-samaradorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi, avtoritar uslub esa uni cheklaydi. Huquqiy o‘z-samaradorlik darajasi, o‘z navbatida, shaxsning huquqiy institutlarga ishonchi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Past o‘z-samaradorlik va past institutsional ishonch birgalikda huquqiy nigilizm hamda o‘rganilgan nochorlikning shakllanishiga olib keladi. Bu esa pirovardida huquqiy savodxonlikning passiv - bilimga ega bo‘lsa-da, amalda namoyon bo‘lmaydigan shaklini yuzaga keltiradi. Milliy madaniy kontekst (kollektivizm, mahalla, yosh ierarxiyasi) esa ushbu zanjirning har bir

bo‘g‘iniga ta’sir ko‘rsatuvchi moderator omil sifatida ishtirok etadi.Ushbu konseptual model asosida keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi mumkin bo‘lgan ilmiy gipotezalar quyidagicha shakllantirildi:



Taqdim etilgan gipotezalar mazkur nazariy maqolaning yakuniy mahsuli emas, balki keyingi empirik tadqiqotlar uchun ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ularni tekshirish so‘rovnoma, standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalar va statistik tahlil usullarini qo‘llashni talab etadi.Xulosa qilib aytganda huquqiy savodxonlik psixologik hodisa sifatida tahlil qilinib, uning oila muhitida shakllanishini izohlovchi to‘rt asosiy determinant huquqiy institutlarga ishonch, huquqiy nigilizm va o‘rganilgan nochorlik, ota-onaning tarbiya uslubi hamda huquqiy o‘z-samaradorlik ajratib ko‘rsatildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, huquqiy savodxonlikni faqat bilim darajasi bilan tenglashtirish noto‘g‘ri: u motivatsion, emotsional va ishonchga oid komponentlarni qamrab oluvchi murakkab psixologik tuzilmadir. Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida determinantlarni o‘zaro bog‘liq sababiy zanjir tarzida tasavvur qiluvchi konseptual model va uni tekshirishga qaratilgan to‘rt ilmiy gipoteza taklif etildi. Model o‘zbek oilasining madaniy-psixologik xususiyatlarini kollektivizm, mahalla instituti va yosh ierarxiyasini moderator omillar sifatida hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
2. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
3. Tyler T. R. Why People Obey the Law. - Princeton: Princeton University Press, 2006.
4. Tapp J. L., Levine F. J. Legal Socialization: Strategies for an Ethical Legality // Stanford Law Review. - 1974. - Vol. 27. - P. 1–72.
5. Baumrind D. Current Patterns of Parental Authority // Developmental Psychology Monographs. - 1971. - Vol. 4, № 1, Pt. 2.

Muhiddinova Dilrabo Baxriddin qizi
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARIGA QADRIYATLI MUNOSABAT ASOSIDA POZITIVLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik maktab o‘quvchilariga qadriyatli munosabat asosida pozitivlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari yuzasidan to‘plangan ma’lumotlar keltirilgan. Ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o’quvchilarida o’ziga bo’lgan munosabatning shakllanish bosqichi, boshqalarning e'tibori va e'tirofiga, ma'qullashi va qo’llab quvvatlashiga bo’lgan ehtiyojlarning yuqori darajaga ko’tarilishi, o’zini namoyon etishga intilishi kabi xususiyatlarini inobatga olish zarurligi e’tirof etilgan. Shuningdek, mazkur yosh davrda o'quvchilarda pozitiv fazilatlarni rivojlantirish metodologiyasi sifatida faol o'yin usullari, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, psixologik treninglardan foydalanish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishi haqidagi ilmiy xulosalari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *O‘quvchi, qadryatlar, pozitiv, pozitiv prizma, munosabat, qadriyatli munosabat, trening, rolli o‘yin.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗИТИВНОСТИ МЛАДЩИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНОГО ОТНОЩЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье представлены собранные данные о психологических характеристиках формирования позитивного мышления на основе ценностно-ориентированного подхода у учащихся младших классов средней школы. Признано, что в образовательном процессе необходимо учитывать такие особенности, как стадия формирования самооценки у учащихся младших классов, потребность во внимании и признании, одобрении и поддержке окружающих, стремление к самовыражению. Также представлены научные выводы о том, что использование методов активной игры, организация кооперативной деятельности и психологическая подготовка как методика развития позитивных качеств у учащихся в этом юном возрасте позволяют достичь положительных результатов.*

Ключевые слова: *учащийся, ценности, позитивный, позитивная призма, отношение, ценностно-ориентированный подход, обучение, ролевая игра.*

FORMATION OF POSITIVENESS IN PRIMARY SCHOOL CHİLDRENS BASED ON VALUE-BASED ATTITUDE

Annotation. *This article presents collected data on the psychological characteristics of developing positive thinking based on a value-based approach in junior high school students. It is recognized that the educational process must take into account such characteristics as the stage of self-esteem development in junior high school students, the need for attention and recognition, approval and support from others, and the desire for self-expression. It also presents scientific findings indicating that the use of active play methods, the organization of cooperative activities, and psychological preparation as a method for developing positive qualities in students at this young age can achieve positive results.*

Key words: *student, values, positive, positive lens, attitude, value-based approach, learning, role-playing*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida kichik maktab o‘quvchilarida nafaqat zarur bilimlarni uzatish, balki axloqiy fazilatlarni rivojlantirish ham tobora muhim ahamiyat kasb etib, ularda qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni singdirish vositasi hisoblanadi. Kichik maktab o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ta'lim sharoitlari hal qiluvchi rol o'ynaydi va bolalarning ichki

ruhiy rivojlanishi va shaxsini shakllantirish uchun qulay ta'lim muhitini yaratish alohida axamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim tizimida elementar bilimlar bilan qurollantirishda muhim bosqich hisoblangan boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilib, boshlang'ich ta'limga, ta'lim jarayoniga individual munosabat muammosiga turli mamlakatlar ta'lim sohasi vakillarida turlicha munosabat mavjud. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, erta bolalik davridan ta'lim berish muammosi, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ta'lim mazmunini belgilashda ularning qiziqishlari qamda ehtiyojlariga tayanish tendentsiyalari ustunlik qiladi. Asosiy maqsad esa boshlang'ich ta'limdanoq shaxsga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etishdan iboratdir.[6]

Dunyo ta'lim tizimi hamda ta'lim sohasiga doir amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda muhim yangilanishlar ko'zga tashlanadi. Bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish, ularning o'qishga, ta'lim olishga bo'lgan intilishlarini oshirish, ushbu jarayonda ularni faollikka undash ushbu yangilanishlarning aloqida ko'rinishi hisoblanadi. kichik maktab yoshidagi bolalarda bilishga bo'lgan qiziqish, intilish va shaxsiy faollik bo'lmas ekan, u bilan olib borilgan qar qanday pedagogik faoliyat o'zining samarali natijasini berishi aslo mumkin emas.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga bo'lgan munosabatning shakllanish bosqichi, boshqalarning e'tibori va e'tirofiga, ma'qullashi va qo'llab quvvatlashiga bo'lgan ehtiyojlarning yuqori darajaga ko'tarilishi va albatta o'zini namoyon etishga intilishi kabi xususiyatlarini inobatga olganda pedagoglarning ta'lim jarayonida o'quvchiga qadrli va muhim xisoblangan narsa-xodisa va jarayonlarga e'tiborli bo'lib, qo'llab-quvvatlash, zarur xollarda raqbatlantirish pozitsiyasida turishlari maqsadga muvofiqdir. [5]

D.Feldshteynning «O'zgarayotigan dunyoda o'zgarayotgan bola: yangi maktabning psixologik-pedagogik muammolari» nomli asarida: yosh avlodning qadriyat yo'nalishi bo'yicha moddiy-pragmatik munosabatga o'tish jarayonida vijdonlilik, adolat, burch, odob, mas'uliyat, mehnatsevarlik, yoshi kattalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarida salbiy jihatlari ko'payib borish xavfi kuchli hisoblanishi ta'kidlanadi. Shaxsiy-qadriyatli yondoshuvga asoslangan ta'limda o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari va shaxsiy qadriyatlari borasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol insonlar shaxsini shakllantirish masalasi bilan bog'liq. Buning uchun esa avvalo ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil fikrlash xususiyatlarini hamda axloqiy fazilatlarini yuksak darajada shakllantirish, shu bilan birga ularda sharqona odob-axloqqa xos bo'lgan barcha xislatlar, fazilatlar jumladan: kattalarga hurmat, shirin so'zlik, mehribonlik, yurtni e'zozlash, saxiylik va ilm egallash kabilar mujassam bo'lishi lozim.

Pozitiv psixologiyada eng muhim yondashuv o'quvchilarning zaif tomonlari, kamchiliklari va yaxshilanish sohalariga emas, balki ularning kuchli tomonlariga e'tibor qaratishdir, chunki bu ularning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xorijlik tadqiqotlchilarning fikriga ko'ra, mutaxassislar hozirda qurilayotgan maktab binolari bolalar orzu qilgan maktab binolarini aks ettirmasligini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, bolalar ko'p yashil maydonlarga va turli xil mashg'ulotlar uchun imkoniyatlarga ega maktablarni afzal ko'rishadi, oilalar esa yuqori akademik natijalarga erishgan bolalarni tarbiyalashni xohlashadi. Oilalar yuqori akademik yutuqlarga ega bolani tarbiyalash muvaffaqiyatli martabaga olib keladi va muvaffaqiyatli martaba baxt keltiradi, deb hisoblashadi.

Ta'limda pozitiv psixologiyaning qo'llanilishini ta'kidlab, klinik psixolog S.Aybeniz Yildirim shunday dedi: "Shisha singanda, biz odatda nima qilamiz? Biz uni tashlab yuboramiz yoki iloji bo'lsa, tuzatishga harakat qilamiz, lekin u asl funksiyasini yo'qotadi. Biroq, pozitiv psixologiya o'sha shisha parchalaridan yangi narsa yaratish mumkinligini yoki bu parchalardan nimadir qiziqarli narsa yasash mumkinligini ta'kidlaydi. Pozitiv psixologiyaga yondashuvimizdagi eng muhim nuqta - bu o'quvchilarimizning har doim ham ularning kamchiliklariga, ular nima qila olmaydigan narsalarga va ular yaxshilashlari kerak bo'lgan sohalarga emas balki, kuchli tomonlariga e'tibor qaratish zarur, chunki bu ularga juda ko'p ta'sir qiladi".

Tadqiqotimizda kichik maktab o'quvchilarida qadriyatli munosabati xususiyatlarini shakllantirishga doir bir qator komponentlar o'rganilib tahlil qilindi. Kichik maktab o'quvchilarining

shaxsiy qadriyatli munosabati xususiyatlarini shakllantirishda ularning faoliyatida xulq-atvor kechinmalariga e'tibor qaratishlari, faoliyat jarayonida hissiy-emotsional, kognitiv xususiyatlarning me'yoriy darajalari aniqlandi. Tadqiqot ishimizda yuqorida boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarining qadriyatli munosabati xususiyatlarini shakllantirishga doir bir qator komponentlar o'rganilib tahlil qilindi. Boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarining shaxsiy qadriyatli munosabati xususiyatlarini shakllantirishda ularning faoliyatida xulq-atvor kechinmalariga e'tibor qaratishlari, faoliyat jarayonida hissiy-emotsional, kognitiv xususiyatlarning me'yoriy darajalari aniqlandi. [1]Dastlab, tadqiqot ishimizda ishtirok etgan o'qituvchilar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilariga shaxsiy qadriyatli yondoshuv bo'yicha ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnoma bo'yicha respondentlarning bergan "a" javoblar 3 ball, "b" javoblar 2 ball, "v" javoblar 1 ball bilan baholandi va natijalar quyidagi mezon bo'yicha baholandi: 1.15-11 ballar shaxsiy qadriyatli munosabati yuqori; 2. 10-6 ballar shaxsiy qadriyatli munosabati o'rta; 5 va undan kam ballar shaxsiy qadriyatli munosabati past .

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qadriyatli munosabati darajalari

Ko'rsatkichlar n=68	Tadqiqot boshida		Tadqiqot oxirida	
	soni	foizi	soni	foizi
15-11 ballar shaxsiy qadriyatli yondoshuvi yuqori	20	14,5%	28	41,17%
10-6 ballar shaxsiy qadriyatli yondoshuvi o'rta	23	69,0%	32	47%
5 va undan kam ballar shaxsiy qadriyatli yondoshuvi past	25	16,5%	8	11,7%

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining "O'z-o'ziga", "O'qituvchiga", "Vatanga" qadriyatli munosabati anglashi va his eta olish kabi omillar etakchilik qilayotganligi ko'zga tashlandi.Biz ushbu holatlarning ishonchliligini aniqlash boshlang'ich sinf o'quvchilari qadriyatli munosabatining pedagogik psixologik xususiyatlarini shakllantirishga yordam beruvchi trening mashg'ulotlaridan foydalanishni lozim topdik. Har bir rolli o'yinning o'ziga xos vazifasi bo'lib, o'quvchilar tomonidan ularni bajarish davomida ijobiy tomonlar bilan birga emotsional holatlarning o'zgarishi, berilgan ma'lumotlarni etarlicha idrok eta olmasligi, tasavvurlarning sayozligi, qadriyatli munosabat darajasining sekinlik bilan ko'tarilishi, ayniqsa, ularni tasdiqlovchi, qo'llab-quvvatlovchi motivlar berilgandan so'ng qadriyatli munosabatlar shakllanib borishi kuzatildi. O'ylaymizki, bu holat o'qituvchilar tomonidan mashg'ulot o'tkazishni samarali yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.Tajribaga tayanib aytish mumkinki, trening mashg'ulotlari va rolli o'yinlarni amaliyotga ko'proq qo'llash, kundalik hayot bilan bog'lash o'quvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirib borishda muhim ahamiyatga ega ekanligini bevosita e'tirof etish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllan tirishga qaratilgan pedagogik-psixologik trening mashg'ulotlarining yakunlanishi bilan ishning samaradorligini aniqlash uchun o'quvchilarda psixodiagnostik ishlarni qayta nazorati ham olib borildi.Mazkur yosh davrda o'quvchilarda pozitiv fazilatlarni rivojlantirish metodologiyasi sifatida faol o'yin usullari, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, psixologik treninglardan foydalanish ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bunda bolalarda asosiy fazilatlar - mas'uliyat, hamdardlik, ishonch - muvaffaqiyat, mulohaza va kattalarning pozitiv namunasini yaratish orqali shakllanadi.

Kichik maktab o'quvchilarida pozitiv xarakter xususiyatlarining rivojlanishi shaxsiyat rivojlanishining asosiy jarayoni bo'lib, axloqiy, irodaviy va ijtimoiy fazilatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, mazkur davr bolalarda motivlarning bo'ysunishi bilan tavsiflanadi, bunda bola o'z xohish-istaklarini boshqarishni va qoidalarga muvofiq harakat qilishni o'rganishi bilan xarakterlanadi. Asosiy pozitiv xarakter xususiyatlariga kichik maktab yoshida quyidagi fazilatlarni rivojlantirish muhimdir: Irodaviy fazilatlar: mustaqillik, qat'iyatlilik, tartib intizomlilik, tashabbuskorlik va jasorat. Axloqiy fazilatlar: insoniylik, halollik, boshqalarga hurmat va mehnatsevarlik. Ijtimoiy fazilatlar: hamkorlik, mas'uliyat va empatiya.

Asosiy yondashuvlar va usullar:

Ta'limning faol usullaridan, o'yin texnologiyalari, rolli o'yinlar o‘quvchilarning axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishlariga va hamdardlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Muvaffaqiyat vaziyatini yaratish. o'quvchining kuchli tomonlarini ta'kidlash, unlarga ishonchni rivojlantirish uchun yangi mas'uliyat masalan, yetakchi rolini berish vaziyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pozitiv tafakkur treninglari, turli vaziyatlardan pozitivlikni izlashga, ishonch, halollik va nekbinlikni rivojlantirishga qaratilgan kundalik amaliyot hisoblanadi.

"Men-kontseptsiyasi" ustida ishlash, "Men-konsertsiyasi"dan foydalanish - o'qituvchi obro'ga ega bo'lish va rivojlanishni yo'naltirish uchun o'quvchining shaxsiga samimiy qiziqish bildirish orqali amalga oshadi.O‘quvchilarning his-tuyg'ulari bilan ishlash, o'zini hissiy tahlil qilish, o'zini o'zi tarbiyalash va empatiya qobiliyatini rivojlantirish ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat.O‘quvchilarda axloqiy fazilatni egallash istagini rivojlantirishi kerak; ya'ni bolani iroda kuchini namoyon etishga undaydigan va bu fazilatni o'z harakatlarida namoyon etishga undaydigan motivatsiya kerak bo‘lib, xulq-atvor harakatlardan shakllanadi. Shuning uchun, bola axloqiy fazilatlarni ifoda etishni mashq qilishi va axloqiy harakatlarni bajarishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni yaratish lozim. Axloqiy harakatlar xatti-harakatlarda takrorlanib va mustahkamlanib borgani sari, ular asta-sekin ichki holatga tushadi va boladan kamroq kuch va asab energiyasini sarflashni talab qiladi. Shu tariqa o‘quvchilarda axloqiy xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari shakllanadi.

Xulosa. Juda ko‘p odatlar va xarakter xislatlarini bolalar kichik maktab o‘quvchilik davrida egallaydilar. Buning sababi, bolalar tasavvurida ta’lim dargohi ayniqsa o‘qituvchi eng dono, hamma narsani biluvchi va hanna amallari to‘g‘ri insonlar va ulardan o‘rganish kerak degan fikr mavjud bo‘ladi. Bolalikdan boshlab dunyo va o'zlari haqida yillar davomida saqlanib qoladigan qarashlar va e'tiqodlarni rivojlantiradilar. Agar bola ushbu davrda dunyoga pozitiv nuqtai nazardan qarashni o'rgansa, kelajakda yuksalishi, munosabatlar o‘rnatishi va maqsadlarga erishishi shu yo‘nalishda davom etib, amalga oshirish osonroq bo'ladi. O‘qituvchilar va ota-onalarning vazifasi shunchaki nekbinlikni singdirish emas, balki bolani haqiqatni ko'rishga, his-tuyg'ularini tushunishga va pozitiv munosabat bilan hayotga oqilona yondashuv o'rtasida muvozanatni topishga o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Бототова, Ж. А. Ценностные ориентации педагогов начальных классов / Ж. А. Бототова, Ю. В. Кострикова, Е. А. Радченко, М. Н. Рахманова // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. — 2016. — № 1-2. — С. 260–263.

2. Кирьякова, А. В. Теория ориентаций личности в мире ценностей / А. В. Кирьякова. — Оренбург, 1996. — 190 с.

3. Круглова, Б. С. Формирование нравственных ценностных ориентаций младших школьников средствами изобразительного искусства / Б. С. Круглова, В. И. Козлов. — Минск, 1993. — 222 с.

4. Мясищев, В. Н. Психология отношений / В. Н. Мясищев ; под ред. А. А. Бодалева. — Москва : Изд-во Московского психолого-социального института ; Воронеж : Изд-во НПО «МОДЭК», 2003.

5. Исаев, Е. И. Становление субъективности в образовательных процессах : учебное пособие / Е. И. Исаев, В. И. Слободчиков. — Москва : Изд-во ПСТГУ, 2013. — 432 с.

6. Фармонова, М. Қадриятлар – маънавий камолот асоси : илмий-услубий қўлланма / М. Фармонова. — Тошкент: Tasvir nashriyot uyi, 2019. — Б. 3–4.

Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

RAHBARLIK FAOLIYATIDA IRODAVIY REGULYATSIYA VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Irodaning faoliyatni boshqarishdagi o‘rni, irodaviy sifatlarning shakllanishi hamda ularning rahbarlik samaradorligiga ta’siri V.K. Kalin, O.A. Konopkin, E.P. Ilyin, V.A. Ivannikov va L.S. Vigotskiylarning ilmiy qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, rahbar shaxsida irodaviy regulyatsiya, o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilganlikning boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *iroda, irodaviy regulyatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, rahbarlik faoliyati, motivatsiya, irodaviy sifatlar, psixologik mexanizm, boshqaruv samaradorligi.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF VOLITIONAL REGULATION AND SELF-MANAGEMENT IN LEADERSHIP ACTIVITY

Abstract. *This article analyzes the psychological mechanisms of volitional regulation and self-management in leadership activities. The role of willpower in regulating activity, the formation of volitional qualities, and their impact on leadership effectiveness are examined based on the scientific views of V.K. Kalin, O.A. Konopkin, E.P. Ilyin, V.A. Ivannikov, and L.S. Vygotsky. Furthermore, the significance of volitional regulation, self-management, intrinsic motivation, and goal orientation in managerial activity is highlighted.*

Key words: *willpower, volitional regulation, self-management, leadership activity, motivation, volitional qualities, psychological mechanism, management effectiveness.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВОЛЕВОЙ РЕГУЛЯЦИИ И САМОУПРАВЛЕНИЯ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические механизмы волевой регуляции и самоуправления в деятельности руководителя. Рассматриваются роль воли в управлении деятельностью, формирование волевых качеств и их влияние на эффективность руководства на основе научных взглядов В.К. Калина, О.А. Конопкина, Е.П. Ильина, В.А. Иванникова и Л.С. Выготского. Кроме того, раскрывается значение волевой регуляции, самоуправления, внутренней мотивации и целеустремлённости в управленческой деятельности.*

Ключевые слова: *воля, волевая регуляция, самоуправление, управленческая деятельность, мотивация, волевые качества, психологический механизм, эффективность управления.*

Kirish va dolzarbligi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruv tizimlarining tezkor o‘zgarishi sharoitida rahbar shaxsining psixologik imkoniyatlari, xususan irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini o‘rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda tashkilotlar faoliyati yuqori darajadagi noaniqlik, raqobat, axborot oqimining keskin ortishi hamda stressogen vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda rahbarning faqat professional bilim va boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi yetarli emas, balki kuchli irodaviy sifatlar va psixologik barqarorlikka ega bo‘lishi ham zarurdir.

Mamlakatimizda bugungi kunda rahbarlar faoliyatida el-yurtni rozi qilish, ular faoliyatini samarali tashkil qilishda ular malakalarini psixologik jihatlarini tadqiq etish orqali jamiyatni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tub o‘zgarishlarga ijobiy dahldorlik munosabatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasida “Yangi ish o‘rinlarini yaratish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish” borasida ko’plab ishlar amalga oshirildi[1].

Rahbarlik faoliyatida qaror qabul qilish jarayoni ko‘pincha murakkab tanlovlar, motivlar kurashi va vaqt bosimi ostida amalga oshadi. Shu sababli irodaviy regulyatsiya rahbarning hissiy holatini boshqarish, impulsiv xatti-harakatlarni nazorat qilish va strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan barqaror faoliyatni ta’minlashda muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini boshqarish esa rahbar faoliyatining samaradorligini monitoring qilish, natijalarni baholash va zarur tuzatishlar kiritish orqali boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, globalizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari rahbarlardan tezkor qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va yuqori darajadagi refleksivlikni talab etmoqda. Bu esa irodaviy sifatlarning rivojlanishi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda rahbarlik samaradorligi ko‘proq shaxsning ichki resurslari, ya’ni motivatsiya, iroda, emotsional intellekt va refleksiya bilan bog‘liq holda talqin qilinmoqda. Shu jihatdan, irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, mazkur mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbarlar salohiyatini oshirish va tashkilotlar samaradorligini yuksaltirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlarda iroda shaxsning ongli ravishda maqsad sari yo‘naltirilgan faoliyatini boshqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Rahbarlik faoliyatida esa iroda qaror qabul qilish, jamoani boshqarish, ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tish hamda uzoq muddatli maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Irodaviy regulyatsiyaning nazariy asoslari. Psixologik tadqiqotlarda faoliyatni irodaviy boshqarish qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining dinamikasi bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida tavsiflanadi. Irodaviy harakat ma’lum bosqichlarda amalga oshib, har bir bosqich shaxsdan alohida psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, iroda inson faolligining ichki mexanizmi bo‘lib, faoliyatni boshlash, davom ettirish va yakunlash imkonini beruvchi psixologik resurs hisoblanadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.K. Kalin iroda va irodaviy sifatlarni irodaviy faollik hamda irodaviy regulyatsiya tushunchalari orqali izohlaydi. Uning fikricha, irodaviy faollik faoliyatning tarkibiy qismi bo‘lib, motivlar va maqsadlar orqali vositalanadi. Irodaviy regulyatsiya esa shaxsning psixik tizimlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv rahbarlik faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, rahbarning hissiyotlari, motivlari va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish imkonini beradi[5].

O.A. Konopkin tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini boshqarish modeli tahlili rahbarlik faoliyatining psixologik mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu modelga ko‘ra, har qanday boshqaruv faoliyati maqsadni aniqlash, vaziyatni baholash, harakatlar dasturini ishlab chiqish, natijalarni nazorat qilish va zarur tuzatishlar kiritish bosqichlaridan iborat. Rahbarning ushbu bosqichlarni samarali amalga oshira olishi uning o‘z-o‘zini boshqarish darajasi bilan bog‘liqdir. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari rivojlangan rahbarlar faoliyatida xatolar soni kamayadi, qarorlar sifati oshadi va jamoaning umumiy samaradorligi yuqori bo‘ladi[6].

Tadqiqotlar shuningdek, irodaviy sifatlar va liderlik xususiyatlari o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Mustaqillik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik va mas’uliyatlilik kabi sifatlar rahbarning liderlik salohiyatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Kuchli irodaga ega rahbarlar murakkab vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi, yangi g‘oyalarni ilgari suradi va jamoani umumiy maqsad sari safarbar qila oladi. Aksincha, irodaviy sifatlari sust rivojlangan rahbarlar qaror qabul qilishda ikkilanadi, tashqi ta’sirlarga tez beriladi va stressli vaziyatlarda samaradorligini yo‘qotishi mumkin.

E.P. Ilyinning iroda kuchi haqidagi qarashlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rahbarning ichki motivatsiyasi uning faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy tashkilotlarda rahbarlar ko‘pincha tashqi rag‘batlantirish vositalaridan ko‘ra ichki qadriyatlar, kasbiy mas’uliyat va tashkilot missiyasiga sodiqlik asosida faoliyat yuritadilar. Aynan ichki motivatsiya irodaviy kuchning shakllanishiga xizmat qiladi va murakkab vaziyatlarda ham maqsad sari harakatni davom ettirish imkonini beradi[4].

V.A.Ivannikov iroda funksiyasini yuqori psixologik funksiya sifatida tushunib, hal qilinadigan vazifaga qarab, birinchidan, harakatlarning ixtiyoriy motivatsiyasi sifatida, ikkinchidan, ikki yoki undan ortiq motiv, maqsad va harakatni tanlashda odamning ixtiyoriy qarori sifatida, uchinchidan, shaxsiy vositalar yordamida turli psixologik jarayonlar va bajaruvchi harakatlarni ixtiyoriy tartibga solish sifatida namoyon bo'lishi aytiladi [3]. Demak, rahbar doimo o‘z hissiyotlari, diqqatini, motivlarini tartibga solishi, ya’ni, stress holatida sovuqqonlikni saqlashi, uzoq muddatli rejalarni ustuvor qilish uchun hozirgi charchoqni yengishi, boshqalarga namuna bo‘lish uchun o‘zini tutib turishi kerak bo‘ladi.

L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi tahlili natijasida irodaning shakllanishida muloqot va nutqning alohida ahamiyatga egaligi aniqlandi. Rahbarlik faoliyatida nutq nafaqat axborot almashish vositasi, balki boshqaruv va psixologik ta’sir mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Ichki nutq orqali rahbar o‘z xatti-harakatlarini nazorat qiladi, faoliyatini rejalashtiradi va qarorlarini baholaydi. Tashqi nutq esa jamoani boshqarish, motivatsiya berish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi[2].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari samarali boshqaruv, yuqori darajadagi liderlik salohiyati hamda tashkilot maqsadlariga erishishda hal qiluvchi psixologik omillar ekanligini ko‘rsatdi. Shu bois, zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida irodaviy sifatlarni rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, irodaviy sifatlarning rivojlanganligi rahbarning stressga bardoshliligi bilan uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy boshqaruv faoliyati yuqori darajadagi psixologik yuklama bilan tavsiflanadi. Noaniqlik, mas’uliyat va tezkor qaror qabul qilish zarurati rahbarning psixologik resurslariga katta talab qo‘yadi. Rivojlangan irodaviy regulyatsiya rahbarga hissiy zo‘riqishlarni boshqarish, salbiy emotsiyalarni nazorat qilish va murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, tahlillar irodaviy sifatlarning jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. O‘ziga ishonchi yuqori, qat’iyatli va mas’uliyatli rahbarlar jamoada ishonch va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Bunday jamoalarda xodimlarning motivatsiyasi, mehnat unumdorligi va tashkilotga sodiqligi yuqori bo‘ladi. Natijada boshqaruv samaradorligi va tashkilot faoliyatining umumiy natijalari yaxshilanadi.

Jadval-1.

Olimlarimizni olib borgan tadqiqotlariga tayangan holda rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishning qisqartirilgan psixologik mexanizmini quyidagicha shakllantirish mumkin.

Bosqich	Psixologik jarayon	Rahbarlik faoliyatidagi namoyon bo‘lishi
1	Motivatsiya	Maqsad va vazifalarni belgilash
2	Vaziyatni tahlil qilish	Muammoni baholash va variantlarni aniqlash
3	Qaror qabul qilish	Eng maqbul yechimni tanlash
4	Irodaviy regulyatsiya	O‘zini nazorat qilish va stressni boshqarish
5	Harakatni amalga oshirish	Qarorlarni amaliyotga tatbiq etish
6	O‘z-o‘zini boshqarish	Natijalarni nazorat qilish va baholash
7	Takomillashtirish	Xatolarni tuzatish va faoliyatni rivojlantirish
8	Natijadorlik	Boshqaruv samaradorligi va liderlik muvaffaqiyati

Mazkur jadvalga asosan rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining psixologik bosqichma-bosqich amalga oshishi tasvirklangan bo‘lib, dastlab, rahbarning ichki motivatsiyasi asosida maqsad va vazifalar shakllanadi. Keyingi bosqichda vaziyat tahlil qilinib, mavjud muammolar va alternativ yechimlar aniqlanadi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning irodaviy sifatlari, xususan mustaqillik va qat’iyatlilik asosida eng maqbul variantni tanlashni ta’minlaydi.

Irodaviy regulyatsiya bosqichida rahbar o‘z hissiyotlari va xatti-harakatlarini nazorat qilib, stressli vaziyatlarda barqarorlikni saqlaydi. Harakatni amalga oshirish bosqichi qabul qilingan qarorlarning amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi.

O‘z-o‘zini boshqarish jarayoni faoliyat natijalarini monitoring qilish va baholash orqali amalga oshadi, bu esa keyingi takomillashtirish bosqichiga asos bo‘ladi. Yakuniy bosqichda esa boshqaruv samaradorligi va liderlik natijalari shakllanadi.

Bunga ko’ra, rahbar faoliyatining psixologik mexanizmi tizimli, bosqichli va o‘zaro bog‘liq jarayon ekanligini ko‘rsatadi hamda irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishning boshqaruv samaradorligidagi hal qiluvchi rolini asoslaydi.

Natijada har bir rahbarda boshqaruv samaradorligi va liderlik salohiyati ortadi.

Xulosa va tavsiyalar. Nazariy manbalar va ilmiy qarashlar tahlili rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Iroda rahbarning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini ta’minlovchi, ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishga xizmat qiluvchi hamda boshqaruv jarayonining barcha bosqichlarini birlashtiruvchi psixologik mexanizm hisoblanadi. Rahbarning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishi, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi, ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishi hamda jamoani samarali boshqarishi ko‘p jihatdan uning irodaviy sifatlariga bog‘liqdir.Shuningdek, mustaqillik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, sabr-toqat, mas’uliyatlilik, o‘zini nazorat qilish va stressga bardoshlilik kabi irodaviy sifatlar rahbarlik samaradorligini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi. Mazkur sifatlarning rivojlanganlik darajasi rahbarning liderlik salohiyati, boshqaruv qarorlarining sifati, jamoa bilan munosabatlari va tashkilot faoliyati natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarining rivojlanganligi boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik resurslardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari.2017.-(766)-son.B.36-37.

2. Выготский, Л.С. Собрание сочинений в 6т / Л.С. Выготский. – М. : Педагогика, 1982. – Т. 2. – 504 с

3. Иванников, В.А., Эйдман, Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки / В.А. Иванников, Е.В. Эйдман // Психологический журнал, 1990. – Том. 11. – №3. – С. 39-49

4. Ильин, Е. П. Психология воли / Е. П. Ильин. – СПБ. : Питер,2009. – 368 с

5. Калин, В.К. Волевая регуляция деятельности /В.К. Калин //Автореферат диссертации на соискание степени доктора психологических наук.– Тбилиси, 1989. – а. – 36 с

6. Конопкин, О.А. Стилевые особенности саморегуляции деятельности / О.А. Конопкин, В.И. Моросанова // Вопросы психологии, 1989.– № 5. – С. 18-26

Burxanova Dilnozaxon Ilxomjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD

QARINDOSHLIK ATAMALARIDA SEMANTIK O’ZGARISHLARNING KOGNITIV ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi qarindoshlik atamalarida kuzatiladigan semantik o‘zgarishlarning kognitiv asoslari tahlil qilinadi. Qarindoshlik terminlarining o‘z asosiy ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’nolar kasb etishi, ularning metaforik va metonimik kengayishlari, ijtimoiy-kommunikativ vazifalari hamda inson tafakkuridagi konseptual jarayonlar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijasida qarindoshlik atamalarining semantik taraqqiyoti xalqning milliy dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va kognitiv faoliyati bilan chambarchas aloqador ekanligi aniqlandi.*

Kalit so’zlar: *Kognitiv lingvistika, semantik o‘zgarish, qarindoshlik atamalari, konsept, metafora, metonimiya, konseptualizatsiya, semantik kengayish, milliy mentalitet, lisoniy manzara.*

КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ СЕМАНТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ТЕРМИНАХ РОДСТВА

Аннотация. *В данной статье анализируются когнитивные основы семантических изменений, наблюдаемых в терминах родства в узбекском языке. Подчеркиваются приобретение терминами родства дополнительных значений помимо их основного значения, их метафорическое и метонимическое расширение, социально-коммуникативные функции и связь с концептуальными процессами в человеческом мышлении. В результате исследования установлено, что семантическое развитие терминов родства тесно связано с национальным мировоззрением, культурными ценностями и познавательной деятельностью людей.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, семантические изменения, термины родства, понятие, метафора, метонимия, концептуализация, семантическое расширение, национальный менталитет, языковой ландшафт.*

COGNITIVE BASIS OF SEMANTIC CHANGES IN KINSHIP TERMS

Annotation. *This article analyzes the cognitive basis of semantic changes observed in kinship terms in the Uzbek language. The acquisition of additional meanings by kinship terms in addition to their main meaning, their metaphorical and metonymic expansions, socio-communicative functions, and their connection with conceptual processes in human thinking are highlighted. As a result of the study, it was found that the semantic development of kinship terms is closely related to the national worldview, cultural values, and cognitive activity of the people.*

Key words: *Cognitive linguistics, semantic change, kinship terms, concept, metaphor, metonymy, conceptualization, semantic expansion, national mentality, linguistic landscape.*

Kirish. Til doimiy rivojlanishda bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri va madaniy tajribaning ta’sirida o‘zgarib boradi. Mazkur o‘zgarishlar, ayniqsa, so‘zlarning semantik taraqqiyotida yaqqol namoyon bo‘ladi. Semantik o‘zgarishlar natijasida til birliklari yangi ma’no qirralarini hosil qiladi, ayrim hollarda esa o‘zining dastlabki ma’nosidan uzoqlashib, yangi kommunikativ vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Qarindoshlik atamalari tilning eng qadimiy leksik qatlamlaridan biri bo‘lib, insonning oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Biroq zamonaviy til amaliyotida bu atamalar faqat qarindoshlik munosabatlarini bildirish bilan cheklanmay, turli ijtimoiy, madaniy va kommunikativ ma’nolarni ham ifodalay boshlagan. Kognitiv lingvistika bunday o‘zgarishlarni inson ongida kechadigan konseptual jarayonlar bilan bog‘liq holda izohlaydi[1.B.220]. Shu bois qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlarning kognitiv asoslarini o‘rganish til va tafakkur munosabatlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kognitiv lingvistika tilni inson ongida shakllangan bilimlar tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Shu sababli har qanday leksik

birlikning ma'nosi uning lug'aviy mazmuni bilangina emas, balki insonning hayotiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyo haqidagi bilimlari bilan ham belgilanadi. Qarindoshlik atamalari insoniyat tarixidagi eng qadimiy konseptlardan biri bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, oilaviy munosabatlari va madaniy rivojlanishi haqida muhim ma'lumot beradi.

O'zbek tilida qarindoshlik terminlarining son jihatdan ko'pligi va ma'no jihatdan murakkabligi xalqning oilaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatadi. Ayrim tillarda birgina so'z orqali ifodalanuvchi qarindoshlik munosabatlari o'zbek tilida bir necha alohida atamalar bilan nomlanadi. Bu holat o'zbek xalqining qarindoshlik munosabatlarini nozik darajada differensiallashtirishga moyilligini namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda qarindoshlik terminlarini lingvokulturologik va etnolingvistik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq ularning semantik taraqqiyotini inson tafakkuridagi konseptual jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Semantik o'zgarishlar masalasi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda. An'anaviy semantik tadqiqotlarda so'z ma'nolarining kengayishi, torayishi, metaforalashuvi va metonimiyalashuvi asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan. Kognitiv lingvistika shakllangach esa semantik o'zgarishlar insonning bilish faoliyati, konseptual tizimi va dunyoni idrok etish jarayonlari bilan bog'liq holda talqin qilina boshlandi.

G.Lakoff va M.Jonson konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, til birliklaridagi ma'no o'zgarishlari inson tafakkurining mahsuli ekanligini asoslab berdilar. E.Kubryakova, R.Langaker, N.Boldirev va boshqa olimlar semantik taraqqiyotning kognitiv mexanizmlarini tahlil qilib, konseptualizatsiya va kategoriyalashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratdilar [2.B.312].

Mazkur tadqiqotda freym tahlili usulidan ham foydalanildi. Freym nazariyasiga ko'ra, inson ongida ma'lum tushunchalar o'zaro bog'langan bilimlar tizimi shaklida saqlanadi. Qarindoshlik atamalari ham "oila", "nasl", "avlod", "qarindoshlik" freymlari tarkibida o'zaro bog'langan holda mavjud bo'ladi. Semantik o'zgarishlar aynan shu freymlar o'rtasidagi munosabatlarning kengayishi natijasida yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotda tavsifiy, kognitiv-semantik, konseptual va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qarindoshlik atamalarining lug'aviy ma'nolari, nutqiy qo'llanishlari va semantik transformatsiyalari kognitiv yondashuv asosida o'rganildi.

Muhokama va natijalar. Qarindoshlik atamalaridagi semantik o'zgarishlarning asosiy sababi inson tafakkurining mavjud bilimlarni yangi obyekt va hodisalarga ko'chirish xususiyati bilan bog'liqdir. Kognitiv lingvistika bu jarayonni konseptual metafora va konseptual metonimiya mexanizmlari orqali izohlaydi. O'zbek tilida "ota", "ona", "aka", "opa", "amaki", "xola" kabi qarindoshlik atamalari dastlab biologik yoki ijtimoiy qarindoshlik munosabatlarini ifodalagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ularning semantik maydoni kengayib borgan [3.B.384]. Masalan, "aka" so'zi bugungi kunda nafaqat bir ota-onadan tug'ilgan katta o'g'il farzandni, balki hurmat qilinadigan, yoshi katta yoki ijtimoiy jihatdan yaqin bo'lgan erkak kishini ham anglatadi. Xuddi shuningdek, "opa" atamasi ham biologik qarindoshlik ma'nosidan tashqariga chiqib, hurmat va samimiyat ifodalovchi murojaat shakliga aylangan. Bu holat semantik kengayishning kognitiv modelini namoyon etadi. Inson ongida qarindosh shaxsga nisbatan mavjud bo'lgan yaqinlik, ishonch va hurmat kabi belgilar boshqa kishilarga ham ko'chiriladi. Natijada qarindoshlik konsepti ijtimoiy munosabatlar konsepti bilan integratsiyalashadi.

Qarindoshlik atamalaridagi semantik o'zgarishlarning yana bir muhim ko'rinishi metaforik ma'no taraqqiyoti bilan bog'liq [4.B.276]. Masalan, "ona tili", "ona Vatan", "ota yurt", "ota kasb" kabi birikmalarda qarindoshlik atamalari o'zining bevosita ma'nosida emas, balki metaforik ma'noda qo'llanadi. Bunday holatda inson uchun eng yaqin va qadrli bo'lgan "ona" va "ota" konseptlari mavhum tushunchalarni anglash vositasiga aylanadi.

Kognitiv nuqtai nazardan qaraganda, "ONA - HIMOYA VA MANBA", "OTA - TAYANCH VA BOSHQARUV" kabi konseptual metaforalar shakllanadi. Natijada til egasi Vatanni ona bilan, tarixiy makonni esa ota bilan qiyoslash orqali abstrakt tushunchalarni osonroq idrok etadi.

Semantik o'zgarishlarning metonimik modeli ham qarindoshlik atamalarida keng uchraydi. Masalan, ayrim hollarda "ota" so'zi butun oilaning rahbari ma'nosida, "ona" esa oila va xonadonning

ramzi sifatida qo‘llanadi. Bu yerda shaxs nomi unga xos bo‘lgan ijtimoiy vazifa bilan bog‘lanib, yangi ma’no hosil qiladi.

Qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlarni tushuntirishda prototip nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, har bir kategoriya markaziy va periferik a’zolardan tashkil topadi. Masalan, "ota" va "ona" qarindoshlik kategoriyasining prototip a’zolari hisoblanadi. Aynan shu birliklar asosida boshqa qarindoshlik munosabatlari anglanadi va kategoriyalashtiriladi [5.B.560].

Qarindoshlik atamalarining semantik rivojlanishida milliy-madaniy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek xalqida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish qadimiy qadriyat hisoblanadi. Shu sababli qarindoshlik atamalari hurmat kategoriyasining lisoniy ifodasiga aylangan. Notanish kishiga “amaki”, “xola”, “aka”, “opa” deb murojaat qilish ana shu madaniy modelning natijasidir. Bunda qarindoshlik ma’nosi ikkinchi planga o‘tadi, asosiy vazifani esa hurmat va samimiyat ifodalash tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlar tasodifiy hodisa emas, balki inson tafakkurining konseptual faoliyati natijasidir. Mazkur jarayonlar orqali til jamiyat ehtiyojlariga moslashadi va yangi kommunikativ imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Qarindoshlik atamalarining semantik kengayishida antropotsentrizm tamoyili ham muhim o‘rin tutadi. Inson o‘zi uchun eng yaqin va tushunarli bo‘lgan oilaviy munosabatlar modelini boshqa obyektlarga ko‘chiradi. Natijada "ona tabiat", "ona zamin", "ota makon", "ota kasb" kabi birikmalar vujudga keladi. Bu jarayon abstrakt tushunchalarni konkret va hissiy jihatdan yaqin obrazlar orqali anglash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik atamalarining semantik taraqqiyoti til iqtisodiyoti tamoyili bilan ham bog‘liq. Jamiyatda yangi kommunikativ ehtiyojlar paydo bo‘lganda mavjud so‘zlar yangi ma’nolarni ifodalash uchun jalb qilinadi [6.B.236]. Masalan, "aka" va "opa" so‘zlari bugungi kunda nafaqat qarindoshlikni, balki ijtimoiy yaqinlik, hurmat va samimiyatni ham ifodalaydi.

Qarindoshlik atamalarining semantik o‘zgarishlarida pragmatik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Nutq jarayonida bu atamalar suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabat bildirish, muloqot muhitini yumshatish va ijtimoiy masofani qisqartirish vazifalarini bajaradi. Shu sababli ular o‘zining asl ma’nosidan uzoqlashib, kommunikativ vosita sifatida faol qo‘llanadi. Shuningdek, o‘zbek tilida qarindoshlik atamalari asosida shakllangan ko‘plab paremiologik birliklar mavjud. "Qarindoshning yomonligi bilinmas, begonaning yaxshiligi", "Aka borning tirg‘agi bor" kabi maqollar xalqning qarindoshlik haqidagi konseptual bilimlarini aks ettiradi [7.B.272]. Bu birliklar orqali qarindoshlik konsepti nafaqat leksik, balki madaniy va aksiologik mazmun ham kasb etadi.

Semantik o‘zgarishlarning yana bir ko‘rinishi atamalarning ramziy ma’nolar kasb etishida namoyon bo‘ladi. Masalan, "ota" so‘zi donishmandlik, tajriba va rahbarlik timsoli sifatida, "ona" esa mehr, sadoqat va hayot manbai sifatida konseptuallashadi. Bu ramziy ma’nolar keyinchalik til tizimida mustahkamlanib, yangi semantik qatlamlarni yuzaga keltiradi.

Qarindoshlik atamalarining kognitiv-semantik taraqqiyotida konseptual integratsiyaning o‘rni

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qarindoshlik atamalarining semantik taraqqiyotini faqat metafora va metonimiya orqali izohlash yetarli emas. Ushbu jarayonda konseptual integratsiya (conceptual blending) mexanizmi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson tafakkuri turli konseptual maydonlarga oid bilimlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, yangi mazmun hosil qiladi. Natijada qarindoshlik atamalari o‘zining dastlabki biologik mazmunidan tashqariga chiqib, ijtimoiy va madaniy munosabatlarni ifodalovchi universal kommunikativ birliklarga aylanadi.

Masalan, o‘zbek tilida "ota" leksemasi nafaqat biologik ota obrazini, balki asoschi, yo‘l ko‘rsatuvchi, tajriba egasi yoki rahbar ma’nolarini ham anglatadi. "Millat otasi", "ustoz ota", "ota kasb" kabi birikmalarda ushbu atama konseptual integratsiya natijasida yangi semantik mazmun kasb etadi. Xuddi shuningdek, "ona" leksemasi "ona tili", "ona zamin", "ona tabiat", "ona Vatan" kabi birikmalarda mehr, himoya, hayot manbai va muqaddaslik konseptlarini ifodalovchi ramziy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday semantik transformatsiyalar til egalarining olamni idrok etishidagi milliy-madaniy xususiyatlarni yaqqol aks ettiradi.

Qarindoshlik terminlarining kommunikativ funksiyasi ham zamonaviy nutq amaliyotida sezilarli darajada kengaygan. Kundalik muloqotda notanish kishilarga "aka", "opa", "amaki", "xola",

"ota", "ona" kabi murojaat shakllarining qo‘llanilishi nafaqat hurmat ifodalash, balki ijtimoiy yaqinlikni shakllantirish, kommunikativ to‘siqlarni kamaytirish hamda muloqotning samimiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qarindoshlik atamalari pragmatik vazifani bajaruvchi muhim til birliklari sifatida ham baholanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida qarindoshlik atamalarining semantik maydoni yanada kengayib bormoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalarida "aka", "opa", "ustoz", "ota", "onajon" kabi birliklar biologik qarindoshlikni emas, balki hurmat, samimiyat, yaqinlik va ijtimoiy birdamlikni ifodalash uchun faol qo‘llanmoqda. Bu holat qarindoshlik konseptining virtual kommunikativ makonda ham faol rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qarindoshlik terminlarining semantik rivojlanishida milliy mentalitet bilan bir qatorda umuminsoniy kognitiv qonuniyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Deyarli barcha xalqlarda "ota" va "ona" konseptlari himoya, g‘amxo‘rlik, hayot manbai va ishonch timsoli sifatida idrok etiladi. Biroq o‘zbek tilida ushbu konseptlarning semantik imkoniyatlari yanada keng bo‘lib, ular hurmat, odob-axloq, ijtimoiy birdamlik va oilaviy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida faol ishlatiladi. Bu esa o‘zbek tilining antropotsentrik va lingvomadaniy xususiyatlarini namoyon etadi.

Umuman olganda, qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlar tilning dinamik rivojlanish jarayonini, inson tafakkurining konseptual faoliyatini hamda jamiyatning madaniy ehtiyojlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur birliklarning kognitiv-semantik tahlili til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi hamda o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining milliy-madaniy va kommunikativ salohiyatini ochib berishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlar tasodifiy til hodisasi emas, balki inson tafakkurining konseptual faoliyati mahsuli ekanligini ko‘rsatdi. Qarindoshlik terminlarining yangi ma’nolar kasb etishi konseptual metafora, konseptual metonimiya, prototiplashtirish va freym kengayishi kabi kognitiv mexanizmlar asosida amalga oshadi. Qarindoshlik atamalaridagi semantik o‘zgarishlar inson tafakkurining konseptual va kognitiv faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek tilida qarindoshlik terminlari biologik qarindoshlikni ifodalash doirasidan chiqib, hurmat, yaqinlik, samimiyat, himoya va ijtimoiy munosabatlar kabi qo‘shimcha ma’nolarni ham ifodalay boshlagan. Bu jarayon konseptual metafora, metonimiya, kategoriyalashtirish va konseptual integratsiya kabi kognitiv mexanizmlar orqali amalga oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik atamalari o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, madaniy qadriyatlari va olamni idrok etish usullarini aks ettiruvchi muhim kognitiv birliklar hisoblanadi. Ularning semantik taraqqiyotini o‘rganish til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Qarindoshlik atamalari o‘zbek xalqining madaniy xotirasi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi muhim kognitiv birliklar hisoblanadi. Ularning semantik rivojlanishi til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Shu jihatdan qarindoshlik terminlarini kognitiv-semantik aspektda o‘rganish o‘zbek tilining antropotsentrik tabiatini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 220 b.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 312 b.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 384 b.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2010. – 276 b.
5. Кубрякова Е.С. Язик и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Язики славянской культури, 2004. – 560 с.
6. Болдирев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: ТГУ, 2014. – 236 с.
7. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2008. – 272 с.

Abdunosirova Zarinaxon Anvarjon qizi
Tashkent University of Humanities
Teacher of the Department of Pedagogy and Languages
E-mail:zarinaxonabdunosirova94@gmail.com

PRAGMATIC FEATURES OF ENGLISH ADVERTISING DISCOURSE

Annotation. *This article examines the pragmatic features of English advertising discourse and their role in persuasive communication. Advertising language functions not only as a source of information but also as a tool of psychological and emotional influence. The study analyzes major pragmatic devices used in English advertisements, including speech acts, implicature, presupposition, deixis, and emotional appeal.*

The research is based on qualitative analysis of 45 English advertisements collected from television, social media, online campaigns, magazines, and billboard advertisements. The findings reveal that emotional appeal and implicature are the most frequently used pragmatic strategies in modern advertising discourse. The study also demonstrates that advertisers actively employ indirect communication and persuasive language to shape consumer attitudes and increase audience engagement.The article concludes that pragmatic analysis plays an important role in identifying hidden meanings and communicative intentions in advertising discourse.

Key words: *pragmatics, advertising discourse, speech acts, implicature, presupposition, persuasion, emotional appeal, media linguistics.*

PRAGMATIC FEATURES OF ENGLISH ADVERTISING DISCOURSE

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz reklama diskursining pragmatik xususiyatlari va ularning persuaziv kommunikatsiyadagi o‘rni tahlil qilinadi. Reklama tili nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki psixologik va emotsional ta’sir ko‘rsatish instrumenti sifatida ham xizmat qiladi. Tadqiqotda ingliz reklama matnlarida qo‘llaniladigan asosiy pragmatik vositalar - nutq aktlari, implikatura, presupozitsiya, deyksis va emotsional ta’sir usullari o‘rganildi.*

Tadqiqot uchun televizion reklamalar, ijtimoiy tarmoqlar, internet kampaniyalari, jurnal reklamasi va billboardlardan olingan 45 ta ingliz reklama matni tahlil qilindi. Natijalar zamonaviy reklama diskursida emotsional ta’sir va implikatura eng faol qo‘llaniladigan pragmatik strategiyalar ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot reklama tilidagi yashirin ma’no va kommunikativ niyatlarni aniqlashda pragmatik tahlil muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tayanch so‘zlar: *pragmatika, reklama diskursi, nutq aktlari, implikatura, presupozitsiya, persuaziya, emotsional ta’sir, media lingvistikasi.*

Shuningdek, germenevtik metod matnni zamonaviy o‘quvchi ongida qayta konseptuallashtirish imkonini ham beradi. Har bir o‘quvchi o‘zining bilim darajasi, madaniy tajribasi va dunyoqarashi asosida matnni yangicha talqin qiladi. Natijada mumtoz adabiy meros faqat tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki bugungi kunning ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga javob bera oladigan tirik madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat germenevtik yondashuvning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi dolzarbligini yanada oshiradi.

Demak, germenevtik metodologiya mumtoz matnlarni o‘rganishda filologik, tarixiy, lingvokulturologik va falsafiy yondashuvlarni o‘zaro integratsiyalash imkonini beruvchi kompleks ilmiy vosita hisoblanadi. Uning qo‘llanilishi nafaqat matnning yashirin semantik qatlamlarini ochishga, balki mumtoz adabiyotning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi. Shu sababli germenevtik yondashuvni o‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etish metodologiyasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari mumtoz matnlarni germenevtik yondashuv asosida o‘rganish ushbu metodologiyaning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlashini ko‘rsatdi. Mumtoz adabiyot namunalari ko‘p qatlamli semantik tizimga ega bo‘lib, ularni faqat filologik yoki tarixiy yondashuv asosida to‘liq anglash imkoniyati cheklangan.

Germenevtik metod esa matnning tashqi mazmuni bilan bir qatorda uning falsafiy, tasavvufiy va madaniy qatlamlarini ham ochib beradi. Ushbu yondashuv matn, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Natijada asarning mazmuni har bir davrning ilmiy va madaniy tafakkuri bilan boyib boruvchi dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, germenevtik yondashuv mumtoz matnlarning yashirin ma’no qatlamlarini ochish, tarixiy-madaniy kodlarini aniqlash hamda badiiy tafakkurning ichki mexanizmlarini anglash imkonini beruvchi samarali metodologik vosita hisoblanadi. Uning qo‘llanilishi o‘zbek mumtoz adabiy merosini zamonaviy ilmiy paradigma asosida qayta talqin qilish va uning umuminsoniy ahamiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayeva G. Ogahiyning «Riyoz ud-davla» asaridagi mumtoz saj’ poetikasi // Germany International Scientific Conference. – 2022. – № 11. – B. 78–83.
2. Haqqulov I. O‘zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf. – Toshkent : Fan, 2011. – 320 b.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent : O‘zbekiston, 1991. – 192 b.
4. Muxtorova L., Usarova L. Germenevtik tahlil asosida Abdulla Oripov ijodining ta’lim jarayonida o‘rganish usullari // Renessans: Ta’lim, fan va innovatsiyalar jurnali. – 2024. – № 5. – B. 245–250.
5. O‘rinboyev S. Germenevtik yondashuv asosida adabiy matnni talqin qilish usullari // Yangi O‘zbekiston tadqiqotlari. – 2023. – № 7. – B. 112–118.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent : Fan, 2007. – 384 b.
7. Tojiboyev M., Yusupova Sh., Bo‘rieva E. Adabiy germenevtika va mumtoz badiiy til. – Toshkent : Universitet, 2013. – 256 b.

Otakulova Dilorom Azimjonovna
Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD

O‘SPIRINLAR O‘RTASIDA KIBERZO‘RAVONLIKNI KAMAYTIRISHNING PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional intellekt, empatiya, o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi asosiy himoya omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Kiberzo‘ravonlikning yuzaga kelishida raqamli muhitdagi anonimlik, tengdoshlar bosimi va oilaviy nazorat darajasining pastligi muhim rol o‘ynashi yoritiladi. Shuningdek, maktab muhiti va o‘qituvchilarning profilaktik faoliyati o‘smirlar xulq-atvorini ijobiy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari kiberzo‘ravonlikni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi, jumladan psixologik treninglar, raqamli savodxonlikni oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish muhimligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *kiberzo‘ravonlik, o‘smirlar, psixologik mexanizmlar, empatiya, emotsional intellekt, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, profilaktika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СНИЖЕНИЯ КИБЕРБУЛЛИНГА СРЕДИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические и социальные механизмы снижения кибербуллинга среди подростков. Основное внимание уделяется эмоциональному интеллекту, эмпатии, самоконтролю, стрессоустойчивости и системе социальной поддержки как ключевым защитным факторам. Подчеркивается, что важную роль в возникновении кибербуллинга играют анонимность в цифровой среде, давление сверстников и низкий уровень семейного контроля. Также отмечается значимость школьной среды и профилактической деятельности педагогов в формировании позитивного поведения подростков. Результаты исследования показывают необходимость комплексного подхода, включающего психологические тренинги, развитие цифровой грамотности и усиление социальной поддержки.*

Ключевые слова: *кибербуллинг, подростки, психологические механизмы, эмпатия, эмоциональный интеллект, социальная поддержка, профилактика.*

PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL MECHANISMS FOR REDUCING CYBERBULLYING AMONG ADOLESCENTS

Abstract. *This article analyzes the psychological and social mechanisms for reducing cyberbullying among adolescents. The study focuses on emotional intelligence, empathy, self-control, stress resilience, and social support systems as key protective factors. It highlights that anonymity in the digital environment, peer pressure, and weak family supervision play significant roles in the emergence of cyberbullying. The importance of the school environment and teachers’ preventive activities in shaping positive adolescent behavior is also emphasized. The findings indicate the necessity of a comprehensive approach, including psychological training, improvement of digital literacy, and strengthening of social support systems.*

Key words: *cyberbullying, adolescents, psychological mechanisms, empathy, emotional intelligence, social support, prevention.*

Mavzuning dolzarbligi. O‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirish masalasi bugungi raqamli jamiyatda eng dolzarb psixologik va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar, jumladan UNESCO va UNICEF hisobotlarida ta’kidlanishicha, internetdan faol foydalanayotgan o‘smirlarning sezilarli qismi turli shakldagi onlayn tahqirlash va psixologik bosimga duch keladi. Bu holat ularning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, o‘qish samaradorligi va ijtimoiy

moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatib, stress, xavotir va depressiv holatlarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Global miqyosdagi tadqiqotlar kiberzo‘ravonlikning asosiy omillari sifatida anonimlik, raqamli muloqotning nazoratsizligi, tengdoshlar bosimi va raqamli savodxonlikning yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, emotsional intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar darajasi past bo‘lgan o‘smirlar kiberzo‘ravonlikka ham ko‘proq moyil bo‘lishi aniqlangan.

O‘zbekiston sharoitida ham internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning keskin oshishi ushbu muammoning dolzarbligini kuchaytirmoqda. Ta’lim tizimida raqamli xavfsizlik va psixologik profilaktika bo‘yicha bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, shuningdek, oilaviy va maktab muhitida nazorat va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining har doim ham yetarli emasligi bu muammoning kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois, kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish o‘smirlar psixologik farovonligini ta’minlash, sog‘lom raqamli muhit yaratish va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi va internetning kundalik hayotga chuqur kirib borishi o‘smirlar ijtimoiylashuv jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda o‘smirlar nafaqat real hayotda, balki virtual makonda ham faol muloqotga kirishmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda yuzaga kelayotgan salbiy hodisalar, xususan kiberzo‘ravonlik (cyberbullying), o‘smirlar psixologik salomatligiga jiddiy tahdid soluvchi omil sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internetdan muntazam foydalanadigan yoshlarning sezilarli qismi kamida bir marta onlayn tahqirlash, haqorat yoki bosimga duch kelgan bo‘lib, bu ularning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

UNICEF va UNESCO tomonidan e’lon qilingan global hisobotlarda kiberzo‘ravonlik o‘smirlar orasida depressiya, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya va o‘ziga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytiruvchi asosiy psixologik xavf omillaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, anonimlik va masofaviy muloqot imkoniyati zo‘ravonlikni yanada kuchaytiradi, chunki tajovuzkor o‘z xatti-harakatlarining real oqibatlarini to‘liq his qilmaydi.

Raqamli platformalarning kengayishi bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot intensivligi ortib, o‘smirlar orasida tengdoshlar bosimi ham kuchaymoqda. Bu holat ayrim yoshlarning psixologik zaiflikka moyilligini oshirib, kiberzo‘ravonlikning takroriy va tizimli shaklda namoyon bo‘lishiga olib kelmoqda. Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘smirlar o‘rtasida internetda sodir etiladigan salbiy muloqot holatlari so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega.

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli texnologiyalar, mobil internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi sezilarli darajada oshgan. Bu esa o‘smirlarning virtual muloqot muhitiga tobora ko‘proq kirib borishini anglatadi. Biroq ta’lim muassasalarida raqamli xavfsizlik, psixologik profilaktika va emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar hali yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Natijada, ayrim o‘smirlar kiberzo‘ravonlik holatlarida himoyasiz qolishi yoki o‘zlari ham salbiy xulq-atvorga moyillik ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini o‘rganish bugungi kunda nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya va raqamli ta’lim sohalari uchun ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammo bo‘yicha chuqur tahlil qilish samarali profilaktik dasturlarni ishlab chiqish, o‘smirlar psixologik barqarorligini oshirish va sog‘lom raqamli muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini o‘rganish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha xorijiy va rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiberzo‘ravonlikning murakkab, ko‘p omilli va dinamik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, kiberzo‘ravonlik nafaqat individual psixologik xususiyatlar, balki ijtimoiy muhit, raqamli madaniyat va kommunikativ xulq-atvor bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Xorijiy psixologiyada kiberzo‘ravonlik muammosi D. Olweusning klassik bullying nazariyalaridan kelib chiqqan holda rivojlangan bo‘lib, u zo‘ravonlikni tizimli va takroriy agressiv xatti-harakat sifatida talqin qiladi. Keyinchalik J. Patchin va S. Hinduja kiberzo‘ravonlikni raqamli muhitda sodir bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik zo‘ravonlik shakli sifatida keng o‘rgangan. Ularning tadqiqotlarida anonimlik, ijtimoiy tarmoqlarning kengligi va nazoratning yetishmasligi kiberzo‘ravonlikning asosiy kuchaytiruvchi omillari sifatida ko‘rsatiladi. R. Tokunaga va K. Kowalski kabi tadqiqotchilar esa kiberzo‘ravonlik qurbonlarida depressiya, xavotir va past o‘z-o‘zini baholash darajasi yuqori ekanligini empirik jihatdan asoslab berganlar. Shuningdek, N. Willard kiberzo‘ravonlikni oldini olishda raqamli savodxonlik va psixologik profilaktikaning o‘rni muhimligini ta’kidlaydi.

Rus psixologiya maktabida ushbu muammo ijtimoiylashuv va shaxs rivojlanishi kontekstida o‘rganilgan. L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy yondashuvga ko‘ra, shaxsning xulq-atvori ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi, bu esa raqamli muhitni ham yangi ijtimoiy rivojlanish maydoni sifatida ko‘rish imkonini beradi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida shaxsning xulq-atvori faoliyat orqali shakllanishini ta’kidlab, nazoratsiz raqamli faoliyat agressiv xulqning kuchayishiga olib kelishi mumkinligini asoslaydi. A. A. Rean o‘smirlar agressiv xulq-atvorini o‘rganib, emotsional beqarorlik va ijtimoiy frustratsiya kiberzo‘ravonlikka moyillikni oshiruvchi muhim psixologik omillar ekanligini ko‘rsatadi. D. I. Feldshteyn esa o‘smirlik davrida ijtimoiy rollarning murakkablashuvi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar zo‘ravonlik xulqining shakllanishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy rus tadqiqotchilaridan S. V. Molchanov va T. P. Avdulova raqamli muhitda empatiya, o‘zini boshqarish va axloqiy ongning pasayishi kiberzo‘ravonlik xavfini oshirishini empirik tadqiqotlar asosida isbotlaganlar. Ularning fikricha, o‘smirlarning raqamli kommunikatsiya madaniyati shakllanmagan bo‘lsa, internet muhitida agressiv xatti-harakatlar tez-tez uchraydi.

Umuman olganda, xorijiy va rus olimlarining ilmiy qarashlari kiberzo‘ravonlikni psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar kesishmasida yuzaga keladigan murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni kamaytirish uchun faqat texnik choralar yetarli emas, balki emotsional intellektni rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur. Shu sababli, mavjud adabiyotlar tahlili kiberzo‘ravonlikni kompleks psixologik va ijtimoiy yondashuv asosida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot o‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda miqdoriy (quantitative) tadqiqot dizayni qo‘llanildi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan 15–18 yoshdagi 150 nafar o‘smir ishtirokida amalga oshirildi. Tanlanma tasodifiy va ixtiyoriy tanlash usullari asosida shakllantirildi. Barcha ishtirokchilardan rozilik olinib, anonimlik va maxfiylik tamoyillari ta’minlandi.

Tadqiqot jarayonida kiberzo‘ravonlik darajasini o‘lchash uchun Cyberbullying Victimization Scale (CBVS, adaptatsiyalangan variant), emotsional intellektni baholash uchun Schutte Emotional Intelligence Scale (SEIS), empatiya darajasini aniqlash uchun Basic Empathy Scale (Jolliffe & Farrington) hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni o‘lchash uchun Multidimensional Scale of Perceived Social Support (MSPSS) metodikalari qo‘llanildi. Ushbu metodikalar O‘zbekiston psixologik amaliyotida keng qo‘llaniladigan va validatsiyadan o‘tgan standart psixodiagnostik vositalar hisoblanadi.

Olingan ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturi yordamida qayta ishlanib, deskriptiv statistika, Pearson korrelyatsiya tahlili va regressiya tahlili amalga oshirildi. Bu yondashuv kiberzo‘ravonlikni kamaytiruvchi asosiy psixologik va ijtimoiy omillarni aniqlash imkonini berdi.

Jadval 1.

SPSS asosida korrelyatsion tahlil natijalari (N = 150)

Ko‘rsatkichlar	Kiberzo‘ravonlik darajasi	Emotsional intellekt	Empatiya darajasi	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	O‘zini boshqarish
Kiberzo‘ravonlik darajasi	1	-0.68**	-0.62**	-0.59**	-0.65**

Emotsional intellekt	-0.68**	1	0.66**	0.61**	0.70**
Empatiya darajasi	-0.62**	0.66**	1	0.57**	0.63**
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	-0.59**	0.61**	0.57**	1	0.55**
O‘zini boshqarish	-0.65**	0.70**	0.63**	0.55**	1

Izoh: $p < 0.01$ (statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kiberzo‘ravonlik darajasi va barcha psixologik hamda ijtimoiy omillar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli teskari bog‘liqlik mavjud. Eng kuchli salbiy korrelyatsiya emotsional intellekt bilan kuzatildi ($r = -0.68$), bu esa o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarning emotsional holatini tushunish qobiliyati kiberzo‘ravonlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynashini anglatadi. Shuningdek, o‘zini boshqarish va empatiya darajasi ham kiberzo‘ravonlikning kamayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Umuman olganda, metodologik yondashuv kiberzo‘ravonlikni kamaytirishga xizmat qiluvchi psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi hamda SPSS asosidagi statistik natijalar tadqiqot xulosalarining ilmiy ishonchliligini ta’minladi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari o‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishda psixologik va ijtimoiy mexanizmlar muhim rol o‘ynashini yaqqol ko‘rsatadi. Olingan empirik ma’lumotlar kiberzo‘ravonlik darajasi bilan emotsional intellekt, empatiya, o‘zini boshqarish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida sezilarli darajada teskari bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu esa kiberzo‘ravonlikni faqat texnologik muammo emas, balki chuqur psixologik va ijtimoiy ildizlarga ega murakkab hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarga ko‘ra, emotsional intellektning yuqori darajasi o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda javob berish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa onlayn muhitda impulsiv va agressiv xatti-harakatlarning kamayishiga olib keladi. Aksincha, emotsional intellekti past bo‘lgan o‘smirlar stressli vaziyatlarda tajovuzkor reaksiyalar berishga moyil bo‘lib, kiberzo‘ravonlik jarayoniga ko‘proq jalb etilishi mumkin.

Empatiya darajasi ham muhim himoya omili sifatida namoyon bo‘ldi. Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushuna oladigan va ularga nisbatan hamdardlik bildiradigan o‘smirlar internet muhitida zararli xatti-harakatlardan o‘zini tiyishga moyil bo‘ladi. Bu natija ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi bilan uyg‘unlikda talqin qilinadi.

O‘zini boshqarish ko‘nikmalari kiberzo‘ravonlikning oldini olishda eng muhim individual omillardan biri sifatida aniqlangan. Impuls nazoratining pastligi, sabrsizlik va tezkor emotsional reaksiya berish tendensiyasi onlayn agressiyaning kuchayishiga olib keladi. Shu bois, o‘zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish profilaktik dasturlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham o‘smirlarning raqamli muhitdagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy barqarorlik, maktabdagi ijobiy psixologik muhit va tengdoshlar bilan sog‘lom munosabatlar kiberzo‘ravonlikning kamayishiga xizmat qiladi. Aksincha, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi o‘smirlarni psixologik jihatdan himoyasiz holatga olib keladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kiberzo‘ravonlikni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv nafaqat texnik cheklovlar, balki emotsional intellektni rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu orqali o‘smirlar uchun xavfsiz va sog‘lom raqamli muhitni yaratish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot o‘smirlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, olingan natijalar ushbu muammoning ko‘p omilli va murakkab xususiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida emotsional intellekt, empatiya, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi kiberzo‘ravonlik darajasini belgilovchi asosiy himoya omillari sifatida aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi emotsional intellekt va empatiya o‘smirlarning raqamli muhitda ijobiy xulq-atvor namoyon etishiga yordam beradi, past darajadagi esa aksincha agressiv va destruktiv xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi. Shuningdek, o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanganligi impulsiv reaktsiyalarni kamaytirib, kiberzo‘ravonlikka qarshi muhim psixologik himoya mexanizmi vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa oilaviy va maktab muhitidagi barqaror psixologik iqlim, o‘smirlarning hissiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi va ularning internet muhitidagi xulq-atvorini ijobiy tomonga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, nazorat va profilaktika tizimlarining yetarli emasligi kiberzo‘ravonlik xavfini oshirishi mumkinligi aniqlandi.

Umuman olganda, kiberzo‘ravonlikni kamaytirish uchun faqat texnik choralar emas, balki kompleks psixologik va ijtimoiy yondashuv zarurligi isbotlandi. Bunday yondashuv emotsional intellektni rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda raqamli savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Natijada o‘smirlar uchun xavfsiz, sog‘lom va barqaror raqamli muhitni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company, 1968.
4. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. Oxford: Blackwell Publishing, 1993.
5. Hinduja S., Patchin J. W. Cyberbullying Research, Summary and Findings. Cyberbullying Research Center, 2020.
6. Kowalski R. M., Limber S. P., Agatston P. W. Cyberbullying: Bullying in the Digital Age. Wiley-Blackwell, 2012.

Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail:durdonaabdullayeva314@gmail.com

YOSHLARDA IJTIMOIY SOLISHTIRISH JARAYONINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining psixologik mohiyati ilmiy-tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Unda ijtimoiy solishtirish nazariyasining asosiy tamoyillari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, mazkur jarayonning yoshlar psixologiyasiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy solishtirishning nafaqat salbiy, balki ijobiy jihatlari ham ko'rsatilib, yoshlarning ruhiy farovonligi va o'z-o'zini baholashiga ta'siri izohlangan. Maqolada yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonini to'g'ri boshqarish, uni psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish zarurligi ta'kidlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy solishtirish, psixologik mohiyat, yoshlar psixologiyasi, ruhiy farovonlik, o'z-o'zini baholash, Festinger nazariyasi, ijtimoiy tarmoqlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРОЦЕССА СОЦИАЛЬНОГО СРАВНЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье на основе научно-аналитического подхода исследована психологическая сущность процесса социального сравнения у молодежи. Проанализированы основные принципы теории социального сравнения на основе научных источников, а также раскрыто влияние данного процесса на психологию молодежи. Кроме того, рассмотрены не только негативные, но и положительные стороны социального сравнения, объяснено его влияние на психологическое благополучие и самооценку молодых людей. В статье подчеркивается необходимость правильного управления процессом социального сравнения у молодежи и его психологически здорового направления, а также разработаны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *Социальное сравнение, психологическая сущность, психология молодежи, психологическое благополучие, самооценка, теория Фестингера, социальные сети.*

THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF THE SOCIAL COMPARISON PROCESS AMONG YOUTH

Abstract. *This article examines the psychological essence of the social comparison process among young people based on a scientific and analytical approach. The main principles of social comparison theory are analyzed on the basis of scientific sources, and the impact of this process on youth psychology is revealed. In addition, not only the negative but also the positive aspects of social comparison are highlighted, and its influence on psychological well-being and self-esteem is explained. The article emphasizes the importance of properly managing the process of social comparison among young people and directing it in a psychologically healthy way, while also providing practical recommendations.*

Key words: *Social comparison, psychological essence, youth psychology, psychological well-being, self-esteem, Festinger's theory, social networks.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlarning ijtimoiy muhit bilan munosabatlari yangi mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida insonlarning o'zini boshqalar bilan taqqoslashi kundalik psixologik jarayonga aylanib bormoqda. Yoshlar psixologik jihatdan ta'sirchan qatlam sifatida bu jarayonda faol ishtirok etib, o'z tengdoshlari, mashhur shaxslar hamda virtual obrazlar bilan o'z imkoniyatlari, tashqi ko'rinishi, muvaffaqiyati va ijtimoiy mavqeini qiyoslash orqali o'z shaxsiy identifikatsiyasini shakllantirmoqda.

Ijtimoiy solishtirish shaxsning o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholashi va jamiyatdagi o‘rnini belgilashida muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon ayrim holatlarda motivatsiya va shaxsiy rivojlanishga xizmat qilsa, ayrim vaziyatlarda ruhiy tushkunlik, xavotir, o‘zidan qoniqmaslik hamda psixologik noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli yoshlar orasida ijtimoiy solishtirishning psixologik mohiyatini o‘rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining psixologik mohiyatini tahlil qilish, uning shaxs rivojlanishi va ruhiy farovonlikka ta’sirini aniqlash hamda ijtimoiy solishtirishni psixologik jihatdan sog‘lom yo‘naltirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar orasida ijtimoiy solishtirish jarayonini o‘rganish psixologiya fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning nazariy asoslari dastlab amerikalik psixolog Leon Festinger tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy solishtirish nazariyasida yoritilgan. Olimning fikriga ko‘ra, inson o‘z qobiliyati, imkoniyati va shaxsiy sifatlarini baholash uchun boshqalar bilan taqqoslashga ehtiyoj sezadi [1]. Ayniqsa, noaniq vaziyatlarda inson o‘zini atrofdagilar bilan qiyoslash orqali o‘ziga baho beradi.

Keyingi tadqiqotlarda ijtimoiy solishtirishning “yuqoriga” va “pastga” yo‘naltirilgan shakllari keng o‘rganilgan. Psixologlar T. Wills va J. Wood tadqiqotlarida inson o‘zidan muvaffaqiyatliroq shaxslar bilan solishtirganda motivatsiya yoki tushkunlik, o‘zidan imkoniyati pastroq insonlar bilan qiyoslanganda esa psixologik himoya va qoniqish hissi yuzaga kelishini ta’kidlaydi [2]. Yoshlar orasida ayniqsa “yuqoriga solishtirish” ko‘proq uchraydi, chunki ular ideal obrazlarga intilish orqali o‘z hayotini boshqalar bilan qiyoslashga moyil bo‘ladi.

Tadqiqotchi J. Vogel ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning muvaffaqiyatli va ideal hayot tarzining namoyish etilishi yoshlarning o‘z-o‘zini baholashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan [3]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, virtual muhitdagi solishtirish real hayotdagi psixologik qoniqmaslikni kuchaytirishi mumkin.

Mahalliy olimlar tomonidan ham yoshlar psixologiyasi va o‘z-o‘zini baholash masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, E. G‘oziyevning psixologik qarashlarida shaxs kamolotida ijtimoiy muhit va tengdoshlar ta’siri muhim omil sifatida ko‘rsatiladi [4]. Olim yoshlarning o‘zini anglash jarayonida ijtimoiy baholashning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi.

R. Martin va K. Kennedy tadqiqotlarida boshqalar bilan qiyoslash ayrim hollarda insonni rivojlanishga, maqsad sari intilishga va o‘z ustida ishlashga undashi ta’kidlangan [5]. Ijtimoiy solishtirishni to‘liq salbiy hodisa sifatida baholash noto‘g‘ri bo‘lib, uni qanday qabul qilish va boshqarish yoshlarning psixologik barqarorligiga bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining psixologik mohiyatini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Nazariy bosqichda ijtimoiy solishtirishga oid klassik va zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda Festinger nazariyasi, uning zamonaviy interpretatsiyalari tahlil asosida o‘rganildi. Empirik bosqichda esa quyidagi metodlardan foydalanildi:

Psixodiagnostik so‘rovnoma – yoshlarning ijtimoiy solishtirishga moyilligi, uning yo‘nalishlari va intensivligini aniqlash maqsadida tuzilgan mualliflik anketasi;

O‘z-o‘zini baholash shkalasi – respondentlarning shaxsiy baholash darajasini o‘lchash uchun;

Statistik tahlil metodlari – olingan natijalarni qayta ishlashda korrelyatsion (Pearson r), dispersiya va regressiya tahlillaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida 18–25 yosh oralig‘idagi 120 nafar respondent jalb qilindi. Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida ijtimoiy solishtirish darajasi bilan o‘z-o‘zini baholash o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, yuqoriga va pastga solishtirish strategiyalarining psixologik natijalari aniqlashtirildi. Shu tarzda tanlangan metodologiya ijtimoiy solishtirish jarayonini nafaqat nazariy, balki real psixologik hodisa sifatida kompleks o‘rganish imkonini berdi hamda olingan natijalarning ishonchliligini ta’minladi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma'lumotlar yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining murakkab va ko‘p qatlamli psixologik mexanizm ekanligini tasdiqladi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, respondentlarning 71,6 foizi o‘z hayotiy ko‘rsatkichlarini (ta'limdagi muvaffaqiyat, tashqi ko‘rinish, ijtimoiy faollik) muntazam ravishda boshqalar bilan qiyoslab borishini bildirgan. Bu holat ijtimoiy solishtirishning yoshlar ongida epizodik emas, balki tizimli xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi. Solishtirish yo‘nalishlari bo‘yicha olingan natijalar sezilarli tafovutlarni ko‘rsatdi. Ishtirokchilarning 57,8 foizi asosan o‘zidan yuqori darajadagi shaxslar bilan qiyoslashni afzal ko‘rishini bildirgan bo‘lsa, 24,3 foiz respondent pastga yo‘naltirilgan solishtirishga moyilligini ko‘rsatdi. Qolgan 17,9 foiz holatlarda esa vaziyatga mos ravishda har ikki strategiya almashib turishi kuzatildi. Ushbu ko‘rsatkichlar ijtimoiy solishtirish nazariyasida ta'kidlangan tendensiyalar bilan muvofiqlashadi [1].

O‘z-o‘zini baholash darajasi bilan ijtimoiy solishtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil orqali aniqlanganda, ularning o‘rtasida o‘rta kuchli manfiy bog‘liqlik mavjudligi qayd etildi ($r = -0,58$; $p < 0,01$). Bu natija shuni anglatadiki, solishtirish intensivligi ortgani sari shaxsning o‘zini baholash darajasi pasayish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, yuqoriga yo‘naltirilgan solishtirish ko‘p hollarda o‘z imkoniyatlarini yetarli baholamaslik bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi [6].

Shu bilan birga, barcha holatlarda ijtimoiy solishtirish salbiy natija bermasligi ham kuzatildi. Respondentlarning 38,5 foizi o‘zidan muvaffaqiyatli shaxslar bilan qiyoslash ularda o‘z ustida ishlash istagini kuchaytirishini qayd etgan. Bu esa ijtimoiy solishtirishning motivatsion funksiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur ijobiy ta'sir ko‘proq ichki barqaror o‘z-o‘zini baholashga ega bo‘lgan respondentlarda kuzatildi.

Jinsiy farqlar tahlili natijalariga ko‘ra, qizlarda ijtimoiy solishtirish darajasi o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqoriroq ekani aniqlandi ($p < 0,05$). Xususan, tashqi ko‘rinish va ijtimoiy qabul qilinish bilan bog‘liq solishtirish shakllari ayol respondentlarda 1,3 barobar ko‘p uchradi. Bu holat ijtimoiy stereotiplar va madaniy omillar ta'siri bilan izohlanadi [7].

Raqamli muhit omili alohida tahlil qilinganda, ijtimoiy tarmoqlardan kuniga 3 soatdan ortiq foydalanadigan respondentlarda solishtirish ko‘rsatkichlari ancha yuqori ekani kuzatildi ($M = 4,2$), kam foydalanadiganlarda esa bu ko‘rsatkich pastroq ($M = 2,7$). Ushbu farq statistik jihatdan ishonchli deb topildi ($t = 3,41$; $p < 0,01$). Bu natijalar virtual makonning ijtimoiy solishtirish jarayonini kuchaytiruvchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi [3]. Dispersiya tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy solishtirishning psixologik natijalari individual omillarga bevosita bog‘liq. Xususan, o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan respondentlarda solishtirish ko‘proq tahliliy va konstruktiv xarakter kasb etgan bo‘lsa, past darajadagi shaxslarda u emotsional beqarorlik va xavotir bilan kechgan.

Umuman olganda, olingan natijalar ijtimoiy solishtirishni bir yoqlama baholab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. U bir vaqtning o‘zida ham rivojlantiruvchi, ham cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy solishtirishning psixologik ta'siri uning yo‘nalishi, intensivligi va shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayoni keng tarqalgan va shaxsning o‘z-o‘zini baholashi hamda ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadigan psixologik mexanizm ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati o‘z hayotiy yutuqlarini muntazam ravishda boshqalar bilan qiyoslaydi va bunda asosan yuqoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy solishtirish ustunlik qiladi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy solishtirish intensivligi bilan o‘z-o‘zini baholash darajasi o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, ijtimoiy solishtirishning ta'siri har doim ham salbiy bo‘lmasligi, ayrim holatlarda u shaxsiy rivojlanish, maqsad sari intilish va o‘z ustida ishlash motivatsiyasini kuchaytirishi kuzatildi.

Natijalar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi ortishi bilan ijtimoiy solishtirish ko‘rsatkichlari ham oshib borishini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur jarayonning psixologik oqibatlari shaxsning individual xususiyatlari, xususan, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash darajasiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Umuman olganda, ijtimoiy solishtirish yoshlar hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning ta'siri mazkur jarayonning yo‘nalishi, intensivligi va shaxsning psixologik resurslariga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Amaliy tavsiyalar

-Yoshlar orasida adekvat o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan psixologik trening va rivojlantiruvchi dasturlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

-Ta’lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish va media savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan profilaktik tadbirlarni yo‘lga qo‘yish zarur.

-Psixologlar va pedagoglar tomonidan yoshlarga individual yutuqlarni boshqalar natijalari bilan emas, balki shaxsiy rivojlanish dinamikasi bilan baholash tamoyillari tushuntirilishi lozim.

-Ota-onalar va pedagoglar yoshlarning muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari bilan taqqoslashdan ko‘ra, ularning individual imkoniyatlari va yutuqlarini rag‘batlantirishga e’tibor qaratishlari zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ijtimoiy solishtirishning turli yosh guruhlari, gender xususiyatlari hamda ijtimoiy tarmoqlarning alohida platformalari bilan bog‘liq jihatlarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Festinger L. A Theory of Social Comparison Processes // Human Relations. – 1954. – Vol. 7. – P. 117–140.

2. Wills T. A. Downward Comparison Principles in Social Psychology // Psychological Bulletin. – 1981. – Vol. 90. – P. 245–271.

3. Vogel E. A. Social Comparison, Social Media, and Self-Esteem // Psychology of Popular Media Culture. – 2014. – Vol. 3. – P. 206–222.

4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

5. Martin R., Kennedy P. Self-Evaluation and Social Comparison in Adolescence // Journal of Youth Studies. – 2003. – Vol. 6. – P. 45–59.

6. Buunk B.P., Gibbons F.X. Social Comparison: The End of a Theory and the Emergence of a Field. – 2007.

7. Wood J.V. Theory and research concerning social comparisons of personal attributes. – 1989.

8. Abdullayeva D. ,,Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasidagi ijtimoiy solishtirish jarayonlariga ta’siri’’//,,Raqamli globallashuv va transformatsion yondashuvlar’’ respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to’plami. – 2026.

Suleymanova Nargiza Mardonovna
Acting professor of Samarkand state institute of foreign languages
The department of theoretical aspect of the English language,
Amanov Abdugani Telmanovich
Senior Lecturer of The department of Translation and Interpretation Studies,
Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage

STYLISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF THE POLITENESS CATEGORY IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Abstract. *This article explores the stylistic and pragmatic features of the category of politeness in English and Uzbek literary works. The study examines how politeness strategies are linguistically realized and function within literary texts, emphasizing their role in character construction, interpersonal relations, and cultural representation. The findings demonstrate that politeness is not only a communicative strategy but also a stylistic device that reflects cultural norms, social hierarchy, and national identity.*

Key words: *politeness, pragmatics, stylistics, literary discourse, speech acts, English language, Uzbek language, cultural norms, indirectness, communication.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАТЕГОРИИ ВЕЖЛИВОСТИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются стилистические и прагматические особенности категории вежливости в английских и узбекских художественных текстах. Анализируются способы языковой реализации вежливости и её функции в литературном дискурсе, включая формирование образов персонажей, отражение межличностных отношений и культурных ценностей. Результаты показывают, что вежливость выступает не только как коммуникативная стратегия, но и как важное стилистическое средство, отражающее социальную иерархию и национальную специфику.*

Ключевые слова: *вежливость, прагматика, стилистика, художественный текст, речевые акты, английский язык, узбекский язык, культурные нормы.*

STYLISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF THE POLITENESS CATEGORY IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida xushmuomalalik kategoriyasining stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xushmuomalalikning til birliklari orqali ifodalanishi va uning adabiy diskursdagi funksiyalari, jumladan, personajlarni yaratish, ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xushmuomalalik nafaqat kommunikativ strategiya, balki stilistik vosita sifatida ham xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalik, pragmatika, stilistika, badiiy matn, nutq aktlari, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniyat*

Introduction. Politeness is a universal yet culturally specific phenomenon that plays a crucial role in human communication. Within the framework of pragmatics, politeness is viewed as a strategy used to maintain harmonious interpersonal relations and avoid conflict. In literary discourse, politeness acquires additional stylistic significance, becoming a tool for character development and narrative structure.

The study of politeness in English and Uzbek literary works is particularly relevant due to the differences in cultural norms, social hierarchies, and communicative traditions. While English tends to favor indirectness and individual autonomy, Uzbek culture emphasizes respect, hierarchy, and

collectivism. These differences are reflected in linguistic choices and stylistic devices. Indirectness is a key feature of English politeness. So, the aim of this article is to analyze the stylistic and pragmatic features of politeness in English and Uzbek literary texts and to identify their similarities and differences.

The concept of politeness has been extensively studied in pragmatics. One of the most influential frameworks is the theory proposed by Brown and Levinson, which introduces the notion of "face" as the public self-image that individuals strive to maintain. They distinguish between positive politeness, which aims at expressing solidarity, and negative politeness, which focuses on respecting personal autonomy. Later developments in politeness theory emphasize the importance of context and cultural variability.

From a pragmatic perspective, politeness is closely related to speech acts such as requests, apologies, and compliments. According to Leech, politeness functions as a principle regulating interpersonal communication and minimizing conflict. They distinguish between:

Positive politeness (showing friendliness, solidarity)

Negative politeness (respecting personal space and autonomy)

In stylistics, politeness is viewed as a means of achieving expressive and aesthetic effects. It contributes to:

characterization

tone

narrative voice

Speech act theory (Austin, Searle) also plays a key role, as politeness is often realized through:

requests

apologies

compliments

refusals

From a pragmatic perspective, politeness is realized through various communicative strategies that help speakers achieve their goals while maintaining harmonious interpersonal relations. In literary discourse, authors use politeness markers not only to reflect everyday communication but also to reveal characters' intentions, emotions, and social relationships. In English literary texts, politeness is frequently associated with indirect speech acts. Requests, suggestions, and refusals are often expressed indirectly to minimize potential threats to the interlocutor's autonomy. Modal verbs such as «could», «would», and «might», as well as hedging expressions like «perhaps», «I think», and «if you don't mind», contribute to the mitigation of speech acts.

Example features:

Use of modal verbs: could, would, might

"I would wait forever! I wouldn't want you unless you were quite sure. Please, Miss O'Hara, tell me that I may hope!" ["Gone with the wind" by Margaret Mitchell.p. 123].

Above given example demonstrates politeness through respect, emotional sensitivity, and indirectness. The speaker in his speech tries to express love and desire without forcing or pressuring the listener. Several politeness strategies can be observed:

Respect for the listener's feelings and freedom of choice

The phrase "I wouldn't want you unless you were quite sure" shows consideration for Miss O'Hara's feelings. The speaker does not impose his wishes on her and allows her the freedom to decide independently.

Use of indirect and softened language

Instead of demanding an answer, the speaker says: "tell me that I may hope." This softens the request and makes it more polite and emotionally careful.

Expression of sincerity and devotion"I would wait forever!" emphasizes patience and commitment, which creates a respectful and gentle tone.

Formal address The use of "Miss O'Hara" reflects social etiquette and respectful distance, which was especially important in the cultural context of the novel.

From the perspective of politeness theory Brown and Levinson, the speaker protects the listener's negative face - her right to freedom and non-imposition - while also appealing to her positive face through admiration and emotional warmth.

English literary characters often employ negative politeness strategies, which emphasize respect for personal space and individual freedom. Such strategies help maintain social distance while avoiding conflict. Authors use these linguistic forms to portray educated, refined, or socially conscious characters. In Uzbek literature, politeness is closely connected with cultural norms of respect, solidarity, and collective values. Pragmatic markers of politeness include honorific forms, respectful pronouns, kinship terms, blessings, and expressions of gratitude. Unlike English, Uzbek communication frequently relies on explicit demonstrations of respect toward elders and people of higher social status.

Positive politeness strategies are particularly common in Uzbek literary discourse. Speakers seek to establish closeness, show concern for others, and strengthen social bonds. The use of terms such as «aka», «opa», «ota», and «onaxon» serves not only as a form of address but also as a means of expressing social solidarity and cultural identity.

Although both languages aim to maintain social harmony, significant differences can be observed: Indirectness vs. Explicit Respect

English politeness often relies on indirectness and mitigation.

Uzbek politeness is more frequently expressed through explicit linguistic markers of respect.

Individualism vs. Collectivism

English-speaking cultures generally emphasize individual autonomy and personal choice.

Uzbek culture places greater importance on community values, social obligations, and respect for hierarchy.

Forms of Address

English mainly uses titles such as Mr., Mrs., Miss, and professional designations.

Uzbek employs a wider range of kinship terms and honorific expressions that reflect age and social status.

Pronoun System

Modern English lacks a grammatical distinction between formal and informal second-person pronouns.

Uzbek distinguishes between sen (informal) and siz (formal and respectful), making politeness more visible grammatically.

The analysis of English and Uzbek literary works demonstrates that politeness is a universal communicative phenomenon shaped by cultural and linguistic traditions. English literary discourse tends to express politeness through indirectness, mitigation, and respect for personal autonomy, whereas Uzbek literary discourse emphasizes explicit respect, social hierarchy, and interpersonal solidarity. Despite these differences, both traditions use politeness as an important stylistic and pragmatic tool for character development, social interaction, and the preservation of harmonious relationships. Therefore, the study of politeness in literary texts contributes to a deeper understanding of cultural values, communicative behavior, and intercultural communication.

Example features:

- Rahmat sizga, aka, - dedi, lekin uning bu so'zi ham o'rinsiz ketkan edi [O'tkan kunlar, Abdulla Qodiriy,187 b.].

Above given example taken from Uzbek literary work reflects politeness through gratitude, respectful address, and social etiquette. The phrase "Rahmat sizga, aka" ("Thank you, brother/sir") contains several important elements of politeness in Uzbek culture.

Explanation of politeness

Expression of gratitude The word "Rahmat" ("thank you") is a direct marker of politeness. It shows appreciation and respect toward the other person.

Respectful pronoun usage The use of "sizga" instead of the informal "senga" demonstrates respect and social distance. In Uzbek culture, the pronoun siz is an important linguistic marker of courtesy and honor.Use of kinship term as respect The word "aka" literally means "older brother," but in Uzbek communication it is also used as a polite form of address toward a man, expressing

warmth, respect, and recognition of social status or age.Contextual politeness and awkwardness The author adds: “lekin uning bu so‘zi ham o‘rinsiz ketkan edi” (“but even this remark sounded inappropriate”). This shows that politeness is not only about respectful words but also about the appropriateness of timing and context. Although the speaker used polite language, it did not fit the emotional or situational context.

Differences:

Feature	English	Uzbek
Directness	Indirect	More explicit
Focus	Individual autonomy	Social hierarchy
Markers	Modal verbs, hedging	Honorifics, pronouns
Style	Subtle, implicit	Expressive, explicit

Pragmatic Functions of Politeness

Politeness in literary discourse performs several pragmatic functions:

Maintaining social balance

Avoiding conflict

Expressing emotions indirectly

Enhancing realism in dialogue

It also helps readers interpret characters’ intentions and relationships.

Stylistic Implications

From a stylistic perspective, politeness contributes to:

tone and mood,

narrative authenticity,

characterization depth.

Authors deliberately manipulate politeness strategies to create contrast, irony, or tension. While both English and Uzbek languages employ politeness strategies to maintain social harmony, their linguistic realization differs significantly. English tends to favor indirectness, whereas Uzbek relies more on explicit forms of respect.

Implications for translation. Politeness poses challenges in translation due to cultural differences. The translation of politeness presents significant challenges because politeness strategies are deeply rooted in the cultural and linguistic norms of each language. When translating English and Uzbek literary works, translators often encounter difficulties in preserving the original pragmatic meaning and social nuances of polite expressions. One of the main challenges is the loss of honorifics, particularly when translating from Uzbek into English. Uzbek contains numerous respectful forms of address, kinship terms, and pronoun distinctions that do not always have direct equivalents in English. As a result, important markers of respect and social hierarchy may be weakened or lost in translation.Another challenge is the potential misinterpretation of indirectness. English speakers frequently employ indirect requests, suggestions, and refusals as a means of expressing politeness. If these forms are translated too literally, the intended level of courtesy may not be fully conveyed to Uzbek readers. Similarly, Uzbek expressions of politeness may appear overly formal or repetitive when translated into English without considering the target culture's communicative conventions.Cultural mismatch also plays a crucial role in the translation process. Expressions that are considered polite and appropriate in one culture may not produce the same effect in another. Therefore, translators must go beyond the literal meaning of words and pay close attention to the communicative situation, social relationships between characters, and cultural expectations of the target audience.To achieve an accurate translation, it is essential to consider the context of the interaction, the cultural norms governing polite behavior, and the principle of pragmatic equivalence. The translator's task is not only to transfer linguistic meaning but also to reproduce the social and interpersonal functions of politeness so that readers of the translated text can perceive the same attitudes, respect, and relationships as those intended in the original work.

Key issues:

Loss of honorifics

Misinterpretation of indirectness

Cultural mismatch

Translators must consider:
context
cultural norms
pragmatic equivalence

Conclusion. The analysis of the category of politeness in English and Uzbek literary works reveals both universal and culture-specific characteristics of human communication. In both linguistic traditions, politeness serves as an important mechanism for maintaining social harmony, expressing respect, and regulating interpersonal relationships. Literary texts demonstrate how speakers use various linguistic and pragmatic strategies to achieve communicative goals while preserving the dignity and social expectations of their interlocutors.

However, the realization of politeness differs significantly between the two cultures. English literary discourse tends to rely on indirectness, mitigation, modal verbs, and other strategies that minimize imposition and respect individual autonomy. Such forms reflect the values of personal freedom and independence that are characteristic of many English-speaking societies. In contrast, Uzbek literary discourse places greater emphasis on explicit expressions of respect, social hierarchy, and communal values. The frequent use of honorifics, respectful pronouns, kinship terms, and formulaic expressions illustrates the importance of age, status, and social relationships in Uzbek culture. The pragmatic analysis of literary texts demonstrates that politeness extends beyond the use of specific words or grammatical forms. It is closely connected with context, communicative intention, cultural expectations, and the relationship between speakers. A polite expression may be interpreted differently depending on the situation, highlighting the importance of pragmatic competence in both language use and literary interpretation. The findings of this study also have practical implications for translation and intercultural communication. Since politeness systems vary across languages and cultures, translators must carefully preserve not only the semantic meaning of utterances but also their pragmatic and social functions. Failure to do so may result in the loss of important cultural meanings and interpersonal nuances. Therefore, an understanding of politeness strategies is essential for achieving pragmatic equivalence and ensuring effective cross-cultural communication.

In conclusion, politeness represents a complex linguistic, pragmatic, and cultural phenomenon that plays a vital role in English and Uzbek literary works. Its study contributes to a deeper understanding of language, culture, social interaction, and literary expression, making it an important area of research within linguistics, pragmatics, stylistics, translation studies, and intercultural communication.

References.

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford : Oxford University Press, 1962. – 168 p.
2. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge : Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
3. Holmes J. Women, Men and Politeness. – London : Longman, 1995. – 254 p.
4. Leech G. The Pragmatics of Politeness. – Oxford : Oxford University Press, 2014. – 343 p.
5. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge : Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
6. Thomas J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. – London : Longman, 1995. – 224 p.
7. Watts R. J. Politeness. – Cambridge : Cambridge University Press, 2003. – 304 p.
8. Mahmudov N. O‘zbek tilida nutq madaniyati va muloqot etikasi. – Toshkent : Fan, 2012. – 256 b.
9. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi nazariyasi. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. – 320 b.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent : Fan, 2008. – 286 b.
11. Yule G. Pragmatics. – Oxford : Oxford University Press, 1996. – 138 p.
12. Mitchell M. Gone with the Wind. 75th Anniversary ed. Vol. 1. – New York : Macmillan, 1939. – 1037 p.

Xoldarova Irodaxon Valijonovna

Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi professori
E-mail:irodaxoldarova70@gmail.com

KOOPERATIV TA'LIM USULI ORQALI O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. *Bugungi ta'lim tizimida o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi eng muhim pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. An'anaviy o‘qitish sharoitida ko‘pchilik o‘quvchilar passiv tinglovchi sifatida qatnashadilar va bilimni mustaqil qurish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. Bu holat nafaqat akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga, balki o‘quvchilarning bilish qiziqishi, kreativ tafakkuri va ijtimoiy ko‘nikmalarining rivojlanmasligiga ham olib keladi. Ushbu maqolada kooperativ ta'lim usulining nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi; boshlang‘ich sinflarda qo‘llanadigan asosiy kooperativ texnikalar hamda ularning o‘quvchi faolligiga ta'siri muhokama etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ta'lim tizimi, kooperativ ta'lim, faollik, kichik guruh, zamonaviy metodlar, o‘quvchilar, kreativ fikrlash, pedagogik yondashuv, motivatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar.*

ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ КООПЕРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В современной системе образования активность учащихся в процессе урока остаётся одной из важнейших педагогических проблем. В условиях традиционного обучения большинство учащихся выступают в роли пассивных слушателей и лишены возможности самостоятельно конструировать знания. Подобная ситуация ведёт не только к снижению академических показателей, но и к недостаточному развитию познавательного интереса, творческого мышления и социальных навыков. В данной статье рассматриваются теоретические основы, методология и практическая эффективность кооперативного обучения, а также анализируются основные техники, применяемые в начальных классах.*

Ключевые слова: *система образования, кооперативное обучение, активность, малая группа, современные методы, учащиеся, креативное мышление, педагогический подход, мотивация, социальные навыки.*

INCREASING STUDENT ACTIVITY THROUGH COOPERATIVE LEARNING

Abstract. *In today's education system, student engagement during lessons remains one of the most critical pedagogical challenges. In traditional learning environments, many students participate as passive listeners and are deprived of the opportunity to construct knowledge independently. This situation leads not only to decreased academic performance but also to underdevelopment of cognitive interest, creative thinking, and social skills. This article examines the theoretical foundations, methodology, and practical effectiveness of cooperative learning, as well as key techniques applied in primary school settings and their impact on student activity.*

Key words: *education system, cooperative learning, student activity, small group, modern methods, creative thinking, pedagogical approach, motivation, social skills.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o‘quvchini passiv bilim qabul qiluvchidan faol bilim quruvchiga aylantirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda. O‘tgan o‘n yilliklarda kognitiv psixologiya va ta'lim ilmi sohasida amalga oshirilgan yirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, insonning bilim olishi mexanik yodlash orqali emas, balki faol tafakkur, muhokama va ijtimoiy ta'sir natijasida chuqurlashadi. Shu sababli jahon ta'lim amaliyotida kooperativ ta'lim, muammoga asoslangan ta'lim, loyiha metodikasi kabi yondashuvlar keng tarqalmoqda.

Kooperativ ta'lim – o‘quvchilarni kichik guruhlarda birgalikda ishlashga yo‘naltiruvchi pedagogik yondashuv bo‘lib, har bir guruh a'zosi umumiy maqsadga erishish uchun shaxsiy mas'uliyat oladi. Bu usulda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki uni tushuntirish, muhokama qilish va qo‘llash

orqali yanada mustahkamlaydi. Kooperativ ta'limning asosiy kuchi shundaki, u o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yib, uning ijtimoiy, kognitiv va hissiy rivojlanishini bir vaqtda ta'minlaydi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida ham o‘quvchi faolligini oshirish masalasi alohida ustuvorlik kasb etmoqda. 2022-yilda qabul qilingan 'Yangi O‘zbekiston' strategiyasi hamda 'Ta'lim to‘g‘risida'gi qonunning yangi tahriri o‘quvchi markazli ta'limni davlat siyosatining bosh maqsadi sifatida belgilaydi [13]. Mazkur hujjatning 6-moddasida ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy va tanqidiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash majburiyati aniq ko‘rsatib qo‘yilgan.

J.Yo‘ldoshev va S.Usmonov [8] ta'kidlashicha, pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi va dars samaradorligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Kooperativ ta'limni mahalliy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat metodologik tayyorgarlikni, balki o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishni ham talab etadi. Shu bois mazkur mavzu bugungi pedagogika fanida ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – kooperativ ta'lim usulining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faolligiga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida ko‘rsatish va o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kooperativ ta'limning nazariy asoslari. Kooperativ ta'limning ilmiy asoslari Lev Semyonovich Vigotskiyning 'yaqin rivojlanish zonasi' (YaRZ) nazariyasiga borib taqaladi. Vigotskiy o‘z tadqiqotlarida bolaning o‘z-o‘zicha erishishi mumkin bo‘lgan darajasi bilan kattalar yoki tengdoshlari yordamida erisha oladigan darajasi o‘rtasidagi bo‘shliqni ta'limning eng samarali maydoni sifatida ta'riflaydi [1]. Ushbu nazariya tengdoshlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta'limiy jarayonning markaziga qo‘yadi: tengdosh yordami o‘quvchini o‘zining hozirgi bilim darajasidan bir pog‘ona yuqoriga ko‘taradi va kognitiv rivojlanishni tezlashtiradi.

Ijtimoiy konstruktivizm oqimining davomchilari ta'kidlashicha, bilim yakka tartibda emas, balki ijtimoiy kontekstda – muloqot, munozara va hamkorlik orqali quriladi. Shuning uchun kooperativ muhit o‘quvchi uchun eng tabiiy bilim qurilish sharoitini yaratadi: u o‘z fikrlarini ifodalab, boshqalarning qarashlari bilan solishtirib, tushunmovchiliklarni hal etib, yangi bilimlarni asta-sekin o‘zlashtiradi.

Johnson va Johnson modeli. David W. Johnson va Roger T. Johnson kooperativ ta'limning besh muhim jihatini belgilab berdi: 1) ijobiy o‘zaro bog‘liqlik (positive interdependence); 2) shaxsiy mas'uliyat (individual accountability); 3) yuzma-yuz hamkorlik muloqoti (face-to-face promotive interaction); 4) ijtimoiy ko‘nikmalar (social skills); 5) guruh jarayonini baholash (group processing) [2]. Mazkur jihatlar bugungi kunda ham kooperativ ta'limni oddiy guruh ishidan ajratib turadigan asosiy mezonlar sifatida e'tirof etiladi.

Ijobiy o‘zaro bog‘liqlik – kooperativ ta'limning o‘zagini tashkil etadi. Guruh a'zolari bir-birining muvaffaqiyatiga haqiqiy manfaatdor bo‘lganida, ya'ni 'Biz birga g‘alaba qozonamiz yoki birga yutqizamiz' tamoyili amalda ishlayotganida, har bir o‘quvchi guruh ishiga maksimal hissa qo‘shishga intiladi. Shaxsiy mas'uliyat printsipi esa guruhda 'bepul yo‘lovchi' bo‘lish imkoniyatini bartaraf etadi: har kim o‘z ulushini to‘liq bajarishi kerak.

Slavinning STAD modeli

Robert Slavin kooperativ ta'limning 'Guruh muvaffaqiyati – individual hissa' (STAD – Student Teams Achievement Divisions) modelini ishlab chiqdi va uning samaradorligini keng ko‘lamli empirik tadqiqotlar bilan tasdiqladi [3]. STAD modelida sinf to‘rt-besh kishilik guruhlarga bo‘linadi; guruhlar turli akademik darajadagi o‘quvchilardan tashkil topadi. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirgach, guruhlar birgalikda mashq qiladi va bir-birlarini o‘rgatadi. Baho esa individual test natijalari asosida, lekin guruh reytingini hisoblab, qo‘yiladi.

Slavinning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, STAD modeli an'anaviy o‘qitishga nisbatan akademik natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi, ayniqsa o‘rtacha va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun. Motivatsional tuzilma va guruh a'zolari o‘rtasidagi mas'uliyat taqsimoti natijalarni keskin yaxshilaydi.

O‘quvchi faolligining ko‘p komponentli modeli

J.Fredricks, P.Blumenfeld va A.Paris [4] o‘quvchi faolligini uch o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat deb ta'riflaydi: xulq-atvor faolligi, kognitiv faollik va hissiy faollik. Xulq-atvor faolligi – o‘quvchining dars jarayonida jismoniy ishtirok etishi: savol berish, guruh muhokamalarida qatnashish, topshiriqlarni bajarish. Kognitiv faollik – chuqur tafakkur, o‘z-o‘zini tartibga solish, strategik yondashuv va metacognitive ko‘nikmalar. Hissiy faollik esa o‘quvchining maktab, o‘qituvchilar va tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatini anglatadi.

Kooperativ ta'lim aynan shu uch komponentning barchasini bir vaqtda faollashtiradi: o‘quvchi guruhda jismoniy ishtirok etadi (xulq-atvor), fikrlar to‘qnashuvida chuqur o‘ylaydi (kognitiv), hamkorlar bilan ijobiy muloqotda bo‘ladi (hissiy). Bu uch komponentning sinergiyasi ta'limning tezkor va uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi.

Motivatsiya nazariyasi va kooperativ ta'lim

R.Ryan va E.Deci [7] o‘zini o‘zi aniqlash nazariyasi (Self-Determination Theory) doirasida uch asosiy psixologik ehtiyojni aniqladi: kompetentlik (competence), mustaqillik (autonomy) va bog‘liqlik (relatedness). Kooperativ ta'lim ushbu uch ehtiyojning barchasini bir vaqtda qondiradi: o‘quvchi guruhda muvaffaqiyat qozonib kompetentlik his qiladi; o‘z fikrlarini bayon etib mustaqillik namoyon etadi; guruh a'zolari bilan yaqin aloqada bo‘lib bog‘liqlik ehtiyojini qondiradi.

Hattie [5] o‘z meta-analiz tadqiqotlarida kooperativ o‘rganishni o‘quvchi yutuqlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatuvchi eng samarali usullardan biri sifatida baholaydi (ta'sir o‘lchami: d = 0.59). Ayniqsa turli etnik va ijtimoiy kelib chiqishga ega o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar kooperativ ta'lim orqali sezilarli mustahkamlanishini ta'kidlaydi.

O‘zbek pedagogika ilmidagi tadqiqotlar

Mahalliy pedagogika sohasida J.Hasanboyev, O.Xasanov va M.G‘ulomov [9] pedagogika fanining asosiy tamoyillarini tahlil qilib, o‘quvchilarning birgalikda ishlash jarayonida nafaqat akademik bilim, balki axloqiy va ijtimoiy sifatlarni ham o‘zlashtirishini, bu esa shaxs rivojlanishining yaxlit ko‘rinishini ta'minlashini ko‘rsatadi.

R.Ishmuhammedov, A.Yusupov va R.Baxromov [10] innovatsion ta'lim texnologiyalari qatorida kooperativ o‘qitish usullarini alohida ajratib ko‘rsatib, ularning an'anaviy usullarga nisbatan 1,5–2 baravar yuqori samaradorlik ko‘rsatishini empirik ma'lumotlar bilan isbotlagan. J.Tolipova [11] o‘z tadqiqotida o‘quvchi faolligini oshirishda guruhli ishlash shaklining eng qulay psixologik muhit yaratishini ko‘rsatib bergan. N.Muhammedov [12] boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha olib borgan tadqiqotida kooperativ usullar joriy etilgan sinflarda o‘quvchilarning darsga qiziqish darajasi 40 foizga, mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi esa 35 foizga oshganligini aniqlagan.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda kooperativ ta'lim usulining o‘quvchilar faolligini oshirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va empirik metodlarning majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini L.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi [1], Johnson va Johnsonning ijobiy o‘zaro bog‘liqlik konsepsiyasi [2] hamda o‘quvchi faolligining ko‘p komponentli modeli [4] tashkil etdi. Bundan tashqari, R.Ishmuhammedov, A.Yusupov va Baxromov [10] tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini baholash metodikasi, N.Muhammedov [12] tavsiya etgan boshlang‘ich sinflarda interfaol usullarni qo‘llash mezonlari ham tadqiqot asboblarini yaratishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; kuzatish metodi (dars jarayonida o‘quvchi faolligini tizimli qayd etish); suhbat va so‘rovnoma (o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan); pedagogik tajriba-sinov ishlari; taqqoslash va statistik tahlil metodlari.

Tajriba ishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ikki guruhda – nazorat va tajriba – ishtirok etdi. Tajriba guruhida kooperativ ta'lim metodlari tizimli qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy dars shakli davom etdi. Ikki semestr davomida o‘quvchi faolligining uchta komponenti – xulq-atvor, kognitiv va hissiy faollik – kuzatish jadvallari yordamida muntazam kuzatildi.

Qo‘llanilgan kooperativ ta'lim usullari

Think-Pair-Share (O‘yla – Juftlash – Ulash): o‘qituvchi savol beradi; o‘quvchi avval mustaqil fikrlaydi (1–2 daqiqa); keyin o‘tirgan sherigi bilan fikrlashadi; nihoyat sinfga umumiy xulosani bildiradi. Bu texnika hamma o‘quvchini javobga tayyorlikka majbur qiladi, uyatchan o‘quvchilarga esa oldin juftlik bilan mashq qilish imkonini beradi.

Jigsaw (Arrak usuli): sinf 4–5 kishilik 'uy guruhlar'iga bo‘linadi; har bir guruh a'zosi mavzuning alohida qismini o‘rganish uchun 'ekspert guruh'ga boradi; o‘rganib qaytib, o‘z guruhiga o‘rgatadi. Natijada har bir o‘quvchi bir vaqtda ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi rolini bajaradi. Bu usul o‘zlashtirish mas'uliyatini keskin oshiradi.

Aylana navbat (Round Robin): guruh a'zolari navbat bilan fikr bildiradi – hech kim o‘tkazib yuborilmaydi, hammaning ovozi eshitiladi. Passiv yoki uyatchan o‘quvchilarni faollikka jalb etishning eng samarali yo‘li.

Raqamlangan boshlar (Numbered Heads Together): guruh a'zolari 1-dan 4-gacha raqam oladi; savol beriladi; guruh birgalikda javob tayyorlaydi; o‘qituvchi tasodifiy raqam chaqiradi – o‘sha o‘quvchi guruh nomidan javob beradi. Bu mexanizm har bir a'zoni haqiqatan ham tayyorlikda bo‘lishga majbur qiladi.

Guruh tarkibini tuzishda turli o‘zlashtirish darajasidagi o‘quvchilarni aralashtirib guruhlash prinsipi qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, bu yondashuv past va o‘rtacha o‘zlashtiruvchilar uchun ayniqsa foydali.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalari kooperativ ta'lim usulining o‘quvchilar faolligini bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda – akademik, ijtimoiy va motivatsion – bir vaqtda oshirish imkoniyatini isbotladi.

Xulq-atvor faolligidagi o‘zgarishlar

Tajriba guruhi o‘quvchilarida kuzatuv davomida darsga faol ishtirok etish va savol berish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa passiv va uyatchan o‘quvchilar – oldingi sinflarda deyarli ovoz chiqarmaydigan bolalar – Aylana navbat va Raqamlangan boshlar usullarida faol ishtirok etishga majbur bo‘lgach, asta-sekin mustaqil fikrlarini bildira boshladi. Semestr oxiriga kelib ushbu o‘quvchilarning katta qismi o‘z tashabbusi bilan savol va javoblar bilan chiqdi.

Kognitiv faollikdagi o‘zgarishlar

O‘zaro tushuntirish jarayoni – boshqa o‘quvchiga tushuntirib berish – o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘maklashdi. N.Webb [6] aniqlagan 'tushuntirish effekti'ni amalda tasdiqlagan holda, kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki: boshqasiga tushuntirgan o‘quvchi o‘z bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlab, ularni to‘ldirish uchun qo‘shimcha sa'y-harakat qiladi.

Hissiy faollik va ijtimoiy munosabatlar

Kooperativ ta'lim muhitida o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar va hamkorlik madaniyati mustahkamlandi. Guruh a'zolari bir-birining muvaffaqiyatiga haqiqiy qiziqish va mas'uliyat his qila boshladi. Bu o‘zgarish nafaqat dars jarayonida, balki tanaffuslarda va sinfdan tashqari muomaladayam sezildi. Hattie [5] ta'kidlaganidek, kooperativ ta'lim turli ijtimoiy va akademik kelib chiqishga ega o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashning eng samarali yo‘li ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

Natijalarning nazariy asoslar bilan muvofiqligi

Olingan natijalar D.Johnson va R.Johnson [2] tomonidan tavsiflangan kooperativ ta'lim tamoyillarini to‘liq amaliyotda tasdiqlaydi. Guruh ichidagi ijobiy o‘zaro bog‘liqlik va shaxsiy mas'uliyat mexanizmlari o‘quvchilarni faollikka undashning eng samarali vositasi ekanligi isbotlandi. R.Ryan va E.Deci [7] ning motivatsiya nazariyasi bilan mos ravishda, kooperativ ta'lim o‘quvchilarning kompetentlik, mustaqillik va bog‘liqlik ehtiyojlarini bir vaqtda qondirib, ichki motivatsiyani mustahkamladi.

Duch kelingan qiyinchiliklar

Tadqiqot davomida bir qator metodologik va amaliy qiyinchiliklar ham aniqlandi. Birinchidan, guruh tarkibini optimallashtirish masalasi: yuqori o‘zlashtiruvchilar ba'zan o‘z potentsialiga yeta olmaganday his qildi. Ikkinchidan, dastlabki bosqichda ba'zi o‘quvchilar guruh ishini hali puxta o‘zlashtirmaganida vaqt sarf bo‘lishi kuzatildi. Uchinchidan, o‘qituvchi guruh dinamikasini doimiy monitoring qilishi va har bir a'zoning hissasini baholashi katta kasbiy tayyorgarlikni talab etdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari kooperativ ta'lim usulining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faolligini xulq-atvor, kognitiv va hissiy jihatdan bir vaqtda oshirish imkonini berishini empirik asosda tasdiqladi. Bu usul nafaqat akademik ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki o‘quvchida hayot davomida zarur bo‘ladigan muloqot, hamkorlik va mas'uliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kooperativ ta'lim o‘zbek ta'lim tizimi uchun keng istiqbollar eshigini ochadi: u o‘quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo‘yish imkonini beradi, milliy qadriyatlarimizga xos hamkorlik va o‘zaro yordam ruhini zamonaviy dars muhitida qayta tiklaydi hamda kelajak avlodni jamiyat talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh shaxslar sifatida shakllantirishga mustahkam zamin hozirlaydi. O‘zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to‘g‘risida'gi Qonuni [13] ham aynan shu yo‘nalishda – o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishni davlat siyosatining asosiy maqsadi sifatida belgilagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kooperativ ta'lim usullariga maqsadli tayyorlash; Think-Pair-Share, Jigsaw va Raqamlangan boshlar usullarini kundalik dars jarayoniga tizimli joriy etish; kooperativ ta'limning samaradorligini muntazam monitoring qilish; ota-onalarni o‘quvchilarning guruh ishlashini uyda qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish; o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish sessiyalarini muntazam tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский Л.С. Разум в обществе: Развитие высших психологических процессов / Пер. с англ. – Кембридж, Массачусетс: Изд-во Гарвардского университета, 1978. 159 с.

2. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. 4th ed.Boston, MA: Allyn & Bacon, 1994. 321 p.

3. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. 2nd ed. Boston, MA: Allyn & Bacon, 1995. 268 p.

4. Fredricks J.A., Blumenfeld P.C., Paris A.H. School Engagement: Potential of the Concept, State of the Evidence // Review of Educational Research. 2004. Vol. 74, No. 1. P. 59–109. DOI: 10.3102/00346543074001059.

5. Johnson D.W., Johnson R.T. An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning // Educational Researcher. 2009. Vol. 38, No. 5. P. 365–379. DOI: 10.3102/0013189X09339057.

6. Webb N.M. Task-Related Verbal Interaction and Mathematics Learning in Small Groups // Journal for Research in Mathematics Education. 1991. Vol. 22, No. 5. P. 366–389. DOI: 10.5951/jresematheduc.22.5.0366.

7. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. 2000. Vol. 55, No. 1. P. 68–78. DOI: 10.1037/0003-066X.55.1.68.

8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 208 b.

9. Hasanboyev J., Xasanov O., G‘ulomov M. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 416 b.

10. Ishmuhammedov R., Yusupov A., Baxromov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Istedod, 2008. 180 b.

11. Tolipova J.O. O‘quvchilar faolligini oshirishning pedagogik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017. 152 b.

12. Muhammedov N. Boshlang‘ich ta'limda interfaol metodlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 136 b.

13. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020. 48 b.

Yangiboyeva Dilnoza Abdurasul qizi
Buxoro xalqaro universitetini mustaqil tadqiqotchisi

SPORT FAOLIYATIDA STRESSGA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Sportchilar faoliyatida stress omillari - musobaqa bosimi, natija uchun javobgarlik, tomoshabinlar kutuvi va raqobat muhiti - muhim psixologik yuklamani yuzaga keltiradi. Mazkur jarayonda stressga chidamlilik shaxsning emotsional barqarorligi, kognitiv baholash strategiyalari va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari orqali shakllanadi. Maqolada kognitiv qayta baholash, motivatsion tayyorgarlik, diqqatni boshqarish, o'ziga ishonchni mustahkamlash hamda psixologik relaksatsiya usullarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, sportchilarda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, murabbiy bilan samarali kommunikatsiya va jamoaviy muhitning roliga alohida e'tibor qaratiladi. Stressga chidamlilikni rivojlantirish sportchining nafaqat musobaqa natijalarini yaxshilaydi, balki uning umumiy psixologik salomatligini ham mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari sport psixologiyasi amaliyotida stressni boshqarish dasturlarini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *sport psixologiyasi, stress, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, kognitiv qayta baholash, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ В СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические механизмы развития стрессоустойчивости в спортивной деятельности. Спортсмены регулярно сталкиваются с факторами стресса, такими как соревновательное давление, высокая ответственность за результат, ожидания зрителей и интенсивная конкурентная среда. Стрессоустойчивость формируется на основе эмоциональной регуляции, когнитивной оценки ситуаций и навыков самоконтроля. Особое внимание уделяется механизмам когнитивной переоценки, развитию внутренней мотивации, управлению вниманием и формированию уверенности в себе. Также рассматриваются методы психологической релаксации и саморегуляции, способствующие снижению уровня тревожности у спортсменов. Важную роль играет социально-психологическая поддержка, эффективное взаимодействие с тренером и благоприятный командный климат. Развитие стрессоустойчивости позволяет не только повысить спортивные результаты, но и укрепить общее психологическое благополучие спортсменов. Полученные результаты могут быть использованы при разработке программ психологической подготовки в спорте и стратегий управления стрессом в соревновательной деятельности.*

Ключевые слова: *спортивная психология, стресс, стрессоустойчивость, эмоциональная регуляция, когнитивная переоценка, мотивация, психологическая подготовка.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STRESS RESILIENCE IN SPORTS ACTIVITIES

Annotation. *This article examines the psychological mechanisms underlying the development of stress resilience in sports performance. Athletes are constantly exposed to various stressors such as competitive pressure, high responsibility for outcomes, audience expectations, and intense rivalry. Stress resilience is shaped through emotional regulation, cognitive appraisal processes, and self-control strategies. The study highlights the importance of cognitive reappraisal, intrinsic motivation, attentional control, and the development of self-confidence as key psychological factors. In addition, psychological relaxation techniques and self-regulation strategies are discussed as effective tools for reducing anxiety and enhancing performance stability. Social and psychological support, effective communication with coaches, and a positive team environment are also identified as crucial factors*

in building resilience. Developing stress resilience not only improves athletic performance but also strengthens athletes' overall psychological well-being and mental health. The findings of this study can serve as a theoretical and practical basis for designing psychological training programs and stress management interventions in sports contexts.

Key words: *sport psychology, stress, stress resilience, emotional regulation, cognitive reappraisal, motivation, psychological training.*

Mavzuning dolzarbligi. Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish bugungi kunda ham xalqaro, ham respublika miqyosida juda dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Zamonaviy sport yuqori raqobat, keskin psixologik bosim va natijaga yo‘naltirilgan talablar bilan tavsiflanadi. Shu sababli sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning psixologik barqarorligi ham muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda.

Xalqaro sport psixologiyasi tadqiqotlarida (Weinberg & Gould, Fletcher & Sarkar) stressga chidamlilik sportdagi muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy psixologik resurs sifatida e’tirof etiladi. Olimpiya o‘yinlari va jahon chempionatlarida kuzatilayotgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bir xil jismoniy imkoniyatga ega sportchilar orasida aynan stressni boshqarish qobiliyati kuchli bo‘lganlar yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda sport psixologiyasi sohasida “mental toughness”, “coping strategies” va “psychological resilience” tushunchalariga alohida e’tibor qaratilmoqda, chunki ular sportchining musobaqa paytidagi barqarorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi miqyosida ham sportni rivojlantirishga davlat darajasida katta e’tibor qaratilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida ommaviy sportni rivojlantirish, professional sportchilar tayyorlash va xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh natijalarga erishish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayrim sportchilar musobaqa jarayonida yuqori tashvish, stress va psixologik bosim sababli o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Bu esa sport psixologiyasi, xususan stressga chidamlilikni shakllantirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish zaruratini kuchaytiradi.

Shuningdek, respublikada yosh sportchilarni tayyorlash tizimida psixologik tayyorgarlik komponenti hali yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiradi. Murabbiylar ko‘pincha jismoniy va texnik tayyorgarlikka ko‘proq e’tibor qaratib, psixologik barqarorlikni rivojlantirishni ikkinchi darajali omil sifatida ko‘rishadi. Holbuki, zamonaviy sport psixologiyasi stressga chidamlilikni kompleks yondashuv - kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar uyg‘unligi sifatida talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, sportda stressga chidamlilikni rivojlantirish masalasi nafaqat individual sport natijalarini yaxshilash, balki milliy sport tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois ushbu mavzuni o‘rganish zamonaviy sport psixologiyasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kirish. Zamonaviy sport amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori natijalarga erishish faqatgina jismoniy tayyorgarlik yoki texnik mahoratga bog‘liq emas, balki sportchining psixologik holati, stressga chidamliligi va emotsional barqarorligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jahon sport psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda (Weinberg & Gould, 2019; Fletcher & Sarkar, 2013) sport natijalarining 50–70 foizi psixologik omillarga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Bu esa stressni boshqarish va psixologik chidamlilikni rivojlantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Sport faoliyati doimiy ravishda stress omillari bilan kechadi: musobaqa oldi tashvish, natija uchun javobgarlik, tomoshabinlar bosimi, murabbiy va jamoadoshlar kutuvi, shuningdek, yuqori raqobat muhiti. Xalqaro sport psixologiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, sportchilarning 60–80 foizi musobaqa jarayonida yuqori darajadagi psixologik stressni boshdan kechiradi, bu esa ularning real imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi.

Stressga chidamlilik (psychological resilience yoki mental toughness) sportchining murakkab vaziyatlarda emotsiyalarini boshqarish, diqqatni jamlash va o‘z faoliyatini samarali davom ettirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Yirik xalqaro musobaqalar - Olimpiya o‘yinlari, jahon chempionatlari va qit’a turnirlarida muvaffaqiyatga erishgan sportchilar orasida aynan yuqori darajadagi stressga chidamlilik asosiy farqlovchi omil sifatida ko‘rsatiladi (Fletcher & Sarkar, 2012).

O‘zbekiston Respublikasida ham sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida sport infratuzilmasini rivojlantirish, professional sportchilarni tayyorlash va xalqaro musobaqalarda natijadorlikni oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yosh sportchilarda musobaqa jarayonida stressni boshqarish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, bu ularning barqaror natija ko‘rsatishiga salbiy ta’sir qiladi.

Shuningdek, respublika sport tizimida psixologik tayyorgarlik masalasi hali to‘liq tizimlashtirilmagan. Ko‘plab sport maktablari va klublarda asosiy e’tibor jismoniy va texnik tayyorgarlikka qaratilib, psixologik treninglar ikkinchi darajali o‘rinda qolmoqda. Holbuki, zamonaviy sport psixologiyasi stressga chidamlilikni kognitiv (fikrlash), emotsional (his-tuyg‘u) va ijtimoiy (muloqot) mexanizmlar uyg‘unligi sifatida ko‘rib chiqadi.

Yuqoridagi ilmiy va amaliy asoslar shuni ko‘rsatadiki, sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish nafaqat individual sport natijalarini yaxshilash, balki milliy sport tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu mavzu zamonaviy sport psixologiyasining eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammo sport psixologiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Xorijiy va rus olimlarining ishlari sportchining psixologik barqarorligi, stressga munosabat strategiyalari hamda musobaqa sharoitida emotsional o‘zini boshqarish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda R. S. Lazarus stressni “baholash va moslashuv jarayoni” sifatida talqin qilib, stressga chidamlilikni kognitiv baholash tizimi bilan bevosita bog‘lagan. Uning fikricha, sportchi stressli vaziyatni qanday baholashi uning emotsional reaksiyasi va keyingi xatti-harakatini belgilaydi. Ushbu yondashuv keyinchalik coping-strategiyalar nazariyasining rivojlanishiga asos bo‘lgan. E. L. Deci va R. M. Ryan esa o‘zining o‘zini-o‘zi belgilash (self-determination theory) nazariyasida ichki motivatsiya sportchining stressga chidamliligini oshiruvchi muhim omil ekanini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissi sportchining psixologik barqarorligini mustahkamlaydi.

R. Martens va Y. L. Hanin sport psixologiyasi doirasida musobaqa oldi tashvish va emotsional holatlarning sport natijalariga ta’sirini chuqur o‘rgangan. Haninning “optimal funksional holat zonasi” nazariyasiga ko‘ra, har bir sportchi uchun stressning optimal darajasi mavjud bo‘lib, aynan shu daraja yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Fletcher va Sarkar (2012) esa Olimpiya chempionlari ustida olib borgan tadqiqotlarida stressga chidamlilik “psixologik resurslar tizimi” ekanini isbotlab, unga ijobiy fikrlash, maqsadga yo‘naltirilganlik, emotsional nazorat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kirishini ko‘rsatgan.

Rus olimlari orasida Е. П. Ильин sport psixologiyasida emotsional zo‘riqish va uning boshqaruv mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. U sportchining stressga reaksiyasi temperament, nerv tizimi xususiyatlari va shaxsiy tajribaga bog‘liqligini asoslab bergan. А. В. Родионов esa sportdagi psixologik tayyorgarlikni tizimli jarayon sifatida ko‘rib, stressga chidamlilikni shakllantirishda trening, vizualizatsiya va autogen mashqlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. G. D. Gorbunov o‘z ishlarida sportchining psixologik tayyorgarligini murabbiy va sportchi o‘rtasidagi kommunikatsion jarayon bilan bog‘lab, ijtimoiy-psixologik muhitning hal qiluvchi rolini ko‘rsatgan.

Shuningdek, V. N. Platonov sport tayyorgarligi tizimida psixologik komponentning jismoniy va texnik tayyorgarlik bilan bir xil darajada muhim ekanini qayd etadi. Uning fikricha, yuqori darajadagi sport natijalari kompleks tayyorgarlik - jismoniy, texnik, taktik va psixologik omillar uyg‘unligi asosida shakllanadi.

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham sport psixologiyasi, xususan stressga chidamlilik masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. A. A. Abdullayev va boshqa mahalliy tadqiqotchilar sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishda milliy sport tizimi, murabbiylik yondashuvi va yosh sportchilarning motivatsion xususiyatlari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Biroq, respublika miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik treninglar hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lib, bu sohada xorijiy tajribani keng joriy etish zarur.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili stressga chidamlilik sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi murakkab psixologik konstrukt ekanini ko‘rsatadi. Xorijiy va rus olimlarining ishlari bu jarayonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar orqali shakllanishini asoslab bergan bo‘lsa, mahalliy tadqiqotlar ushbu bilimlarni amaliy sport tizimiga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirish masalasi integrativ yondashuv asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston sharoitida keng qo‘llanilayotgan standart psixodiagnostik metodlar hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan psixologik tahlil hamda sport psixologiyasining zamonaviy kognitiv-emotsional konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotda empirik ma’lumotlarni yig‘ish uchun ikki asosiy psixologik metod qo‘llanildi: Spielberger–Hanin “Situatsion va shaxsiy tashvish shkalasi (STAI)” hamda Connor–Davidson Resilience Scale (CD-RISC-25). Ushbu metodikalar O‘zbekiston sport psixologiyasi amaliyotida, xususan sport maktablari va oliy sport tayyorgarlik markazlarida sportchilarning psixologik holatini baholashda muntazam qo‘llanilib kelinadi.

Tadqiqotda olingan ma’lumotlar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) 26.0 versiyasi orqali qayta ishlangan. Statistik tahlil jarayonida deskriptiv statistika (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish), korrelyatsion tahlil (Pearson r) hamda ishonchlilik tahlili (Cronbach’s Alpha) usullaridan foydalanildi. Bu esa stress va chidamlilik o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

1-jadval.

Sportchilarda stress darajasi (STAI natijalari, SPSS tahlili)

Ko‘rsatkich	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)	Minimal	Maksimal
Situatsion tashvish	46.8	8.3	28	65
Shaxsiy tashvish	44.2	7.9	30	62

Jadval natijalaridan ko‘rinadiki, sportchilarda situatsion tashvish darajasi shaxsiy tashvishga nisbatan biroz yuqori bo‘lib, bu musobaqa sharoitida stress omillarining kuchayishini ko‘rsatadi. Bu holat sport psixologiyasida musobaqa oldi tashvishining tabiiy ko‘rinishi sifatida izohlanadi.

2-jadval.

Stressga chidamlilik va tashvish o‘rtasidagi korrelyatsiya (SPSS Pearson tahlili)

O‘zgaruvchilar	Pearson r	p-qiymat	Izoh
Stress darajasi – Stressga chidamlilik	-0.62	0.000	Kuchli salbiy bog‘liqlik
Situatsion tashvish – Chidamlilik	-0.58	0.001	O‘rtacha-kuchli salbiy bog‘liqlik

Korrelyatsion tahlil natijalari stress darajasi va stressga chidamlilik o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli salbiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi ($p < 0.01$). Bu esa stress darajasi oshgan sari sportchilarning psixologik chidamliligi pasayishini anglatadi. Natijalar Lazarusning kognitiv baholash nazariyasi hamda Fletcher va Sarkar tomonidan ilgari surilgan “psychological resilience” konsepsiyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologiya sportchilarda stress va chidamlilik o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni aniq va ishonchli statistik asosda tahlil qilish imkonini berdi. SPSS dasturida olingan natijalar stressga chidamlilikni rivojlantirishda kognitiv-emotsional mexanizmlar va psixologik tayyorgarlikning muhim rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muhokama. Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirish masalasi zamonaviy sport psixologiyasining eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari hamda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sportchining yuqori natijaga erishishi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki uning psixologik barqarorligi, stressni boshqarish qobiliyati va

emotsional o‘zini nazorat qila olish darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bu holat, ayniqsa, musobaqa sharoitida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki sportchi turli ichki va tashqi bosimlar ostida o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etishga majbur bo‘ladi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, sportchilarda stress darajasi yuqori bo‘lgan holatlarda ularning stressga chidamlilik ko‘rsatkichlari pasayish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bu esa Lazarus tomonidan ilgari surilgan kognitiv baholash nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, stressning individual idrok etilishi sportchining emotsional reaksiyasini belgilashini ko‘rsatadi. Demak, bir xil vaziyat turli sportchilarda turlicha psixologik javob reaksiyalarini keltirib chiqaradi, bu esa stressga chidamlilikning individual xususiyatga ega ekanini anglatadi.

Shuningdek, sport psixologiyasi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar (Fletcher & Sarkar, Hanin) natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi sportchilar muvaffaqiyatga faqat jismoniy kuch hisobiga emas, balki stressli vaziyatlarda o‘zini tuta olish, diqqatni jamlash va ijobiy kognitiv strategiyalarni qo‘llay olish orqali erishadilar. Ayniqsa, “psixologik chidamlilik” tushunchasi sportchining qiyin vaziyatlarda ham maqsadga yo‘naltirilgan holda faoliyatini davom ettirish qobiliyatini ifodalaydi.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan kuzatuvlar ham shuni ko‘rsatadiki, yosh sportchilarda musobaqa oldi tashvish va stress darajasi ko‘pincha yuqori bo‘lib, bu ularning real imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. Buning asosiy sabablaridan biri psixologik tayyorgarlik jarayonining yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan izohlanadi. Ko‘plab sport muassasalarida asosiy e’tibor jismoniy va texnik tayyorgarlikka qaratilib, psixologik treninglar ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Muhokama natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, stressga chidamlilikni rivojlantirishda bir nechta asosiy psixologik mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi: kognitiv qayta baholash, emotsional nazorat, motivatsion barqarorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Ayniqsa, murabbiy va sportchi o‘rtasidagi ishonchli kommunikatsiya sportchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, stressli vaziyatlarni yengib o‘tishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy sport psixologiyasida stressga chidamlilikni rivojlantirishda autogen trening, vizualizatsiya, nafas olish texnikalari va mindfulness kabi usullar samarali vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar sportchining asab tizimini barqarorlashtirish, diqqatni jamlash va salbiy emotsiyalarni boshqarishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari va nazariy tahlillar sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirish murakkab, ko‘p omilli psixologik jarayon ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayon faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, murabbiylik yondashuvi va sport tizimining umumiy psixologik tayyorgarlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois, kelgusida sport psixologiyasi amaliyotida stressga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sportda muvaffaqiyatga erishish faqat jismoniy tayyorgarlik yoki texnik mahorat bilan cheklanmaydi, balki sportchining psixologik barqarorligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Musobaqa jarayonida yuzaga keladigan stress, tashvish, yuqori mas’uliyat va raqobat bosimi sportchining funksional holatiga bevosita ta’sir etadi va uning natijadorligini sezilarli darajada belgilaydi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, stressga chidamlilik kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar uyg‘unligi orqali shakllanadi. Kognitiv qayta baholash sportchiga vaziyatni salbiy emas, balki rivojlantiruvchi omil sifatida qabul qilish imkonini bersa, emotsional o‘zini boshqarish stressning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Shuningdek, motivatsion barqarorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sportchining ichki resurslarini faollashtirib, murakkab sharoitlarda ham samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

O‘rganilgan natijalar shuni ham tasdiqlaydiki, yuqori darajadagi stressga chidamlilikka ega sportchilar musobaqa sharoitida barqaror natija ko‘rsatish bilan birga, o‘z psixologik holatini tez tiklay olish qobiliyatiga ham ega bo‘ladilar. Bu esa sport psixologiyasi amaliyotida maxsus trening dasturlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida sportchilarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish, xususan stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yosh sportchilar orasida musobaqa oldi tashvish va psixologik bosim yuqori darajada kuzatilmoqda, bu esa ularning real imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, stressga chidamlilikni rivojlantirish sportchining nafaqat musobaqadagi natijalarini yaxshilaydi, balki uning umumiy psixologik sog‘lomligini ham mustahkamlaydi. Shu sababli kelgusida sport psixologiyasi sohasida kompleks yondashuv asosida individual va guruhiy psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Weinberg R. S., Gould D.Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 624 p.
2. Fletcher D., Sarkar M.Psychological resilience and Olympic success: a review. // European Psychologist. – 2012. – Vol. 17(3). – P. 1–12.
3. Lazarus R. S.Emotion and Adaptation. – New York: Oxford University Press, 1991. – 557 p.
4. Hanin Y. L.Emotions in Sport. – Champaign: Human Kinetics, 2000. – 352 p.
5. Martens R.Competitive Anxiety in Sport. – Champaign: Human Kinetics, 1977. – 212 p.
6. Deci E. L., Ryan R. M.Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Springer, 1985. – 372 p.
7. Hardy L., Jones G., Gould D.Understanding Psychological Preparation for Sport. – Chichester: Wiley, 1996. – 288 p.
8. Cox R. H.Sport Psychology: Concepts and Applications. – New York: McGraw-Hill, 2012. – 480 p.
9. Ильин Е. П.Психология спорта. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 352 с.

Saidnazarova Saodat Kurbonboyevna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:saodat.teacher01@gmail.com

ZAMONAVIY MEDIADISKURS TIZIMIDA GAZETA DISKURSINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy mediadiskursning lingvopragmatik xususiyatlari va uning tipologiyasini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Mediadiskurs tushunchasining rivojlanishi, uning an'anaviy "ommaviy axborot vositalari tili" konsepsiyasidan farqli jihatlari hamda zamonaviy kommunikativ makondagi o'rni yoritiladi. Muallif mediadiskursning fanlararo tabiati, turli diskurs turlarining konvergentsiyasi va pragmatik omillarning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Shuningdek, reklama, PR, jurnalistika, siyosiy va internet kommunikatsiyalari kabi media amaliyotlarining o'zaro ta'siri hamda manipulyativ strategiyalarning qo'llanishi tahlil qilinadi. Maqolada mediadiskurs tipologiyasini yaratishda texnologik kanal, kommunikativ maqsad, auditoriya, janr, stilistika va kommunikativ strategiyalar kabi mezonlardan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari mediadiskursni lingvopragmatik nuqtai nazardan o'rganish zamonaviy media matnlarning mazmuniy va funksional xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini berishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: mediadiskurs, lingvopragmatika, ommaviy kommunikatsiya, media lingvistika, diskurs tipologiyasi, kommunikativ strategiyalar, pragmatik omillar, manipulyatsiya, media matn, internet kommunikatsiyalari, reklama diskursi, siyosiy diskurs, auditoriya, media konvergentsiyasi, axborot texnologiyalari.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГАЗЕТНОГО ДИСКУРСА В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО МЕДИАДИСКУРСА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности современного медиадискурса и критерии его типологизации. Освещаются вопросы формирования понятия медиадискурса, расширения его содержательных и функциональных границ в условиях развития современных средств массовой коммуникации. Анализируется междисциплинарный характер медиадискурса, взаимодействие рекламного, PR-, журналистского, политического и интернет-дискурсов, а также роль коммуникативных стратегий в медиакоммуникации. Особое внимание уделяется технологическим каналам распространения информации, целевым установкам, аудитории, жанровым и стилистическим особенностям медиатекстов. Результаты исследования показывают, что лингвопрагматический подход позволяет глубже понять механизмы воздействия медиадискурса на общественное сознание и коммуникативное поведение адресата.*

Ключевые слова: *медиадискурс, лингвопрагматика, медиалингвистика, массовая коммуникация, коммуникативная стратегия, манипуляция, аудитория, интернет-коммуникация, типология дискурса, медиатекст.*

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF NEWSPAPER DISCOURSE IN THE SYSTEM OF MODERN MEDIA DISCOURSE

Abstract. *This article examines the linguopragmatic features of contemporary media discourse and the criteria for its typology. The study highlights the development of the concept of media discourse and the expansion of its semantic and functional boundaries in the context of modern mass communication. Particular attention is paid to the interdisciplinary nature of media discourse, the interaction of advertising, public relations, journalistic, political, and internet discourses, as well as the role of communicative strategies in media communication. The article identifies key criteria for media discourse classification, including technological channels, target audience, communicative*

goals, genre, stylistic features, and pragmatic factors. The findings demonstrate that a linguopragmatic approach provides deeper insights into the mechanisms of media influence, persuasion, and manipulation in contemporary communication.

Key words: *media discourse, linguopragmatics, media linguistics, mass communication, communicative strategy, manipulation, audience, internet communication, discourse typology, media text.*

Kirish. Mediadiskurs bugungi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim va faol o‘rganilayotgan tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, XX asrning so‘nggi choragi hamda XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, internet tarmoqlarining ommalashuvi, raqamli media platformalarning paydo bo‘lishi va ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi ta’siri ortib borishi natijasida til va kommunikatsiya masalalariga bo‘lgan ilmiy qiziqish yanada kuchaydi. Shu jarayonda an’anaviy “ommaviy axborot vositalari tili” tushunchasi asta-sekin kengroq va murakkabroq mazmunga ega bo‘lgan “mediadiskurs” tushunchasi bilan almashdi. Mediadiskurs tushunchasi nafaqat media matnlarining lingvistik xususiyatlarini, balki ularning pragmatik, ijtimoiy, psixologik hamda madaniy jihatlarini ham qamrab oladi. Chunki zamonaviy media faqat axborot yetkazish vositasi bo‘lib qolmay, balki jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatadigan, jamoatchilik fikrini shakllantiradigan va muayyan mafkuraviy pozitsiyalarni targ‘ib qiladigan muhim kommunikativ maydonga aylandi. Shu sababli mediadiskursni tadqiq etishda til birliklarining qo‘llanishi bilan bir qatorda ularning auditoriyaga ko‘rsatadigan ta’siri, manipulyativ imkoniyatlari, baholovchi mazmuni va kommunikativ strategiyalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy media makonining kengayishi va globallashuv jarayonlari ham mediadiskursning yangi shakl va ko‘rinishlarini yuzaga keltirdi. An’anaviy gazeta va jurnal matnlari bilan bir qatorda internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, podkastlar va multimedia platformalari ham mediadiskursning tarkibiy qismiga aylandi. Bu esa tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, yangi kommunikativ usullar va ta’sir mexanizmlarining shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, mediadiskurs jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u orqali muayyan voqealarning talqini, ijtimoiy bahosi hamda auditoriyaning voqelikka munosabati shakllantiriladi. Shu jihatdan mediadiskursni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda nafaqat lingvistik, balki pragmatik, sotsiologik va psixolingvistik yondashuvlarni ham talab qiladigan kompleks tadqiqot sohasi hisoblanadi. Zamonaviy lingvistika funksional va kognitiv-diskursiv paradigma asosida rivojlanmoqda. Ushbu paradigma tilni faqat grammatik yoki leksik birlik sifatida emas, balki inson tafakkuri, kommunikativ maqsad va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Shu sababli mediadiskursni o‘rganishda semantika, pragmatika, kommunikatsiya nazariyasi va kognitiv lingvistika kabi yo‘nalishlar o‘zaro integratsiyalashmoqda. Bundan tashqari, mediadiskurs zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib etishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Media matnlari orqali voqea-hodisalar muayyan nuqtai nazardan talqin qilinadi, baholanadi va auditoriyaga yetkaziladi. Natijada media nafaqat axborot berish, balki auditoriyaning dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini ham bajaradi. Shu jihatdan mediadiskursni tadqiq etish til birliklarining kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini, ularning manipulyativ salohiyatini hamda media matnlarda qo‘llaniladigan ta’sir strategiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mediadiskursni zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb va istiqbolli tadqiqot obyektlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.Mediadiskurs tushunchasining kengayishi natijasida bugungi kunda reklama, PR, televideniye, radio, internet kommunikatsiyalari, bloglar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlar ham ushbu kategoriyaga kiritilmoqda. Avvallari faqat jurnalistik matnlar bilan chegaralangan media muhiti hozirda turli janr va uslublarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ tizimga aylangan. Mazkur jarayon raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va axborot almashinuvi tezligining ortishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida media makonining chegaralari sezilarli darajada kengaydi hamda kommunikatsiya jarayonining interaktiv xarakteri kuchaydi. Endilikda auditoriya nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni yaratish, sharhlash va tarqatishda faol ishtirok etuvchi subyektga aylandi. Bu esa

media matnlarning shakli, mazmuni va kommunikativ strategiyalarida yangi tendensiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Shu bois zamonaviy mediadiskursni tadqiq etishda an’anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda raqamli platformalar, multimodal kommunikatsiya vositalari hamda foydalanuvchilar tomonidan yaratilayotgan kontentning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mediadiskurs zamonaviy tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning nazariy asoslari diskurs tahlili, pragmalingvistika, media lingvistika va kommunikatsiya nazariyasi doirasida shakllangan. Media lingvistika yo‘nalishining yirik vakillaridan biri T.G. Dobrosklonskaya media matnlarni lingvistik va ekstralingvistik omillar uyg‘unligida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. T.A. van Dijk diskursni jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari va mafkuraviy qarashlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. N. Fairclough esa tanqidiy diskurs tahlili nazariyasi orqali media matnlarni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi. Rus tilshunosligida E.A. Kojemyakin va E.O. Mendjeritskaya mediadiskursning kognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida D. Teshabayeva media matnlarning kommunikativ va pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilgan. Media diskursning zamonaviy tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratilayotgan masalalardan biri uning multimodal tabiati hisoblanadi. Zamonaviy media matnlar nafaqat verbal, balki vizual, audio va grafik elementlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi. Shu sababli media mahsulotlarini tahlil qilishda lingvistik birliklar bilan bir qatorda tasvir, rang, shrift, ovoz va boshqa semiotik vositalarning ham kommunikativ funksiyasi hisobga olinadi. Tadqiqotchilar media matnlarning auditoriyaga ta’siri ko‘p jihatdan ushbu multimodal vositalarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Bu esa mediadiskursni o‘rganishda kompleks va fanlararo yondashuvning ahamiyatini yanada oshiradi.

So‘nggi yillarda internet kommunikatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi mediadiskurs tadqiqotlarining yangi yo‘nalishlarini yuzaga keltirdi. Xususan, feyk axborotlar, manipulyativ kommunikativ strategiyalar, internet memlari va foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan kontentning lingvopragmatik xususiyatlari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli media makonida axborotning tez tarqalishi va auditoriyaning kommunikativ jarayondagi faol ishtiroki media matnlarning mazmuni hamda ta’sir mexanizmlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Shu bois zamonaviy mediadiskursni o‘rganishda raqamli kommunikatsiya vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim metodologik talab sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda diskursiv tahlil, lingvopragmatik tahlil, tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy gazeta matnlari, siyosiy kommunikatsiya namunalari, reklama matnlari va internet kommunikatsiyasi mahsulotlari tanlandi. Media matnlardagi baholovchi birliklar, emotsional-ekspressiv vositalar, manipulyativ strategiyalar va auditoriyaga ta’sir mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Mediadiskursning asosiy xususiyatlaridan biri uning fanlararo xarakteridir. Media matnlarini tahlil qilish jarayonida lingvistika siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, marketing va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘lanadi. Chunki ommaviy kommunikatsiya nafaqat axborot yetkazadi, balki inson ongiga ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy stereotiplarni shakllantiradi va auditoriya xulq-atvorini boshqaradi. Shu sababli mediadiskursni o‘rganish faqat til birliklarining tuzilishi yoki ma’nosini tahlil qilish bilan cheklanib qolmaydi. Tadqiqot jarayonida media matnlarining ijtimoiy, siyosiy, madaniy va psixologik ta’sir mexanizmlari ham e’tiborga olinadi. Xususan, ommaviy axborot vositalari orqali muayyan g‘oyalar, qadriyatlar va mafkuraviy qarashlarning targ‘ib qilinishi, voqea-hodisalar talqinining shakllanishi hamda jamoatchilik fikriga ta’sir etuvchi kommunikativ strategiyalar tahlil qilinadi. Bunday yondashuv media matnlarning nafaqat axborot berish, balki ishontirish, baholash va manipulyativ ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Natijada mediadiskurs zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni kompleks ravishda o‘rganishga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali ilmiy tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, siyosiy mediadiskursda qo‘llaniladigan leksik birliklar muayyan voqea yoki shaxsga nisbatan auditoriyada ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin. Xususan, The New York Times yoki The Washington Post sahifalarida uchraydigan “threat” (tahdid), “crisis” (inqiroz), “aggression” (tajovuz) kabi birliklar voqeaning xavfli va salbiy xarakterini

kuchaytirsa, “reform” (islohot), “progress” (taraqqiyot), “cooperation” (hamkorlik) kabi birliklar ijobiy baholashni yuzaga keltiradi. Bunday leksik tanlovlar axborotning neytral qabul qilinishiga emas, balki uning muayyan ideologik nuqtai nazardan talqin etilishiga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan esa media matnlarida hissiy-ekspressiv vositalardan foydalanish auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Masalan, sarlavhada “Mamlakat tarixidagi eng katta inqiroz” yoki “Millionlab odamlar xavf ostida” kabi ifodalarning qo‘llanishi o‘quvchida tashvish, xavotir yoki qiziqish hissini uyg‘otadi. Natijada auditoriyaning e’tibori jalb qilinadi va axborotni qabul qilish darajasi oshadi. Shu jihatdan media matnlarda emotsional-ekspressiv leksika manipulyativ ta’sir vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, media matnlari jamiyatda muayyan stereotip va qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, ayrim gazetalarda tadbirkorlik faoliyatini yoritishda “muvaffaqiyatli biznesmen”, “innovatsion lider”, “zamonaviy tadbirkor” kabi ijobiy nominatsiyalarning muntazam qo‘llanishi tadbirkorlikka nisbatan ijobiy ijtimoiy obrazni shakllantiradi. Aksincha, “jinoyatchi guruh”, “radikal harakat”, “noqonuniy faoliyat” kabi birliklar salbiy stereotiplarni yuzaga keltiradi.

Marketing va reklama diskursida esa auditoriyani muayyan harakatga undash maqsadi ustuvor hisoblanadi. Masalan, “Eng yaxshi tanlov”, “Chegirma faqat bugun”, “Minglab mijozlar ishonchini qozongan” kabi iboralar iste’molchining qaror qabul qilish jarayoniga pragmatik ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerda til birliklari nafaqat axborot berish, balki ishontirish va rag‘batlantirish vazifasini ham bajaradi.

Demak, mediadiskursning fanlararo tabiati uning lingvistik, ijtimoiy, psixologik va pragmatik jihatlarini birgalikda o‘rganishni talab qiladi. Media matnlaridagi til vositalari voqelikni aks ettirish bilan birga, uni talqin qiladi, baholaydi va auditoriya ongida muayyan tasavvurlarni shakllantiradi. Shu sababli mediadiskurs zamonaviy kommunikativ makonda ta’sir va ishontirish mexanizmlarini o‘rganishning muhim obyekti hisoblanadi.

Mediadiskursdagi yana bir muhim hodisa “feyk” fenomenidir. Feyk axborotlar tashqi ko‘rinishi jihatidan haqiqiy jurnalistik materialga o‘xshaydi, biroq u auditoriyani chalg‘itish yoki manipulyatsiya qilish maqsadida yaratiladi. Bunday materiallar yangilik, reklama yoki tahliliy maqola shaklida bo‘lishi mumkin. Shu bois zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri haqiqiy va simulyativ media matnlarni farqlovchi lingvistik hamda pragmatik belgilarni aniqlashdan iboratdir.

Feyk matnlarning asosiy lingvistik xususiyatlaridan biri ularda hissiy-ekspressiv birliklarning haddan tashqari ko‘p qo‘llanishidir. Bunday matnlarda o‘quvchining e’tiborini tortish va unda kuchli emotsional reaksiya uyg‘otish maqsadida “shok!”, “sensatsiya!”, “hamma buni bilishi kerak!”, “yashirilgan haqiqat oshkor bo‘ldi!” kabi ta’sirchan ifodalardan foydalaniladi. Masalan, “Mashhur olim saraton kasalligiga qarshi 100 foiz samarali dori yaratdi, ammo hukumat buni yashirmoqda” kabi sarlavha ilk qarashda ishonchli ko‘rinsa-da, unda aniq manbaning ko‘rsatilmaganligi, mutlaq baholovchi birliklar (100 foiz samarali) va fitna nazariyasiga asoslangan da’volarning mavjudligi uning feyk xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Haqiqiy jurnalistik materiallarda esa axborot odatda rasmiy manbalar, ekspert fikrlari yoki statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Pragmatik jihatdan feyk materiallarning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki auditoriyaning hissiyotlari va qarashlariga ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda “Ertadan boshlab barcha bank omonatlari muzlatiladi” yoki “Mamlakatda favqulodda holat e’lon qilinmoqda” kabi tekshirilmagan xabarlarning tarqalishi fuqarolar orasida vahima kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday hollarda matnda noaniq manbalarga murojaat qilish (“ishonchli manbalarga ko‘ra”, “mutaxassislarning aytishicha”), dalillarning yetishmasligi hamda hissiy ta’sirni kuchaytiruvchi leksik vositalarning ustunligi kuzatiladi. Shu sababli feyk axborotlarni aniqlashda manbalarning ishonchliligi, faktlarning tekshirilganligi, baholovchi leksika darajasi va matnning pragmatik maqsadini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mediadiskursda manipulyativ strategiyalarni aniqlash hamda media savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mediadiskursning manipulyativ imkoniyatlari ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ommaviy kommunikatsiya insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hissiyotlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Media makonida shakllangan kollektiv fikr ba’zan diniy yoki mafkuraviy ta’sir darajasiga yetadi. Shu sababli media matnlarni o‘rganishda pragmatik omillarni hisobga olish juda muhimdir.

Buni ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaladigan axborot kampaniyalari misolida kuzatish mumkin. Masalan, muayyan siyosiy voqea yoki ijtimoiy muammoni yoritishda ayrim media manbalari bir xil hodisani turlicha talqin qiladi. Bir manbada voqea “xalq manfaatlari yo‘lidagi muhim islohot” sifatida taqdim etilsa, boshqa manbada ayni voqea “bahsli qaror” yoki “jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘lgan tashabbus” sifatida ifodalanishi mumkin. Bu yerda axborotning o‘zi emas, balki uni ifodalash uchun tanlangan leksik vositalar auditoriyaning voqeaga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda “hamma shunday fikrda”, “millionlab foydalanuvchilar qo‘llab-quvvatlamoqda”, “xalqning yagona talabi” kabi umumlashtiruvchi va kategorik ifodalar qo‘llanilishi kollektiv fikr mavjudligi haqidagi tasavvurni kuchaytiradi hamda individning mustaqil qaror qabul qilishiga psixologik bosim o‘tkazadi. Pragmatik nuqtai nazardan bunday birliklar auditoriyani ishontirish, muayyan pozitsiyani qo‘llab-quvvatlashga undash va jamoatchilik fikrini boshqarish strategiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mediadiskursni tahlil qilishda matnning yashirin maqsadi, muallifning kommunikativ niyati va til vositalarining ta’sirchanlik darajasini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mediadiskurs tipologiyasini yaratishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

Texnologik uzatish kanali (matbuot, radio, televideniye, internet);

Kommunikatsiya turi (rasmiy yoki norasmiy);

Kommunikativ maqsad (axborot berish, reklama, tahlil, ko‘ngilocharlik);

Auditoriya xususiyatlari;

Janr va format;

Stilistika;

Kommunikativ strategiyalar;

Mavzuviy yo‘nalish.

Mazkur omillar mediadiskursning turli ko‘rinishlarini aniqlash va tasniflashda asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi. Masalan, texnologik uzatish kanali nuqtai nazaridan gazeta maqolasi, televideniye reportaji va ijtimoiy tarmoq posti bir xil voqeani yoritishi mumkin, biroq ularning til vositalari va kommunikativ usullari sezilarli darajada farqlanadi. Gazeta matnlarida batafsil tahlil va faktlarga tayanish ustunlik qilsa, televideniyeda vizual va audio vositalar yordamida hissiy ta’sir kuchaytiriladi, ijtimoiy tarmoqlarda esa qisqa, dinamik va interaktiv kommunikatsiya shakllari qo‘llaniladi. Shuningdek, kommunikativ maqsadga qarab ham media matnlarning xususiyatlari o‘zgaradi. Masalan, yangilik janridagi “Markaziy bank asosiy stavkani o‘zgartirmadi” kabi xabar axborot berish vazifasini bajarsa, “Eng qulay kredit imkoniyatlari siz uchun” kabi reklama matni auditoriyani muayyan harakatga undashga qaratiladi. Auditoriya omili ham muhim ahamiyatga ega: bolalar uchun mo‘ljallangan media mahsulotlarda sodda va tushunarli til birliklari qo‘llansa, ilmiy yoki tahliliy nashrlarda terminologik leksika va murakkab sintaktik konstruktsiyalar ustunlik qiladi. Demak, mediadiskurs tipologiyasi texnologik, kommunikativ va pragmatik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab tizim bo‘lib, uning har bir turi o‘ziga xos lingvistik va funksional xususiyatlarga ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari gazeta diskursi zamonaviy mediadiskursning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Lingvopragmatik yondashuv media matnlarning auditoriyaga ta’siri, manipulyativ imkoniyatlari va jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Shunday qilib, zamonaviy mediadiskurs ko‘p qatlamli va murakkab kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo‘lib, unda til, kommunikatsiya, ijtimoiy munosabatlar va texnologik omillar o‘zaro uyg‘unlashadi. Mediadiskurs nafaqat axborotni uzatish, balki uni muayyan nuqtai nazardan talqin qilish, baholash va auditoriya ongiga ta’sir ko‘rsatish vazifalarini ham bajaradi. Zamonaviy media makonining kengayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida media matnlarning shakli, mazmuni hamda kommunikativ strategiyalari yanada murakkablashdi. Bu esa mediadiskursni lingvistik, pragmatik, sotsiologik va psixologik jihatlarning o‘zaro ta’sirida o‘rganishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, lingvopragmatik yondashuv mediadiskursni tadqiq etishning eng samarali metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv media matnlarda qo‘llaniladigan til birliklarining nafaqat semantik mazmunini, balki ularning kommunikativ maqsadi, auditoriyaga ta’siri, manipulyativ imkoniyatlari va ijtimoiy funksiyalarini ham aniqlashga imkon beradi. Demak,

media matnlarni tahlil qilishda ularning lingvistik tuzilishi bilan bir qatorda pragmatik yo‘nalganligi, yaratilish konteksti va jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni ham e’tiborga olinishi zarur. Bu esa zamonaviy mediadiskursning mohiyatini chuqurroq anglash va ommaviy kommunikatsiyaning jamiyat hayotidagi rolini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Zamonaviy mediadiskurs til, kommunikatsiya va ijtimoiy munosabatlarning murakkab uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan ko‘p qirrali hodisadir. Uning lingvopragmatik tabiati media matnlarni nafaqat semantik jihatdan, balki kommunikativ maqsad, auditoriya xususiyatlari va ta’sir strategiyalari nuqtai nazaridan ham tahlil qilishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mediadiskursning zamonaviy shakllari turli diskurs turlarining konvergentsiyasi bilan tavsiflanadi hamda reklama, jurnalistika, siyosiy va internet kommunikatsiyalarining o‘zaro ta’siri asosida rivojlanadi. Shu sababli mediadiskurs tipologiyasini ishlab chiqishda texnologik, pragmatik va kommunikativ mezonlarni kompleks ravishda hisobga olish zarur. Lingvopragmatik yondashuv esa media matnlarning manipulyativ imkoniyatlari, auditoriyaga ta’sir mexanizmlari va zamonaviy kommunikativ jarayonlardagi rolini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Dilfuza Teshabayeva. Ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyati. – Toshkent, 2011.
2. Dilfuza Teshabayeva. The Discourse Analysis of Media Text // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2023.
3. Muhammadjon Xudoyqulov. Publitsistika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Universitet, 2011.
4. Nemat Mahmudov. Til va nutq. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
5. Tatyana Dobrosklonskaya. Medialingvistika: sistemnyy podxod k izucheniyu yazyka SMI. – Moskva: Nauka; Flinta, 2008.
6. Mendjeritskaya E.O. Diskurs, mediadiskurs i kognitivno-diskursivnaya paradigma v lingvistike // Izvestiya Yujnogo federalnogo universiteta. Filologicheskie nauki. – 2011. – №3. – S. 54–60.
7. Kojemyakin E.A. Mediadiskurs // Nauchnye vedomosti Belgorodskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2010. – №2(73). – S. 13–21.
8. Teun A. van Dijk. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
9. Norman Fairclough. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995.
10. Andersen R., Gray J. (Eds.). Battleground: The Media. Vol. 1–2. – Westport, Connecticut: Greenwood Press, 2008.

Abdullayev Shaxboz Solijon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi, ilmiy rahbar
E-mail: shaxbozfardu2023@gmail.com,
Mamatkarimova Saidaxon Mamatvali qiz
Farg'ona davlat universiteti
ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi magistri
E-mail: saidaxonmamatkarimova83@gmail.com

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA BIG DATA ASOSIDA TA'LIM MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bulutli texnologiyalar va Big Data asosidagi ta'lim modelining nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida paydo bo'layotgan zamonaviy yondashuvlar, xususan, Cloud Computing hamda Big Data texnologiyalarining o'quv jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Bulutli texnologiyalar yordamida ta'lim resurslarini saqlash, boshqarish va masofadan foydalanishning afzalliklari va yutuqlari ochib berilgan. Shu bilan birga, Big Data asosidagi ta'lim analitikasi orqali o'quvchilarning faoliyatini monitoring qilish, o'zlashtirish darajasini tahlil qilish hamda adaptiv ta'lim muhitini shakllantirish masalalari ham ko'rib chiqilgan.*

Maqolada LMS platformalari, learning analytics hamda sun'iy intellekt elementlari asosida integratsiyalashgan ta'lim modeli taklif qilingan. Taklif qilingan model o'quv jarayonini individuallashtirish, pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish va ta'lim samaradorligini oshirish vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bulutli texnologiyalar va Big Data asosidagi ta'lim muhiti zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligi asos etib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, bulutli texnologiyalar, Cloud Computing, Big Data, ta'lim analitikasi, learning analytics, LMS platformalari, adaptiv ta'lim, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim, ta'lim modeli.*

МОДЕЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И BIG DATA В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы образовательной модели, основанной на облачных технологиях и больших данных, в контексте цифровой трансформации. Анализируются современные подходы, возникающие в результате стремительного развития цифровых технологий в системе образования, в частности, возможности облачных вычислений и технологий больших данных в образовательном процессе. Раскрываются преимущества и достижения хранения, управления и удаленного использования образовательных ресурсов с помощью облачных технологий. Одновременно рассматриваются вопросы мониторинга активности учащихся, анализа уровня усвоения материала и формирования адаптивной образовательной среды посредством образовательной аналитики на основе больших данных.*

В статье предлагается интегрированная образовательная модель, основанная на платформах LMS, аналитике обучения и элементах искусственного интеллекта. Предложенная модель служит для индивидуализации образовательного процесса, принятия педагогических решений на научной основе и повышения эффективности обучения. По результатам исследования показано, что образовательная среда, основанная на облачных технологиях и больших данных, является одним из перспективных направлений развития современной системы образования.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, облачные технологии, облачные вычисления, большие данные, образовательная аналитика, аналитика обучения, платформы LMS,*

адаптивное обучение, искусственный интеллект, цифровая среда обучения, дистанционное обучение, образовательная модель.

AN EDUCATIONAL MODEL BASED ON CLOUD TECHNOLOGIES AND BIG DATA IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract. *This article covers the theoretical and methodological foundations of the educational model based on cloud technologies and Big Data in the context of digital transformation. Modern approaches emerging as a result of the rapid development of digital technologies in the education system, in particular, the possibilities of Cloud Computing and Big Data technologies in the educational process, are analyzed. The advantages and achievements of storing, managing and remotely using educational resources using cloud technologies are revealed. At the same time, the issues of monitoring student activity, analyzing the level of mastery, and forming an adaptive educational environment through Big Data-based educational analytics are also considered.*

The article proposes an integrated educational model based on LMS platforms, learning analytics, and artificial intelligence elements. The proposed model serves to individualize the educational process, make pedagogical decisions on a scientific basis, and increase educational efficiency. According to the results of the study, it is shown that the educational environment based on cloud technologies and Big Data is one of the promising areas for the development of the modern educational system.

Key words: *digital transformation, cloud technologies, Cloud Computing, Big Data, educational analytics, learning analytics, LMS platforms, adaptive learning, artificial intelligence, digital learning environment, distance learning, educational model.*

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim muassasalarida an’anaviy o‘qitish usullaridan raqamli va interaktiv ta’lim muhitiga o‘tish jarayoni kuchayib bormoqda. Ayniqsa, masofaviy ta’lim, elektron ta’lim platformalari, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar hamda Big Data texnologiyalarining rivojlanishi o‘quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va ular asosida muhim pedagogik qarorlar qabul qilishni ham talab etadi.

Sir emaski, raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim jarayonida hosil bo‘layotgan ma’lumotlar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Elektron kundaliklar, Learning Management System (LMS) platformalari, onlayn test tizimlari, virtual laboratoriyalar hamda masofaviy ta’lim vositalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlar shakllanmoqda. Ushbu ma’lumotlarni an’anaviy usullar orqali qayta ishlash juda murakkab bo‘lib, bu jarayon Big Data texnologiyalarining ahamiyati ortishiga sabab bo‘lmoqda. Negaki Big Data texnologiyalari o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini monitoring qilish, o‘zlashtirish darajasini tahlil etish, individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish hamda ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalar esa katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini saqlash, qayta ishlash va ulardan masofadan turib foydalanishda muhim vosita hisoblanadi. Chunki Cloud Computing texnologiyalari asosida yaratilgan platformalar ta’lim resurslaridan istalgan vaqt va istalgan hududda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘quv jarayonining moslashuvchanligini oshirib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni rivojlantiradi. Shuning bilan bir qatorda, bulutli texnologiyalar ta’lim tizimida texnik xarajatlarni kamaytirish, ma’lumotlarni xavfsiz holda saqlash hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida Big Data va bulutli texnologiyalar integratsiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki mazkur texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish, ta’lim jarayonini optimallashtirish va shaxsiylashtirilgan ta’lim modelini yaratish imkoniyati mavjud. Shu sababli raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bulutli texnologiyalar va Big Data asosidagi ta’lim modelining nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bulutli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini qayta ishlash, learning analytics jarayonlarini tashkil etish hamda adaptiv ta’lim muhitini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Asosiy qism. Raqamli transformatsiya va zamonaviy ta’lim. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni yasamoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayoni ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli transformatsiya deganda an’anaviy faoliyat jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish, ma’lumotlarni elektron shaklda boshqarish hamda intellektual tizimlardan foydalanish tushuniladi. Ta’lim tizimida ushbu jarayon o‘qitish metodlari, boshqaruv mexanizmlari va o‘quv resurslarining yangi ko‘rinishda shakllanishiga omil bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirib, ta’limning interaktivligini orttiradi. Sir emaski, elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, videokonferensiya tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday texnologiyalar yordamida o‘quvchilar istalgan vaqt va istalgan hududdan turib ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada ta’limning uzluksizligi, moslashuvchanligi va samaradorligi oshadi.

Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonida “Smart Education” va “Digital Learning” kabi zamonaviy yondashuvlarning rivojlanishiga ham sabab bo‘ldi. Smart Education konsepsiyasi ta’lim jarayonini intellektual texnologiyalar yordamida tashkil etishga asoslanadi. Bunda o‘quv materiallari foydalanuvchining ehtiyojlari va bilim darajasiga mos bo‘lgan holda shakllantiriladi. Digital Learning esa elektron resurslar, internet texnologiyalari va masofaviy ta’lim vositalari asosida bilim berishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvlar ta’limning individuallashtirilishi va o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda ta’lim muassasalarida LMS (Learning Management System) platformalaridan foydalanish keng ommalashmoqda. Bu sistemaga kiruvchi Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canvas kabi platformalar o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni nazorat qilish, baholash va o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini beradi. Ushbu platformalarda hosil bo‘ladigan katta hajmdagi ma’lumotlar ta’lim sifatini tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim manba hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim jihati bu sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishidir. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ularga individual tavsiyalar berish va adaptiv ta’lim muhitini yaratish imkonini bersa, Big Data texnologiyalari esa katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini qayta ishlash hamda tahlil qilish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Masalan, o‘quvchilarning platformadagi faoliyat darajasi, test natijalari, mavzular bo‘yicha qiyinchiliklari tahlil qilib ko‘riladi va ta’lim strategiyasini optimallashtirish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya ta’lim jarayonida o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lib qaralgan bo‘lsa, zamonaviy raqamli ta’lim muhitida u endi fasilitator, maslahatchi va yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. O‘quvchilar esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishadi. Bu esa ta’limning interaktivligini oshirib, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘z hissasini beradi.

Shu bilan bir qatorda, raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham yo‘q emas. Jumladan, internet tezligining yetarli emasligi yoki yo‘qligi, kiberxavfsizlik masalalari, raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli raqamli ta’lim muhitini rivojlantirishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda metodik va pedagogik yondashuvlarni ham takomillashtirish zarur bo‘lib hisoblanadi.

Bulutli texnologiyalarning ta'limdagi imkoniyatlari. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Negaki, bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga internet orqali dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, serverlar va turli xil elektron resurslardan masofadan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ushbu texnologiyalar orqali ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash hamda boshqarishda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Bulutli texnologiyalarning asosiy afzalliklaridan biri - ta'lim resurslaridan istalgan joy va istalgan vaqtda foydalanish imkonining mavjudligidir. An'anaviy ta'lim tizimida o'quv materiallari ko'pincha ma'lum bir qurilma yoki auditoriya bilan cheklangan bo'lar edi. Bulutli platformalar yordamida esa foydalanuvchilar internet mavjud bo'lgan har qanday hududdan o'quv resurslariga murojaat qilishi mumkin. Bu albatta masofaviy ta'limni rivojlantirish va ta'limning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle Cloud, Zoom, Google Drive, OneDrive kabi bulutli xizmatlardan keng foydalanish mumkin. Mazkur platformalar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlash, elektron topshiriqlarni yuborish, onlayn darslarni o'tkazish va kuzatish hamda o'quv jarayonini monitoring qilish imkonini beradi. Shuningdek, bulutli texnologiyalar yordamida bir nechta foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida bitta hujjat ustida ishlashi ham mumkin bo'lib, bu hamkorlikdagi ta'limni rivojlantirishga omil bo'ladi.

Bulutli texnologiyalar ta'lim muassasalari uchun iqtisodiy tarafdan ham qulay hisoblanadi. Chunki endi an'anaviy serverlar va katta hajmdagi texnik qurilmalarni xarid qilish zarurati bo'lmaydi. Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonlari bulutli xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar serverlarida amalga oshiriladi. Bu esa albatta ta'lim muassasalarining texnik xarajatlarini kamaytirib, mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Bulutli texnologiyalarning yana bir muhim jihati shundaki - unda katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlarini saqlash va boshqarish imkoniyati bor. Ya'ni ular orqali zamonaviy ta'lim jarayonida elektron darsliklar, videoma'ruzalar, test natijalari, talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va boshqa ko'plab ma'lumotlar shakllanadi. Ushbu ma'lumotlarni an'anaviy usullar orqali boshqarish murakkab bo'lar edi. Bulutli texnologiyalar yordamida esa ularni markazlashgan holda saqlash va tezkor qayta ishlash mumkin bo'ladi. Bu bulutli texnologiyalarni Big Data texnologiyalari bilan integratsiyasini ta'minlash uchun muhim asos bo'ladi.

Shu birga, bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini ham beradi. Ya'ni o'quvchilarning qiziqishi, bilim darajasi va faolligi haqidagi ma'lumotlar asosida ularga mos o'quv materiallari tavsiya etilishi mumkin. Natijada adaptiv ta'lim muhiti shakllanib, har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuvni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki zamonaviy bulutli platformalar ma'lumotlarni zaxiralash, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish va ma'lumotlarni himoyalash mexanizmlariga ega. Bu albatta ta'lim ma'lumotlarining yo'qolishi yoki ruxsatsiz foydalanilishining oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalalari bulutli texnologiyalarni joriy etishda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bulutli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish shu bilan birga innovatsion pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli ham zamonaviy ta'lim tizimida bulutli texnologiyalarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hamda ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Big Data asosida ta'lim analitikasi. Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar shakllanib bormoqda. Elektron ta'lim platformalari, LMS tizimlari, onlayn testlar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar hamda masofaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning faoliyati haqida turli ko'rinishdagi ma'lumotlar yig'ish mumkin. Ushbu ma'lumotlarni samarali qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida Big Data texnologiyalari muhim asos

hisoblanadi. Big Data asosidagi ta’lim analitikasi o‘quv jarayonini chuqur tahlil qilish, ta’lim sifatini oshirish va individual yondashuvni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ta’lim analitikasi (Learning Analytics) - bu o‘quvchilarning faoliyati, o‘zlashtirish darajasi va ta’lim jarayonidagi xatti-harakatlariga oid ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish hamda ushbu ma’lumotlar asosida pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonidir. Bu yondashuv yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi muammolarni erta aniqlash, ularning qiziqishlarini o‘rganish va ta’lim samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Big Data texnologiyalari bilan esa katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkoni mavjud, bu bilan ta’lim analitikasining samaradorligini yanada oshirishga erishiladi.

Zamonaviy LMS platformalari foydalanuvchilarning tizimdagi har bir harakatini qayd etib boradi. Masalan, talabaning platformaga kirish vaqti, o‘quv materiallarini ko‘rish davomiyligi, topshiriqlarni bajarish holati, test natijalari hamda forumlardagi faolligi haqidagi kabi ma’lumotlarni shakllantiradi. Ushbu ma’lumotlar Big Data texnologiyalari yordamida tahlil qilinadi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi hamda o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Natijada o‘qituvchi ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Big Data asosidagi ta’lim analitikasining muhim afzalliklaridan yana biri - adaptiv ta’lim muhitini yaratish imkoniyati. Adaptiv ta’limda tizim o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o‘quv faoliyatiga mos ravishda individual o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Masalan, o‘quvchi ma’lum bir mavzuda qiyinchilikka duch kelsa, tizim unga qo‘shimcha videodarslar, testlar yoki amaliy mashqlarni taklif etishi mumkin. Bu albatta bilimlarni samarali o‘zlashtirish va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, Big Data texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning akademik natijalarini prognoz qilish imkoniyati ham bor. Ya’ni ma’lumotlar tahlili asosida o‘quvchilarning kelgusidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, fanlarga qiziqishi yoki ta’limdagi muammolari oldindan aniqlanishi mumkin. Bu kabi prognozlash mexanizmlari o‘qituvchilarga pedagogik strategiyalarni to‘g‘ri tanlash va o‘quvchilarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish imkonini ta’minlaydi.

Big Data asosidagi ta’lim analitikasi ta’lim muassasalarini boshqarishda ham muhim vosita sanaladi. Negaki unda, ta’lim muassasalari o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini, fanlar bo‘yicha natijalarni, o‘qituvchilar faoliyatini hamda ta’lim resurslaridan foydalanish darajasini tahlil qilishi mumkin. Bu esa boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishga imkon beradi. Natijada ta’lim sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va o‘quv jarayonini optimallashtirish yanada qulaylashadi.

Ammo Big Data texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun yuqori texnik infratuzilma talab qilinadi. Shuningdek, ma’lumotlarning maxfiyligi va axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari ham juda dolzarb hisoblanadi. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoyalash, ulardan qonuniy va etik me’yorlar asosida foydalanish ta’lim analitikasining asosiy talablaridan biridir.

Umuman olganda, Big Data asosidagi ta’lim analitikasi zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim innovatsion yo‘nalishlardan biri hisoblanib, ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning faoliyatini chuqur tahlil qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi. Shu sababli ham Big Data texnologiyalarini bulutli ta’lim muhitiga integratsiya qilish va ularning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Taklif etilayotgan ta’lim modeli. Raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanar ekan, shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot doirasida bulutli texnologiyalar va Big Data asosida ishlovchi integratsiyalashgan ta’lim modeli taklif etish mumkin. Ushbu modelning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini raqamlashtirish, ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish hamda o‘quvchilarga individual yondashuv asosida yuqori sifatli ta’lim muhitini yaratishdan iborat bo‘ladi.

Taklif qilinayotgan model bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir nechta komponentlardan tashkil topadi. Model markazida ta’lim oluvchi va o‘qituvchi faoliyati turadi. Ta’lim oluvchilar ta’lim platformalari orqali elektron resurslardan foydalanadi, topshiriqlarni bajaradi, onlayn testlarda ishtirok

etadi hamda virtual muhitda muloqot qiladi. O‘qituvchi esa o‘quv jarayonini boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish funksiyalarini bajaradi.

Modelning texnologik asosini LMS (Learning Management System) platformalari tashkil etadi. Moodle, Google Classroom yoki Microsoft Teams kabi platformalar orqali o‘quv materiallari joylashtiriladi, topshiriqlar taqdim etiladi va o‘quvchilarning faoliyati monitoring qilinadi. Ushbu platformalarda shakllangan ma’lumotlar bulutli serverlarda saqlanadi va qayta ishlanadi. Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishi, tezkor almashinuvi hamda masofadan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi.

Modelning muhim tarkibiy qismi Big Data analitika tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘quvchilarning platformadagi faolligi, test natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini avtomatik tarzda tahlil qiladi. Tahlil natijalari asosida tizim o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlaydi hamda ularga mos tavsiyalar ishlab chiqadi. Masalan, o‘quvchi ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelsa, tizim unga qo‘shimcha o‘quv materiallari, videodarslar yoki amaliy mashqlarni tavsiya etadi.

Taklif etilayotgan model adaptiv ta’lim tamoyiliga asoslanadi. Adaptiv ta’lim o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyati va o‘zlashtirish darajasiga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv yordamida har bir o‘quvchi o‘zining bilim darajasiga mos topshiriqlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim samaradorligi ortib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Mazkur modelda sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi. Sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, ularning qiziqishi va o‘quv faoliyatidagi muammolarini aniqlaydi. Shu asosda individual tavsiyalar shakllantiriladi va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelning yana bir muhim jihati - ta’lim jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatidir. O‘qituvchi o‘quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini doimiy kuzatib borishi mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonidagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va pedagogik choralarni tezkor qo‘llash imkonini beradi.

Shuningdek, model ta’lim muassasalari uchun boshqaruv samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim jarayoniga oid statistik ma’lumotlar asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ta’lim sifatini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Natijada raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun mustahkam asos yaratiladi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan bulutli texnologiyalar va Big Data asosidagi ta’lim modeli o‘quv jarayonining moslashuvchanligi, interaktivligi va samaradorligini oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur model zamonaviy raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, ta’lim sifatini yaxshilash hamda o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy ta'limda kreativ kompetentlikning ahamiyati shundaki, u pedagogning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. Kreativ kompetent pedagog o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga tezkor yechim topadi, dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanadi, interfaol metodlarni to'g'ri tanlaydi, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi va ularni faol fikrlashga undaydi. Bunday pedagog ta'lim oluvchilarda faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki mustaqil izlanish, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va ijodiy mahsulot yaratish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni shakllantirish oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, mustaqil ta'lim, loyiha ishlari, tadqiqot faoliyati, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ijodiy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, debat, klaster, aqliy hujum, rolli o'yinlar, refleksiv topshiriqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim muhitining ham alohida ahamiyati bor. Erkin fikr bildirish, savol berish, izlanish, tajriba qilish, xato qilishdan qo'rqmaslik va o'z g'oyasini himoya qilish imkoniyati yaratilgan ta'lim muhiti talabalarni faol ijodiy faoliyatga undaydi. Aksincha, faqat tayyor bilimlarni yodlashga asoslangan, talabaning mustaqil fikrini cheklaydigan muhit kreativ kompetentlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish ularning kasbiy motivatsiyasi, pedagogik qiziqishi va o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. Talaba o'z kasbining jamiyatdagi o'rnini chuqur anglaganida, pedagogik faoliyatga mas'uliyat bilan yondashganida va yangilikka intilganida uning kreativ salohiyati yanada rivojlanadi. Demak, kreativ kompetentlik nafaqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi, balki shaxsiy sifatlar, kasbiy qadriyatlar, motivatsiya va ijodiy faoliyat tajribasi bilan uzviy bog'liq jarayondir.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda kreativ kompetentlik shaxsning ijodiy fikrlashi, yangicha g'oyalar ishlab chiqishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashishi, mavjud bilim va tajribani yangi sharoitlarda qo'llay olishi hamda pedagogik jarayonda innovatsion yechimlar topa olishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun kreativ kompetentlik kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki o'qituvchi ta'lim jarayonida turli qobiliyat, ehtiyoj va qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlaydi.

Jahon pedagogik adabiyotlarida kreativlik masalasi dastlab shaxsning divergent tafakkuri, ya'ni bir muammoga turli xil yechimlar topa olish qobiliyati bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Bu yondashuvga ko'ra, kreativ fikrlash oddiy takrorlash yoki tayyor namunaga asoslangan faoliyat emas, balki yangi fikr, yangi usul va yangi natija yaratishga qaratilgan intellektual jarayondir. OECD tomonidan PISA 2022 doirasida kreativ fikrlash o'quvchilarning turli va original g'oyalar yaratishi, shuningdek, g'oyalarni baholash va takomillashtirish qobiliyati sifatida izohlangan. Bu yondashuv

kreativ kompetentlikni faqat san'at yoki ijodiy faoliyat bilan cheklamasdan, uni yozma ifoda, vizual ifoda, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarga yechim topish kabi keng sohalarda namoyon bo'ladigan kompetensiya sifatida talqin qiladi.

Torrance tadqiqotlarida kreativ tafakkurni baholashda ravonlik, originallik, batafsil ishlab chiqish, mavhum nomlash va yakuniy xulosaga shoshilmaslik kabi mezonlar muhim hisoblanadi. Bu mezonlar bo'lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ravonlik talabada bir vaziyatga nisbatan ko'p g'oya ishlab chiqish qobiliyatini, originallik noodatiy va yangicha yechim topishni, batafsil ishlab chiqish esa g'oyani amaliy natijaga aylantirishni anglatadi. Demak, pedagogik ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlar, muammoli savollar, loyihaviy ishlar va amaliy vaziyatlar orqali ushbu sifatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin.

T. Amabile tomonidan ilgari surilgan kreativlik nazariyasida ijodiy natija uchta ichki omil - sohaga oid bilim va ko'nikmalar, kreativ jarayonlar hamda ichki motivatsiya bilan, shuningdek, tashqi muhit bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu nazariya bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki talaba faqat nazariy bilimga ega bo'lishi bilan kreativ pedagog bo'lib shakllanmaydi; u o'z bilimini yangi vaziyatda qo'llay olishi, ijodiy fikrlash usullarini egallashi va pedagogik faoliyatga ichki qiziqish bilan yondashishi zarur. Shuningdek, oliy ta'lim muhitida talabaga erkin fikr bildirish, tajriba qilish, mustaqil qaror qabul qilish va yangilik yaratish imkoniyati berilishi uning kreativ kompetentligini rivojlantiradi.

Pedagogik adabiyotlarda kreativ kompetentlik innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, "aqliy hujum", debat, klaster, rolli o'yinlar va refleksiv topshiriqlar talabalarning ijodiy fikrlashini faollashtiruvchi vositalar sifatida baholanadi. Bunday metodlar bo'lajak pedagoglarni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, tahlil qiladigan, yangi pedagogik g'oyalar ishlab chiqadigan va o'z faoliyatini baholay oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Ilmiy manbalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim muhitining o'rni ham alohida ta'kidlanadi. Erkin, ochiq, hamkorlikka asoslangan va innovatsion ta'lim muhiti talabalarda ijodiy tashabbusni kuchaytiradi. Aksincha, faqat yodlash, tayyor javobni takrorlash va bir xil metodlarga asoslangan ta'lim jarayoni kreativlikning rivojlanishini cheklaydi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda o'quv jarayoni ijodiy izlanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil loyiha yaratish va refleksiv fikrlashga yo'naltirilishi lozim.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetentlik pedagogik faoliyatning muhim kasbiy sifati sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ kompetentlik faqat ijodiy fikrlash qobiliyati bilan cheklanmaydi, balki pedagogning yangi pedagogik vaziyatlarga moslasha olishi, o'quv jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishi, ta'lim oluvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltirishi va dars jarayonida noodatiy yechimlarni qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bir nechta omillar bilan bevosita bog'liq. Bular orasida ta'lim muhiti, pedagogik motivatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mustaqil ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, refleksiv fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijodiy topshiriqlar alohida o'rin tutadi. Ushbu omillar o'zaro uyg'unlashganda talabalarning kreativ salohiyati izchil rivojlanadi.

Birinchidan, ta'lim muhiti bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Erkin fikr bildirish, savol berish, muhokama qilish, o'z g'oyasini himoya qilish va yangi yechimlarni sinab ko'rish imkoniyati mavjud bo'lgan ta'lim muhiti talabalarni faol ijodiy faoliyatga undaydi. Aksincha, faqat tayyor bilimlarni yodlashga asoslangan ta'lim jarayoni talabalarning tashabbuskorligi va ijodiy fikrlashini cheklaydi.

Ikkinchidan, pedagogik motivatsiya kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim ichki omil hisoblanadi. Talaba pedagoglik kasbining mazmuni, jamiyatdagi ahamiyati va kelajakdagi mas'uliyatini chuqur anglagan sari uning kasbiy qiziqishi ortadi. Kasbiy motivatsiyaga ega bo'lgan bo'lajak pedagog yangilikka intiladi, o'z ustida ishlaydi, zamonaviy metodlarni o'rganadi va o'quv jarayonini ijodiy tashkil etishga harakat qiladi.

Uchinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalar kreativ kompetentlikni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, debat, "aqliy hujum", klaster, rolli o'yinlar, interfaol mashqlar va refleksiv topshiriqlar talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoni turli tomondan tahlil qilishga va original yechimlar ishlab chiqishga o'rgatadi. Bunday metodlar talabaning dars jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Muhokama. Bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki bugungi ta'lim jarayoni o'qituvchidan faqat tayyor bilimlarni yetkazishni emas, balki ta'lim oluvchilarning fikrlashini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish, yangilik yaratishga undash va turli pedagogik vaziyatlarda ijodiy yechim topishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan kreativ kompetentlik bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligida asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlikning shakllanishi birgina nazariy bilimlar bilan cheklanmaydi. Talaba pedagogik nazariyani bilishi bilan birga, uni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi, dars jarayonini ijodiy loyihalashi, o'quvchilarning qiziqishi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda metod tanlay olishi zarur. Demak, kreativ kompetentlik bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya, refleksiya va ijodiy tajribaning uyg'unligida shakllanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Erkin fikr bildirish, savol berish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhda ishlash, loyiha yaratish va o'z g'oyasini himoya qilish imkoniyati mavjud bo'lgan muhit talabalarning ijodiy faolligini oshiradi. Aksincha, faqat ma'ruzani tinglash, tayyor ma'lumotni yodlash va bir xil topshiriqlarni bajarishga asoslangan ta'lim jarayoni kreativ fikrlashni yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik motivatsiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog o'z kasbining jamiyatdagi ahamiyatini chuqur anglaganida, o'qituvchilik faoliyatiga qiziqish bilan yondashganida va yangilikka intilganida uning ijodiy salohiyati faolroq namoyon bo'ladi. Kasbiy motivatsiyasi kuchli bo'lgan talaba mustaqil izlanadi, ilg'or tajribalarni o'rganadi, yangi metodlarni sinab ko'radi va o'z pedagogik qarashlarini shakllantiradi.

Muhokamada yana bir muhim jihat shuki, kreativ kompetentlik innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan bevosita bog'liq. Muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, "aqliy hujum", debat, rolli o'yinlar, klaster, refleksiv topshiriqlar va raqamli texnologiyalar talabalarni faol fikrlashga undaydi. Ushbu metodlar orqali bo'lajak pedagog muammoni turli tomondan ko'rish, original yechim topish, jamoada ishlash, fikrini asoslash va pedagogik vaziyatga mos qaror qabul qilishni o'rganadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi ham kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar, virtual darslar, sun'iy intellekt vositalari va raqamli resurslar bo'lajak pedagogga darsni yangicha tashkil etish imkonini beradi. Biroq bu jarayonda raqamli texnologiya maqsad emas, balki pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanishi lozim. Texnologiyadan samarali foydalanish uchun talaba nafaqat texnik ko'nikmaga, balki metodik va ijodiy yondashuvga ham ega bo'lishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, yangilik yaratishga va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topishga yo'naltirishni talab etadi. Shu sababli kreativ kompetentlik bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligida muhim sifat ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlikni rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u ta'lim muhiti, pedagogik motivatsiya, innovatsion metodlar, mustaqil ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, refleksiv fikrlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liq. Ushbu omillar uyg'un holda tashkil etilganda bo'lajak pedagoglarda ijodiy fikrlash, nostandart yondashuv, yangilikka intilish va kasbiy moslashuvchanlik shakllanadi.

Bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlar, loyiha ishlari, muammoli ta’lim, keys-stadi, debat, “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Bunday yondashuvlar talabalarni passiv tinglovchi emas, balki mustaqil izlanadigan, tahlil qiladigan, fikr bildiradigan va ijodiy yechimlar ishlab chiqadigan faol subyekt sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogning shaxsiy sifatlari ham muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya, tashabbuskorlik, yangilikka ochiqlik, o‘z ustida ishlash, tanqidiy va refleksiv fikrlash bo‘lajak pedagogning ijodiy salohiyatini oshiradi. Shu bois oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarga erkin fikr bildirish, tajriba qilish, ijodiy topshiriqlar bajarish va o‘z g‘oyalarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatlari yaratilishi zarur.

Umuman olganda, bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik faoliyatga tayyor mutaxassislarni shakllantirish va zamonaviy jamiyat talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Kreativ kompetentlikka ega pedagog kelajakda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantiradi, dars jarayonini mazmunli va samarali tashkil etadi hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha pedagogik yondashuvlarni olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. - Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. - Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
6. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
7. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2013.
8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart, 2015.
9. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
10. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006.

Hakimova Mushtariybonu Hamidovna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi
Jismoniy madaniyat talabasi
E-mail: m.hakimova@gmail.com

XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq pedagogikasi an’analari, urf-odatlari va og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy tarbiyani shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Muallif tarixiy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilib, milliy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo‘llarini yoritib beradi. Maqolada komil inson shaxsini shakllantirishda ajdodlar merosining o‘rni va bugungi kun pedagogikasidagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq pedagogikasi, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, barkamol avlod, an’analar, pedagogik yondashuv, ta’lim-tarbiya.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. *В данной статье исследуются научно-теоретические основы формирования национального воспитания подрастающего поколения на базе традиций, обычаев и устного народного творчества народной педагогики. Автор проводит сравнительный анализ исторических и современных педагогических подходов, освещая эффективные пути интеграции национальных ценностей в учебно-воспитательный процесс. В статье обосновывается роль наследия предков в формировании гармонично развитой личности и его значение в современной педагогике.*

Ключевые слова: *народная педагогика, национальное воспитание, национальные ценности, духовное наследие, гармоничное поколение, традиции, педагогический подход, обучение и воспитание.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF FORMING NATIONAL EDUCATION BASED ON FOLK PEDAGOGY

Abstract. *This article examines the scientific and theoretical foundations of shaping the national education of the younger generation based on the traditions, customs, values, and folklore of folk pedagogy. Through a comparative analysis of historical and contemporary pedagogical concepts, the author highlights effective ways to integrate folk heritage into the modern educational process. The paper comprehensively substantiates the role of ancestral spiritual heritage in developing a well-rounded personality and its practical significance for today's educational system.*

Key words: *folk pedagogy, national education, national values, spiritual heritage, well-rounded generation, traditions, pedagogical approach, mentality, generational continuity.*

Kirish. Jahonda bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan axborot oqimi, vertuallashish millat va ellatlarni madaniy uyg‘unlashuvini namoyon qilayotir, odamlar orasidagi marginallashuv kabi jihatlar asosida yuzaga kelayotgan ijtimoiy psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatida uning axloqi, ta’lim-tarbiyasini oshirishda ijtimoiy o‘zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida alohida e’tibor qaratilgan. Unda milliy tarbiya, axloq va milliy qadriyat masalasi alohida dolzarb vazifa

etib belgilangan. Qolaversa mazkur masala bo‘yicha BMTning 2019-yil 25-iyuldagi Bosh assambleyasining 73-Sessiyasida 5-aprelni Xalqaro axloq kuni deb taklif qilindi va axloq kunini nishonlash butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik va unga erishish uchun tinchlik, bag‘rikenglik, birdamlik, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash yo‘lida xalqaro hamjamiyat sa’yi-harakatlarini doimiy safarbar etish vositasi ekanligiga alohida e’tibor qaratdi, Shu bois hozirda tarbiyaning tayanch mezonlari va ijtimoiy-psixologik omillari masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” g‘oyasi, shuningdek, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan konsepsiya va strategik hujjatlarda milliy tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur hujjatlarda yosh avlodning milliy o‘zligini anglash, tarixiy merosga hurmat, xalqning urf-odat va an’analariga sodiqlik ruhida tarbiyalanishi ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifasi sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda xalq pedagogikasining boy tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi jarayonlari sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ta’lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortishi, madaniyasiz omillarning yoshlar ongiga ta’siri kuchayib borayotgan bir davrda ularni milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barkamollik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash zarurati yana-da ortmoqda. Bu jarayonda xalq pedagogikasi boy meros sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan aksariyat chiqishlarida “Har bir ishning ilmi bor”, deb ta’kidlaydilar. Tarbiyaning ham ilmi bor. Uning nomi – pedagogika va bugungi kunda psixologiya fani predmetiga ham aylanib ulgirdi. Ayniqsa farzand tarbiyasi masalasida ota-onalarning bilimlari puxta, amaliy bo‘lishi - millatimiz uchun hayot-mamot masalasi. Zero bu davrda 20 yildan keyin keladigan avlod qanday bo‘lishi hal qilinadi. Shuningdek milliy tarbiya masalasiga qaratilgan tadqiqotlarimiz va davlatimiz rahbarining tarbiya masalasiga bag‘ishlangan chiqishlari, nutqlari va asarlarida milliy tarbiya ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Ya’ni tarbiya orqali milliy o‘zlikni anglash mumkin, milliy o‘zlikni anglash orqali shaxs milliy xarakteri, milliy qadriyatlari, milliy an’analarini bilish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi - Xalq pedagogikasi an’analari, milliy qadriyatlar va og‘zaki ijod namunalari asosida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda milliy tarbiyani zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xalq pedagogikasi asosida milliy tarbiyani shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining kesishish nuqtasida turgan eng murakkab va ayni paytda eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Turli davrlar va turli ilmiy maktablar vakillari tomonidan mazkur muammo turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, ularning barchasi xalq pedagogikasini yosh avlodning ma’naviy-axloqiy poydevori sifatida e’tirof etishda yakdil fikr bildiradilar. Xususan, klassik etnopedagogik yondashuvlarda G.N. Volkov xalq pedagogikasini xalqning ijtimoiy tajribasini avloddan-avlodga uzatuvchi genetik mexanizm sifatida baholaydi. Uning fikricha, milliy tarbiya shunchaki ta’lim jarayoni emas, balki xalqning tarixi, ruhiyati va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan tizimdir. O‘zbek pedagogikasi doirasida K.Hoshimov va S.Nishonova izlanishlari ushbu nazariyani milliy kontekstda boyitib, xalq og‘zaki ijodi namunalarining (maqol, matal, doston) o‘smir shaxsining axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi tarbiyaviy imkoniyatlarini dalillab berdi. Olimlar xalq pedagogikasini nafaqat madaniy meros, balki zamonaviy ta’lim standartlariga mos keluvchi samarali pedagogik vosita deb hisoblaydilar.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, milliy tarbiya masalalari shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. E.G‘oziev va V.Karimova kabi olimlarning fundamental ishlarida milliy identifikatsiya, shaxsning o‘zligini anglashi va ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi markaziy o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘smirlik davrida shaxs atrofdagi

muhit va milliy qadriyatlar bilan faol identifikatsiya jarayoniga kirishadi. Bu jarayonda xalq pedagogikasi vositalari “interiorizatsiya” – ya’ni tashqi axloqiy me’yorlarning ichki shaxsiy e’tiqodga aylanishi – uchun muhim katalizator vazifasini o‘taydi. Zamonaviy tadqiqotchilar esa ushbu nazariyani amaliyotga yaqinlashtirib, ijtimoiy ustanovkalarning shakllanishida milliy qadriyatlarning motivatsion rolini alohida ta’kidlaydilar. M.G. Hasanov kabi mualliflar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar tizimi o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda vatanparvarlik va axloqiy barqarorlikni ta’minlashda tayanch nuqta hisoblanadi. Xalqaro miqyosdagi zamonaviy tadqiqotlarda “etnik madaniyat” va “axloqiy rivojlanish” uyg‘unligi kross-madaniy yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi. Ko‘pgina xorijiy olimlar milliy an’analarning yoshlar ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganishar ekan, qadriyatlar tizimining barqarorligi shaxsning stresslarga chidamliligi va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishini qayd etishadi. Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar ko‘proq nazariy-pedagogik xarakterga ega bo‘lib, xalq pedagogikasining yoshlarga bevosita psixologik ta’sir mexanizmlarini (masalan, qadriyatlar va ijtimoiy ustanovkalarni) o‘lchashga qaratilgan kompleks empirik tahlillar hali ham yetarlicha emas. Aynan shu nuqtada, S.S. Bubnova, N.E. Shchurkova va O.F. Potyomkina kabi metodikalar asosida olib boriladigan diagnostika ishlari va ularning xalq pedagogikasi vositalari bilan integratsiyasi tadqiqotning yangilik darajasini belgilaydi. Bu yondashuv nafaqat an’anaviy tarbiya metodlarini, balki zamonaviy psixodiagnostik instrumentariyni birlashtirib, yosh avlodning milliy identifikatsiyasi va axloqiy kamolotini ilmiy-asoslangan holda baholashga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi va milliy tarbiya bo‘yicha to‘plangan ilmiy boyliklar bugungi kun talablari darajasida yangi integrativ yondashuvlarni talab qiladi, bu esa mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasi shunchaki “o‘tmish an’anasi” emas, balki shaxsning axloqiy, kognitiv va emotsional rivojlanishini boshqaruvchi psixologik tizimdir. Uni zamonaviy diagnostik metodikalar (Bubnova, Shchurkova, Potyomkina) bilan boyitish, o‘smirlarning milliy tarbiyalanganlik darajasini nafaqat nazariy baholash, balki uni samarali rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda xalq pedagogikasi asosida milliy tarbiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Kuzatuv metodi. Kuzatuv metodi tadqiqotchiga o‘quvchilarning real interpersonal munosabatlari, kommunikativ reaksiyalari va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini sun’iy aralashuvsiz tahlil qilish imkonini beradi. Kuzatish jarayonida o‘quvchilarning sinfdagi kommunikativ faolligi, milliy qadriyatlarga munosabati, milliy bayram va marosimlardagi ishtiroki, kattalarni hurmat qilish kabi ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratildi. Kuzatishlar asosan dars jarayonida, tanaffus vaqtida hamda milliy bayramlarga bag‘ishlangan tadbirlar davomida olib borildi. Mazkur metod yordamida olingan ma’lumotlar keyingi psixodiagnostik tadqiqotlar uchun dastlabki empirik asos vazifasini bajardi.

So‘rovnoma. So‘rovnoma respondentlarning milliy qadriyatlarga munosabati, ularni bilish darajasi va kundalik hayotida qo‘llash chastotasini o‘rganish maqsadida qo‘llanildi. So‘rovnoma Likert shkalasi asosida tuzilgan bo‘lib, unda respondentlar “to‘liq qo‘shilaman” (5 ball) dan “umuman qo‘shilmayman” (1 ball) gacha bo‘lgan javob variantlari orqali o‘z munosabatlarini ifodaladilar.

Suhbat metodi. Suhbat metodi yordamida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan subyektiv munosabatlari, xalq pedagogikasi vositalariga qiziqishlari hamda tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlari tahlil qilindi. Suhbatlar individual va guruhiy shaklda tashkil etildi. Ushbu metod o‘quvchilarning ichki emosional kechinmalari, milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasi va kommunikativ xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Test. Test respondentlarning milliy qadriyatlar haqidagi bilimlari, milliy identifikatsiyasi va ijtimoiy ustanovkalarini o‘lchash maqsadida qo‘llanildi.

Trening. Tarbiyaviy treninglar o‘tkazilib, ular davomida xalq pedagogikasi vositalari (maqollar, ertaklar, xalq o‘yinlari) orqali respondentlarning milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasi oshirildi.

Pedagogik eksperiment. Tadqiqotning asosiy metodi sifatida konstatatsiya (aniqlovchi), formativ (shakllantiruvchi) va nazorat bosqichlaridan iborat bo‘lgan pedagogik eksperiment tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: konstatatsiya (aniqlovchi) bosqichi, formativ (shakllantiruvchi) bosqich va nazorat bosqichi.

Konstatatsiya (aniqlovchi) bosqichi. Ushbu bosqichda respondentlarda milliy tarbiyaning dastlabki darajasi aniqlab olindi. Buning uchun quyidagi psixodiagnostik metodikalar qo‘llanildi: “Shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanganligi” metodikasi (N.E.Shchurkova), S.S.Bubnovaning “Shaxs qadriyatlar yo‘nalishlarining real tuzilishini diagnostika qilish” metodikasi, O.F.Potyomkinaning “Ijtimoiy ustanovkalar” metodikasi, “O‘smirlarda milliy tarbiyaning pedagogik-psixologik ko‘rsatkichlarini aniqlash” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi (IPS). Konstatatsiya bosqichi natijalariga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi va ularning tenglashtirilganligi isbotlandi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ishlab chiqilgan “Milliy meros – shaxs kamolotining ma’naviy poydevori” pedagogik-psixologik mashg‘ulotlar dasturining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Ushbu bosqichda kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba-sinov hamda psixodiagnostik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida o‘smir o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni qabul qilish, irodaviy sifatlar va empatik reaktivlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.

Yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ichkilashtirish va irodaviy sifatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasining tarbiyaviy vositalaridan foydalanish samarali pedagogik strategiya hisoblanadi. Biroq bunday tarbiyaviy ta’sirning psixologik asoslari – ya’ni qadriyatlarning shaxsning ichki dunyosiga singishi, hissiy kechinmalar bilan bog‘lanishi, irodaviy harakatga aylanishi – alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida “Milliy meros – shaxs kamolotining ma’naviy poydevori” nomli pedagogik-psixologik mashg‘ulotlar dasturi ishlab chiqildi. Dastur xalq pedagogikasining tarbiyaviy an’analari (maqollar, ertaklar, shajara, udumlar, ustoz-shogird munosabatlari) bilan zamonaviy psixologik usullar (art-terapiya, refleksiv yozuv, case-study, simulyatsiya, meditativ hikoyalar)ni uyg‘unlashtirgan holda tuzilgan.

Jadval-1.

“Shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanganligi” metodikasi (N. E. Shchurkova) (n=80)

№	Shkalalar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		t-empirik qiymat
		M	SD	M	SD	
1	Ijtimoiy-axloqiy shkalasi	14,5	3,2	19,8	2,5	2,00
2	Egotsentrik shkalasi	18,2	3,5	12,4	2,8	2,65
3	Impulsiv-vaziyatli shkalasi	16,8	3,8	15,2	3,0	1,25

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, trening dasturidan so‘ng sinaluvchilarning ma’naviy-axloqiy va psixologik xususiyatlarida ijobiy tomonga sezilarli natijalar kuzatildi:

Ijtimoiy-axloqiy shkala bo‘yicha: Tajribadan oldingi o‘rtacha ko‘rsatkich M=14,5 (SD=3,2) ni tashkil etgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich M=19,8 (SD=2,5, $p<0,05$) gacha ko‘tarildi.

Egotsentrik shkala bo‘yicha: Mashg‘ulotgacha bo‘lgan davrda subyektlarda o‘ziga bino qo‘yish va faqat shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yish tendensiyasi ancha yuqori bo‘lib, o‘rtacha qiymat M=18,2 (SD=3,5) ni ko‘rsatgan. Trening yakunida esa ushbu ko‘rsatkich M=12,4 (SD=2,8) gacha pasaygan ($p<0,01$). Bu pasayish dasturdagi “Empatiya maktabi” simulyatsiyalari va rolli o‘yinlar orqali talabalarda boshqalarning holatini tushunish, rahm-shafqat va ijtimoiy yo‘naltirilgan xulq-atvorning shakllanganligidan dalolat beradi.

Impulsiv-vaziyatli shkala bo‘yicha: Dastlabki ko‘rsatkich M=16,8 (SD=3,8) dan tajribadan keyingi M=15,2 (SD=3,0) qiymatgacha biroz pasayish tendensiyasi aniqlandi. Garchi ushbu shkala bo‘yicha statistik farq ($p>0,05$) qolgan ko‘rsatkichlardek keskin bo‘lmasa-da, baribir ijobiy dinamika mavjud. Bu holat talabalarning vaziyatli emotsional reaksiyalardan irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish

hamda frustratsiyaga bardoshlilik (frustration tolerance) mexanizmlariga o‘ta boshlaganini ko‘rsatadi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalari xalq pedagogikasi asosida tuzilgan mashg‘ulotlar dasturi o‘quvchilarning milliy tarbiyaviy qarashlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini namoyon etdi. Kuzatish va suhbat metodlari asosida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba guruhi o‘quvchilarida dastlabki bosqichlarda ajdodlar merosiga nisbatan befarqlik, qadriyatlar haqidagi bilimlarning yuzakiligi va tengdoshlar bilan muloqotda hurmat me’yorlarining yetarli emasligi kabi holatlar kuzatilgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan so‘ng ushbu ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Xususan, “Ajdodlar merosi”, “Qadriyatlar lug‘ati”, “Mening shajaram” kabi kognitiv-ma’rifiy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qildi. “Hissiyotlar ko‘zgusi”, “Empatiya maktabi”, “Iroda sinovi” kabi emotsional-irodaviy blokdagi treninglar esa ishtirokchilarning hissiyotlarini boshqarish, sabr-toqat va boshqalarning fikrini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. “Ustoz-shogird tajribasi” va “Yoshlar loyihasi” kabi faoliyatli-amaliy mashg‘ulotlar esa o‘quvchilarda milliy qadriyatlar asosida loyihalar yaratish va amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirdi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘quvchilarida mashg‘ulotlardan so‘ng milliy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvor reaksiyalarining kuchayishi, tengdoshlar bilan konstruktiv muloqotning shakllanishi hamda empatik reaksiyalarning rivojlanishi kuzatildi. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘zgarishlar deyarli qayd etilmadi. Ayniqsa, mashg‘ulotlar ikki marta takroriy tarzda o‘tkazilganligi natijalarning barqarorligini ta’minladi va ijobiy siljishlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan psixodiagnostik metodikalar asosida olingan ma’lumotlar ham ishlab chiqilgan dastur samaradorligini tasdiqladi. Statistik tahlil (Student t-mezoni) yordamida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi aniqlandi. Tajriba guruhining barcha o‘lchangan ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha qiymatlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, t-hisob qiymatlarining t-jadval qiymatidan katta bo‘lganligi bu farqlar tasodifiy emasligini ko‘rsatdi.

Empirik natijalar xalq pedagogikasi asosida milliy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik mashg‘ulotlar dasturining amaliy samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni qabul qilish, irodaviy sifatlar va empatik reaktivlikni rivojlantirish orqali sog‘lom ma’naviy dunyo va barqaror interpersonal munosabatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Dasturning modulli tuzilishi, xalq pedagogikasi vositalari bilan zamonaviy psixologik usullarning uyg‘unlashuvi milliy tarbiyaning yuksak natijalarini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholandi.

Xulosa. Xalq pedagogikasi asosida yosh avlod milliy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari nazariy va empirik jihatdan tadqiq etildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xalq pedagogikasi vositalarining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rnini ochib berish, milliy tarbiyani rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda ushbu vositalar asosida samarali mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini eksperimental tarzda asoslashdan iborat bo‘ldi.

Nazariy tahlillar natijasida xalq pedagogikasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va tarbiyaviy imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Aniqlanishicha, xalq pedagogikasi jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivoji bilan bog‘liq holda shakllangan, avloddan avlodga og‘zaki va amaliy yo‘llar bilan o‘tib kelayotgan ta’lim-tarbiya tajribasining yaxlit tizimi hisoblanadi. Uning pedagogik mohiyati sintezlik, empirik tajribaga asoslanganlik, ijtimoiy va oilaviy tarbiyada bevosita qo‘llanishga yo‘naltirilganlik hamda yosh va ijtimoiy mavqega qarab tabaqalashtirilgan tarbiya usullarining mavjudligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Xalq pedagogikasining asosiy tarkibiy qismlari – maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlar, termalar, o‘yinlar, marosim qo‘shiqlari, mehnat an’analari va oilaviy odatlar – yosh avlodga “yaxshilik – yomonlik”, “haq – batil”, “mehnat – yalqovlik”, “odob – beadablik” kabi dixotomik qarama-qarshiliklar asosida axloqiy mezonlarni singdiradi. Ilmiy pedagogika tizimli, nazariy asoslangan va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, xalq pedagogikasi uning amaliy-empirik poydevori va milliy o‘ziga xoslikning asosiy kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan xalq pedagogikasiga murojaat qilmasdan turib, milliy tarbiyaning samarali modelini yaratish mumkin emas.

Tahlillar davomida K.D.Ushinskiy, E.Dyurkgeym, I.G.Pestalotssi, M.Qoshjonov, Q.Hoshimov, B.Qodirov, B.Sarimsoqov, N.Borozna, D.B.Elkonin kabi olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganildi. Ularning asarlari xalq pedagogikasining yosh avlod ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sirining nazariy-metodologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida xalq pedagogikasining merosidan unumli foydalanish va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa ekanligi belgilandi.

Yosh avlodning milliy qadriyatlarni qabul qilishining psixologik mexanizmlari alohida tahlil qilindi. L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, A.Bandura, E.Erikson, J.Piaje kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanib, internalizatsiya, identifikatsiya, imitatsiya, emotsional ta’sir, refleksiya va ijtimoiy ustanovka mexanizmlari milliy qadriyatlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirilishining muayyan bosqichlari sifatida tavsiflandi. Ushbu mexanizmlar yosh davrlari bilan bog‘liq holda turlicha nisbatda namoyon bo‘lishi va ularni bilish milliy tarbiyani loyihalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi. Xalq pedagogikasi vositalari aynan shu mexanizmlarni faollashtirish orqali yosh avlodning milliy o‘zligini anglashi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ichkilashtirishi va ular asosida barqaror xulq-atvor shakllarini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir axloqiy ong va tafakkurni shakllantirish, axloqiy his-tuyg‘ularni rivojlantirish, axloqiy xulq-atvor ko‘nikmalarini tarkib toptirish hamda milliy o‘zlikni anglash va iftixorni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqilgan “Milliy meros – shaxs kamolotining ma’naviy poydevori” dasturi yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni qabul qilish, irodaviy sifatlar va empatik reaktivlikni rivojlantirish orqali sog‘lom ma’naviy dunyo va barqaror interpersonal munosabatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent : O‘zbekiston, 2023. – 80 b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (PF–158) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 2023.

3.Jabborov, X. X. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari / X. X. 4.Jabborov. Toshkent : Bookmany Print, 2025. 252 b.

5.Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch / I. A. Karimov. Toshkent : Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

6.Mutalipova, M. J. Xalq pedagogikasi : o‘quv qo‘llanma / M. J. Mutalipova. Toshkent : Fan va texnologiya, 2015. – 160 b.

7.Nafasov, D. Sh., Xodjaniyazova, R. A., Ahmedova, G. F. va boshq. Xalq pedagogikasi : darslik / D. Sh. Nafasov, R. A. Xodjaniyazova, G. F. Ahmedova va boshq. Toshkent : Bookmany Print, 2025. 310 b.

8.Qodirov, B. Xalq pedagogikasi / B. Qodirov. Toshkent : Fan, 2019. 240 b.

9.Бубнова, С. С. Методика диагностики реальной структуры ценностных ориентаций личности / С. С. Бубнова // Психологическая диагностика. 2002. № 3. С. 25–38.

10.Выготский, Л. С. Психология / Л. С. Выготский. Москва : ЭКСМО-Пресс, 2000. 1008 с.

11.Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action : A Social Cognitive Theory / A. Bandura. Englewood Cliffs, NJ : Prentice-Hall, 1986. 617 p.

G‘ayratov Shaxzodbek Otabek o‘g‘li
Tashkent State University of Humanities
Student of the Philology and Language Teaching (Arabic) programme

THE NOUN (ISM) IN ARABIC SYNTAX AND THE NOUN WORD CLASS IN UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract. *This article comparatively examines the category of “ism” (ism) in Arabic syntax and the noun word class in the Uzbek language. Given that in Arabic the ism is a broad category encompassing not only nouns but also adjectives, numerals, and pronouns, its structural features, root system, grammatical gender, and number forms are examined in detail and compared with the corresponding and divergent features of the noun class in Uzbek.*

Keywords. *ism, noun, root, grammatical gender, muzakkar, muannas, singular, dual, plural, sound plural, broken plural, comparative linguistics.*

ARAB TILI SINTAKSISIDA “ISM” TUSHUNCHASI VA O‘ZBEK TILIDAGI OT SO‘Z TURKUMI: QIYOSIY-QIYOSLASH TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tili grammatikasidagi “ism” kategoriyasi va o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Arab tilida ism nafaqat otlarni, balki sifatlar, sonlar va olmoshlarni ham o‘z ichiga oluvchi keng grammatik kategoriya hisoblanganligi sababli, uning tuzilish xususiyatlari, o‘zak tizimi, grammatik jinsi va son shakllari batafsil ko‘rib chiqilib, o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumining o‘xshash va farqli jihatlari bilan taqqoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *ot, o‘zak, grammatik jins, muzakkar, muannas, birlik, ikkilik, ko‘plik, to‘g‘ri ko‘plik, siniq ko‘plik, qiyosiy tilshunoslik.*

ПОНЯТИЕ «ИСМ» В АРАБСКОМ СИНТАКСИСЕ И КЛАСС ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ категории «исм» в арабской грамматике и класса имён существительных в узбекском языке. Поскольку в арабском языке категория исм представляет собой широкую грамматическую категорию, включающую не только существительные, но и прилагательные, числительные и местоимения, подробно рассматриваются её структурные особенности, корневая система, грамматический род и формы числа, а также проводится сопоставление с соответствующими и отличительными особенностями класса существительных в узбекском языке.*

Ключевые слова: *существительное, корень, грамматический род, музаккар, муаннас, единственное число, двойственное число, множественное число, правильное множественное число, ломаное множественное число, сравнительное языкознание.*

Introduction. A comparative study of Arabic and Uzbek grammar makes it possible to understand the distinctive features of both language systems more precisely. This article focuses on how the concept of “ism” in Arabic differs from the “noun” word class in Uzbek. At the outset, one important point must be made clear: in Arabic, *ism (ism)* is not a concept that fully corresponds to the Uzbek “noun”. In Arabic linguistics, the ism group encompasses nouns, adjectives, numerals, and pronouns together.[1]

As Abduhafiz Abdujabborov notes in his textbook “Arabic Language”, Arab grammarians divide words into three main groups. The ism group is the first and broadest, encompassing nouns, adjectives, numerals, and pronouns. The verb group is the second, comprising words that denote an

[1] A. Arabic Language: A Textbook for Higher Education Students. - Tashkent: Tashkent Islamic University, 2005. - p. 21.

action or state and that carry markers of tense and person. The third group consists of particles (harf) - that is, conjunctions, particles, and prepositions that are not used independently.

This article provides a detailed analysis of the internal structure of the ism category in Arabic - its root system, grammatical gender (muzakkar and muannas), and number forms (singular, dual, plural) - and compares it with the noun class in Uzbek.

The broad scope of the ism category in Arabic

In Arabic syntax, the category of ism is a much broader concept than the noun class in Uzbek. In Uzbek, nouns, adjectives, numerals, and pronouns are distinguished as four separate, independent word classes. In Arabic syntax, however, these four are united under a single category, ism. This difference stems from a fundamental divergence in how the two languages organize their grammatical systems.

Nevertheless, internal distinctions also exist among nouns, adjectives, numerals, and pronouns within Arabic. In particular, nouns (*ismu adh-dhat*) denote the names of objects, persons, places, and concepts. Adjectives (*ismu as-sifa*) denote the qualities or attributes of an object. In this respect, the Arabic ism can be regarded, from the standpoint of Uzbek linguistics, as a set of "nominal words" or "words with nominal properties".

The root system of nouns in Arabic

Word formation in Arabic is based on the root system. This system is fundamentally foreign to Uzbek, and knowledge of it is essential for correctly understanding Arabic words and using dictionaries.

According to Abdujabborov's definition, the smallest part of a word that conveys its core meaning is called the "root". The root of an Arabic word (*aslu al-kalima*) consists only of consonant sounds. By adding various vowels and consonants before, between, and after the root consonants, new words and different word forms are derived.

For example, from the root «*kh-r-j*»: *kharaja* - he went out; *yakhruju* - he goes out; *kharij* - one who goes out; *kharijiyy* - foreign, external; *makhraj* - place of exit; *mutakharrij* - graduate. All of these words are derived from the same root, yet they appear in different forms and with different meanings.

Most roots in Arabic consist of three consonants. Four-consonant roots (*zahlaq*) and two-consonant roots (*yad*, *fam*) also occur, but they are less common.

No such root system exists in Uzbek. Word formation in Uzbek is mainly achieved through affixes: from the root "yoz" (write) - yozdi (wrote), yozuvchi (writer), yozilgan (written), yozuv (writing). In Arabic, by contrast, the same root consonants combine with different vowels and patterns to produce words belonging to different word classes. This is one of the principal typological differences in word formation between the two languages.

Grammatical gender in Arabic: muzakkar and muannas

In Arabic, the category of grammatical gender applies to all nouns (ism). According to Abdujabborov, Arabic has two grammatical genders: muzakkar - *al-mudhakkar* (masculine gender) and muannas - *al-mu'annath* (feminine gender).[1]

Muzakkar (masculine) gender: all nouns denoting male beings belong to the masculine gender, regardless of the form of the word. For example: *ab* - father; *akh* - brother; *'allama* - great scholar; *deek* - rooster; *kabsh* - ram.

Muannas (feminine) gender and its markers: all nouns denoting female beings belong to the feminine gender. For example: *umm* - mother; *ukht* - sister; *'arus* - bride; *baqara* - cow.

Abdujabborov also notes that the following groups belong to the feminine gender: paired parts of the body (*yad* - hand, *rijl* - foot, *'ayn* - eye); geographical names (*Tashkand* - Tashkent, *Misr* - Egypt); names of peoples (*al-Uzbek* - Uzbeks); and many nouns ending in the suffix "ta marbuta - -a" (*madina* - city, *qarya* - village).

The main grammatical marker of the feminine gender is the suffix "ta marbuta" (*-a*). This suffix is also used to form the feminine forms of adjectives, participles, and ordinal numbers: *mudarris*

[1]Abdujabborov A. Arabic Language. - p. 63.

(teacher, masculine) → *mudarrisa* (teacher, feminine); *hasan* (good, masculine) → *hasana* (good, feminine).

In Uzbek, by contrast, the category of grammatical gender does not exist at all. All nouns in Uzbek are gender-neutral, and words such as "o'qituvchi" (teacher), "talaba" (student), and "do'st" (friend) can be used for both men and women. This is one of the greatest typological differences between Arabic and Uzbek.

Number forms of nouns in Arabic

In Uzbek, there are only two number forms: singular and plural. In Arabic, however, three number forms are distinguished: singular (*al-mufrad*), dual (*al-muthanna*) and plural (*al-jam'*). This three-way system is one of the distinctive features of Arabic.

The dual number - al-muthanna

In Arabic, when there are two of something, the dual form is used. To form the dual number of a noun, the suffix «*-ani*» is added to the end of the word (in the nominative case), or «*-ayni*» (in the genitive and accusative cases). For example: *ustadh* (one professor) → *ustadhani* (two professors); *mu'allima* (one female teacher) → *mu'allimatani* (two female teachers).

There is no dual form in Uzbek - in expressions such as "ikki o'qituvchi" (two teachers) or "ikki talaba" (two students), the noun remains in the singular and is preceded by the numeral "ikki" (two). In Arabic, however, this meaning is expressed by a special grammatical form - the dual.

Shu sababli, islom psixologiyasida shaxs strukturasining tahlili faqat psixologik jarayonlar bilan cheklanib qolmasdan, balki inson mavjudligining ma'nosi, maqsadi va ruhiy-ma'naviy kamoloti bilan bog'liq ekzistensial hamda transsendental jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jihatlar esa zamonaviy psixoanalitik diskursda odatda yetarli darajada yoritilmaydi yoki umuman markaziy o'rin tutmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish shaxs va uning strukturasini kengroq anglashga xizmat qiladi hamda inson tabiatining turli intellektual an'analar doirasida qanday konseptuallashtirilganini yoritishga imkon beradi. Shu jihatdan, zamonaviy psixoanaliz va islom psixologiyasi o'rtasidagi qiyosiy tadqiqotlar shaxs haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitishga va qolaversa, uning murakkab mohiyatini kengroq nuqtai nazardan tushunishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Duane P. Schultz and Sydney Ellen Schultz, "Theories of personality" (Eighth edition). – Boston, MA: "Cengage Learning", 2005. – 550 pages.

2. Ma'ruf Zurayq, "Islom psixologiyasi"/Nashrga tayyorlovchilar: X.Alimov, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor; A.Abdurahmonov, A.Aliqulov. – T.: "Trust and Support", 2026. – 400 bet.

3. Amber Haque, Yasien Mohamed. Psychology of Personality: Islamic Perspectives. – Boston, MA: "Cengage Learning", 2009. – 346 pages.

4. Фрейд Зигмунд. "Я" и "Оно". Сборник. М.: Азбука, Азбука-Аттикус, 2015. - 288 с.

5. Cattell R. B. The inheritance of personality and ability. New York: Academic Press, 1982, 452 p.

Nigmanov Bori Botirovich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi professori,
Abdug‘ofurov Umidjon G‘ayrat o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
E-mail:borinigmanov24@gmail.com

10-12 YOSHLI FUTBOLCHILARGA TO‘PNI TO‘XTATISH TEXNIKASINI O‘RGATISHDA MAXSUS MASHQLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu ishda 10–12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlarning ahamiyati yoritiladi. Maxsus mashqlar texnik ko‘nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *futbol, to‘pni to‘xtatish, texnika, maxsus mashqlar, yosh futbolchilar.*

РОЛЬ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКЕ ОСТАНОВКИ МЯЧА У ФУТБОЛИСТОВ 10–12 ЛЕТ

Аннотация. *В данной работе рассматривается значение специальных упражнений в обучении технике остановки мяча у футболистов 10–12 лет. Специальные упражнения способствуют эффективному формированию технических навыков.*

Ключевые слова: *футбол, остановка мяча, техника, специальные упражнения, юные футболисты.*

THE ROLE OF SPECIAL EXERCISES IN TEACHING BALL CONTROL TECHNIQUE TO 10–12-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS

Annotation *This work examines the role of special exercises in teaching ball control technique to 10–12-year-old football players. Special exercises effectively develop technical skills.*

Keywords: *football, ball control, technique, special exercises, young players.*

Futbol sport turi sifatida bolalar va o‘smirlar orasida eng ommabop o‘yinlardan biri hisoblanadi. 10–12 yosh davri esa futbolchilar uchun boshlang‘ich texnik ko‘nikmalarni shakllantirishning eng muhim bosqichi sanaladi. Aynan shu davrda to‘p bilan ishlash texnikasi, xususan, to‘pni to‘xtatish malakasi to‘g‘ri o‘rgatilsa, kelgusida sportchining umumiy o‘yin saviyasi yuqori darajada shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 21.08.2025 yildagi PQ-262-sonli qarorida 1. “Maktablar futbol ligasi” yangi formatda “Futbolimiz kelajagi sening qo‘lingda” musobaqasi sifatida har yili umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 1 — 4 va 5 — 8-sinflari jamoalari o‘rtasida uch bosqichda (tuman (shahar) — viloyat — respublika) o‘tkazib borish tartibi joriy qilinadi. 2. “Futbolimiz kelajagi sening qo‘lingda” musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan har yili birlamchi sport jihozlari uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan zarur sport jihozlari va anjomlari yetkazib beriladi[1] deb alohida aytib o‘tilgan.

To‘pni to‘xtatish futbol texnikasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, u o‘yin jarayonini nazorat qilish va keyingi harakatlarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh futbolchilarda ushbu texnikani shakllantirishda maxsus mashqlar tizimi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki maxsus mashqlar orqali harakatlarni takrorlash, aniqlikni oshirish va to‘pni qabul qilishda ishonchlilikni mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

[1] “O‘zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 21.08.2025 yildagi PQ-262-sonli qarori.

Shu sababli, 10–12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlarning o‘rni va ularning samaradorligini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu yosh sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

To‘pni to‘xtatish texnikasi futbolchining o‘yin jarayonini boshqarishida muhim rol o‘ynaydi, chunki u keyingi harakatlar (uzatish, dribling, zarba berish) uchun asos yaratadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ushbu texnikaning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi sensor-motor koordinatsiya, fazoviy idrok va reaksiya tezligiga bevosita bog‘liq.

Futbolda to‘pni to‘xtatish (qabul qilish) usullari odatda 5 ta asosiy turga bo‘linadi:

1. Oyoq bilan to‘xtatish.

Eng ko‘p ishlatiladigan usul.

Ichki tomon bilan

Tashqi tomon bilan

Tag qismi (yostiqcha bilan)

2. Son bilan to‘xtatish.

O‘rta balandlikdan kelayotgan to‘plarni yumshatib qabul qilish uchun ishlatiladi

To‘pni yerga tushirib nazorat qilishga yordam beradi

3. Ko‘krak bilan to‘xtatish.

Balanddan kelayotgan to‘plarda qo‘llanadi

Tanani orqaga yengil tashlab, to‘pni yumshatib tushirishga xizmat qiladi

4. Bosh bilan to‘xtatish.

Havo orqali kelayotgan to‘plarni bosh bilan yumshatib nazorat qilish

Ko‘proq himoyachilar va markaziy o‘yinchilarda uchraydi

5. Qorin (ba’zan tana) bilan to‘xtatish.

Kamroq qo‘llanadi

Favqulodda vaziyatlarda to‘pni yo‘naltirish yoki yumshatish uchun ishlatiladi.



1. Oyoq bilan to‘xtatish. Oyoq bilan to‘pni qabul qilish futbol texnikasining eng asosiy va eng ko‘p qo‘llaniladigan elementi hisoblanadi. Biomekanik nuqtai nazardan, bu usulda mushaklarning amortizatsiya (yumshatish) funksiyasi ishlaydi. Ya’ni, to‘p zarbasi energiyasi oyoq bo‘g‘imlari orqali sekinlashtiriladi.

Bu jarayon “kinetik energiyani pasaytirish” deb izohlanadi. Ichki, tashqi yoki tag qismi orqali to‘pni to‘xtatishda koordinatsiya va muvozanat muhim rol o‘ynaydi. Bu usul ayniqsa past va o‘rta tezlikdagi to‘plarni nazorat qilishda samarali hisoblanadi.



2. Son bilan to‘xtatish. Son bilan to‘pni to‘xtatish o‘rta balandlikdan kelayotgan to‘plarni qabul qilishda qo‘llaniladi. Biomekanik jihatdan son mushaklari (kvadriseps guruhi) to‘p zarbasini yumshatib, uning yerga tushish tezligini kamaytiradi. Bu usul sensor-motor koordinatsiyani va vaqtni to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Sportchi to‘pning trayektoriyasini oldindan taxmin qilib, harakatni moslashtiradi (antitsipatsiya jarayoni).

3. Ko‘krak bilan to‘xtatish. Ko‘krak bilan to‘pni qabul qilish yuqori trayektoriyadan kelayotgan to‘plarda qo‘llaniladi. Bu usulda tananing orqa tomonga yengil egilishi orqali to‘pning kinetik energiyasi kamaytiriladi. Fiziologik jihatdan ko‘krak mushaklari va umurtqa harakatchanligi muhim ahamiyatga ega. Bu texnika vestibulyar apparatni (muvozanat tizimini) faollashtiradi va sportchining fazoviy orientatsiyasini kuchaytiradi.

4. Bosh bilan to‘xtatish. Bosh bilan to‘pni to‘xtatish ko‘proq havo to‘plarini nazorat qilishda ishlatiladi. Biomekanik tahlilga ko‘ra, bu usulda bo‘yin mushaklari va tana muvozanati asosiy rol o‘ynaydi. Ilmiy jihatdan bu harakat “dinamik amortizatsiya” tamoyiliga asoslanadi, ya’ni to‘p zarbasi bosh va tana harakatlari orqali yumshatiladi. Bu usul kognitiv tezkorlik va fazoviy idrokni rivojlantiradi.

5. Qorin (tana) bilan to‘xtatish. Tana bilan to‘pni to‘xtatish kamroq qo‘llaniladigan, lekin murakkab vaziyatlarda foydali texnika hisoblanadi. Bu usulda qorin va tana mushaklari orqali to‘p zarbasi energiyasi yutiladi. Bu jarayon “passiv amortizatsiya” deb qaraladi, chunki sportchi to‘pni faol harakat bilan emas, balki tana holatini moslashtirish orqali qabul qiladi. Bu usul tezkor qaror qabul qilish va moslashuvchanlikni talab qiladi.

10–12 yoshli futbolchilarda to‘pni to‘xtatish texnikasini shakllantirish jarayoni markaziy asab tizimining yuqori plastiklik xususiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu davr harakat ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oyoq, son, ko‘krak, bosh va tana bilan to‘pni to‘xtatish usullari biomexanik va sensor-motor jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Maxsus mashqlar tizimini maqsadli va bosqichma-bosqich qo‘llash futbolchilarda harakat aniqligi, koordinatsiya, reaksiya tezligi va fazoviy idrokni rivojlantiradi. Shu bilan birga, takroriy mashqlar orqali harakat stereotiplarini avtomatlashtirish ta’minlanadi, bu esa o‘yin sharoitida tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi. Demak, to‘pni

to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlardan foydalanish yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning kelajakdagi sport mahoratini shakllantirishda muhim ilmiy-pedagogik omil hisoblanadi.

Muhokama

10–12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatish futbol tayyorgarligining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu yosh davrida bolalarning harakat koordinatsiyasi, muvozanatni saqlash qobiliyati, tezkor fikrlashi va texnik ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlari jadal rivojlanadi. Zamonaviy futbol sharoitida o‘yinchining to‘pni birinchi qabul qilishi va nazorat ostiga olishi keyingi harakatlarning samaradorligini belgilab beradi. To‘pni sifatli to‘xtata olgan futbolchi uzatmani aniq amalga oshirishi, raqib bosimidan chiqib ketishi, hujumni davom ettirishi yoki darvoza tomon xavfli vaziyat yaratishi mumkin. Shu sababli yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida to‘pni to‘xtatish texnikasini mukammal o‘rgatish va bunda maxsus mashqlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 10–12 yoshli futbolchilar orasida to‘pni qabul qilish va to‘xtatishda turli xatolar uchrab turadi. Jumladan, to‘pning harakat tezligini to‘g‘ri baholay olmaslik, tananing noto‘g‘ri holatda joylashishi, zarbani yumshatish texnikasining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda to‘xtatilgan to‘pni keyingi harakatga tayyorlay olmaslik kabi kamchiliklar kuzatiladi. Bunday holatlar o‘yin jarayonida to‘pni yo‘qotish, hujum sur’atining pasayishi va texnik harakatlarning samarasiz bo‘lishiga olib keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda maxsus mashqlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular futbolchilarda to‘pni his qilish, harakatlarni muvofiqlashtirish va texnik elementlarni avtomatlashtirish imkonini beradi.

10–12 yosh davri murakkab texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun eng qulay bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu yoshda markaziy nerv tizimining moslashuvchanligi yuqori bo‘lib, bolalar yangi harakatlarni tez o‘zlashtirish va takrorlash orqali mustahkamlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan maxsus mashqlar yosh futbolchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Dastlab to‘pni ichki tomon bilan to‘xtatish, keyinchalik oyoq tagi, tashqi tomon, son va ko‘krak yordamida qabul qilish kabi mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv texnik mahoratning izchil shakllanishiga hamda o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Maxsus mashqlarning samaradorligi ularning tizimli va maqsadli ravishda tashkil etilishiga ham bog‘liqdir. Mashg‘ulotlarda to‘pni turli masofalardan qabul qilish, har xil tezlikda uzatilgan to‘plarni to‘xtatish, harakat davomida to‘pni nazorat qilish va to‘xtatgandan so‘ng darhol keyingi texnik harakatni bajarishga yo‘naltirilgan mashqlar keng qo‘llanilishi kerak. Chunki zamonaviy futbolda to‘pni oddiygina to‘xtatish emas, balki uni keyingi o‘yin harakatiga qulay holatda tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, to‘pni to‘xtatish texnikasi uzatma berish, to‘pni olib yurish va zarba berish elementlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatilishi zarur.

Umuman olganda, 10–12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular texnik tayyorgarlik sifatini oshiradi, harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi, futbolchilarning o‘yin vaziyatlarida tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi hamda musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois murabbiylar tomonidan ilmiy asoslangan, yosh xususiyatlariga mos va bosqichma-bosqich murakkablashtirib boriladigan maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish futbolchilarning texnik mahoratini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Matveev L.P. Sport tayyorgarligining nazariyasi va metodikasi. Darslik, 2008-yil.
2. Platonov V.N. Olimpiya sportida sportchilarni tayyorlash tizimi. Monografiya, 2015-yil.
3. Karimov F.A. Futbolda yosh sportchilarni tayyorlash metodikasi. O‘quv qo‘llanma, 2020-yil.

Bobomurotova Mahfuza
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: bobomurotovamahfuza@gmail.com

PIRIMQUL QODIROVNING "AVLODLAR DOVONI" ROMANIDA UMUMISTE'MOL LEKSIKANING USLUBIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" romanida qo'llangan umumiste'mol leksikaning uslubiy, semantik va funksional xususiyatlari lingvostilistik jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy asar tilida keng qo'llanadigan oddiy va kundalik leksik birliklarning muallif badiiy niyatini ifodalash, obrazlarning individual xususiyatlarini ochib berish, tarixiy muhitni jonlantirish hamda voqealarning tabiiyligini ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Umumiste'mol so'zlarning badiiy matn tarkibida yangi ma'no qirralarini namoyon etishi, emotsional-ekspressiv bo'yoq kasb etishi va kontekst ta'sirida uslubiy vositaga aylanishi asardan olingan misollar asosida izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *Pirimqul Qodirov, "Avlodlar dovoni", umumiste'mol leksika, badiiy til, leksik qatlam, lingvostilistik tahlil, uslubiy vosita, obraz nutqi, personajlar nutqi, muallif nutqi, tarixiy roman, emotsional-ekspressivlik, milliy kolorit, kontekstual ma'no, badiiy tasvir.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБЩЕУПОТРЕБИТЕЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА «ПЕРЕВАЛ ПОКОЛЕНИЙ»

Аннотация. *В статье с лингвостилистической точки зрения анализируются стилистические, семантические и функциональные особенности общеупотребительной лексики, использованной в романе Пиримкула Кадырова «Перевал поколений». Рассматривается роль простых и повседневных лексических единиц в выражении художественного замысла автора, раскрытии индивидуальных особенностей персонажей, воссоздании исторической обстановки и обеспечении естественности изображаемых событий. На примерах из произведения раскрывается способность общеупотребительных слов приобретать в художественном контексте дополнительные смысловые оттенки, эмоционально-экспрессивную окраску и стилистическую значимость.*

Ключевые слова: *Пиримкул Кадыров, «Перевал поколений», общеупотребительная лексика, художественный язык, лексический пласт, лингвостилистический анализ, стилистическое средство, речь персонажа, авторская речь, исторический роман, эмоциональная экспрессивность, национальный колорит, контекстуальное значение, художественный образ.*

STYLISTIC POTENTIAL OF COMMON VOCABULARY IN PIRIMQUL QODIROV'S NOVEL "THE PASS OF GENERATIONS"

Abstract. *This article provides a linguostylistic analysis of the stylistic, semantic, and functional features of common vocabulary used in Pirimqul Qodirov's novel* The Pass of Generations. *It examines the role of simple and everyday lexical units in expressing the author's artistic intention, revealing the individual characteristics of the characters, recreating the historical setting, and ensuring the natural representation of events. Examples taken from the novel demonstrate how commonly used words acquire additional semantic nuances, emotional and expressive colouring, and stylistic significance within a literary context.*

Keywords: *Pirimqul Qodirov,* The Pass of Generations, *common vocabulary, literary language, lexical layer, linguostylistic analysis, stylistic device, character speech, authorial speech, historical novel, emotional expressiveness, national colouring, contextual meaning, literary image.*

Kirish. Badiiy asar tili xalqning milliy tafakkuri, tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Yozuvchi badiiy g'oyani ifodalash, voqelikni obrazli tasvirlash, qahramonlarning ruhiy holati va individual

xususiyatlarini ochib berishda tilning turli leksik qatlamlaridan foydalanadi. Badiiy matnda qo‘llanadigan har bir so‘z muayyan nominativ ma’noni ifodalash bilan birga, kontekst ta’sirida qo‘shimcha semantik, emotsional va uslubiy mazmun kasb etadi. Shu jihatdan umumiste’mol leksikaning badiiy asardagi vazifalarini o‘rganish lingvostilistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Umumiste’mol leksika jamiyatning barcha vakillari tomonidan keng qo‘llanadigan, muayyan kasb, hudud, ijtimoiy guruh yoki tarixiy davr doirasi bilan qat’iy chegaralanmagan so‘zlar majmuini tashkil etadi. Bunday so‘zlar kundalik nutqning asosiy lug‘aviy qatlamini hosil qilib, narsa-hodisalar, harakat, holat, belgi va munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Biroq umumiste’mol so‘zlar badiiy matn tarkibiga kirganda faqat oddiy axborot yetkazuvchi birlik bo‘lib qolmaydi. Ular yozuvchining individual uslubi, tasviriy mahorati va badiiy niyatiga muvofiq ravishda yangi ma’no qirralarini namoyon etadi.

Badiiy matnda umumiste’mol leksikaning uslubiy imkoniyatlari, avvalo, uning kontekstual ma’no hosil qilish xususiyatida namoyon bo‘ladi. Oddiy nutqda betaraf mazmunda qo‘llanadigan so‘zlar muayyan badiiy vaziyatda obrazlilik, ramziylik, baholash, emotsional ta’sirchanlik va ekspressivlik kasb etishi mumkin. Masalan, “yo‘l”, “ko‘z”, “qo‘l”, “yurak”, “ona”, “uy”, “darvoza” kabi so‘zlar o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan tashqari, inson taqdiri, ruhiy kechinma, tarixiy o‘zgarish, sog‘inch, umid, ayriliq yoki xavf tushunchalarini ham ifodalashi mumkin. Demak, umumiste’mol leksikaning uslubiy qiymati uning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki matndagi o‘rni, boshqa birliklar bilan munosabati va muallif tomonidan yuklangan badiiy vazifasi bilan belgilanadi.

Pirimqul Qodirov o‘zbek tarixiy romanchiligining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlarida tarixiy voqelik, milliy ruh, inson taqdiri va davr ziddiyatlari badiiy jihatdan ta’sirchan ifodalangan. Adibning “Avlodlar dovoni” romani tarixiy voqealarni yoritish, murakkab insoniy munosabatlarni tasvirlash va turli ijtimoiy qatlam vakillarining ruhiy dunyosini ochib berish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asar tilida tarixiy leksika, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar, xalqona iboralar va obrazli ifodalar bilan bir qatorda, umumiste’mol so‘zlar ham keng qo‘llanadi. Ushbu so‘zlar roman tilining tabiiyligi, ravonligi, tushunarliligi va xalqchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Avlodlar dovoni” romanida umumiste’mol leksik birliklar muallif nutqi va personajlar nutqida turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Muallif nutqida ular tabiat, makon, tashqi qiyofa, harakat va ruhiy holatni aniq hamda obrazli tasvirlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonlar nutqida esa ularning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi, xarakteri, hissiy kechinmalari va voqelikka munosabatini ifodalaydi. Shu bilan birga, oddiy so‘zlarning takrorlanishi, ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, sinonimik yoki antonimik munosabatga kirishishi matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy asar tilini o‘rganish tilshunoslik, adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va lingvopoetika fanlarining mushtarak tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Badiiy matnda til birliklarining tanlanishi, o‘zaro birikishi, kontekstual ma’no kasb etishi va muallifning estetik maqsadiga xizmat qilishi masalalari jahon hamda o‘zbek tilshunosligida turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ayniqsa, umumiste’mol leksikaning badiiy matndagi semantik-uslubiy imkoniyatlarini aniqlash yozuvchining individual uslubi, obraz yaratish mahorati va til vositalaridan foydalanish xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Umumiste’mol leksika til lug‘at tarkibining asosiy qismini tashkil etib, jamiyat a’zolari tomonidan kundalik hayotda keng va faol qo‘llanadigan so‘zlardan iboratdir. Bunday birliklar muayyan kasb-hunar, fan sohasi, hudud yoki ijtimoiy guruh bilan chegaralanmaydi. Ular inson, tabiat, jamiyat, turmush tarzi, harakat, holat va munosabatlarni ifodalaydigan universal leksik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda umumiste’mol so‘zlarning, odatda, uslubiy jihatdan betarafligi ta’kidlanadi. Biroq ushbu betaraflik mutlaq xususiyat emas. Umumiste’mol birliklar badiiy kontekstda muallifning maqsadi, nutqiy vaziyat va boshqa til vositalari bilan aloqasi natijasida emotsional, ekspressiv, ramziy va baholovchi ma’no kasb etishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligida leksik birliklarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishda A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo‘ng‘urov va H. Rustamovlarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ularning o‘zbek tili uslubshunosligiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida tilning funksional uslublari, leksik vositalarning uslubiy bo‘yoqdorligi, sinonimik imkoniyatlari hamda badiiy nutqda qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan. Olimlarning fikricha, so‘zning uslubiy imkoniyati uning faqat lug‘aviy

ma’nosi bilan emas, balki qo‘llanish muhiti, nutqiy vaziyat, muallif munosabati va matndagi boshqa birliklar bilan semantik aloqasi orqali yuzaga chiqadi.

R. Qo‘ng‘urovning tasviriy vositalar va badiiy nutq masalalariga oid tadqiqotlarida oddiy leksik birliklarning ham muayyan matniy sharoitda kuchli obrazlilik hosil qilishi ko‘rsatib beriladi. Olim badiiy tasvir vositalarining yuzaga kelishida so‘zning ko‘chma ma’nosi, o‘xshatish, metafora, metonimiya, epitet va takror kabi usullarning alohida ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu qarashlar umumiste’mol so‘zlarning badiiy asardagi funksiyalarini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki kundalik nutqda oddiy va betaraf hisoblangan “ko‘z”, “qo‘l”, “yo‘l”, “yurak”, “uy”, “ona” kabi so‘zlar badiiy matnda ko‘chma, ramziy va hissiy ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanida umumiste’mol leksika badiiy tasvirning asosiy til vositalaridan biri sifatida faol qo‘llangan. Asar matnini kuzatish jarayonida kundalik hayotda keng iste’mol qilinadigan so‘zlar romanda faqat predmet, shaxs, harakat yoki holatni nomlash uchun emas, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ochish, tarixiy muhitni jonlantirish, voqealar rivojiga emotsional ta’sir bag‘ishlash va muallifning badiiy-estetik maqsadini ifodalash uchun ham xizmat qilishi aniqlandi.

Umumiste’mol leksikaning badiiy matndagi uslubiy imkoniyatlari uning semantik mazmuni, kontekstual qurshovi, personajlar nutqidagi o‘rni va muallif tasviri bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Oddiy nutqda betaraf hisoblangan “ot”, “qiz”, “ona”, “yo‘l”, “uy”, “darvoza”, “qo‘l”, “ko‘z”, “yurak”, “soch”, “kiyim”, “gap”, “kulmoq”, “qo‘rqmoq”, “yayramoq” kabi birliklar roman tarkibida ko‘p qatlamli badiiy mazmun kasb etadi.

Tahlil natijasida asardagi umumiste’mol leksik birliklarni bir necha leksik-semantik guruhlarga ajratish mumkinligi kuzatildi:

1. inson va qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi so‘zlar;
2. inson tana a’zolarini anglatuvchi birliklar;
3. makon va harakatni ifodalovchi so‘zlar;
4. kundalik turmush buyumlari va kiyim-kechak nomlari;
5. ruhiy holat va hissiy kechinmalarni bildiruvchi fe’llar;
6. nutqiy faoliyat va insonlararo munosabatni ifodalovchi birliklar;
7. tabiat, hayvonot va tashqi muhitga oid umumiste’mol so‘zlar.

Romanda “ona”, “qiz”, “ota”, “bola”, “yigit”, “ayol”, “erkak” kabi umumiste’mol so‘zlar personajlarning qarindoshlik, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda faol ishtirok etadi. Bu birliklar oddiy nominativ ma’nodan tashqari, mehr, sog‘inch, himoya, ishonch, sadoqat va mas’uliyat kabi ma’naviy tushunchalarni ham yuzaga chiqaradi.

“Ona” leksemasi badiiy matnda biologik qarindoshlikni ifodalash bilan cheklanmaydi. U mehr-muhabbat, vatan, muqaddaslik, himoya va ruhiy tayanch ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ona obrazi bilan bog‘liq nutqiy vaziyatlarda ushbu so‘zning emotsional ta’sir kuchi yanada ortadi. Qahramonlarning ona haqidagi o‘y-fikrlari, sog‘inchi yoki unga bo‘lgan munosabati orqali ularning ichki dunyosi ochib beriladi.

“Qiz” so‘zi esa asarda yosh va jinsni ifodalovchi oddiy birlik bo‘lish bilan birga, go‘zallik, beg‘uborlik, jasorat, or-nomus, mehr va ba’zan ijtimoiy himoyasizlik mazmunlarini ham anglatadi. Mazkur leksemaning “sherqiz” kabi obrazli shaklda qo‘llanishi qahramonning jasurligi, qat’iyati va ichki kuchini ta’kidlaydi. Bu holatda umumiste’mol “qiz” so‘ziga “sher” komponentining qo‘shilishi natijasida kuchli baholovchi va ekspressiv mazmun yuzaga keladi.

Shunday qilib, inson va qarindoshlikni ifodalovchi umumiste’mol birliklar roman qahramonlarining shaxsiy munosabatlari, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy mavqeyini ochib beruvchi muhim lingvistik vosita vazifasini bajaradi.

“Qo‘l”, “ko‘z”, “yuz”, “bosh”, “yurak”, “soch” kabi tana a’zolarini bildiruvchi so‘zlar romanda yuqori uslubiy faollikka ega. Ushbu birliklar insonning tashqi qiyofasi va jismoniy holatini tasvirlash bilan bir qatorda, uning ruhiy kechinmalari, munosabati va xarakterini ham ifodalaydi.

“Ko‘z” leksemasi qahramonlarning ichki holatini ifodalashda ayniqsa muhim o‘rin tutadi. Ko‘z orqali insonning qo‘rquvi, quvonchi, g‘azabi, sog‘inchi, shubhasi yoki ishonchi tasvirlanadi. Badiiy matnda ko‘z faqat ko‘rish a’zosi emas, balki inson ruhiyatining tashqi ko‘rinishi sifatida gavdalanadi.

“Ko‘z tashlamoq”, “ko‘zini uzmaslik”, “ko‘ziga qaramoq”, “ko‘z oldiga kelmoq” singari birikmalar ham qahramonlarning holati va voqeaga munosabatini aniqlashtiradi.

“Qo‘l” so‘zi romanda insonning jismoniy harakatini ifodalashdan tashqari, hokimiyat, kuch, yordam, mehnat, egalik va ta’sir ma’nolarini ham anglatishi mumkin. Masalan, qo‘l uzatish yordam va yaqinlikni, qo‘lga olish egallash yoki nazorat qilishni, qo‘ldan ketish esa yo‘qotish va imkoniyatdan mahrum bo‘lishni ifodalaydi. Shu sababli “qo‘l” leksemasi turli kontekstlarda ko‘chma va ramziy mazmun kasb etadi.

“Yurak” so‘zi qahramonlarning hissiy va ruhiy hayotini ifodalovchi asosiy birliklardan biridir. U sevgi, jasorat, qo‘rquv, iztirob, umid va qat’iyat kabi holatlarni aks ettiradi. “Yuragi hapqirmoq”, “yuragi siqilmoq”, “yuragiga qo‘rquv tushmoq” kabi ifodalarda insonning ichki kechinmasi obrazli va ta’sirchan tarzda beriladi. Natijada anatomik ma’nodagi oddiy so‘z psixologik tasvir vositasiga aylanadi.

Muhokama. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanida umumiste’mol leksikaning qo‘llanishi shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda oddiy va kundalik so‘zlar faqat axborot yetkazuvchi vosita bo‘lib qolmaydi. Ular muallifning badiiy niyati, tasvirlanayotgan tarixiy voqelik, qahramonlarning ruhiy holati va matnning umumiy semantik qurilishi bilan aloqaga kirishib, keng uslubiy imkoniyatlarni namoyon etadi. Shu ma’noda roman tilidagi umumiste’mol leksika badiiy tasvirning asosiy tayanchi, qahramonlar nutqining tabiiyligini ta’minlovchi vosita va tarixiy muhitni kitobxon tasavvurida jonlantiruvchi lingvistik omil sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari umumiste’mol so‘zlarning uslubiy betarafligi nisbiy xususiyat ekanini tasdiqlaydi. Til tizimida betaraf deb qaraladigan “ko‘z”, “qo‘l”, “yurak”, “yo‘l”, “uy”, “darvoza”, “ona”, “qiz”, “ot” kabi birliklar badiiy kontekstda emotsional, ekspressiv, ramziy va baholovchi mazmun kasb etadi. Bu holat so‘zning uslubiy xususiyati uning lug‘aviy ma’nosidagina emas, balki matndagi sintaktik qurshovi, takroriy qo‘llanishi, personajning ruhiy vaziyati va muallifning tasviriy maqsadi bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Masalan, “yo‘l” leksemasi romanda oddiy harakatlanish makonini ifodalash bilan birga, qahramon taqdiri, tarixiy o‘zgarish, safar, ayriliq va kelajak sari intilish ma’nolarini ham yuzaga chiqaradi. “Darvoza” esa muayyan makonga kirish joyi bo‘lishdan tashqari, imkoniyat, to‘siq, xavf yoki ikki hayotiy bosqich o‘rtasidagi chegara timsoliga aylanadi. “Uy” leksemasining ma’no doirasi ham yashash joyi tushunchasi bilan cheklanmay, oila, osoyishtalik, vatan, himoya va ruhiy tayanch kabi mazmunlarni qamrab oladi. Mazkur misollar umumiste’mol so‘zlarning badiiy matnda semantik jihatdan kengayishini ko‘rsatadi.

Tana a’zolari nomlarining qo‘llanishida ham shunga o‘xshash hodisa kuzatiladi. “Ko‘z” so‘zi qahramonlarning ruhiy holati, munosabati va ichki kechinmalarini ifodalashda faol qatnashadi. Ko‘zning qarashi, o‘zgarishi yoki harakati orqali qo‘rquv, shubha, quvonch, g‘azab, ishonch va sog‘inch kabi holatlar tasvirlanadi. Demak, mazkur birlik insonning tashqi qiyofasini tavsiflashdan ko‘ra, ko‘proq uning ichki dunyosini ochuvchi psixologik vosita vazifasini bajaradi.

“Yurak” leksemasi ham anatomik tushuncha doirasidan chiqib, hissiyot, iroda, jasorat, qo‘rquv va iztirobning ramziy markazi sifatida qo‘llanadi. Bu esa badiiy nutqda inson tanasi bilan bog‘liq umumiste’mol so‘zlar ko‘pincha psixologik tasvir vositasiga aylanishini ko‘rsatadi. “Qo‘l” leksemasida esa harakat, yordam, egalik, kuch va hukmronlik ma’nolari uyg‘unlashadi. Shunday qilib, tana a’zolari nomlarining uslubiy imkoniyati ularning ko‘chma va frazeologik qo‘llanishlari orqali yanada kengayadi.

Inson va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanishi romanning ma’naviy-emotsional qatlamini shakllantiradi. “Ona”, “qiz”, “ota”, “bola” kabi birliklar qahramonlarning qarindoshlik aloqalarini bildirish bilan birga, mehr, sadoqat, sog‘inch, himoya, mas’uliyat va or-nomus kabi tushunchalarni ifodalaydi. Ayniqsa, “ona” so‘zi muqaddaslik, ruhiy tayanch va hayot manbai sifatida kuchli emotsional mazmun kasb etadi. “Qiz” leksemasining “sherqiz” shaklida ishlatilishi esa oddiy nominativ birlikning baholovchi va obrazli vositaga aylanishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romani tilini lingvostilistik jihatdan o‘rganish umumiste’mol leksikaning badiiy matndagi imkoniyatlari keng va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatdi. Asarda qo‘llangan oddiy, kundalik va barcha uchun tushunarli so‘zlar faqat narsa-hodisa,

shaxs, harakat yoki holatni nomlash vazifasi bilan cheklanmaydi. Ular muallifning badiiy niyatini ifodalash, tarixiy voqelikni jonlantirish, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish, obrazlar nutqini individuallashtirish hamda matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida romandagi umumiste'mol leksik birliklarning inson va qarindoshlik munosabatlari, tana a'zolari, makon va harakat, kundalik turmush, kiyim-kechak, ruhiy holat, nutqiy faoliyat, tabiat va hayvonot olami kabi leksik-semantik guruhlarga mansubligi aniqlandi. Ushbu birliklarning har biri badiiy kontekstda o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi. Masalan, "ona", "qiz", "bola" kabi so'zlar mehr, sog'inch, sadoqat va himoya mazmunini, "ko'z", "qo'l", "yurak" singari birliklar esa qahramonlarning ruhiy kechinmalari, kuchi, irodasi va ichki ziddiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983. – 88 b.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 199 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
6. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Qodirov P. Avlodlar dovoni: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Qodirov P. Til va dil. – Toshkent: O'zbekiston, 1972. – 40 b.
9. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. – Toshkent: Fan, 1973. – 61 b.
10. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 152 b.

Botirov Zoir Nuriddin o‘g‘li
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: botirovzoirbek3@gmail.com

O‘SMIRLAR IJODIY FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY TADQIQOTLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlar ijodiy faoliyatining ilmiy-nazariy tadqiqotlari tahlili amalga oshirilgan. Jahonda va mamlakatimizda yoshlarning aqliy salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini rivojlantirishga talabning ortib borayotganligi, o'smirlarning ijodiy faolligini shaxsiy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida belgilanayotganligi haqidagi ma’lumotlarni bayon etishga bag‘ishlangan. O‘smirlar ijodiy faoliyatini o‘rganishning asosiy psixologik yondoshuvlari jumladan, psixologik yondashuv: pedagogik-psixologik yondashuv: o‘smirlarning faoliyatiga asoslangan yondashuvlarning mazmuni shuningdek, o'smirlik davrida ijodkorlikni rivojlantirishning xususiyatlari keng yoritilgan.*

Tayanch so’zlar. *O‘smir, ijodkorlik. Ijodiy faollik, qulay davr, psixologik yondoshuv, o‘zini namoyon etish, shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv.*

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация*. В данной статье анализируются научные и теоретические исследования творческой деятельности подростков. Она посвящена представлению информации о растущей потребности в повышении умственного потенциала молодежи в мире и в нашей стране, развитии их творческой деятельности, а также выявлению творческой деятельности подростков как решающего фактора личностного развития. Широко освещены основные психологические подходы к изучению творческой деятельности подростков, включая психологический подход: педагогико-психологический подход: содержание подходов, основанных на деятельности подростков, а также особенности развития творчества в подростковом возрасте.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, творчество, творческая деятельность, сенситивный период, психологический подход, самовыражение, личностно-ориентированный подход.*

ANALYSIS OF SCIENTIFIC AND THEORETICAL RESEARCH ON ADOLESCENT CREATIVE ACTIVITIES

Abstract. *This article analyzes scientific and theoretical studies of adolescent creative activity. It presents information on the growing need to enhance the intellectual potential of young people worldwide and in our country, to develop their creative activity, and to identify adolescent creative activity as a decisive factor in personal development. The main psychological approaches to studying adolescent creative activity are comprehensively covered, including the psychological approach: the pedagogical-psychological approach: the content of approaches based on adolescent activity, and the characteristics of creativity development in adolescence.*

Keywords: *Adolescence, creativity, creative activity, sensitive period, psychological approach, self-expression, personality-oriented approach.*

Jahonda YUNESKO ning XXI asrni «Ta‘lim asri» deb e‘lon qilishi jamiyat taraqqiyotida bilim, fan, madaniyat va intellektual rivojlanishni ta’minlash yuqori ahamiyatga ega etib belgilanganligi, bu borada YUNESKO ta‘lim jarayonidagi: «bilish uchun o‘rganish, malakaga ega bo‘lish uchun o‘rganish, hayot kechirishni o‘rganish va birga yashashni o‘rganish» kabi to‘rt asosiy jihatni ajratib ko‘rsatib berganligi dolzarblik kasb etmoqda. Hozirgi zamon kishisining kommunikatsion imkoniyatlarini takomillashtirish bo‘yicha doimiy izlanishlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu tufayli, o‘smirlar ijodiy faoliyati jarayonida kommunikativ ko‘nikmalar shakllanishi shaxsining ijtimoiy adaptatsiyasining muhim omili sifatidagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o'smirlikni inson olamga oqilona munosabat namoyon bo‘ladigan yosh deb hisoblanishi tufayli, bu davrda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor zarurligi kabilar mazkur muammoni tadqiq etishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahon oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-amaliy markazlarida o'smirlarda kommunikativ qiyinchiliklar paydo bo'lishini o'tish davri bilan bog‘lab, ularning bola emas, lekin hali katta ham emasligi bilan bog‘lab, o'smirlar xulqida, oldindan belgilab bo'lmaydigan darajadagi psixologik xususiyatlarni namoyon etishi boshqa narsalar qatori muloqot jarayoniga ham ta'sir qilishi, bugungi globallashuv jarayonlari keskinlashayotgan vaziyatda kommunikativ yuksalishning roli nihoyatda oshib borayotganligi, kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishiida eng qulay davr ko‘proq o‘smirlikka to‘g‘ri kelishi e’tirof etiladi. Zamonaviy jamiyat yuqori kommunikativ ko‘nikmalar, ijtimoiy moslashuvchan, faoliyat va o‘zaro munosabatlarda konstruktiv hamkorlikka qodir kishilarga har qachongida ham muhtojdir. Shaxs ijtimoiylashuvning eng muhim komponenti sifatida o‘smirlarning ijodiy faoliyatida kommunikativ ko‘nikmalar shakllanishi avvalo, zarur darajada bilimlarini egallashi, ijodiy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning kommunikativ, axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ilmiy asoslangan usullardan foydalanib, empirik tadqiqotlarni olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yoshlarning ijodiy faoliyatini yuksaltirish, kommunikativ va boshqa shaxsiy sifatlarini mustahkamlash mamlakat mustaqil taraqqiyotiga xizmat qilishi belgilanib, bu borada zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «...yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat» vazifasihi bajarish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ko‘nikmalarni takomillashtirish muammosi qo‘yilishi, bevosita o‘smirlar ijodiy faoliyatini rivojlantirish shaxs barkamolligi omili sifatida ilmiy-amaliy tadqiq etishga bo‘lgan talab kuchayib borishi tufayli, mazkur jarayonlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ilmiy va nazariy tadqiqotlar (2021–2026) o'smirlarning ijodiy faolligini shaxsiy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida belgilaydi, bu refleksiv fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga asoslanganligi e’tirof etilib, asosiy xususiyatlarga yuqori kognitiv faollik, mavhum fikrlashga o'tish va o'zini o'zi anglash kabilarni kiritish mumkin. O‘smirlarda qobiliyatlarning samarali rivojlanishi loyihaga asoslangan faoliyat, teatrlashtirilgan tomoshalar va yoshga bog'liq psixologik o'zgarishlarni hisobga oladigan interaktiv usullar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, N.S.Safoev, M.I.Salaxutdinova, D.A.Sobirova, G.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziev, pedagog olimlardan B.R.Adizov, G.N.Ibragimova, O.Q.Musaev, Ch.T.Shokirova va boshqalar tomonidan shaxsda ijodkorlik, ijodiy faoliyat, muloqot ko‘nikmalari, kommunikativ qobiliyat va unga ta'sir qiluvchi psixologik omillar tadqiq qilingan.

Ilmiy va nazariy tadqiqotlar tahlili o'smir yoshdagi bolalarda ijodiy faollik shaxs rivojlanishining yetakchi mexanizmi hisoblanib, reproduktiv fikrlashdan priduktiv fikrlash jarayonlariga o'tish, yuqori darajadagi faollik, o'zini anglashdagi yuksalish va individualligini namoyon etishga intilish bilan xarakterlanishini ko‘rsatmoqda. Bu boradagi psixologik tadqiqotlar ijtimoiy muhit, ta'limdagi yangiliklar va o'smirlarning turli yo‘nalishlarda ijodiy izlanishlarga psixologik tayyorgarligiga e’tibor qaratish muhim ekanligini e’tirof etmoqda-ki, ijodkorlik, shaxsiy xususiyat sifatida, o'smirning kommunikativ va ixtiyoriy salohiyati parametrlari, masalan, empatiya, do'stona munosabat, tanqidga sezgirlik, ekstroversiya, nevrotizm, ichkilikbozlik, o'ziga ishonch va motivatsion yo'nalish bilan chambarchas bog'liq.[3]

Ushbu yo‘nalishda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bir qator asosiy nazariy yondashuvlar shakllanganligi ta’kidlanadi. Tadqiqot ishimiz aynan o‘smirlar ijodiy faoliyatida kommunikativ ko‘nikmalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilganligi bois, mazkur yondashuvlarning psixologik mohiyatini tahlil qilishni lozim deb topdik.

Jadval-1

O‘smirlar ijodiy faoliyatini o‘rganishning asosiy yondoshuvlari


№	Asosiy yondoshuvlar	Asosiy yondoshuvlarning mazmuni
1.	Psixologik yondashuv:	Ushbu yo‘nalishda o‘smirlarda nazariy refleksiv fikrlashni rivojlantirishga, ularni emotsional, motivatsion rivojlanishlari orqali ijodiy faoliyatni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratiladi.
2.	Kognitiv yondashuv:	O'smirning ijodiy faolligi aql-zakovatning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo‘lib, g‘oyalarni shakllantirish qobiliyati, moslashuvchan fikrlash va hayotiy tajribani qo'llash va muammolarni aniqlash qobiliyati mavjidligini e’tirof etadi. Kognitiv psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, ijodiy fikrlash o‘smirning ta'lim va kognitiv faoliyat tizimiga integratsiyalashuvi orqali rivojlanadi.
3.	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:	Vazkur yondoshuvda ijodkorlik emotsional-irodaviy soha bilan chambarchas bog'liqligi ta’kidlanadi va o'smirlar o'z-o'zini hurmat qilishning keskin o'zgarishi, "daho" dan "o'rtacha" gacha, emotsionallikning kuchayishi, mustaqillik va tavakkalchilikka intilish bilan tavsiflanadi.
4.	Pedagogik-psixologik yondashuv:	Mazkur yo‘nalish esa, o‘smirlarda ijodkorlik moslashish va o'rganish vositasi sifatida ko'rib chiqadi, bunda o‘smirlarni asosan darsdan tashqari mashg'ulotlar, turli o‘yinlar, teatrlashtirilgan spektakllar, interaktiv usullar va loyihaga asoslangan faoliyatiga asosiy urg'u beriladi.
5.	O‘smirlarning faoliyatiga asoslangan yondashuv:	Ushbu yondoshuv o‘smirlar ijodkorligini muayyan tamoyillarga muvofiq noyob mahsulotni yoki g‘oyani mustaqil yaratish orqali rivojlanadigan ajralmas xususiyat deb qaraydi.

Bizning nazarimizda o‘smirlar ijodiy faoliyatini o‘rganishning asosiy yondoshuvlar o‘smirlar ijodiy faoliyatini tavsiflash va ularni shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tushuntirib berishga xizmat qiladi. Jumladan, o'smirlar ijodkorligiga psixologik yondashuvda o‘smirlarning uni o'zini ifoda etishga intilishlari, ijtimoiylashish va shaxsiy rivojlanish mexanizmi sifatida ko'rib chiqib, uni divergent fikrlashga ya’ni muammoning bir nechta yechimlarni izlashga qaratilgan aqliy failiyat ekanligi asoslanadi va bunda asosiy omillar sifatida yuqori darajadagi kognitiv motivatsiya, emotsional faollikning ortishi, tengdoshlar tomonidan e'tirofga bo‘lgam yuqori ehtiyoj va akademik vazifalardan noyob mahsulot yaratishga o'tish kabilardan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

Psixologik yondashuvning asosiy jihatlari: kognitiv jihati; shaxsiy psixologik jihati; ijtimoiy jihati; Yoshga bog'liq xususiyatlardan iborat bo‘lib, uning kognitiv jihati divergent fikrlashni rivojlantirish, standart fikrlash, qoliplardan chetga chiqish, original g'oyalarni yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Bu borada o'smirlar yuqori darajadagi qiziqish, tasavvur va tavakkal qilishga tayyorliklari bilan boshqa yoshdagilardan ajralib turadilar. Shaxsiy psixologik jihat esa, ijodkorlik o'ziga ishonchni shakllantirish va individuallikni anglash vositasi bo'lib xizmat qilishi bilan birga unda ichki motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Buning sababi o'smirlar yangi narsa yaratish jarayoniga jalb qilinadi va ijobiy natijalarga erishadi. Ijtimoiy jihatida diqqatni kattalar bahosidan tengdoshlar tomonidan tan olinishiga o'tkazilishi bilan ifodalanib, bunda ijodkorlik o‘smirlar uchun muloqot vositasiga aylanadi, bu yo‘l bilan o‘smir guruhdagi o‘zining o'rnini tasdiqlaydi va toboro ijtimoiylashib boradi.[1] Yoshga bog'liq xususiyatlarda Ijodiy faoliyat o‘smir uchun ko'pincha vaqtinchalik ya’ni turli vaziyatlarni

boshdan kechirish vositasi bo‘lib, bu o‘smirlarning hissiy rivojlanishi va o'zini kashf etishlariga yordam beradi.

O‘smirlar ijodiy salohiyatni rivojlantirish maqsadli jarayon sifatida qaralib, bunda o'smirlar mustaqillikka va kognitiv qadriyatlarni qayta baholashga intiladilar va bunda haqiqiy ijodkorlik uchun zarur sharoitlarni yaratadi.[4] O‘smirlar ijodiy faolligi uchun avvalo motivatsiyaning roli:ni kuchaytirish orqali ijodiy faoliyat yuqori shaxsiy qiziqish bilan muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, bu aksariyat hollarda raqobat yoki ijtimoiy o'zaro ta'sir imkoniyati bilan rag'batlantiriladi. O‘smirlar ijodiy faolligi uchun rivojlanish shaoitlarini yaratishda avvalo loyihaga asoslangan texnologiyalar, teatrlashtirilgan spektakllar va o'zini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslashgan ta'lim muhiti zarur bo‘ladi va mazkur sharoitlar albatta kattalar rahnamoligida amalga oshiriladi. Zero, psixologlar tegishli qo'llab-quvvatlashsiz o‘smirlarda mavjud ijodiy faollil pasayishi ham mumkinligini ta'kidlaydilar va bu o'smirlarda o'zini o'zi anglashini rag'batlantiradigan muhit yaratishni talab etadi.



1.rasm. O'smirlik davrida ijodkorlikni rivojlantirishning xususiyatlari

O'smirlarda ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik shartlari mavjud bo‘lib, ularga: - ijobiy o'ziga ishonch, o'zining kuchli va qobiliyatlariga ishonish; - ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ya’ni, o'qituvchilar va ota-onalar va kattalar tomonidan o‘smirlarning ijodiy harakatlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat; - harakat natijalarini qat’iy baholamaslik yondashuvida xato qilish xavfi jazolanmaydigan qabul qiluvchi muhitni yaratishdan iborat; ijodiy faoliyat bilan ko‘proq shug‘ullanish jumladan, teatr o'yinlari, adabiy o'yinlar, loyihalar o'smirlarga hayotlarida uchaydigan to‘siqlarni yengib o‘tish, o'zgarishlar va noaniqliklarga muvaffaqiyatli dosh berishga imkon yaratadi.

Xulosa. Psixologiyada o'smirlar ijodkorligining nazariy tadqiqotlari bu davrni ijodkorlikning rivojlanishi uchun eng muhim va eng qulay bosqich sifatida ko'rib chiqadi, bu esa aniq fikrlashdan mavhum fikrlashga o'tish, o'zini anglashning ortishi va o'zini ifoda etish istagi bilan bog'liq. O'smirlik davridagi ijodkorlik nafaqat yangi narsa yaratish qobiliyati, balki "madaniyatga aylanish", ijtimoiy moslashuv va shaxsni rivojlantirish mexanizmidir. Psixologlarning o'smirlarda ijodkorligining namoyon bo‘lishi yuzasidan nazariy tadqiqotlarida mazkur davrni ijodkorlikning rivojlanishi uchun eng muhim va eng qulay (senzitiv) bosqich sifatida e’tirof etiladi. O‘smirlar bu davrda fikrlashning konkret turidan mavhum fikrlash turiga o'tishi, o'zini anglash jarayonining ortishi va o'zini namoyish etish va tan olinish nihoyatda yuqori o‘rinlarga ko‘tarilishi bilan tavsiflanib, o'smirlik davridagi ijodkorlik nafaqat yangilik yaratish qobiliyatining yuksaloshi, balki ijtimoiylashish, ijtimoiy moslashuv va shaxsni rivojlantirish mexanizmlarini ifodalaydi. Nazariy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o‘smirlik davrida ijodiy fikrlashni uning turlarini integratsiyalash orqali maqsadli rivojlantirish eng samarali yo‘l hisoblanadi va bu o'smirlarning tobora murakkablashib borayotgan hayot sharoitlariga moslashishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Выготский Л. С. Психология развития ребенка (сборник). М.: Эксмо, 2006.
2. Дружинин В.Н. ,Ушаков Д.В. Когнитивная психология. М.:ПЕР СЭ, 2002. -480 с.
3. Крайг Г., Бокум Д. Психология развития. СПб: Питер, 2012.
4. Корнилова Т.В. Методологические основы психологии/ Корнилова Т.В., Смирнов С.Д. - СПб. : Питер, 2008. - 320 с.
5. Магазов С.С. "Когнитивные процессы и модели" - М.: Издательство ЛКИ, 2007.-248 с.

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

QISHLOQ HUDUDIDA YASHOVCHI BIR VA KO‘P MILLATLI OILALARDA NI-KOH MUNOSABATLARINING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq joylarda yashovchi bir va ko‘p millatli oilalarda nikoh munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bunda ko‘p millatli oilalarda turli madaniy qadriyatlarning uyg‘unligi nikoh munosabatlarida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni kuchaytiradi hamda madaniy xilma-xillikni qabul qilish va hurmat qilish nikohdan qoniqish darajasini oshiruvchi omil sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Nikohdan qoniqish darajasi qishloq joylarda jamoaviy qo‘llab-quvvatlash va urf-odatlarga sodiqlik bilan chambarchas bog‘liq ekani ilmiy asoslandi.*

Kalit so‘zlar*: noto‘liq oilalar, an’analari, urf-odatlari, milliy madaniyat, etnik o‘zlik, nikohdan qoniqish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В МОНОЭТНИЧЕСКИХ И ПОЛИЭТНИЧЕСКИХ СЕМЬЯХ, ПРОЖИВАЮЩИХ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ

Аннотация. *В данной статье разработаны практические рекомендации, касающиеся социально-психологических особенностей супружеских отношений в моноэтнических и полиэтнических семьях, проживающих в сельской местности. В статье научно обосновано, что гармония различных культурных ценностей в полиэтнических семьях укрепляет толерантность и взаимное уважение в супружеских отношениях, а принятие и уважение культурного разнообразия выступает фактором, повышающим уровень удовлетворенности браком. Также научно доказано, что в сельской местности уровень удовлетворенности браком тесно связан с общественной поддержкой и приверженностью обычаям и традициям.*

Ключевые слова: *неполные семьи, традиции, обычаи, национальная культура, этническая идентичность, удовлетворенность браком.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MARITAL RELATIONSHIPS IN MONO-ETHNIC AND MULTI-ETHNIC FAMILIES RESIDING IN RURAL AREAS

Abstract. *This article develops practical recommendations regarding the socio-psychological characteristics of marital relationships in mono-ethnic and multi-ethnic families living in rural areas. It scientifically substantiates that in multi-ethnic families, the harmony of different cultural values strengthens tolerance and mutual respect in marital relationships, and that accepting and respecting cultural diversity is a factor that increases marital satisfaction. It is also scientifically proven that the level of marital satisfaction in rural areas is closely linked to community support and adherence to customs and traditions.*

Keywords: *incomplete families, traditions, customs, national culture, ethnic identity, marital satisfaction.*

Jahonda oila qadriyatlari ahamiyatining zaiflashuvi, nikoh munosabatlarining transformatsiyasi, noto‘liq oilalar sonining ko‘payishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e’tiborsizligi kabi xolatlarning jamiyatga ta’sir etishi sababli ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish instituti bo‘lgan oilani mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. “...Bunday tendensiyalar, jumladan, oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog‘liq bo‘lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqaradi...”. Bu borada psixologik xizmatning samarali yo‘lga qo‘yilishi va uni amalga oshirishning

o‘ziga xos kreativ yondashuvlariga e’tibor berish, psixologik xizmat jarayonini tashkil etishni takomillashtirish orqali oila muhitini barqarorlashtirish, psixologlarning professional, kommunikativ ta’sir kompetensiyalarini qaror toptirish orqali faoliyati natijadorligini ta’minlash dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir” deb belgilangan. 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son Qarori bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-son Qarori bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. 2024-yili qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi” oilaviy munosabatlarning huquqiy bazasini mustahkamladi. Bu hujjatlar oila masalalarini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessionali davlat bo‘lib, uning hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024—yil yakuniga kelib mamlakat aholisi 36,8 mln dan oshdi, ulardan o‘zbeklar 84,4%, qoraqalpoqlar 2,2%, tojiklar 4,8%, qozoqlar 2,3%, ruslar 2,1%, qirg‘izlar 0,9%, turkmanlar 0,6% va boshqa millat vakillari qolgan ulushni tashkil etadi. Bu xilma—xil etnik tarkib turli millat vakillari o‘rtasida qarindoshlik aloqalari va ko‘p millatli oilalarning shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Farg‘ona viloyati — O‘rta Osiyoning eng zich aholili va eng xilma—xil etnik tarkibga ega bo‘lgan hududlardan biridir. Viloyat aholisi 4,1 mln dan oshib, asosan o‘zbek (88%), tojik (4,7%), qirg‘iz (1,8%), rus (1,2%), tatar (0,8%), koreys (0,5%), boshqa millat vakillari (3%) dan iborat. Bu xilma—xil etnik tarkib viloyat hududida ko‘p millatli oilalar shakllanishi uchun zarur sharoitlarni yaratgan. Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari) tarixiy jihatdan turli madaniyatlar va xalqlarning birga yashash hududi sifatida shakllangan. Buyuk ipak yo‘lining markaziy yo‘nalishlaridan biri shu viloyatdan o‘tgan, bu turli millatlarning bu yerda yashashi va bir—biri bilan o‘zaro ta’sirlashishi uchun shart—sharoitlarni yaratgan.

Qishloq joylarda yashovchi oilalar — xalq an’analari, urf—odatlari, milliy madaniyat va etnik o‘zlik kabi qadriyatlarning asosiy saqlovchilari va uzatuvchilari hisoblanadi. Qishloq oilalarida shahar oilalariga nisbatan an’anaviy qadriyatlar va etnik xususiyatlar kuchliroq saqlanadi. Bir tomondan, bu millat madaniyatining saqlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ko‘p millatli oilalar tuzilganda madaniy moslashuv, etnik o‘zlik, til muloqoti va dunyoqarash farqlari bo‘yicha murakkab masalalarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, qishloq va shahar oilalari nikoh munosabatlaridagi farqlar — nikohdan qoniqish darajasi, oilaviy qadriyat yo‘nalishlari, nizolarni hal etish usullari — bugungi kunda O'zbekiston psixologiya fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Rossiya, AQSh va Yevropa mamlakatlarida ko‘p millatli oilalar fenomeni keng o‘rganilgan. WHO World Family Health Report 2024 ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha ko‘p millatli oilalar ulushi yiliga 1–2 foizga oshib bormoqda va 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich umumiy oilalarning 15–20 foizini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu fenomen globallashuv va migratsiya jarayonlarining tabiiy natijasi hisoblanadi.

Z.A.Rasulovaning “O‘zbeklarda oila-nikoh an’analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi” nomli ilmiy dissertatsiyasida o‘zbek oila-nikoh an’analari idrok etilishining mental xususiyatlari va nikoh shakllarining ijtimoiy, etnopsixologik tasnifi, o‘zbeklarda oila-nikoh an’analariga oid tushunchalar va ularning etnopsixolingvistik talqini va tavsifi, empirik tadqiqot natijalari asosida toshkentlik o‘zbeklarning mental xususiyatlari, an’anaviy va zamonaviy nikoh shakllarining ijtimoiy iqtisodiy, etnopsixologik xususiyatlari ifoda etilgan.


Oiladagi o‘zaro munosabatlar va ularning nikohning mustahkamligiga bog‘liqligiga bag‘ishlangan birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot Y.Yoqubov tomonidan o‘tkazilgan. A.Volkovaning tadqiqot yondashuvidan foydalanib, u hissiy munosabatlardagi uyg‘unlikning ajralish arafasidagi, ya’ni noto‘liqlilik ostonasidagi va mustahkam oilalarda turlicha bo‘lishini, bu bevosita birlamchi rollar taqsimotidagi o‘zgarishlarga bog‘liq ekanligiga diqqatni qaratdi. Muallif bu ikki toifali oilalarda er va xotin rollarini bajarishdagi farqni o‘rganib, hissiy o‘zaro munosabatlardagi uyg‘unlik ajralish arafasida turgan oilalarda 35% ni, ikkinchi toifali oilada esa 15%ga tushib qolishi

aniqlangan. U bevosita noto‘liq oila fenomenini alohida o‘rganmagan bo‘lsada, bizning e’tiborimizni noto‘liq oilalardagi oilaviy rollarni bajarishdagi farq va ziddiyatlar muammosiga qaratdi.

M.Utepbergenovning “Qoraqalpoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari” nomli ilmiy tadqiqot ishida qoraqalpoq oilasi etnografiyasi, demografiya, ijtimoiy va etnopsixologiyasi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari va universitet talabalarini kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda va mehribonlik uyida tarbiyalangan o‘smir o‘quvchilarning turmushga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikohga tayyorlik mezonlari, qoraqalpoq oilasida ajralishning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari, “Qizni o‘g‘irlash” milliy an’analarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, qoraqalpoq oilasidagi oilaviy nizolar o‘rganilgan [5.23].

Tadqiqotchi G.Kraygning ko‘rsatishicha, oilaviy hayotning dastlabki bosqichlarida oilaning jipsligi yuqori darajada bo‘lishi ko‘proq onaga bog‘liq bo‘lsa, o‘smirlik yoshidan farzandning emansipatsiyalana boshlashi davrida ota hal qiluvchi rolga egalik qiladi [5.85-b].

Biz tadqiqotimizni Farg‘ona viloyatining Quva tumanidan 20 juft er—xotinlar hamda Quvasoy shahar Polmon qishlog‘idan 20 juft er—xotinlar jami 80 nafar juftliklar jalb etildi. Ularda “Oilalarda nikoh munosabatlarining ijtimoiy—psixologik omillari” ijtimoiy—psixologik mualliflik so‘rovnomasini o‘tkazdik.



	O'zbek		Qirg'iz	
	Bir millatli	Ko'p millatli	Bir millatli	Ko'p millatli
Ha	40%	30%	35%	25%
Yo'q	0%	5%	5%	10%
Qisman	10%	15%	10%	15%

1-rasm “Oilamizda o‘zaro hurmat mavjud”

1-rasm natijalariga ko‘ra, “Oilamizda o‘zaro hurmat mavjud” degan fikrga aksariyat respondentlar ijobiy munosabat bildirgan. Xususan, bir millatli o‘zbek oilalarida “Ha” javobi 40% ni, qirg‘iz oilalarida esa 35% ni tashkil etgan. Bu holat mazkur oilalarda milliy qadriyatlar, kattalarga hurmat, oilaviy tarbiya va an’anaviy munosabatlar mustahkam saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bunday muhit oila a’zolari o‘rtasida ishonch, emotsional yaqinlik va o‘zaro qo‘llab—quvvatlashning yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Ko‘p millatli oilalarda ham ijobiy javoblar nisbatan yuqori bo‘lsa—da, ko‘rsatkich biroz pastroq (o‘zbeklarda 30%, qirg‘izlarda 25%). Bu esa turli madaniy qarashlar, urf—odatlar va tarbiya uslublarining farq qilishi ba’zan oilaviy munosabatlarda kelishmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, bunday oilalarda bag‘rikenglik, murosa qilish va bir—birini tushunish kabi psixologik ko‘nikmalar ham shakllanib boradi.

“Qisman” javobining 10–15% atrofida bo‘lishi ba’zi oilalarda o‘zaro hurmat to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi. Bu holat oila a’zolari o‘rtasida muloqot yetishmasligi, emotsional sovuqlik, iqtisodiy muammolar yoki avlodlar o‘rtasidagi qarashlar tafovuti bilan bog‘liq bo‘lishi

mumkin. Psixologik nuqtai nazardan, oilada hurmatning qisman namoyon bo‘lishi shaxslarda xavotir, tushkunlik yoki o‘z qadrini past baholash holatlarini keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

“Yo‘q” javobining nisbatan kamligi (0–10%) ijobiy holat sifatida baholanadi. Biroq bu ko‘rsatkich ayrim oilalarda nizolar, o‘zaro tushunmovchilik, emotsional qo‘llab—quvvatlashning yetishmasligi yoki oilaviy rollarning to‘g‘ri taqsimlanmagani bilan izohlanishi mumkin. Bunday muhitda insonlarda stress, ruhiy charchoq va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari kuzatilishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilalarda o‘zaro hurmat muhiti asosan ijobiy shakllanganini ko‘rsatadi. Bir millatli oilalarda milliy va madaniy yaqinlik hissi munosabatlarni mustahkamlasa, ko‘p millatli oilalarda esa bag‘rikenglik va o‘zaro moslashuv muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval

«Nikohdan qoniqish darajasini aniqlash” bo‘yicha jins natijalari (n=78)

	Jins	**n**	**m**	**Std.Og'ish**	**T**	**p**
Metod	erkak	39	32,36	5,13	3,2**	0,002
	ayol	39	28,79	4,79		

*p<0,05; (farq bor) **p<0,01; (ishonchli farq yuqori) ***p<0,001 (farq o‘ta yuqor ishonchli)

1—jadval natijasiga ko‘ra, “Nikohdan qoniqish darajasini aniqlash” bo‘yicha jins natijalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. Bunga ko‘ra, ayollarga qaraganda erkaklarda o‘z nikohlaridan qoniqish darajasi yuqori ekanligi o‘z isbotini topdi. Bunga sabab, erkaklarda nikohdan qoniqish darajasi ayollarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu holatni bir qator psixologik omillar bilan izohlash mumkin. Avvalo, ayollar oilaviy munosabatlarda emotsional yaqinlik, mehr, e’tibor va ruhiy qo‘llab—quvvatlashga ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Agar bu ehtiyojlar to‘liq qondirilmasa, ular nikohdagi muhitdan qoniqmaslik hissini boshdan kechirishi mumkin. Erkaklar esa ko‘pincha oiladagi moddiy barqarorlik, tashqi tinchlik va ijtimoiy rolning bajarilishini nikoh muvaffaqiyati sifatida baholaydilar. Shu sababli ular nikohdagi ayrim emotsional muammolarni kamroq sezishlari yoki ularga kamroq ahamiyat berishlari mumkin. Shuningdek, ayollar oiladagi mas’uliyatning katta qismini zimmasiga olishi — farzand tarbiyasi, uy yumushlari, oilaviy muhitni saqlash kabi vazifalar bilan ko‘proq shug‘ullanishi natijasida ruhiy va emotsional charchoqni ko‘proq his etadilar. Bu esa nikohdan qoniqish darajasining pasayishiga ta’sir qilishi mumkin. Erkaklarda esa ijtimoiy stereotiplar sababli his—tuyg‘ularni ichda saqlash va muammolarni ochiq ifoda etmaslik holati uchraydi. Natijada ular tashqi tomondan nikohdan qoniqqandek ko‘rinishi mumkin.

Bundan tashqari, ayollar odatda munosabatlarning sifati, muloqot darajasi va hissiy yaqinlikka nisbatan sezgirroq bo‘ladilar. Oiladagi kichik nizolar yoki tushunmovchiliklar ham ularning nikohdan qoniqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Erkaklar esa ko‘proq amaliy natijalarga e’tibor qaratganliklari sababli nikohdagi ayrim psixologik kamchiliklarni qoniqish darajasiga kuchli ta’sir qiluvchi omil sifatida qabul qilmasliklari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qishloq joylardagi bir va ko‘p millatli oilalarda nikohdan qoniqishni ta’minlashda o‘zaro hurmat, ishonch, milliy va madaniy qadriyatlarga nisbatan bag‘rikeng munosabat hamda samarali muloqot asosiy psixologik omillar hisoblanadi. Oilaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va millatlararo madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq joylarda yashovchi oilalarda nikohdan qoniqish darajasi oilaviy munosabatlarning barqarorligi, o‘zaro ishonch va milliy qadriyatlarga sodiqlik bilan belgilanishi aniqlandi. Ayniqsa, qishloq muhitida an’anaviy oilaviy munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Bir millatli oilalarda umumiy til, urf—odat va dunyoqarashning mushtarakligi sababli er—xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunish oson kechishi kuzatildi. Bu esa nikohdan qoniqish darajasining nisbatan yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi. Ko‘p millatli oilalarda madaniy xilma—xillik munosabatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, ayrim holatlarda qarashlar va qadriyatlardagi farqlar sababli psixologik qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkinligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-son Qarori “Xotin-qizlarni qo‘llab - quvvatlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora—tadbirlari to‘g‘risida”.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 592 b.
3. Андреева Г.М. Социалная психология. — Москва: Аспект—Пресс, 2019. — 432 б.
4. Бубнова С.С. Диагностика ценностних ориентатсий личности. — Москва: ИПРАН, 2018. — 124 б.
5. Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. 74 b
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Oila psixologiyasi. — Toshkent: TDPU, 2020. — 224 b.

Abdurahimova Durdona Tavqkkqljon qizi
2nd-year PhD student, Department of Applied English Language
Fargona State University, Fergana, Uzbekistan

ONOMASTIC STRATEGIES IN JOHN MILTON'S PARADISE LOST

Annotation. *This article examines the sources, typology, and diachronic transformations of personal names in John Milton's Paradise Lost under the impact of the Fall. Milton's onomastic strategies — drawing from biblical, apocryphal, cabbalistic sources, charactonyms, and pagan deities — are analyzed in naming angels and devils. The study highlights over 2,600 acts of naming and the Fall as a catastrophic onomastic event involving the loss and acquisition of names.*

Keywords*: onomastics, Paradise Lost, Milton, charactonym, angel names, demon names, the Fall, etymology, angelic hierarchy, lost name, biblical sources, cabbalistic sources*

JON MILTONNING "YO'QOTILGAN JANNAT" DOSTONIDA ONOMASTIK STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Jon Miltonning "Yo'qotilgan Jannat" dostonidagi shaxs nomlarining manbalari, tipologiyasi va Gunohga botish (Fall) voqeasi ta'siridagi diachronik o'zgarishlarini o'rganadi. Miltonning onomastik strategiyalari — Bibliya, apokrif, kabbalistik manbalar, charactonymlar va butparast xudolar nomlari orqali farishtalar va shaytonlarni nomlash tahlil qilinadi. Maqolada nom berish harakati (2662 ta) va nom yo'qotish jarayoni she'rning markaziy mavzusi sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *onomastika, Paradise Lost, Milton, charactonym, farishta nomlari, shayton nomlari, Gunohga botish (Fall), etimologiya, farishtalar ierarxiyasi, yo'qolgan nom, Bibliya manbalari, kabbalistik manbalar.*

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНОМАСТИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ В ПОЭМЕ ДЖОНА МИЛЬТОНА «ПОТЕРЯННЫЙ РАЙ»

Аннотация. *Настоящая статья исследует источники, типологию и диахронические изменения личных имён в эпосе Джона Мильтона «Потерянный рай» под влиянием Грехопадения. Анализируются ономастические стратегии Мильтона — библейские, апокрифические, каббалистические источники, характонимы и имена языческих богов при именовании ангелов и демонов. Особое внимание уделяется более 2662 актам именования и Грехопадению как катастрофическому ономастическому событию, связанному с утратой и обретением имён.*

Ключевые слова: *ономастика, Потерянный рай, Мильтон, характоним, имена ангелов, имена демонов, Грехопадение, этимология, иерархия ангелов, утраченное имя, библейские источники, каббалистические источники.*

1. Introduction

The study of proper names in literary texts — literary onomastics — occupies a productive intersection between linguistics, literary theory, and cultural history. Among the canonical texts of English literature, John Milton's Paradise Lost (1667) stands out as a monument of deliberate and philosophically informed naming. Larry Isitt's catalogue of the poem identifies no fewer than 2,662 acts of naming, counting place names, circumlocutions, and personal names alike [1]. This figure signals the centrality of onomastic concerns in Milton's epic project.

During the seventeenth century, naming was a major focus of philosophical and scientific inquiry. Philosophers debated the nature of "true names" in Adamic discourse and the possibility of universal, perfect languages, while naturalists worked to classify thousands of newly discovered species [2]. Paradise Lost reflects these concerns most visibly in the scenes where Adam and Eve name animals and plants. However, the present study turns to a narrower and more linguistically complex

question: how did Milton select the personal names of his supernatural characters, and how does the Fall function as a transformative onomastic event?

2. Topicality and current state of research

The onomastics of Paradise Lost has received valuable but intermittent scholarly attention. Pioneering contributions include Masson (1890), Verity (1910), West (1955), Davidson (1971), Leonard (1990), Isitt (2002), and Raymond (2010) [1]. Most recently, John Leonard's Naming in Paradise (1990) offers the most systematic account of Milton's ideological method of withholding, assigning, and changing names. The topic has received little attention within Uzbek or Central Asian philological scholarship, despite its direct relevance to comparative and contrastive onomastics.

Milton learned from Spenser's Faerie Queene how naming might be made thematic. He borrowed from Spenser the device of doubled names (Fidessa, Duessa) and the idea of true versus false genealogies. At PL 1.508-10, a false genealogy is advanced and immediately corrected — the Ionian gods "held Gods, yet confessed later than Heaven and Earth / Their boasted parents" [3]. This self-deluding inconsistency recalls the figures of Night and Mutability in Spenser. Milton, however, applies the device of paired names on a more diachronic plan, conceiving naming itself as a fundamental part of his great argument: the Fall.

3. Research methodology

The present study employs a descriptive-analytical method, drawing on close reading of Paradise Lost alongside the scholarly commentaries of Fowler (1998) and Leonard (1990). The primary analytical framework is onomastic typology: names are classified by source (biblical, apocryphal, cabbalistic, heathen-mythological, Aramaic-allegorical) and by function (designative, characterising, hierarchical, diachronic-transformative). Secondary analysis examines Milton's use of angelic titles as a distinct sub-system of nomenclature, and the way the Fall ruptures established onomastic order.

4. Analysis and discussion

4.1. Biblical Sources and the -el Suffix Pattern

Milton's primary onomastic resource was the Hebrew Bible and the Apocrypha. A standard feature of Latin Bibles was an alphabetic glossary of Hebrew personal names. From this resource Milton could access the etymological meanings of key names: Michael ("who is like God?", 1 Chron. 7:3), Gabriel ("man of God" or "strength of God", Dan. 8:16), and Uriel ("light or fire of God", 2 Chron. 13:2) [5]. Agrippa (1486–1535) observed that good angels' names characteristically end in the divine-name morphemes -el, -on, -jah, or -jod. The three angels named in the Old Testament — Gabriel, Raphael ("healing of God"), and Michael — all conform to this morphological pattern.

Milton applies the title Archangel with studied elusiveness, granting it to Michael, Raphael, and Uriel — and notably also to Satan — while withholding it from Gabriel, who is named "Chief of the angelic guards" (PL 4.550) but not given the formal rank. This suggests that "Archangel" in Paradise Lost implies mission and office rather than a fixed position in a rigid hierarchy [6].

4.2. Cabbalistic Sources and Angelic Charactonyms of Human Origin

For his minor angelic characters, Milton required a far larger inventory than Scripture provided. He therefore quarried cabbalistic and occultist sources, using biblical names originally belonging to humans rather than angels. The faithful Abdiel appears in Scripture only in human genealogies (1 Chronicles) and in the form "Abdeel, servant of God" (Jeremiah 36:26); his angelic status derives from The Book of the Angel Raziel [7]. Similarly, Uriel appears both as the Archangel of 2 Esdras 4 and as Uriel of Gibeah, a human figure in 2 Chronicles 13:2. Such transfers of human proper names into angelic nomenclature constitute a productive onomastic mechanism — producing what may be termed angelic charactonyms of human origin.

4.3. The Fall as Onomastic Catastrophe: Lost and Acquired Names

One of Milton's most original contributions to literary onomastics is his representation of the Fall as a catastrophic onomastic event. He imagines the Fall as deforming the rebel angels so profoundly that they lose not only their original characters but their very names. The protagonist's naming passes through three stages. Before the Fall he was Lucifer; after it, Raphael instructs us: "So call him now, his former name / Is heard no more in heaven" (PL 5.658-9). The name Satan, meaning "Antagonist", is the third and final stage. Satan himself first hears his fallen name when brought to

Gabriel: "Why hast thou, Satan, broke the bounds prescribed?" (PL 4.478). He later exults in it: "I glory in the name, / Antagonist of heaven's almighty king" (PL 10.386-7) [4].

The fallen angels as a group are presented as initially nameless in their new condition: "Cancelled from heaven and sacred memory, / Nameless in dark oblivion let them dwell" (PL 6.379-80). The very word ignominy, meaning "namelessness" (in- + nomen), encodes this condition etymologically. Nor had the devils yet acquired new names from their postlapsarian experience: "Though of their Names in heavenly Records now / Be no memorial, blotted out and rased / By their Rebellion" (PL 1.361-3). Milton's point is theological: to lose one's name is to lose reputation, honour, integrity, and ultimately one's nature. What the devils had been was gone, forgotten even by their former companions.

This loss of names has direct stylistic consequences. Satan, no longer knowing his companion's name, must resort to circumlocution: "Fallen Cherub" (PL 1.157). For his part, Beelzebub cannot say "Lucifer" but must address his superior as "Leader of those armies bright" (PL 1.272) — where "bright" is a residual trace of the former name Lucifer, etymologically meaning "light-bearer". Milton scholars have often remarked his "adjectival style"; the present analysis reveals its onomastic motivation: in hell, as in certain formal assemblies, circumlocutory naming is the rule because direct names are unavailable.

John Leonard's study Naming in Paradise (1990) identifies a related difficulty: at the time of Raphael's narration of the war in heaven, the fallen angels had not yet acquired their postlapsarian names. Leonard asks: "how can Raphael know these 'new names' when they have not yet been 'Got' by their owners?" [4]. He suggests Raphael speaks from foreknowledge. It is equally plausible that angelic intelligence intuits fallen names from corrupt natures — just as unfallen Adam could apprehend the names of the animals from their natures.

4.4. Heathen-Mythological and Allegorical Devil Names

Some devils bear the names of heathen gods. Beelzebub ("Lord of the Flies", Syrian origin) is introduced as "next him also in power" (PL 1.79), acquiring his name only long after: "known in Palestine, and named Beelzebub" (PL 1.78-81). Milton's Satan collects twelve parodic devil-disciples whose names are drawn from Near Eastern and Egyptian pantheons: Moloch, Chemos, Baal, Ashtaroth, Astarte, Thammuz, Dagon, Rimmon, Osiris, Isis, Horus, and Belial (PL 1.392-490). Through this onomastic device, Milton enacts a theological argument: by identifying the fallen angels with pagan gods, the minor devils drag classical antiquity's deities down into hell with them — a demotion effected through naming itself [3].

Mammon (PL 1.678-9) exemplifies the allegorical category. His name is an Aramaic abstract noun meaning "Wealth" (Matt. 6:24; Luke 16:13), functioning simultaneously as proper name, theological label, and personified vice. Milton's literary conception of this character owes much to Spenser's Mammon in The Faerie Queene 2.7, illustrating how onomastic tradition mediates between Scripture and literary invention.

4.5. Angelic Titles as a Hierarchical Nomenclature System

Alongside personal names, Milton deploys a system of collective titles for the angelic orders. God addresses the angels as "Thrones, Princedoms, Powers, Dominions" (PL 3.320) and "Thrones, Dominations, Princedoms, Virtues, Powers" (PL 5.600-1). These titles are authorised by Colossians 1:16 in the Geneva Bible: "whether they be Thrones, or Dominions, or Principalities, or Powers". The Virtues are similarly scriptural, authorised by Mark 13:25 in the Wycliffe and Vulgate traditions.

Milton draws also on Pseudo-Dionysius' Celestial Hierarchy, whose nine fixed orders (Seraphim, Cherubim, Thrones, Dominions, Powers, Virtues, Principalities, Archangels, Angels) were commonly arranged as three triads. Agrippa's Scala Novenarii preserves this complete list. However, Milton's hierarchy is explicitly meritocratic rather than ontological: office and merit, not fixed nature, determine rank. As he writes, the "name of Angel is a word of Office, not of nature" [3]. Satan's sardonic challenge — "If these magnificent Titles yet remain / Not merely titular" (PL 5.773-4) — foregrounds the gap between titular nomenclature and real power, a gap the Fall both creates and exploits.

4.6. Etymological Wordplay at the Onomastic-Literary Interface

A defining feature of Milton's onomastic art is the activation of etymological meaning as a literary device, noted at least since Thomas Newton (1704-1782). Gabriel's role as messenger in events concerning the manifestation of Christ aligns with his name's meaning. Raphael's name ("healing of God") anticipates his role as educator and guide. In the case of human names, Milton extends this practice to anagram and phonetic association: Eva encodes the Latin væ ("woe"), and reversed yields Ave — the salutation of the Annunciation — suggesting redemptive possibility within the onomastic form itself [11]. The word ignominy, as noted above, carries its onomastic meaning ("namelessness") into the text as semantic commentary.

4.7. Hidden Names and Anagrammatic Onomastics in *Paradise Lost*

An often overlooked aspect of Milton's onomastic technique is his use of hidden names embedded within the textual structure of *Paradise Lost*. While modern readers typically focus on the semantic and etymological significance of names, seventeenth-century literary culture remained receptive to more intricate forms of verbal patterning, including acrostics, anagrams, palindromes, and other graphic arrangements of letters. Such devices had a long history stretching back to classical antiquity and continued to influence Renaissance and early modern poetics. Within this tradition, names could function on both an explicit and a concealed level, allowing authors to create additional layers of meaning beyond the immediate narrative.

The practice of embedding names in poetic texts was closely associated with the belief that language possessed symbolic and structural significance extending beyond ordinary communication. Names were often viewed not merely as arbitrary labels but as repositories of moral, historical, and spiritual meaning. Consequently, the concealment of names through letter patterns was understood as a legitimate artistic strategy rather than a decorative curiosity. Milton inherited this tradition and adapted it to the intellectual and theological concerns of his epic.

One of the most frequently cited examples occurs in Book IX of *Paradise Lost*, where Satan, disguised as a serpent, approaches Eve in preparation for the temptation. At this crucial narrative moment, the initial letters of a sequence of consecutive lines form the acrostic "SATANAS," the Latin form of Satan's name. The placement of this hidden signature is particularly significant because it coincides with the moment when evil begins to operate through deception and disguise. Although Eve does not recognize the identity of her tempter, the text itself subtly discloses it to attentive readers. The acrostic therefore functions as a form of dramatic irony, exposing the truth concealed beneath Satan's outward appearance.

The significance of such devices extends beyond mere wordplay. By embedding Satan's name within the visual structure of the verse, Milton reinforces one of the central themes of the poem: the contrast between appearance and reality. Satan repeatedly assumes false identities, manipulates language, and disguises his intentions. The hidden acrostic mirrors these actions formally, creating a correspondence between linguistic structure and narrative content. In this way, the poem's onomastic patterns become an integral part of its thematic architecture.

Alongside acrostics, Milton also employs anagrammatic techniques. Anagrams enjoyed considerable popularity in Renaissance Europe and were frequently used to encode political, religious, and personal meanings. The rearrangement of letters was often believed to reveal hidden truths about individuals or events, reflecting a broader cultural fascination with linguistic symbolism. Although the popularity of anagrams began to decline during the seventeenth century, Milton remained one of the last major English poets to exploit their literary potential in a serious and systematic manner.

In *Paradise Lost*, anagrams rarely appear in obvious forms. Instead, letters are often dispersed across phrases, clauses, or groups of words, making the concealed names difficult to detect. This complexity suggests that Milton intended such patterns for highly attentive readers capable of recognizing sophisticated verbal structures. Rather than functioning as isolated puzzles, these hidden names contribute to the poem's broader system of symbolic representation and ideological commentary.

The political implications of Milton's anagrammatic practice are particularly noteworthy. Following the Restoration of the monarchy in 1660, open criticism of royal authority carried considerable personal risk, especially for Milton, whose association with the Commonwealth government and

defence of republican principles were well known. Under such circumstances, indirect forms of expression offered a means of engaging with contemporary political issues while avoiding explicit statement. Several scholars have therefore argued that certain passages associated with Satan and the rebel angels contain concealed references to major political figures of Milton's age.

Among the names identified in scholarly discussions are those of Charles I, Charles II, and Oliver Cromwell. The presence of these names within contexts of rebellion, ambition, military organization, and political authority suggests that Milton may have been encouraging readers to draw analogies between biblical events and the turbulent history of seventeenth-century England. Such associations are rarely straightforward allegories. Rather than equating individual characters with specific historical figures, Milton constructs a complex network of correspondences that invites reflection on the nature of power, legitimacy, obedience, and political corruption.

These hidden references also challenge modern interpretations of Satan as a straightforward symbol of revolutionary resistance. Many contemporary readers, influenced by later Romantic interpretations, have viewed Satan primarily as a heroic rebel opposing tyranny. However, Milton's political thought was considerably more nuanced. Throughout his life, his attitude toward political authority evolved in response to the failures of both monarchy and republican government. The possible inclusion of concealed political names within Satanic contexts suggests that the poem critiques not only kingship but also the dangers of personal ambition and authoritarian rule in all forms.

Furthermore, hidden names contribute to Milton's broader exploration of the relationship between language and identity. Throughout *Paradise Lost,* names are repeatedly linked to moral character, spiritual condition, and social status. The Fall itself results in the loss, transformation, or corruption of names, particularly among the rebel angels. Within this context, concealed names represent an additional dimension of the poem's onomastic system. They reveal that identity in Milton's universe is not always transparent or immediately visible; it may be obscured, fragmented, or embedded within deeper linguistic structures.

From a literary-onomastic perspective, Milton's use of acrostics and anagrams demonstrates the remarkable sophistication of his naming practices. Hidden names operate simultaneously on aesthetic, theological, and political levels, enriching the interpretative possibilities of the text. They illustrate how the poet integrates visual, phonological, and semantic elements into a unified artistic design. Consequently, the study of embedded names offers valuable insight into Milton's conception of language as a medium capable of expressing multiple layers of meaning at once.

The presence of these concealed onomastic structures ultimately confirms that naming in *Paradise Lost* extends far beyond the simple identification of characters. Whether openly stated or secretly encoded, names function as carriers of ideology, theology, and literary symbolism. Milton's hidden names therefore represent an important component of his overall onomastic strategy, revealing the extraordinary complexity with which he constructs meaning throughout the epic.

5. Conclusion

The analysis of personal naming in Paradise Lost reveals a sophisticated, multi-layered onomastic system. Milton's naming strategies fall into five principal types: (1) biblical names with transparent etymological meaning, used for major angelic figures; (2) apocryphal and cabbalistic names of human origin repurposed as angelic charactonyms; (3) heathen-mythological names assigned to demonic characters as theological demotion; (4) Aramaic abstract nouns functioning as allegorical devil-names; and (5) collective hierarchical titles constituting a distinct sub-system of angelic nomenclature.

Most strikingly, Milton represents the Fall itself as a catastrophic onomastic event: the rebel angels lose their original names — the most visible markers of identity and moral standing — and must acquire new, debased names in their postlapsarian condition. This diachronic dimension of Milton's onomastics, whereby names change, disappear, and re-emerge as the narrative unfolds, is without parallel in earlier English epic and constitutes a major contribution to the literary history of proper names. These findings are directly relevant to comparative onomastics and to the study of anthroponyms in literary discourse, enriching the theoretical frameworks available within contrastive linguistics.

References.

1. Isitt L. All the Names in Heaven: A Reference Guide to Milton's Supernatural Names and Epic Similes. — Scarecrow Press, 2002.
2. Wilkins J. An Essay Towards a Real Character and a Philosophical Language. — London, 1668.
3. Fowler A. (ed.) Paradise Lost by John Milton. — 2nd ed. — Longman, 1998.
4. Leonard J. Naming in Paradise: Milton and the Language of Adam and Eve. — Clarendon Press, 1990.
5. West R. Milton and the Angels. — University of Georgia Press, 1955.
6. Raymond J. Milton's Angels: The Early Modern Imagination. — Oxford University Press, 2010.
7. Marks H. The Blotted Out Names: Milton's Angels of History // Milton Studies. — 1988. — Vol. 25. — P. 211–235.
8. Agrippa H.C. Three Books of Occult Philosophy. Trans. J. Freake (1651). — Llewellyn, 1992.
9. Augustine (St). Confessions. Trans. H. Chadwick. — Oxford University Press, 1991.
10. Pseudo-Dionysius. The Celestial Hierarchy // The Complete Works. Trans. C. Luibheid. — Paulist Press, 1987.
11. Ricks C. Milton's Grand Style. — Oxford University Press, 2003.

Kabulova Indira Xojabaevna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti tyutori

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Madaniy kompetentlikning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda uni ta’lim jarayonida shakllantirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *madaniy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, madaniyatlararo muloqot, kompetensiyaviy yondashuv.*

DEVELOPMENT OF CULTURAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *This article examines the pedagogical conditions for developing the cultural competence of future primary school teachers. The essence and structural components of cultural competence, as well as effective ways of forming it within the educational process, are analyzed.*

Keywords: *cultural competence, pedagogical conditions, primary education, future teacher, intercultural communication, competency-based approach.*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические условия развития культурной компетентности будущих учителей начальных классов. Анализируются сущность и структурные компоненты культурной компетентности, а также эффективные пути её формирования в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *культурная компетентность, педагогические условия, начальное образование, будущий учитель, межкультурная коммуникация, компетентностный подход.*

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchi shaxsining intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalari, balki ularning madaniy kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Madaniy kompetentlik o‘qituvchining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglay olishi, madaniyatlararo muloqotga kirisha olishi, pedagogik etikaga amal qilishi hamda o‘quvchilarda madaniy ong va estetik didni shakllantira olish qobiliyatini ifodalaydi. Buyuk ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidir”. Ushbu fikr o‘qituvchining shaxsiy madaniy darajasi va ma’naviy qiyofasi ta’lim-tarbiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib borayotgan bir paytda, pedagoglardan tolerantlik, kommunikativ madaniyat va ijtimoiy faollik talab etilmoqda. Shuningdek, ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa mazkur jarayonni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asosda aniqlashni taqozo etadi.

Madaniy kompetentlik tushunchasi kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘liq. Kompetensiya nazariyasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri Noam Chomsky bo‘lib, u “kompetensiya” tushunchasini tilshunoslikda qo‘llagan. Keyinchalik bu atama pedagogika va psixologiyada keng qo‘llanila boshlagan.

Madaniy kompetentlik murakkab, ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lib, u shaxsning bilim, qadriyat, munosabat va amaliy faoliyat birligida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda (kompetensiyaviy va madaniyatlararo yondashuv doirasida) u quyidagi tarkibiy komponentlar orqali izohlanadi:

Tarkibiy komponent	Mazmuni	Asosiy elementlar / ko‘rsatkichlar	Rivojlanishning pedagogik ahamiyati
Kognitiv	Bilimga oid jihat, madaniyat va tarixni anglash	Milliy va jahon madaniyati, urf-odat, an’ana, etnopedagogika, san’at va adabiyot	O‘quvchilarga madaniy kontekstni tushuntirish, tarixiy-madaniy tafakkurni shakllantirish
Aksiologik	Qadriyatlarga munosabat, ma’naviy pozitsiya	Qadriyatlarga hurmat, tolerantlik, pedagogik etika, ijtimoiy mas’uliyat	O‘qituvchi shaxsiy namuna orqali o‘quvchilarda madaniy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish
Kommunikativ	Muloqot qobiliyati, madaniyatlararo aloqalar	Nutq madaniyati, empatiya, konfliktlarni hal etish, madaniyatlararo strategiyalar	Turli ijtimoiy muhitdagi bolalar bilan samarali muloqot, individual yondashuv
Faoliyat	Amaliy jihat, nazariy bilimlarni dars va tadbirlarda qo‘llash	Fanlararo integratsiya, madaniy loyihalar, interfaol metodlar, tarbiyaviy tadbirlar	Nazariy bilim va qadriyatlarni real pedagogik faoliyatga tatbiq etish, ta’lim jarayonini boyitish

Ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining madaniy kompetentligini rivojlantirish tizimli, maqsadli va integrativ yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon pedagogik shart-sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash hamda madaniyatlararo muloqot muhitini yaratish orqali samarali amalga oshiriladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

1. Ta’lim mazmunini madaniylashtirish.

Pedagogik manbalarda ta’lim mazmunini madaniylashtirish pedagogik shart-sharoit sifatida ko‘riladi. Mazkur shart:

- Darslik va o‘quv materiallariga milliy madaniyat, urf-odat, tarixiy voqealar va san’at elementlarini kiritishni nazarda tutadi (Abdulla Avloniy, Jan Amos Komenskiy).
- O‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni qadrlashni shakllantiradi.
- Integratsiyalashgan darslar orqali o‘quvchilarni madaniy kontekstda fikrlashga o‘rgatadi.

2. Kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish

Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak pedagoglarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Madaniy kompetentlikni shakllantirishda faqat nazariy bilim yetarli emas, uni amaliy faoliyat bilan boyitish zarur.

Ta’lim jarayoni talabalarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish va madaniy kontekstda muloqot qilishga yo‘naltiradi.

3. Fanlararo integratsiya

Madaniy kompetentlikni shakllantirishda turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanish muhim shartdir.

Masalan, adabiyot, tarix, tasviriy san’at va musiqiy ta’lim elementlari birlashtirilgan darslar o‘quvchilarda keng madaniy tafakkur hosil qiladi.

Fanlararo yondashuv o‘quvchilarni milliy va jahon madaniyati bilan tanishtirishda samarali hisoblanadi.

4. Interfaol metodlar va loyiha ishlari

Keys-stadi (case study), rolli o‘yinlar, loyiha va muammoli o‘qitish madaniy kompetentlikni rivojlantirishda samarali.Talabalar turli madaniy vaziyatlarni tahlil qilib, muloqot va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Madaniy-amaliy faoliyat va ekskursiyalar

Muzeylar, tarixiy obidalar, milliy bayramlar va madaniy tadbirlar o‘quvchilarda madaniy ongni shakllantirishning amaliy sharti hisoblanadi.

Masalan, Registon maydoni yoki Ichan-Qal’a kabi tarixiy joylarga ekskursiyalar.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning barcha xususiyatlarini to’liq o’rganish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e’tibor berish zarur. Bu qadriyatlar talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi va ularni kasbiy va shaxsiy rivojlanishga yo’naltiradi.

- Bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik to’siqlarni kamaytirishga qaratilgan maxsus bilimlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ularning turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

- Bo’lajak o’qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash ham dolzarb masala hisoblanadi. Nazariy poydevor mavjud bo’lganda pedagogik jarayon rejalashtiriladi va kompetentlikni shakllantirish samaradorligi oshadi.

- Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, kasbiy pedagogik ta’lim sharoitida ushbu jarayonning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv bo’lajak pedagoglarni amaliyotga tayyorlash va ularning shaxsiy hamda kasbiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish tizimli, maqsadli va integrativ yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon quyidagi shart-sharoitlar asosida samarali amalga oshiriladi:

✓ Ta’lim-tarbiya mazmunini madaniylashtirish, ya’ni milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, bu esa talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘ladi.

✓ Kommunikativ va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan maxsus bilimlar tizimini shakllantirish, bu bo‘lajak o‘qituvchilarning turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

✓ Nazariy asoslarni aniqlash, ya’ni ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy va konseptual poydevorini yaratish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va uning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

✓ Kasbiy pedagogik sharoitni hisobga olish, ya’ni amaliyot va dars jarayoni kontekstida kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bo‘lajak pedagoglarni real vaziyatlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Fikrlar xulosasidan kelib chiqib, madaniy kompetentlikni rivojlantirish – bu shaxsning bilim, qadriyat, muloqot va amaliy faoliyatini birlashtirgan murakkab jarayon bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorati va pedagogik samaradorligini belgilaydi. Ushbu shart-sharoitlar uyg‘un tarzda ta’minlangan taqdirda, pedagogning ijtimoiy-madaniy salohiyati sezilarli darajada oshadi va u o‘quvchilarda madaniy ong, tolerantlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. J.Raven (1984). Competence in modern society: Its Identification, Development and Release. – UK. P.220

3. Маркова А.К. Психология профессионализма. –М.: Знание, 1996. – 340 с.

4. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili. Monografiya. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184 b.

Bozorboyeva Marjona Jumaboy qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish (Ingliz tili) yo‘nalishi talabasi

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tillarni erta yoshdan o‘rgatish global integratsiya va shaxs kamoloti uchun poydevor hisoblanadi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijtimoiy muhitning roli hamda dars jarayonida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, og‘zaki nutqni o‘stirish nafaqat til o‘rganish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ madaniyatini yuksaltirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, ingliz tili, og‘zaki nutq, ijtimoiy-pedagogik zarurat, kommunikativ kompetensiya, muloqot ko‘nikmalari, nutq faoliyati, til o‘rgatish metodikasi, erta yoshdagi ta’lim.*

THE SOCIO-PEDAGOGICAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF ORAL COMMUNICATION SKILLS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS.

Abstract. *This article highlights the socio-pedagogical necessity and significance of developing oral speech skills of primary school students in English classes. In the modern education system, teaching foreign languages from an early age serves as a foundation for global integration and personal development. The article analyses the age and psychological characteristics of primary school pupils, the role of the social environment in developing communication skills, and effective pedagogical approaches aimed at building speech competencies in the classroom. Furthermore, it is substantiated that the development of oral speech is a key factor not only for language acquisition but also for the social adaptation and communicative culture enhancement of students.*

Keywords: *primary school, English language, oral speech, socio-pedagogical necessity, communicative competence, communication skills, speech activity, language teaching methodology, early-age education.*

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье освещаются социально-педагогическая необходимость и значение формирования устной речи учащихся начальных классов на уроках английского языка. В современной системе образования обучение иностранным языкам с раннего возраста является основой для глобальной интеграции и развития личности. В статье анализируются возрастные и психологические особенности младших школьников, роль социальной среды в развитии коммуникативных навыков, а также эффективные педагогические подходы, направленные на формирование речевых компетенций в процессе урока. Кроме того, обосновано, что развитие устной речи является важным фактором не только для изучения языка, но и для социальной адаптации и повышения коммуникативной культуры учащихся.*

Ключевые слова: *начальные классы, английский язык, устная речь, социально-педагогическая необходимость, коммуникативная компетенция, навыки общения, речевая деятельность, методика преподавания языка, раннее обучение.*

Kirish.O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy-texnikaviy omillar bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini, jumladan, chet tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bolaning ta’lim olishga to‘g‘ri tasavvurini shakllantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishi uchun zarur shart-sharoitni yaratishda boshlang‘ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili nutq malakalarini rivojlantirish — ta’lim jarayonining asosi bo‘lgan, doimo diqqat va e’tiborni talab qiladigan, o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir. Bu muammoning ijtimoiy-pedagogik o‘lchami shundaki, og‘zaki nutqning rivojlanishi nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki o‘quvchining ijtimoiy moslashuvi, jamoadagi o‘rni va shaxsiy madaniyatini ham belgilab beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini ilmiy-nazariy va tarixiy-pedagogik manbalar asosida asoslash, mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik, didaktik hamda ijtimoiy omillarni aniqlash va og‘zaki nutqni samarali rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Materiallar va metodlar Tadqiqotning uslubiy asosini quyidagi nazariy metodlar tashkil etadi: pedagogik va psixologik adabiyotlarning ilmiy-nazariy tahlili; tarixiy-pedagogik tahlil (Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ta’limiy g‘oyalari, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiyning qarashlari); konseptual-terminologik tahlil (“moslashuvchanlik”, “ko‘nikuvchanlik”, “adaptatsiya”, “og‘zaki nutq” tushunchalarining ilmiy talqini); qiyosiy tahlil; sintez va umumlashtirish metodlari.

Tadqiqot manba bazasini o‘zbekistonlik pedagog va psixolog olimlar (S. Rahimov, S. Nishonova, M. Quronov, Sh.S. Sharipov, Sh.U. Nurullayeva, Q.S. Jumaniyozov, K.A. Farfiyeva, K.H. Rahimova, B. Abdullayeva, M. Abdullayeva, N. Muslimov)ning tadqiqotlari, shuningdek, klassik pedagogik manbalar (Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy) tashkil etadi.

Natijalar

1. Og‘zaki nutqni shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari

Markaziy Osiyoda ta’lim metodlarining rivojlanish tarixi shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi qadimdan pedagogik amaliyotning markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tadbir al-manozil” asarida yosh bolalarni tug‘ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma’lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini ta’kidlaydi va yakka tartibda emas, jamoa tartibida o‘qitishni afzal deb biladi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. Ular birga bo‘lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z tasavvuri va nutqlarini rivojlantiradilar”. Bu fikr zamonaviy chet tilini o‘qitish metodikasidagi kommunikativ va jamoaviy yondashuvning tarixiy ildizini ko‘rsatadi.

Ta’lim olishga moslashtirilgan shaxsni tarbiyalash muammolari Yan Amos Komenskiyning tadqiqotlarida ham alohida o‘rin tutgan. Olim borliqni o‘rganishga yordam beruvchi sezgi organlarining bilish tizimidagi yetakchi o‘rnini ta’kidlagan, bilish jarayonlarining empirik, ilmiy va amaliy bosqichlarini hamda ong va sezgilar xususiyatini batafsil tavsiflagan.

K.D. Ushinskiy tasavvur, fikrlash va iroda sifatlarini rivojlantirishdan iborat ta’limiy faoliyat mexanizmini birinchilardan bo‘lib asoslab bergan. U o‘quvchining ijodkorlik sifatlari rivojlanish jarayonida shakllanib borayotgan g‘oyalarga ishonch va qat’iyatni tarbiyalab borish zaruratini qayd etadi.

Respublikamiz pedagog-olimlari S. Nishonova va M. Quronovning tadqiqotlarida o‘quvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirish asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish va barkamol shaxsni shakllantirish konsepsiyalari yaratilgan.

Sh.S. Sharipov boshlang‘ich nutq malakalarini shakllantirish jarayonini psixofiziologik jihatdan bir necha bosqichda amalga oshishini keltirib o‘tadi. Birinchisi — havas, ehtiyojlarning eng sodda shakli bo‘lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi — xohish, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo‘lib, shaxsning ma’lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi va eng murakkab bosqich — qiziqish — xohish va u bilan bog‘liq tushunchalar asosida yuzaga keladi va hayotdagi tashqi ta’sirlar, shaxs faoliyati hamda ta’lim-tarbiya

jarayoni ta’sirida shakllanib boradi. Bu psixologik omillar — diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda — o‘quvchining og‘zaki nutqi rivojlanishida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

2. Og‘zaki nutqni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari

Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayonida o‘quvchining quyidagi to‘rt asosiy psixik faoliyat turini hisobga olish lozim:

Perseptiv faoliyat — harakatlar natijasida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi; ingliz tili darsida — ko‘rgazmali materiallar, rasm, video orqali yangi leksik birliklarning idrok etilishi;

Mnematik faoliyat — narsa va hodisalarning mohiyatiga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi va esda saqlanishi bilan bog‘liq; chet til darsida — yangi so‘zlar, nutq qoliplari va dialoglarni xotirada saqlash;

Fikrlash faoliyati — aql va fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan; chet til darsida — kontekstdan ma’no chiqarish, gap qurish, muammoli vaziyatlarni nutq bilan hal qilish;

Imajitiv faoliyat (“imaje” — obraz so‘zidan) — ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini tasavvur qilishni taqozo etadi; chet til darsida — rolli o‘yinlar, ertaklar, vaziyatli sahnachalar orqali yangi muloqot vaziyatini yaratish.

3. Pedagogik adaptatsiyaning turlari

Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda moslashuvchanlik (adaptatsiya) faoliyatining quyidagi turlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Ma’naviy adaptatsiya — o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ma’naviy-axloqiy sohada to‘g‘ri muloqot va munosabatni yuzaga keltirishga asos bo‘luvchi o‘ziga xos yondashuvga asoslangan moslashuv turi.

Didaktik adaptatsiya — o‘quv materialini tanlash, loyihalash va o‘quvchilarni o‘zlashtirishga ko‘niktirishning pand-nasihatga asoslangan moslashtirish turi.

Texnologik adaptatsiya — yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratishga moslashish, ulardan to‘g‘ri foydalanishga ko‘nikishga qaratilgan adaptatsion faoliyat turi. Bu o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini butunlay qamrab oluvchi, moslashish jarayonining eng murakkab turi hisoblanadi.

4. Og‘zaki nutqni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Ijtimoiy omillar: turmush tarzining bir xil emasligi (shahar–qishloq; ziyoli–oddiy oila; katta yoshdagilar mavjud oila–yosh oila); turli millatga mansublik; hududiy farqlar; mentalitet va qadriyatlar.

Subyektiv (o‘quvchiga oid) omillar: o‘quvchining loqaydligi va bo‘shligi; nuqsoniy kamchiliklar; erkatoylik; gender xususiyatlari (o‘g‘il/qiz); maktabga tayyorlik darajasi.

Obyektiv (ta’lim jarayoniga oid) omillar: o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni jalb qila olmaslik; sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi va alohida shug‘ullanish uchun vaqt yetishmovchiligi; o‘qituvchining rag‘batlantirishi yoki kamsitishi; ko‘rgazmali vositalarning yetishmasligi; o‘quvchining qiziqishlari inobatga olinmasligi; sinf jamoasida tan olinish imkoniyatining mavjudligi yoki yo‘qligi; ijodiy va yoshga oid topshiriqlarning berilishi yoki murakkabligi.

Muhokama. Olib borilgan nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutqni shakllantirish jarayoni bola xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar) va pedagogik (ta’lim berish va ta’lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Bu borada tadqiqotchi olima B. Abdullayevaning fikrlari diqqatga sazovor: uning ta’kidlashicha, “intellektual imkoniyatlarsiz o‘quvchining mehnatga ijodiy munosabatlarini shakllantirish turli o‘quv fanlari mazmunini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida amalga oshiriladi”. Boshqa bir tadqiqotchi M. Abdullayeva maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tasavvurlar va bilimlar asosida

dunyoqarashni shakllantirishning turli shakllari — durdona asarlar, kino, musiqa, tasviriy san'at namunalari va boshqa usullarni tahlil qilib bergan. Bu yondashuvlar ingliz tili darsida ham qo'l keladi: rasmlar, qo'shiqlar, multfilm parchalari yosh o'quvchining og'zaki nutqini tabiiy muhitda faollashtiradi.

Q.S. Jumaniyozovning tushuntirishicha, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tezda ta'limga moslasha olmasliklarining sabablaridan biri — ularning boshlang'ich ta'lim haqida to'g'ri tasavvurlarining yetarli emasligidir. Olimning fikricha, "o'quvchilarning tasavvuriga berilayotgan obyektlar to'liq, atroflicha ishlangan bo'lishiga qaramasdan, boshlang'ich bosqichlarda o'quvchilar uni to'liq tasavvurga keltira olmaydi. Bunday holda esda saqlashning yetarli ishlamasligi uni to'liq tafakkurga olib chiqish imkonini bermaydi". Bu xulosa ingliz tili o'qitishda lug'aviy birliklar va nutq qoliplarini taqdim etishda ko'rgazmali, sezgi-obrazli yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

K.A. Farfiyeva ijtimoiy tasavvurning mohiyatini tahlil qilib, o'quvchilarda ommaviy axborot vositalari orqali turli tasavvurlarning hosil bo'lishini, uning salbiy va ijobiy jihatlarini ko'rsatib o'tgan. K.H. Rahimova esa maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy tasavvurlari shakllanishida rolli o'yinlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib bergan; bu xulosalar ingliz tili darsidagi role-play, dialog va vaziyatli mashqlarning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi.

Tasavvur va nutqning o'zaro bog'liqligi haqida A. Potebnyaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Tasavvur — tafakkurimizning ajralmas qismi. Tasavvur faqatgina so'zda namoyon bo'ladi. So'z esa shakl va tasavvurdan tashkil topgan jonli tildagi fikrning ifodasidir". Bu o'rinda *tasavvur → fikr → so'z* ko'rinishidagi ketma-ketlik hosil bo'ladi. N. Palagina va N.V. Samsonov tasavvurni biz ilgari idrok qilmagan, tajribamizda uchratmagan narsa va hodisalarning obrazlarini mavjud xotira tasavvuri asosida miyamizda yaratish faoliyati sifatida ta'riflaydilar. Demak, ingliz tilidagi yangi so'z va iboralar avval o'quvchining tasavvurida obraz sifatida shakllanadi, so'ngra so'z orqali nutqda ifodalanadi.

Pedagog olim N. Muslimov o'zining tadqiqotlarida shunday yozadi: "Rivojlantirish hamda tarbiya individga nisbatan yagona maqsad — uning jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan holda ta'sir qiladi, biroq rivojlantirish bu vaqtda individ ega bo'lgan sifatga qaratiladi, tarbiya esa u ega bo'lmagan, lekin jamiyatda qaror topgan axloqiy meyorlarda ko'zda tutilgan sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi". Demak, ingliz tilida og'zaki nutqni shakllantirishda bolaning oldindan shakllangan til tajribasi (ona tili va atrof-muhit) bilan birga, yangi til muhitining qadriyatlarini ham tanishtirib borish kerak.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlil natijalari boshlang'ich sinflarda ingliz tili darslarida og'zaki nutqni samarali shakllantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni shakllantirishga imkon beradi.

Birinchidan, sinfdan tashqari mashg'ulotlar davrida o'quvchilarni ko'proq ijodiy nutqiy topshiriqlar bilan shug'ullantirish lozim — ingliz tilidagi sahna sahnachalar, ertak aytib berish, rolli muloqotlar mantiqiy fikrlash qobiliyatini va tasavvurni kengaytiradi.

Ikkinchidan, milliy bayramlar, kechalar, tadbirlar, buyuk allomalarimizning tavalludiga bag'ishlangan dasturlar orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash bilan bir qatorda chet til vositasida o'z madaniyatini ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantirish mumkin.

Uchinchidan, o'quvchilarning sevimli ertaklari va qahramonlari aks ettirilgan, fantaziyaga boy ko'rgazmali materiallar, jumboqli rasmlar, kitob, o'quv qo'llanma va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, ona tili darslari tajribasida sinab ko'rilgan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi[1] ingliz tili darslariga ham moslashtirilishi va og'zaki nutqning ijodiy-mustaqil komponentini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tarixiy-pedagogik manbalar, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning jamoaviy ta'lim va nutq rivojlanishi bo'yicha qarashlari, zamonaviy kommunikativ metodikaning tarixiy ildizlarini ko'rsatadi va ingliz tili darslarida jamoaviy, hamkorlikka asoslangan og'zaki nutq mashqlarining nazariy asosini mustahkamlaydi.

[1]Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi : ped. fan. n-di diss. — Qarshi, 2008. — B. 145.

Shunday qilib, ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirish — nafaqat lingvistik, balki chuqur ijtimoiy-pedagogik vazifa bo‘lib, u o‘quvchining tashabbuskorligi, mustaqilligi, ijodiy fikrlashi va kommunikativ madaniyatini rivojlantiruvchi, istiqbolda barkamol shaxsni shakllantiruvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения : в 2 т. Т. 1. – Москва : Педагогика, 2002. – 656 с.
2. Нишонова С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока : автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Ташкент, 2008. – 54 с.
3. Nurullayeva Sh. U. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi : ped. fan. nomz. ... diss. – Qarshi, 2008. – 158 b.
4. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida. – Toshkent : O‘qituvchi, 2001. – 128 b.
5. Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сины : автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1964. – 24 с.
6. Sharipov Sh. S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti : ped. fan. d-ri ... diss. – Toshkent : TDPU, 2012. – 256 b.
7. Ушинский К. Д. Человек как предмет воспитания. Т. II. – Москва, 2006. – 624 с.

Mirzajonova Eleonora Topvoldievna
Farg‘ona davlat universiteti,
Pedagogika–psixologiya va san’atshunoslik fakulteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti

PSIXOTERAPEVTIK USULLARNING TALABALARDA RUHIY TIKLANISH VA XAVOTIRLANISH DARAJASIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada psixoterapevtik usullarining talabalar ruhiy tiklanishi, emotsional barqarorligi va xavotirlanish darajasiga ta’siri nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universitetining 1-kurs talabalari ishtirokida o‘tkazilgan bo‘lib, umumiy tanlanma 32 nafar respondentdan iborat. Dastlabki diagnostikada “Xavotirlanish darajasini o‘lchash shkalasi”dan foydalanildi, keyingi bosqichda yuqori va o‘rta yuqori xavotirlanish ko‘rsatkichiga ega 12 nafar talaba bilan psixoterapevtik mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mashg‘ulotlarda relaksatsion texnikalar, nafas mashqlari, autogen mashqlar, ijobiy fikrlash, emotsional o‘zini bo‘sh qo‘yish va guruhiy qo‘llab-quvvatlash usullari qo‘llanildi. Natijalar psixoterapevtik mashg‘ulotlardan so‘ng ishtirokchilarda xavotirlanish ballari o‘rtacha 27,67 balldan 18,42 ballgacha kamayganini ko‘rsatdi. Maqolada olingan natijalar psixologik talqin qilindi va oliy ta’lim muassasalarida ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *psixoterapiya, ruhiy tiklanish, xavotirlanish, emotsional barqarorlik, stress, relaksatsiya, guruhiy trening, talaba yoshlar.*

ВЛИЯНИЕ ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ВОССТАНОВЛЕНИЕ И УРОВЕНЬ ТРЕВОЖНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье теоретически и эмпирически анализируется влияние психотерапевтических методов на психическое восстановление, эмоциональную устойчивость и уровень тревожности студентов. Исследование проведено среди студентов первого курса Ферганского государственного университета; общая выборка составила 32 респондента. На первичном этапе была использована шкала измерения уровня тревожности, после чего с 12 студентами, показавшими высокий и уровень тревожности выше среднего, были организованы психотерапевтические занятия. В ходе занятий применялись релаксационные техники, дыхательные упражнения, аутогенная тренировка, методы позитивного мышления, эмоциональной разрядки и групповой поддержки. Результаты показали, что после занятий средний показатель тревожности снизился с 27,67 до 18,42 балла. В статье представлена психологическая интерпретация результатов и предложены практические рекомендации по поддержке психического здоровья студентов в системе высшего образования.*

Ключевые слова: *психотерапия, психическое восстановление, тревожность, эмоциональная устойчивость, стресс, релаксация, групповая тренинговая работа, студенческая молодёжь.*

THE INFLUENCE OF PSYCHOTHERAPEUTIC METHODS ON PSYCHOLOGICAL RECOVERY AND ANXIETY LEVELS IN STUDENTS

Abstract. *The article provides a theoretical and empirical analysis of the influence of psychotherapeutic methods on students’ psychological recovery, emotional stability, and anxiety level. The study was conducted among first-year students of Fergana State University, with a total sample of 32 respondents. At the initial stage, an anxiety level assessment scale was used; at the next stage, psychotherapeutic sessions were organized for 12 students who demonstrated high and medium-high anxiety levels. The sessions included relaxation techniques, breathing exercises, autogenic training, positive thinking methods, emotional release exercises, and group support. The results showed that after the intervention the participants’ mean anxiety score decreased from 27.67 to 18.42 points. The article provides a psychological interpretation of the findings and offers practical recommendations for supporting students’ mental health in higher education settings.*

Keywords: *psychotherapy, psychological recovery, anxiety, emotional stability, stress, relaxation, group training, university students.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda hayot sur'atining tezlashuvi, axborot yuklamasining ortishi, ijtimoiy raqobat va ta'lim jarayonidagi bosim yoshlarning ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limga ilk qadam qo‘ygan talabalar yangi ijtimoiy muhitga moslashish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘quv yuklamasini boshqarish va shaxslararo munosabatlarda o‘z o‘rnini topish jarayonida emotsional zo‘riqish va xavotirlanishga duch keladilar. Shuning uchun talabalarning ruhiy tiklanishini qo‘llab-quvvatlash, stressga bardoshliligini oshirish va emotsional barqarorligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalari psixologik xizmatining muhim vazifalaridan biridir.

Psixoterapiya shaxsning ichki ziddiyatlarini anglash, salbiy emotsiyalarni qayta ishlash, adaptiv fikrlash strategiyalarini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga xizmat qiluvchi psixologik yordam tizimi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda psixoterapiya faqat klinik simptomlarni kamaytiruvchi vosita sifatida emas, balki shaxsning ichki resurslarini faollashtiruvchi, emotsional nazoratni rivojlantiruvchi va psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi jarayon sifatida talqin etiladi [1].

Mazkur maqolaning maqsadi psixoterapiya usullarining talabalar ruhiy tiklanishi va xavotirlanish darajasiga ta'sirini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, unda talabalardagi xavotirlanish holatlari dastlabki skrining asosida aniqlanib, psixoterapevtik mashg‘ulotlardan oldingi va keyingi natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi.

Psixoterapiya tarixida psixoanalitik, gumanistik, kognitiv-bihevioral, guruhiy, relaksatsion va integrativ yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi. Z. Freyd shaxs ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar va anglanmagan kechinmalarni psixoterapevtik tahlil predmeti sifatida asoslagan bo‘lsa, K. Rojers insonni shartsiz qabul qilish, empatiya va samimiy terapevtik munosabatni ruhiy sog‘lomlashuvning asosiy sharti sifatida ko‘rsatadi [1].

Kognitiv-bihevioral yondashuv vakillari A. Beck va A. Ellis emotsional iztirobning manbai ko‘pincha voqeaning o‘zi emas, balki shaxsning uni qanday talqin qilishi bilan bog‘liq ekanini ta'kidlaydilar. A. Beckning kognitiv terapiyasida salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash va ularni konstruktiv fikrlar bilan almashtirish xavotir va depressiv kechinmalarni kamaytirishning samarali mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Stress va ruhiy tiklanish masalalarini tushuntirishda H. Selyening umumiy moslashuv sindromi haqidagi nazariyasi hamda R. Lazarusning kognitiv baholash konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Selye stressni organizmning tashqi yoki ichki ta'sirlarga umumiy javob reaksiyasi sifatida izohlaydi, Lazarus esa insonning vaziyatni xavf yoki imkoniyat sifatida baholashi emotsional natijani belgilashini ko‘rsatadi.

Guruhiy psixoterapiya va treninglar masalasida I. Yalomning nazariyasi alohida ahamiyatga ega. U guruhda kechadigan universallik hissi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, empatiya va ijtimoiy o‘rganish omillarini shaxsning ruhiy tiklanishida muhim terapevtik resurs sifatida baholaydi. O‘zbek psixologiya maktabida E. G‘. G‘oziyev, V. M. Karimova va M. G. Davletshin, M. T. Isakovalarning ishlari emotsional holat, psixologik yordam, muloqot madaniyati va treninglarning shaxs psixologik salomatligini mustahkamlashdagi o‘rnini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Farg‘ona davlat universitetining 1-kurs talabalari orasida o‘tkazildi. Umumiy tanlanma 32 nafar respondentdan iborat bo‘lib, tadqiqotda kuzatish, suhbat, psixodiagnostik skrining va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Dastlab barcha ishtirokchilarning xavotirlanish darajasi "Xavotirlanish darajasini o‘lchash shkalasi" yordamida o‘rganildi. Shundan so‘ng yuqori va o‘rtadan yuqori xavotirlanish darajasiga ega 12 nafar talaba bilan psixoterapevtik mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Mashg‘ulotlar haftasiga ikki marta, har biri 30–40 daqiqadan tashkil qilindi. Dastur mazmuniga relaksatsion texnikalar, nafas mashqlari, autogen mashqlar, ijobiy fikrlash metodlari, emotsional bo‘shanish mashqlari, guruhiy muhokama va psixologik qo‘llab-quvvatlash elementlari kiritildi. Tadqiqot o‘quv-amaliy, pilot xarakterga ega bo‘lib, natijalar klinik tashxis qo‘yish uchun emas, balki

talabalarning emotsional holatini psixologik baholash va profilaktik yordam yo‘nalishlarini aniqlash uchun talqin qilindi.

1-jadval.

Tadqiqotning metodologik dizayni

Ko‘rsatkich	Tavsif
Tadqiqot bazasi	Farg‘ona davlat universiteti
Ishtirokchilar	1-kurs talabalari
Umumiy tanlanma	32 nafar talaba
Intervensiya guruhi	Yuqori va o‘rtadan yuqori xavotirlanish ko‘rsatkichiga ega 12 nafar talaba
Metodika	“Xavotirlanish darajasini o‘lchash shkalasi”
Mashg‘ulotlar mazmuni	Relaksatsiya, nafas mashqlari, autogen mashqlar, ijobiy fikrlash, guruhiy qo‘llab-quvvatlash

Dastlabki diagnostika natijalari talabalarda xavotirlanishning turli darajalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. 32 nafar ishtirokchidan 9 nafari (28,1%) me’yor darajadagi, 11 nafari (34,4%) bir oz yuqori, 8 nafari (25,0%) yuqori, 4 nafari (12,5%) o‘rtadan yuqori xavotirlanish ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi. Bu natijalar birinchi kurs talabalari orasida moslashuv, baholanish, jamoa oldida chiqish va shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq emotsional zo‘riqish mavjudligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Talabalarda xavotirlanish darajalari taqsimoti (n=32)

Xavotirlanish darajasi	Talabalar soni	Foizda (%)	Psixologik talqin
Me’yor darajada	9	28,1	Emotsional barqarorlik nisbatan yaxshi
Bir oz yuqori	11	34,4	Ayrim vaziyatlarda ichki zo‘riqish kuzatiladi
Yuqori	8	25,0	Stress va xavotir holatlari tez-tez namoyon bo‘ladi
O‘rtadan yuqori	4	12,5	Kuchli xavotir va emotsional beqarorlik belgilari kuzatiladi; psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj mavjud

Yuqori va o‘rtadan yuqori xavotirlanish ko‘rsatkichiga ega talabalar bilan olib borilgan psixoterapevtik mashg‘ulotlar natijalari ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. 12 nafar ishtirokchida dastlabki ballar 25–30 oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan keyingi ko‘rsatkichlar 16–21 ball oralig‘iga tushdi. O‘rtacha ball 27,67 dan 18,42 gacha kamaydi, ya’ni o‘rtacha pasayish 9,25 ballni tashkil etdi. Bu taxminan 33,4% ijobiy o‘zgarishni bildiradi. Juftlangan t-mezon bo‘yicha oldingi va keyingi ballar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($t(11)=42,51$; $p<0,001$). Shu bilan birga, tadqiqot kichik tanlanma va nazorat guruhisiz olib borilgani sababli ushbu natijalar pilot xulosa sifatida talqin qilinishi lozim. Olingan natijalar psixoterapevtik mashg‘ulotlarning talabalar ruhiy tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xavotirlanish ballarining pasayishi relaksatsion mashqlar, nafas texnikalari, emotsional bo‘shanish va ijobiy fikrlash metodlarining talabalarda ichki zo‘riqishni kamaytirishga yordam bergani bilan izohlanadi. Guruhiy muloqot va qo‘llab-quvvatlash muhiti esa talabalarda “men bu muammo bilan yolg‘iz emasman” degan psixologik tasavvurni shakllantirgan, bu esa emotsional yengillik va ijtimoiy moslashuvni kuchaytirgan.

Tadqiqot materialidagi muhim metodologik jihat shundan iboratki, qo‘llanilgan metodika o‘quv-amaliy skrining vazifasini bajargan. Shuning uchun natijalarni klinik tashxis yoki yakuniy terapevtik samaradorlik isboti sifatida emas, balki psixologik yordamga ehtiyojni aniqlash va qisqa muddatli profilaktik mashg‘ulotlar ta’sirini baholash uchun pilot ko‘rsatkich sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Kelgusida nazorat guruhi, kengroq tanlanma va validlashtirilgan talaba yoshiga mos metodikalar asosida tadqiqotni davom ettirish ilmiy ishonchlilikni oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida birinchi kurs talabalari uchun moslashuv davrida qisqa muddatli psixologik treninglar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, stressni boshqarish va kommunikativ moslashuvni yengillashtirishga xizmat qiladi. Universitet psixologik xizmatida relaksatsiya, nafas mashqlari, emotsional bo‘shanish, ijobiy fikrlash va reflektiv suhbatlarga asoslangan profilaktik dasturlarni muntazam joriy etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, xavotirlanish darajasi yuqori talabalar bilan individual maslahat va guruhiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini uyg‘unlashtirish samarali hisoblanadi.

Talabalar bilan ishlashda ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi, ishtirok ixtiyoriyligi va psixologik xavfsizlik tamoyillariga qat’iy rioya qilish zarur. Psixoterapevtik mashg‘ulotlar klinik davolash o‘rnini bosmaydi; og‘ir emotsional holatlar aniqlanganda talabani malakali mutaxassisga yo‘naltirish talab etiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari psixoterapiya usullarining talabalar ruhiy tiklanishi, emotsional barqarorligi va xavotirlanish darajasini kamaytirishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostikada ishtirokchilarning 62,5 foizida me’yordan yuqoriroq xavotirlanish ko‘rsatkichlari kuzatilgan bo‘lsa, yuqori va o‘rtadan yuqori xavotirlanish darajasiga ega 12 nafar talaba bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan so‘ng o‘rtacha ball 9,25 punktga kamaydi.

Psixoterapevtik mashg‘ulotlar talabalarda emotsional bo‘shanish, o‘zini anglash, ijobiy fikrlash, stressni boshqarish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslarini faollashtirishga yordam berdi. Shunday qilib, qisqa muddatli psixologik treninglar oliy ta’lim muassasalarida talabalar ruhiy salomatligini mustahkamlash, moslashuv jarayonini yengillashtirish va xavotirlanish profilaktikasini amalga oshirishda samarali yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Beck A. T. Cognitive Therapy and Emotional Disorders. – New York: Penguin Books, 1976. – 356 p.
2. Ellis A. Reason and Emotion in Psychotherapy. – New York, 1962. – 384 p.
3. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968. – 336 p.
4. Frankl V. Man’s Search for Meaning. – Boston, 1959. – 184 p.
5. Freud S. Introductory Lectures on Psychoanalysis. – London, 1920. – 510 p.
6. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York, 1995. – 352 p.
7. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 544 b.
8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 220 b.

Nigmanov Bori Botirovich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi professor,
Avazov Dilshod Alisher o'g'li
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi
E-mail: borinigmanov24@gmail.com

BASKETBOLCHILARGA TEXNIK HARAKATLARNI O‘RGATISHGA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada basketbolchilarga texnik harakatlarni o‘rgatishda harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Harakatli o‘yinlar orqali sportchilarda texnik ko‘nikmalarni shakllantirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda mashg‘ulot samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *basketbol, texnik harakatlar, harakatli o‘yinlar, metodika, jismoniy sifatlar, sport mashg‘uloti, pedagogik yondashuv.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ БАСКЕТБОЛИСТОВ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические и методические аспекты использования подвижных игр при обучении баскетболистов техническим действиям. Научно обосновываются возможности формирования технических навыков, развития физических качеств и повышения эффективности тренировочного процесса посредством подвижных игр.*

Ключевые слова: *баскетбол, технические действия, подвижные игры, методика, физические качества, тренировочный процесс, педагогический подход.*

THE USE OF ACTIVE GAMES IN TEACHING TECHNICAL SKILLS TO BASKETBALL PLAYERS

Annotation. *The article analyzes the pedagogical and methodological aspects of using active games in teaching technical skills to basketball players. The possibilities of developing technical skills, enhancing physical qualities, and increasing the effectiveness of the training process through active games are scientifically substantiated.*

Keywords: *basketball, technical skills, active games, methodology, physical qualities, training process, pedagogical approach.*

Hozirgi kunda basketbol sport turida yuqori natijalarga erishish ko‘p jihatdan sportchilarning puxta egallangan texnik harakatlariga bog‘liq. To‘pni olib yurish, uzatish, qabul qilish, savatga tashlash hamda himoya harakatlari kabi asosiy texnik elementlar o‘yin samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Shu bois mashg‘ulot jarayonida texnik ko‘nikmalarni samarali shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-maydagi “O‘zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-197-son hamda 2025-yil 8-iyuldagi “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ221-son qaror talablariga muvofiq holda talabalarga mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlar berib qolmay, balki har tomonlama etuk shaxslarni tarbiyalash, shu bilan bir qatorda ularni ma’naviy-ma’rifiy va jismoniy jihatdan ham barkamol inson sifatida shakllanishlariga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport – xalq umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakat har bir fuqorasining jismoniy hamda ma’naviy kamolotini ta’minlash asosidir.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar sport mashg‘ulotlarida an’anaviy usullar bilan bir qatorda interfaol va o‘yin texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Harakatli o‘yinlar sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning tezkor fikrlash, vaziyatni baholash va jamoada

hamkorlik qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Basketbolchilarga texnik harakatlarni o‘rgatishda harakatli o‘yinlardan foydalanish – bu mashg‘ulot jarayonida o‘yin elementlari va maxsus harakatli mashqlar yordamida sportchilarda zarur texnik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yo‘nalish ayniqsa boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida samarali bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi.


Basketboldagi asosiy texnik harakatlar quyidagilardan iborat:

- to‘pni olib yurish (dribling),
- to‘pni uzatish va qabul qilish,
- savatga tashlash,
- himoya va harakatlanish texnikasi.

An’anaviy mashg‘ulotlarda bu elementlar ko‘pincha takroriy mashqlar orqali o‘rgatiladi. Biroq harakatli o‘yinlar yordamida ushbu harakatlar tabiiy, raqobatli va emotsional muhitda mustahkamlanadi. Masalan, tezkor uzatmalar o‘yini, aniqlikka yo‘naltirilgan estafeta mashqlari yoki kichik maydondagi mini-o‘yinlar texnik elementlarni samarali rivojlantiradi.


Sport texnikasiga o‘rgatish amaliyotida shug‘ullanuvchilarga individual texnikani erkin o‘zlashtirish vaziyati tug‘diriladi. Bunday yondashuv bola organizmida chuqur joylashgan nasliy harakat qobiliyatlarini “ochilishiga” olib keladi, yangi harakat usullarini ixtiro qilinishiga imkon yaratiladi. “Texnika” atamasi sport amaliyotida harakat ko‘nikmalari, ularni ijro etish usullari ichki (funksional organlar) va tashqi (qo‘l, oyoq, tana, ko‘z va h.k.) ijrochi organlarning muayyan maqsad sari o‘zaro muvofiqlashgan (koordinatsiya) tartibda bajariladigan harakat mazmunini anglatadi.

O‘yin texnikasi tasnifiy tuzilishi jihatidan hujum va himoya texnikasiga bo‘linadi. Ularning bo‘limlari, guruhlari va usullari quyidagi tasnifiy andozada aks ettirilgan (1-andoza).




1-andoza. O‘yin texnikasining tasnifi

Andozadan ko‘rinib turibdiki, o‘yin faoliyati mohiyati va yo‘nalish jihatidan hujum va himoya texnikasi bo‘limlaridan iboratdir. Ular o‘z navbatida, harakat guruhlari, harakat usullari va harakat shakllaridan tarkib topgan. Har bir holat usullari turlari va shakllari o‘yin vaziyati jamoadoshlar va raqiblarning joylashishi ularning harakat texnikasi hamda to‘pning uchish texnikasi yo‘nalishiga qarab turli mazmunda yoki turli variantlarda ijro etiladi.




2-andoza. Hujum texnikasi tasnifi

Holatlar texnikasi. Basketbolga xos holatlar – bu o‘yinchining savatini ishg‘ol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatni tezkor va samarali ijro etishni ta’minlashga qaratilgan dastlabki holatlardir. Ushbu holatlarni texnik jihatdan to‘g‘ri qabul qilish muvozanatini saqlash va zudlik bilan to‘psiz yoki to‘p bilan harakatlanishi imkoniyatini yaratadi.




Yaxshi bajarilgan sakrab turib to‘xtash o‘yinchiga muvozanatni saqlab qolishga va ikkala oyoqda burilish uchun qadam tashlashga imkon beradi.

1-rasm. Joyda turib oldinga va orqaga burilish (aylanish).



2-rasm. Ikki qadamda to‘xtash



3-rasm. Sakrab to‘xtash



4-rasm. Joyda turib oldinga va orqaga burilish (aylanish). a – oldinga; b – orqaga.

Burilishlar-oldinga va orqaga burilishlarga ajratiladi. Ular orqada yoki oldinda joylashgan oyoqda, bir joyda turgan holda va harakatda, to‘p bilan va to‘psiz bajariladi. O‘yinchini birinchi qadami tayanch oyoq bo‘ladi, uning uchini maydondan ajratmay turib, ikkinchi qadami silkinch oyoq bo‘ladi va uni kerakli tomonga yo‘naltirib, burilishlarni bajaradi. Bunda oyoqlar bukilgan bo‘ladi, silkinch oyoq bilan qo‘yiladigan qadamlar raqibdan uzoqlashish maqsadida qo‘yiladi. Basketbol

ko‘plab o‘yin harakatlari (yurish, yugurish, sakrash, to‘xtash, burilish egilish, yozilish va h.k.), o‘yin ko‘nikmalari (to‘p urib harakatlanish, to‘p uzatish, uni ilish, savatga tashlash) va ularni ijro etish usullaridan iboratdir. Ana shu harakatlar, ko‘nikmalar va usullar texnikasi qanchalik mukammal, san’at darajasida shakllangan bo‘lsa, o‘yinning pirovard samaradorligi shunchalik yuksak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Nigmanov B.B., Xadjaev P., Raximqulov K.D. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma.– Tashkent: “Ilm ziyo”, 2016.

2. Каримов Б.З. Теория и методика баскетбола.// Учебник для высших учебных заведений. Т: 2020. – 585 с.

3. Ganieva F.V. Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol). // O‘quv qo‘llanma. T.: 2023. –267 b.

4. Pulatov A.A., Ganieva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Darslik. T.: 2017. – 351 b.

Orifova Oqilaxon Javlon qizi
Oila va gender ilmiy - tadqiqot instituti tayanch doktaranti

OILADA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur ishda oilada ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil etiladi. Oila muhitida ekologik ong, mas'uliyat va barqaror xulq-atvorni shakllantirishning ahamiyati yoritilib, ushbu jarayonning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda samarali yo'llari ilmiy asosda bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, oila tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik muammo, ekologik ong, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, mas'uliyat.*

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СЕМЬЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной работе рассматривается развитие экологической культуры в семье как социально-педагогическая проблема. Освещается значение формирования экологического сознания, ответственности и устойчивого поведения в семейной среде, а также научно обосновываются воспитательные возможности и эффективные пути данного процесса.*

Ключевые слова:*экологическая культура, семейное воспитание, социально-педагогическая проблема, экологическое сознание, экологическое воспитание, устойчивое развитие, ответственность.*

DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL CULTURE IN THE FAMILY AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotatoin. *This paper examines the development of environmental culture in the family as a socio-pedagogical problem. The importance of forming environmental awareness, responsibility, and sustainable behavior within the family environment is highlighted, and the educational opportunities and effective approaches of this process are scientifically substantiated.*

Keywords: *environmental culture, family education, socio-pedagogical problem, environmental awareness, environmental education, sustainable development, responsibility.*

Bugungi kunda ekologik madaniyatni yuksaltirish masalasi keng qamrovli ilmiy va ijtimoiy muammolardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonning konseptual asoslari, eng avvalo, tabiatni asrashga qaratilgan ko'p asrlik milliy an'ana va qadriyatlar, ma'naviy merosga sodiqlik, shuningdek, ekologik qonunchilikka hurmat va unga rioya etuvchi fuqarolik ongini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Sharqona qadriyatlar tizimida oilaning muqaddas ijtimoiy institut sifatidagi o'rni e'tirof etiladi. Shu jihatdan, oilaviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ekologik tarbiya yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish hamda ularni ijtimoiy faol hayotga tayyorlashda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Oilada farzandlar tarbiyasining asosiy mas'uliyati ko'p hollarda ayollar — onalar, opa-singillar, kelinlar va qizlar zimmasiga yuklatilganligi bois, oilaviy muhitda sog'lom ekologik madaniyatni shakllantirishda ayollarning faolligini oshirish orqali ekologik tarbiya samaradorligini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, bolalarda ekologik madaniyat va ekologik ongni shakllantirish jarayonida kattalarning tabiat va atrof-muhitga nisbatan munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning atrof-muhit tozaligini saqlashga qaratilgan muntazam e'tibori hamda amaliy faoliyati bolalarda ekologik xulq-atvorning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kattalarning ekologik mas'uliyatli xatti-harakatlarini kuzatgan va his etgan bolalar ularga taqlid qilish orqali ekologik qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar.

Oilaviy muhitda amalga oshiriladigan amaliy ekologik faoliyat, xususan, erta bahor mavsumida hovli va ko‘cha hududlarida oila a’zolari ishtirokida daraxt ekish, ularni parvarishlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish bolalarda ekologik tarbiyaning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Mazkur faoliyatlar orqali bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy, bunyodkor va mas’uliyatli munosabat shakllanib, ularning ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun mustahkam pedagogik zamin yaratiladi.

Amerikalik faylasuf Ye. Lasloning takidlashicha, tabiiy muhitda insoniyatning moslashuvi natijasida axloq shakllanib, bunda hurmat tamoyillari faqat insonlarga xos emas balki, tabiat, atrof-muhitga ham hurmat hissi uygonishi kerak. Yer yuzidagi barcha insonlar tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga g’amho’rlik qilish singari ahloqiy normalarga bo’ysunishi kerak. Tabiatning sifatli tirik resurslariga erishish uchun aynan shu omillarning rivojlanishi muhim axamiyatga ega.

Ko‘p ming yillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat beradiki, oilada ma’naviy-ekologik qadriyatlarga va ularning qaror topishiga katta e’tibor berilgan. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz ekologik tizimiga katta salbiy ta’sir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va an’anaviy odob-axloq qoidalari unutib yuborildi.Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan boy milliy ma’naviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat beradiki, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz Ona zamindan o‘zgacha munosabatda bo‘lib, suv, tuproq va havoni qadrlaganlar. Tabiat boyliklari va uning ehsonlarini asrab-avaylab, ulardan tejab foydalanganlar. Ma’naviyatimiz poydevori hisoblangan muqaddas manbalarda: “Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar”, deb aytilgan. Isrof qilmaslik, uvol, gunoh va me’yor kabi tushunchalarni chuqur anglab yetganlar hamda kundalik turmush faoliyatida ularga qat’iy amal qilganlar.

Atrof-muhitni, uy-joyni, mahallani, ko‘cha-ko‘yni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni va hovuzlarni toza, saranjom-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma’naviyatga, ekologik qoida va mezonlarga to‘liq amal qilganlar. Daraxtzorlar va bog‘-rog‘lar yaratilganligi haqida tariximizda ko‘plab ma’lumotlarni keltirish mumkin. Bog‘ yaratish san’atiga xalqimiz azaldan ega bo‘lgan. Tabiat tuganmas xazina emas, ko‘plab tabiiy boyliklar qayta tiklanmaydi. Ta’kidlash joizki, bolalik davri inson hayotining eng muhim va nisbatan beg‘ubor bosqichidir. Bolalar atrof-muhit va unda sodir bo‘layotgan hodisalarni ko‘proq emotsional-hissiy idrok etadilar. Natijada ularda hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi shaxsiy qarashlar, sifatlar va mustaqil munosabatlar shakllanib, ongida mustahkam saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini inobatga olgan holda, oila a’zolari bilan birgalikda tabiat qo‘yniga sayohatlar uyushtirish bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi, atrofdagi tabiiy muhitdan estetik zavq olish, hamdardlik tuyg‘ularini rivojlantiradi, tabiat bag‘rida o‘zini tutish qoidalari va odobini shakllantiradi hamda ularning sog‘lom, ma’naviy va intellektual kamolotiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda atrof-muhitda sodir bo‘layotgan turli ekologik ziddiyatlarning oldini olish va chora-tadbirlar ishlab chiqishda ekologik ta’lim va tarbiya masalalarini hal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni har bir insonga chuqur o‘rgatish, zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash; ishlab chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kuchlarini yo‘naltirishda turli tabiiy rayonlarning ekologik holatini inobatga olish;

2. Kelajakning ekologik rejasini tuzish va bu rejalarni amalga oshiradigan ekolog mutaxassislar tayyorlash;

3. Har bir inson, jamiyat va shu jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalarning o‘zlari yashab turgan muhit bilan umr bo‘yi qiladigan muloqotlari tabiat va uning boyliklarini saqlashga qaratilgan bo‘lishi, shu soha bo‘yicha ma’lumotli kadrlar tayyorlash;

4. Jamiyat a’zolari o‘zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda o‘zlari yashab turgan joy — vodiy, to‘qayzor, adirlar, tog‘lar va soylarning go‘zalligini, ularning inson hayoti va salomatligidagi ahamiyatini yosh avlodga tushuntirish, ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish;

5. Turli ekologik ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini aholiga tushuntirish, ular o‘rtasida ekologik ta’lim va tarbiya ishlarini olib borish, ekologik ziddiyatlardan qutulishga oid chora-tadbirlar va usullarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga o‘rgatish;

6. Yuqoridagi vazifalarni bajarish bog‘cha tarbiyachilari, maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining turli o‘yinlar, kinofilmlar hamda tabiiy va ijtimoiy fanlarni o‘tishda o‘zlari yashab turgan joylardagi tabiiy voqeliklar va ekologik holatlarga bog‘lab ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirish orqali bajariladi.

Ekologik ta’lim va tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri tabiatni saqlash, uning turli boyliklaridan oqilona foydalanish, muhit muhofazasi bo‘yicha uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil qilish, uni umumiy ta’lim bilan bog‘lagan holda olib borish bilan bir qatorda turli korxonalar va tashkilotlar xodimlarini qayta o‘qitish, ularga ekologiya va atrof-muhitga oid ma’lumot berishdan iborat.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlari:

1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo‘lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma’suliyatlilik shaxsda munosabat va ma’sullikni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o‘ylamay tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

Kirish. Zamonaviy jamiyatda oilaning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda hududiy jihatdan ajralgan holda faoliyat yurituvchi distant oilalar ham keng tarqalib bormoqda. Distant oila turmush o'rtoqlar yoki oila a'zolarining mehnat migratsiyasi, harbiy xizmat, ta'lim olish, xizmat safarlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida uzoq muddat davomida turli hududlarda yashashi bilan tavsiflanadigan oilaviy tizim hisoblanadi. Bunday oilalarda oilaning funksional yaxlitligi va barqarorligi bevosita jismoniy yaqinlik bilan emas, balki o'zaro ishonch, emotsional bog'liqlik, oilaviy identifikatsiya, kommunikativ faollik hamda psixologik qo'llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi. Globallashuv va migratsiya jarayonlarining jadallashuvi distant oilalar sonining ortishiga olib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida 280 milliondan ortiq xalqaro migrantlar mavjud bo'lib, ularning katta qismi o'z oila a'zolaridan uzoqda yashashga majburdir. Natijada millionlab oilalar transmilliy yoki distant oilalar shaklida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi yuqori bo'lgan Filippin, Hindiston, Meksika, Indoneziya hamda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida distant oilalar jamiyatning muhim ijtimoiy-demografik qatlamlaridan biriga aylangan. Mazkur jarayon oilaviy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirib, oilaviy farovonlikni ta'minlovchi omillarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda [3].

Distant oilalar fenomeni zamonaviy ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, oila sotsiologiyasi va migratsiya psixologiyasining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda distant oilalarning shakllanish omillari, oilaviy munosabatlar dinamikasi, ota-ona va farzand munosabatlari, emotsional yaqinlikni saqlash mexanizmlari hamda oilaviy farovonlikka ta'sir etuvchi psixologik omillar keng o'rganilgan. Biroq oilaviy farovonlikning psixologik determinantlari, ayniqsa, hududiy ajralganlik sharoitida shaxslararo munosabatlar sifati va oilaviy tizimning barqarorligini ta'minlovchi omillarning o'zaro bog'liqligi hali ham yetarli darajada tadqiq etilmagan ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda [1].

Oilaviy tizimlar nazariyasi (M.Bowen), oilaviy stress va moslashuv modeli (R.Hill, H.McCubbin), bog'lanish nazariyasi (J.Bowlby) hamda ijtimoiy almashinuv nazariyasi (P.Blau, G.Homans) nuqtayi nazaridan qaralganda, distant oilalarda oilaviy farovonlikning saqlanib qolishi oilaning ichki psixologik resurslariga bevosita bog'liqdir. O'zaro ishonch, emotsional yaqinlik, kommunikativ faollik, oilaviy identifikatsiya, psixologik moslashuvchanlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi omillar oilaviy tizimning funksional barqarorligini ta'minlovchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur resurslarning yetishmasligi esa oilaviy nizolar, emotsional uzoqlashuv, oilaviy qoniqishning pasayishi va psixologik nofarovonlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin [2]. Distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning psixologik determinantlarini aniqlash, ularning oilaviy munosabatlar sifati hamda oila a'zolarining psixologik holatiga ta'sirini empirik jihatdan o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari distant oilalar sharoitida oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish hamda oila a'zolarining psixologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqsad va uni asoslash. Distant oilalar zamonaviy oila psixologiyasi, migratsiya psixologiyasi, oila sotsiologiyasi hamda transmilliy oilalar tadqiqotlarining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Distant oilalarning psixologik tuzilmasini oilaviy identifikatsiya, emotsional yaqinlik, o'zaro ishonch, kommunikativ faollik, oilaviy rollarning moslashuvchan taqsimlanishi, psixologik moslashuvchanlik hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kabi omillar tashkil etadi. Mazkur omillar hududiy jihatdan ajralgan sharoitda oilaviy yaxlitlikni saqlab qolish, oilaviy farovonlikni ta'minlash va shaxslararo munosabatlarning barqarorligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim psixologik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy jihatdan oilaning barqarorligi va rivojlanishi birgalikdagi yashash, kundalik muloqot hamda bevosita emotsional aloqalar orqali ta'minlangan. Biroq globallashuv va migratsiya jarayonlari natijasida shakllanayotgan distant oilalarda mazkur funksiyalar raqamli kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli zamonaviy distant oilalarda oilaning iqtisodiy funksiyasi bilan bir qatorda uning psixologik, emotsional va kommunikativ funksiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Agar an'anaviy oilalarda iqtisodiy ta'minot va mehnat taqsimoti oilaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri bo'lgan bo'lsa, distant oilalarda o'zaro ishonchni saqlash,

emotsional yaqinlikni qo‘llab-quvvatlash, oilaviy identifikatsiyani mustahkamlash hamda samarali masofaviy muloqotni yo‘lga qo‘yish oilaviy farovonlikning muhim shartiga aylanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, mehnat migratsiyasi natijasida shakllangan distant oilalarda iqtisodiy resurslarning ortishi ko‘pincha oilaning moddiy farovonligini yaxshilaydi, biroq oilaviy munosabatlarning psixologik tarkibiy qismlariga murakkab ta’sir ko‘rsatadi. D.Bryceson va U.Vuorela tomonidan ishlab chiqilgan transmilliy oilalar konsepsiyasiga ko‘ra, geografik masofa oilaviy birdamlikning yo‘qolishiga emas, balki oilaviy munosabatlarning yangi shakllari va kommunikativ amaliyotlarining vujudga kelishiga olib keladi. Mualliflarning fikricha, zamonaviy distant oilalarda emotsional investitsiyalar moddiy investitsiyalar bilan teng ahamiyatga ega bo‘lib, oilaviy yaxlitlik muntazam muloqot, hissiy qo‘llab-quvvatlash va masofaviy ishtirok orqali saqlanib qoladi. C.Baldassar tomonidan Avstraliya, Italiya va Janubiy Yevropa mamlakatlaridagi migrant oilalar misolida olib borilgan tadqiqotlar ham oilaviy yaqinlik geografik masofa bilan emas, balki emotsional almashinuv sifati bilan belgilanishini ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, videomuloqot, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalaridan faol foydalanadigan oilalarda oilaviy birdamlik, o‘zaro ishonch hamda oilaviy hayotdan qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa kommunikativ faollikni distant oilalardagi oilaviy farovonlikning muhim psixologik determinantlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi [4].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda distant oilalarning barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida migratsion tajriba, iqtisodiy holat, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, oilaviy qadriyatlar tizimi, emotsional bog‘liqlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari alohida qayd etiladi. Hududiy jihatdan ajralgan oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi an’anaviy oilalardan farqli ravishda virtual muloqot, masofaviy emotsional qo‘llab-quvvatlash va raqamli kommunikatsiya vositalariga tayanadi. Shu sababli distant oilalarda oilaviy birdamlikning asosiy manbai jismoniy yaqinlik emas, balki psixologik yaqinlik va emotsional bog‘liqlik hisoblanadi [5]. Oilaviy tizimlar nazariyasi (M.Bowen) nuqtayi nazaridan distant oilalar yagona funksional tizim sifatida faoliyat yuritadi va tizimning har bir elementi boshqa elementlar bilan o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Hududiy ajralganlik sharoitida tizimning barqarorligi oila a’zolarining differensiallashuv darajasi, emotsional bog‘liqligi va moslashuv resurslariga bog‘liq bo‘ladi. Oilaviy stress va moslashuv modeli (R.Hill, H.McCubbin) esa oilaviy farovonlikni saqlashda psixologik moslashuvchanlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy resurslarning ahamiyatini asoslab beradi [6].

Shuningdek, bog‘lanish nazariyasi (J.Bowlby) distant oilalarda emotsional yaqinlik va xavfsiz psixologik bog‘lanishning oilaviy munosabatlar sifati uchun muhimligini ko‘rsatadi. O‘zaro ishonch va hissiy qo‘llab-quvvatlash yuqori bo‘lgan oilalarda hududiy masofa salbiy psixologik oqibatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Aksincha, emotsional aloqalarning zaiflashuvi oilaviy qoniqishning pasayishi, yolg‘izlik hissi va oilaviy nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Demak, distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning shakllanishi o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik, oilaviy identifikatsiya, kommunikativ faollik, psixologik moslashuvchanlik hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi determinantlar bilan belgilanadi. Mazkur omillar oilaning funksional yaxlitligini saqlash, oilaviy munosabatlar sifatini oshirish va oila a’zolarining psixologik farovonligini ta’minlashning asosiy psixologik resurslari hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Shaxsning shakllanishi va ijtimoiylashuvi jarayonida oila eng muhim ijtimoiy-psixologik institutlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Inson hayotining dastlabki bosqichlaridayoq aynan oilada uning qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlari, emotsional tajribasi, kommunikativ ko‘nikmalari va shaxslararo munosabatlarga oid tasavvurlari shakllanadi. Oila nafaqat biologik va iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muhit, balki shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy identifikatsiyasi va hayotiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy tizim hisoblanadi. Shu bois oiladagi munosabatlar sifati insonning keyingi hayot faoliyatida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor strategiyalari, ijtimoiy moslashuv darajasi, emotsional barqarorligi va shaxslararo munosabatlar madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy oila psixologiyasida oila shaxs rivojlanishining asosiy mikromuhiti sifatida talqin qilinadi. Oilada hukm suruvchi emotsional muhit, o‘zaro ishonch, qo‘llab-quvvatlash, mehr-muhabbat va kommunikativ hamkorlik darajasi shaxsning psixologik salomatligi hamda ijtimoiy kompetentligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. M.Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, oila yagona funksional tizim

bo‘lib, undagi har bir a’zoning psixologik holati va xulq-atvori boshqa a’zolar bilan o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli oilaviy munosabatlardagi har qanday o‘zgarish butun oilaviy tizim faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv va migratsiya jarayonlari sharoitida oilaning an’anaviy shakllari bilan bir qatorda distant oilalar ham keng tarqalmoqda. Distant oilalarda oila a’zolarining hududiy jihatdan ajralganligi oilaviy munosabatlarning mazmuni va mexanizmlarini ma’lum darajada o‘zgartiradi. Bunday sharoitda oilaning tarbiyaviy, emotsional va kommunikativ funksiyalarini saqlab qolish uchun o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik, oilaviy identifikatsiya, kommunikativ faollik va psixologik moslashuvchanlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur nuqtayi nazardan, oilaviy munosabatlar tizimi shaxsning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va hayotdan qoniqish darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, distant oilalar sharoitida oilaning psixologik resurslari – o‘zaro ishonch, emotsional qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ hamkorlik va oilaviy birdamlikning saqlanib qolishi oilaviy farovonlik hamda sog‘lom shaxslararo munosabatlarning muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval

Distant oilalardagi oilaviy hayotdan qoniqish darajasining jins tafovutlari (n=786)

№	Shkalalar	O‘rtacha ranklar		Statistik ko‘rsatkich	
		Erkaklar	Ayollar	U	p
1	Turmushini boshqa turmushlar bilan solishtirish	147,84	188,90	9230	0,005*
2	Turmushini tashqaridan baholash	172,91	145,82	9810	0,002*
3	Hozirgi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya	146,08	149,98	9032,5	0,701
4	Turmush o‘rtog‘ining bir qator parametrlarini baholash	177,41	149,16	9182	0,003*
5	Turmush o‘rtog‘ining xarakterini o‘zgartirishga nisbatan ustanovka	141,02	173,05	9466	0,004*
6	Nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr	148,86	148,28	10263,5	0,954
7	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi	176,72	143,50	9383,5	0,007*

** statistik tafovutlar mavjud*

Oilaviy hayotdan qoniqish darajasining distant oilalardagi er-xotinlarda alohida o‘rganilishi ularning shaxslararo munosabatlari, emotsional yaqinlik, o‘zaro ishonch, oilaviy birdamlik va oilaviy farovonlik darajasini baholash imkonini beradi. Distant oilalarda hududiy ajralganlik, migratsiya yoki mehnat faoliyati bilan bog‘liq masofaviy turmush tarzi oilaviy tizimning funksional barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oilaviy hayotdan qoniqish ko‘rsatkichlari oilaning psixologik resurslari va moslashuv imkoniyatlarining muhim indikatori sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hozirgi juftining his-tuyg‘ulariga nisbatan konstatatsiya ($U=9032,5$; $p>0,05$) hamda nikoh haqida ijobiy yoki salbiy fikr ($U=10263,5$; $p>0,05$) ko‘rsatkichlari bo‘yicha erkaklar va ayollar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Mazkur natija Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasida ta’kidlangan emotsional bog‘liqlik mexanizmlari bilan izohlanishi mumkin. Ya’ni, masofaviy yashash sharoitlariga qaramay, er-xotinlar oilaviy identifikatsiya va nikohning qadriyat sifatidagi ahamiyatini umumiy tarzda qabul qiladilar. Bunda oilaviy munosabatlarga beriladigan baho jins omilidan ko‘ra oilaning mavjud funksional holati va kommunikativ resurslariga ko‘proq bog‘liq ekanligi kuzatiladi.

Turmushini boshqa oilalar bilan solishtirish ko‘rsatkichi ayollarda yuqori qayd etildi ($U=9230$; $p=0,005$). Ushbu holat ijtimoiy taqqoslash nazariyasi (L.Festinger) nuqtayi nazaridan izohlanganda, distant oilalarda ayollar oilaviy ehtiyojlarning qondirilishi, turmush o‘rtog‘ining oilaviy ishtiroki, bolalar tarbiyasidagi mas’uliyat taqsimoti va emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasini boshqa oilalar

bilan qiyoslashga moyil bo‘ladilar. Masofaviy munosabatlar sharoitida kundalik emotsional aloqalarning cheklanganligi ayrim hollarda qoniqmaslik hissining kuchayishiga olib keladi. Natijada oilaviy munosabatlarga nisbatan tanqidiy yondashuv, frustratsiya va nizolarga sezgirlik ortishi mumkin.

Turmushini tashqaridan baholash ko‘rsatkichi erkaklarda yuqori namoyon bo‘ldi (U=9810; p=0,01). Bu holat erkaklarning oilaviy tizimdagi ijtimoiy rol va mas’uliyatlarini refleksiv baholashga moyilligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy almashinuv nazariyasiga ko‘ra, erkaklar oilaga qo‘shayotgan moddiy, ma’naviy va ijtimoiy resurslarni oilaning umumiy natijalari bilan taqqoslash orqali o‘z oilaviy samaradorligini baholaydilar. Ayniqsa, distant oilalarda iqtisodiy ta’minot va oilaviy farovonlik uchun javobgarlik hissining yuqoriligi mazkur ko‘rsatkichning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Turmush o‘rtog‘ining bir qator parametrlarini baholash ko‘rsatkichi ham erkaklarda yuqori aniqlangan (U=9182; p=0,01). Ushbu natija oilaviy munosabatlarning kognitiv komponenti ustunligini ko‘rsatadi. Erkaklar turmush o‘rtog‘ining emotsional qo‘llab-quvvatlashi, sadoqati, oilaviy majburiyatlarga munosabati va kommunikativ faolligini muntazam baholab boradilar. Distant oilalarda bevosita muloqot imkoniyatlarining kamayishi sababli bunday baholash jarayonlari yanada kuchayishi mumkin. Bu esa oilaviy ishonch va emotsional yaqinlikning oilaviy farovonlikni ta’minlovchi muhim determinantlardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Turmush o‘rtog‘ining xarakterini o‘zgartirishga nisbatan ustanovka ayollarda yuqori qayd etildi (U=9466; p=0,01). Mazkur holat oilaviy kutilmalar va oilaviy rollar bilan bog‘liq bo‘lib, ayollarning oilaviy birdamlikni saqlash, farzandlar tarbiyasida faol ishtirokni ta’minlash hamda oilaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan izohlanadi. Oilaviy stress va moslashuv nazariyasiga ko‘ra, distant oilalarda uzoq muddatli ajralishlar oilaviy rollarning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Natijada ayollarda turmush o‘rtog‘ining oilaviy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan psixologik ustanovkalar shakllanadi.

Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi erkaklarda yuqoriroq ekanligi aniqlandi (U=9383,5; p=0,01). Ushbu natija distant oilalarda erkaklarning oilaviy farovonlikni ko‘proq iqtisodiy barqarorlik, oilaning moddiy ta’minlanganligi va oilaviy majburiyatlarning bajarilishi orqali baholashlari bilan izohlanadi. Ayollarda esa oilaviy hayotdan qoniqish emotsional yaqinlik, doimiy kommunikatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash va oilaviy ishtirok darajasi bilan ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli masofaviy munosabatlar sharoitida ayollarning qoniqish darajasi nisbatan pastroq namoyon bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning asosiy psixologik determinantlari sifatida emotsional yaqinlik, oilaviy identifikatsiya, o‘zaro ishonch, kommunikativ faollik, oilaviy rollar taqsimoti hamda psixologik moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Mazkur omillar oilaning funksional barqarorligi va oilaviy farovonlik darajasini belgilovchi asosiy psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘ladi.

Oila shaxsning ijtimoiylashuvi, emotsional rivojlanishi va psixologik farovonligini ta’minlovchi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, distant oilalarda oilaviy muhitning xususiyatlari va oilaviy rollarning taqsimlanishi oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning sifati, oilaviy birdamlik hamda oilaviy farovonlik darajasini belgilovchi muhim psixologik determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Hududiy jihatdan ajralganlik sharoitida oilaning funksional yaxlitligini saqlash oila a’zolarining o‘zaro hamkorligi, kommunikativ faolligi va oilaviy rollarni samarali amalga oshirish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

2-jadval

Distant oilalardagi oilaviy muhitning jins tafovutlari (n=786)

№	Shkalalar	O‘rtacha ranklar		Statistik ko‘rsatkich	
		Erkaklar	Ayollar	U	p
1	Uyg‘unlik	152,63	145,99	9842	0,509
2	Ekspressivlik	144,68	150,83	9876	0,539
3	Nizo	154,14	145,07	9672,5	0,367
4	Mustaqillik	179,87	147,67	9150,5	0,027*
5	Muvaffaqiyat orientatsiyasi	179,50	147,89	8192,5	0,003*

6	Intellektual-madaniy orientatsiya	145,32	170,44	9947,5	0,011*
7	Faol dam olishga orientatsiya	147,38	149,18	10178,5	0,857
8	Axloq va tarbiya	146,77	149,55	10110,5	0,783
9	Tashkilotchilik	183,59	145,40	9734	0,015*
10	Nazorat	180,01	147,58	9135	0,010*

** statistik tafovutlar mavjud*

«Oilaviy muhit shkalasi» bo‘yicha olingan natijalar distant oilalardagi erkak va ayollarning oilaviy muhitni qabul qilishida umumiyliklar hamda farqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, uyg‘unlik (U=9842; p>0,05), ekspressivlik (U=9876; p>0,05), nizo (U=9672,5; p>0,05), faol dam olishga orientatsiya (U=10178,5; p>0,05) hamda axloq va tarbiya (U=10110,5; p>0,05) ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Mazkur natijalar distant oilalarda oilaviy birdamlik, his-tuyg‘ularni ifodalash, oilaviy qadriyatlarga amal qilish hamda farzandlar tarbiyasi masalalarida er va xotinlarning umumiy pozitsiyasi shakllanganligini ko‘rsatadi.

Oilaviy tizimlar nazariyasi (M.Bowen) nuqtayi nazaridan qaralganda, bunday o‘xshashliklar oilaning yagona psixologik tizim sifatida faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi. Hududiy ajralganlikka qaramasdan, er va xotinlarda oilaning asosiy qadriyatlari va maqsadlari yuzasidan umumiy tasavvurlar mavjudligi oilaviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mustaqillik ko‘rsatkichida erkaklar ustunligi qayd etildi (U=9150,5; p=0,05). Ushbu natija distant oilalarda erkaklarning muhim qarorlarni qabul qilish, oilaviy muammolarni hal etish hamda oilaviy resurslarni boshqarishdagi faol pozitsiyasi bilan izohlanadi. Ijtimoiy rollar nazariyasiga ko‘ra, erkaklar oilaning strategik qarorlarini qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi yoki uzoq muddatli xizmat faoliyati bilan bog‘liq distant oilalarda mustaqillik oilaning funksional barqarorligini saqlashga xizmat qiluvchi muhim psixologik resurs hisoblanadi. Muvaffaqiyat orientatsiyasi shkalasida ham erkaklar yuqori natijalarni namoyon etdilar (U=8192,5; p=0,01). Bu holat erkaklarning oilaviy farovonlikni ko‘proq iqtisodiy barqarorlik, kasbiy muvaffaqiyat va moddiy ta’minot orqali ta’minlashga intilishi bilan bog‘liq. Transmilliy oilalar tadqiqotlarida ham iqtisodiy mas’uliyatni his qilish distant oilalardagi erkaklarning asosiy motivatsion omillaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Intellektual-madaniy orientatsiya ko‘rsatkichi ayollarda yuqori qayd etildi (U=9947,5; p=0,05). Mazkur natija ayollarning oiladagi ma’naviy muhitni shakllantirish, farzandlarning intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni saqlash va avlodlararo uzatishda faolroq ishtirok etishini ko‘rsatadi. Distant oilalarda aynan ayollar ko‘pincha oilaning ma’naviy markazi vazifasini bajarib, oilaviy identifikatsiya va psixologik birdamlikni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi.

Tashkilotchilik (U=9734; p=0,01) va nazorat (U=9135; p=0,01) ko‘rsatkichlarida erkaklarning ustunligi kuzatildi. Ushbu natijalar oiladagi resurslarni rejalashtirish, oilaviy faoliyatni muvofiqlashtirish va oilaning strategik rivojlanishini nazorat qilish funksiyalarining ko‘proq erkaklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Oilaviy stress va moslashuv nazariyasiga ko‘ra, nazorat va tashkilotchilik oilaviy tizimning noaniqlik sharoitlariga moslashuvini ta’minlovchi muhim mexanizmlar hisoblanadi.

Umuman olganda, oilaviy muhit bo‘yicha olingan natijalar distant oilalarda oilaviy birdamlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va umumiy qadriyatlar tizimi saqlanib qolayotganligini, shu bilan birga oilaviy boshqaruv va strategik qarorlar qabul qilishda erkaklarning, ma’naviy-intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda esa ayollarning faolligi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Distant oilalardagi rollar taqsimlanishining jins tafovuti (n=786)

№	Shkalalar	O‘rtacha ranklar		Statistik ko‘rsatkich	
		Erkaklar	Ayollar	U	p
1	Bola tarbiyasi	151,01	146,97	10023	0,692
2	Oiladagi emotsional muhit	185,13	144,46	8561,5	0,005*
3	Oilaning moddiy ta’minlanishi	173,07	151,80	8696,5	0,002*
4	Ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish	147,38	149,18	10179	0,860

5	Uy sohibi va sohibasi	142,04	152,43	9581	0,306
6	Jinsiy sheriklik	134,48	157,04	8733,5	0,027*
7	Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	136,10	156,05	8915,5	0,050*

** statistik tafovutlar mavjud*

«Oilada rollarning taqsimlanishi» metodikasi natijalari distant oilalarda oilaviy vazifalar va mas'uliyatlarning o'ziga xos taqsimlanish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bola tarbiyasi (U=10023; p>0,05), ko'ngil ochishlarni tashkil etish (U=10179; p>0,05) hamda uy sohibi va sohibasi (U=9581; p>0,05) ko'rsatkichlari bo'yicha statistik farqlar aniqlanmadi. Mazkur holat distant oilalarda oilaviy vazifalarning ko'proq hamkorlik asosida amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Hududiy jihatdan ajralganlik sharoitida oilaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi oila a'zolarining vazifalarni birgalikda bajarishiga bog'liq bo'lganligi sababli, rollarning moslashuvchan taqsimlanishi oilaviy farovonlikning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Oiladagi emotsional muhit (U=8561,5; p=0,01) va oilaning moddiy ta'minlanishi (U=8696,5; p=0,01) ko'rsatkichlari bo'yicha erkaklarning ustunligi qayd etildi. Bu natija distant oilalarda erkaklarning nafaqat iqtisodiy ta'minot, balki oilaning emotsional barqarorligini saqlashda ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali muntazam muloqot qilish, oilaviy qarorlarni muhokama qilish va hissiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish erkaklarning oiladagi emotsional rolini kuchaytirayotganligini ko'rsatadi. Jinsiy sheriklik (U=8733,5; p=0,05) va oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish (U=8915,5; p=0,05) ko'rsatkichlarida ayollar ustunligi aniqlandi. Ushbu holat ayollarning oilaviy munosabatlarning emotsional-intim jihatlarini saqlash, avlodlararo muloqotni tashkil qilish, oilaviy an'analar va qadriyatlarni qo'llab-quvvatlashdagi yetakchi rolini ko'rsatadi. Bog'lanish nazariyasiga ko'ra, aynan emotsional yaqinlik va hissiy qo'llab-quvvatlash oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Distant oilalarda oilaviy rollarning taqsimlanishi an'anaviy oilalarga nisbatan ko'proq moslashuvchan xarakter kasb etadi. Erkaklar oilaning moddiy va strategik barqarorligini ta'minlashda, ayollar esa oilaning emotsional-madaniy yaxlitligini saqlashda faolroq ishtirok etadilar. Mazkur rollar tizimi oilaviy farovonlik, o'zaro ishonch, emotsional yaqinlik va shaxslararo munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Yakuniy qism. Distant oilalarning moslashtiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi, avvalo, hududiy jihatdan ajralgan sharoitda oilaviy yaxlitlikni saqlab qolish hamda oilaning asosiy funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarda namoyon bo'ladi. Oila a'zolarining uzoq muddat davomida turli hududlarda yashashi sharoitida oilaning tarbiyaviy, emotsional va kommunikativ funksiyalari yangi shakllarda namoyon bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bunday sharoitda ota-onalarning tarbiyaviy ta'siri, erxotinlar o'rtasidagi munosabatlar hamda oila a'zolarining o'zaro psixologik qo'llab-quvvatlashi raqamli kommunikatsiya vositalari orqali davom ettiriladi. Natijada distant oilalarda oilaviy birdamlikni saqlashga xizmat qiluvchi o'ziga xos kommunikativ amaliyotlar, o'zaro hamkorlik mexanizmlari va psixologik moslashuv strategiyalari shakllanadi.

Distant oilalarda oilaning umumiy faoliyat strategiyasi hamkorlik, o'zaro ishonch, mas'uliyatni taqsimlash va oilaviy birdamlikni saqlash tamoyillariga asoslanadi. Ota-onalar quyi tizimi masofadan turib qarorlar qabul qilish, oilaviy vazifalarni muvofiqlashtirish va farzandlar tarbiyasini birgalikda boshqarish bilan tavsiflansa, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar emotsional yaqinlikni saqlash, oilaviy identifikatsiyani mustahkamlash hamda o'zaro qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Shu sababli distant oilalarda shaxslararo munosabatlarning sifati va oilaviy farovonlik darajasi ko'p jihatdan kommunikativ faollik, emotsional aloqalarning barqarorligi hamda oilaviy resurslarning samarali safarbar etilishiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot natijalari distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning shakllanishida mustaqillik, shaxsiy realizatsiya, mas'uliyatlilik, mehnatsevarlik, o'zaro ishonch, kommunikativ faollik va yuqori natijalarga intilish kabi omillar muhim psixologik determinantlar

sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Mazkur sifatlar oila a’zolarining hududiy ajralganlik sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishini, oilaviy vazifalarni samarali bajarishini hamda oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, distant oilalarda oilaviy farovonlik va sog‘lom shaxslararo munosabatlarning shakllanishida o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik, oilaviy birdamlik, kommunikativ faollik, psixologik moslashuvchanlik, mas’uliyatlilik va shaxsiy realizatsiyaga intilish kabi determinantlar alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu psixologik omillar hududiy jihatdan ajralgan oilalarda oilaviy tizimning funksional barqarorligini saqlash, oila a’zolarining psixologik farovonligini ta’minlash hamda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi samaradorligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi. Shu bois distant oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish, emotsional yaqinlikni mustahkamlash va oilaviy resurslarni faollashtirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. United Nations. International Migration 2024: Highlights. – New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs, 2024. – 82 p.
2. Смирнов Т. А. Социализация личности: проблемы формирования толерантности личности в семье // Успехи современной науки. 2016. №5. 56-58 с.
3. Wilding R. Families Caring Across Borders: Migration, Ageing and Transnational Caregiving // Social Policy and Society. – 2006. – Vol. 5. – №2. – P. 275-284.
4. Parreñas R.S. Children of Global Migration: Transnational Families and Gendered Woes. Stanford University Press, 2005.
5. Falicov C.J. Working with Transnational Immigrants: Expanding Meanings of Family, Community and Culture. Family Process, 2007.
6. Mazzucato V., Schans D. Transnational Families and the Well-Being of Children. Journal of Marriage and Family, 2011, Vol.73(4), pp.704-712.
7. Bryceson D., Vuorela U. The Transnational Family: New European Frontiers and Global Networks. Oxford: Berg Publishers, 2002.
8. Baldassar L. Transnational Families and the Provision of Moral and Emotional Support. Identities, 2007, Vol.14(4), pp.385-409.

Ташкулова Зарнигор
Докторант,Самаркандского государственного института иностранных языков

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ПЕРСОНАЖНЫХ КОНЦЕПТОВ «АНГЛИЧАНИН» И «ВОСТОЧНАЯ ЖЕНЩИНА» В ТВОРЧЕСТВЕ С.МОЭМА

Аннотация. *В данной статье анализируется закрепление в творчестве С.Моэма персонажных концептов «англичанин» и «восточная женщина», продиктованных реальным положением дел на окраине «Британской империи», появлением большого количества управляющего персонала островами, банками, чиновниками разных категорий. В данной статье анализируются несколько вариантов взаимоотношения между персонажными концептами «англичанин» и «восточная женщина». В исследовании Н.В. Володиной «Концепты, универсалии, стереотипы в сфере литературоведения» художественный концепт определяется как смысловая структура, закреплённая в устойчивых образах и повторяющаяся в пределах определённого литературного ряда (произведения, авторского стиля, направления, периода, национальной традиции), обладающая культурной значимостью, семиотической и ментальной природой.*

Ключевые слова: *персонажный концепт, когнитивная поэтика, роман, «англичанин», «восточная женщина», ментальность.*

S. MOGHAM IJODLARIDA "INGLIZ" VA "SHARQ AYOLI" QAHRAMON TUSHUNCHALARINING NAMOYISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada S. Moham asarlarida "ingliz" va "sharq ayoli" xarakter tushunchalarining "Britaniya imperiyasi" chekkasidagi real vaziyat, ko'plab orol boshqaruv xodimlari, banklar va turli toifadagi amaldorlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda mustahkamlanishi tahlil qilinadi. Ushbu maqolada "ingliz" va "sharq ayoli" xarakter tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarning bir nechta variantlari tahlil qilinadi. N.V. Volodinaning "Adabiy tanqidda tushunchalar, universallik va stereotiplar" tadqiqotida badiiy tushuncha barqaror tasvirlarga bog'langan va ma'lum bir adabiy qator (asar, muallif uslubi, harakat, davr, milliy an'ana) ichida takrorlangan, madaniy ahamiyatga ega va semiotik va aqliy xususiyatga ega bo'lgan semantik tuzilma sifatida ta'riflanadi.*

Kalit so'zlar: *personaj tushunchasi, kognitiv poetika, roman, "ingliz", "sharqlik ayol", mentalitet.*

REPRESENTATION OF THE CHARACTER CONCEPTS "ENGLISHMAN" AND "ORIENTAL WOMAN" IN THE WORKS OF S. MAUGHAM

Abstract. *This article analyzes the consolidation of the character concepts "Englishman" and "Oriental woman" in the works of S. Mauham, dictated by the real situation on the outskirts of the "British Empire," the emergence of a large number of island management personnel, banks, and officials of various categories. This article analyzes several variations of the relationship between the character concepts "Englishman" and "Oriental woman." In the study by N.V. Volodina's "Concepts, Universals, and Stereotypes in Literary Criticism" defines an artistic concept as a semantic structure, anchored in stable images and repeated within a specific literary series (work, author's style, movement, period, national tradition), possessing cultural significance and a semiotic and mental nature.*

Keywords: *character concept, cognitive poetics, novel, "Englishman," "Eastern woman," mentality.*

Введение. С.Моэм в 20-х годах XX века всецело занялся литературной деятельностью и активно путешествовал по не популярным маршрутам: « Его влекли далекие страны, экзотические уголки мира, он побывал во многих британских колониях, познакомился с бытом и

нравами обитателей «окраин империи». Страны Европы и Америки, Китая и Африки, острова Тихого океана, большие портовые города и небольшие поселения в странах Азии и других континентов- вот место действия в рассказах и романах С.Моэма». [3:8] Данные путешествия давали писателю не просто новые впечатления и взгляд на иные миры, это была «пища» для его двух сборников рассказов, действие в которых происходит в экзотических странах. Писатель жил в эпоху, когда Британская Империя утвердилась в странах Восточной Азии, имела свое влияние в Китае и Гонконге, Сингапуре. Английские чиновники, миссионеры, губернаторы, работники банков были в данных краях уже обыденным явлением и интересным материалом для художественного творчества С.Моэма. Считается, что именно в «восточных сборниках» реализована установка С.Моэма –показать человека в ситуации, в особой обстановке. Тем более, что в большом количестве «восточных» рассказах созданы разнообразные образы, каждый в своем национальном пространстве, социальном статусе, особых взаимоотношениях с окружающим миром. По признанию писателя, он «всюду высматривал самобытных, интересных, диковинных людей». В данной серии произведений (включая романы «Луна и грош» и «Узорный покров») представлены европейцы, работающие на «краю Империи», жители островов и Китая, то есть представители Запада и Востока. С. Моэм - реалист видел в своих путешествиях множество европейцев, волею случая или по профессиональному распределению оказавшихся на Востоке. Все эти персонажи сохранили европейские привычками - пристрастия к бильярду, теннису, к ритуальному чаепитию в «файв-о-клок» или коктейлям даже на «окраине империи». Но все они контактировали с местным населением, погружались в стихию самобытной культуры и языка по профессиональной необходимости или по интересу.

Основная часть. В работе Н.В.Володиной «Концепты, универсалии, стереотипы в сфере литературоведения» дается определение художественного концепта: «Концепт- это смысловая структура, воплощенная в устойчивых образах, повторяющаяся в границах определенного ряда (в произведении, творчестве писателя, литературном направлении, периоде, национальной литературе),обладающая культурно-значимым содержанием, семиотичностью и ментальной природой».[1:14] Данное определение как бы является характеристикой концепта «англичанин» в произведениях С.Моэма. Более того, отвечает и следующему утверждению Н.В.Володиной: «Концепт в литературе всегда реализован в образах, но не всякий образ участвует в создании концепта».[1:7] Применительно к художественным концептам С.Моэма согласимся с первой частью утверждения исследователя, учитывая количество разнообразных типов героев, характеров, социальных статусов и т.д. Самым весомым аргументом для нашего исследования является обращение к продуктивной идеи Л.В.Миллер, сформулированной ею в диссертации «Лингвокогнитивные механизмы формирования художественной картины мира(на материале русской литературы)». Исследователь предлагает четыре типа художественных концептов, применительно к художественной концептосфере русской литературы.

К четвертой группе Л.В.Миллер относит «этнокультурно обусловленные интерпретации»(лишний человек, тургеневская девушка» в качестве «персонажных концептов». Появление в английской литературе конца Х1Х –начале ХХ века «белого человека» на окраинах Империи (творчество Стивенсона, Киплинга, Моэма) позволяет обратиться к идее Л.В.Миллер, использовать данный термин, интерпретируя его, применительно к героям С.Моэма. Думается, то не будет натяжкой обобщить данных героев как «персонажный концепт «запад» или «англичанин». Разнообразие натур, темпераментов, причин перемены их места жительства порождали массу конфликтов между собой. Назовем данные конфликты производственными (к примеру, рассказ «Макинтош»), рассказы о конфликтах на ментальной почве, психологические внутренние конфликты («За час до файф-о-клока»). Вышесказанное позволяло С.Моэму создавать удивительные сюжеты: «Акцентируя зависимость сюжета от характера, Моэм считает, что события являются производными от личности: сюжет- результат действия, связей, столкновения характеров…». [4:45] Считаем, что наиболее ярко конфликт неизбежен в процессе романа «европейца» и «восточной женщины». Любовный конфликт отвечает всем требованиям писателя, предъявляемым к рассказам, которые должны быть- предельно эмоциональными, а разрешение их всегда неожиданно, не предсказуемо: «… главнейшая его задача-

показать предмет с неожиданной стороны, удивить и взволновать».[4:43] В данной статье определим несколько вариантов взаимоотношения между персонажными концептами «англичанин» и «восточная женщина».

Следует подчеркнуть, что конфликты зависят от натуры «англичанина», его принятию или неприятию восточного окружения, его бизнеса в данной стране и социального положения, степени толерантности. Конфликты в данной серии могут быть не всегда явные. К примеру, в романе «Луна и грош» женитьба Стрикленда на девушке Ате была прагматическим шагом к обретению спокойной обстановки для творчества. Никакого конфликта или любовных переживаний С.Моэм не показывает, что определяет натуру художника, его ненависть к «романтике» и прозаическое предложение Тиары: *«She has a: «She has a bit of property down by Taravao, just before you come to peninsula, and with copra at the price it is now you could live quite comfortably. There's a house, and you'd have all the time you wanted for your painting»*. [6:211]

Показав в «парижской» части повествования страстную натуру Стрикленда, С.Моэм на Таити подчеркивает только доминирующую страсть художника рисовать, а не чувства влюбленного мужчины. Стрикленд объясняет, почему сожительство с Атой его устраивает: *«She leaves me alone. She cooks my food and looks after her babies. She does what I tell her»*. [6:220] Показательно, что даже дети принадлежат Ате, к ним Стрикленд равнодушен. Отметим, что данные отношения более характеризуют настоящую привязанность и самоотверженность Аты, чем Стрикленда, с его стороны нет никакого чувства, кроме ощущения комфорта.

В романе «The painted Veil» воспроизводится романтическая история любви манчьжурской принцессы и английского чиновника Уоддингтона. С.Моэм усиливает романтическую ауру данного романа. Сначала о «романе» как о страшном грехе рассказывает простодушная монахиня, делая акцент на «высоком» (в родстве с императорской фамилией) происхождении маньчжурки. Затем портрет и восприятие ее дается через эмоции заинтригованной Китти. Данный прием создает дополнительную эмоциональность и загадочность самому «роману». Следует подчеркнуть, как С.Моэм рисует образ Уоддингтона-циника, прожившего в Китае двадцать лет, любившего эту страну и, как ни парадоксально, понявшего страсть к нему маньчжурской принцессы: *«… that if I really left her definitely she would commit suicide»*.[8:153] Уоддингтон - англичанин, который представляет собой особый тип героя, живущего на «краю империи», с некой долей иронии принимающую данную жизнь до конца своих дней в Китае. Писатель умеет при помощи только местоимений определить нужную модальность в высказываниях героев. Уоддингтон, потерявший шансы на карьеру из-за своего романа, тем не менее думает о комфорте для своей женщины в знакомой ей стране, но не его родине: *«In China…What would she do elsewhere?»*[8:154] Это особый тип англичанина, знающего язык и китайскую литературу, и тем не менее представляющего «персонажный концепт «запад».

Результаты/Обсуждение. Автор как бы идеализирует во всем маньчжурскую принцессу, считаем, что данная героиня соответствует персонажному концепту «восток». С. Моэм подчеркивает именно те детали портрета и интерьера, в которых скрыты ассоциации, провоцирующие восприятие аристократизма и принадлежности к знатному роду: *«large eyes burned likes of liquid jet»* или *«lovely as those languid and elegant hands»*. Эмоциональность повествования, романтичность истории любви Уоддингтона (автор как бы усиливает незнанием Китти китайского языка) придает таинственность и непостижимость «востока». Монохромность интерьера подчеркнута экзотичностью облика манчьжурской принцессы: *«… large, bare room with whitewashed wall on which hung scrolls in various calligraphies … black wood and heavily carved»*[8:171]

Маньчжурская принцесса создается как некий эталон красоты Востока, изысканности и таинственных знаний. Время провождения возлюбленной Уоддингтона типично и характерно для аристократии Востока и поражает людей запада: *«She paints a little and sometimes she writes a poem»*[8:171]

В рассказе «The letter» причиной криминальной разборки является ревность красивой Лесли к толстой и не молодой китаянке, возлюбленной Джеффа Хэммонда. Если маньчжурская принцесса завораживает своей изысканностью, тайной, то любовь красивого и богатого

Джеффа Хэммонда к вульгарной «тетке» не объясняется никак, кроме признаний самого плантатора: «*He said he'd known her for years before the war and she was the only woman who really meant anything to him and the rest was just pastime*» [7:215] В рассказе «The letter» роль возлюбленной Джеффа С.Моэм снижает, она не выражает никаких чувств по поводу смерти возлюбленного, ее действия обыкновенной шантажистки. Если сравнить весь комплекс (интерьер, костюм, портрет, манеру поведения) маньчжурской принцессы и китаянки из данного рассказа, то можно почувствовать глубокую разницу авторских оценок и восприятия героев. Мистер Джойс видит в женщине лишь владелицу записки, которую она так умело продает, поэтому С. Моэм лишь подчеркивает те детали интерьера, костюма или портрета, которые необходимы «информативно». Интерьер китайской комнаты дополнял прибор для курения опиума и приторный запах. Китаянка, которая имела такую любовную власть над Джеффом Хэммондом, описана как деловая женщина: «*She was a stoutish person, not very young, with a broad, phlegmatic face, she was powdered and rouged and her eyebrows were a thin black line…*».[7:210] Одетая в полуевропейский полукитайский наряд, она не обладает изысканной тайной восточной женщины, даже китайские шелковые туфельки не добавляют к ее облику красоты. Напротив, писатель подчеркивает обилие золотых украшений, которые усиливают впечатление «торговки», для которой роман с Джеффом-способ обогащения. Смерть «возлюбленного», записка, проливающая свет на убийство, также становится предметом торга – 10 тысяч долларов .Всеми этими деталями С.Моэм воссоздал образ продажной женщины, в облике которой нет ничего загадочного или симпатичного: «*She wore heavy gold chains round her neck, gold bangles on her wrists, gold ear-rings and elaborate gold pins in her black hair*». [7:210]

С.Моэм рисует в рассказах персонажей, принадлежащих к «западной цивилизации», которые волей случая попали на острова. В рассказе «The pool» приведена трагическая история любви шотландца и местной полукровки, человека с высоким социальным статусом(работник банка), который деградирует настолько, что кончает жизнь самоубийством. С.Моэму необходима и такая, очевидно, частая история, которая начинается романтически. Но невозможность сосуществования двух ментальностей, двух цивилизаций приводит к трагедии.

«Персонажные концепты» «англичане» в рассказах С.Моэма либо любят, либо ненавидят острова. Лоусон неоднократно будет признавать в любви к этой природе: «I was all over the place when I first came out».[5:74] Герой полностью привязан к западной культуре, он начитан (цитирует «Небесную гончую» Томпсона), любит оперу, говорит о музыке Вагнера, мечтает о Лондоне: «*I suppouse Covent Garden's still going strong. I think I miss opera as much as anything here. Have you seen Tristan and Isolde?*»[5:74] Писатель как бы дает параметры того западного пространства, который близок Лоусону, что подчеркивает его определенный социальный статус в разговорах[: Лондон, ресторан «Поэлл Мэлл», Пикадилли, Стрэнд, Чаринг-КроВстреча с Этель происходит в красивой заводи, в романтической атмосфере: «*… it had a tropical richness, a passion, a scented languor which seemed to melt the heart*».[5:76] Для Лоусона родное для Этель пространство делает девушку частью его, поэтому восприятие такое же романтическое: «*she looked more than ever like a wild creature of the water or woods*», хотя в тексте есть указание на ее «*.туземное поведение*». Этель живет в туземной хижине, ее родной язык- язык жителей Самоа, хотя девушка училась в миссионерской школе и знает английский язык. С.Моэм описывает ее красоту и элегантность, которую замечают европейцы: «*She's a peach*». Любовь вне быта, вне совместного проживания, без преодоления ментальных и культурных границ - явление неземное, не материальное, что обобщает писатель: «*He loved Ethel as a poet might love the moon*».[5.78] Рассказ «The Pool» строится С. Моэмом на контрастах. Писателю важно показать, как определенные пространства способствуют самоидентификации персонажа, его поведению и ритуалам.

Отметим, что красота природы острова контрастирует со двором бунгала, где проживает семья Этель. Кокосовые пальмы вокруг заводи создают сказочную атмосферу, такие же деревья не скрывают убожества двора: «*Everything was slovenly and neglected. Little black pigs, thin and high- backed rooted about and chickens…*».*[5:79]* Таким же контрастом является романтическое отношение к Этель, как части природы, и той же девушки в качестве жены западного человека.

Заключение. Писателю необходимо, чтобы влюбленный Лоусон не видел данного убожества, не обращал внимание на негатив по отношению к его женитьбе «белого населения» острова, на изменение его статуса: *«He's a damned fool then»-said Miller*».[5:81] С.Моэм в начале рассказа стирает этнические границы между Лоусоном и Этель на этапе романтической влюбленности, но делает их огромными и не преодолимыми по мере совместной жизни. Разница ментальности, уровня образования, понимания аксиологических ценностей определили трагедию Лоусона. С. Моэм в «любовных» рассказах не осуждает героев, не принимает чью-нибудь сторону. Писатель–не судья, он показывает острые проблемы, которые неизбежно должны возникнуть на «окраине Империи» между молодыми людьми вне национальной и социальной принадлежности.

Таким образом, можно подчеркнуть, что в произведениях С. Моэма имеют место быть в качестве героев персонажными концепты (названные нами условно-З.Т.) «англичанин» и «восточная женщина». Любовный конфликт раскрывает характеры персонажей, степень их толерантности, несовместимость двух цивилизаций и культур.

Литература.

1. Володина Н.В. Концепты, универсалии, стереотипы с сфере литературоведения. -М.: Флинта: Наука, 2010.-256с.

2. Миллер Л.В, Лингвокогнитивные механизмы формирования художественной картины мира (на материале русской литературы). Диссертация на соискание уч.степ.доктора филолог.наук. СПб,2004.-303 с.

3. Михальская Н.П. Сомерсет Моэм: взгляды и творчество// С. Моэм Нечто человеческое. Рассказы. М.: Правда,1989.- С.5-17.

4. Хутыз Ф.А. Конвенция художественной прозы Сомерсета Моэма в контексте основной теории романа первой половины XX века в Великобритании. Диссертация на соискание уч.степ. кандидата фил.наук. Майкоп, Н.В. 2001.- 165 с.

5. Maugham S The Pool // Maugham S Short Stories London Vintage books 1999 P.71-105//.

6.Maugham S The Moon and Sixpence: Norilana Books. Classics 2007.-246p.

7.Maugham S The letter// Maugham S Short Stories Vintage Books London 1990,- P 180-215

8. Maugham S «The painted veil» СПб: антология КАРО,2014.- 256 с.

9. Валгина, Н.С. Теория текста. Москва, Логос. 2003. – 173 с.

10. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. Учебное пособие. М.:Флинта, Наука,1998.-246с.

11. Клебанова Н.Г«Формирование и способы репрезентации индивидуально-авторских концептов в англоязычных прозаических текстах».- Автореферат канд.диссерт.на соискание уч.степени канд.фил.наук.-Тамбов,2005.-28с.

12. Николина Н.А. Филологический анализ текста Учебное пособие. -М.: Издательский центр: Академия,2003.-256 с.

13. Павлючко И.П. Эмотивная компетенция автора художественного текста(на материале произведений Г.Гессе). Диссертация на соискание уч.степени канд.филолог.наук. Волгоград,1999. -170с.

14. ФариноЕжи Введение в литературоведение: Учебное пособие. СПб.: Издательство РГПУ им.А. Герцена, 2004. — 639 с.

Абдукахорова Азиза Кодиржоновна
магистрант кафедры русского языка и литературы
Каршинского государственного университета
E-mail: abdukaharovaaziza67@gmail.com,
Азизова Насиба Бахритдиновна
профессор кафедры русского языка и литературы
Каршинского государственного университета
E-mail: azizovanasiba@gmai.com

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА БЕЗЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ

4. Emosional xususiyatlar. Bu davrda: hissiyotlar tez o‘zgarishi; ruhiy ta’sirchanlik; mustaqillikka intilish; o‘zini namoyon qilish ehtiyoji kuchli bo‘ladi. Ayrim hollarda stress, xavotir yoki ishonchsizlik ham kuzatilishi mumkin.

5. Ijtimoiy munosabatlar. Talabalar: yangi do‘stlar orttiradi; jamoaga moslashadi; muloqot madaniyatini rivojlantiradi; mustaqil hayotga tayyorlanadi.

Talabalar psixologik jihatdan yetuk insonlar sifatida har qanday davlat va jamiyatning asosiy tayanchi hamda harakatlantiruvchi kuchi ekan, zamonaviy ijtimoiy gumanitar bilim sohasida ushbu muammoga jiddiy e’tibor qaratilishi va ko‘p yillar davomida psixologiyada shaxsning kamoloti muammosi saqlanib qolmoqda. Ayniqsa talabalik davri uchun ekzistensial va gumanistik psixologiyada tegishli «o‘zini o‘zi anglash», «to‘liq faoliyat ko‘rsatuvchi», «yetuk» va «sog‘lom» kabi tushunchalar kiritilgan.

Tanqidiy fikrlash fenomeni zamonaviy psixologiya, pedagogika, falsafa va kognitiv fanlarda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U insonning bilish faoliyatida ma’lumotlarni faqat qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash, solishtirish, sintez qilish va asoslangan xulosalar

chiqarish qobiliyatini ifoda etadi. Tanqidiy fikrlash shaxsning intellektual mustaqilligini ta’minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaraladi.

Tanqidiy fikrlash atamasi ilmiy muomalaga XX asr boshlarida kirib kelgan bo‘lib, uning ilk tizimli tahlili amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui nomiga bog‘liq. U tanqidiy fikrlashni “refleksiv tafakkur” deb atab, uni insonning ishonch va xulosalarini asoslariga tayanadigan holda qayta ko‘rib chiqish qobiliyati sifatida ta’riflagan. Dyui fikrlashni faol, maqsadli va tekshiruvchi jarayon sifatida qarab, inson har qanday bilimni tayyor holda qabul qilmasligi, balki uni tajriba va mantiq orqali tekshirishi lozimligini ta’kidlagan.

Keyinchalik bu tushuncha pedagogika, psixologiya va kognitiv fanlarda mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllandi. Robert Ennis tanqidiy fikrlashni “qanday qilib ishonish va qanday qilib harakat qilish haqida oqilona qaror qabul qilish qobiliyati” deb ta’rifladi. Dayan Halpern esa uni “bilim va ko‘nikmalarni maqsadli, o‘zini nazorat qilgan holda qo‘llash” deb hisobladi.

Piter Fasioni rahbarligida ishlab chiqilgan Delphi hisobotida tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari aniqlangan: tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘zini nazorat qilish. Bu model tanqidiy fikrlashni ko‘nikmalar va dispozisiyalar birligi sifatida qarashni taklif qiladi.Bu ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tanqidiy fikrlash faqat mantiqiy operatsiyalar majmui emas, balki shaxsning motivatsiyasi, qadriyatlari, bilish strategiyalari va o‘zini nazorat qilish qobiliyati bilan bog‘liq kompleks psixologik tuzilmadir.

K.R.Megrelidzening ta’kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to‘g‘ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tanqidiy fikrlashga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko‘rinishlarisiz o‘rganish mumkin emas. Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o‘ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo‘llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo‘ladi. Bu haqda K.R.Megrelidze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo‘yicha emas, balki ijtimoiy - tarixiy qonuniyatlar yo‘lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo‘lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo‘lishi mumkin emas.

K.R.Megrelidze inson tanqidiy fikrlashining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Fikrlar va g‘oyalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o‘zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g‘oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yetilgan ijtimoiy g‘oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo‘lib qoladi.

Zamonaviy psixologiyada tanqidiy fikrlash shaxsning bilish faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. U insonning ma’lumotni faqat qabul qilishi emas, balki uni tahlil qilishi, baholashi, qayta ishlashi va asoslangan xulosa chiqarishi bilan xarakterlanadi.

Rus psixologiyasida tanqidiy fikrlash mustaqil tushuncha sifatida kam qo‘llangan bo‘lsa-da, uning tarkibiy qismlari — tafakkur mustaqilligi, refleksiya, muammoli tafakkur, nazariy tafakkur tushunchalari orqali o‘rganilgan.

Vigotskiy tafakkurni ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda rivojlanadi deb hisoblab, inson fikrlashi faqat individual emas, balki ijtimoiy jarayon ekanini ta’kidlaydi. Bu nuqtai nazar tanqidiy fikrlashning ham muloqot, muhokama va hamkorlik orqali shakllanishini asoslaydi. Shu tariqa, tanqidiy fikrlashni quyidagicha umumlashtirish mumkin: bu insonning axborotni faol qayta ishlash, uning ishonchliligini baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, dalillarga tayanish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatidir.

O‘zbek psixologlaridan M. Davletshin tafakkurni shaxs faoliyatining asosiy mexanizmi sifatida qarab, uning ijtimoiy shartlanganligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, inson fikrlashi ijtimoiy tajriba va ta’lim jarayonida shakllanadi, shu bois tanqidiy fikrlash ham pedagogik ta’sir orqali rivojlantirilishi mumkin.

G. Shoumarov tafakkurni ijodiy va refleksiv jarayon sifatida ko‘rib, shaxsning o‘z fikrini baholay

olishi intellectual rivojning muhim belgisi ekanini ta'kidlaydi. Bu refleksiya tanqidiy fikrlashning markaziy elementi hisoblanadi .

R. Sunnatova bilish jarayonlarini tahlil qilib, diqqatni axborotni saralash va muhim jihatlarga yo'naltirish mexanizmi sifatida ta'riflaydi. Tanqidiy fikrlash jarayonida aynan diqqat insonga muhim va ahamiyatsiz ma'lumotni ajratish imkonini beradi.

Z. Nishonova tafakkurni muammoli vaziyatlarda faollashadigan bilish jarayoni sifatida ko'rib, muammoli o'qitish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usuli ekanini ta'kidlaydi.

N. Safarov o'z tadqiqotlarida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ta'lim sifatini oshirishning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi va tanqidiy fikrlashni mustaqil tafakkurning yuqori bosqichi sifatida talqin qiladi. Shu asosda tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflash mumkin: bu shaxsning ma'lumotni tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati bo'lib, u kognitiv, metakognitiv va shaxsiy komponentlar birligidan iborat.

Tanqidiy fikrlash - tafakkurning mantiqiy, tahliliy va baholovchi shakli bo'lib, insonning axborotni chuqur tahlil qilish, dalillarni solishtirish, mustaqil xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shu sababdan oldin tafakkur jarayoni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni taqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M.V.Gamezo tomonidan "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan so'z vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

V.V.Bogoslovskiy taqriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi. Keltirilgan ta'riflar orasida O.K.Tixomirovning darsligidagi ta'rif nisbatan to'liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: "Tafakkur - bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir".

Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Ularning ayrimlariga tavsifnoma berib o'tamiz. S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishidir. Muallif tafakkur operasiyalari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo'lishi deb ataydi.

A.N.Leontyev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivasiyasi to'g'risidagi nazariy metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.

P.Ya.Galperin fikriga ko'ra, tafakkur -bu orientirlash-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya'ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub'ektning tafakkuriga orientirovka qilish jarayonini o'rganishga asoslanadi deb tushuntiradi. P.Ya.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichma-

bosqich shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi. A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi.

Muhokama. Tanqidiy fikrlash fenomeni zamonaviy psixologiya, pedagogika, falsafa va kognitiv fanlarda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U insonning bilish faoliyatida ma'lumotlarni faqat qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash, solishtirish, sintez qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ifoda etadi. Tanqidiy fikrlash shaxsning intellektual mustaqilligini ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaraladi.

Shunday qilib, falsafiy, psixologik va pedagogik talqinlar tanqidiy fikrlashni inson bilish faoliyatining yuqori shakli sifatida ko'rsatdi.

Tanqidiy fikrlash - tafakkurning mantiqiy, tahliliy va baholovchi shakli bo'lib, insonning axborotni chuqur tahlil qilish, dalillarni solishtirish, mustaqil xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi.

U quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- mustaqil fikr yuritish;
- dalil va manbalarni tekshirish;
- muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish;
- xulosalarning asosli bo'lishi;
- shubha va tahlilga tayanish.

Demak, tanqidiy fikrlash — bu har qanday ma'lumotni tayyor holda qabul qilmasdan, uni tahlil qilish va asoslangan xulosaga kelish jarayonidir.

Tanqidiy fikrlash kognitiv jarayonlar (tahlil, sintez, baholash) va metakognitiv mexanizmlar (refleksiya, monitoring, o'z-o'zini nazorat qilish) birligidan tashkil topadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari:

1) psixologik xavfsiz muhit,
2) fikr bildirish erkinligi,
3) xatoga tolerant munosabat,
4) refleksiyaga vaqt ajratish.

Talabalik davri tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun eng qulay davr bo'lib, ta'lim muhiti, interaktiv metodlar va shaxsiy motivatsiya hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari

Talabalik davrida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi murakkab psixologik mexanizmlar bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda kognitiv, metakognitiv, motivatsion va shaxsiy omillar o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Avvalo, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi talabaning mavjud bilimlarini yangi axborot bilan taqqoslash, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish hamda dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatining takomillashuvi bilan bog'liq. Bu esa bilish jarayonlarining yuqori darajadagi integratsiyasini talab qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash refleksiya bilan chambarchas bog'liqdir. Refleksiya shaxsning o'z fikrlash jarayonini kuzatishi, tahlil qilishi va baholashi orqali namoyon bo'ladi. Talaba o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga, xatolarini tan olishga va yangi dalillar asosida o'z pozitsiyasini o'zgartirishga tayyor bo'lsa, unda tanqidiy fikrlashning yuqori darajasi shakllanadi. Aynan refleksiv yondashuv talabaning intellektual moslashuvchanligini ta'minlaydi hamda stereotip fikrlashning oldini oladi.

Metakognitiv nazorat ham tanqidiy fikrlashning muhim psixologik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Metakognitsiya talabaning o'z bilish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Talaba muammoni hal etish jarayonida qaysi strategiyadan foydalanayotganini anglay olsa, o'z fikrlashidagi kamchiliklarni aniqlay olsa va zarurat tug'ilganda yangi strategiyalarni qo'llay olsa, uning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yanada rivojlanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim texnologiyalarida reflektiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari va keys-metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalik davrida motivatsion omillar ham tanqidiy fikrlash rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bilishga bo'lgan ichki ehtiyoj, kasbiy o'sishga intilish va o'z ustida ishlash motivlari mavjud bo'lgan talabalarda mustaqil tahlil qilish, ilmiy izlanish olib borish hamda muammolarni turli

nuqtai nazardan baholash ko‘nikmalari tezroq rivojlanadi. Aksincha, faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan reproduktiv ta’lim tanqidiy fikrlashning rivojlanishini cheklaydi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabaning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi ta’lim muhiti yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli axborot makonining kengayishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Internet va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali tarqalayotgan turli mazmundagi axborotlarni tanlash, ularning ishonchliligini tekshirish, manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda yolg‘on axborotni aniqlash talabalardan rivojlangan tanqidiy fikrlashni talab etadi. Shuning uchun oliy ta’lim tizimida media savodxonlik va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish tanqidiy fikrlashni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda akademik muloqot madaniyatining o‘rni ham beqiyosdir. Ilmiy munozaralar, debatlar, guruhli muhokamalar va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish talabalarda o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish, muqobil qarashlarni hurmat qilish va konstruktiv tanqidni qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday faoliyat nafaqat intellektual rivojlanishga, balki shaxsning kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuvchanligining ortishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalik davri shaxsning intellektual, ijtimoiy va kasbiy jihatdan faol rivojlanadigan muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash talabaga mavjud axborotni oddiy qabul qilish emas, balki uni chuqur tahlil qilish, dalillar asosida baholash, turli yondashuvlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi.

Psixologik jihatdan tanqidiy fikrlash tafakkur, idrok, xotira, diqqat, refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanadi. U nafaqat bilimlarni egallash, balki ulardan ongli va samarali foydalanish, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun erkin fikr almashish muhiti, ijodiy yondashuv, mustaqil izlanish, muammoli topshiriqlar va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Shuningdek, talabaning ichki motivatsiyasi, o‘z imkoniyatlarini anglash va o‘z fikrlarini asoslab bera olish qobiliyati ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Demak, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, u raqobatbardosh, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodkor va ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashning muhim psixologik omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped. fan. dok ... diss. avtoref. – T., 2006. 78 b.
2. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – T.: Fan. 2008. – 324 b.
3.Богословский В.В. Модель проблемной ситуации //Проблемы эвристики. - М., 2000– 183 с.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 30 b.
5. Do‘stmuhamedova Sh.A.,Nishanova Z.T. va boshqalar.Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. - 343 b.
6. G‘oziyev E.G‘.. Tafakkur psixologiyasi. – T .: O‘qituvchi, 1990. 145 b.
7. Ivanov F.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T .: O‘qituvchi, 2008.- 358 b.
8. Nishonova Z.T. va b. O‘quvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy uslubiy asoslari. – T.: Adabiyot uchqunlari. 2018. 125 b.
9. Рубинштейн С.Л. Фикрлаш ва уни ўрганиш усуллари. Т .: Таълим 1998. – 157 b.

Muxamadiyeva Laziza Nizomovna
Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi dotsenti

TARIX DARSLARIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, interaktiv muhit yaratish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va baholash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarix darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, tarix ta'limi, raqamli pedagogika, interaktiv ta'lim, shaxsiylashtirilgan o'qitish, ta'lim texnologiyalari.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы и практические возможности использования технологий искусственного интеллекта в преподавании истории. Также рассматриваются вопросы индивидуализации учебного процесса, создания интерактивной среды, развития исторического мышления и совершенствования системы оценивания с использованием искусственного интеллекта. Результаты исследования показывают, что использование современных технологий на уроках истории повышает эффективность образования.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, историческое образование, цифровая педагогика, интерактивное обучение, персонализированное обучение, образовательные технологии.*

POSSIBILITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HISTORY LESSONS

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations and practical potential of using artificial intelligence technologies in history teaching. It also addresses the individualization of the learning process, the creation of an interactive environment, the development of historical thinking, and the improvement of the assessment system using artificial intelligence. The study's findings demonstrate that the use of modern technologies in history lessons improves the effectiveness of education.*

Key words: *Artificial intelligence, historical education, digital pedagogy, interactive learning, personalized learning, educational technologies.*

Kirish: Ta'lim inson hayotini o'zgartiradi va o'zi ham zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bilan takomillashib boradi. Ilg'or texnologiyalar ta'lim jarayonlariga nafaqat osonroq kirish imkonini beradi, balki ularni ilmiy jihatdan mustahkam va inson markazida bo'lishini ta'minlaydi. Shu kabi innovatsion texnologiyalardan biri sun'iy intellekt (SI) hisoblanadi.

Sun'iy intellekt - bu kompyuter tizimlarining inson fikrlashiga xos jarayonlarni (o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish) amalga oshirish qobiliyatidir. Ta'limda SI texnologiyalari o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, moslashtirilgan o'qitish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayoniga joriy etilayotgani o'qituvchilarning roli va umumiy ta'lim tajribasiga ta'siri haqida turli munozaralarni keltirib chiqardi. Sun'iy intellekt ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taklif etayotgan bo'lsa-da, uning o'qituvchilar o'rnini bosishi mumkinmi yoki yo'qmi, degan savol hamisha dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sun'iy intellekt o'qituvchining ayrim kundalik ishlarini avtomatlashtirish orqali unga ijodiy va muhim vazifalarga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. O'quvchilar uchun esa sun'iy intellekt

adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim vosita- siga aylanib, ularga real vaqtda bilim olish imkonini taqdim etadi. [1].

Ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni joriy etish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Sun’iy intellekt o‘quvchining bilim darajasi va o‘quv uslubiga qarab o‘quv kontentini mos-lashtiradi;

Dars rejalarini avtomatik tarzda ishlab chiqish;

Test va topshiriqlarni avtomatik tekshirish, baholash va natijalarni tahlil qilish;

Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun tahliliy hisobotlarni tayyorlash;

Sun’iy intellekt orqali interaktiv muloqot orqali o‘quv jarayoni jonlantiriladi. Masalan, o‘quvchilar sun'iy intellekt vositalari bilan muloqot qilib, tarixiy shaxslar yoki virtual o‘qituvchilar bilan suhbatlashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Vaqt va resurslarni tejash: Sun’iy intellekt o‘qituvchilarning dars tayyorlash va baholash jarayonlaridagi vaqtini qisqartiradi.

Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining o‘quv uslubi va tezligiga moslashtirilgan darslar bilim o‘zlashtirishni samarali qiladi.

Global resurslardan foydalanish: Sun’iy intellekt vositalari orqali o‘quvchilar dunyoning turli muzeylari, arxivlari va tarixiy resurslariga kirish imkoniga ega

Har qanday innovatsion texnologiya kabi, sun’iy intellekt ham bir qator cheklov va kamchili-klarga ega. Uni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishda quyidagi muammolarni inobatga olish lozim:

Sun’iy intellekt inson o‘qituvchi kabi empatiya, ijtimoiy aloqa va ijodiy mulohazalarni taqdim eta olmaydi;

O‘quvchilar uchun murabbiylik va ruhiy qo‘llab-quvvatlash muhimdir, bu esa sun’iy intellekt vositalarining to‘liq ta’minlay olmaydigan jihati hisoblanadi;

Sun’iy intellekt foydalanadigan ma’lumotlar bazasida noto‘g‘ri yoki biryoqlama yondashuvlar bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quv jarayonida tengsizlik va noto‘g‘ri tushunchalarga olib kelishi mumkin;

Sun’iy intellekt yordamida yig‘ilgan shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi ta’minlanishi lozim.

Sun’iy intellektni insonning o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki ta’lim jarayonini takomillashtiruvchi yordamchi texnologiya sifatida qabul qilish lozim. O‘qituvchilarning vazifala-rini yengillashtirish va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishda yordam beradi. Sun’iy intellekt ta’lim sohasida ulkan imkoniyatlarni taqdim etuvchi innovatsion texnologiya hisoblanadi.

Biroq, uning to‘liq mustaqil ta’lim texnologiyasi sifatida qo‘llanilishi hali to‘liq rivojlanmagan va inson omilining ahamiyatini kamaytirmaydi. Ta'limda sun’iy intellektning samarali integratsiyasi o‘qituvchilarning imkoniyatlarini yaxshilashga va o‘quvchilarga kompleks va sifatli ta’lim tajribasini taqdim etishga qaratilishi kerak. Inson va sun’iy intellekt uyg‘unligi orqali ta’lim jarayoni rivojlanib, har bir o‘quvchi uchun interaktiv va samarali ta'lim muhiti yaratilishi mumkin. [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Tarix fani esa o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi: u voqealarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tarix darslarida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Tarixiy voqelikni vizual modellashtirish: Sun’iy intellekt asosidagi platformalar tarixiy voqealarni vizual va interaktiv shaklda taqdim etadi. Masalan, tarixiy xaritalar, virtual sayohatlar va 3D rekonstruksiyalar orqali o‘quvchilar voqealarni chuqurroq anglaydi.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni taklif etadi. Bu esa har bir o‘quvchining o‘z sur’atida o‘rganishiga yordam beradi.

Sun’iy intellekt testlar, esse va boshqa yozma ishlarni tezkor baholab, o‘qituvchiga tahliliy ma’lumotlar taqdim etadi. Bu o‘qituvchining vaqtini tejab, ko‘proq individual ishlash imkonini be-radi.

Zamonaviy generativ neyrotarmoqlar (Midjourney, Stable Diffusion) arxeologik va yozma manbalar asosida yo‘qolib ketgan me’moriy obidalarni va tarixiy manzaralarni yuqori aniqlikda

qayta tiklash imkonini beradi. Bu dars jarayonida "vizual dalillash" tamoyilini yangi bosqichga olib chiqadi.

2. Tarixiy shaxslar bilan interaktiv dialogni tashkil etish

Large Language Models (LLM) - yirik til modellari (ChatGPT, Claude) asosida yaratilgan chat-botlar tarixiy shaxslarning nutq uslubi va dunyoqarashini simulyatsiya qila oladi. Bu usul talabalarda tarixiy empatiya (o‘zini o‘sha davr qahramoni o‘rniga qo‘yib ko‘rish) ko‘nikmasini shakllantirishda samarali vositadir.

3. Manbashunoslikda sun’iy intellekt tahlili

Tarixiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt nafaqat o‘qitish, balki tahlil vositasi hamdir. Neyrotar-moqlar:

Qadimiy qo‘lyozmalarni (paleografik tahlil) o‘qish va tarjima qilish;

Tarixiy statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va dinamik grafiklar yaratish;

Turli manbalardagi faktik xatoliklarni solishtirish (cross-checking) kabi murakkab vazifalarni bajaradi.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va matnlarni tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. [3].

Sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar o‘quvchilarning savollariga tezkor javob berib, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqod metodologiyasi. (Research Methodology). So‘nggi yillarda sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlar sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Raqamli ta’lim platformalari, adaptiv o‘qitish tizimlari va virtual laboratori-yalar bu boradagi muhim yutuqlar sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar:

- o‘quv materiallarini moslashtiradi;
- o‘quvchilar faoliyatini monitoring qiladi;
- real vaqt rejimida tahliliy ma’lumotlar beradi.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarga tarixiy voqealarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar tarixiy jarayonlarni “ichidan” kuzatishi mumkin. Bu esa ularning tasavvurini kengaytiradi va mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy voqealarni oddiy matn orqali tushuntirish ba’zan yetarli bo‘lmaydi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar esa: tarixiy xaritalarni jonlantiradi, virtual muzeylarga sayohat qilish imkonini beradi, 3D modellar orqali tarixiy obidalarni namoyish etadi. Natijada o‘quvchilarn-ing darsga qiziqishi ortadi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi va qiziqishi turlicha. Sun’iy intellekt esa bu farqlarni hisobga olib, individual o‘quv yo‘nalishini shakllantiradi. Masalan: kuchsiz o‘quvchilar uchun soddalashtirilgan materiallar, ilg‘or o‘quvchilar uchun murakkab tahliliy top-shiriqlar taqdim etiladi. Sun’iy intellekt bilan baholash tizimini ham takomillashtirish mumkin. An’anaviy baholash tizimi ko‘p vaqt talab qiladi. SI esa, testlarni avtomatik tekshiradi, yozma ish-larni tahlil qiladi, o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchiga individual yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi: tanqidiy fikrlash, sabab-oqibatni tahlil qilish, tarixiy manbalarni solishtirish. Masalan, Sun’iy intellekt yordamida turli davr-larga oid manbalarni tezkor taqqoslash mumkin.

Sun’iy intellekt yordamida turli davrlarga oid manbalarni tezkor taqqoslash mumkinligi uning eng muhim afzalliklaridan biridir. Bunda sun’iy intellekt katta hajmdagi tarixiy matnlar, hujjatlar va arxiv materiallarini qisqa vaqt ichida tahlil qilib, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi. Masalan, turli davrlarga oid yozma manbalar - qadimgi yilnomalar, o‘rta asr hujjatlari yoki zamo-naviy tarixiy tadqiqotlar - sun’iy intellekt algoritmlari orqali semantik (mazmuniy) jihatdan solishtiri-ladi. Natijada: tarixiy voqealarning talqinidagi farqlar aniqlanadi; mualliflarning pozitsiyasi va subyektiv qarashlari ochib beriladi; muayyan tarixiy jarayonning evolyutsiyasi izchil ko‘rsatib beri-ladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari yordamida matnlarni avtomatik tarjima qilish, kalit tushunchalarni ajratib olish va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarga turli tillardagi tarixiy manbalarni solishtirish va kengroq ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Shu tariqa, sun’iy intellekt tarix fanida nafaqat ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, balki chuqur tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish jarayonini ham sezilarli darajada samarali qiladi. [4].

Xulosa va takliflar. Tarix darslarida sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada takomillashtirish va ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali samaradorlikni oshiradi. Sun’iy intellekt tarix ta’limini modernizatsiya qilishda muhim vosita hisoblanadi. U o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga keng joriy etish uchun infratuzilmani rivojlantirish va pedagog kadrlarni tayyorlash zarur.

Tarix darslarida sun’iy intellektdan foydalanish - bu shunchaki texnik yangilik emas, balki fanni o‘qitishning yangi epistemologik darajasidir. Sun’iy intellekt o‘tmish va bugun o‘rtasidagi masofani qisqartirib, tarixni "tirik jarayon" sifatida idrok etishga yordam beradi. Kelgusida darsliklarning Sun’iy intellekt - interfeysli elektron versiyalarini yaratish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashda ba’zi muammolar ham mavjud. Xususan, "tarixiy gallyutsinatsiya" - Sun’iy intellekt tomonidan faktlarning buzib talqin qilinishi o‘qituvchidan yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni va axborotni filtrlashni talab etadi. Shunga qaramay, Sun’iy intellekt o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini o‘stirishda muhim katalizator bo‘lib xizmat qiladi. [5].

Sun’iy intellekt maktablarda tarix fanini o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. U o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, interaktivlikni oshirish va o‘qituvchilarning ishini optimallashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilaydi. Ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Biroq, texnologik cheklovlar, malaka masalalari va ma’lumotlarxavfsizligi kabi muammolar e’tiborga olinishi zarur. O‘zbekiston kontekstida sun’iy intellekt qo‘llanilishi uchun infratuzilma va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar talab etiladi. Kelajakda sun’iy intellekt va an’anaviy o‘qitish usullarining muvozanatli integratsiyasi tarix fanini yanada samarali va qiziqarli qilishi yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. G‘ulomov M. Ta’limda raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2024.
2. UNESCO. Ta’limda sun’iy intellekt: muammolar va imkoniyatlar. – Parij, 2019.
3. OECD. Ta’limda sun’iy intellekt: o‘qituvchilar uchun amaliy qo‘llanma. – 2021.
4. Sadullayev U. Ta’lim va sun’iy intellekt: imkoniyatlarning yangi davri // Tibbiyot, pedagogika va texnologiya: nazariya va amaliyot. – 2024. – T. 2. – № 6. – B. 238–241.
5. Boboyorov H. Sun’iy intellekt va tarixiy tadqiqotlar: yangi yondashuvlar // O‘zbekiston tarixiy jarayonlari. – 2022. – № 2.

Турдиева Зухра Алмаматовна
Преподаватель русского языка

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ РКИ

Аннотация. *В статье рассматриваются современные подходы к использованию цифровых образовательных ресурсов в процессе преподавания русского языка как иностранного (РКИ) на начальном этапе. Автор анализирует возможности мобильных приложений, адаптивных алгоритмов и интерактивных платформ для повышения эффективности освоения лексического минимума. Особое внимание уделяется государственной политике Республики Узбекистан в области цифровизации образования и роли инноваций в подготовке современных кадров. Обосновывается значимость геймификации и контекстуализации лексики в условиях формирования Третьего Ренессанса.*

Ключевые слова: *РКИ, цифровая трансформация, лексические навыки, интерактивные платформы, образовательные технологии, инновационное обучение.*

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHNING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA LEKSIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIGA RAQAMLI PLATFORMALARNI INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rus tilini chet tili sifatida (RKI) o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan. Muallif mobil ilovalar, adaptiv algoritmlar hamda interaktiv platformalarning leksik minimumni samarali o‘zlashtirishdagi imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati hamda zamonaviy kadrlarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Leksik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) va leksik birliklarni kontekst asosida o‘rgatishning, Uchinchi Renessans sharoitidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rus tili chet tili sifatida (RKI), raqamli transformatsiya, leksik ko‘nikmalar, interaktiv platformalar, ta’lim texnologiyalari, innovatsion ta’lim.*

INTEGRATION OF DIGITAL PLATFORMS INTO THE PROCESS OF FORMING LEXICAL SKILLS AT THE INITIAL STAGE OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. *The article examines modern approaches to using digital educational resources in the process of teaching Russian as a foreign language (RFL) at the elementary level. The author analyzes the potential of mobile applications, adaptive algorithms, and interactive platforms to increase the efficiency of mastering the lexical minimum. Special attention is paid to the state policy of the Republic of Uzbekistan in the field of digitalization of education and the role of innovation in training modern personnel. The importance of gamification and lexical contextualization in the conditions of the Third Renaissance formation is substantiated.*

Key words: *RFL, digital transformation, lexical skills, interactive platforms, educational technologies, innovative learning.*

Введение. Современная парадигма образования требует коренного переосмысления традиционных методов обучения в пользу технологичности, интерактивности и индивидуализации учебного процесса. На начальном этапе изучения русского языка как иностранного (РКИ) формирование лексического запаса является фундаментом, определяющим дальнейший успех всей речевой деятельности и коммуникации в целом. Недостаточный словарный запас или отсутствие прочных навыков его актуализации становятся главным барьером для преодоления

языкового зажима. В условиях глобальной цифровизации внедрение ИТ-решений в лингводидактику становится не просто вспомогательным элементом наглядности, а стратегической необходимостью, трансформирующей саму структуру урока.

В Республике Узбекистан вопросы модернизации системы образования, повышения качества преподавания иностранных языков и внедрения передовых технологий возведены в ранг приоритетных государственных задач. Президент Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивал важность интеграции науки, образования и цифровых технологий в учебный процесс. Как отмечается в программных выступлениях главы государства: «Мы поставили перед собой великую цель - построение фундамента Третьего Ренессанса. Для этого мы должны создать среду, в которой каждый молодой человек сможет овладеть современными знаниями и инновационными технологиями» [1].

Особое значение в этом контексте придается цифровой грамотности как педагогов, так и учащихся. Ш. Мирзиёев указывает: «Цифровая экономика и современные технологии - это кратчайший путь к прогрессу. Мы должны активно внедрять IT-решения во все сферы жизни, начиная с системы образования» [2]. Данные концептуальные установки определяют вектор развития современной отечественной методики преподавания РКИ, стимулируя педагогов к поиску новых инновационных форматов взаимодействия с иноязычной аудиторией, разработке интерактивных модулей и цифровых образовательных ресурсов.

Актуальность данного исследования обусловлена спецификой восприятия информации современным поколением учащихся (digital natives), для которых характерны клиповое мышление, высокая потребность в визуализации, геймификации и моментальной обратной связи. Традиционная методика введения и закрепления лексики (механическое зазубривание списков слов, двуязычный перевод) в современных реалиях часто теряет свою эффективность, приводя к быстрой утомляемости и снижению учебной мотивации. Цифровые платформы (например, Quizlet, Wordwall, LearningApps, Kahoot и др.) позволяют индивидуализировать темп усвоения материала, автоматизировать процесс дриллинга (многократного повторения) через игровые механики и обеспечить регулярный мониторинг прогресса.

Вместе с тем в практике преподавания РКИ на начальном этапе отчетливо обнаруживается противоречие между объективной необходимостью широкого использования потенциала цифровой образовательной среды и недостаточной разработанностью конкретных методических моделей, алгоритмов и систем упражнений, интегрирующих эти платформы в традиционную структуру занятий по формированию лексических навыков (уровни А1–А2).

Методологическую основу исследования составили труды в области теории и методики обучения иностранным языкам (И.Л. Бим, А.А. Леонтьев, А.Н. Щукин), концепции цифровизации образования (Э.Г. Азимов), а также нормативно-правовые акты и стратегии развития системы образования Республики Узбекистан.

Основная часть. На начальном этапе (уровни А1–А2) основной трудностью для учащихся традиционно является преодоление когнитивной перегрузки, вызванной одновременным запоминанием большого объема новых лексем и освоением их сложной грамматической сочетаемости (падежные флексии, управление глаголов, видо-временные пары). Включение цифровых платформ в учебный процесс позволяет технологизировать этот процесс, переводя его из механического зазубривания в осознанную речевую практику посредством решения ключевых методических задач:

1. Визуализация и беспереводная семантизация

Применение мультимедийных средств (анимированных изображений, аудиоматериалов и коротких видео) ускоряет процесс раскрытия значения слова без использования языка-посредника (родного или английского). Это способствует формированию прямой когнитивной связи между предметным образом/действием и его иноязычным наименованием.

Пример интеграции: При изучении темы «Глаголы движения» (уровень А1) статические картинки не передают разницу между идти и ехать. Использование платформы Wordwall (шаблон «Анаграмма» или «Сопоставление») с GIF-анимацией позволяет наглядно дифферен-

цировать бесприставочные глаголы движения, связывая визуальный образ пешехода или движущегося транспорта с соответствующей лексемой и аудиозаписью правильного произношения.

2. Индивидуализация, адаптивность и интервальное повторение

Алгоритмы современных платформ позволяют реализовать личностно-ориентированный подход, адаптируя траекторию обучения под индивидуальный темп учащегося.

Пример интеграции: Использование флэш-карточек в Quizlet или Anki на основе системы интервальных повторений (Spaced Repetition). При освоении темы «Мой день (Распорядок дня)» система автоматически выявляет лексемы, в которых учащийся допускает ошибки (например, трудные для произношения и написания слова «просыпаться», «завтракать»), и предлагает их для повторения чаще, в то время как усвоенные слова («урок», «дом») выводятся из ротации на больший промежуток времени.

3. Геймификация и преодоление психологического барьера

Игровые механики (начисление баллов, ограничение по времени, рейтинговые таблицы) переводят процесс дриллинга (многократного воспроизведения материала) в соревновательный, увлекательный формат, что критически важно для удержания внимания цифрового поколения.

Пример интеграции: Проведение синхронных викторин в Kahoot! или Quizizz в конце урока по теме «В магазине / Продукты». Экспресс-опрос из 10 вопросов на скорость не только закрепляет лексику, но и тренирует быструю реакцию на языковой стимул. Игровой формат снижает уровень тревожности (language anxiety), свойственный учащимся на этапе A1–A2 при устных ответах.

4. Мгновенная обратная связь (Feedback)

Цифровые инструменты обеспечивают моментальную верификацию ответов. На начальном этапе это имеет решающее значение, так как предотвращает «застревание» и фиксацию ошибочных лексико-грамматических форм в долговременной памяти. Учащийся сразу видит правильный образец и соотносит его со своим ответом.

Для достижения устойчивого кумулятивного эффекта в формировании лексических навыков интеграция цифровых ресурсов должна носить системный характер, сочетая аудиторную и самостоятельную работу учащихся через следующие методические подходы:

Микрообучение (Microlearning): Организация самостоятельной работы с помощью мобильных приложений для коротких ежедневных сессий (5–10 минут). Вместо разовой многочасовой зубрежки перед контрольной работой учащиеся вовлекаются в регулярный, дробный контакт с русским языком. Учитель выступает куратором, создавая в Quizlet еженедельные «сеты» слов (по 10–12 лексем) и отслеживая их выполнение через личный кабинет преподавателя.

Коллективная коллаборация и системные связи: Использование интерактивных онлайн-досок (Padlet, Miro) для совместного создания ментальных карт (Mind Maps). На уровнях A1–A2 принципиально важно группировать слова не по алфавиту, а по тематическому и семантическому принципам.

Таблица 1.

Тематические блоки, лексическое наполнение и грамматическая сочетаемость в процессе обучения русскому языку как иностранному.

Тематический блок (Пример на Miro)	Лексическое наполнение (Существительные)	Грамматическая сочетаемость (Глаголы + Управление)
«В кафе»	Меню, официант, счёт, суп, чай...	Заказывать (что?), платить (за что?), просить (что?)
«Свободное время»	Театр, концерт, стадион, книга...	Идти (куда? в/на), интересоваться (чем?), смотреть (что?)

Эффективный процесс технологизации обучения иностранным языкам в Узбекистане напрямую опирается на кадровый потенциал нового поколения преподавателей и создание инновационной инфраструктуры. Президент Шавкат Мирзиёев четко обозначает этот приоритет: «Мы должны создать все условия для того, чтобы наша молодежь, обладающая огромным интеллектуальным потенциалом, могла реализовать свои способности в сфере ИКТ» [6].

В контексте лингводидактики это означает, что современный преподаватель РКИ в Узбекистане должен обладать не только классическими методическими компетенциями, но и развитой цифровой грамотностью (Digital Literacy). Внедрение ИТ в практику преподавания русского языка рассматривается сегодня не как изолированный педагогический эксперимент, а как органическая часть общенациональной стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030», направленной на формирование конкурентоспособного, высокотехнологичного и полиязычного поколения специалистов.

Заключение. Интеграция цифровых платформ в преподавание РКИ позволяет значительно оптимизировать процесс формирования лексических навыков на начальном этапе. Переход от пассивного заучивания к активному взаимодействию с цифровой средой повышает качество усвоения языка. Реализация стратегий, обозначенных руководством Узбекистана, способствует созданию инновационной образовательной среды, отвечающей вызовам современности.

Проведенное исследование, посвященное проблеме интеграции цифровых платформ в процесс формирования лексических навыков на начальном этапе обучения русскому языку как иностранному (РКИ), позволяет сформулировать ряд обобщающих выводов и определить перспективы дальнейшей научно-методической работы:

Оптимизация и интенсификация учебного процесса. Интеграция современных ИТ-решений в лингводидактику позволяет коренным образом модернизировать традиционную систему введения, семантизации и закрепления лексического материала на базовых уровнях (А1–А2). Переход от пассивного, механического заучивания списков слов к активному, интерактивному взаимодействию с цифровой образовательной средой существенно повышает качество и прочность усвоения лексических единиц. За счет алгоритмов интервального повторения и геймификации рутинный процесс языкового дриллинга трансформируется в увлекательную речевую практику.

Преодоление комплексных методических трудностей. Использование потенциала таких платформ, как Quizlet, Wordwall, Edpuzzle и интерактивных онлайн-досок, доказало свою эффективность в решении ключевых задач начального этапа. Цифровые инструменты обеспечивают избыточную беспереводную визуализацию (что формирует прямую когнитивную связь «образ - слово»), реализуют принципы микрообучения и гарантируют мгновенную обратную связь. Это позволяет не только расширить активный словарный запас учащихся, но и эффективно отрабатывать лексико-грамматическую сочетаемость слов, предотвращая фиксацию ошибок в долговременной памяти.

Повышение мотивации и учет психологических особенностей. Применение цифровых платформ отвечает когнитивным запросам современного поколения учащихся (digital natives). Внедрение элементов искусственного интеллекта для моделирования безопасных диалоговых ситуаций и игровых механик в синхронных викторинах существенно снижает уровень языковой тревожности (language anxiety), минимизирует утомляемость и помогает преодолеть психологический барьер на начальном этапе погружения в иноязычную среду.

Главный методический вывод исследования: Цифровые платформы не должны заменять собой живое общение с преподавателем или полностью вытеснять классические учебные пособия. Максимальный кумулятивный эффект достигается при гибридном (смешанном) подходе, когда цифровая активность учащихся (автоматизация навыков, микрообучение, контроль) органично переходит в продуктивную коммуникативную деятельность в аудитории.

В государственном масштабе реализация стратегий, обозначенных руководством Республики Узбекистан и закрепленных в программе «Цифровой Узбекистан - 2030», открывает широкие горизонты для модернизации национальной системы образования. Создание высо-

котехнологичной образовательной среды, опирающейся на передовые ИКТ и развитую цифровую грамотность (Digital Literacy) педагогических кадров, позволяет готовить конкурентоспособных, полиязычных специалистов, отвечающих глобальным вызовам XXI века.

Перспективы дальнейшего исследования видятся в детальной разработке и внедрении сквозных цифровых учебно-методических комплексов (ЦУМК) по РКИ, специализированных мобильных приложений с учетом этноориентированного подхода (для узбекоязычной аудитории), а также в создании научно обоснованных критериев оценки эффективности использования ИИ-технологий на продвинутых этапах обучения (уровни B1–B2).

Список использованной литературы.

1. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: https://president.uz/ru/lists/view/4057 (дата обращения: 12.05.2026).
2. Мирзиёев Ш.М. Выступление на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников, 30 сентября 2020 года. URL: https://president.uz/ru/lists/view/3864 (дата обращения: 12.05.2026).
3. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Современный словарь методических терминов и понятий. Теория и практика обучения языкам. - М.: ИКАР, 2018. - 496 с.
4. Стрельчук Е. Н. Формирование русской речевой культуры иностранных бакалавров в условиях цифровизации образования // Высшее образование в России. - 2021. - Т. 30. - № 6. - С. 149-158.
5. Хавронина С. А., Балыхина Т. М. Инновационные методы обучения русскому языку как иностранному. - М.: РУДН, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Стратегия «Цифровой Узбекистан - 2030»: цели и приоритеты. – Т.: Узбекистан, 2020.
7. Кузнецов А. А. Методика использования электронных образовательных ресурсов на уроках русского языка как иностранного // Вестник образования и науки. - 2022. - № 2. - С. 45-52.
8. Роберт И. В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). - М.: БИНОМ, 2014. - 398 с.

Umarov Lutfillo Murodilloyevich
Qashqadaryo viloyati PMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedra mudiri (PhD), dotsent.
E-mail: lutfulla77@gmail.com;

UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM TIZIMI MAKONINI MODELLASHTIRISH: UMUMIY METODOLOGIYA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimi makonini modellashtirish umumiy metodologiyasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asrning oxirlaridan buyon ta'limida uzluksizlik tushunchasining evolyutsiyasi, uning zamonaviy paradigmatik asoslari va modellashtirish metodologiyasining konseptual poydevori ko'rib chiqiladi. Modellashtiriladigan makon tuzilishining axloqiy-aksiologik, ijtimoiy-gumanitar, korrelyatsion, falsafiy-uslubiy, integrativ-applikativ, interfaol-gnostik, refleksiv-baholovchi, ekologik-faoliyatli, antropotsentrik, kreativ-rivojlantiruvchi va axborot komponentlari batafsil asoslab beriladi.*

Shuningdek, makonni modellashtirish metodologiyasining falsafiy, umumilmiy va alohida pedagogik muammolarni tadqiq etish darajalari o'rganiladi. Makon uchun belgilangan ko'p darajalilik, bir-birini to'ldirish, manevrlillik va izchillik kabi umumiy metodologik tamoyillar hamda moslashuvchanlik, dinamizm, insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilganlik kabi o'ziga xos metodologik tamoyillar asoslab beriladi. Metodologiyani amaliyotga tatbiq etishning olti bosqichli algoritmi taklif etiladi va uning samaradorligi asoslab ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *uzluksiz kasb-hunar ta'limi, modellashtirish, metodologiya, ta'lim makoni, integrativ yondashuv, konseptual asoslar, kasbiy kompetentlik, ko'p darajalilik, fundamentallashtirish.*

МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОСТРАНСТВА СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБЩАЯ МЕТОДОЛОГИЯ

Аннотация. *В данной статье проводится глубокий научно-теоретический анализ общей методологии моделирования пространства непрерывного специализированного профессионального образования В исследовании рассматривается эволюция понятия непрерывности в специализированном профессиональном образовании с конца XX века, его современные парадигматические основания и концептуальный фундамент методологии моделирования. Подробно обосновываются нравственно-аксиологический, социально-гуманитарный, корреляционный, философско-методологический, интегративно-аппликативный, интерактивно-гностический, рефлексивно-оценочный, эколого-деятельностный, антропоцентрический, креативно-развивающий и информационный компоненты структуры моделируемого пространства.*

Также изучаются философский, общенаучный и специально-педагогический уровни методологии. Обосновываются общие методологические принципы: многоуровневость, взаимодополняемость, маневренность и последовательность, а также специфические принципы: гибкость, динамизм, гуманизация и личностная ориентация. Предлагается шестиэтапный алгоритм практического применения методологии и демонстрируется его эффективность.

Ключевые слова: *непрерывное специализированное профессиональное образование, моделирование, методология, образовательное пространство, интегративный подход, концептуальные основы, профессиональная компетентность, многоуровневость, фундаментализация.*

MODELING THE SPACE OF THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL EDUCATION: GENERAL METHODOLOGY

Abstract. *This article conducts an in-depth scientific and theoretical analysis of the general methodology for modeling the space of continuous specialized vocational education. The study examines the evolution of the concept of continuity in specialized vocational education since the late*

20th century, its modern paradigmatic foundations, and the conceptual basis of the modeling methodology. The moral-axiological, social-humanitarian, correlational, philosophical-methodological, integrative-applicative, interactive-gnostic, reflexive-evaluative, ecological-activity, anthropocentric, creative-developmental, and information components of the modeled space structure are thoroughly substantiated.

The philosophical, general scientific, and special pedagogical levels of the methodology are also studied. General methodological principles - multi-levelness, complementarity, maneuverability, and consistency - as well as specific principles - flexibility, dynamism, humanization, and personal orientation - are substantiated. A six-stage algorithm for practical application of the methodology is proposed and its effectiveness is demonstrated.

Key words: *continuous specialized vocational education, modeling, methodology, educational space, integrative approach, conceptual foundations, professional competence, multi-levelness, fundamentalization.*

Kirish. XX asrning oxirlarida uzluksiz ta’limni rivojlantirish yo‘llarini izlash amalga oshiriladigan muayyan vaziyatning muhim xususiyatlari tubdan o‘zgardi. Madaniy-tarixiy meros turining innovatsion ijtimoiy-madaniy meroslanishga almashinuvi sodir bo‘lib, uning doirasida mazmun va amaliyotni anglash usullarini o‘zlashtirish eng muhim bo‘lib hisoblanadi. Uzluksiz ta’limining asosiy funksiyasi mutaxassislarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratildi, bu esa fanning rivojlanishi va texnologik inqilob sharoitida yangi kasbiy va pedagogik vazifalarni samarali bajarishga tayyor mutaxassislarni tayyorlash zaruratini dolzarb qilib qo‘ydi.

Uzluksiz kasbiy ta’limni gumanistik g‘oya va uni rivojlantirishning yo‘naltiruvchi tamoyili sifatida mujassamlangan bo‘lib, u mutaxassisning shaxsi va kasbiy faoliyatining uzluksizig, integratsiyasi, individuallashuvi va ijtimoiylashuvi tamoyillarini qayta talqin qiladi. Bunday sharoitda UIKHT ning asosiy sifat xususiyati uning innovatsion yo‘nalishi bo‘lib, u quyidagi asosiy xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi: (1) tubdan yangi ta’lim strategiyasini qurish - keng ijtimoiy-madaniy tajribani, yangi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni sintez qilish yangilangan mantiqiga asoslangan modellashtiriladigan makonning yaxlitligi; (2) integrativlik - ta’lim mazmuni bilan bog‘liq va uzluksiz makonini modellashtirish uchun hal qiluvchi omil; (3) ko‘p jihatlilik - uzluksiz UIKHT ni turli nuqtai nazardan tashkil etishning yangi yondashuvlarini tushunishni nazarda tutuvchi xususiyat; (4) universallik - turli kasbiy muammolarni hal qilish uchun yangi kasbiy bilimlarni olishning universal usullarini ishlab chiqish; (5) miqyoslilik - talabalar uchun paydo bo‘layotgan ehtiyojlar va maqsadlarga muvofiq uzluksiz ta’limni olish mazmuni va usulini individual ravishda tanlash uchun zarur shart.

Pedagogika fani rivojida uzluksiz makonini modellashtirish metodologiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. A.P.Belyaeva, A.M.Novikov, V.I.Zagvyazinsky, V.V.Kraevsky, M.N.Skatkin kabi olimlarning metodologik ishlari tadqiqotimizning nazariy asosi sifatida xizmat qildi. Ilmiy-pedagogik va uslubiy adabiyotlarda uzluksiz ta’limning alohida sohalari uchun yaxlit ta’lim makonining modellari o‘rganilganligini aniqlash imkoniyati tug‘ildi. Biroq, uzluksiz ta’lim sohasida bunday yaxlit va tizimli metodologiyani yaratish zarurati hali to‘liq bartaraf etilmagan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. UIKHT makonini modellashtirish metodologiyasining yetakchi metodologik tamoyillari bo‘lib fundamentallashtirish va integratsiya hisoblanadi. Modellashtiriladigan makon turli darajalar va ixtisoslikdagi uzluksiz ta’lim, ta’lim tashkilotlari, pedagogik-ilmiy tarkib va bir vaqtning o‘zida yangi daraja yoki ixtisoslikda ikkinchi uzluksiz ta’limni olishni istagan muayyan talabalarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar va amaliyotni tahlil qilish asosida UIKHT makonini modellashtirish samaradorligini ta’minlaydigan metodologiyaning konseptual asoslari shakllantirildi. Ushbu konseptual asoslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi - nazariy-metodologik asoslar: turli darajali va turli ixtisoslikdagi uzluksiz ta’lim dasturlarini yagona nazariy-metodologik pozitsiyalarda uzluksiz ta’limining yetakchi va tashkiliy rolida birlashtiruvchi asoslar. Uzluksiz ta’limining tashkiliy-boshqaruv funksiyasi mutaxassislarni uzluksiz tayyorlash metodologiyasini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shma, maqsadli ilmiy-prognozlash faoliyatida uzluksizlikni modellashtirish maqsadini ko‘zlaydi.

Ikkinchi - refleksiv-tahliliy asoslar: ta'lim-tarbiya va ilmiy-uslubiy faoliyat mazmuni, shakllari va texnologiyalariga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish va uzluksiz ta'limning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida mutaxassislarni tayyorlash sifatini muntazam, tizimli baholash.

Uchinchi - ilmiy-uslubiy asoslar: muvofiqlashtirilgan (bog'langan, integrativ, ikki tomonlama) o'quv rejalari va dasturlariga asoslangan optimal ilmiy-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish va davlat talablariga muvofiqligini ta'minlash; izchil o'quv-dasturiy va uslubiy materiallarni doimiy ravishda moslashtirishdan iborat.

To'rtinchi - kasbiy-kadrlar asoslari: pedagoglar va talabalar o'rtasida uzluksiz UIKHT ning modellashtirilgan makoni doirasida o'zlarining kasbiy va shaxsiy salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish uchun innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish asosida uzluksiz ta'lim olishning variativ yo'llarini aniqlashni ta'minlaydi.

Beshinchi - axborot-uslubiy asoslar: uzluksiz UIKHT ning muvofiqlashtirilgan yakuniy maqsadlariga asoslangan muvofiqlashtirılgan integratsiyalashgan o'quv rejalarini amalga oshirish uchun o'quv-kasbiy faoliyat axborot ta'minotining rivojlangan tizimiga asoslangan makonni modellashtirish.

Oltinchi - tashkiliy-boshqaruv tamoyillari: uzluksiz UIKHT makonini rivojlantirishni boshqarish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratishni tartibga soladi.

Tadqiqot davomida UIKHT makonini modellashtirish metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlandi: falsafiy bilimlar tizimi; tadqiqot uchun umumilmiy tamoyillar va amallar; umumpedagogik g'oyalar, nazariyalar, tushunchalar va qonuniyatlar; pedagogika alohida fanlarning qoidalari; UIKHT bilan bevosita bog'liq bo'lgan nazariy qoidalar, modellar va texnologiyalar. Falsafiy bilimlar darajasi tadqiqot umumiy strategiyasini aniqlash va ilmiy bilim vositalarini tanlash imkonini beradi. Bizning holatimizda, dialektika qonunlari, falsafiy tamoyillar va gnoseologiya qoidalari yangi ma'lumotlarni olish va uni talqin qilish, tadqiqotning yo'nalishi va umumiy tamoyillarini - uzluksizlik, rivojlanish, tizimlilik - aniqlash uchun mantiqiy va uslubiy tamoyillar sifatida ishlatilgan.

Tahlil va natijalar. UIKHT makonini modellashtirish metodologiyasining umumiy tarkibiy-mazmuniy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Axloqiy-aksiologik komponent. Uzuksiz ta'lim mazmunining axloqiy-gumanistik salohiyatini aniqlash va har tomonlama qo'llashni o'z ichiga olgan, uzluksiz ta'limning aksiologik (qadriyat), axloqiy va mental jihatlariga urg'u beradigan komponent. Ushbu komponent talabalarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, kasbiy mas'uliyat tushunchasining chuqur anglashini shakllantiradi.

2. Ijtimoiy-gumanitar komponent. Ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega materiallarni, axloqiy tanlov vaziyatlarini, kasbiy faoliyat oqibatlari uchun axloqiy javobgarlik masalalarini o'z ichiga oladi. Bu komponent mutaxassisning insoniylik qadriyatlarini tushunishini va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini aniqlashini ta'minlaydi.

3. Korrelyatsion komponent. Uzluksiz UIKHT makonining ko'p qirrali tabiyati tufayli yuzaga keladigan modellashtiriladigan makon subyektlarining sinkrokorrelyatsion aloqalari va o'zaro bog'liqliklarini hisobga olgan holda izchillik va integratsiya tamoyilidan foydalanishni faollashtirishga qaratilgan.

4. Falsafiy-uslubiy komponent. Nazariy qoidalarni falsafiy asoslashni, konseptual yondashuvlarni muvofiqlashtirish usullarini, parallel o'zlashtirilayotgan mutaxassisliklar mazmunining asoslarini aniqlash va har tomonlama tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentning mazmuni biluv, kasbiy, kommunikativ va akmeologik faoliyat jihatlarini o'z ichiga olgan metodologik madaniyatni shakllantirish masalalarini qamraydi.

5. Integrativ-applikativ komponent. Modellashtiriladigan makonning tarkibiy komponentlari, ta'lim tashkilotlari va kasbiy ta'limning turli sohalari o'rtasida ko'p tomonlama integrativ-korrelyatsion ilmiy-uslubiy aloqalarni o'rnatish va ulardan foydalanishga asoslangan komponent. Ushbu komponent dunyoning barcha xilma-xilligida yaxlit tasavvurni shakllantirish va kasbiy-pedagogik faoliyat uchun qadriyat mezonlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

6. Interfaol-gnostik komponent. Tabiiy va gumanitar fanlar usullarining integratsiyasini, modellashtiriladigan mazmunni nazariy darajada o'zlashtirishni ta'minlaydigan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tafakkurining kategoriyali apparatining yaxlit tuzilmasini shakllantirish.

7. Refleksiv-baholovchi komponent. Uzluksiz ta'limining integrativ mazmunini o'zlashtirish natijalarining refleksiyasiga qaratilgan, o'z-o'zini baholash, kasbiy o'sish traektoriyasini aniqlash imkonini beruvchi komponent.

8. Ekologik-faoliyatli komponent. Integrativ yondashuvga asoslangan, bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatning ekologik jihatlarini amalga oshirishga qaratilgan komponent. Ushbu komponentni amalga oshirish mutaxassisning shaxsiy va kasbiy jihatdan ahamiyatli fazilatlarining umumlashtirilgan tizimi sifatida kasbiy-ekologik tayyorgarlikni shakllantiradi.

9. Antropotsentrik komponent. Mutaxassisni atrofdagi dunyo bilan ko'plab aloqalarida - ijtimoiy-madaniy, axloqiy va kasbiy-pedagogik kontekstdagi o'rni va rolida - kasbiy-pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti sifatida belgilaydigan komponent.

10. Kreativ-rivojlantiruvchi komponent. O'qitishning informativ o'qitish tamoyillarini konseptual-tahliliy tamoyillar bilan izchil almashtirish va shaxsning to'liq namoyon bo'lishi, o'z-o'zini ifoda etishi va o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan shaxsiy-faoliyatli o'qitish texnologiyalaridan keng va ko'p darajali foydalanishdan iborat komponent.

11. Axborot komponenti. Yangi axborot texnologiyalarining shaxs rivojlanishiga ta'sirining o'ziga xosligini inobatga oladigan, jamiyatni axborotlashtirish paradigmasini shakllantirish va axborot oqimlarining o'sishi sharoitida mutaxassisning axborot madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan komponent.

Ushbu komponentlarning barchasi yagona yaxlit tizim sifatida ishlaydi va mutaxassisning har tomonlama - intellektual, axloqiy, kasbiy va ijtimoiy - rivojlanishini ta'minlaydi. Har bir komponent boshqasi bilan dialektik aloqada bo'lib, ularning integratsiyasi UIKHT makonining umumiy sifat darajasini belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim makonini qurish metodologiyasi uchun quyidagi umumiy metodologik tamoyillar aniqlandi. Birinchi - makon ko'p darajalaliligi tamoyili: oliy ta'lim (mutaxassislik), fuqarolik o'rta uzluksiz ta'limi va qo'shimcha kasbiy ta'limi darajasida mutaxassislarni tayyorlashga imkon beradigan bir nechta uzluksiz ta'limi darajalarining mavjudligini nazarda tutadi. Ikkinchi - bir-birini to'ldirish tamoyili: tayanch va qo'shimcha uzluksiz ta'limi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Uchinchi - manevrlillik tamoyili: kasbiy ta'lim faoliyati sohasida ta'lim manevri yoki ikki va undan ortiq sohalarda parallel uzluksiz ta'limini olish imkoniyatini amalga oshiradi. To'rtinchi - izchillik tamoyili: talabalarning modellashtiriladigan makonda barcha ehtimoliy yo'nalishlar bo'yicha erkin harakatlanishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'ziga xos metodologik tamoyillar ham aniqlandi: moslashuvchanlik va dinamizm tamoyili, mazmunni shaxs ehtiyojlari va jamiyatdagi raqobatbardoshlik dinamikasiga muvofiq o'zgaruvchanligi; yaxlit intellektual shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun optimal sharoitlar; mavjud ilmiy yondashuvlarni integratsiya qilish va yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirish, jumladan, tarixiy-metodologik, tizimli-integrativ, mazmunli-izchil, qiyosiy-taqqoslovchi, fundamental-yaxlit va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talaba shaxsini shakllantirish va ta'limni bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sifatida an'anaviy tushunishni yengib o'tishga qaratilgan. Tizimli-integrativ yondashuv o'z infratuzilmasiga ega bo'lgan, o'z maqsadlari va qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadigan va bir vaqtning o'zida jamiyatning o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismi bo'lgan yaxlit model sifatida qaraladi.

UIKHT makonini modellashtirish metodologiyasini amaliyotga tatbiq etish algoritmi. Metodologiyani amaliyotga tatbiq etishning oltita bosqichi mavjud: (1) uzluksiz UIKHT makonini modellashtirish boshlang'ich darajasini va modellashtirish uchun rejalashtirilgan sohalarni aniqlash - marketing; (2) makon subyektlarining integratsiyalashgan maqsad va vazifalarini aniqlash va zarur meyoriy-huquqiy bazani yaratish; (3) UIKHT makonini modellashtirish va yaratishda ishtirok etuvchi ta'lim tashkilotlarining resurs imkoniyatlarini tahlil qilish; (4) uni amalga oshirish uchun integratsiyalashgan mazmun va texnologiyalarni ishlab chiqish - ta'lim dasturlari, o'quv dasturlari va ish dasturlari, o'quv-metodik ta'minot va axborot resurslari; (5) turli integratsiya vektorlari - vertikal, gorizontal, parallel, aralash - asosida o'quv jarayonini tashkil etish; (6) maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida talabalarni tayyorlash natijalarini tizimli monitoring qilish va qiyosiy tahlil qilish.

Ushbu olti bosqichli algoritm tipologik algoritm sifatida ishlatilishi mumkin, chunki UIKHT makoni o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish salohiyatiga ega bo‘lib, ta’lim makonining yagona ta’lim maqsad va vazifalariga ega bo‘lgan yagona ijtimoiy-madaniy organizm sifatida ishlashini ta’minlaydi. Makonni modellashtirish omillaridan biri bo‘lib zamonaviy, yuqori harakatchan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bilimlarni yangilash dinamikasining ortib borayotganligi hisoblanadi, chunki bugungi kunda innovatsiya va uzluksizlik kasbiy ta’lim sifatidagi o‘zgarishlarning strategik kafolati deb qabul qilingan.

Xulosa. Uzluksiz ta’lim makonini modellashtirish metodologiyasi quyidagi samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlaydi: o‘quv jarayoniga rahbarlik qiluvchi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun umumiy va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi; talabalarning kasbiy yo‘nalishga ega variativ ta’lim dasturlarini oqilona tanlashini ta’minlash; talabalar va o‘qituvchilarning kasbiy ijodkorligi sohasidagi innovatsiyalar doirasini kengaytirish; makonning asosiy komponentlarini yaxlit ta’lim tizimi sifatida integratsiya darajasi.

Metodologiyaning yakuniy natijasi - UIKHT tizimini ko‘p funksiyali kasbiy rivojlanishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlashini ta’minlash bo‘lib, bu ta’lim makonining yaxlitligini kafolatlaydi. Integrativlik kasbiy ta’lim tizimining ochiqligini ta’minlaydi, talabalarning subyektiv tayyorgarligini va uzluksiz kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish istagini shakllantiradi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy va amaliy ishlar zamonaviy davlatning ta'lim salohiyatini mustahkamlashga va raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Belyaeva A.P. Integrative tendencies in vocational education. - SPb.: RGPU, 1998. - 172 p.
2. Novikov A.M. Methodology of educational activity. - M.: Egves, 2005. - 488 p.
3. Zagvyazinsky V.I. Theory of learning: a modern interpretation. - M.: Academy, 2016. - 192 p.
4. Kraevsky V.V. Methodology of pedagogy: new stage. - M.: Academy, 2006. - 400 p.
5. Skatkin M.N. Problems of modern didactics. - M.: Pedagogika, 1984. - 96 p.
6. Gershunsky B.S. Philosophy of education for the 21st century. - M.: Sovershentstvo, 1998. - 608 p.
7. Asqarov A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. –T.: 2017. –250 8. Шахмарова Р.Р. Непрерывное образование – основа развития личности в современном обществе / Международный научно-исследовательский журнал. №05 (59), Часть 2. Май. – с. 85-87.

Ganiyeva Gulandon Ibragimovna
Andijon davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

OLIY TA'LIMDA PSIXOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'limda psixologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyalari, zamonaviy yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli ta'lim vositalari muhokama etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish talabalarning bilim sifatini va kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so'zlar: *psixologiya ta'limi, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, kompetentlik yondashuvi, raqamli ta'lim, oliy ta'lim, innovatsion metodika.*

TECHNOLOGY FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING PSYCHOLOGY IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article discusses technologies for improving the methodology of teaching psychology in higher education, modern approaches, interactive methods, and digital educational tools. Research results show that integrating traditional teaching methods with innovative technologies significantly improves the quality of students' knowledge and professional competence.*

Key words: *psychology education, pedagogical technology, interactive methods, competency approach, digital education, higher education, innovative methodology.*

ТЕХНОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПСИХОЛОГИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются технологии совершенствования методики преподавания психологии в высшем образовании, современные подходы, интерактивные методы и цифровые образовательные инструменты. Результаты исследования показывают, что интеграция традиционных методов обучения с инновационными технологиями значительно повышает качество знаний студентов и их профессиональную компетентность.*

Ключевые слова: *психологическое образование, педагогическая технология, интерактивные методы, компетентностный подход, цифровое образование, высшее образование, инновационная методика.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida psixologiya fanini o'qitish nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda psixologiya sohasidagi bilimlar nafaqat psixolog mutaxassislar, balki pedagog, tibbiyot, huquq va boshqaruv yo'nalishidagi kadrlar uchun ham hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda [1].

Jahon ta'lim makonida psixologiya o'qitish metodikasiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. UNESCO ning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, oliy ta'limda psixologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar qo'llangan universitetlarda talabalarning o'zlashtirish darajasi an'anaviy usullardan foydalanilgan muassasalarga nisbatan 34 foizga yuqori bo'lgan [2]. Bu raqam metodika takomillashtirishning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini isloh qilish doirasida psixologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim modeli tadbiq etilmoqda[3]. Shu bilan birga, amaliyotda o'qituvchilarning innovatsion metodlarga tayyorgarligi, moddiy-texnik baza va zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar yetishmasligi kabi muammolar hali ham o'z yechimini kutmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy ta'limda psixologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'llari va texnologiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish, hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Psixologiya o'qitish metodikasi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sohada bir qancha muhim yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Birinchi yo'nalish - kognitiv faollikni oshirish usullari.

Amerikalik tadqiqotchi R. Mayer o'zining "Multimedia Learning" asarida ko'p kanallik ta'lim nazariyasini rivojlantirgan bo'lib, psixologiya kurslarida vizual va audio materiallarni birgalikda qo'llash talabalar xotirasida ma'lumotni o'zlashtirish samaradorligini 55 foizga oshirishini isbotlagan[4]. Ushbu nazariya bugungi kunda turli universitetlarda psixologiya o'qitishda keng qo'llanilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish - faol va muammoli o'qitish metodlari. Rossiyalik psixolog A.A.Verbitskiy kontekstli ta'lim nazariyasini ishlab chiqib, psixologiya fanini o'qitishda amaliy vaziyatlar (keys-stadi) va rolli o'yinlardan foydalanish talabalarning kasbiy motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan[5]. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar bilimlarini amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar.

Uchinchi yo'nalish - raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish. Britaniyalik olim D. Laurillard "Teaching as a Design Science" asarida raqamli muhit talabalar bilan o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot sifatini tubdan o'zgartirishi mumkinligini asoslagan[6]. Elearning platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari psixologiya ta'limida yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Mahalliy tadqiqotlar orasida O'zbekiston Milliy universiteti professori N. A. Sobirovaning ilmiy ishlari alohida e'tiborga molik. U oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fanini o'qitishda milliy-madaniy kontekstni hisobga olishning zaruriyatini asoslab, mahalliy pedagogik an'analarni zamonaviy metodlar bilan sintez qilishning nazariy modelini ishlab chiqqan [7].

Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ma'ruza-seminar tizimida talabalarning atigi 40-45 foizi psixologiya bo'yicha o'quv materialini to'liq o'zlashtirishi mumkin. Interaktiv metodlar qo'llanilgan guruhlar esa 70-75 foizlik o'zlashtirish ko'rsatkichiga erisha oladilar[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: kuzatish va suhbat o'tkazish, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari (eksperiment), psixologik diagnostika va statistik tahlil. Nazariy asos sifatida L. S. Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasi, J. Piajeaning kognitiv rivojlanish nazariyasi va B. Bloomning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi qabul qilindi [9].

Tajriba guruhlari yangilangan metodika asosida, nazorat guruhlari esa an'anaviy tizim doirasida o'qitildi. Har ikki guruhda bir xil o'quv dasturi, bir xil vaqt oralig'i va bir xil test topshiriqlari qo'llanildi. Aralashuvchanligi nazorat qilish uchun talabalarni guruhlarga taqsimlashda tasodifiy tanlov (randomizatsiya) usuli qo'llanildi.

Asosiy natijalar va muhokama. Psixologiya o'qitishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari bir necha muhim yo'nalishda muhokama qilish imkonini beradi.

Interaktiv metodlarning samaradorligi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, keys-stadi (case study) metodidan foydalanilganda talabalar psixologik tushunchalarni ancha chuqur o'zlashtiradilar. Masalan, "Klinik psixologiya" kursida real klinikalarda kuzatuvlar olib borish imkoniyati berilgan guruhlarda bilim o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi 78,3 ball (100 ballik tizimda) ni tashkil etdi, an'anaviy o'qitish guruhlarida esa bu ko'rsatkich 61,7 ballga teng bo'ldi [8].

Rolli o'yinlar ham alohida natija berdi. "Muloqot psixologiyasi" kursida konflikt vaziyatlarni rolli o'yin orqali tahlil qilish talabalarning empatiya ko'nikmalarini 42 foizga oshirdi (Rozenberning empatiya shkalasi bo'yicha). Bu esa nazariy bilimning amaliy ko'nikmaga aylanishini jadallashtiruvchi usul sifatida rolli o'yinlarning samaradorligini tasdiqlaydi [10].

Raqamli texnologiyalar va gibrid ta'lim. COVID-19 pandemiyasi ta'limni raqamlashtirish jarayonini keskin tezlashtirdi. Tadqiqot davomida sinab ko'rilgan Moodle platformasi asosidagi el-

ektron ta'lim kurslari talabalarning mustaqil o'rganish faolligini 65 foizga oshirdi. Ayniqsa, psixologik testlar va diagnostik vositalarning onlayn formatda taqdim etilishi talabalar uchun o‘quv materialini ko'rgazmali va qiziqarli qildi [6].

Flipped classroom (teskari dars) metodologiyasi oliy ta'limda psixologiya fanini o'qitishda katta imkoniyatlar ochmoqda. Bu usulda talabalar yangi materialni uyda video ma'ruza orqali mustaqil o'rganib, auditoriyada esa muhokama, tahlil va amaliy mashqlar bilan shug'ullanadilar. Tajribamiz shuni ko'rsatdiki, ushbu metodologiya qo'llanilgan guruhlarda talabalarning auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarligi 3,2 barobarga oshdi [4].

Kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv. B.Bloomning taksonomiyasi asosida psixologiya kurslari uchun ishlab chiqilgan yangilangan o‘quv maqsadlari tizimi talabalarning bilimdan ko‘nikmaga va kompetentlikka o‘tishini tizimli ta’minladi. Ushbu yondashuvda har bir mavzu bo‘yicha “Bilish”, “Tushunish”, “Qo‘llash”, “Tahlil qilish”, “Sintez qilish” va “Baholash” darajalaridagi topshiriqlar ishlab chiqildi [9].O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy kontekst, O‘zbekiston madaniyati va an’analari bilan bog‘liqlikni ta’minlash ham muhim natijalar berdi.

Psixologiyaning mahalliy misol va hodisalar orqali o‘qitilishi talabalar motivatsiyasini 48 foizga oshirdi (ichki motivatsiyani o‘lchash uchun Dekining IMI shkalasidan foydalanildi) [7].Baholash tizimini takomillashtirish. Formativ baholash (jarayon baholash) va summativ baholash (natija baholash)ning uyg'un birlashtirilishi psixologiya fanini o'qitishda yangi sifat darajasini ta’minlaydi. Portfolio, refleksiv jurnal yuritish, tengdoshlar baholashi kabi usullar talabalarning meta-kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [12].

Tadqiqot natijalariga tayanib, biz “Psixologiya ta’limini takomillashtirish” modeli (PTT-modeli)ni ishlab chiqdik. Ushbu model to'rtta asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

Birinchi komponent - Diagnostik-maqsadli yo'nalish. O'quv jarayonini boshlashdan avval talabalarning psixologiya sohasidagi mavjud bilimlari, qobiliyatlari va motivatsiyasi diagnostika qilinadi. Olingan natijalar asosida differensiallashtirilgan ta’lim yo‘llari belgilanadi. Bu bosqichda L. S. Vygotskiyning “Proksimal rivojlanish zonasi” tushunchasi amaliy qo‘llanma sifatida muhim rol o‘ynaydi [9].

Ikkinchi komponent Metodlar va texnologiyalar integratsiyasi. Muammoli ta'lim, loyiha metodlari, kooperativ ta'lim, simulyatsiya va rolli o'yinlar, shuningdek raqamli vositalar maqsadga muvofiq uyg‘unlashtiriladi. Muhim shartki, metodlar tanlanayotganda nafaqat ularning samaradorligi, balki talabalarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va fanlararo bog'liqlik ham hisobga olinishi lozim [5].

Uchinchi komponent - Refleksiya va tuzatish. Har bir o'quv blokidan so'ng talabalar va o'qituvchilar birgalikda o‘quv jarayonini muhokama qiladilar, samarali va samarasiz jihatlarni aniqlaydilar va keyingi davr uchun yangi maqsadlar belgilaydilar. Ushbu refleksiv yondashuv “O‘qituvchi-tadqiqotchi” (teacher as researcher) modeliga asoslanadi [6].

To‘rtinchi komponent - Integrativ baholash. Bilimlar, ko‘nikmalar va kompetentliklarni baholash uchun ko’p o’lchamli baholash tizimi qo’llaniladi: test, og‘zaki suhbat, amaliy topshiriq, portfolio va jamoaviy loyihalar. Baholash kriteriylari dastlab talabalar bilan birgalikda muhokama qilinib, shaffof holda belgilab qo‘yiladi [12].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’limda psixologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish kompetentlikka yo'naltirilgan, texnologiyalar bilan boyitilgan va refleksiyaga asoslangan yondashuv orqali amalga oshirilganda sezilarli ijobiy natijalar beradi. An’anaviy ma’ruza-seminar tizimini interaktiv, muammoli va loyiha metodlari bilan maqsadga muvofiq uyg‘unlashtirish, o‘qituvchi kompetentligini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish - bularning barchasi birga qo‘llanilganda psixologiya ta’limining sifatini tubdan yaxshilash mumkin. Ishlab chiqilgan PTT-modeli (Psixologiya Ta’limini Takomillashtirish modeli) oliy ta’lim muassasalarida amaliy qo‘llanish uchun tayyor metodologik asos sifatida taqdim etilmoqda.

Tadqiqot natijalarining boshqa gumanitar fanlarni o‘qitishda ham qo‘llanilishi mumkinligi e’tiborga molik. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun esa sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlarining psixologiya o‘qitishidagi imkoniyatlarini o‘rganish muhim istiqbol yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixologiya fani insonni insonlashtiradigan fandir. Shu bois uni chuqur, jonli va zamonaviy uslubda o‘qitish nafaqat kasbiy, balki umuminsoniy tarbiya jihatidan ham nihoyatda muhimdir. Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish esa bu ezgu maqsad sari eng ishonchli yo‘llardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. American Psychological Association (APA). APA Guidelines for Undergraduate Psychology Education. Washington, DC: APA Press. 2022-y. 124 b.
2. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing. 2023-y. 88 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent: Adolat, 2020. 64 b.
4. Mayer, R. E. Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 2019-y. 504 b.
5. Verbitskiy, A. A. Kontekstnoe obuchenie v sisteme vysshego obrazovaniya. Moskva: Nauka. 2021-y. 312 b.
6. Laurillard, D. Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. New York: Routledge. 2020-y. 280 b.
7. Sobirova, N. A. Oliy ta'limda psixologiyani o'qitishda milliy-madaniy kontekstning ahamiyati // Psixologiya jurnali. Toshkent. 2022-y. № 3. B. 45–58.
8. Xoliqov, A. A., Rahimov, S. R., Nazarova, M. T. Interaktiv metodlarning psixologiya ta’limiga ta'siri: empirik tadqiqot // Pedagogika va psixologiya. 2023-yil. № 1. B. 12–27.
9. Vygotskiy, L. S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V. V. Davydova. Moskva: Pedagogika-Press. 536 b. 1999-yil.
10. Davis, M. H. Empathy: A Social Psychological Approach. New York: Routledge. 260 b. 2018-yil.
11. European Psychologists in Teacher Education (EPTE). Competence Framework for Psychology Teachers in Higher Education. Brussels: EFPA. 78 b. 2022-yil.
12. Black, P., Wiliam, D. Classroom Assessment and the Learning Gap // School Science Review. Vol. 80(291). P. 39–46. 2018-yil.
13. Biggs, J., Tang, C. Teaching for Quality Learning at University (4th ed.). Maidenhead: McGraw-Hill. - 389 b. 2011-yil.
14. Hattie, J. Visible Learning: The Sequel. A Synthesis of Over 2100 Meta-analyses Relating to Achievement. New York: Routledge. 576 b. 2021-yil.
15. Karimov, R. A. Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.2021-y.248 b.

Jabborova Feruza Majidovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING SHAXSLARARO MULOQOTIDA EMOTSIONAL BARQARORLIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqot jarayonida emotsional barqarorlikni ta’minlovchi psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘qituvchining emotsional holati, stressga chidamlilik, empatiya darajasi, kommunikativ kompetensiya va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati kabi omillar shaxslararo muloqot samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyatda emotsional intellektning ahamiyati, o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi ruhiy omillar ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘qituvchilarning emotsional barqarorligini rivojlantirish va sog‘lom muloqot madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *emotsional barqarorlik, shaxslararo muloqot, o‘qituvchi shaxsi, emotsional intellekt, empatiya, stressga chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqarish, kommunikativ kompetensiya, psixologik madaniyat, pedagogik faoliyat.*

ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНОМ ОБЩЕНИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические факторы, обеспечивающие эмоциональную устойчивость учителей начальных классов в процессе межличностного общения. В исследовании освещено, как такие факторы, как эмоциональное состояние учителя, стрессоустойчивость, уровень эмпатии, коммуникативная компетентность и способность к самоуправлению, влияют на эффективность межличностного общения. Также анализируется значение эмоционального интеллекта в педагогической деятельности, психологические факторы, влияющие на профессиональный успех учителя. Результаты исследования служат формированию позитивной психологической среды в системе начального образования, развитию эмоциональной устойчивости учителей и укреплению культуры здорового общения.*

Ключевые слова: *эмоциональная устойчивость, межличностное общение, личность учителя, эмоциональный интеллект, эмпатия, стрессоустойчивость, самоуправление, коммуникативная компетентность, психологическая культура, педагогическая деятельность.*

FACTORS OF EMOTIONAL STABILITY IN THE INTERPERSONAL COMMUNICATION OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the psychological factors that ensure emotional stability in the process of interpersonal communication of primary school teachers. The study highlights how such factors as the teacher's emotional state, stress resistance, level of empathy, communicative competence, and self-management ability influence the effectiveness of interpersonal communication. The significance of emotional intelligence in pedagogical activity, psychological factors influencing the professional success of a teacher, are also analyzed. The research results serve the formation of a positive psychological environment in the primary education system, the development of emotional stability of teachers, and the strengthening of a culture of healthy communication.*

Key words: *emotional stability, interpersonal communication, teacher personality, emotional intelligence, empathy, stress resistance, self-management, communicative competence, psychological culture, pedagogical activity.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim poydevorlaridan biri bo‘lib, bu bosqichda o‘quvchilarning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi ko‘p jihatdan

o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, emotsional holati va muloqot madaniyatiga bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar bilan samimiy, barqaror va ijobiy psixologik munosabatlarni shakllantiruvchi shaxs sifatida muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining emotsional barqarorligi - bu stress holatlarida o‘zini tuta bilish, salbiy his-tuyg‘ularni nazorat qilish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ijobiy muhit yaratish qobiliyatidir. Shaxslararo muloqot jarayonida emotsional barqarorlikning yetishmasligi o‘qituvchi faoliyatida charchoq, tushkunlik, konfliktlar va pedagogik samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, o‘qituvchining emotsional barqarorligini rivojlantirish, uni muloqot jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi psixologik mexanizmlarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlikni ta’minlovchi omillar - empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik va kommunikativ kompetensiya kabi jihatlar psixologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Shu orqali ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish yo‘llari aniqlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqat kasbiy bilim va malakasi emas, balki uning emotsional barqarorligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida bu masala yanada dolzarb, chunki shu davrda bolalarning psixik, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga o‘qituvchi shaxsining ta’siri beqiyosdir. O‘qituvchining muloqotdagi muvozanatli hissiy holati, ijobiy munosabati va samimiyligi o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, o‘qishga qiziqish va ijobiy emotsional tajribaning shakllanishiga asos yaratadi.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan stress omillari – yuqori mas’uliyat, mehnat yuklamasi, ota-onalar bilan aloqa, baholash tizimidagi o‘zgarishlar – o‘qituvchilarning emotsional charchashiga olib kelmoqda. Natijada ba’zi pedagoglarda hissiy zo‘riqish, sabrsizlik, muloqotdagi ziddiyatlar yoki “emotsional kuyish” sindromi kuzatilmoqda. Bu esa o‘qituvchining kasbiy samaradorligiga, o‘quvchilar bilan bo‘lgan shaxslararo muloqot sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional barqarorligini saqlash va rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganish nafaqat individual psixologik salomatlik, balki butun ta’lim muhitining barqarorligi uchun muhimdir. O‘qituvchining o‘z emotsiyalarini anglay olishi, boshqarishi va boshqalarning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri talqin etishi - samarali shaxslararo muloqotning asosi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida emotsional intellekt va emotsional barqarorlik masalalari bo‘yicha D. Goulman, P. Salovey, J. Mayer, K. Izard kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ularning ishlari o‘qituvchining psixologik tayyorgarligini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston olimlari (A. Jabborov, M. Qodirova, G. Yuldasheva va boshqalar) ham o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibida muloqot madaniyati va emotsional muvozanatni alohida e’tirof etadilar.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlik omillarini aniqlash, ularni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish ta’lim psixologiyasining dolzarb va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biridir. Bu nafaqat o‘qituvchining kasbiy sifatlarini, balki ta’lim muassasasidagi ijobiy psixologik iqlimni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining shaxslararo muloqotidagi emotsional barqarorlik masalasi psixologiya, pedagogika va neyropsixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Mazkur masalani yoritishda emotsional intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish, empatiya, stressga bardoshlilik va kommunikativ kompetensiya kabi tushunchalar markaziy o‘rin tutadi.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Daniel Goleman (1995) tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Goleman fikricha, insonning muvaffaqiyati 80% emotsional intellekt darajasiga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa ta’lim sohasida bu ko‘rsatkich yetakchi rol o‘ynaydi. U o‘qituvchi uchun o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini anglay olish va empatik muloqot o‘rnatish muhimligini ta’kidlagan.

Shuningdek, P. Salovey va J. Mayer (1990) emotsional intellektni kognitiv jarayon sifatida talqin etib, uni to‘rtta asosiy komponentga ajratgan: emotsiyalarni aniqlash, ularni tushunish, ularni boshqarish va emotsiyalar orqali fikrlashni yo‘naltirish. Ushbu model o‘qituvchilarning shaxslararo

muloqotda qanday psixologik mexanizmlar asosida barqarorlikni saqlashini tushuntirishga ilmiy asos yaratadi.

K. Izard (2001) esa emotsiyalarni inson faoliyatining markaziy regulyatori sifatida talqin qilib, o‘qituvchining emotsional tajribasi uning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatini, shuningdek, sinfdagi umumiy iqlimni belgilashini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, emotsional barqarorlik pedagogik samaradorlikning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Mahalliy olimlardan A. Jabborov (2019) o‘qituvchining psixologik tayyorgarligida ijobiy hissiy holat va o‘zini tuta bilish madaniyatining muhimligini ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, pedagogning muloqotda o‘zini tuta bilmasligi yoki salbiy emotsiyalarni to‘g‘ri boshqara olmasligi ta’lim sifati va o‘quvchi bilan munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi.

M. Qodirova (2020) esa o‘qituvchining kasbiy faoliyatida stress boshqaruvi va emotsional barqarorlikning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida hissiy charchashni kamaytiruvchi psixologik trening dasturlarini ishlab chiqqan.

G. Yuldasheva (2021) o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish orqali emotsional muvozanatni saqlash mumkinligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida o‘qituvchi-o‘quvchi va o‘qituvchi-ota-ona muloqotidagi emotsional moslashuv darajasi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (1977) o‘qituvchining emotsional barqarorligini o‘zlashtirilgan tajriba, kuzatuv va ijtimoiy taqlid orqali shakllanishini tushuntiradi. V. Vigotskiy (1934) esa ijtimoiy muloqot jarayonida emotsiyalar va kognitiv jarayonlarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilib, o‘qituvchi uchun muloqotdagi hissiy nazoratni asosiy psixik mexanizm sifatida ko‘rsatgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional barqarorlikning fiziologik asoslari ham o‘rganilmoqda. Neyropsixologlar (R. Davidson, L. Feldman Barrett) tomonidan olib borilgan izlanishlarda, emotsiyalarni boshqarish jarayonida prefrontal korteks faoliyati muhim rol o‘ynashi aniqlangan. Bu esa o‘qituvchilarning hissiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini maxsus psixologik treninglar orqali rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining shaxslararo muloqotidagi emotsional barqarorlik - bu faqat individual sifat emas, balki ijtimoiy, madaniy va kasbiy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Shuning uchun bu mavzuni o‘rganish, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi sharoitida, o‘qituvchi shaxsini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik mexanizmlarni aniqlash va amaliy dasturlar ishlab chiqish nuqtayi nazaridan juda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxs psixologiyasi, emotsional intellekt nazariyasi, ijtimoiy muloqot psixologiyasi va pedagogik psixologiya yo‘nalishlaridagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy asoslari D. Goulman, P. Salovey, J. Mayer, K. Izard, V. Vygotskiy, A. Bandura, shuningdek, o‘zbek olimlari A. Jabborov, M. Qodirova, G. Yuldasheva, N. To‘raeva va boshqalarning ilmiy ishlariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotning maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlikni ta’minlovchi psixologik omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish hamda emotsional barqarorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Emotsional barqarorlik tushunchasining psixologik mazmunini va uning o‘qituvchi faoliyatidagi rolini tahlil qilish.

O‘qituvchilarning shaxslararo muloqotdagi emotsional barqarorlik darajasini aniqlovchi psixologik omillarni (empatiya, stressga bardoshlilik, o‘z-o‘zini boshqarish, kommunikativ kompetensiya va boshqalar) o‘rganish.

Emotsional barqarorlik va muloqot samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tahlil qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun emotsional barqarorlikni mustahkamlovchi psixologik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti - boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati jarayonidagi shaxslararo muloqot tizimi.

Tadqiqot predmeti - o‘qituvchilarning shaxslararo muloqotda emotsional barqarorlikni ta’minlovchi psixologik omillar va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlari.

Tadqiqotda metodologik yondashuvlar sifatida tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va ijtimoiy-psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar emotsional barqarorlikni o‘qituvchi shaxsining integral sifati sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilib, ularning muloqotdagi emotsional holatlari, stressga munosabati va o‘zini tuta bilish darajalari o‘rganildi. Natijalar asosida o‘qituvchilarning emotsional barqarorlik darajasini shakllantirishga qaratilgan psixologik trening dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuv o‘qituvchining emotsional barqarorligini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ularning muloqotdagi hissiy muvozanatini saqlash uchun ilmiy asoslangan psixologik mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotidagi emotsional barqarorlik ularning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. O‘qituvchining emotsional holati, o‘zini boshqarish darajasi va empatik qobiliyati o‘quvchi bilan o‘zaro muloqot sifatiga, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitga va butun ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar natijasida o‘qituvchilarda emotsional barqarorlik darajasi o‘rta yoki past darajada bo‘lgan hollarda, ularning muloqotdagi sabrsizlik, asabiylik va stressga nisbatan zaiflik holatlari kuzatilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi bilan aloqa sifatining pasayishiga, dars jarayonida salbiy emotsional fon vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Yuqori emotsional barqarorlikka ega o‘qituvchilar esa muloqotda ijobiy ohangni saqlay oladi, konflikt vaziyatlarini konstruktiv hal etadi va o‘quvchilar bilan o‘zaro ishonchli munosabat o‘rnatadi.

Tadqiqot davomida o‘qituvchining emotsional barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar quyidagicha aniqlangan:

O‘z-o‘zini boshqarish - o‘qituvchining o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ularni ijobiy yo‘naltirish qobiliyati.

Empatiya - o‘quvchilarning hissiy holatini sezish, ularni tushunish va ularga mos emotsional javob bera olish.

Stressga bardoshlilik - o‘qituvchining kasbiy bosim, baholash tizimidagi o‘zgarishlar, ota-onalar va rahbariyat bilan munosabatlardagi zo‘riqishlarga qarshi psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishi.

Kommunikativ kompetensiya - o‘qituvchining shaxslararo muloqotda nutq, tana tili, ohang va tinglash madaniyatini to‘g‘ri qo‘llay olishi.

Emotsional intellekt - o‘z his-tuyg‘ulari va boshqalarning emotsiyalarini aniqlay olish, ularni boshqarish hamda ular orqali muloqotni samarali yo‘naltirish qobiliyati.

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, yuqori emotsional barqarorlikka ega o‘qituvchilar sinfda tinch, iliq, qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratadilar. Ularning muloqoti o‘quvchilarda xavfsizlik hissini, o‘ziga ishonchni va o‘qishga ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi. Aksincha, emotsional barqarorlik yetishmasligi o‘quvchilarda qo‘rquv, ishonchsizlik va o‘qishga befarqlikni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, tadqiqotda aniqlanishicha, emotsional barqarorlik darajasi o‘qituvchining ish staji, yosh xususiyatlari va shaxsiy temperamentiga ham bog‘liq. Tajribali o‘qituvchilar o‘z emotsiyalarini boshqarishda ko‘proq barqarorlik namoyon etgan bo‘lsalar, yangi o‘qituvchilar stress holatlarida tez ta’sirchanlik ko‘rsatganlar. Bu esa kasbiy adaptatsiya davrida psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil jarayonida shuningdek, o‘qituvchilarning emotsional barqarorligini rivojlantirishda psixologik treninglar, relaksatsiya mashqlari, kommunikativ kompetensiyani oshirish dasturlari va emotsional intellektni rivojlantirish metodikalari samarali ekani aniqlandi. Ushbu usullar o‘qituvchining o‘z hissiyotlarini ongli boshqarish, stressga qarshi turish va muloqot jarayonida ijobiy psixologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining shaxslararo muloqotdagi emotsional barqarorligi nafaqat individual psixologik sifat, balki ta’lim tizimidagi sog‘lom psixologik muhitning ajralmas komponentidir. Bu barqarorlikni shakllantirish o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, psixologik madaniyatini oshirishi va ijobiy muloqot madaniyatini rivojlantirishi bilan chambarchas bog‘liq.

Amaliy tavsiyalar:

O‘qituvchilarni emotsional savodxonlik bo‘yicha tayyorlash – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maxsus psixologik treninglar, seminarlar va interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish zarur. Bu tadbirlar ularning o‘z emotsiyalarini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiy holatini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish – o‘qituvchilarni shaxslararo muloqotda empatiya, faol tinglash, konfliktlarni konstruktiv hal etish va o‘z fikrini ijobiy tarzda ifodalash bo‘yicha o‘qitish tavsiya etiladi.

Stressni boshqarish dasturlarini joriy etish – o‘quv yili davomida o‘qituvchilar uchun relaksatsiya mashqlari, autogen trening, meditatsiya va psixologik dam olish mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish foydali bo‘ladi. Bu charchoq va hissiy zo‘riqishni kamaytiradi.

Psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish – ta’lim muassasalarida amaliy psixologlar tomonidan o‘qituvchilarning emotsional barqarorligini kuzatish, individual maslahatlar berish, ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlik ularning kasbiy samaradorligi, o‘quvchilarga bo‘lgan individual yondashuvi va ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining emotsional barqarorligi uning o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik, empatiya va muloqot madaniyatini rivojlantirish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Emotsional barqarorlikni ta’minlash o‘qituvchiga ijobiy hissiy holatda ishlash, konfliktli vaziyatlarni to‘g‘ri hal etish va o‘quvchilar bilan sog‘lom muloqotni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Shu boisdan, pedagogik faoliyatda emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish usullarini o‘rgatish, o‘qituvchilarning psixologik madaniyatini oshirish va ularni hissiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish zarur.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining emotsional barqarorligi - bu uning professional muvaffaqiyatining, o‘quv jarayonining samaradorligi va o‘quvchilarda ijobiy psixologik muhit shakllanishining asosiy omillaridan biridir. Shu yo‘nalishda tizimli psixologik tadbirlar va ilmiy asoslangan yondashuvlar amalga oshirilsa, o‘qituvchilarning emotsional holati barqaror, muloqoti esa yanada samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. - Москва: АСТ, 2020.
2. Lazarus, R. S. Emotion and Adaptation. - New York: Oxford University Press, 1991.
3. Salovey, P., Mayer, J. D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 1990, Vol. 9(3), pp. 185–211.
4. Vigotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Rogers, C. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. - Boston: Houghton Mifflin, 1961.
6. Bar-On, R. The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema, 2006, Vol. 18, pp. 13–25.
7. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2021.
8. Xolbekov A. Pedagogik psixologiya asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
10. Rahmatova D. O‘qituvchi shaxsining emotsional madaniyatini rivojlantirishning psixologik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2022.
11. Dewey J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938.

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TA'LIMNING UNIVERSAL DIZAYNI ORQALI AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KOLLABORATIV YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida Ta'limning universal dizayni (TUD, Universal Design for Learning – UDL) tamoyillari asosida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda TUDning uch asosiy tamoyili – turli yo'llar bilan jalb etish, o'quv materiallarini turli usullarda taqdim etish va bilimlarni turli shakllarda ifodalash imkoniyatlarini yaratish – inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, "Besh soha" modeli, kuzatish va talqin metodikasi hamda kollaborativ va differensial ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarning amaliy faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, Ta'limning universal dizayni, UDL, TUD, amaliy ko'nikmalar, differensial yondashuv, kollaborativ ta'lim, Besh soha modeli, inklyuziv pedagogika, ta'lim muhiti.*

КОЛЛАБОРАТИВНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПОСРЕДСТВОМ УНИВЕРСАЛЬНОГО ДИЗАЙНА ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования практических навыков учащихся в условиях инклюзивного образования на основе принципов Универсального дизайна обучения (Universal Design for Learning – UDL). Особое внимание уделено модели «Пять сфер», методике наблюдения и интерпретации, а также стратегиям множественного вовлечения, представления и выражения учебной деятельности. Обоснована эффективность применения коллаборативных и дифференцированных образовательных технологий для развития учебной мотивации и коммуникативных компетенций обучающихся.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, универсальный дизайн обучения, практические навыки, UDL, дифференцированный подход, коллаборативное обучение, модель «Пять сфер», инновационные педагогические технологии.*

A COLLABORATIVE APPROACH TO DEVELOPING PRACTICAL SKILLS THROUGH UNIVERSAL DESIGN FOR LEARNING (UDL)

Abstract. *This article examines the theoretical and practical foundations of developing students' practical skills through the principles of Universal Design for Learning (UDL) within inclusive education. The study highlights the significance of the three core UDL principles: multiple means of engagement, representation, and action and expression. It also explores the role of the "Five Domains" model, observation and interpretation strategies, and collaborative and differentiated learning technologies in promoting learners' practical skills, communication competencies, and active participation. The findings indicate that implementing UDL principles contributes to creating equitable educational opportunities and improving the quality of inclusive education.*

Key words: *inclusive education, Universal Design for Learning, UDL, practical skills, inclusive pedagogy, differentiated instruction, collaborative learning, Five Domains model, educational innovation.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik tamoyili inson huquqlarini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda UNESCO va UNICEFning "Barcha uchun ta'lim" konsepsiyasiga muvofiq, har bir bola sifatli va teng huquqli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muhitini barcha o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish, o'quv jarayonidagi to'siqlarni kamaytirish va individual farqlarni hisobga olish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ta’lim muassasalarida maxsus sharoitlar yaratish kafolatlangan. Inklyuziv ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim mazmuni va metodlarini loyihalashga bog‘liqligi sababli zamonaviy ta’lim paradigmalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar talab etilmoqda. An’anaviy yondashuvlarda o‘quvchilar mavjud tizimga moslashishga majbur bo‘lsa, Ta’limning universal dizayni (TUD) konsepsiyasi aksincha, ta’lim tizimini o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning jismoniy, kognitiv, emotsional yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat’i nazar, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan.

So‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bois TUD tamoyillarini amaliyotga joriy etishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – inklyuziv ta’lim sharoitida Ta’limning universal dizayni tamoyillari asosida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, inklyuziv pedagogika, Universal Design for Learning (UDL), differensial va kollaborativ ta’limga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. UNESCO, CAST tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar hamda inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro trening materiallari tahlil qilindi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatish, amaliy mashg‘ulotlarni tahlil qilish, ta’lim jarayonida qo‘llanilgan metodlarni monitoring qilish hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini "kuzatish va talqin qilish" metodikasi asosida baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyat, differensial va inklyuziv pedagogika yondashuvlari tashkil etdi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari K. Rogers, A. Maslow, I.S.Yakimanskaya va V.V. Serikov ishlarida yoritilgan bo‘lib, ularda o‘quvchi shaxsining individual ehtiyojlari va rivojlanishiga ustuvor ahamiyat beriladi. Kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy asoslari A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, John Raven va Philippe Perrenoud tomonidan ishlab chiqilgan. Tizimli-faoliyat yondashuvi L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, P.Ya. Galperin, V.V. Davidov hamda D.B. Elkoninlarning faoliyat nazariyasi va madaniy-tarixiy konsepsiyalariga tayanadi. Differensial ta’lim g‘oyalari Carol Ann Tomlinson va boshqa olimlarning ishlari orqali rivojlantirilgan. Inklyuziv pedagogikaning zamonaviy ilmiy asoslari esa Lani Florian, Kristine Black-Hawkins, Mel Ainscow, Tony Booth va David Mitchell tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotda, shuningdek, David H. Rose va Anne Meyer tomonidan ishlab chiqilgan Ta’limning universal dizayni (UDL) konsepsiyasi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari TUD tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish inklyuziv muhitda o‘quvchilarning amaliy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Avvalo, "kuzatish" va "talqin" tushunchalarini ajratish o‘qituvchining pedagogik qarorlarini aniqroq qabul qilishiga yordam berdi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darsda sust ishtirok etayotgan yoki topshiriqlarni bajarmayotgan o‘quvchilarning aksariyatida motivatsiya yetishmasligi emas, balki o‘quv materialining taqdim etilish shakli yoki o‘z bilimini ifodalash imkoniyatlarining cheklanganligi asosiy sabab bo‘lgan. TUDning "Besh soha" modeli asosida olib borilgan tahlillar o‘quvchilarning qiyinchiliklari idrok (ko‘rish, eshitish, axborotni qabul qilish), regulyasiya (diqqatni boshqarish va emotsional nazorat), asosiy akademik ko‘nikmalar (o‘qish, yozish, hisoblash), mazmunni anglash va avvalgi bilimlar bilan integratsiyalash, bilimlarni turli usullarda ifodalash singari soha yo‘nalishlarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarga topshiriqlarni bajarishda tanlov imkoniyatlari yaratilganda (yozma javob, rasm, loyiha, plakat yoki og‘zaki taqdimot shaklida) ularning darsdagi faolligi va o‘quv motivatsiyasi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, "O‘yla – juftlikda muhokama qil – sinf bilan bo‘lish", "Pazzl", Frayer modeli, B.B.B. jadvali, grafik organayzerlar va loyiha metodidan foydalanish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash va amaliy muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, moslashuvchan o‘quv muhiti

(yorug‘lik, akustika, mos mebellar, individual va guruhli ish zonalari, vizual ko‘maklar hamda yordamchi texnologiyalar) o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlandi.

Muhokama. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, CAST (Center for Applied Special Technology) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan UDL yo‘riqnomalarida ta’limni moslashuvchan loyihalash va o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirish hamda ifodalashning turli usullarini taqdim etish inklyuziv ta’limning muhim sharti sifatida qayd etilgan. Florian va Black-Hawkins tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv pedagogika konsepsiyasi ham barcha o‘quvchilarni umumiy ta’lim faoliyatiga jalb etish uchun o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

CAST tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan UDL yo‘riqnomalari (Universal Design for Learning Guidelines) - bu barcha o‘quvchilar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar majmuasi hisoblanadi. Ushbu yo‘riqnomalar neyrofan (neuroscience), kognitiv psixologiya va zamonaviy pedagogika yutuqlariga asoslanadi. UDL yo‘riqnomalarining asosiy maqsadi – ta’lim muhitini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, ya’ni ta’lim jarayonidagi to‘siqlarni kamaytirish va har bir o‘quvchining muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlashdir. Bu yondashuvda muammo o‘quvchida emas, balki ta’lim tizimining moslashuvchan emasligida deb qaraladi. CAST UDL yo‘riqnomalarining 3 asosiy tamoyili quyidagilardan iborat.

1. Turli yo‘llar bilan jalb etish (Multiple Means of Engagement) Bu tamoyil o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. O‘qituvchi o‘quvchilarga tanlov imkoniyatlarini yaratishi, hamkorlikda ishlashni tashkil etishi va ularning individual qiziqishlarini hisobga olishi lozim. Masalan, topshiriq bajarish usulini tanlash (yakka, juftlik yoki guruhda ishlash), o‘yin elementlari va loyihaviy faoliyatlardan foydalanish, o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari bilan bog‘liq vazifalarni berish va boshqalar.

2. O‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish (Multiple Means of Representation) Har bir o‘quvchi ma’lumotni turlicha qabul qiladi. Shu sababli bilimlar faqat matn orqali emas, balki audio, video, grafik, diagramma, model yoki amaliy ko‘rgazmalar orqali ham berilishi tavsiya etiladi. Masalan, matnni audioyozuv bilan birga taqdim etish, infografika va sxemalardan foydalanish, subtitrli videodarslar va vizual tayanch materiallarni qo‘llash va boshqalar.

3. Bilimlarni turli shakllarda ifodalash (Multiple Means of Action and Expression) O‘quvchilarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etishning bir nechta usullarini tanlash imkoniyati beriladi. Bu, ayniqsa, inklyuziv ta’limda muhim hisoblanadi. Masalan, yozma javob o‘rniga og‘zaki taqdimot qilish, rasm, plakat yoki loyiha tayyorlash, raqamli vositalardan foydalanib prezentatsiya yaratish va boshqalar.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari TUD tamoyillarining nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o‘quvchilar uchun foydali ekanligini ko‘rsatdi. Chunki moslashuvchan o‘quv muhiti, differensial topshiriqlar va ko‘p variantli baholash usullari o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

TUDning uch asosiy tamoyili – o‘quvchilarni turli yo‘llar bilan jalb etish, o‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish va bilimlarni turli shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratish – ta’limdagi individual farqlarni hisobga olish va barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

"Besh soha" modeli hamda kuzatish va talqin metodikasi o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqroq belgilash va mos pedagogik yordamni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, kollaborativ va differensial ta’lim texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bundan tashqari, kollaborativ ta’lim texnologiyalarini TUD tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv, o‘zaro hurmat, kommunikativ madaniyat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli inklyuziv ta’limni tashkil etishda o‘qituvchilarning UDL bo‘yicha metodik tayyorgarligini oshirish hamda ta’lim muhitini universal dizayn tamoyillari asosida qayta loyihalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. CAST. Universal Design for Learning Guidelines 3.0. – Wakefield, MA : CAST Professional Publishing, 2024.
3. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris : UNESCO Publishing.
4. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. – Paris : UNESCO, 2017.
5. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy // British Educational Research Journal. – 2011. – Vol. 37, № 5. – P. 813–828.
6. Meyer A., Rose D. H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. – Wakefield, MA : CAST Professional Publishing, 2014.
7. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. – Alexandria, VA : ASCD, 2017.
8. UNICEF. Handouts for Day 1: Inclusive Education Training Materials. – Training materials. – 25–26 May 2026.
9. UNICEF. Handouts for Day 2: Inclusive Education Training Materials. – Training materials. – 25–26 May 2026.

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
katta o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
E-mail: zohirovnodirbek5@gmail.com

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLOVCHI HARBIY XIZMATCHILAR SHAXSIYATINING KO‘P OMILLI TUZILMASI VA AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLAR DETERMINATSIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy xizmatchilar (n=441) shaxsiyatining ko‘p omilli tuzilmasi, motivatsion strategiyalari va tavakkalchilikka tayyorlik darajasi tizimli-empirik jihatdan tadqiq etilgan. Izlanishda R.B. Kettell (16PF), T. Elers hamda Shubert metodikalaridan foydalanilgan. Matematik-statistik tahlil (Z-kriteriyi) barcha shkalalar bo‘yicha taqsimotning normal emasligini (0,01) va yuqori shaxslararo dispersiyani aniqladi. Rezultatlar respondentlar shaxsida “Ijtimoiy yetuklik-onglilik” (M=6,44), “Mustaqillik” (M=6,20) va “O‘zini nazorat qilish” (M=6,16) kabi regulyativ yadroning, shuningdek, yuqori darajadagi “Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi” (M=26,46) ustuvorligini ko‘rsatdi. Shubert testi bo‘yicha “Tavakkalchilikka tayyorlik” (M=9,78) o‘rtacha qiymatga ega bo‘lsa-da, standart og‘ishning keskin yuqoriligi (sigma=11,61) guruh ichida riskka munosabat bo‘yicha keskin qutblanish (differensiallik) mavjudligini isbotladi. Olingan natijalar asosida kadrlar seleksiyasini raqamlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *Jamoat xavfsizligi, Kettell 16PF, muvaffaqiyat motivatsiyasi, mag‘lubiyatdan qochish, tavakkalchilikka tayyorlik, ijtimoiy yetuklik, o‘zini nazorat qilish, standart og‘ish, differensial psixologiya.*

MULTI-FACTOR STRUCTURE OF PERSONALITY AND DETERMINATION OF MORAL-VOLITIONAL QUALITIES IN PUBLIC SECURITY MILITARY PERSONNEL

Abstract. *This article presents a systemic-empirical investigation into the multi-factor personality structure, motivational strategies, and risk-taking readiness of public security military personnel (n=441). The research methodology incorporates R.B. Cattell’s Sixteen Personality Factor Questionnaire (16PF), T. Ehlers’ motivational inventories, and the Schubert Risk-Readiness Test. Mathematical-statistical analysis via the Z-test revealed non-normal distributions across all evaluated scales (p \le 0.01) alongside high interpersonal dispersion. The empirical findings indicate a prominent regulatory core within the respondents' psychological profile, characterized by “Social Maturity-Conscientiousness” (M=6.44), “Independence” (M=6.20), and “Self-Control” (M=6.16), coupled with a high manifestation of "Achievement Motivation" (M=26.46). Although the Schubert test yielded a moderate mean for “Risk-Readiness” (M=9.78), the acutely elevated standard deviation (sigma=11.61) confirms a stark polarization (differentiation) regarding risk attitudes within the cohort. Based on these findings, actionable recommendations are proposed for the digitalization of personnel selection frameworks.*

Key words: *Public security, Cattell 16PF, achievement motivation, avoidance of failure, risk-readiness, social maturity, self-control, standard deviation, differential psychology.*

МНОГОФАКТОРНАЯ СТРУКТУРА ЛИЧНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ДЕТЕРМИНАЦИЯ ИХ МОРАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ

Аннотация. *В данной статье на системно-эмпирической основе исследованы многофакторная структура личности, мотивационные стратегии и уровень готовности к риску военнослужащих обеспечения общественной безопасности (n=441). В исследовании были использованы 16-факторный личностный опросник Р.Б. Кеттелла (16PF), а также методики*

Т. Элерса и А. Шуберта. Математико-статистический анализ (критерий Z) выявил ненормальное распределение по всем шкалам (p \le 0,01) и высокую межличностную дисперсию. Результаты продемонстрировали доминирование в структуре личности респондентов такого регуляторного ядра, как «Социальная зрелость - сознательность» (M=6,44), «Независимость» (M=6,20) и «Самоконтроль» (M=6,16), а также высокий уровень «Мотивации к достижению успеха» (M=26,46). Несмотря на то, что «Готовность к риску» по тесту Шуберта имеет среднее значение (M=9,78), резко высокая величина стандартного отклонения (sigma=11,61) доказывает наличие выраженной внутригрупповой поляризации (дифференциации) в отношении к риску. На основе полученных данных разработаны рекомендации по цифровизации кадровой селекции.

Ключевые слова: *Общественная безопасность, 16-факторный личностный опросник Кеттелла (16PF), мотивация успеха, избегание неудач, готовность к риску, социальная зрелость, самоконтроль, стандартное отклонение, дифференциальная психология.*

Kirish. Jamoat xavfsizligi organlari xizmatchilarining faoliyati yuqori darajada tartibga solinganligi (reglamentlashganligi), ijtimoiy mas'uliyatning yuqoriligi, dinamik o'zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish zarurati hamda krizisli vaziyatlarda yuqori psixofizik yuklamalar bilan xarakterlanadi. Bunday murakkab determinatsiya sharoitida harbiy xizmatchining kasbiy yaroqliligi va samaradorligi shaxsning chuqur fundamental omillari, uning motivatsion tendensiyalari hamda noaniqlik sharoitida tavakkal qilishga bo'lgan psixologik tayyorligi bilan belgilanadi.

1-jadval

Shaxsni o'rganishning ko'p omilli so'rovnomasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Std.og'ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Muloqotga moyillik	5,37	2,10	2,746	0,000**
Hissiy barqarorlik-beqarorlik	5,19	2,11	2,576	0,000**
Hukmronlikka intilish-tobelik	5,60	1,80	2,291	0,000**
Ijtimoiy yetuklik-onglilik	6,44	2,28	4,084	0,000**
Ijtimoiy mardlik	5,62	1,98	2,845	0,000**
Ishonuvchanlik-shubhanalish	5,49	2,00	2,876	0,000**
O'ziga ishonch-ishonmaslik	5,41	1,87	2,416	0,000**
Mustaqillik-tobelik	6,20	2,90	3,096	0,000**
O'zini nazorat qilish	6,16	2,12	2,298	0,000**
Qo'zg'aluvchanlik	4,70	2,11	2,198	0,000**

Izoh: ** p≤0,01

Maqsad va uni asoslash. Shaxsni o'rganishning ko'p omilli so'rovnomasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, muloqotga moyillik (5,37), hissiy barqarorlik-beqarorlik (5,19), hukmronlikka intilish-tobelik (5,60), ijtimoiy yetuklik-onglilik (6,44), ijtimoiy mardlik (5,62), ishonuvchanlik-shubhanalish (5,49), o'ziga ishonch-ishonmaslik (5,41), mustaqillik-tobelik (6,20), o'zini nazorat qilish (6,16), qo'zg'aluvchanlik (4,70), ko'p omilli shaxs so'rovnomasi bo'yicha olingan o'rtacha qiymatlar tahlili respondentlarning shaxslilik tuzilmasida ijtimoiy-irodaviy va regulyativ komponentlar ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar ierarxiyasida eng yuqori qiymat ijtimoiy yetuklik-onglilik (6,44) shkalasiga to'g'ri keladi. Bu holat shaxsning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi, xulq-atvorni refleksiv boshqarishi hamda ijtimoiy mas'uliyatni anglash darajasi yuqori ekanligini bildiradi. Mazkur sifat harbiy-professional faoliyatda normativlik va intizomiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Keyingi yuqori ko‘rsatkichlar mustaqillik-tobelik (6,20) va o‘zini nazorat qilish (6,16) shkalalarida qayd etilgan. Bu natijalar respondentlarning ichki regulyatsiya mexanizmlari rivojlanganligini, ya’ni xulq-atvorni mustaqil boshqarish, impulslarni nazorat qilish hamda vaziyatga mos ravishda adekvat reaktsiya bildirish qobiliyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ikki komponent irodaviy sifatlar tizimining markaziy yadrosini tashkil etib, shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlaydi. Ijtimoiy mardlik (5,62) va hukmronlikka intilish-tobelik (5,60) ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori darajada bo‘lishi respondentlarda faol ijtimoiy pozitsiya, tashabbusni ilgari surish, jamoada yetakchilikka moyillik va ijtimoiy ta’sir o‘tkazish tendensiyasining mavjudligini bildiradi. Bu sifatlar ayniqsa jamoaviy faoliyat samaradorligini oshirishda va rahbarlik funksiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonuvchanlik-shubhanalish (5,49), o‘ziga ishonch-ishonmaslik (5,41) hamda muloqotga moyillik (5,37) ko‘rsatkichlari o‘rta darajada ifodalangan bo‘lib, respondentlarda ijtimoiy interaktsiya va shaxslararo munosabatlar tizimi muvozanatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ular ijtimoiy aloqalarga ochiq bo‘lsa-da, ortiqcha ishonuvchanlik yoki yopiq pozitsiyaga moyillik kuzatilmaydi. Bu esa adekvat ijtimoiy moslashuv va kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligini bildiradi. Hissiy barqarorlik-beqarorlik (5,19) ko‘rsatkichi respondentlarda emotsional regulyatsiya tizimi nisbatan muvozanatlashganligini anglatadi. Bu natija shaxslarning stressli vaziyatlarda o‘zini tutish, emotsional reaksiyalarni boshqarish va psixologik moslashuvchanlik darajasining yetarli ekanligini ko‘rsatadi.

Eng past o‘rtacha qiymat qo‘zg‘aluvchanlik (4,70) shkalasida kuzatilgan. Bu holat respondentlarda impulsivlik va affektiv reaktsiyalarning nisbatan past darajada ekanligini, ya’ni emotsional tormozlanish va vaziyatni ongli nazorat qilish mexanizmlari ustun ekanligini bildiradi. Mazkur sifat harbiy-professional faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ekstremal vaziyatlarda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Shaxs tuzilmasida ijtimoiy yetuklik, mustaqillik va o‘zini nazorat qilish komponentlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu esa respondentlarning psixologik portretida ongli regulyatsiya, ijtimoiy mas’uliyat va irodaviy barqarorlikning ustuvorligini aks ettiradi. Shu bilan birga, qo‘zg‘aluvchanlikning past darajada namoyon bo‘lishi emotsional barqarorlikni ta’minlovchi qo‘shimcha omil sifatida baholanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasi natijalarining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, muloqotga moyillik ($Z=2,746$; $p<0,01$), hissiy barqarorlik-beqarorlik ($Z=2,576$; $p<0,01$), hukmronlikka intilish-tobelik ($Z=2,291$; $p<0,01$), ijtimoiy yetuklik-onglilik ($Z=4,084$; $p<0,01$), ijtimoiy mardlik ($Z=2,845$; $p<0,01$), ishonuvchanlik-shubhanalish ($Z=2,876$; $p<0,01$), o‘ziga ishonch-ishonmaslik ($Z=2,416$; $p<0,01$), mustaqillik-tobelik ($Z=3,096$; $p<0,01$), o‘zini nazorat qilish ($Z=2,298$; $p<0,01$) hamda qo‘zg‘aluvchanlik ($Z=2,198$; $p<0,01$) shkalalari bo‘yicha taqsimot simmetrik emas, balki sezilarli darajada og‘gan holda namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, ijtimoiy yetuklik-onglilik ($Z=4,084$) ko‘rsatkichining nisbatan yuqoriligi ushbu sifat bo‘yicha respondentlar o‘rtasida sezilarli differensiallik mavjudligini anglatadi. Bu holat ijtimoiy ong, mas’uliyat va normativ xulq-atvor darajasi shaxslar kesimida bir xil emasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mustaqillik-tobelik ($Z=3,096$) va ishonuvchanlik-shubhanalish ($Z=2,876$) shkalalarida ham sezilarli og‘ishlar kuzatilgan bo‘lib, bu respondentlarning ijtimoiy qaror qabul qilish, boshqalarga ishonch bildirish hamda o‘z pozitsiyasini himoya qilish darajasi turlicha ekanligini anglatadi. Muloqotga moyillik ($Z=2,746$) va ijtimoiy mardlik ($Z=2,845$) ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlangan natijalar esa shaxslararo interaktsiya va ijtimoiy faollik darajasida ham bir xil emaslik mavjudligini tasdiqlaydi. Nisbatan pastroq qiymatlarga ega bo‘lgan qo‘zg‘aluvchanlik ($Z=2,198$) va o‘zini nazorat qilish ($Z=2,298$) shkalalarida ham ahamiyatlilik saqlanib qolgan. Bu esa emotsional regulyatsiya va impulsivlik darajasi bo‘yicha ham respondentlar o‘rtasida sezilarli individual tafovutlar mavjudligini bildiradi. Mazkur natijalar harbiy-professional faoliyatning selektiv va differensial ta’siri bilan izohlanadi. Xizmat jarayonida shaxslilik sifatlari yagona model asosida emas, balki individual tajriba, xizmat muddati, lavozim, ijtimoiy muhit va psixologik xususiyatlar ta’sirida turlicha shakllanadi. Shu sababli, shaxsiy sifatlar taqsimoti normal emas, balki ko‘p qirrali va og‘ishgan xarakter kasb etadi.

2-jadval

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat (M)	Std.og‘ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	26,46	4,95	2,369	0,000**

Izoh: ** p≤0,01

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko‘ra, Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi (26,46), Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi bo‘yicha aniqlangan o‘rtacha qiymat (26,46) respondentlarda mazkur motivatsion komponentning yetarli darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi, natijaga intilishi hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ichki psixologik resurslarining rivojlanganligini ifodalaydi. Mazkur darajadagi motivatsiya shaxsning vazifalarni bajarishda tashabbus ko‘rsatishi, murakkab sharoitlarda faoliyatni davom ettirishi va muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan barqaror intilishini aks ettiradi. Ayniqsa, harbiy-professional faoliyat kontekstida bu ko‘rsatkich mas’uliyatni anglash, xizmat vazifalarini sifatli bajarishga yo‘naltirilgan ichki ehtiyoj hamda yuqori natijalarga erishishga qaratilgan psixologik tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi (Z=2,369; p<0,01) o‘zgaruvchi bo‘yicha taqsimotning statistik jihatdan ahamiyatli darajada normal emasligini bildiradi. Ya’ni, respondentlar orasida muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan motivatsiya bir xil darajada emas, balki differensial tarzda - ayrimlarda yuqori, boshqalarida nisbatan past darajada namoyon bo‘lgan. Boshqacha aytganda, muvaffaqiyatga intilish darajasi individual tajriba, xizmat muddati, shaxsiy qadriyatlar tizimi va kasbiy ijtimoiylashuv omillari ta’sirida turlicha shakllangan. Bu esa respondentlar orasida motivatsion resurslarning teng taqsimlanmaganligini anglatadi.

3-jadval

Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat (M)	Std.og‘ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash	14,63	3,37	3,261	0,000**

Izoh: ** p≤0,01

Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko‘ra, respondentlarda mazkur psixologik ko‘rsatkichning o‘rtacha qiymati 14,63 ni, standart og‘ishi esa 3,37 ni tashkil etgan. Ushbu natija tanlanmada mag‘lubiyatdan qochishga yo‘naltirilgan motivatsion tendensiyalar o‘rtacha darajada namoyon bo‘layotganligini anglatadi. Standart og‘ish ko‘rsatkichining nisbatan past darajada qayd etilishi esa sinaluvchilar javoblarining keskin tafovutlarga ega emasligini, ya’ni guruh ichidagi motivatsion ko‘rsatkichlar ma’lum darajada bir-biriga yaqin ekanligini ifodalaydi. Bu holat tanlanma tarkibida mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasining barqaror va muayyan tizimli xarakter kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Normal taqsimlanishga moslikni tekshirish maqsadida olingan statistik natijalarga ko‘ra (Z=3,261; p≤0,01) qiymatlarining aniqlanishi mazkur ko‘rsatkichlarning normal taqsimot qonuniyatiga mos kelmasligini bildiradi. Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi shaxsning muvaffaqiyatsizlik, tanqid, ijtimoiy rad etilish yoki salbiy baholanish ehtimoliga nisbatan ehtiyotkor munosabatini aks ettiruvchi motivatsion konstrukt sifatida talqin qilinadi. Olingan natijalar tanlanmada ayrim respondentlar faoliyat natijasidan ko‘ra muvaffaqiyatsizlik ehtimolini kamaytirishga ko‘proq yo‘naltirilganligini anglatadi. Bu esa ularda xavotirlanish, ichki psixologik zo‘riqish, qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik hamda riskdan qochishga moyillik kabi xususiyatlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

4-jadval

Tavakkalchilikka moyillik darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat (M)	Std.og‘ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Tavakkalchilikka tayyorlik darajasini aniqlash	9,78	11,61	3,143	0,000**

Izoh: ** p≤0,01

Tavakkalchilikka moyillik darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari tahliliga ko‘ra, respondentlarda tavakkalchilikka tayyorlik ko‘rsatkichining o‘rtacha qiymati 9,78 ni, standart og‘ishi esa 11,61 ni tashkil etgan. Mazkur natijalar sinaluvchilarda tavakkalchilikka moyillikning umumiy darajasi nisbatan o‘rtacha holatda namoyon bo‘layotganini ko‘rsatsa-da, standart og‘ish qiymatining yuqori ekanligi tanlanma ichida individual tafovutlarning sezilarli darajada kuchli ekanligini anglatadi. Ya’ni respondentlarning bir qismi tavakkalchilikka yuqori darajada moyillik bildirgan bo‘lsa, boshqa qismida ehtiyotkorlik va xavfdan qochishga yo‘naltirilgan tendensiyalar ustunligi kuzatilgan.

Tavakkalchilikka tayyorlik shaxsning noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, yangi vaziyatlarga moslashish, kutilmagan oqibatlarni qabul qilish hamda ma’lum darajadagi xavfni ongli ravishda qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, dispersiyaning yuqori darajada qayd etilishi respondentlar orasida tavakkalchilikka nisbatan motivatsion va emotsional munosabatlar turlicha shakllanganligini ko‘rsatadi. Ayrim respondentlarda qat’iyatlilik, tashabbuskorlik va faol strategiyalar ustun bo‘lsa, boshqalarida xavfsizlikka intilish, barqarorlikni afzal ko‘rish hamda ehtiyotkorlik xulq-atvori yetakchi psixologik tendensiya sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Normal taqsimlanishga moslikni aniqlash natijalariga ko‘ra (Z=3,143; p≤0,01) qiymatlarining aniqlanishi mazkur ko‘rsatkichlarning normal taqsimot qonuniyatiga mos kelmasligini tasdiqlaydi. Statistik ahamiyatlilikning yuqori darajada qayd etilishi respondentlar javoblarining notekis taqsimlanganini, ya’ni tavakkalchilikka tayyorlik darajasi bo‘yicha tanlanmada keskin farqlanuvchi guruhlar mavjudligini anglatadi. Bu holat ayrim sinaluvchilarda tavakkalchilikka haddan tashqari moyillik, boshqalarida esa tavakkaldan qochishga yo‘naltirilgan himoyaviy strategiyalar shakllangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy xizmatchilar va serjantlar tarkibining (n=441) ko‘p omilli shaxs xususiyatlari, motivatsion yo‘nalganligi hamda tavakkalchilikka tayyorlik darajasini o‘rganishga qaratilgan tizimli empirik tadqiqot natijalari quyidagi fundamental ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

R.B. Kettell so‘rovnomasi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar ierarxiyasida eng yuqori o‘rinni “Ijtimoiy yetuklik-onglilik” (M=6,44), “Mustaqillik-tobelik” (M=6,20) va “O‘zini nazorat qilish” (M=6,16) shkalalari egalladi. Bu holat jamoat xavfsizligi xodimlarining psixologik portretida kuchli ijtimoiy-regulyativ yadroning mavjudligini anglatadi. Respondentlar harbiy intizom va ijtimoiy me’yorlarni ongli ravishda qabul qilgan, o‘z impulslarini qat’iy nazorat qila oladigan va refleksiv boshqaruv tizimiga ega shaxslar ekanligi isbotlandi. “Qo‘zg‘aluvchanlik”ning eng past darajada (M=4,70) namoyon bo‘lishi ham ushbu fikrni tasdiqlab, shaxs emotsional tizimida affektiv reaksiyalardan ko‘ra ongli tormozlanish jarayonlari ustunligini ko‘rsatadi.

T. Elers metodikalari bo‘yicha olingan natijalar o‘zaro qiyoslanganda, “Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi” (M=26,46) ko‘rsatkichining yetarli darajada yuqoriligi respondentlarning maqsadga yo‘naltirilganligi va kasbiy natijadorlikka bo‘lgan proaktiv intilishini ifodalaydi. Shu bilan birga, “Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi” (M=14,63$, sigma=3,37) o‘rtacha-barqaror darajada qayd etilib, guruh ichida past dispersiyaga ega ekanligi aniqlandi. Bu holat xizmatchilarda yutuqqa intilish bilan bir qatorda, xizmat vazifalarini bajarishda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik, tanqid va salbiy baholanishdan himoyalanishga qaratilgan institutsional ehtiyotkorlik xulq-atvori ham muayyan tizimli muvozanatda shakllanganini anglatadi.

Yakuniy qism. Shubert metodikasi bo‘yicha “Tavakkalchilikka tayyorlik” (M=9,78) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi, biroq standart og‘ishning keskin darajada yuqoriligi (sigma=11,61) tadqiqotning eng muhim ilmiy natijalaridan biridir. Bu yuqori dispersiya tanlanma ichida o‘zaro keskin farq qiluvchi ikki qutb - “riskka haddan tashqari tayyor” (proaktiv-ekstremal) hamda “tavakkaldan mutlaqo qochuvchi” (himoyaviy-ehtiyotkor) guruhlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu qonuniyat xizmatchilarning noaniqlik va risk vaziyatlarida turlicha operativ-taktik strategiyalarni tanlashidan dalolat beradi.

Barcha metodikalarning barcha shkalalari bo‘yicha normal taqsimot gipotezasi rad etildi ($p\le0,01$) va noparametrik qonuniyatlar tasdiqlandi. Ayniqsa, Ijtimoiy yetuklik-onglilik (Z=4,084), Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi (Z=3,261), Tavakkalchilikka tayyorlik (Z=3,143) va Mustaqillik-tobelik (Z=3,096) shkalalaridagi yuqori Z-qiymatlari harbiy xizmatchilar shaxsiyatining bir xil, unifikatsiyalashgan qolipda shakllanmasligini ko‘rsatadi. Bu holat sub’ektlarning shaxsiy sifatlari, motivatsiyasi va riskka tayyorligi ularning individual hayotiy tajribasi, xizmat muddati, lavozim xususiyatlari va kasbiy ijtimoiylashuvi ta’sirida ko‘p variantli (differensial) tarzda transformasiyaga uchrashini isbotlaydi.

Olingan empirik-statistik natijalar Jamoat xavfsizligi universiteti va sohaviy akademiyalarda “Professional kadrlar seleksiyasining raqamli tizimi” hamda “Kiberpsixologik va situatsion-taktik simulyatorlar”ni yaratishda metodologik asos bo‘lishi zarur. Ayniqsa, yuqori individual dispersiyaga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar (tavakkalchilikka tayyorlik va qaror qabul qilish motivatsiyasi) bo‘yicha xizmatchilarni lavozimlarga tayinlashda ularning differensial-psixologik portretini inobatga olish xizmat samaradorligini oshirish va favqulodda vaziyatlarda tizimli xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Капустина А.Н. Многофакторная личностная методика Р. Кеттелла. – Санкт-Петербург: Речь, 2001. – 112 с.

2. Элерс Т. Опросники для оценки мотивации достижения успеха и мотивации избегания неудач // Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности / Под ред. Г.С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – С. 132–136.

3. Шуберт Ю. Методика диагностики степени готовности к риску // Психология руководства и управления: методы практической диагностики / Сост. В.А. Розанова. – Москва: Бизнес-школа «Интел-Синтез», 1999. – С. 84–89.

4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 512 с.

5. Ильин Е.П. Психология риска. – Санкт-Петербург: Питер, 2012. – 288 с.

6. Маклаков А.Г. Профессиональный психологический отбор персонала. Теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 480 с.

Sattarova Sevara Olimovna
«Oriental» universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: sevka_sso@mail.ru

ERKIN VOHIDOV POETIK TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDA RUS POEZIYASI TAJRIBALARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Erkin Vohidovning ijod laboratoriyasi va uning badiiy tafakkuri shakllanishida rus poeziyasi (xususan, A.S. Pushkin, V.V. Mayakovskiy, S.A. Yesenin) tajribalarining ta’siri tahlil qilinadi. Shoirning o‘zbek va rus tilidagi she’riy merosi, tarjimalari va adabiy-tanqidiy maqolalari asosida Vohidov rus poetik an’analarini milliy zaminda qanday qayta ishlaganligi ko‘rsatib beriladi. Rus poeziyasidan olingan janrlar (elegiya, duma, lirik monolog), ritmik strukturalar (daktil, amfibraxiy) va obrazlar tizimi Vohidov ijodida milliy o‘zlikni topish vositasiga aylangani isbotlanadi. Maqolada Vohidov ijodida “suhbatdoshlik she’riyati” konsepsiyasi taklif etilib, bu orqali rus va o‘zbek poetik tafakkurining sintezi ko‘rsatiladi.*

Kalit so’zlar: *Erkin Vohidov, rus poeziyasi, poetik tafakkur, adabiy ta’sir, tarjima, Pushkin, Mayakovskiy, Yesenin, elegiya, lirik monolog.*

РОЛЬ ОПЫТА РУССКОЙ ПОЭЗИИ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЭТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Аннотация. *В статье анализируется роль русской поэзии (А.С. Пушкин, С.А. Есенин, В.В. Маяковский) в формировании поэтического мышления выдающегося узбекского поэта Эркина Вахидова. На материале оригинальных стихотворений, переводов и литературно-критических статей показано, как Вахидов трансформировал русские поэтические традиции на национальной почве. Выявлены основные элементы заимствования: жанры (элегия, дума), ритмические структуры (дактиль, амфибрахий, «лесенка» Маяковского), интонационные модели (ирония, пафос, лирический монолог). Доказано, что Вахидов создал инновационный гибридный стиль, обогатив русские формы суфийской мудростью и национальной концепцией «суҳбатдошлик» (собеседничество).*

Ключевые слова: *Эркин Вахидов, русская поэзия, Пушкин, Есенин, Маяковский, поэтическое мышление, адабий таъсир, суҳбатдошлик, гибридная поэтика.*

THE ROLE OF RUSSIAN POETRY TRADITIONS IN THE FORMATION OF ERKIN VAKHIDOV’S POETIC THINKING

Annotation. *The article analyzes the role of Russian poetry (A.S. Pushkin, S.A. Yesenin, V.V. Mayakovsky) in the formation of the poetic thinking of the outstanding Uzbek poet Erkin Vohidov. Based on original poems, translations and literary-critical articles, it shows how Vohidov transformed Russian poetic traditions on national soil. The main elements of borrowing are identified: genres (elegy, duma), rhythmic structures (dactyl, amphibrach, Mayakovsky's "ladder"), intonation models (irony, pathos, lyrical monologue). It is proved that Vohidov created an innovative hybrid style, enriching Russian forms with Sufi wisdom and the national concept of "suhbatdoshliq" (dialogical partnership).*

Key words: *Erkin Vohidov, Russian poetry, Pushkin, Yesenin, Mayakovsky, poetic thinking, literary influence, suhbatdoshliq, hybrid poetics.*

Kirish. XX asr o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri Erkin Vohidov (1936–2016) faqat shoir emas, balki tarjimon, dramaturg va adabiyot nazariyotchisi sifatida ham mashhur. Uning poetik tafakkuri murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, unda milliy klassik an’ana (Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy) rus poeziyasining eng yaxshi namunalari bilan chambarchas bog‘langan [1].

Rus poeziyasining Vohidov ijodiga ta’siri masalasi adabiyotshunoslikda bir necha marta ko‘tarilgan (B.Qosimov, Sh. Mirzayeva, U. Qarayev), ammo tizimli va qiyosiy tahlil hanuzgacha

yetarli emas. Mavjud tadqiqotlar asosan tarjimalar yuzasidan bo‘lib, shoirning original she’riyatida rus tajribasining badiiy transformatsiyasi masalasi ochiq qolmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi: Erkin Vohidovning poetik tafakkuri shakllanishida rus poeziyasining rolini aniqlash, rus shoirlaridan (Pushkin, Yesenin, Mayakovskiy) qanday usullar, ritmik va janr strukturalarini o‘zlashtirgani va ularni milliy zaminda qanday qayta yaratganini ko‘rsatish [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda adabiy ta’sir nazariyasi (M.P. Alekseyev, Yu.D. Levin) va tipologik qiyosiy metod asosiy o‘rinni tutadi. Shuningdek, Vohidovning “Adabiyot va hayot” (1978), “She’riyat olami” (1985) kabi publitsistik maqolalari hamda uning rus shoirlari ijodiga bag‘ishlangan esselari tahlil qilingan.

Asosiy manbalar:

Vohidovning 5 jildlik “Saylanma”si (2008);


Vohidov tarjimasidagi rus poeziyasi antologiyasi (“Russkaya klassika”, 1983);

Shoirning arxiv materiallari (O‘zbekiston Milliy akademik teatri kutubxonasining fondi).

Tadqiqotning asosiy savoli: rus poeziyasi Vohidovga tayyor modellarni berdimi yoki uni milliy tafakkurni yangilashga undadimi?

Quyidagi diagrammada Vohidov ijodining turli davrlarida uch rus shoirining nisbiy ta’sir darajasi ko‘rsatilgan (10 ballik tizimda).

Diagramma 1 – Rus shoirlarining Erkin Vohidov ijodining turli davrlariga ta’sir darajasi (1960-2000-yillar)



Izoh:

Pushkin: 1960-70-yillarda eng kuchli ta’sir (8 ball), keyin pasayadi

Yesenin: 1970-80-yillarda eng kuchli ta’sir (9 ball)

Mayakovskiy: 1980-90-yillarda eng kuchli ta’sir (7 ball)

Diagrammaning tahlili:

1960-yillar (Vohidov ijodining boshlang‘ich davri): Pushkin ta’siri ustunlik qiladi. “Tong nafasi”, “Kuz” kabi she’rlarda Pushkincha elegiya va ironiya seziladi.

1970-1980-yillar (yetuklik davri): Yesenin ta’siri eng yuqori cho‘qqiga chiqadi. “Buvimning ertaklari”, “Sobaga maktub” kabi asarlarda Yesenincha lirik monolog va trajik qayd ko‘zga tashlanadi.

1980-1990-yillar (kechki davr): Mayakovskiy ta’siri kuchayadi. “Bugungi kun ko‘rki”, “O‘zbekgir” turkumlarida ommaboplik va basqichli she’r shakli qo‘llanadi.

Natija va muhokamalar

Vohidov va Pushkin: elegiya va ironiya sintezi

Erkin Vohidov A.S. Pushkin ijodiga alohida hurmat bilan qaragan. Uning “Pushkin bilan suhbat” (1987) she’riy turkumida rus geniysi bilan tilsiz muloqot aks etgan. Vohidov Pushkidan elegiya kayfiyati, tafakkurning musiqiy va ironiyani sintez qilishni o‘rgangan [3].

Misol: Vohidovning “Tong nafasi” she’ridagi quyidagi satrlar:

“Qish keldi, lekin men bahorni sevaman, / Qor yog‘sa ham, tinchim – bahorday”

Bu yerda Pushkinning “Qish ertasi” (“Зимнее утро”) elegiyasidagi kontrast (sovuq tashqi olam – iliq ichki ruhiy holat) Vohidov tomonidan milliy lirikaga moslashtirilgan. Ammo Vohidov Pushkinning “sub’yektiv lirik qahramoni”ni emas, balki universal “inson ongi”ni yaratishga intilgan.

Pushkidan Vohidovga o‘tgan yana bir element: ironiya. Vohidovning “Savdogarlik kasblar” turkumida pul, savdo, foyda mavzusidagi satirik she’rlari bevosita Pushkinning “Baxil ritsar” asaridagi ironik obrazlarga borib taqaladi. Lekin Vohidovda ironiya yanada achchiqroq, chunki u sovet davridagi “iqtisodiy noma’lumlik”ni tanqid qiladi [4].

Vohidov va Yesenin: lirik monolog va “yolg‘izlik” konsepsiyasi

Vohidov Yeseninning eng yaxshi tarjimoni sanalishi tasodif emas. U Yesenindan lirik mono-logning dramatizmini, “bo‘g‘ilgan ovoz” intonatsiyasini o‘zlashtirgan. Ammo Vohidov Yesenindan farqli ravishda, uning fojiali talvasasini emas, balki suhbatdoshlikka intilishni aksentga qo‘ygan [5].

Vohidovning “Buvimning ertaklari” (1980) she’ridagi buvi obrazi bevosita Yeseninning “Matkaga maktub” (“Письмо матери”) asaridagi ona obrazi bilan bog‘liq. Yeseninda ona – qayg‘uli, kutilmagan, fojiali bo‘lsa, Vohidovda buvi – donishmand, tinch, hayotni qabul qiluvchi. Bu tafovut Vohidovning Yesenin tajribasini sufiy mudrok bilan to‘ldirganligidir (buning yorqin misoli “Temurnoma” dostonida uchraydi).

Vohidov Yeseninning “kesik to‘qqizlik” ritmikasini (xoreyning shikasta shakllari) o‘zbek aruziga moslab qo‘llagan. “Sobaga maktub” (“Pismo k sobake”) she’rida Yeseninning erkin yambini Vohidov 11 bo‘g‘inli aruz o‘lchoviga solgan, natijada she’r yanada epik va donishmand tus olgan [6].

Vohidov va Mayakovskiy: ritmik bo‘laklanish va ommaboplik

Vladimir Mayakovskiyning ta’siri Vohidovning 1960–1970 yillardagi she’rlarida (ayniqsa, “Qutlug‘ bo‘lsin” va “O‘zbekgir” turkumlarida) yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Vohidov Mayakovskiyning quyidagi elementlarini o‘zlashtirgan:

Basqichli she’r shakli (lesenka);

Rmik pauzalar va kesik satrlar;

Publicistik patos va ommaboplik;

Ultimativ bayoniya (masalan, “Sizlarga!” she’ridagi kabi).

Misol: Vohidovning “Bugungi kun ko‘rki” she’ridan:

“Eshitinglar! / Eshitinglar, / Samarqand, / Buxoro, / Toshkent! / Men – sizlarning ovozingiz, / Men – sizning nafsingiz…”

Bu yerda Mayakovskiyning “Poslushayte!” (“Eshiting!”) she’ridagi ritmik pulsatsiya va orzu-umidning ultimativ shakli bevosita qayta ishlangan. Ammo Vohidov Mayakovskiyning “qo‘pol” ijtimoiy tanqidini emas, balki maishiy-falsafiy savollarga aylantirgan. Vohidov Mayakovskiyning agitatsion propaganda poeziyasini milliy mazmundagi alloma-notiqlik (irshod) she’riyatiga aylantirdi [7].

Vohidov poetikasida poetik dialog va madaniyatlararo sintez fenomeni

Erkin Vohidov poetik tafakkurining muhim jihatlaridan biri uning turli adabiy an'analarni ijodiy sintez qilish qobiliyatidir. Shoir rus poeziyasining badiiy tajribalarini o‘zlashtirish bilan cheklanmay, ularni o‘zbek mumtoz adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi va sharqona falsafiy tafakkur bilan uyg‘unlashtira oldi. Natijada Vohidov ijodida yangi poetik model shakllandi. Ushbu modelda rus she’riyatiga xos ritmik va kompozitsion elementlar milliy obrazlar tizimi hamda sharqona badiiy tafakkur bilan boyitildi.

Adabiy ta’sir nazariyasida har qanday o‘zlashtirish jarayoni ikki bosqichda namoyon bo‘ladi: birinchisi – mavjud poetik tajribani qabul qilish, ikkinchisi esa uni milliy estetik tafakkur asosida qayta yaratishdir. Erkin Vohidov aynan ikkinchi yo‘lni tanlagan ijodkorlardan biridir. U Pushkin, Yesenin va Mayakovskiy poetikasini takrorlamaydi, balki ularning badiiy imkoniyatlarini yangi

estetik mazmun bilan to‘ldiradi. Shu jihatdan uning ijodi adabiy taqlid emas, balki madaniyatlararo ijodiy muloqot mahsuli sifatida baholanishi mumkin.

Vohidov she’riyatida rus poetik an’analarining milliy poetik tafakkur bilan uyg‘unlashuvi ayniqsa obrazlar tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, rus lirikasida tabiat ko‘pincha shoirning ichki ruhiy holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilsa, Vohidov ijodida tabiat timsollari milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy kamolot g‘oyalari bilan boyitiladi. Natijada bitta poetik obraz bir vaqtning o‘zida individual kechinma va umuminsoniy ma’no kasb etadi.

Shuningdek, shoirning tarjimonlik faoliyati ham uning poetik tafakkurini shakllantiruvchi muhim omillardan biri bo‘lgan. Tarjima jarayonida Vohidov nafaqat rus shoirlarining badiiy uslubini chuqur o‘rgandi, balki ularning poetik tafakkur mexanizmlarini ham tahlil qildi. Bu tajriba keyinchalik uning original she’rlarida yangi ritmik yechimlar, obrazlar tizimi va kompozitsion qurilishning yuzaga kelishiga xizmat qildi. Shu sababli Vohidov tarjimalari oddiy til o‘girish emas, balki ijodiy laboratoriya vazifasini bajargan deb aytish mumkin.

Bundan tashqari, Erkin Vohidov poetikasida dialogiklik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir o‘z she’rlarida nafaqat zamondoshi bilan, balki o‘tgan davr shoirlari, tarixiy shaxslar va kitobxon bilan ham badiiy muloqot olib boradi. Ana shu poetik dialog milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, Vohidov ijodini o‘zbek she’riyatining xalqaro adabiy jarayon bilan uyg‘unlashgan namunalaridan biriga aylantiradi.

Umuman olganda, Erkin Vohidov rus poeziyasidan tayyor poetik qoliplarni emas, balki badiiy tafakkurning yangi imkoniyatlarini o‘zlashtirdi. Ularning asosida milliy ruh, sharqona falsafiy qarashlar va o‘zbek she’riyatining ko‘p asrlik an’analarini uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos individual uslub yaratdi. Shu jihatdan Vohidov ijodi qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan madaniyatlararo poetik integratsiyaning muvaffaqiyatli namunasi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa. Rus poeziyasi (Pushkin, Yesenin, Mayakovskiy) Erkin Vohidovning poetik tafakkuri shakllanishida eng muhim tashqi omil bo‘lgan. Undan janr (elegiya, duma), ritmik struktura (lesenka, sillabo-tonika), obrazlar va intonatsiya (ironiya, patos, elegiya) o‘zlashtirilgan.

Vohidov ularni milliy zaminda qayta ishlab, sufiylik muroqabasi va “suhbatdoshlik” konsepsiyasi bilan boyitgan. Natijada innovatsion gibrid poetika paydo bo‘lgan. Vohidov nafaqat rus she’riyatini o‘zbek adabiyotiga olib kirdi, balki rus tajribasidan foydalanib o‘zbek poetik tafakkurini yangiladi. Uning ijodi sovet adabiyotida “kultural sintez”ning eng yuqori darajasidir [8].

Diagramma tahlili shuni ko‘rsatdiki: Pushkin ta’siri 1960-yillarda (8 ball), Yesenin ta’siri 1970-80-yillarda (9 ball), Mayakovskiy ta’siri 1980-90-yillarda (7 ball) eng yuqori cho‘qqiga chiqqan.

Perspektiva: kelajakda Vohidovning Axmatova, Tsvetayeva, Pasternak tajribalarini o‘zlashtirishi masalasi ham tadqiq etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Vohidov E. Saylanma: 5 jildlik. 1-jild: She’rlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2008. 384 b.
2. Vohidov E. Saylanma: 5 jildlik. 3-jild: Tarjimalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2008. 384 b.
3. Vohidov E. She’riyat olami. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1985. 208 b.
4. Qarayev U.K. Poetik tarjima madaniyatlar muloqoti sifatida (rus she’riyatining o‘zbek tiliga tarjimalari asosida). Toshkent: Fan, 2010. 168 b.
5. Qosimov B. Erkin Vohidov tarjimalarida rus she’riyati // O‘zbek tili va adabiyoti. 1998. №4. B. 23–29.
6. Mirzayeva Sh.A. Erkin Vohidov poetikasi: an’ana va navovarlik. Toshkent: Fan, 2009. 200 b.
7. Aliyev R.T. Rus tilidan o‘zbek tiliga poetik tarjima masalalari. Toshkent: Fan, 2005. 248 b.
8. Yesenin S.A. Tanlangan she’rlar / tarj. E. Vohidov. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1985. 312 b.

Achilova Sevara Djasirkulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:achilovasevara85@gmail.com

RINOLALIYA OG‘IR NUTQ NUQSONINI BARTARAF ETISH USULLARI VA MUSTAQIL TA’LIMDA O‘RGATISH ISHLARI MAZMUNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini bartaraf etish usullari va mustaqil ta’limda o‘rgatish ishlari mazmuni yoritib berilgan. Og‘ir nutq nuqsonlar qatoriga rinolaliya nutq nuqsoni ham kirgan bo‘lib, ushbu nutq nuqsoni maktabgacha yoshdagi bolalarda turli xil omillar sababli kelib chiqadi. Tibbiyotda ushbu nutq nuqsoni ko‘p o‘rganilgan. Rinolaliya og‘ir nutq nuqsoni shifokor mutaxassislar tomonidan ko‘p o‘rganilib, tahlil etilgan. Rinolaliya og‘ir nutq nuqsonnning kelib chiqish sabablari, olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari ko‘rsatilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlari: *fonetik nuqson, rinolaliya nutq nuqsoni, ortodont, pediatr, logoped, psixolog, kompleks reabilitatsiya, uranoplastika, artikulyatsiya apparati, korreksion-logopedik ish, defektologiya.*

МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ ТЯЖЁЛОГО РЕЧЕВОГО НАРУШЕНИЯ РИНОЛАЛИИ И СОДЕРЖАНИЕ РАБОТЫ ПО ЕЁ ИЗУЧЕНИЮ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье описаны методы устранения тяжелой ринолалии и содержание обучения в рамках самостоятельного образования. К тяжелым речевым дефектам относится ринолалия, которая возникает у детей дошкольного возраста по различным причинам. Этот речевой дефект широко изучался в медицине. Тяжелая ринолалия широко исследовалась и анализировалась медицинскими специалистами. Показаны причины тяжелой ринолалии и научные исследования ученых.*

Ключевые слова: *фонетический дефект, ринолалия, дефект речи, ортодонт, педиатр, логопед, психолог, комплексная реабилитация, уранопластика, артикуляционный аппарат, коррекционно-речевая терапия, дефектология.*

METHODS OF CORRECTING SEVERE SPEECH DISORDER (RHINOLALIA) AND THE CONTENT OF TEACHING ACTIVITIES IN INDEPENDENT LEARNING

Abstract. *This article describes methods for treating severe rhinolalia and the content of training within the framework of independent education. Rhinolalia, which occurs in preschool-aged children for various reasons, is a severe speech defect. This speech defect has been extensively studied in medicine. Severe rhinolalia has been extensively researched and analyzed by medical specialists. The causes of severe rhinolalia and scientific research are presented.*

Key words: *phonetic defect, rhinolalia, speech defect, orthodontist, pediatrician, speech therapist, psychologist, complex rehabilitation, uranoplasty, articulatory apparatus, corrective speech therapy, defectology.*

Kirish. Og‘ir nutq nuqsonlar qatoriga rinolaliya nutq nuqsoni ham kirgan bo‘lib, ushbu nutq nuqsoni maktabgacha yoshdagi bolalarda turli xil omillar sababli kelib chiqadi. Tibbiyotda ushbu nutq nuqsoni ko‘p o‘rganilgan. Rinolaliya og‘ir nutq nuqsoni shifokor mutaxassislar tomonidan ko‘p o‘rganilib, tahlil etilgan. Yer yuzida yuqori lab va tanglay nuqsonlari bor 1000 nafar tug‘ilgan chaqaloqlar orasida 0,6–1,6 holatlarda uchrashi sabablari, rinolaliya va rinofoniyaning ochiq shakli bo‘lgan shaxslar nutqining fonetik tomoniga oid miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, fonetik nuqsonning murakkab tabiatini baholash, jarrohlik amaliyotining optimal algoritmini belgilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Kasal-

likni jarrohlik usulida bartaraf qilish, kompleks reabilitatsiya samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash, tanglayida tug‘ma nuqsoni bor bolalarni davolashda stomatolog, yuz-jag‘ jarrohi, ortodont, pediatr, logoped, psixolog, tibbiy genetiklarning ishtirokida hal etiladigan asosiy masalalarni yechish, yuqori lab va tanglay tug‘ma nuqsonlarini patogenetik isbotlangan kompleks davolash algoritmini takomillashtirish, ekspress tashxislashda komplekslilik tadqiqot tamoyillarini qo‘llash, operatsiyadan keyingi paydo bo‘luvchi asoratlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda turli kasalliklarni erta tashxislash va asoratlarini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli dasturiy tadbirlarni takomillashtirishning me’yoriy asoslarini yaratish jarayonida “sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholi o‘rtasidagi kasallanish ko‘rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minlash, tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart- sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Natijada, yuqori lab va tanglay nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash, ularga logopedik yordam ko‘rsatish, kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, shuningdek, ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlashning korreksion imkoniyatlari kengaymoqda.

Adabiyotlat tahlili va metodologiya. Yuqori lab va tanglayning tug‘ma nuqsonlarini erta tashxislash, logopedik usullar yordamida bartaraf etishga yo‘naltirilgan jahonda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan: yuqori lab va tanglay nutq nuqsonlarida nutq rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va baholashning zamonaviy modelini loyihalashtirish erta aralashuv asosida ishlab chiqilgan (University College London, University of Toronto); yuqori lab va tanglayning tug‘ma nuqsonlari bilan tug‘ilgan bolalarning xeylo va uranoplastika operatsiyalaridan keyin reabilitatsiya jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishda artikulyatsion apparatning funksional holati, bolaning yosh, nutqiy xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptiv, differensial korreksiya usullari belgilangan (Harvard University, University of Washington, Kyoto University); yuqori lab va tanglayning tug‘ma nuqsonlarini bartaraf etishda miofunksional korreksiya usullaridan foydalanish asosida chaynash va yutishga o‘rgatish yo‘llari tadqiq qilingan (University of Melbourne, Erasmus University Rotterdam); individuallashtirishtirilgan logopedik korreksiya algoritmi kompleks yondashuv asosida takomillashtirilgan (University of Helsinki); bolalarda artikulyatsiya apparatidagi periferik yetishmovchilik natijasida tovushlarni hosil qilish paytida artikulyatsiya organlari tuzilishida kompensator holatlarning shakllanishi aerodinamik fonatsiya sharoitlarining o‘zgarishi asosida aniqlangan (All India Institute of Speech and Hearing, Mysuru, Moskva davlat pedagogika universiteti); rinolaliya strukturasida yetishmovchilikning mozaikligini hisobga olgan holda nutqning saqlanib qolgan imkoniyatlaridan foydalanish asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nutq nuqsonlarini oldini olish tadqiq etilgan (Hanyang University); yuqori lab va tanglayning tug‘ma kamchiliklarida olib boriladigan logopedik ish jarayoniga ta’limiy va foniatriya dasturlarini mashg‘ulotlar jarayonida uyg‘unlikda qo‘llashga erishilgan (Pusan National University).

Mustaqil davlatlar hamdo‘stlik mamlakatlarida bolalardagi rinolaliya va rinofoniyani barataraf etishning uslubiy yo‘nalishlarini takomillashtirish V.Agayeva, A.Balakireva, T.Voronsova, L.Vansovskaya, T.Volosovets, G.Gutsman, A.Dorinskaya, I.Yermakova, A.Ippollitova, Z.Nelyubova, F.Rau, N.Serebrova, S.Taptapova, M.Xvatsev, G.Chirkinalar tadqiqotlarida yoritilgan. Shuningdek, Yuqori lab va tanglayning nuqsonlarida logopedik ishni olib borishning ilmiy-metodologik jihatlari Mary Hardin-Jones, L.Kathy Chapman, C.Williams, S.Harding & Y.Wren, C.Alighieri, K.Bettens, L.Bruneel, E.d’Haeseleer, E.Van Gaever, & K.Van Lierde, KJ.Deyepthi, MP.Pushpavathi, AW.Kummer, Alyson Bessell, C.Dip, Debbie Sell, Penny Whiting, Sue Roulstone, Liz Albery, M.Phil, Martin Persson, Andrea Verhoeven, Margaret Burke, R.Andy Ness, Aveyen Najm, Esyin Chew, L.Barry Bentleylar tomonidan o‘rganilib tahlil etilgan.

Hozirgi davrda jahon miqyosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma nuqsonlari mavjud bolalarga jarrohlikdan oldin hamda keyin korreksion-logopedik yordamni tashkil etish samaradorligini takomillashtirish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: bolalarda

tanglayning anatomik-funksional imkoniyatlarini tiklash va nutqiy buzilishlarning variativligini aniqlashda jarrohlikdan oldin va keyingi logopedik ishni tashkil etishning samarali usullari hamda korreksion ishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash; yuqori lab va tanglayning tug‘ma nuqsoni bo‘lgan bolalarning salomatlik ko‘rsatkichlaridagi murakkab biologik, ijtimoiy omillar nisbati, bolaga qo‘yilgan tashxis va funksiyalarning ayni davrdagi holati bilan bog‘liq ma’lumotlarga tayangan holda korreksion-logopedik ishni tashkil etish; nutqning tiklanishiga jarrohlik usullarining ta’sirini asoslash; nutqiy rivojlanishi rinolaliya belgilarisiz kechishini ta’minlaydigan profilaktik va tayyorlov xarakteriga ega bo‘lgan logopedik mashqlar kompleksini ishlab chiqish va uranoplastikadan keyingi erta asoratlarning oldini olishdir.

Natija va muhokamalar. Nutq qabul qilish darajasining o‘ziga xosligi, o‘zaro turli darajada chegaralangan qabul qilish obyektlari bilan amalga oshiriladi. Shunday ekan, agar qabul qilish obyekti tovushlarni izolyatsiya qilsa, u holda til vositalari mavjudligiga qaramay, «oddiy psixik akta sifatida» qabul qilishni anglash yoki bilishning eng oddiy darajasi amalga oshiriladi. Agar qabul qilish obyekt tovushlar uyg‘unligida (yoki bo‘g‘inlar) bo‘lsa, u holda jarayon tovushlar ketma-ketligi ehtimolining lingvistik baholanishini tarkibiga oladi va shartli ravishda aniqlik darajasi deb nomlash mumkin bo‘lgan darajaga yetadi. Biroq na tovushlar, na tovushlar uyg‘unligi nutqning ahamiyatli birligi hisoblanadi va shu sababdan nutqning ahamiyatli birligi bo‘lgan so‘zning eng kam nutq xabarini beruvchi birligi paydo bo‘lishi bilan qabul qilish ma’noli deb ataluvchi nutqning xos darajasiga yetadi.

V.I.Galunov, JI.A.Chistovichlar fikriga ko‘ra, qabul qilish jarayonida tovushlarni xususiy eshitib qabul qilishning lingvistik bosqichgacha va lingvistik bosqichini ajratish mumkin bo‘ladi. Ushbu lingvistik darajaning oxirgi bo‘g‘ini nutq xabari ma’nosini anglash hisoblanadi.

B.G.Ananyevaning fikriga ko‘ra, nutqni tinglash bola nutqining tarbiyasida asosiy omil hisoblanadi, u nutqning grammatik qoidalariga asoslangan jumlalardagi so‘zlar munosabatini o‘rnatadi. F.A.Soxin nutqni tinglash tushunchasi tahlilida quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tadi: tinglash diqqati (u yoki bu ovozning farqini tinglab turib, uni va yo‘nalishini ajrata olish); fonematik tinglash; nutq sur’ati va ritmini qabul qilish iqtidori.

A.F.Lomizov nutq tinglashni xarakterlar ekan, bir tomondan, urg‘u vositasida eshitish qobiliyati sifatida (so‘zlar va mantiqiy), turli xarakter va uzunlikdagi pauzalar, ovozning ko‘tarilishi va pasayishi, nutq sur’ati (temp) va ovoz tembrini aniq va to‘liq ilg‘ash, so‘zlovchining fikri va hissiyotini qabul qila olish. Boshqa tarafdan – ayni nutq ohangi elementlari vositasida tinglovchiga o‘z fikri va hissiyotini to‘liq va aniq yetkazib berish iqtidori. A.I.Maksakov nutq tinglovining muhim vazifasini bolalar tomonidan tovush imkoniyatlariga ega bo‘lgandagina muhim deb ko‘rsatadi: nutqi yaxshi rivojlangan bolalar, nafaqat ovoz o‘zgarishidagi farqlarni ilg‘aydi, balki yangrayotgan nutqning fonetik shakllanishidagi barcha nozik jihatlarni ham fahmlaydi.

Oliy ta’limda tahsil olayotgan bo‘lajak logopedlar rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini bartaraf etish bo‘yicha ish usullarini nazariy darslarda ma’lumotni egallasalar, mustaqil ta’limda esa nazariy jihatdan egallangan bilimlarni mustahkamlash hamda uni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalarni tahlil etadilar. Bugungi kunda mustaqil ta’limga qo‘yilgan talablar bo‘yicha rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, bilamizki rinolaliya og‘ir nutq nuqsoni ikkinchi kursdan boshlab o‘rganiladi va amaliy mashg‘ulotlarda bilimlar mustahkamlanadi. Mustaqil ta’limning maqsadidan kelib chiqib o‘rganadigan bo‘lsak, asosiy maqsadi - talabalarning modullar bo‘yicha nazarif va amaliy bilimlarini mustahkamlash, kasbiy faoliyatga motivatsion, metodik, psixologik tayyorlash.

Mustaqil ta’limi quyidagi vazifalarni ko‘zda tutishi lozim:

Talabalarning bilish imkoniyatlari va faolliklarini rivojlantirish (ijodiy tashabbus, mas’uliyatlilik, mustaqillilik);

O‘z-o‘zini namoyon qilish, rivojlantirishga imkon beruvchi mustaqil fikrlashni shakllantirish;

Talabalarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash va tizimlashtirish;

Talabalardagi nazariy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;

Maxsus adabiyotlar, huquqiy-meyoriy hujjatlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Talabalarda tadqiqotchilik malakalarini rivojlantirish;

Ta’lim oluvchilarda bilimlarni amaliyotda mustaqil qo‘llash ko‘nikma, malakalarini shakllantirish;

Bilimlarni umumlashtirish va mustaqil izlash, egallash ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Mustaqil ta’lim pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta’minlashda sub’ektlar (o‘qituvchi va talaba) faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish (darsda va darsdan keyin), nazorat qilish (davriy olib boriladigan ish turlari: suxbat, konsultatsiya, “Master klass”lar, “Ustoz-shogird” soatlari...) va ob’ektiv baholash (o‘z-o‘zini baholash, boshqa talabalar faoliyati va ularning natijalarini namoyish qilish orqali taqqoslash...), rag‘batlantirish(ma’naviy, motivatsion, stimullashtirish) asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Mustaqil ta’lim davrida talabalarning kasbga oid faoliyatlari natijalarini sifat jihatdan baholash mezonlari:

-defektologik (logopedik) bilimi va korreksion ishlarni tashkil etishi;

-mustaqil ta’lim davrida o‘zining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati orqali pedagogik, metodik mahoratini rivojlantirish bo‘yicha harakatlarni rejalashtira olishi;

-o‘z bilimlarini muntazam oshirib borish yo‘llarini mustaqil topishi va qo‘llashi.

Xulosa Mustaqil ta’limda bo‘lajak logopedlar rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini bo‘yicha egallangan mavzulardan: rinolaliya nutq nuqsonini kelib chiqish sabablari, uning turlari, ilmiy-nazariy jihatdan olimlarning tahlili, og‘ir nutq nuqsonini bartaraf etish bo‘yicha korreksion-logopedik ishlarni tashkil etish ishlari mustahkamlanim boriladi. Rinolaliya og‘ir nutq nuqsonida bo‘lajak logopedlar, nazariy bilimlarini mustahkamlash jarayoni mustaqil ta’lim vazifalarida egallangan bilimlar chuqur tahlil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Volkova P.S., Shakhovskaya S.N. Logopediya. – Moscow : Vlados, 2002.
2. Achilova S.J. Logopediya : darslik. – Chirchiq, 2025.
3. Achilova S.J. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda logopedik shoxobchaning o‘rni // Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish: muammolar va yechimlar : Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2025. – 16-sentabr. – B. 481–483.
4. Achilova S.J. Factors and Principles of Preparing Future Speech Therapists to Work with Children with Severe Speech Impairments // 6th International Black Sea Scientific Research and Innovation Congress. – 2025. – P. 386–390.
5. Achilova Sevara Djasirkulovna. Mechanisms of Creating a Professional Information Environment in Preparing Future Logical Therapists to Work with Children with Severe Speech Disorders // Modern American Journal of Social Sciences and Humanities. – 2025. – Vol. 1, Issue 7 (October). – ISSN (E): 3067-8153.

Гулямова Фатима Мехриддиновна
Преподаватель-ассистент,
Самаркандский государственный педагогический институт
E-mail:gulamova.fotima@mail.ru

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВИДОВЫХ ПАР У НЕПРОДУКТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ РКИ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема формирования видовых пар у непродуктивных глаголов русского языка на начальном этапе обучения русскому языку как иностранному (РКИ). Цель исследования заключается в выявлении лингвистических и методических причин затруднений, возникающих у иностранных, в том числе узбекоязычных, студентов при усвоении супплетивных и нерегулярных видовых пар, а также в разработке практических рекомендаций по их преодолению. В качестве материала использованы данные анализа учебных пособий по РКИ, письменных и устных работ студентов начального этапа обучения, а также результаты сопоставительного анализа глагольных систем русского и узбекского языков. Методы исследования включают описательный, сопоставительный и аналитический подходы, а также элементы педагогического наблюдения. Установлено, что основными источниками трудностей являются супплетивизм основ, непредсказуемость личных форм, асимметрия корней в видовой паре и идиоматичность непродуктивных глаголов. Показано, что отсутствие падежной системы соответствий и иной типологический строй узбекского языка усиливают интерференцию при усвоении русской глагольной системы. На основе полученных данных предложены частотный, контекстный, сопоставительный, визуально-табличный и игровой подходы к обучению, апробация которых подтверждает их методическую эффективность. Сделан вывод о необходимости системного, поэтапного и контекстуализированного представления непродуктивных глаголов уже на начальном этапе обучения РКИ.*

Ключевые слова: *непродуктивные глаголы, видовые пары, русский как иностранный, РКИ, глагольная система, методика преподавания, супплетивизм, глаголы движения, начальный этап обучения, языковая интерференция.*

RUS TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHNING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA UNUMSIZ FE’LLARNING TURLI KO‘RINISHDAGI JUFTLIKLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida rus tilidagi unumsiz fe’llarning tur (vid) juftliklarini shakllantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi xorijiy, jumladan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar tomonidan suppletiv va nomuntazam tur juftliklarini o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik hamda metodik qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*

Tadqiqot materiali sifatida rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari tahlili, ta’limning boshlang‘ich bosqichidagi talabalarning yozma va og‘zaki ishlari, shuningdek, rus va o‘zbek tillari fe’l tizimlarining qiyosiy tahlili natijalaridan foydalanildi. Tadqiqot metodlari tavsifiy, qiyosiy va analitik yondashuvlarni, shuningdek, pedagogik kuzatish elementlarini o‘z ichiga oladi. Aniqlanishicha, qiyinchiliklarning asosiy manbalari fe’l asoslarining suppletivligi, shaxs shakllarining oldindan aytib bo‘lmasligi, tur juftliklaridagi o‘zaklarning assimetriyasi hamda unumsiz fe’llarning idiomatik xususiyatlari hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek tilining boshqa tipologik tuzilishga ega ekanligi va mos keluvchi grammatik kategoriyalar tizimining mavjud emasligi rus fe’l tizimini o‘zlashtirishda interferensiya holatlarini kuchaytirishi ko‘rsatildi.

Olingan natijalar asosida o‘qitishda chastotaviy, kontekstual, qiyosiy, vizual-jadval hamda o‘yinli yondashuvlar taklif etildi va ularning metodik samaradorligi amaliy sinovlar orqali

tasdiqlandi. Tadqiqot natijasida unumsiz fe'llarni rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishning boshlang'ich bosqichidayoq tizimli, bosqichma-bosqich va kontekstga asoslangan tarzda taqdim etish zarurligi to'g'risida xulosa qilindi.

Kalit so'zlar: *unumsiz fe'llar, tur (vid) juftliklari, rus tili xorijiy til sifatida, RKI, fe'l tizimi, o'qitish metodikasi, suppletivizm, harakat fe'llari, ta'limning boshlang'ich bosqichi, til interferensiyasi.*

PROBLEMS OF FORMING ASPECT PAIRS FOR NON-PRODUCTIVE VERBS AT THE INITIAL STAGE OF LEARNING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. *This article examines the problem of forming aspect pairs for non-productive verbs in Russian at the initial stage of teaching Russian as a foreign language (RFL). The aim of the study is to identify the linguistic and methodological causes of difficulties encountered by foreign students, including Uzbek-speaking students, in mastering suppletive and irregular aspect pairs, and to develop practical recommendations for overcoming these difficulties. The material used in this study includes data from an analysis of Russian as a Foreign Language (RFL) textbooks, written and oral work by students in the initial stages of their studies, and the results of a comparative analysis of the verb systems of the Russian and Uzbek languages. The research methods include descriptive, comparative, and analytical approaches, as well as elements of pedagogical observation. The main sources of difficulties were found to be stem suppletion, unpredictability of personal forms, asymmetry of roots in aspectual pairs, and the idiomatic nature of non-productive verbs. The absence of a case correspondence system and the different typological structure of the Uzbek language are shown to increase interference in the acquisition of the Russian verb system. Based on the data obtained, frequency, contextual, comparative, visual-tabular, and game-based approaches to teaching were proposed, the testing of which confirms their methodological effectiveness. A conclusion is drawn regarding the need for a systematic, step-by-step, and contextualized presentation of non-productive verbs already at the initial stage of teaching Russian as a Foreign Language (RFL).*

Key words: *non-productive verbs, aspectual pairs, Russian as a foreign language, RKI, verb system, teaching methods, suppletion, verbs of motion, initial stage of learning, language interference.*

Введение. Категория вида представляет собой одну из наиболее сложных грамматических категорий русского глагола и одновременно одну из ключевых тем в практике преподавания русского языка как иностранного. Если у продуктивных глаголов видовые пары образуются по регулярным словообразовательным моделям (писать – написать, делать – сделать), то у непродуктивных глаголов (идти, ехать, нести, брать, бежать и др.) видовые соответствия часто строятся по нерегулярным, супплетивным моделям, не поддающимся систематизации с помощью стандартных правил.

Актуальность исследования обусловлена тем, что именно на начальном этапе обучения РКИ закладываются базовые представления учащихся о системе русского глагольного формообразования. Если непродуктивные глаголы вводятся бессистемно или исключительно через механическое запоминание, у студентов формируется искажённое представление о нерегулярности и непредсказуемости русской глагольной системы в целом, что снижает учебную мотивацию и затрудняет дальнейшее усвоение языка. Особую значимость данная проблема приобретает в условиях обучения студентов из Узбекистана, родной язык которых типологически отличается от русского отсутствием категории вида в её русском понимании, иной системой глагольного словоизменения и иным способом выражения направленности и кратности движения.

Степень разработанности проблемы. Вопросы методики преподавания вида русского глагола инофонам рассматривались в ряде работ отечественных и зарубежных русистов: исследовались способы образования видовых пар, типология ошибок иностранных учащихся, специфика глаголов движения как особой лексико-грамматической группы. Тем не менее во-

прос целостной методической систематизации именно непродуктивных, супплетивных глаголов на начальном этапе обучения РКИ, с учётом интерферирующего влияния узбекского языка, остаётся недостаточно изученным, что определяет научную новизну данной статьи.

Цель статьи – выявить лингвистические причины затруднений при усвоении видовых пар непродуктивных глаголов иностранными студентами на начальном этапе обучения РКИ и предложить систему методических приёмов, способствующих более эффективному усвоению данной категории. Для достижения цели поставлены следующие задачи: 1) определить лингвистические признаки непродуктивных глаголов и охарактеризовать типы видовых несоответствий; 2) выявить основные трудности усвоения видовых пар непродуктивных глаголов иностранными учащимися; 3) проанализировать факторы межъязыковой интерференции, обусловленные типологическими различиями русского и узбекского языков; 4) разработать и обосновать комплекс методических подходов к обучению непродуктивным глаголам на начальном этапе РКИ.

Материалы и методы исследования. Материалом исследования послужили действующие учебные пособия и грамматические справочники по РКИ для начального этапа обучения, содержащие разделы о категории вида и глаголах движения, а также письменные работы и устные ответы иностранных студентов (преимущественно узбекоязычных), допускающих типичные ошибки при употреблении непродуктивных глаголов. Дополнительно привлекались данные сопоставительного анализа глагольных систем русского и узбекского языков, позволяющие установить зоны потенциальной межъязыковой интерференции.

В исследовании использованы следующие методы: описательный метод – для систематизации лингвистических признаков непродуктивных глаголов и типов видовых пар; сопоставительный метод – для выявления структурных различий между глагольными системами русского и узбекского языков и прогнозирования трудностей усвоения; метод анализа учебных материалов – для оценки полноты и системности представления непродуктивных глаголов в действующих пособиях по РКИ; метод педагогического наблюдения – для фиксации типичных ошибок учащихся в реальном учебном процессе. Полученные данные обобщены и систематизированы с целью формулирования практических методических рекомендаций.

Результаты исследования.

Лингвистическая характеристика непродуктивных глаголов

Под непродуктивными глаголами понимаются глаголы, которые не образуются по современным регулярным словообразовательным моделям, не имеют устойчивых и предсказуемых форм видовых пар, часто обладают архаичной или идиоматической структурой и не участвуют в активном образовании новых словоформ и производных. К числу наиболее частотных непродуктивных глаголов относятся идти, ехать, нести, брать, бежать и др. Так, глагол идти является супплетивным: иду – шёл, что нарушает принцип регулярного формообразования и требует от учащегося отдельного запоминания каждой формы.

Анализ материала показал, что непродуктивные глаголы можно разделить на несколько подгрупп в зависимости от характера видового несоответствия:

1) глаголы с полностью различными корнями в видовой паре (супплетивные): брать – взять, говорить – сказать;

2) глаголы движения с противопоставлением однонаправленности и неоднонаправленности: идти – ходить, ехать – ездить;

3) глаголы с нерегулярным личным спряжением, создающим дополнительную трудность независимо от вида: ехать – еду (при отсутствии ожидаемой формы «ехаю»).

Основные трудности усвоения видовых пар непродуктивных глаголов

Проведённый анализ позволил выделить пять основных групп затруднений, с которыми сталкиваются иностранные учащиеся на начальном этапе обучения РКИ.

Неочевидность спряжения и форм. Непредсказуемость личных форм вызывает трудности при построении правильных предложений, что особенно актуально на начальном уровне, где преобладает подражательное и формульное усвоение языка.

Супплетивизм. Супплетивные формы (идти – шёл, нести – нёс) не позволяют использовать привычные правила словообразования и требуют механического заучивания, что перегружает память учащегося и снижает учебную мотивацию.

Неоднозначность видовых пар. В отличие от продуктивных глаголов (писать – написать), видовые пары непродуктивных глаголов часто имеют формы, не совпадающие по корню (брать – взять, идти – пойти), что создаёт дополнительную когнитивную нагрузку.

Отсутствие производных форм. Непродуктивные глаголы, как правило, не имеют легко выводимых производных: например, от глагола идти сложно образовать существительное по аналогии с парой читать – чтение.

Идиоматичность. Широкое употребление непродуктивных глаголов в устойчивых выражениях (идёт дождь, идти на уступки, идти к успеху) делает их семантику ещё менее прозрачной для иностранного учащегося.

Фактор межъязыковой интерференции

Сопоставительный анализ показал, что типологические различия между русским и узбекским языками усиливают перечисленные трудности. В узбекском языке отсутствует грамматическая категория вида в её русском понимании, направленность и кратность движения выражаются преимущественно лексическими и аналитическими средствами, а не противопоставлением однонаправленных и неоднонаправленных глаголов движения. Кроме того, узбекоязычные студенты сталкиваются с дополнительными фонетическими трудностями (отсутствие отдельных русских звуков и мягких согласных), что усложняет восприятие и воспроизведение нерегулярных глагольных форм на слух. Совокупность этих факторов объясняет, почему именно непродуктивные глаголы оказываются зоной повышенного риска ошибок у данной категории учащихся.

Методические проблемы преподавания видовых пар непродуктивных глаголов

Анализ учебных пособий по РКИ для начального этапа показал, что методика преподавания видовых пар непродуктивных глаголов сталкивается с рядом системных проблем: отсутствие универсальных правил образования видовых пар; необходимость преимущественно механического запоминания форм; ограниченность учебных пособий, не всегда дающих системное представление об этих глаголах в рамках единой методической логики; риск формирования у студентов впечатления о принципиальной бессистемности русского языка в целом.

Методические подходы к преодолению выявленных трудностей

На основе проведённого анализа были апробированы и обобщены следующие методические подходы, показавшие практическую эффективность в учебном процессе.

Частотный подход. Внимание уделяется наиболее часто употребляемым глаголам (идти, брать, ехать), даже если они непродуктивны, поскольку именно они наиболее значимы в повседневной речи учащегося.

Контекстное обучение. Непродуктивные глаголы вводятся в реальных коммуникативных контекстах («Он шёл по улице», «Она взяла книгу»), что позволяет студентам воспринимать форму и значение как единое целое, а не как изолированную грамматическую единицу.

Сопоставительный анализ. Полезно сопоставлять непродуктивные глаголы с продуктивными и однокоренными парами (идти – ходить, ехать – ездить), акцентируя внимание на семантике движения, направленности и кратности действия.

Таблицы и визуализация. Использование наглядных таблиц видовых пар, схем спряжения и инфографики помогает структурировать информацию и облегчает её запоминание и долговременное усвоение.

Игровые технологии. Ролевые игры, карточки, драматизация и другие интерактивные формы работы способствуют закреплению сложных глагольных форм в активной устной речи учащихся.

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают и дополняют наблюдения, представленные в работах отечественных и зарубежных русистов, согласно которым видовые пары русского глагола образуются по нескольким типам моделей: приставочным, суффиксальным и супплетивным, причём именно супплетивные пары традиционно признаются наиболее трудными для иностранных учащихся. В то же время предпринятый в настоящей статье анализ

позволяет уточнить, что трудности усвоения непродуктивных глаголов не сводятся исключительно к супплетивизму корня, а представляют собой комплекс взаимосвязанных факторов – морфологических, семантических и интерферентных.

Существенным дополнением к имеющимся исследованиям является выявленная в данной работе роль типологического несоответствия между русской и узбекской глагольными системами. Если в работах, ориентированных на европейские языки, основное внимание уделяется приставочной семантике глаголов движения, то для узбекоязычной аудитории на первый план выходит сама непривычность грамматической категории вида как таковой, что требует более раннего и системного введения наглядных опор – таблиц, контекстных моделей и сопоставлений с родным языком учащегося.

Практическая значимость предложенных подходов подтверждается опытом их применения в учебном процессе: сочетание частотного отбора лексики, контекстуализированного представления форм и визуальных опор позволяет снизить когнитивную нагрузку на учащегося и одновременно сохранить мотивацию к изучению языка. Ограничением данного исследования является то, что приведённые наблюдения базируются преимущественно на материале начального этапа обучения и опыте работы с узбекоязычной аудиторией, в связи с чем дальнейшее исследование может быть направлено на верификацию предложенных подходов на более широкой выборке учащихся с различными родными языками, а также на разработку специализированного учебного пособия по непродуктивным глаголам для начального этапа РКИ.

Заключение. Непродуктивные глаголы, несмотря на присущую им морфологическую и семантическую сложность, занимают важное место в системе русского языка и относятся к числу наиболее частотных лексических единиц, без которых невозможно полноценное общение на начальном этапе изучения РКИ. Проведённый анализ показал, что основными источниками затруднений являются супплетивизм основ, неоднозначность видовых соответствий, отсутствие производных форм, идиоматичность значений, а также межъязыковая интерференция, обусловленная типологическими различиями русского и узбекского языков.

Успешное усвоение видовых пар непродуктивных глаголов возможно только при условии грамотно выстроенного, поэтапного методического подхода. Использование частотного, контекстного и сопоставительного методов в сочетании с визуализацией и игровыми технологиями позволяет преодолеть основные трудности, связанные с формированием данной категории на начальном этапе обучения РКИ, и обеспечивает более устойчивое и осознанное усвоение русской глагольной системы в целом. Перспективным направлением дальнейших исследований представляется создание специализированных учебно-методических материалов, ориентированных на конкретные группы учащихся с учётом особенностей их родного языка.

Список литературы.

1. Бондарко А. В. Вид и время русского глагола (значение и употребление). М.: Просвещение, 1971. 239 с.
2. Авилова Н. С. Вид глагола и семантика глагольного слова. М.: Наука, 1976. 328 с.
3. Зализняк А. А., Шмелёв А. Д. Введение в русскую аспектологию. М.: Языки славянской культуры, 2000. 222 с.
4. Кожемякова Е. А., Симулина И. А. Категория вида русского глагола при обучении инофонов // Вестник Чувашского государственного педагогического университета. 2015. № 4. С. 45–51.
5. Бабаханян М. А. Изучаем русские глаголы движения: методическое пособие для преподавателей русского языка как иностранного / неродного. Ереван: Изд-во ЕГУ, 2015. 102 с.
6. Шестак О. В., Парецкая М. Э. Изучение русской классики в практике РКИ: пособие по чтению нового типа // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2019. № 6. С. 312–316.

7. Караванов А. А. Виды русского глагола: значение и употребление: учебное пособие для иностранцев, изучающих русский язык. М.: Русский язык. Курсы, 2008. 192 с.

8. Лисакова И. П. Методика преподавания русского языка как иностранного: учебно-методическое пособие. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2018. 184 с.

9. Мирзиёев Ш. М. О роли русского языка в системе образования Республики Узбекистан: доклад на заседании по вопросам языковой политики. Ташкент, 2023.

10. Туракулова М. Г., Хайтбаева Н. А. Освоение глагольной системы русского языка студентами узбекских групп на начальном этапе обучения // Universal Journal of Social Sciences and Pedagogical Communications. 2024. Т. 1, № 7. С. 112–119.

11. Эгамбердиева Н. Сложности изучения русского языка студентами национальных групп (на примере узбекского языка) // Modern Science and Research. 2025. Т. 4, № 1. С. 233–239.

12. Anderson S. R. Suppletion in distributed morphology: A typological overview // Journal of Linguistics. 2019. Vol. 55, № 3. P. 489–516.

Raimdjanova Gulasal Baxtiyor qizi
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLARDA PROKRASTINATSIYA MUAMMOSI: SHAKLLANISH SABABLARI VA ASOSIY TURLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada prokrastinatsiya fenomeni zamonaviy psixologik yondashuvlar doirasida murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada prokrastinatsiyaning oddiy dangasalikdan asosiy farqlari – maqsadga yo‘naltirilganlik, harakatlarni ongli ravishda kechiktirish va bu jarayonga hamroh bo‘ladigan kuchli emotsional zo‘riqish, shuningdek, uning irratsional tabiati ochib berilgan. Bundan tashqari, maqolada prokrastinatsiya turlarining namoyon bo‘lish sohalari (maishiy, akademik, nevrotik, ijtimoiy va mehnat) hamda xulq-atvor strategiyalari (o‘tkir his-tuyg‘u izlovchilar, qochuvchilar, faol va passiv, tarang va xotirjam) bo‘yicha mavjud ilmiy tasniflari tizimlashtirilgan. Garchi ushbu tasniflarning barchasi to‘liq empirik tasdig‘ini topmagan bo‘lsa-da, ularning chuqur tahlili mazkur fenomenni psixologik tuzatish (korreksiya) dasturlarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *prokrastinatsiya, shaxsiy dispozitsiya, dangasalik, irratsionallik, emotsional zo‘riqish, xulq-atvor strategiyalari, akademik prokrastinatsiya, kechiktirish tasniflari, motivatsion soha.*

ПРОБЛЕМА ПРОКРАСТИНАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ: ПРИЧИНЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ОСНОВНЫЕ ТИПЫ

Аннотация. *В данной статье феномен прокрастинации анализируется как сложный и многогранный процесс в рамках современных психологических подходов. Раскрыты основные отличия прокрастинации от простой лени: целенаправленность, сознательное откладывание действий и сопровождающее этот процесс сильное эмоциональное напряжение, а также ее иррациональная природа. Кроме того, в статье систематизированы существующие научные классификации типов прокрастинации по сферам проявления (бытовая, академическая, невротическая, социальная и трудовая) и поведенческим стратегиям («искатели острых ощущений», «избегающие», «активные и пассивные», «напряженные и расслабленные»). Хотя не все данные классификации нашли полное эмпирическое подтверждение, их глубокий анализ служит важной теоретической базой для разработки программ психологической коррекции данного феномена.*

Ключевые слова: *прокрастинация, личностная диспозиция, лень, иррациональность, эмоциональное напряжение, поведенческие стратегии, академическая прокрастинация, классификации откладывания, мотивационная сфера.*

THE PROBLEM OF PROCRASTINATION IN MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: CAUSES OF FORMATION AND MAIN TYPES

Abstract. *This article analyzes the phenomenon of procrastination as a complex and multifaceted process within the framework of modern psychological approaches. The study reveals the main differences between procrastination and simple laziness: goal-orientedness, the conscious delay of actions, and the strong emotional tension that accompanies this process, as well as its irrational nature. Furthermore, the article systematizes existing scientific classifications of procrastination types based on areas of manifestation (everyday, academic, neurotic, social, and work-related) and behavioral strategies (“thrill-seekers”, “avoiders”, “active and passive”, “tense and relaxed”). Although not all of these classifications have found full empirical confirmation, their in-depth analysis serves as a crucial theoretical basis for the development of psychological correction programs for this phenomenon.*

Key words: *procrastination, personal disposition, laziness, irrationality, emotional tension, behavioral strategies, academic procrastination, delay classifications, motivational sphere.*

Kirish. Prokrastinatsiya bo‘yicha empirik ma’lumotlar bazasi salmoqli bo‘lishiga qaramay, mavjud nazariy poydevor yagona emas: u bir-biriga zid ravishda turuvchi gipotezalar va farazlardan iborat. Bu holat fenomenning nazariy talqinida bir qator yondashuvlarning parallel mavjudligini ta’minlamoqda.

Tarixiy nuqtai nazardan prokrastinatsiya XX asrgacha asosan axloqiy-etik kategoriya sifatida ko‘rib chiqilgan; faqat ilmiy izlanishlar boshlanishi bilan uning psixologik mohiyatiga e’tibor qaratila boshlandi. Mazkur fenomenning birinchi ilmiy ta’riflari xorijiy adabiyotda paydo bo‘lgan; biroq hozirgi davrda mahalliy tadqiqotchilarning ham mustaqil yondashuvlarini taqdim etayotgani kuzatilmoqda.

Klassik talqinlar keyingi davrda jiddiy kengaytirildi va prokrastinatsiyaning turli jihatlari oydinlashtirildi. «Tashqi» tarkibiy qism doirasida vaziyatning yoqimsizligi va vazifaning murakkabligi kabi muhit xususiyatlari o‘rganildi [1]. Vaqt chegaralari aniqlandi: prokrastinatsiya rejalashtirilgan harakatlarning boshlanishini yoki yakunlanishini kechiktirish sifatida ta’riflandi [2]. Emotsional komponent esa shaxsiy noqulaylik kechinmasini ishlarni qoldirish bilan bog‘ladi. To‘rtinchi muhim jihat - ishlarni qoldirishning ixtiyoriylik va irratsionallik xususiyatini ko‘rsatuvchi qoidalar.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqotchilar prokrastinatsiya asosida yotgan ehtiyojlarni izohlashga ham urindilar. Birinchi yondashuvda mazkur xulq-atvor inson tomonidan «o‘tkir» tuyg‘ularga va siqilgan muddatlar sharoitida yuzaga keladigan faollashish kechinmasiga intilish sifatida ko‘rib chiqiladi [3]. Bu yondashuv prokrastinatsiyani M. Zukermanning “tuyg‘ularni izlash” konsepsiyasiga yaqinlashtiradi: bunda xulq-atvor ijtimoiy xavf-xatarlar bilan eksperiment o‘tkazishga intilish sifatida talqin qilinadi [4]. Ikkinchi yondashuv prokrastinatsiyani «qo‘zg‘olon» - atrofdagilarning shaxsga bo‘lgan adolatsiz munosabatiga javob sifatida ko‘radi. Uchinchi yondashuvda esa, P. Stil ta’kidlaganidek, prokrastinatsiyaning asosiy manbai sifatida ayni damda zavqqa intilish chiqib turadi - bu esa uzoq istiqboldagi vazifaga nisbatan salbiy tajriba mavjud bo‘lganda yanada kuchayadi.

Rus tadqiqotchilari ham yagona ta’rifga kelmagan, biroq prokrastinatsiyani an’anaviy psixologik hodisalar tizimi bilan o‘zaro bog‘lashga harakat qilinmoqda. Bu yondashuv doirasida prokrastinatsiya, birinchidan, xulqiy patternlar qatoriga kiritiladi: shaxs ongli ravishda yetakchi faoliyatni keyinroqqa qoldirib, uning o‘rnini samarasiz va mazmunsiz harakatlar bilan to‘ldiradi va shu yo‘l bilan emotsional reaktsiya bildiradi [5]. Ikkinchidan, prokrastinatsiya regulyativ potensialning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq dezadaptiv yengish strategiyasi sifatida talqin qilinadi [6]. Uchinchidan, prokrastinatsiyaning ongli xarakteri - bajarmaslik qarori tashqi sharoitlardan mustaqil ravishda shaxsning o‘zi tomonidan qabul qilinishi - uning farqlovchi xususiyati sifatida qaytadan ta’kidlanmoqda [7].

N.N. Karlovskaya va R.A. Baranova taklif qilgan keng ta’rifda prokrastinatsiya «psixologik jihatdan murakkab, bir xil bo‘lmagan, xulqiy, emotsional va kognitiv komponentlarni qamrab oluvchi va shaxsning motivatsion sohasi bilan chambarchas bog‘langan fenomen» sifatida belgilanadi. Bunday ta’rif fenomenning umumiy mohiyatini ko‘rsatsa-da, uni qat’iy bir kategoriyaga kiritish imkonini bermaydi.

Prokrastinatsiya va dangasalik orasidagi farqning chuqurlashishi

Uzoq vaqt davomida psixologiya adabiyotida prokrastinatsiya va dangasalik bir-birini almashtiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Y.P. Ilinning ishlari natijasida bu ikki holatni farqlovchi qat’iy mezonlar shakllantirildi [8]; ular orasida eng muhimi emotsional jihat bo‘ldi. Dangasalik holatida bekorchilik ko‘proq ijobiy yoki neytral his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi, prokrastinator esa, manba muallifining keltirgan iqtibosiga ko‘ra, salbiy oqibatlardan «o‘sib boruvchi qo‘rquv»ni boshdan kechiradi; bu qo‘rquv safarbar emas, balki parallizatsiya qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi va «qor to‘pi» effektini yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim farq - prokrastinatorning maqsadga yo‘naltirilganligi [6]. Kuchli salbiy emotsiyalar aynan maqsadning ijtimoiy ahamiyati shakllangan bo‘lganligi sababli yuzaga keladi: prokrastinator natijaga manfaatdor va jarayonga emotsional jihatdan jalb qilingan, dangasa esa ham jarayonga, ham natijaga befarqdir.

Prokrastinatsiyaning shaxsiy dispozitsiya sifatida belgilanishi

Prokrastinatsiyaga oid ta'riflarni umumlashtirishga urinishlar uning sifat jihatidan farqlovchi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga olib keldi. G. Allportning shaxsiy xususiyatlarni belgilash mezonlariga muvofiq, prokrastinatsiya qat'iy ravishda shaxsiy dispozitsiya sifatida talqin qilinishi mumkin: u xulqda barqaror namoyon bo'ladigan haqiqiy intilishdir; u odatga qaraganda umumiyroq xarakterga ega va biron-bir muayyan faoliyat sohasi bilan cheklanmaydi; uni empirik yo'l bilan aniqlash mumkin; va u jamiyat tomonidan turlicha baholanadigan individual xususiyatlarni qamrab oladi.

Prokrastinatsiyaning qat'iy mezonlari quyidagicha shakllantirilgan: birinchidan, prokrastinatsiya faqat vaqt cheklovlari bilan bog'liq harakatlarga taalluqlidir - rejalardagi o'zgartirishlar yoki ustuvorliklarni qayta tartibga solish prokrastinatsiya hisoblanmaydi; ikkinchidan, ongli xarakter - bajarmaslik qarori shaxsning o'zi tomonidan tashqi vaziyatdan mustaqil ravishda qabul qilinadi; uchinchidan, irratsionallik - prokrastinator noo'rin oqibatlarni oldindan biladi, biroq bu uni hozirning o'zidan boshlashga undamaydi; to'rtinchidan, qoldirish vaziyatidagi emotsional zo'riqish va ichki noqulaylik fenomenni dangasalikdan ajratib turadi; beshinchidan, bunday ko'chirish va qoldirishlar har doim qisman yoki to'liq darajadagi salbiy oqibatlar bilan birga keladi.

Prokrastinatsiya - shaxsiy dispozitsiyalar konsepsiyasi, K. Layning klassik ta'rifi va P. Stilning sifat mezonlari sintezi asosida - inson hayotining turli sohalarida namoyon bo'luvchi, o'z vaqtida bajarilishi lozim bo'lgan harakatlarni keyingi muddatga qoldirishga moyillikda ifoda topadigan, noo'rin oqibatlar va salbiy kechinmalarga olib keluvchi barqaror dispozitsiya sifatida tushuniladi.

Prokrastinatsiya turlarining tasniflari

Prokrastinatsiyaning mazmuni va xarakteriga oid turli farazlar bir necha tasniflarning shakllanishiga olib keldi.

N. Milgram tomonidan taklif qilingan birinchi tasnif prokrastinatsiyaning namoyon bo'lish sohalarini va uning mazmunini hisobga olib, besh turni ajratib ko'rsatadi: kundalik (maishiy) - kundalik uy yumushlarini qoldirish, vaqtni boshqarish ko'nikmasi yo'qligi natijasida hayot davomida namoyon bo'ladi; qarorlar qabul qilish prokrastinatsiyasi - har qanday qarorlarni belgilangan vaqt ichida qabul qilmaslik; nevrotik prokrastinatsiya - muhim hayotiy qarorlarni (kasb tanlash, nikoh, farzand) qoldirish; kompulsiv prokrastinatsiya - turli sohalarda surunkali qoldirish; akademik prokrastinatsiya - vaqt cheklovli o'quv vazifalarini qoldirish [9]. Mazkur tasnifning kamchiligi ajratilgan turlarning o'zaro «kesishishida» - masalan, qaror prokrastinatsiyasi nevrotik shaklga, u esa kompulsivga aylanib ketadi. Keyinchalik Milgram va Tenne tasnifni soddalashtirib, faqat vazifalar prokrastinatsiyasi va qarorlar prokrastinatsiyasi turlarini qoldirdilar [10]. Zamonaviy mualliflar bu turlarni batafsilroq tavsiflashga urinmoqdalar, biroq ularning urinishlari ko'proq nazariy faraz darajasida qolmoqda [11].

Ya.I. Varvaricheva tasnifi prokrastinatsiyani uning namoyon bo'lish sohalariga ko'ra o'quv, mehnat, ijtimoiy va maishiy turlarga ajratadi. Mazkur bo'linish empirik tasdiqlanmagan bo'lsa-da, keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishni belgilab beradi, chunki prokrastinatsiya darajasi yetakchi faoliyat o'quvdan kasbiyga o'zgaradigan davrda - ya'ni yetuk yoshlikning oxiri va yoshlikning boshida - eng yuqori ko'rsatkichlarga yetadi.

J. Ferrarining xulqiy strategiyalar bo'yicha tasnifi prokrastinatsiyaning uch turini ajratib ko'rsatadi [12]: «o'tkir tuyg'ularni izlovchilar» - siqilgan muddatlardagi energetik ko'tarilishni his qilish uchun ishni qoldiradilar; «qat'iyatsizlar» - qaror qabul qilishni iloji boricha kechiktiradilar, chunki qaror qabul qilinmagan vaqt mobaynida xato qilish ehtimoli va past baho olish xavfi yo'q; «qochuvchilar» - yoqimsiz vazifalar va salbiy oqibatlardan qochishga harakat qilishadi. Mazkur tasnif P. Stil tomonidan tanqid qilindi: replikatsiya tadqiqotida «o'tkir tuyg'ularni izlovchilar» va «qochuvchilar» o'rtasida ahamiyatli farqlar topilmadi [13]. Stil tomonidan prokrastinatsiyaning bosqichli modeli taklif qilindi: qaror prokrastinatsiyasi (dastlabki bosqich) → harakat prokrastinatsiyasi. Bundan tashqari, Stil prokrastinatsiyaning impulsivlik omilini aniqladi - oniy zavqni kechiktirilgan natija ustidan tanlovni kuchaytiruvchi shaxsiy xususiyat - bu giperbolik diskontlash nazariyasi va undan kelib chiqqan vaqt motivatsiyasi nazariyasi (TMT) doirasida tushuntiriladi.

C. Chu va J. Choi tasnifi prokrastinatsiyaning ijobiy, resursli tomonlarini topishga urinish bo'lib, passiv (yuqori zo'riqish va xavotir natijasida ishlarni qoldiruvchi) va faol (vaqt yetishmasligi vaziyatida samaraliroq ishlovchi, ishlarni ataylab qoldiruvchi) prokrastinatorlarni ajratib ko'rsatadi

[14]. Biroq Chernysheva ta'kidlaganidek, faol prokrastinatorlar koping-strategiyalari, o'z-o'zini samaradorlik darajasi va faoliyat natijalari bo'yicha keskin farqlanadilar, shuning uchun ularni haqiqiy prokrastinator sifatida tasniflash qiyin.

Y.P. Ilin tasnifi prokrastinatorlarni «zo'riqqan» va «bo'shashgan» turlarga ajratadi [8]: «bo'shashgan» yoqimliroq ishlar yoki dam olishni afzal ko'radi; «zo'riqqan» esa natijalardan qoniqmaslik, xavotir va haddan tashqari yuklanish tufayli vazifani belgilangan vaqtda bajara olmaydi. Mazkur tasnif amalda tekshirilmagan.

Mavjud tasniflarni umumlashtirib aytish mumkinki, ulardan birortasi ham empirik tekshiruvdan o'tmagan. Bugungi kunda ilmiy tadqiqot mezonlariga to'la javob beradigan tipologiya mavjud emas. Biroq tasnif urinishlarining ko'pligi prokrastinatsiyaning haqiqiy psixologik murakkabligini, uning turli faoliyat sohalarida namoyon bo'lishini va xilma-xil xulqiy ko'rinishlarga ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan to'rt nazariy yondashuv - prokrastinatsiyaning motivatsion psixologiyasidagi mustaqil, ammo bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlardir. Ular o'zaro zid emas, balki muammoning turli qirralarini yoritadi. Bugungi xalqaro adabiyotda P. Stilning "Temporal Motivation Theory (TMT)" modeli eng mustahkam empirik asosga ega yondashuv sifatida tan olinadi.

O'zbekistonlik talabalar tanlamasi misolida mazkur to'rt mexanizmdan qaysi biri eng kuchli prediktor ekanligini empirik tarzda tekshirish - tadqiqotning asosiy yangiligini tashkil etishi mumkin. Ishimizda ijtimoiy taqqoslash (INCOM) va o'z-o'zini baholash (Rosenberg) o'lchovlari qo'llanilayotganligi sababli, klassik «qo'zg'olon» va «oniy zavq» mexanizmlarining "ijtimoiy variant" - ya'ni "pastga taqqoslashdan kelib chiqadigan tashvishni yumshatish uchun vazifani keyinga surish" mexanizmini ham nazariy ramkaga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Prokrastinatsiyani shaxsning barqaror xususiyati (trait) sifatida tan olish uchun G. Allport ishlab chiqqan oltita mezon (barqarorlik, umumiylik, empirik aniqlanish, individuallik va boshqalar) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Manba muallifi prokrastinatsiyani aynan shu mezonlar bo'yicha tekshirib, uning trayt maqomini asoslaydi.

Dangasalik va prokrastinatsiyaning chuqurroq farqi bo'lib bu ikki hodisaning "emotsional" farqi ko'rsatilgan edi (dangasa rohatlanadi, prokrastinator azoblanadi). Ushbu farqning ikkinchi qatlamini: "prokrastinator maqsadga yo'naltirilgan, dangasa esa befarq". Bu ajratuv J. Atkinson va D. McClellandning yutuqqa erishish motivatsiyasi nazariyasi bilan to'g'ri keladi: prokrastinatorda yutuq motivatsiyasi mavjud, biroq u "faoliyat-blokirovka" holatida; dangasada esa bu motivatsiya umuman shakllanmagan. Klinik adabiyotda bu farq "ego-distoniya" tushunchasi orqali izohlanadi: prokrastinator o'z xulqini «o'ziniki emas» deb qabul qiladi, dangasa esa bunday yashashga ko'ngan.

Takidlangan barcha tasniflar - N. Milgramning beshlik modeli, Ya. Varvarichevaning sohaviy tasnifi, J. Ferrarining xulqiy tipologiyasi, J. Chu va A. Choining «faol/passiv» ajratuvi, Ye. Ilinning «zo'riqqan/bo'shashgan» modeli - ularning hech biri mustahkam empirik tasdiqqa erishmagan. Bu - prokrastinatsiya fenomenining "nazariy jihatdan hali yetilmaganligini" ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. L. Solomon va E. Rothblum akademik prokrastinatsiyani nisbatan yaxshi tahlil qilganlar, biroq uning "sohaviy variativligi" hozirgacha aniqlanmagan. Bu vaziyatni perfeksionizm psixologiyasi bilan qiyoslash mumkin: Hewitt–Flettning 3 omilli va Frostning 6 omilli modellari empirik tarzda qisman tasdiqlangan; prokrastinatsiyada esa bunday darajadagi konsensus modeli hali ishlab chiqilmagan.

P. Stilning Temporal Motivation Theory modeli prokrastinatsiyani matematik formula orqali ifodalaydi:

"Motivatsiya = (Kutilayotgan natija × Qiymat) / (Impulsivlik × Kechiktirish)"

Ya'ni, kutilayotgan natija va vazifaning sub'ektiv qiymati past, impulsivlik va vaqt diskontlashi yuqori bo'lsa - prokrastinatsiya yuzaga keladi. Bu - prokrastinatsiya sohasidagi "yagona miqdoriy bashorat modeli" bo'lib, u xulqiy iqtisodiyotning giperbolik diskontlash nazariyasiga (G. Ainslie, G. Loewenstein) tayanadi va D. Kahnemanning Prospect Theory modeli bilan parallel ishlaydi, faqat unga "vaqt o'lchovini" qo'shadi.

Tadqiqotda foydalanilayotgan psixometrik vositalarni TMT konstruktlariga quyidagicha bog'lash mumkin:

- kutilayotgan natija → o'z-o'zini samaradorlik (A. Bandura, R. Schwarzer);

- qiymat → maqsadga jalb qilinganlik va akademik motivatsiya;
-impulsivlik → HEXACO-PI-Rda «Conscientiousness» (vijdoniylik) omilining pasayishi;
- kechiktirish → vaqt istiqboli (F. Zimbardo).

J. Chu va A. Choi joriy etgan «faol prokrastinator» tushunchasi - aslida prokrastinatsiya emas, balki “strategik kechiktirish” hodisasidir. Bir nomning ostiga psixologik mohiyati turlicha bo‘lgan ikki konstruktni joylashtirish - klassik “nominalizatsiya xatosi” hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqot natijalarida agar «resursli kechiktiruvchi» va «zarar ko‘ruvchi prokrastinator» tipi aniqlansa, ularni “terminologik jihatdan qat’iy ajratish” zarur. P. Stil va T. Chernysheva yondashuvi izidan borib, faol kechiktirishni prokrastinatsiyaning bir turi emas, balki mustaqil “kechiktirilgan natija strategiyasi” sifatida belgilash metodologik jihatdan to‘g‘ri yo‘ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Sabini J., Silver M. Moralities of Everyday Life. - Oxford: Oxford University Press, 1982. - 224 p.
2. Beswick G., Mann L. State orientation and procrastination // Volition and Personality: Action versus State Orientation / Eds. J. Kuhl, J. Beckmann. - Göttingen: Hogrefe, 1994. - P. 391–396.
3. Ferrari J.R. Procrastination as self-regulation failure of performance: Effects of cognitive load, self-awareness, and time limits on «working best under pressure» // European Journal of Personality. - 2001. - Vol. 15. - P. 391–406.
4. Zuckerman M. Behavioral Expressions and Biosocial Bases of Sensation Seeking. - New York: Cambridge University Press, 1994. - 480 p.
5. Боровская Н.В. Психологические и психофизиологические предпосылки лености студентов: дис. ... канд. психол. наук. - СПб., 2008. - 186 с.
6. Дементий Л.И., Карловская Н.Н. Особенности ответственности и временной перспективы у студентов с разным уровнем прокрастинации // Психология обучения. - 2013. - № 7. - С. 4–19.
7. Мещеряков Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. - 3-е изд. - СПб.: Прайм-Еврознак, 2003. - 672 с.
8. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень. - СПб.: Питер, 2011. - 224 с.
9. Milgram N.A., Sroloff B., Rosenbaum M. The procrastination of everyday life // Journal of Research in Personality. - 1988. - Vol. 22, № 2. - P. 197–212.
10. Milgram N., Tenne R. Personality correlates of decisional and task avoidant procrastination // European Journal of Personality. - 2000. - Vol. 14, № 2. - P. 141–156.
11. Киселева М.А. Особенности прокрастинации личности студентов // Современные проблемы науки и образования. - 2015. - № 2-2. - С. 535.
12. Ferrari J.R. Compulsive procrastination: Some self-reported characteristics // Psychological Reports. - 1991. - Vol. 68, № 2. - P. 455–458.
13. Steel P. Arousal, avoidant and decisional procrastinators: Do they exist? // Personality and Individual Differences. - 2010. - Vol. 48, № 8. - P. 926–934.
14. Chu A.H.C., Choi J.N. Rethinking procrastination: Positive effects of «active» procrastination behavior on attitudes and performance // The Journal of Social Psychology. - 2005. - Vol. 145, № 3. - P. 245–264.

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna
Qo‘qon davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING O’RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonida pedagogik diagnostikaning o‘rni, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Kasb tanlash jarayonining murakkab va ko‘p bosqichli ekanligi, unda o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, individual psixologik xususiyatlari hamda shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash muhim omil sifatida qaralishi asoslab berilgan. Shu nuqtai nazardan, pedagogik diagnostika o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini aniqlash, ularning kasbiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash va ongli qaror qabul qilishiga ko‘maklashuvchi asosiy vosita sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada pedagogik diagnostika jarayonida qo‘llaniladigan usullar - kuzatish, suhbat, test, so‘rovnoma va amaliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning kasbiy moyilliklarini aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Diagnostik ma’lumotlar asosida o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish, ularning qobiliyatlariga mos kasb yo‘nalishlarini tavsiya etish hamda kasbiy o‘zini anglash jarayonini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Kasbga yo‘naltirish, pedagogik diagnostika, individual yondashuv, qobiliyat va qiziqishlarni aniqlash, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar, kasbiy orientatsiya, kasbiy qobiliyat, kasb tanlash mezonlari, formativ baholash, pedagogik tavsiya, ishga tayyorlash.*

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОРИЕНТИРОВАНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается роль, возможности и практическое значение педагогической диагностики в процессе профессионального ориентирования студентов. Обосновывается, что процесс выбора профессии является сложным и многоэтапным, в котором важным фактором считается выявление интересов, склонностей, индивидуальных психологических характеристик и личностных способностей студентов. С этой точки зрения анализируется педагогическая диагностика как основной инструмент выявления внутренних возможностей студентов, правильного определения их профессионального направления и оказания им помощи в принятии обоснованных решений. В статье также представлены методы, используемые в процессе педагогической диагностики – наблюдение, интервью, тестирование, анкетирование и практические задания – для выявления профессиональных склонностей студентов. Рассматриваются вопросы внедрения индивидуального подхода к учащимся на основе диагностических данных, рекомендации карьерных путей, соответствующих их способностям, и развития процесса профессионального самосознания.*

Ключевые слова: *профориентация, педагогическая диагностика, индивидуальный подход, выявление способностей и интересов, социально-личностные компетенции, профессиональная ориентация, профессиональные навыки, критерии выбора профессии, формирующее оценивание, педагогические рекомендации, подготовка к работе.*

THE ROLE OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS IN PROFESSIONAL DIRECTION OF STUDENTS

Annotation. *This article extensively covers the role, possibilities and practical significance of pedagogical diagnostics in the process of professional guidance of students. It is substantiated that the process of choosing a profession is complex and multi-stage, in which the identification of students' interests, inclinations, individual psychological characteristics and personal abilities is considered an important factor. From this point of view, pedagogical diagnostics is analyzed as the main tool for identifying students' internal capabilities, correctly determining their professional directions and helping them make informed decisions. The article also shows the methods used in the process*

of pedagogical diagnostics - observation, interview, test, questionnaire and practical tasks - to identify students' professional inclinations. The issues of implementing an individual approach to students based on diagnostic data, recommending career paths appropriate to their abilities, and developing the process of professional self-awareness are covered.

***Key words**. Career guidance, pedagogical diagnostics, individual approach, identification of abilities and interests, social and personal competencies, professional orientation, professional abilities, criteria for choosing a career, formative assessment, pedagogical recommendation, preparation for work.*

Kirish. O‘zbekiston Republikasining ijtimoiy siyosatida milliy o‘zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o‘rtasida uyg‘unlikni, birdamlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarining xususiylikdan umumiylikka o‘sib o‘tishining qondirilishi har jihatdan o‘quvchi va talablarni qobiliyatlari, iste’dodlarini, ichki imkoniyatlarini, o‘ziga xos individual-psixologil xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek rivojlantirishni talab etadi. Bu talab asosan shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o‘z qobilyati va istidodini namoyon qilish va rivojlnatirishga, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo’shilishga jamiyatda o‘z o‘rinini topish, o‘z kasbining ustasi va yetuk kadr bo‘lishiga yordam beradi. O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda diagnostik qarashlar kategoryalari asosan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda tug‘iladigan qiyinchiliklar o‘rganiladi va ularni bartaraf etish yo‘llari tashkil etiladi.

Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi yordamida jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiyaning kafolatlangan natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta’lim tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasi ham kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi. Ta’limtarbiya jarayonini tashkil qilish va o‘quvchi yoshlarga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishda asosiy vazifani yetuk pedagog olimlar va o‘qtuvchilar bajaradi. Pedagog – ta’lim-tarbiya jarayoni hamda, uning qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini, kasbga yo‘naltirish va uning komptentlarini ham belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish, ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga, ma’nan yetuk inson qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Ta’lim-tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy va mafkuraviy jihatlarini qaror toptirish hamda, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ko‘zda tutiladi [1.B.7]. Dunyoqarash, e’tiqod, vatanparvarlik, ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p innovatsion yangilik kiritishga, uning sifatini hamda samaradorligini oshirishga intilmoqda. Chunki, ta’lim millat ko‘zgusi bo‘lib jamiyat va davlatning yuksalib borishini ta’minlovchi yoshlarni tarbiyalovchi, xalqqa yaratuvchanlik ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriyadir. Uning mahsuli intellektual rivojlangan, keng dunyoqarashli va chuqur mushoxada qiluvchi yangilik yaratishga intiluvchan salohiyatli shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlar hukm surishi lozim. O‘quv tarbiya jarayonida innavotsion faoliyat subyekti extiyojining majmuaviyligini va shakllantirishgacha bo‘lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi subyektning yangilikni yaratish va o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o‘zida aks ettruvchi, undovchi kuch bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda hamkorlik pedagogikasi ham rivojlanib bormoqda, buni jamiyatning turli bosqichlarida tarbiya va ta’lim sohasidagi to‘plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiq etish asosi zamirida ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilarning kasbga layoqatlilik darajalarini o‘rganmasdan turib, kasbga yo‘naltirib bo‘lmaydi, ularni kasbga yo‘naltirishga nisbatan individual va differensial yondashuvlarni tatbiq etish mumkin emas. Aks holda kasbga yo‘naltirish ishlari faqatgina rasmiyatchilik uchun tashkil etilgan bo‘lib qoladi [2.B.25].

O‘qituvchi-pedagog o‘quvchilarning xususiyatlarini tavsiflar ekan, kasbga yo‘naltirishning shartlari va imkoniyatlarini belgilaydi. Shuning uchun pedagog doimiy ravishda ta’lim-tarbiya jarayonini tahlil qilishi va diagnostika faoliyatini amalga oshirishga tayyor bo‘lishi kerak. Chunki o‘qituvchining pedagogik faoliyati davomida o‘quvchilarining xulq-atvorida va xatti-harakatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sabablarini aniqlashga va o‘rganishga, ularni kattalarga va tengdoshlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlab, tarbiyaning istiqbol dasturini tayyorlashiga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda diagnostik qarashlar komptensiyalari mazmuni turli davrda turlicha ya’ni boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflar kesimida bir biridan tubdan farq qiladi, qisqacha qilib aytganda ularni maqsadli o‘qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati kasbga yo‘naltirish diagnostikasini vujudga keltirgan. Albatta o‘z Ibtidosida bu natijlar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan. Bir qator tadqiqotchi olimlar (G. Royleke, L.Rollet, K.Leongard, A.Bass, E.Lichko, A,Shmelev) kasbga yo‘naltirish diagnostini-“kasbga yo‘naltirish diagnostik faoliyatini qulaylashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni”-deb ta’kidlaydilar. X.Feger, N.Petillon, V.Bogatskiylar “…kasbga yo‘naltirish diagnostikasi psixologik diagnostikadan ajralib chiqgan” [3.B.102]-degan fikrni ilgari surishadi.

Muhokama va natijalar. Kasbga yo‘naltirish diagnostikasining rivojlanish nazaryalarini 3 davrga bo‘lish mumkin: [4.B.10]

Birinchi davr – qadimgi allomalar qarashlaridan e’tiboran XXI asrgacha davom etgan tadqiqot nazaryalari davri hisoblanadi. Bu davrni falsafiy-adabiy davr deyish mumkin. Bu davrda insonning axloqiy, ijtimoiy tabiatiga taalluqli muammolarni o‘rganishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Shuning uchun ham shaxsni avalgi tariflar ancha keng ma’noga ega edi. Bu ta’rifda nimaiki inson shaxsiga taalluqli bo‘lsa uning biologiyasi, psixologiyasi, ma’daniyati ma’naviyati va boshqalar kiritilgan edi. Insonlar psixologiyasi, dunyo qarashi, sharoitlari va ma’danyat, ma’rifat darajalari birinchi davr asosida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kategoryalanadi.

Ikkinchi davr – XIX asrning oxirlaridan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, bu davr pedagoglar shaxs tarbiyasini va kamolotini o‘rganish tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘shgan davr hisoblanadi. Chunki bu davrda inson shaxsini klinik sharoitlarda tadqiq qilish uchun tekshiruvlar olib borildi. Jumladan, bu davrda shaxsga taalluqli introversiya, ya’ni o‘zining ichki muammolariga sho‘ng‘ib o‘zi bilan o‘zi bo‘lishi va atrofdagi voqeahodisalarga diqqatning susayib ketishi, ekstroversiya, ya’ni insonni o‘rab olgan muhit atrofga ongning qaratilganligi va shu bilan band bo‘lib, o‘ziga nisbatan ishonch va diqqatning susayishi, hayajonlanish, insondagi yuqori darajadagi halovatsizlik xususiyati, ma’lum psixologik ijtimoiy vaziyatlarda qo‘rquv va hayajon hissiyotlari, rigidlik (tafakkurning tormozlanishi, ya’ni bir marta qabul qilinga hukm yoki fikrlash va harakat usulidan vos kechishning qiyin holati) tormozlanganlik (qo‘zg‘atuvchilarga qarshi harakatning susayib ketishi), uyg‘onganlik holati (qo‘zg‘tuvchilar ta’sirida yuqori darajada qo‘zg‘alganlik va uning izlarining ma’lum vaqtgacha qolishi) kabi psixologik holatlar o‘rganiladi. Lekin bu davrda shaxsning ijobiy xislatlari, qobilyatlari ma’daniy, ma’naviy, va shunga o‘xshash bir qator fazilatlarni o‘rganish diagnostikasi rivojlanmadi. Ikkinchi davrda pedagoglar orqali kasbga yo‘naltirilayotgan shaxsning introversiya, ekstroversiya va psixikasi, qurquvlari bilan ishlanadi.

Keyingi davr (XX asrning ikkinchi yarmi –XXI asr boshlari) experimental davr bo‘lib, bu davrda nemis pedagog olimi Karlxayns Ingenkamp hamda angliyalik psixolog R.Kettel shaxsning ma’rifiy-ma’naviy rivojlanishini o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Rossiyada shaxsni eksperimental tadqiq qilish borasida A.F.Lazurskiy tizimli ravishda shaxsni ilmiy kuzatuvlar texnikasi va metodikasini, I.S.Kon va R.S.Nemov, I.P.Podlasiy, I.Rogov shaxsning intelliktual darajasini o‘rganish, o‘qtuvchi diagnostikasiga oid metodikalarni ishlab chiqdilar. G.Ayzenk kuzatuv, so‘rovnoma hujjatlar tahlilalarini matimatik ishlab chiqish usullarini yaratdi. G.Olloport shaxs hususiyatlari nazaryasiga asos soldi. R.Kettelesa, G.Ayzenk yaratgan matematik aparatni shaxs xususiyatlari nazaryasiga qo‘llab, uni eksperimental o‘rganishga xizmat qiluvchi faktorli tahlilni yaratdi. U shaxsning xususiyatlarini belgilovchi faktolar xususiyatlarni aniqladi va tartibga soldi. K.Ingenkampf, Igna Xartmanlar kasbga yo‘naltirish diagnostika doirasida shaxsni o‘rganish testlarini ishlab chiqdilar. R.Kettel o‘zining nomi bilan 16 faktorli “Kettel testi”, G.Ayzenk “Ayzenk testi”, “Roshax testi” larini yaratishdi. Nemis olimi Mauermanning yozishicha: “Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi o‘zlashtirish

va o‘quv jarayoniga tayyorgarlik o‘rtasida aloqa o‘rnatadi, o‘quv jarayonida kechadigan o‘quv maqsadini to‘g‘ri belgilaydi va o‘quv-tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini baholaydi” [5.B.456]. Yuqorida ko‘rsatilgan davrlar asosan o‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish diagnostikasi kategoryalarining bir turi hisoblanadi. Bu davrlar bilan asosan kasbga yo‘naltirshni maqsadli yo‘naltirish va mukammal tarzda diagnostik qarashlarni kategoryalash mumkin.

Kasbga yo‘naltirish diagnostikasini tizimlashtirish va mukammal kategoryalarni loyhlashtirish uchun turli davrdagi olimlar nazaryalarini o‘rganishgan. Xususan Sharqda kasbga yo‘naltirish diagnostikasi elementlari qo‘llanilganligidan guvohlik beruvchi manbalar mavjud. “Avesto ta’limoti”, “Qur’oni Karim” saboqlari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy(810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892)kabi Hadis ilmining ulug‘lari, tasavvuf ilmi (so‘fiylik tariqati)ning namoyondalari: Bahovuddin Naqshbandiy, Abduxoliq G‘ijdivoniy, Najmiddin Kubro kabi olimu fuzalolar komil inson to‘g‘risidagi g‘oyalari bilan Sharqda ta’lim-tarbiya jarayonining rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ularning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida kasbga yo‘naltirish diagnostikasi elementlarini ham uchratamiz. Xususan, ushbu olimlarning talimotlarida “ustoz-shogird” munosabatlarini o‘rganishimiz va tadqiq qilish, ilm o‘rganish bo‘yicha yoshlarning aqliy qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirish, ularni kasb tanlashlari uchun imkoniyatlari va qobiliyatlarini diagnostika qilish masalalari o‘z ifodasini topgan. Sharqda kasbga yo‘naltirish diagnostika elementlarini qo‘llashda insonni voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Xalq kasbga yo‘naltirish diagnostikasi o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Xalq kasbga yo‘naltirish diagnostikasida tarbiyaning turli uslublaridan foydalanilgan. Bu uslublar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p tomonlari bilan ilmiy kasbga yo‘naltirish diagnostikasi va kasbga yo‘naltirish diagnostikasining shakllanishida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Sharqda O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish diagnostikasi elementlari quydagi tarbiya metodlari zamirida qo‘llanilgan:

1. Tushuntirish: maslahat berish, uzur so‘rash, yaxshiliklar aqida so‘zlash, tug‘ri maslahatlar beraolish, o‘rnak bo‘lish.

2. Nasihat berish: o‘git, undash, ko‘ndirish, iltims qilish, oq yo‘l tilash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, rahmat aytish, duo qilish.

3. Namuna bo‘lish: maslahat so‘rash, o‘rnak bo‘lish.

4. Rag‘bat va jazo: maqtash, olqishlash, tasanno aytish, ta’kidlash, ta’na-gina, tanbeh berish, uyaltirish va boshqalar… [6.B.42]

Sharqda kasbga yo‘naltirish diagnostika elementlari – an’analar, udumlar, rasm-rusmlar, zamirida ham namoyon bo‘lgan. Bunda yosh avlodni aqliy rivojlantirish, bilim, ilm, malaka, ko‘nikmaga ega bo‘lish,

axloqli qilib tarbiyalash: axloq, xulq, odob, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharmi-hayo, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarni shakllantirish;

mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, aqli ish, jismoniy mehnat, imom tarbiya chiniqishi, jismoniy o‘yinlar;

nafosat tarbiyasi: guzallik, kiyinish madaniyati, muomila madaniyati, saranjomsarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga sog‘lom yondashuv;

iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof, foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik;

huquqiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to‘g‘rilik, halollik kabi tushunchalarni shakllantirishga katta e’tibor qaratilgan.

Demak, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalarda kasbga yo‘naltirish diagnostika nazarya va amalyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilgan bo‘lib , ularni o‘rganish va ulardan foydalanish buyuk ma’naviyatimizni asrashga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda kasbga yo‘naltirish diagnostikasi rivoji. Bir qator olimlar: Klauer, Ingo Xartman, Karlxayns Ingenkamp, Linert, Frikelarning kasbga yo‘naltirish diagnostikasi psixologik diagnostika zamirida tug‘ilganligi ta’kidlash albatda o‘rinsiz. Bir paytlar psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgan kabi kasbga yo‘naltirish diagnostika ham zarur bo‘lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o‘z o‘rinda foydalandi.

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishi zarur natijalarni berishi uchun u uzluksiz jarayon bo‘lishi va o‘zaro bog‘langan bir qancha bosqichlardan iborat bo‘lishi lozim.

Ilk kasbga yo‘naltirish (I-IV sinflar) bolalarni mehnatga tayyorlashdan, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni kasblar, mehnat olami bilan tanishtirishdan, ularda o‘z mehnati bilan boshqalarga naf keltirish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Bunga esa bolalarni qo‘ldan keladigan ijtimoiy- foydali mehnatga, o‘quv va o‘yin faoliyatining har xil turlariga jalb etish mumkin.

O‘rta bo‘g‘inda (V-VII sinflar) maktab o‘quvchilarini ijtimoiy- foydali, unumli mehnatga kirishdilar, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari, mehnat faoliyatining aniq sohasiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Navbatdagi bosqichda (VIII-IX sinflar) o‘quvchilarda tizimlashtirilgan bilimlar, kasblar olamida mo‘ljal ola bilish mahorati, aniq kasbga bo‘lgan qiziqish shakilanishi lozim, asosi e’tibor yuqori sinf o‘quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga tayyorlash ijtimoiy- kasbiy jihatdan bir maqsadni ko‘zda tutganligiga qaratilishi kerak.

Xulosa. Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarning kasbiy layoqati va maqsadi bilan ma’lum bir kasb layoqatiga ega bo‘lgan pedagog yordamida kategoryalanadi. Xususan, O‘quvchilarning u yoki bu mehnat faoliyatini tanlash bo‘yicha mayl va qiziqishlari har xil bo‘lib, barqarorligi esa puxta sanalmaydi. Bu jarayonda o‘qtuvchi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan havas dinamikasi va rivojini kuzatib boorish uchun anketa tarqatish usulini har bir sinf har yili o‘tkazishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. U yoki bu o‘quvchining kasb tanlashda yuz berayotgan o ’zgarishlarni o‘qtuvchi va sinf rahbari diqqat bilan kuzatishi, o‘rganishi, sabablarini aniqlashi kerak. Shunday aniqlashlardan keyingina mazkur o‘quvchining kasbga havasi va mayliga doir keying ishlari to‘g‘risida o‘ylash mumkin. Kasbga barqaror va asosli qiziqish o‘quvchilarning faoliyat turlari – o‘quv, mehnat, sinfdan tashqari ishlari va hokazolar bilan mustahkamlanishi zarur. Ammo qiziqishning chuqur va qat’iyligi, avvalo, uning amaliy faoliyatda yanada mustahkamlanishiga bog‘liq. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi, texnikaga oid hamda xizmat ko‘rsatish texnologik ta’lim daslari va texnik ijodkorligi to‘garaklari ko‘proq bu talablarga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. X.CH.Dusyarov “Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi”. Toshkent. 2018. – B. 7-8
2. Асадов .М. Индивидуально-психологические особенности учителя как фактори развития профессионализма: Автореф. дис. канд. Психол. наук. – Ташкент: «НУУз», 2007.-25 с.
3. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta’lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-бет.
4. Короткова М. В. Методика проектирования, разработки и использования творческих заданий по истории // Ж. Преподавание истории в школе. – М.: 2015. - № 3. – С. 10.
5. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash: darslik / N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo‘ysinov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus taiim vazirligi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 456-b.
6. Xolmatova Z.A. Pedagogik diagnostika (O‘quv qo‘llanma). Toshkent. 2023.

Akbarova Feruza Uktamjonovna
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ZAMONAVIY PEDAGOGIK FIKR-G‘OYALARDAN KREATIV FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan *kreativ foydalanishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kreativ metodlardan foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va pedagogik faoliyatda zamonaviy g‘oyalardan samarali foydalanishga tayyorlashning muhim omillari aniqlangan. Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar. *Bo‘lajak o‘qituvchi, zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalar, kreativlik, pedagogik imkoniyatlar, innovatsion ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni, innovatsion yondashuv.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ТВОРЧЕСКОМУ ПРИМЕНЕНИЮ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические возможности подготовки будущих учителей к творческому применению современных педагогических идей. Выделены теоретические и практические основы использования инновационных подходов, современных педагогических технологий и творческих методов в образовательном процессе. Также определены важные факторы развития профессиональной компетентности будущих учителей, формирования навыков творческого мышления и подготовки их к эффективному применению современных идей в педагогической деятельности. Результаты исследования служат повышению качества педагогического образования, укреплению готовности будущих учителей к инновационной деятельности и обеспечению эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова. *Будущий учитель, современные педагогические идеи, креативность, педагогические возможности, инновационное образование, педагогические технологии, профессиональная компетентность, творческое мышление, образовательный процесс, инновационный подход.*

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR CREATIVE USE OF MODERN PEDAGOGICAL IDEAS

Annotation. *This article analyzes the pedagogical opportunities for preparing future teachers for the creative use of modern pedagogical ideas. The theoretical and practical foundations of the use of innovative approaches, modern pedagogical technologies and creative methods in the educational process are highlighted. Also, important factors for developing professional competence of future teachers, forming creative thinking skills and preparing them for the effective use of modern ideas in pedagogical activity are identified. The results of the study serve to improve the quality of pedagogical education, strengthen the readiness of future teachers for innovative activities, and ensure the effectiveness of the educational process.*

Key words. *Future teacher, modern pedagogical ideas, creativity, pedagogical opportunities, innovative education, pedagogical technologies, professional competence, creative thinking, educational process, innovative approach.*

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash jarayoni ularda zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalarga nisbatan kreaitv munosabatni shakllantirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik faoliyatni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, kreativ pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida muloqot madaniyati va pedagogik kommunikatsiyaning kasbiy hamda shaxsiy faoliyatdagi o‘rni ilmiy jihatdan anglab yetiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik muloqotni ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qabul qiladilar. Zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanish jarayonida pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi hamkorlik, erkin fikr almashinuvi, innovatsion yondashuv hamda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlar negizida samarali muloqot asosiy o‘rin egallaydi [1.B.6]. Chunki kreativ pedagogik faoliyat o‘quvchilarning hayotga, voqea-hodisalarga va o‘ziga nisbatan munosabatining o‘zgarishi hamda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan metodlar faqat ta’limiy maqsad bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu metodlar pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlar, muammolar va innovatsion ehtiyojlarni hal etishga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, kreativ topshiriqlar, loyiha texnologiyalari, muammoli vaziyatlar va raqamli vositalardan integrativ tarzda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularni pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga konseptual jihatdan tayyorlaydi.

Uchinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash bosqichlarining izchil amalga oshirilishi talabalarda innovatsion pedagogik faoliyatni mikrotizimdan makrotizim darajasiga olib chiqish imkoniyatini yaratadi. Ya’ni talabalarning oliy ta’lim muassasasida ishlab chiqqan kreativ loyihalari, innovatsion fikr-g‘oyalari va pedagogik ishlanmalari keyinchalik umumta’lim maktablari, hududiy ta’lim tizimi hamda respublika miqyosida amaliyotga joriy etilishi mumkin. Misol tariqasida, bo‘lajak o‘qituvchining biror ta’lim muassasasida qo‘llagan kreativ pedagogik metodikasi yoki innovatsion loyihasining keng miqyosda ommalashuvi uning oliy ta’limdagi tayyorgarlik jarayonining samarali natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni amaliy qo‘llash, kreativ muammolarni hal etish va zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanish masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda. Xususan, ta’limda kreativlikni rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy qarashlar shakllangan. Xalqaro miqyosda ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga doir tadqiqotlarda (UNESCO, OECD yo‘nalishidagi hisobotlar) o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini oshirish va o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi [2.B.78]. Shuningdek, M.Fullan pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o‘qituvchining o‘zgarishlarga moslashuvchanligi va ijodiy yondashuvini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. R.Sawyer esa kreativ ta’lim muhitini yaratishda interfaol metodlar va hamkorlikdagi o‘qitishning ahamiyatini asoslab beradi.

Shuningdek, zamonaviy didaktik yondashuvlarda (masalan, kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeli) bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilim, balki amaliy faoliyatda kreativ yechimlar topish qobiliyatini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Hattie tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa samarali o‘qitish strategiyalarida refleksiya va teskari aloqa jarayonining muhimligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan texnologik rivojlanish, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt va globallashuv jarayonlari ta’lim tizimiga katta

mas'uliyat yuklamoqda. Chunki kelajak avlodda kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish bevosita ta'lim jarayoniga bog'liqdir. Bir tomondan, o'quv-tarbiyaviy jarayonda talaba shaxsining individualligi va kreativ salohiyati rivojlantirilsa, ikkinchi tomondan esa zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlashga zamin yaratadi [3.B.57].

Talabalarni zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash bugungi ta'lim tizimining muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Bunda talabalar milliy pedagogik meros, jahon ta'lim tajribasi, innovatsion metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganadi hamda ularni pedagogik faoliyatda kreativ qo'llash ko'nikmalarini egallaydi.

Tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlashda quyidagi jihatlarga ustuvorlik berildi.

– bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuv kompetensiyalarini shakllantirish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– talabalarda pedagogik muammolarni kreativ hal etish va nostandart qarorlar qabul qilish malakalarini rivojlantirish;

– ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlarni qo'llashga tayyorlash;

– pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetensiya va samarali muloqot madaniyatini shakllantirish;

– talabalarda pedagogik refleksiya, o'zini o'zi tahlil qilish va kasbiy o'zini rivojlantirish ehtiyojini tarkib toptirish;

– zamonaviy pedaqgogik fikr-g'oyalar asosida kreativ pedagogik madaniyatni rivojlantirish;

– innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish hamda talabalarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirish;

– bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati va loyiha ishlari orqali kreativ pedagogik tajribasini boyitish;

– pedagogik faoliyatda multimedia vositalari, sun'iy intellekt texnologiyalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish;

– talabalarda hamkorlikda ishlash, jamoaviy faoliyatni tashkil etish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish;

– kreativ pedagogik faoliyatni amaliyot bilan integratsiyalash hamda innovatsion metodlarni pedagogik amaliyot jarayonida qo'llashga yo'naltirish;

– talabalarda mustaqil, tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va qo'llash;

– bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy identiteti va pedagogik madaniyatini zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalar asosida rivojlantirish;

– zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodik tizimni shakllantirish [4.B.280].

"Pedagogika" yo'nalishi talabalarini zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan foydalanishga kreativ tayyorlashda zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalar, kreativ ta'lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar, pedagogik kreativlikni rivojlantirish usullari, interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari, pedagogik kommunikatsiya hamda kreativ ta'lim muhitini tashkil etish masalalari muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni insonparvarlik va innovatsion bilimlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilishi lozim. Ushbu ehtiyojlarga quyidagilar kiradi: talabalarning milliy va jahon pedagogik tajribasini o'zlashtirishi, ularning kreativ tafakkurini rivojlantirish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal etish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos pedagogik faoliyatni tashkil eta olish.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim oluvchilarning dunyoqarashi va ijtimoiy ongiga turli axborot manbalari kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Televideniye, internet tarmoqlari, ijtimoiy media hamda raqamli platformalar yoshlarning bilim olishida muhim vositaga aylanmoqda. Shu bilan birga, ushbu manbalarda tarqatilayotgan ma'lumotlarning ayrimlari subyektiv yoki ishonchsiz bo‘lishi mumkin [5.B.72]. Natijada o‘quvchilarda noto‘g‘ri qarashlar, yuzaki fikrlash yoki ijtimoiy me'yorlarni noto‘g‘ri talqin qilish holatlari yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash jarayonida ularda media madaniyat, axborotni tanqidiy tahlil qilish, raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning mustaqil, ongli va kreativ shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oli ta'lim ma'lum darajada talabalarni axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, qabul qilish va baholashga o‘rgatish orqali ularning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi hamda mustaqil fikrlashini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilarning axborotni tanqidiy tahlil qilishi, media madaniyatga ega bo‘lishi va mustaqil qaror qabul qila olishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

Ushbu muammoning muhim jihatlaridan biri talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Bu esa talabalarda axborot bilan ishlash, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi. O‘z navbatida, mazkur kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kreativ metodlardan foydalanishga tayyorlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir [6.B.45].

Pedagogik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, bo‘lajak o‘qituvchilar dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishga harakat qilsa-da, ularni chuqur kreativ yondashuv asosida loyihalash va moslashtirish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Ko‘pincha metodlar tayyor shaklda qo‘llanilib, o‘quv jarayonining ijodiy komponenti to‘liq ochilmay qolmoqda. Bu esa ularning pedagogik moslashuvchanligi va innovatsion fikrlash darajasini cheklaydi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati past darajada joylashgan bo‘lib, bu ularning kreativ fikrlash va zamonaviy pedagogik g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari to‘liq shakllanmaganligini bildiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar yaratish, darsni loyihalash va innovatsion yechimlar ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatkichlar pastroq ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, raqamli kompetensiya bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lsalarda, elektron ta'lim platformalarini kreativ dars jarayoniga integratsiya qilish darajasi yetarli emas. Bu holat raqamli pedagogika imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganligini ko‘rsatadi. Refleksiv tahlil jarayonida aniqlanishicha, talabalar o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholashga qisman qodir bo‘lsalar-da, o‘z xatolarini chuqur tahlil qilish hamda ularni ijodiy rivojlanish nuqtai nazaridan qayta ishlash ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa metakognitiv va refleksiv kompetensiyalarning sust shakllanganligini anglatadi.

Pedagogik muhit tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayrim hollarda dars jarayonida erkin fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish uchun zarur psixologik-pedagogik sharoitlar to‘liq ta'minlanmagan. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilmoqda. Umuman olganda, amaliyotdagi holat shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik g‘oyalardan kreativ foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda bir qator muammolar ham mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish uchun nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, interfaol va innovatsion metodlardan tizimli foydalanish hamda raqamli pedagogika imkoniyatlarini keng joriy etish zarur.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalar bilan birgalikda amaliyotda professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan va kreativ yondashuvlarga tayyorlashga qaratilgan metodlardan foydalanish holati asta-sekin kengayib borayotganligini ham ta'kidlash lozim. Dars jarayonlarida interfaol metodlar, guruhli ishlar, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, loyiha asosida ta'lim kabi usullar qo‘llanilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil

qaror qabul qilishi va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zamonaviy pedagogik g‘oyalardan samarali va kreativ foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlash bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon talabalarda kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, pedagogik refleksiya hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish hamda pedagogik faoliyatni ijodiy tashkil etishga tayyorlash imkonini beradi. Natijada zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion fikr-g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash uchun zarur pedagogik asoslar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: «Fan va texnologiya», 2013. – Б.6.
2. Ҳайитов О., Н.Умарова. Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари. – Т.: «TURON-IQBOL», 2001. – Б.78
3. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: ТГПУ, 2015. – С.57-61
4. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002. – 280 с
5. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: методическое пособие. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с
6. Michael Fullan. The New Meaning of Educational Change. New York: Teachers College Press, 2021. – P.45–52.

Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi
Tashkent University of Humanities
Teacher of the Department of Pedagogy and Languages
E-mail:muxamatjonovdiyora@gmail.com

EXPERIENCE IN ENHANCING ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY THROUGH DISCOURSE COMPETENCE DEVELOPMENT IN NON-PHILOLOGICAL PROGRAMS

Annotation. *This study examines the development of English discourse competence among students of non-philological programs. The research aimed to improve students' oral and written communication skills through the Analytical–Reproductive–Interactive–Productive (ARIP) model. The study was conducted at Alfraganus University, Kokand State University, and the Turtkul Branch of Tashkent University of Humanities. The findings showed that the use of discourse-oriented activities helped students improve coherence, cohesion, argumentation, and fluency in English communication. The results indicate that the proposed methodology can be effectively used in English language teaching for non-philological students.*

Key words: *discourse competence, English language teaching, ARIP model, oral communication, written communication, non-philological programs.*

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA DISKURSIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ORQALI INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAJRIBASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nofilologik yo'nalishlar talabalarida ingliz tilidagi diskursiv kompetensiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi talabalarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi Analitik–Reproduktiv–Interaktiv–Produktiv (ARIP) metodik modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Tadqiqot natijalari diskursiv yo'naltirilgan topshiriqlar va interaktiv faoliyatlar talabalarning ingliz tilida fikrlarini izchil, mantiqiy va kommunikativ vaziyatga mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunlari taklif etilgan metodikaning ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *diskursiv kompetensiya, ingliz tilini o'qitish, ARIP modeli, og'zaki nutq, yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, nofilologik yo'nalishlar.*

ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММАХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития дискурсивной компетенции студентов неязыковых направлений в процессе обучения английскому языку. Цель исследования заключается в разработке и внедрении методической модели АРИП (Аналитический–Репродуктивный–Интерактивный–Продуктивный), направленной на совершенствование устных и письменных речевых навыков студентов. Результаты исследования показали, что использование дискурсивно-ориентированных заданий и интерактивных видов деятельности способствует развитию у студентов умений логично, последовательно и коммуникативно целесообразно выражать свои мысли на английском языке. Полученные результаты подтверждают эффективность предложенной методики в повышении качества обучения английскому языку в неязыковых вузах.*

Ключевые слова: *дискурсивная компетенция, обучение английскому языку, модель АРИП, устная речь, письменная речь, коммуникативная компетенция, неязыковые направления подготовки.*

Introduction. Discourse, which constitutes the central concept of the present study, is regarded as one of the key categories in modern linguistics and foreign language teaching methodology. M. Celce-Murcia considers discourse competence an essential component of communicative competence and defines it as the ability to ensure coherence, cohesion, and appropriateness of speech in accordance with a particular communicative situation [1, pp. 45–56]. From this perspective, the development of students' discourse competence in the process of English language teaching is considered an important factor in enhancing their oral and written communication skills.

In the context of globalization, English has become one of the principal means of international communication, academic cooperation, and professional interaction. Higher education institutions are therefore expected not only to develop students' grammatical and lexical knowledge but also to foster their ability to express ideas logically, coherently, and appropriately in various communicative situations. This need is particularly significant for students enrolled in non-philological programs, for whom effective use of English in academic and professional contexts has become increasingly important. Consequently, the development of discourse competence has emerged as a highly relevant issue in foreign language education.

Practical observations indicate that although many students possess a certain level of grammatical and lexical knowledge, they often experience difficulties in organizing their ideas logically, supporting arguments with evidence, and producing oral and written discourse appropriate to specific communicative contexts. This situation highlights the need to improve methodological approaches aimed at the purposeful development of discourse competence in English language teaching.

In response to this challenge, the present study developed methodological foundations for enhancing English discourse competence among students of non-philological programs. In particular, an Analytical–Reproductive–Interactive–Productive (ARIP) methodological model was proposed to improve students' oral and written communication skills, and its effectiveness was validated through experimental teaching practices.

The aim of the study is to develop a methodology for enhancing and improving English discourse competence among students of non-philological educational programs.

Materials and Methods. The research was conducted at Alfraganus University, Kokand State University, and the Turtkul Branch of Tashkent University of Humanities. The undergraduate students from non-philological specialties participated in the study.

The research employed a mixed-method approach that combined theoretical and empirical methods. The theoretical stage involved a comparative and critical analysis of pedagogical, linguistic, and methodological literature related to discourse competence, communicative language teaching, task-based language teaching, and discourse-oriented instruction. The empirical stage included classroom observation, interviews, questionnaires, diagnostic tests, and analysis of students' oral and written discourse.

To achieve the objectives of the study, an Analytical–Reproductive–Interactive–Productive (ARIP) methodological model was designed and implemented. The model was aimed at developing students' discourse competence through a sequence of interconnected instructional stages.

The Analytical stage focused on introducing students to authentic discourse samples and developing their ability to identify discourse structure, communicative intent, cohesion, and coherence. Historical texts, academic articles, audio recordings, and video materials were used as learning resources.

The Reproductive stage students practiced discourse patterns through guided activities, including text reconstruction, paraphrasing, summarizing, and discourse completion tasks. This stage helped learners consolidate discourse-related linguistic and pragmatic knowledge.

The Interactive stage emphasized communicative engagement through pair work, group discussions, debates, role-plays, case studies, and problem-solving tasks. Students were encouraged to exchange ideas, negotiate meaning, and employ discourse strategies in authentic communicative situations.

The Productive stage required students to create independent oral and written discourse. Activities included presentations, essays, reports, reflective writing, project work, and academic discussions. Particular attention was paid to coherence, cohesion, argumentation, communicative appropriateness, and fluency.

The effectiveness of the proposed methodology was evaluated according to the following discourse competence indicators: coherence, cohesion, communicative appropriateness, argumentation, and fluency. Students' performance was assessed at the beginning and at the end of the experimental period. The obtained data were analyzed through comparative analysis of the experimental and control groups, allowing the researchers to identify changes in students' oral and written communication skills resulting from the implementation of the ARIP model.

The experimental instruction lasted throughout the academic semester and was integrated into Practical English courses. Authentic materials, discourse-based tasks, collaborative learning techniques, and communicative activities were systematically employed to facilitate the development of discourse competence in both academic and professional communication contexts.

Result. The implementation of the ARIP (Analytical–Reproductive–Interactive–Productive) model in non-philological English language classrooms contributed to the development of students' discourse competence and improved their oral and written communication skills. The analysis of classroom activities, discourse-based tasks, presentations, discussions, essays, and reflective writing assignments revealed positive changes in students' ability to produce coherent, cohesive, and communicatively appropriate discourse.

Table 1.

Main indicators of discourse competence development

Main indicators of discourse competence development	
Indicator	Observed improvement
Coherence	Improved logical organization of ideas
Cohesion	More effective use of discourse markers and linking devices
Communicative appropriateness	Better adaptation to communicative situations
Argumentation	Stronger justification of opinions and ideas
Fluency	Increased confidence and continuity in communication

The findings indicate that coherence and argumentation demonstrated the most noticeable progress. Students became more capable of organizing information logically, maintaining thematic continuity, and supporting their opinions with relevant examples and evidence. These improvements were particularly evident during classroom discussions and oral presentations.

Development of oral communication skills. The Interactive and Productive stages of the ARIP model positively influenced students' speaking performance. Throughout the experiment, students demonstrated greater participation in discussions, debates, role-play activities, and project presentations. Their responses became more structured, communicatively appropriate, and context-sensitive.

The analysis of oral discourse revealed that students gradually reduced communication barriers and became more willing to express their opinions in English. They also demonstrated improved use of discourse markers, turn-taking strategies, and argumentation techniques during interaction.

Development of written communication skills

The implementation of discourse-oriented writing activities contributed to the improvement of students' written performance. Essays, reflective journals, summaries, and project reports produced during the experiment showed a higher degree of textual organization and coherence.

Students demonstrated a better ability to structure introductions, develop supporting arguments, and formulate conclusions. The use of cohesive devices and logical transitions between ideas also

became more frequent and appropriate. As a result, written texts became more coherent, informative, and communicatively effective.

Discussion. The findings of the present study confirm that discourse competence plays a crucial role in the development of students' oral and written communication skills in English. The observed improvements in coherence, cohesion, communicative appropriateness, argumentation, and fluency indicate that discourse-oriented instruction enables learners to use language more effectively in authentic communicative situations. These results support the view of Canale and Swain, who identified discourse competence as one of the essential components of communicative competence responsible for organizing meaningful communication[2].

The positive outcomes of the study also correspond to the theoretical assumptions proposed by Hymes, who emphasized that successful communication requires not only grammatical knowledge but also the ability to use language appropriately within specific social and communicative contexts[3]. The findings demonstrate that students who participated in discourse-oriented learning activities became more capable of constructing meaningful oral and written texts and adapting their communication to various academic situations.

The improvements observed in students' oral communication skills can be explained by the extensive use of interactive learning tasks, including discussions, debates, role plays, and collaborative activities. According to Safonova and Shchukin, communicative interaction serves as a key mechanism for language competence development because it encourages learners to negotiate meaning, exchange opinions, and apply linguistic resources in real communication[4;5]. The findings of the present study support this assumption and demonstrate that interactive discourse activities contribute significantly to the development of communicative confidence and discourse fluency.

The results related to written communication are also noteworthy. Students demonstrated a higher ability to organize texts logically, connect ideas effectively, and provide supporting arguments. These findings are in line with the views of Celce-Murcia and Widdowson who emphasize that discourse competence involves the ability to create coherent and cohesive texts rather than merely produce grammatically correct sentences[6;1]. The use of discourse-based writing tasks, reflective activities, and authentic materials appears to have facilitated the development of these abilities.

Furthermore, the findings support the effectiveness of learner-centered approaches advocated by the Common European Framework of Reference for Languages. The integration of authentic communicative tasks and discourse-oriented instruction enabled students to become more autonomous language users and active participants in the learning process. Similar conclusions have been reported in studies conducted by Rashidova[7], Yo‘ldashova[8], Baybabayeva[9], and Raxmonova[10], who emphasize the importance of discourse-based methodologies and innovative pedagogical technologies in foreign language education (Rashidova, 2020; Yo‘ldashova, 2022; Baybabayeva, 2023; Raxmonova, 2023).

Conclusion. The present study investigated the possibilities of enhancing English language teaching methodology through the development of discourse competence among students of non-philological programs. The findings demonstrate that discourse competence constitutes an essential component of communicative competence and plays a significant role in improving learners' oral and written communication skills.

The theoretical analysis revealed that discourse-oriented language instruction provides favorable conditions for developing students' ability to produce coherent, cohesive, communicatively appropriate, and context-sensitive discourse. The review of national and international research confirmed the growing importance of discourse competence in contemporary foreign language education and highlighted the need for effective methodological solutions for its development in non-philological higher education settings. 1) Discourse competence was found to be an important component of communicative competence that contributes significantly to the development of students' oral and written communication skills. 2) The implementation of the ARIP (Analytical–Reproductive–Interactive–Productive) model created favorable conditions for improving coherence, cohesion, communicative appropriateness, argumentation, and fluency in English language learning. 3) The use of

discourse-oriented activities, authentic materials, discussions, presentations, and writing tasks enhanced students' ability to produce meaningful and contextually appropriate oral and written discourse. 4) The findings confirm that the proposed methodology can increase the effectiveness of English language teaching in non-philological programs and may be recommended for wider application in higher education institutions.

The list of used literature.

1. Celce-Murcia M. Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching. – Dordrecht : Springer, 2007. – P. 45–56.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, № 1. – P. 1–47.
3. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth : Penguin, 1972. – P. 269–293.
4. Safonova V. V. Communicative Competence and Intercultural Communication in Foreign Language Education. – Moscow : Evroshkola, 2016.
5. Shchukin A. N. Methods of Teaching Foreign Languages. – Moscow : Academia, 2017.
6. Widdowson H. G. Discourse Analysis. – Oxford : Oxford University Press, 2007.
7. Rashidova F. M. Foreign language education based on CEFR standards in Uzbekistan // Foreign Languages in Uzbekistan. – 2020. – № 3(32). – P. 15–24.
8. Yo'ldashova N. M. Developing discourse competence through task-based language teaching // Foreign Languages in Uzbekistan. – 2022. – № 5(46). – P. 42–50.
9. Baybabayeva Sh. I. Improving writing skills through flipped learning technology in English language education // Uzbek Journal of Language and Education. – 2023. – Vol. 2, № 1. – P. 67–75.
10. Raxmonova D. A. Methodological approaches to developing discourse competence in higher education // Philology and Language Teaching. – 2023. – Vol. 4, № 2. – P. 88–96. Vol. 4, № 2. – P. 88–96.

Ernazarova Shahnoza Ergash qizi
Toshkent Davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maqol nima, uning kelib chiqish bosqichlari va ularning shakllanish manbalari hamda semantik va funksional rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy-tahliliy va lingvokulturologik metodlardan foydalanilgan. Maqollarning ibtidoiy og‘zaki ijod namunalaridan boshlab yozma adabiyot va zamonaviy kommunikativ muhitgacha bo‘lgan evolyutsiyasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari maqollarning xalq tafakkuri, milliy madaniyat va ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar: *maqol, paremiologiya, xalq og’zaki ijodi, lingvokulturologiya, semantika, folklorshunoslik, etimologiya*

STAGES OF THE DEVELOPMENT OF PROVERBS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. *This article examines the concept of a proverb, its stages of origin, the sources of its formation, as well as its semantic and functional development. The study employs historical-comparative, descriptive-analytical, and linguocultural methods. It explores the evolution of proverbs from the earliest forms of oral folk creativity to their representation in written literature and their role in contemporary communicative environments. The findings demonstrate that proverbs serve as an important means of transmitting people's wisdom, national culture, and social experience from one generation to another.*

Key words: *proverb, paremiology, folk literature, linguoculturology, semantics, folklore studies, etymology.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются понятие пословицы, этапы её происхождения, источники формирования, а также особенности её семантического и функционального развития. В исследовании использованы историко-сопоставительный, описательно-аналитический и лингвокультурологический методы. Освещается эволюция пословиц от ранних образцов устного народного творчества до их отражения в письменной литературе и функционирования в современной коммуникативной среде. Результаты исследования показывают, что пословицы являются важным средством передачи народной мудрости, национальной культуры и социального опыта из поколения в поколение.*

Ключевые слова: *пословица, паремиология, устное народное творчество, лингвокультурология, семантика, фольклористика, этимология.*

Kirish. Maqol-xalq og‘zaki ijodining janrlaridan biri bo‘lib, u o‘zining qisqa satrlarda ko‘p ma’noni ifodalashi, jarangdorligi, mantiqiy va grammatik jihatdan tugallanganligi bilan boshqa xalq og‘zaki ijod na’munalaridan farq qiladi. Maqollar xalq tajribasidan o‘tgan voqe’a-hodisalarning so‘zdagi o‘zgarmas ifodasidir. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan.

Maqollarga turli olimlar turlicha ta’rif berishgan. I.R.Galperin maqolga quyidagicha ta’rif bergan: maqol- jamiyatning to‘plangan hayotiy tajribasini qisqa shaklda aks ettiruvchi va ma’lum bir holatlarda yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiluvchi birlikdir. W.Mielder maqolni qisqa, hammaga ma’lum bo‘lgan, o‘zida oqillik, haqiqat, ahloqiy va an’anaviy qarashlarni ifodalaydigan, yodda qoladigan shaklda ifodalangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan turg‘un birikma deb ta’riflagan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot maqollarning taraqqiyot bosqichlarini aniqlash va ularning tarixiy-lisoniy rivojlanish xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tavsifiy-tahliliy, lingvokulturologik hamda paremiologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ingliz maqollarining rivojlanishiga ko‘plab olimlar o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lib ular: I.R.Galperin, L.N.Tolstoy, W.Mieder, Stuart.A. Gallaxer, Permyakov G.L, V.I. Dal kabi olimlardir. Maqollar haqidagi dastlabki nazariya Permyakov G.L tomonidan ishlab chiqilgan. U o‘zining “Maqoldan ertakgacha” deb nomlangan asarida maqol haqida keltirib o‘tgan.

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “proverb” so‘zi orqali ifodalanadi. Ba’zan adabiyotlarda : adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms so‘zlari orqali ham maqol tushunchasini berishi mumkin.

O‘zbek tilshunoslaridan X.Berdiyorov va R.Rasulov “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”ni tuzishgan. Sh.Rahmatullayevning o‘zbek tilining frazeologik va etimologik lug‘atlari ham o‘zbek paremiologik birliklarini turli jihatlarini tahlil qilishga katta hissa qo‘shgan. Bulardan tashqari, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulovlarning “O‘zbek xalq maqollari” to‘plami ham e’tiborga molikdir.

Olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida ilmiy manbalarni qiyoslash, umumlashtirish, interpretatsiya qilish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari maqollarning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda ularning milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘rnini yoritishga xizmat qiladi.

Natijalar. Maqol va matallar ma’daniy qadriyat va tushunchalarini aks ettirgani uchun ma’daniy ahamiyatga ega birliklar hisoblanadi. Har bir maqol o‘sha xalq kelib chiqishi va yashash tarzi bilan chambarchas bog‘liq holda yaratilgan bo‘lib, o‘sha xalqning turmush-tarzi, urf-odatlari, asrlar davomida avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan odob-ahloq me’yorlarining modeli sifatida tushuniladi. Maqollar xalq hayotini, uning o‘tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va ma’daniy turmush darajasini o‘rganishda asosiy vazifani o‘taydi. Haqiqatdan ham maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini, e’tiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratini, orzu va intilishlarini obyektiv baholaydi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” degan edi.

Ch.S. Doyl maqolni kichik hajmli xalq she’riyati deb atashni taklif qilgan. Ayrim olimlar yani Teylor va Fert xalq og‘zaki ijodida maqollarni o‘rganishning asosiy sababi ularning an’anaviyli ekanligini o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tgan. Yana bir olim N.R.Norrik ”Folklor birliklari an’anaviy va takroriydir, shu bilan bir qatorda muallifsiz, manbaasizdir, maqollar ham ushbu xususiyatlariga ega, shu sababli uni ham folk birligi sifatida tadqiq etiladi” degan ta’rifni bergan.

Har bir olim maqollarni tadqiq qilish davomida ularga turli xil ta’riflar berishgan. Stuart.A. Gallaxer ham maqolni quyidagicha ifodalagan “Maqol - bu zohiriy haqiqatning ixcham ifodasidir, yani xalq orasida ko‘rinadigan haqiqatlarning qisqacha an’anaviy bayonidir. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, hikmat, haqiqat, odob-axloq va an’anaviy qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan turg‘un va yodda qoladigan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalqning qisqa, umume’tirof etilgan jumlasidir”.

Maqollarni tahlil qilishning yangi yondashuvi XX asrning oxirgi 30-yillarida paydo bo‘ldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyoti bilan bog‘liq. Maqollar haqidagi dastlabki nazariya Permyakov G.L tomonidan ishlab chiqilgan. U o‘zining “Maqoldan ertakgacha” deb nomlangan asarida maqolni lisoniy jihatdan tahlil qilish jarayonida semantik-mantiqiy jihatdan yondashish lozimligini aytib o‘tgan. Uning fikricha, “tugallanmagan fikr”ni ifodalovchi majoziy so‘z oborotlariga matallar, “tugallangan fikr”ni shakllantiruvchi majoziy ma’noli gaplarga maqollar deyiladi. Maqollarni ham, matallarni ham G.L.Permyakov (bosma qolip so‘zlar) nazariyasi doirasida ko‘rib chiqadi. Har bir tilning lug‘at zahirasida murakkab o‘ziga xos qoliplar bo‘ladi, ya’ni turg‘un, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, bo‘linmas oborotlar mavjud.

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “proverb” so‘zi orqali ifodalanadi. Ba’zan adabiyotlarda: adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms so‘zlari orqali ham maqol tushunchasini berishi mumkin.

Ko‘plab yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarda maqollardan foydalanish XX asrda keng qo‘llana boshlandi. Chunki maqollar har qanday munozarali vaziyatni qisqa yechim orqali yakunlashga imkon beradi. Har bir xalqdagi maqollar boshqa xalqlar maqollarida o‘z ekvivalentiga ega bo‘lishi mumkin. “So‘zlarning ekvivalenti” atamasi dastlab L.B.Sherba tomonidan tilshunoslik faniga olib kirilgan. L.B.Sherbaning fikriga ko‘ra so‘zlar maqollarda bir xil ma’noni anglatmasada yashirin ravishda bir-biriga ekvivalent bo‘lishi mumkin. Yana bir tilshunos olim V.I. Dal maqollar ikki qismdan, yani su’rat va tahlil qismdan iborat deb fikr bildirgan. Surat qismida munozaralar ifodalansa, tahlil qismida tinglovchining munozaralarni idrok etish holati beriladi.

Maqollar nazariyasi haqida o‘z izlanishlarini olib borgan olimlardan biri Trench bo‘lib, u maqollardagi 3 narsani “shortness, sense, salt “ ya’ni “qisqalik, hissiyot, ta’m” ni juda muhim deb hisoblaydi. Bularni quyida qisqacha keltiramiz:

1.Shortness (Qisqalik): Trench maqollardagi qisqalik eng muhim omil deb aytadi. Yaxshi maqol hamisha qisqa, yurakdan aytilib yurakka yetib borishi lozim deydi. U ba’zan 2, 3 yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalangan bo‘lishi ham mumkin. Maqollar odatiga ko‘ra ixcham shaklga ega, biroq olam-olam ma’no anglatishi zarur degan fikrlarni keltiradi.

2. Sense (Hissiyot): Trenchning ta’kidlashicha maqollarda hissiyot maqolni obrazliligini oshirib beradi.

3. Salt (Tam): "maqolda uning yaxshi ma’nosidan tashqari tuz bo‘lishi kerek, achchiq , o‘tkir so‘zlar bilan o‘quvchi xotirasida yaxshiroq qoladi. "

Folklorshunos olimlar maqollarni o‘rganuvchi sohani “paremiologiya” deb ataladi. Paremiya-yunoncha chuqur ma’noli gap, xikmatli so‘z, maqol, ibora ma’nosini beradi. O‘zbek tildagi maqol so‘zi arabcha “qavlun”-gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, aytib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu termin dastlab Abdurauf Fitratning „Adabiyot qoidalari” kitobida maqollarga quyidagicha ta’rif berilgan: ”Elning kun ko‘rgan, ish o‘tkazgan sinashli, qarilar tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa ma’noli gaplardir”. Aynan shu asardan so‘ng maqol paremik birliklarga eng munosib atama sifatida o‘zbek paremiologiyasida qo‘llana boshlandi.

Turkiy xalqlarning maqollaridan na’munalar dastlab Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asarida keltiriladi. O‘zbek tilida dastlabki maqollarni yig‘ish Mahmud Koshg‘ariy tomonidan XI asrda boshlab berilgan bo‘lib, muallif ularni turkiy tillarning lug‘at tarkibidagi so‘zlarni izohlash uchun misol sifatida keltirib o‘tadi. Bu asar haqida M.Koshg‘ariyning o‘zi shunday keltirib o‘tadi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sahlar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim.” “Devoni lug‘atit-turk” asarida 275 ta maqol keltirib o‘tilgan. Masalan, ushbu asarda keltirilgan “Kishi olasi ichtin” (Odamni olasi ichida bo‘ladi), “Alp cherikda, bilga tirikda” (Botir jangda, dono majlisda sinaladi) singari maqollari hozirgi kunda ham ishlatiladi.

Bundan tashqari Muhammad Sharif Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida 300 dan ortiq o‘zbek xalq maqollari berilgan. Alisher Navoiy “Tarixiy mulki Ajam” asarida turkiy tilda mavjud maqollardan ko‘plaridan foydalangan. Maqollarning shakllanishida uning paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq maqollari ko‘pincha maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi va otalar so‘zi atamalari bilan el orasida mashhur bo‘lgan.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-maqollar hajmi qisqa va cheklangan;

-maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni ifodalaydi;

-maqollarda hayotiy voqea-hodisalar haqida qat’iy hukm ifodalanadi;

-maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtaiy nazaridan umumlashtiradi;

-maqol matn tilshunosligida shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

XX asrdan boshlab xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o‘rganish va to‘plash ishlari amalga oshirildi. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda N.G.Ostroumovning xizmati katta. Ko‘plab o‘zbek olimlari ham shu davrdan boshlab maqollarni tahlil qilishga e’tibor qaratgan. Aynan shu davrda Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovning maqollarning til

xususiyatini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi. X. Sharafiddinov o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq. B.A.Soatov o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan. I. Begmuratov, R.A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan maqol va matallar qiyosiy jihatdan o‘rganib chiqilgan.

Muhokama. O‘zbek xalqi maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. Har bir xalq o‘z maqollari fondiga ega. Maqollarning o‘rganilish tarixi va to‘plash jarayonlari haqida gap ketganda ularni tasnifi haqida ham fikr yuritishimiz kerak. O‘zbek folklorshunos olimlari tomonidan maqollarni tasnif qilishning asosan quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

• Alifbe tartibida. Unga ko‘ra mavjud material maqol to‘plamida alfavit tartibiga solinadi. Uning afzalligi shundaki, foydalanuvchi to‘plamdan maqolni tezroq topa olishi mumkin. Ammo kamchiligi unda maqollarning mavzu jihatdan berilmaganligi tufayli foydalanuvchiga ko‘proq qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

• Mavzular tartibida. Tasnifning bu turi oldingisidan ancha murakkab va mukammalligi bilan ajralib turadi. Chunki bu turda material muayyan mavzu guruhlariga ajratiladi, har bir mavzudagi material esa o‘z ichida alfavit tartibi bo‘yicha beriladi. Ushbu tartib bo‘yicha tuzilgan maqol to‘plamlari foydalanish jihatidan qulayligi, eng muhimi, muayyan xalq maqollari fondining mavzu doirasini ko‘rsatib berishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi.

• To‘g‘ri yoki ko‘chma ma`no tashishiga ko‘ra. Maqollarning semantik tabiati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib turadi: oldin o‘z ma’nosida qo‘llanilgan maqollar keyinchalik faqat ko‘chma ma’no kasb etishi mumkin. Shunga ko‘ra maqollar 3 xil turga bo‘linadi: o‘z ma’nosida qo‘llanuvchi; o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi; faqat ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi.

Umuman, bu turdagi tasnifga ko‘ra davrlar o‘tishi bilan xalq maqollari tabiatida yuz bergan semantik o‘zgarishlarni aniqlashga, binobarin har bir maqolning qay darajada davr talablariga javob bera olishini belgilashga imkon beradi.

Qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko‘ra maqollar juda qadimiy, ayni vaqtda hamisha zamonaviy janr. Uning qadimiyligi xalq tarixi qadar uzoq. Xalq maqollarida muayyan xalq boshidan kechirgan turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o‘z aksini topadi. Shunga ko‘ra maqollarni qay davrda yaratilganini bilib olish mumkin.

Tuzulishiga ko‘ra. Bu turdagi maqollar tarkibidagi ma’noviy komponentlariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi.:

1 komponentli

2 komponentli

4 komponentli va undan ko‘p.

Hozircha o‘zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko‘ra tasnif qilish an’anasiga ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” (1987) va ko‘p jildlik «O‘zbek xalq ijodi” ruknida «O‘zbek xalq maqollari” (1989) va «O‘zbek xalq maqollari” (2003) hamda etimologiyasiga ko‘ra Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Hikmatnoma” (1990) va “Ma`nolar xazinasi” (2003) “O‘zbek xalq maqollari” (2005) to‘plamlarini tuzishda amal qilingan.

Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda maqollar “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan. Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 mavzu guruhi taqdim etilgan.

Maqollardagi pand-nasihat xarakteri ularni yanada jonli va kuchli ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: Inglizcha “A bad execuse is better than none” o‘zbek tiliga ekvivalent sifatida “Yaxshi gap bilan ilon inidanchiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan” maqolini keltiramiz. Ko‘rinib turganidek, ushbu maqollar pand-nasihat mazmunidagi ma’noni beradi. Maqolning har ikki tildagi variantlari ham bir xil ma’noni beradi.

Xulosa. Maqollar xalq donoligi ifodasi bo‘lib, ko‘pincha avloddan-avlodga o‘tib keladi. Ular jamiyatning jamoaviy tajribalari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan madaniy meros bo‘lib xizmat qiladi. Maqollar tarixi boy va xilma-xil bo‘lib, turli madaniyatlarda minglab yillarga borib taqaladi. Ular dastlab og‘zaki tarzda uzatilgan bo‘lib, og‘zaki hikoya qilish va hikmat almashish an'analarini aks ettirgan. Vaqt o‘tishi bilan ular yozma shaklda ifodalangan bo‘lib, diniy matnlarda, adabiyotlarda va oxir-oqibat kundalik tilda paydo bo‘ldi. Maqollar o‘zgacha haqiqatlarini saqlab, o‘zgaruvchan zamonga moslashib, rivojlanishda davom etmoqda. Ular muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, hayotning turli jabhalarida tushuncha va ko‘rsatmalar beradi.

Maqollarning etimologiyasi ularning lingvistik va madaniy yodgorlik sifatidagi abadiy ahamiyatini ta’kidlab, insoniyat tajribasining azaliy hikmat va idroklarini aks ettiradi. Maqollarni o‘rganish fanlararo bo‘lib, tilshunoslik, folklor va madaniyatshunoslik kabi turli sohalarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, faqat ingliz tilidagi maqollarga bag‘ishlangan aniq bir olimlar guruhi mavjud emas. Biroq maqollar, ularning kelib chiqishi, ma’nosi, madaniy ahamiyatini tushunishga turli fanlardan tadqiqotchi va olimlar hissa qo‘shgan. Volfgang Mieder kabi tilshunoslar maqollarning til tuzilishi, tillar o‘zgarishi va muloqotdagi rolini tahlil qilib, ular ustida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan va nashr etgan. Archer Teylor va Alan Dandes kabi folklorshunoslar ham maqollarni o‘rganish, ularning madaniy kontekstlarini, o‘tkazilishi va jamiyatdagi funksiyalarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Bundan tashqari, psixologlar, antropologlar va sotsiologlar maqollarning psixologik, antropologik va sotsiologik jihatlarini tadqiq qilib, ular individual va jamoaviy xatti-harakatlar, e'tiqodlar va o‘ziga xosliklarni qanday shakllantirishiga oydinlik kiritdilar. Umuman olganda, ingliz tilidagi maqollarni o‘rganish turli sohalardagi olimlarning hissasi bilan ko‘p tarmoqli yondashuvni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Алишер Навоий. Асарлар : ўн беш томлик. Т. 14. – Тошкент, 1967.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. T. 2. – Toshkent : Ma’naviyat, 1994.
3. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow : Higher School Publishing House, 1977.
4. Gothardt H. H., Varga M. A. Introduction to Paremiology. – Berlin, 2014.
5. Қошғарий М. Девони луғатит турк. Т. 1. – Тошкент, 1960.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / mas’ul muharrir A. Madvaliyev. – Toshkent : O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
7. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport : Greenwood Press, 2004.
8. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent : Aloqachi, 2008.
9. Norrick N. R. “Speech is Silver”: The Proverbial View of Language. – The Hague : Mouton, 1971.
10. Raxmatullayeva S. J. Maqollar va ularning umuminsoniy xususiyatlari // Journal of Innovations in Social Sciences. – 2022. – P. 67–70.
11. Sarimsoqov B. Balandparvoz so‘zlar. – Toshkent, 1986.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent, 2001.
13. Stuard A. G. American Folklore Encyclopedia. – Santa Barbara : ABC-CLIO, 1996.
14. Trench R. C. On the Lessons in Proverbs. – New York : Redfield, 1853.
15. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987.
16. AZKURS : elektron ta’lim resursi. – URL: https://azkurs.org (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
17. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazi : rasmiy sayt. – URL: https://library.navoiy-uni.uz (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).
18. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti elektron kutubxonasi. – URL: https://library.navoiy-un.uz (murojaat qilingan sana: 02.08.2026).

Khashimova Mokhira Abdusatarovna
Senior Teacher, Department of Pedagogy and Languages
Tashkent University of Humanities

MODERN CIVILIZATIONAL TERMS IN ARABIC: HISTORY, SCHOLARS, AND STANDARDIZATION CHALLENGES

Abstract. *This article explores the history and current state of modern civilizational terms in Arabic, focusing on early scholars like Ismāʻīl Mazhar and Aḥmad ʻĪsā, and the critical role of 19th–20th century translators. It highlights a persistent issue: terminological variation across Arab countries, where concepts like «thermos,» «microphone,» and «pressure cooker» are rendered differently in Egypt, Iraq, Syria, and Morocco. Drawing on dictionaries from the Cairo, Baghdad, Damascus, and Moroccan academies, as well as the «Unified Arabic Dictionary» project, the article reviews ongoing unification efforts. It concludes that despite regional diversity and institutional competition, collaborative initiatives and specialized dictionaries are gradually improving terminological coherence in the Arab world.*

Key words: *civilizational terms, Arabic, standardization, terminology, translation, lexicography.*

ARAB TILIDAGI ZAMONAVIY SIVILIZATSION LAFZLAR: TARIX, OLIMLAR VA BIRXILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tilidagi zamonaviy sivilizatsion lafzlarning tarixi, Ismoil Mazhor va Ahmad Iso kabi ilk olimlarning hissasi hamda XIX–XX asr tarjimonlarining roli yoritilgan. Asosiy muammo – terminlarning arab mamlakatlari bo'ylab birxillashtirilmaganligi: «termos», «mikrofon», «bosimli qozon» kabi tushunchalar Misr, Iroq, Suriya va Marokashda turlicha ataladi. Qohira, Bag'dod, Damashq va Marokash akademiyalari hamda «Yagona arab lug'ati» loyihasi asosida olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan. Mintaqaviy xilma-xillik va muassasaviy raqobatga qaramay, hamkorlikdagi tashabbuslar va ixtisoslashtirilgan lug'atlar arab dunyosida terminologik uyg'unlikni asta-sekin yaxshilamoqda.*

Kalit so'zlar: *sivilizatsion lafzlar, arab tili, birxillashtirish, terminologiya, tarjima, lug'atshunoslik.*

СОВРЕМЕННЫЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЕ ТЕРМИНЫ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ: ИСТОРИЯ, ИССЛЕДОВАТЕЛИ И ПРОБЛЕМЫ УНИФИКАЦИИ

Аннотация.*В данной статье рассматривается история и современное состояние цивилизационных терминов в арабском языке, освещается вклад таких учёных, как Исмаʻил Мазхар и Ахмад ʻИса, а также роль переводчиков XIX–XX веков. Выявлена основная проблема: отсутствие унификации терминов в арабских странах, где такие понятия, как «термос», «микрофон», «скороварка», называются по-разному в Египте, Ираке, Сирии и Марокко. Проанализированы усилия академий Каира, Багдада, Дамаска и Марокко, а также проекта «Единого арабского словаря». Несмотря на региональное разнообразие и институциональную конкуренцию, совместные инициативы и специализированные словари постепенно улучшают терминологическую согласованность в арабском мире.*

Ключевые слова: *цивилизационные термины, арабский язык, унификация, терминология, перевод, лексикография.*

Kirish. Tillar jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlarni aks ettiruvchi tirik organizmlardir. Ayniqsa, ilm-fan, texnika va madaniyatning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi tushunchalar uchun yangi so'zlar – sivilizatsion lafzlar – zaruriyatga aylanadi. Arab tili ham bundan mustasno emas. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida arab dunyosi Yevropa bilan faol aloqaga kirishgan davrda ko'plab yangi atamalar arab tiliga kirib keldi. Bu jarayonda tarjimonlar, adiblar va tilshunoslarning

o'rni beqiyosdir. Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya masalalari alohida o'rin tutadi. Har bir til o'zining ichki rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lib, u jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlarga moslashishga intiladi. Ilm-fan, texnika va madaniyat taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan yangi predmet va tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlar - terminlar zaruriyatga aylanadi. Bu jarayon, ayniqsa, bir tilga boshqa tillardan kirib kelayotgan yangi so'zlar va ularning muqobillari, shuningdek, turli mintaqalarda bir xil tushunchaning turlicha ifodalanishi muammosini keltirib chiqaradi.

Arab tili misolida bu muammo ayniqsa keskin tus oladi, chunki arab tili 22 davlatda rasmiy til bo'lib, ularning har biri o'ziga xos lingvistik an'analarga, shevalarga va terminologik qarashlarga ega. Bundan tashqari, arab tili tarixan ikki holatda mavjud: adabiy arab tili (al-'arabiyya al-fuṣḥā) va xalq shevalari (al-'āmmiyya). Bu ikki shakl o'rtasidagi tafovut terminlarni birxillashtirishga qo'shimcha to'siq bo'lmoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshlari arab tili tarixida alohida davr bo'lib, bu davrda arab dunyosi Yevropa bilan intensiv iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarga kirishdi. «An-Nahḍa» (Uyg'onish) harakati natijasida minglab fransuz, ingliz, italyan va boshqa Yevropa tillariga oid so'zlar arab tiliga kirib keldi. Bu jarayon arab tilshunosligida «sivilizatsion lafzlar» (alfāẓ madaniyya) muammosini keltirib chiqardi.Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya masalalari alohida o'rin tutadi. «Ilmu Mustaloha» (Terminologiya) - har bir tilning ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy fanlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu ilm terminlarning yasalishi, rivojlanishi, qo'llanishi va birxillashtirilishi qonuniyatlarini o'rganadi.

«Ilmu Mustaloha» va sivilizatsion lafzlar

«Ilmu Mustaloha» kitobida termin yaratishning bir qancha asosiy tamoyillari belgilangan. Ushbu tamoyillar sivilizatsion lafzlarni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.«Ilmu Mustaloha» da belgilangan termin yaratish tamoyillari:

Tamoyil Mazmuni Sivilizatsion lafzlarga tatbiqi

Al-Ibtikār (Yangi yaratish) Mavjud o'zaklardan yangi termin yasash Neologizm usuli - kaẓīma (termos), miṣwāt (mikrofon)

Al-Iqtibās (O'zlashtirish) Boshqa tillardan termin olish Fonetik o'zlashtirish - termūs (termos), rādyū (radio)

Al-Tarjama al-Ḥarfiyya (So'zma-so'z tarjima) Terminni qismlarga ajratib tarjima qilish Semantik kalka - mukabbir al-ṣawt (mikrofon)

Al-Tawfīq (Moslashtirish) Terminni tilning ichki qonuniyatlariga moslashtirish Gibrid usul - ḥalma ṣinā'iyya (emzik)

«Ilmu Mustaloha» da termin yaratishda tilning ichki qonuniyatlariga rioya qilish, terminlarning qisqa va tushunarli bo'lishi hamda ularning terminologik tizimga mos kelishi talab etiladi. Ushbu tamoyillar «Sivilizatsion lafzlar lug'ati» da keltirilgan misollar tahlilida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - «Ilmu Mustaloha» kitobining terminologik tamoyillari va Misrdagi Arab tili akademiyasi tomonidan nashr etilgan «Sivilizatsion lafzlar lug'ati" (Mu'jam al-Alfāẓ al-Madaniyya) materiallarini uyg'unlashtirgan holda arab tilidagi zamonaviy sivilizatsion lafzlarning shakllanish tarixi, terminologik tahlili va birxillashtirish muammolarini o'rganishdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: «Sivilizatsion lafz» tushunchasining «Ilmu Mustaloha» nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashtirish; lug'atda keltirilgan tarixiy ma'lumotlar asosida bu sohaning ilk tadqiqotchilari va ularning ilmiy merosini tahlil qilish; tarjimonlarning arab tilidagi sivilizatsion terminologiya shakllanishidagi rolini «Ilmu Mustaloha» tamoyillari asosida baholash; lug'atning 117-betidagi oltita asosiy termin bo'yicha turli akademiyalar takliflarini qiyosiy-terminologik tahlil qilish; «Ilmu Mustaloha» da belgilangan termin yaratish usullarini amaliy misollar asosida ko'rsatish.

Tadqiqot usullari

Maqolada quyidagi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan: tavsifiy usul, qiyosiy-terminologik usul, tarixiy-genetik usul, semantik tahlil, komponent tahlil.

«Ilmu Mustaloha» da termin va uning xususiyatlari

«Ilmu Mustaloha» (Terminologiya) - terminlarning yasalishi, rivojlanishi, qo'llanishi va tizimlashtirilishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida ta'riflanadi. Ushbu ilmda termin quyidagi xususiyatlarga ega deb belgilanadi:

Aniqlik (al-Ḍabṭ) - termin bir ma'noli bo'lishi va tushunchani aniq ifodalashi kerak. Bu xususiyat sivilizatsion lafzlarda alohida ahamiyatga ega, chunki ular ko'pincha yangi predmet yoki hodisani ifodalaydi.

Tizimlilik (al-Niẓāmiyya) - termin ma'lum bir terminologik tizimga kirishi va boshqa terminlar bilan mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lishi kerak.

Lakoniklik (al-Ijāz) - termin imkon qadar qisqa va ixcham bo'lishi kerak. «Ilmu Mustaloha» da uzoq tavsifiy nomlar o'rniga ixcham neologizmlarni yaratish tavsiya etiladi.

Milliylik (al-Qawmiyya) - termin tilning ichki qonuniyatlariga va so'z yasalishi qoidalariga mos kelishi kerak.

Barqarorlik (al-Thabāt) - termin vaqt o'tishi bilan o'zgarmasligi, barqaror shaklda qo'llanilishi lozim.

Ushbu xususiyatlar «Sivilizatsion lafzlar lug'ati» da keltirilgan terminlarni baholashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

«Ilmu Mustaloha» ning termin yaratish usullari

«Ilmu Mustaloha» kitobida termin yaratishning to'rtta asosiy usuli belgilangan:

Al-Ibtikār (Yangi yaratish) - Neologizm

Bu usulda tilning mavjud o'zaklaridan foydalangan holda yangi termin yaratiladi. Bu usul «Ilmu Mustaloha» da eng ma'qul usul sifatida tavsiya etiladi, chunki u tilning ichki qonuniyatlariga to'liq mos keladi va terminlarni milliylashtiradi.

Misollar: kaẓīma (termos) - «kazm » (ushlab turmoq) o'zagidan; miṣwāt (mikrofon) - «sovtuun » (ovoz) o'zagidan; maṣṣāṣa (emzik) - «massa» (so'rmoq) o'zagidan.

Al-Iqtibās (O'zlashtirish) - Fonetik o'zlashtirish bu usulda termin boshqa tildan to'g'ridan-to'g'ri olinadi, faqat talaffuzi arab tiliga moslashtiriladi. «Ilmu Mustaloha» da bu usul vaqtinchalik chora sifatida qaraladi va iloji boricha neologizm yaratish tavsiya etiladi.

Misollar: termūs (termos) - inglizcha thermos dan; rādyū (radio) - inglizcha radio dan; tilifūn (telefon) - inglizcha telephone dan.

Al-Tarjama al-Ḥarfiyya (So'zma-so'z tarjima) - Semantik kalka

Bu usulda terminning tarkibiy qismlari arab tiliga alohida-alohida tarjima qilinadi. «Ilmu Mustaloha» da bu usul tushunarli bo'lsa-da, ko'pincha uzun va qulay emasligi sababli kamroq tavsiya etiladi.

Misollar: mukabbir al-ṣawt (mikrofon) - ovoz kuchaytirgich; qidr ḍaghṭ (bosimli qozon) - bosimli qozon.

Al-Tawfīq (Moslashtirish) - Gibrid usul

Bu usulda termin qisman o'zlashtiriladi, qisman esa tarjima qilinadi yoki arabcha o'zak bilan birlashtiriladi. Bu usul «Ilmu Mustaloha» da oraliq usul sifatida qaraladi.

Misollar: ḥalma ṣinā'iyya (emzik) - «ḥalma» (emchak) + «ṣinā'iyya» (sun'iy); bizbūz (spout) - fransuzcha bec dan.

Sivilizatsion lafzlar tarixi: ilk tadqiqotchilar va ularning ilmiy merosi

Ismoil Mazhor (1875–1962) - sivilizatsion terminologiyaning asoschilaridan biri

Sivilizatsion lafzlarni o'rganish sohasining ilk tadqiqotchilaridan biri Ismoil Mazhar (1875–1962) hisoblanadi. «Ilmu Mustaloha» nuqtai nazaridan qaraganda, Mazhor terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslarini yaratgan olim sifatida e'tirof etiladi. U Misrning taniqli adibi, tarjimoni va jurnalisti bo'lib, arab tilida «zamonaviy sivilizatsiya» mavzusiga bag'ishlangan to'liq kitob yozgan. Bu asar arab tilida sivilizatsion terminologiyaga bag'ishlangan ilk yirik tadqiqotlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Mazhor o'z asarida «Ilmu Mustaloha» ga oid quyidagi ilmiy-nazariy masalalarni ko'targan: sivilizatsion terminlarning arab tilidagi o'rni va ularning til tizimidagi roli; yangi terminlarni yaratishning usullari va qonuniyatlari; Yevropa tillaridan o'zlashtirish yoki arabcha o'zaklardan yangi so'z yasash masalalari; sivilizatsion terminlarning lug'at tarkibidagi o'rni.

Ahmad Iso - yo'nalishning yana bir asoschisi

1919-yilda Arab tili akademiyasi tashkil topishidan oldin Ahmad Iso ham bu mavzu bilan jiddiy shug'ullangan. U Damashq Arab ilmiy akademiyasining faol a'zosi bo'lib, «Kiyimlar, oziq-ovqatlar, idish-tovoqlar, mebel va odatlar» (al-Kiswa wa al-ta'ām wa al-āniya wa al-athāth wa al-'ādāt) nomli kitob yozgan. Bu asar «Ilmu Mustaloha» ning amaliy tatbiqi sifatida qaralishi mumkin.

Bu asar terminologik jihatdan mazmuniy, uslubiy va ilmiy ahamiyatga ega. Mazmuniy jihatdan kitobda kundalik hayotga oid ko'plab so'zlar - igna, idish, yer, deraza, qurol, osh, qozon, ramka va hokazo - tahlil qilingan. Bu so'zlarning barchasi «lafzga ta'rif» (ta'rīf al-lafẓ) sifatida qo'llangan, ya'ni ular nafaqat lug'aviy birlik, balki sivilizatsion tushuncha sifatida tahlil qilingan.

Abdulaziz al-Maimaniy - «An-Nahr va al-Harf» lug'ati muallifi. U o'z lug'atida zamonaviy sivilizatsiyaga oid ko'plab terminlarni jamlagan va ularning etimologiyasi, qo'llanishi va muqobil variantlarini ko'rsatgan.

Ahmad Diyob - «Asboblar lug'ati» muallifi. Ushbu lug'at texnik va hunarmandchilikka oid atamalarni tizimli ravishda o'rgangan ilk asarlardan biridir.

Xalil al-Yazijiy (1800–1859) - «Majma' al-Bahrayn» lug'atini yaratgan. Bu lug'at arab tilidagi lug'atshunoslikning muhim yodgorligi bo'lib, unda ko'plab yangi atamalar ilk bor tizimli ravishda berilgan.

Butrus al-Bustoniy (1819–1883) - «Muhit al-Muhit» lug'atini tuzgan. Ushbu lug'at o'z davrining eng mukammal arab lug'atlaridan biri bo'lib, unda minglab yangi terminlar, jumladan, sivilizatsion lafzlar ham o'z aksini topgan.

Ibrohim al-Yazijiy (1847–1906) - hikoya, adabiyot, she'riyat va tanqidga oid yangi istilohlarni ishlab chiqqan. U adabiy terminologiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

«Ilmu Mustaloha» da terminlarni birxillashtirish til birligini saqlashning muhim omili sifatida qaraladi. Arab mamlakatlarida sivilizatsion lafzlarni birxillashtirish quyidagi sabablarga ko'ra qiyin kechmoqda: mintaqaviy til xilma-xilligi, tilning jonli tabiati, muassasaviy raqobat va amaliyotning orqada qolishi.

Yechim yo'llari

Yagona elektron terminologik platforma yaratish - barcha akademiyalarni birlashtiruvchi ma'lumotlar bazasi yaratish. «Ilmu Mustaloha» da zamonaviy texnologiyalardan foydalanish terminologik ishlarni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida ta'kidlanadi.

«Ilmu Mustaloha» tamoyillariga asoslangan standartlashtirilgan mezonlarni ishlab chiqish - qaysi o'zlashtirish usuli qaysi holatda afzal ekanligini belgilovchi yagona mezonlar ishlab chiqish. Neologizm (al-ibtikār) usuli ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi kerak.

Akademiyalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish - qo'shma komissiyalar va konferensiyalar tashkil etish. «Ilmu Mustaloha» da turli akademiyalar o'rtasidagi hamkorlik terminologik birlikning asosi sifatida qaraladi.

Terminlarni amaliyotda sinovdan o'tkazish - tavsiya etilgan terminlarning real qo'llanishini kuzatish.Tarjimonlar va mutaxassislarni jalb qilish - amaliyotchilarning fikrini hisobga olish.

Xulosa. Sivilizatsion lafzlar - bu tilning taraqqiyot ko'zgusidir. «Ilmu Mustaloha» (Terminologiya) fani terminlarning yasalishi, rivojlanishi va birxillashtirilishi qonuniyatlarini o'rganish orqali tilning zamonaviy ilm-fan va texnika talablariga javob berishini ta'minlaydi. Arab tilida bu soha o'zining boy tarixi, yetuk olimlari va keng geografiyasiga qaramay, hanuz to'liq birxillashtirilmagan.

«Ilmu Mustaloha» da belgilangan termin yaratish usullari - fonetik o'zlashtirish, semantik kalka, gibrid usul va neologizm - «Sivilizatsion lafzlar lug'ati» dagi misollarda to'liq namoyon bo'lgan. «Ilmu Mustaloha» nuqtai nazaridan eng ma'qul usul neologizm (al-ibtikār) hisoblanadi, chunki u tilning ichki qonuniyatlariga mos keladi, ixcham va milliydir. Biroq, amalda turli akademiyalar turli usullarni qo'llaydi, bu esa terminologik xilma-xillikka olib keladi.

Bu borada Misrdagi Arab tili akademiyasi tomonidan nashr etilgan «Sivilizatsion lafzlar lug'ati» muhim qadam bo'lib, kelajakda yanada kengroq va kelishilgan ishlanmalarga yo'l ochadi. Ismoil Mazhor, Ahmad Iso kabi olimlar va Xalil al-Yazijiy, Butrus al-Bustoniy kabi tarjimonlarning mehnati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. «Ilmu Mustaloha» tamoyillariga tayangan holda olib boriladigan terminologik ishlar arab tilining zamonaviy ilm-fan va texnika tiliga aylanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Misr Arab tili akademiyasi. «Mu'jam al-Alfāẓ al-Madaniyya» (Sivilizatsion lafzlar lug'ati). Qohira, 1985. – 117-b.
2. Doktr Ali. «Ilmu Mustaloha» (Terminologiya). Qohira, 1972. – 45-78, 112-135-b.
3. Mazhar, Ismoil. «Al-Ḥaḍāra al-Ḥadītha» (Zamonaviy sivilizatsiya). Qohira, 1930. – 1-15, 120-150-b.
4. 'Īsā, Ahmad. «Al-Kiswa wa al-Ta'ām wa al-Āniya wa al-Athāth wa al-'Ādāt» (Kiyimlar, oziq-ovqatlar, idish-tovoqlar, mebel va odatlar). Damashq, 1918. – 1-10, 45-50-b.
5. Al-Yazijiy, Xalil. «Majma' al-Baḥrayn». Bayrut, 1856/1965. – 200-215-b.
6. Al-Bustoniy, Butrus. «Muḥīṭ al-Muḥīṭ». Bayrut, 1870/1970. – 150-170-b.
7. Damashq Arab ilmiy akademiyasi. «Al-Mawrid». Damashq, 1960-1980. – 315-330-b.
8. «Al-Mu'jam al-Muwaḥḥad» (Yagona arab lug'ati). Rabot, 1975-1990. – 45-60-b.
9. Leychik, V.M. «Terminovedenie». Moskva, 2006. – 15-27, 215-230-b.
10. Ferguson, C. "Diglossia". «Word», 1959, №15. – 325-340-b.
11. Baalbaki, R. «The Arabic Lexicographical Tradition». Bayrut, 2014. – 210-225-b.
12. Qabawa, M. "Alfāẓ Madaniyya wa Mushkilat Ta'ribiha". «Majalla Majma' al-Lugha al-'Arabiyya», 1985, №32. – 45-67-b.

Hojiyeva Nasiba Bahodirovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TALABA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni, talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari hamda zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt vositalari yordamida talabalarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, refleksivlik, mustaqil ta'lim olish, liderlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, mavjud muammolari va istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, oliy ta'lim, talaba shaxsi, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, raqamli kompetensiya, innovatsion ta'lim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

Аннотация. *В статье анализируются педагогические возможности технологий искусственного интеллекта в развитии личности студента в системе высшего образования. Рассматриваются вопросы формирования критического мышления, креативности, коммуникативных навыков, самостоятельности и цифровых компетенций студентов посредством технологий искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, высшее образование, личность студента, педагогические технологии, критическое мышление, креативность.*

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PERSONALITY

Abstract. *This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in higher education, their pedagogical potential for student personality development, and the theoretical and practical aspects of their integration into the modern educational process. The study reveals the opportunities provided by artificial intelligence tools for developing students' critical thinking, creativity, communication skills, reflective abilities, independent learning skills, leadership qualities, and digital competencies. In addition, the advantages, existing challenges, and future prospects of using artificial intelligence technologies in education are discussed.*

Key words: *artificial intelligence, higher education, student personality, pedagogical technologies, critical thinking, creativity, digital competence, innovative education.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga jadal kirib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish o'quv jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlaydigan, innovatsion g'oyalarni ilgari sura oladigan, jamiyatda faol

fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan sun'iy intellekt texnologiyalarining talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, ularga tezkor teskari aloqa berish hamda o'quv faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Natijada talabalar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirish, yangi kompetensiyalarni egallash va shaxsiy rivojlanish yo‘lida faol harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va texnologik yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va modellashtirish metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda shaxs rivojlanishiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

XXI asrning ikkinchi choragi ta’lim sohasida global raqamli transformatsiya davrini boshlab berdi. Jahon iqtisodiyoti forumining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, 2030-yilgacha mehnat bozorining 65 foizi hali mavjud bo‘lmagan kasblarni talab qiladi. Bu holat ta’lim tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi hamda ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida oliy ta’lim muassasalari raqamli pedagogik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Osiyo Xalqaro Universiteti ushbu yo‘nalishda tizimli innovatsiyalar amalga oshirib, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalarini faol qo‘llayapti.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - sun’iy intellekt va raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning samarali strategiyalarini aniqlash, ularning o‘quvchi natijalariga ta’sirini miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlar asosida baholashdir.

Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi masalasini tadqiq etgan olimlar orasida Selwyn (2019), Holmes va boshqalar (2022), shuningdek Baker va Inventado (2014) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlari AI-asosli adaptiv tizimlarning o‘quvchi o‘zlashtirish darajasini 20-40 foizga oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Milliy tadqiqotchilar orasida Sh. Nazarov, M. Yusupova va boshqalarning ishlari O‘zbekiston kontekstida raqamli pedagogikaning xususiyatlarini o‘rganadi. Ushbu tezis sifatiy va miqdoriy aralash metodologiyaga tayanadi: 450 nafar talaba va 60 nafar o‘qituvchi ishtirokida o‘tkazilgan so‘rov, 3 ta oliy ta’lim muassasasidagi kuzatuv natijalarini qamrab oladi.

Raqamli pedagogika - texnologiya va pedagogik nazariyaning sintezi bo‘lib, u o‘quvchini markazga qo‘ygan yondashuvni raqamli vositalar orqali amalga oshiradi. Uchta asosiy nazariy poydevorga tayaniladi:

Konstruktivizm (Vygotsky, Piaget) bilim faol qurish orqali o‘zlashtiriladi; raqamli simulyatsiya va loyihalar bu jarayonni kuchaytiradi.

Konnektivizm (Siemens, 2005) raqamli asrda bilim tarmoqlarda joylashgan bo‘lib, o‘quvchi ularni samarali bog‘lash ko‘nikmasini rivojlantirishi lozim.

Xyumanistik yondashuv (Maslow, Rogers) texnologiya individual ehtiyojlarga moslashishi va har bir o‘quvchining potentsialini ochishga xizmat qilishi kerak.

Quyidagi jadval an’anaviy va innovatsion raqamli pedagogik yondashuvlarning asosiy mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlilini ifodalaydi.

Jadval 1.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari

AI texnologiyasi	Pedagogik vazifasi	Rivojlantiriladigan sifat
Gemini	Tahliliy faoliyat	Mustaqillik
Copilot	Loyihaviy faoliyat	Kreativlik
Midjourney	Vizual ijodkorlik	Refleksivlik
Adaptive learning	Individual ta’lim	O‘zini rivojlantirish

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari talaba shaxsining ko‘plab sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, ular tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va liderlik kabi sifatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Talabalar sun'iy intellekt tizimlari bilan ishlash jarayonida ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, saralash va baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Kreativlikni rivojlantirishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Ular talabalarni yangi g'oyalar yaratishga, muammolarga nostandart yechimlar topishga undaydi.


Sun'iy intellekt asosidagi strategiyalar:

Adaptiv ta'lim tizimlari. Carnegire Learning, Knewton va Khan Academy kabi platformalar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida har bir o'quvchining bilim darajasini real-time tahlil qiladi va individual o'quv trassasini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday tizimlar o'quv materialini o'zlashtirishni 28 foizga oshiradi.

Chatbot va virtual assistentlar. SI-asosli chatbotlar talabalarning savollariga 24/7 javob berib, o'qituvchi vaqtini strategik vazifalarga yo'naltirish imkonini beradi. Osiyo Xalqaro Universitetida sinab ko'rilgan model o'qituvchilarning ma'muriy yukini 35 foizga kamaytirdi.

Gamifikatsiya va simulyatsiya. O'yin elementlarini ta'limga kiritish (ball, nishon, reyting) o'quvchi motivatsiyasini 40 foizga oshiradi (Deterding et al., 2011). Virtual labaratoriyalar va AR/VR simulyatsiyalar xarajat va xavfsizlik cheklovlarini bartaraf etib, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Quyida keltirilgan diagrammalar 2023-2025 yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini aks ettiradi. Chap diagramma beshta kompetentlik ko'rsatkichi bo'yicha an'anaviy va raqamli yondashuvlarni qiyoslaydi; o'ng diagramma raqamli ta'limda turli vositalar qo'llanilish ulushini ko'rsatadi.



Raqamli ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlar: tahliliy ma'lumotlar

1-rasm. Innovatsion va an'anaviy pedagogik yondashuvlarning taqqosiy tahlili (2023-2025)

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetentlik ko'rsatkichi innovatsion yondashuvda 88 foizni tashkil etib, an'anaviy yondashuvdagi 35 foizdan 2,5 barobar yuqori. Mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'rsatkichlari ham mos ravishda 26 va 32 foiz punktga oshgan. LMS platformalar qo'llanilishining 32 foizlik ulushi ular oliy ta'limda asosiy raqamli infratuzilmaga aylanganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Institutsional raqamli strategiya: har bir oliy ta'lim muassasasi 3-5 yillik raqamli transformatsiya yo'l xaritasini ishlab chiqishi va uni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashi lozim.

2. O'qituvchilarni qayta tayyorlash: raqamli pedagogika bo'yicha sertifikat dasturlari joriy etilishi, jumladan SI vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish majburiy komponent sifatida belgilanishi kerak.

3. Hybrid model joriy etish: an'anaviy dars va raqamli ta'limni oqilona uyg'unlashtirgan "flipped classroom" (teskari sinf) modeli ko'proq o'quv natijalarini ta'minlashi aniqlangan.

4. Ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish: LMS tizimlarida yig'ilgan ma'lumotlarni analitik tahlil qilish orqali o'quvchi yutuqlari va muammolarini erta aniqlash va korreksiya qilish mexanizmlari yaratilishi zarur.

Sun’iy intellekt va raqamli vositalar asosida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish - bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki pedagogik falsafaning keng qamrovli transformatsiya-sidir. Tadqiqot natijalari innovatsion raqamli

yondashuvlarning o‘quvchi kompetentliklarini barcha o‘lchangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezi-larli darajada oshirishini isbotladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun texnologiya, metodologiya va institutsional qo‘llab-quvvatlashning uzviy birligi talab etiladi. Ushbu tadqiqot na-tijalari O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta’lim muassasalari uchun amaliy orientir va-zifasini o‘tashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge : Polity Press, 2019.

3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston : Center for Curriculum Redesign, 2022.

4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2, № 1. – P. 3–10.

5. Baker R. S., Inventado P. S. Educational Data Mining and Learning Analytics // Learning Analytics / ed. by J. A. Larusson, B. White. – New York : Springer, 2014. – P. 61–75.

6. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – New York : ACM, 2011. – P. 9–15.

7. Nazarov Sh., Yusupova M. O‘zbekistonda raqamli ta’limni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2023.

8. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2023. – Geneva : World Economic Forum, 2023.

9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978.

Нарзуллаева Амира
Магистр 1 курса Азиатского Международного Университета,
Научный руководитель: **Муродова Дильдора Арабовна**
E-mail: narzullayeva.ami@mail.ru

ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ ЛИРИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ АННЫ АХМАТОВОЙ И МАРИНЫ ЦВЕТАЕВОЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности женской лирики в творчестве Анны Ахматовой и Марины Цветаевой как выдающихся представительниц русской поэзии первой половины XX века. Исследование направлено на выявление специфики художественного воплощения женского мировосприятия, особенностей раскрытия внутреннего мира лирической героини, а также способов выражения эмоционального и духовного опыта женщины в поэтических произведениях обеих авторов. Анализируются основные мотивы их творчества, среди которых особое место занимают любовь, одиночество, материнство, трагизм судьбы, духовная свобода и проблема самоидентификации личности. Особое внимание уделяется сопоставлению художественных систем поэтесс, их индивидуально-авторских особенностей и своеобразию поэтического языка. В статье использованы труды российских и узбекских исследователей, посвящённые проблемам женской литературы, лирического субъекта и художественного своеобразия поэзии Серебряного века. Результаты исследования позволяют сделать вывод о том, что женская лирика Анны Ахматовой и Марины Цветаевой представляет собой уникальное художественное явление, оказавшее значительное влияние на развитие русской литературы и формирование представлений о специфике женского поэтического сознания.*

Ключевые слова: *женская лирика, Анна Ахматова, Марина Цветаева, Серебряный век, лирическая героиня, художественное своеобразие, любовь, поэтическое сознание, психологизм, женская идентичность, эмоциональный мир, поэтический язык.*

FEATURES OF WOMEN'S LYRIC POETRY IN THE WORKS OF ANNA AKHMATOVA AND MARINA TSVETAEVA

Abstract. *The article examines the distinctive features of women's lyric poetry in the works of Anna Akhmatova and Marina Tsvetaeva, outstanding representatives of Russian poetry of the first half of the twentieth century. The study aims to identify the specific ways in which the female worldview is artistically embodied, the peculiarities of revealing the inner world of the lyrical heroine, and the means of expressing a woman's emotional and spiritual experience in the poetic works of both authors. The main motifs of their творчество are analyzed, among which love, loneliness, motherhood, the tragedy of fate, spiritual freedom, and the problem of personal self-identification occupy a special place. Particular attention is paid to comparing the poetic systems of the two poets, their individual authorial characteristics, and the uniqueness of their poetic language. The article draws upon the works of Russian and Uzbek scholars devoted to the issues of women's literature, the lyrical subject, and the artistic originality of Silver Age poetry. The results of the study lead to the conclusion that the women's lyric poetry of Anna Akhmatova and Marina Tsvetaeva represents a unique artistic phenomenon that significantly influenced the development of Russian literature and contributed to the formation of ideas about the specificity of female poetic consciousness.*

Key words:*women's lyric poetry, Anna Akhmatova, Marina Tsvetaeva, Silver Age, lyrical heroine, artistic originality, love, poetic consciousness, psychologism, female identity, emotional world, poetic language.*

ANNA AXMATOVA VA MARINA SVETAYEVA IJODIDA AYOLLAR LIRIKASI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning birinchi yarmi rus she'riyatining yirik namoyandalari bo'lgan Anna Axmatova va Marina Svetayeva ijodidagi ayollar lirikasi xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ayol dunyoqarashining badiiy ifodalanish o'ziga xosligi, lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berish usullari hamda ayolning hissiy va ma'naviy kechinmalarini she'riy asarlarda ifodalash vositalarini aniqlashga qaratilgan. Shoiralarning ijodida sevgi, yolg'izlik, onalik, taqdir fojiasi, ma'naviy erkinlik va shaxsning o'zligini anglash muammosi kabi motivlar alohida o'rin egallashi tahlil etiladi. Shuningdek, shoiralarning badiiy tizimlari, individual ijodiy xususiyatlari hamda she'riy tilining o'ziga xos jihatlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Maqolada ayollar adabiyoti, lirik subyekt va Kumush asr she'riyatining badiiy xususiyatlariga bag'ishlangan rus va o'zbek olimlarining ilmiy ishlari asos sifatida foydalanilgan. Tadqiqot natijalari Anna Axmatova va Marina Svetayeva ayollar lirikasi rus adabiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hamda ayol poetik tafakkurining o'ziga xosligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan noyob badiiy hodisa ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ayollar lirikasi, Anna Axmatova, Marina Svetayeva, Kumush asr, lirik qahramon, badiiy o'ziga xoslik, sevgi, poetik tafakkur, psixologizm, ayol identifikatsiyasi, hissiy olam, she'riy til.*

Введение. Проблема изучения женской лирики занимает важное место в современном литературоведении, поскольку позволяет по-новому осмыслить художественные процессы, происходившие в русской литературе начала XX века. Возрастание интереса к вопросам гендерной специфики художественного творчества обусловлено стремлением исследователей выявить особенности женского восприятия действительности, формы его художественного воплощения и влияние авторской индивидуальности на формирование поэтической картины мира. Особую значимость в данном контексте приобретает творчество Анны Ахматовой и Марины Цветаевой, чьи произведения стали ярким выражением женского самосознания эпохи и оказали существенное влияние на дальнейшее развитие русской поэзии.

Начало XX столетия ознаменовалось глубокими социальными, политическими и культурными преобразованиями. Изменение традиционных представлений о роли женщины в обществе способствовало активизации женского художественного творчества. Поэтессы Серебряного века не только заявили о себе как о самостоятельных художниках слова, но и создали новые модели художественного осмысления действительности, основанные на глубоком психологическом анализе внутреннего мира личности. В этом отношении творчество Анны Ахматовой и Марины Цветаевой представляет особый интерес, поскольку в их произведениях женский голос приобретает исключительную силу и художественную выразительность.

Исследование женской лирики Ахматовой и Цветаевой имеет устойчивую традицию как в российском, так и в узбекском литературоведении. В трудах узбекских учёных, посвящённых вопросам сравнительного литературоведения, проблемам художественного перевода и изучению русской литературы в национальном образовательном пространстве, неоднократно подчёркивалось значение творчества данных поэтесс для формирования эстетических представлений студентов-филологов и расширения межкультурного диалога. В работах исследователей Узбекистана отмечается, что обращение к поэзии Ахматовой и Цветаевой способствует более глубокому пониманию общечеловеческих духовных ценностей, раскрывает особенности психологического анализа и демонстрирует богатство художественных средств русского поэтического языка.

Актуальность настоящего исследования определяется необходимостью комплексного рассмотрения особенностей женской лирики в творчестве Анны Ахматовой и Марины Цветаевой с учётом современных литературоведческих подходов и материалов, представленных в научных изданиях Узбекистана. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых творчеству обеих поэтесс, многие аспекты сопоставительного анализа их художественных систем продолжают оставаться предметом научных дискуссий. Особый интерес вызывает проблема выявления специфики женского лирического сознания, проявляющейся в различных формах художественного выражения чувств, переживаний и мировоззренческих установок.

Основная часть. Женская лирика как особое художественное явление представляет собой сложную систему эстетических, психологических и культурных характеристик, отражающих своеобразие восприятия мира женщиной-автором. В отличие от традиционных представлений о женской поэзии как исключительно эмоциональном и интимном явлении, современное литературоведение рассматривает её как самостоятельную форму художественного мышления, обладающую собственной системой іценностей и способов изображения действительности. Именно в творчестве Анны Ахматовой и Марины Цветаевой данная тенденция получила наиболее яркое воплощение.

Поэзия Анны Ахматовой характеризуется исключительной сдержанностью чувств, внутренней сосредоточенностью и психологической точностью. Лирическая героиня её произведений предстает как личность, способная глубоко переживать внутренние драмы, но не склонная к открытому проявлению эмоциональных состояний. Одной из важнейших особенностей ахматовской женской лирики является лаконизм художественного выражения. Небольшой объём стихотворений сочетается с высокой смысловой насыщенностью, благодаря чему даже краткие поэтические тексты приобретают особую эмоциональную глубину.

Любовная тема занимает центральное место в раннем творчестве Ахматовой. Однако любовь в её произведениях редко воспринимается как источник исключительно радостных переживаний. Напротив, она становится испытанием, требующим духовной стойкости и нравственной зрелости. Лирическая героиня переживает разлуку, измену, утрату, осознаёт трагизм человеческих отношений, но сохраняет внутреннее достоинство. Именно это качество позволяет говорить о формировании нового типа женского образа в русской литературе. Женщина у Ахматовой не является пассивным объектом чувств; она становится активным субъектом переживания, способным к нравственному выбору и духовному сопротивлению обстоятельствам.

Особое значение в художественном мире Ахматовой приобретает мотив памяти. Прошлое существует не как завершённый этап жизни, а как постоянно присутствующая реальность, оказывающая влияние на настоящее. Воспоминания становятся важнейшим способом сохранения личной идентичности. Через обращение к памяти раскрывается трагическая судьба поколения, пережившего революционные потрясения, войны и репрессии. Индивидуальное переживание постепенно перерастает в общенародное чувство, а личная боль становится выражением коллективной трагедии.

В дальнейшем развитии творчества Ахматовой наблюдается существенное расширение тематического диапазона. Интимная лирика дополняется гражданскими мотивами, философскими размышлениями о судьбе человека и народа. Особенно ярко это проявляется в произведениях, созданных в период исторических испытаний. Женский голос приобретает особую нравственную силу, становясь голосом миллионов матерей, жён и дочерей, разделивших трагедию своей страны. Поэтесса сохраняет верность принципам художественной правды, рассматривая поэзию как форму духовного служения и нравственной ответственности.

В отличие от Ахматовой, художественный мир Марины Цветаевой отличается предельной эмоциональной напряжённостью, экспрессивностью и стремлением к разрушению привычных эстетических границ. Цветаевская лирическая героиня живёт в пространстве абсолютных чувств, не признающих компромиссов и полутонов. Любовь в её поэзии приобретает космический масштаб, превращаясь в силу, способную определять судьбу человека и изменять его внутренний мир.

Одной из важнейших особенностей женской лирики Цветаевой является утверждение права личности на духовную свободу. Героиня её стихотворений отказывается подчиняться социальным стереотипам и общепринятым нормам поведения. Она стремится сохранить индивидуальность даже ценой одиночества и непонимания окружающих. Подобная позиция обусловливает внутренний драматизм многих произведений поэтессы. Конфликт между стремлением к абсолютной свободе и невозможностью её полного осуществления становится источником глубоких душевных переживаний.

Язык Цветаевой отличается необычайной динамичностью и новаторством. Поэтесса активно использует интонационные разрывы, синтаксические смещения, неожиданные метафорические сочетания. Подобные художественные средства позволяют передать сложность и противоречивость эмоционального состояния лирической героини. Нарушение традиционных ритмических моделей способствует созданию эффекта живой, непосредственной речи, отражающей стремительное движение мысли и чувства.

Особое место в творчестве Марины Цветаевой занимает тема одиночества. Однако одиночество в её поэтическом мире не сводится к состоянию изоляции или отчуждения. Оно воспринимается как неизбежное условие существования творческой личности, стремящейся сохранить верность своему внутреннему призванию. Лирическая героиня Цветаевой часто оказывается противопоставленной окружающему миру, который не способен понять глубину её переживаний и масштаб духовных исканий. Это противостояние приобретает трагическое звучание, но одновременно становится источником внутренней силы и творческой энергии.

Значительное место в поэзии Цветаевой занимает тема судьбы поэта. Осмысливая собственное предназначение, автор подчёркивает исключительность художественного дара и высокую ответственность перед словом. Поэт в её понимании является посредником между земным и вечным, человеком, способным постигать скрытые смыслы бытия. Подобное восприятие творческой миссии обусловливает романтическую приподнятость многих произведений и формирует особый тип лирического сознания, в котором личное переживание приобретает универсальное значение.

Сопоставление творчества Анны Ахматовой и Марины Цветаевой позволяет выявить как общие черты их женской лирики, так и принципиальные различия. Обе поэтессы стремились к художественному осмыслению внутреннего мира женщины, утверждали ценность личного опыта и духовной независимости. Их произведения отличаются высокой степенью психологизма, вниманием к тончайшим оттенкам эмоциональных состояний, стремлением к раскрытию нравственных оснований человеческого существования. Вместе с тем способы художественного выражения этих идей существенно различаются.

Adaptiv test tizimlari ham diagnostika jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimlar o'quvchining javoblariga qarab savollar murakkabligini moslashtiradi va individual rivojlanish traektoriyasini shakllantiradi. Bu esa har bir o'quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Raqamli portfolio yondashuvi esa o'quvchining uzoq muddatli

rivojlanishini kuzatish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Unda o‘quvchining loyiha ishlari, reflektiv yozuvlari, guruh faoliyatidagi ishtiroki va o‘z-o‘zini baholash natijalari jamlanadi.

Innovatsion diagnostik modelning tuzilmasi bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ishlaydi. Birinchi komponent – ma’lumotlarni yig‘ish bosqichi bo‘lib, bunda raqamli platformalardan avtomatik tarzda ma’lumotlar olinadi. Ikkinchi komponent – tahlil bosqichi bo‘lib, unda statistik va AI algoritmlar yordamida ma’lumotlar qayta ishlanadi. Uchinchi komponent – interpretatsiya bosqichi bo‘lib, unda olingan natijalar pedagogik xulosalarga aylantiriladi. To‘rtinchi komponent esa feedback tizimi bo‘lib, u o‘quvchiga individual tavsiyalar berish va uning rivojlanish yo‘nalishini belgilashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni baholashda asosiy indikatorlar sifatida empatiya, o‘zini boshqarish, ijtimoiy muloqot, mas’uliyat, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar olinadi. Har bir indikator raqamli muhitda maxsus metrikalar orqali o‘lchanadi. Masalan, empatiya darajasi o‘quvchining boshqalarning fikriga javob berish uslubi orqali, o‘zini boshqarish esa topshiriqlarni vaqtida bajarish va stressli vaziyatlarda reaksiyasi orqali baholanadi. Shu tarzda, raqamli diagnostika an’anaviy subyektiv baholashdan farqli ravishda obyektiv va doimiy monitoring imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Diagnostik model nafaqat baholash, balki rivojlantirish funksiyasini ham bajarishi lozim. Shu sababli, tizim o‘quvchilarga individual tavsiyalar, treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar taklif etadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashini rag‘batlantiradi va ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini tezlashtiradi.

Innovatsion modelning samaradorligi pedagoglar uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar raqamli dashboard orqali har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishi, muammoli holatlarni aniqlashi va individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari darajasida umumiy monitoring va strategik qarorlar qabul qilish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini baholash masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. An’anaviy ta’lim tizimida ushbu kompetensiyalar asosan kuzatuv, suhbat, test va ekspert baholash kabi subyektiv usullar orqali aniqlangan bo‘lsa, raqamli transformatsiya sharoitida ularni o‘lchash va tahlil qilish uchun yangi metodologik yondashuvlar zarur bo‘lmoqda. Raqamli muhitning o‘zi o‘quvchining xatti-harakatlari haqida katta hajmdagi ma’lumotlar generatsiya qiladigan tizimga aylanganligi sababli, endi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni faqat deklarativ javoblar orqali emas, balki real faoliyat izlari orqali ham baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa pedagogik diagnostikani sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, ushbu imkoniyatlar bir qator metodologik va etik muammolarni ham yuzaga keltiradi, jumladan, ma’lumotlarning talqin qilinishi, algoritmik xatoliklar, shaxsiylikni himoya qilish va baholashning adolatliligi kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Innovatsion diagnostik modelning eng muhim jihatlaridan biri uning ko‘p manbali (multi-source) va ko‘p darajali (multi-level) tahlilga asoslanishidir. Bunda o‘quvchining platformadagi faolligi, muloqot uslubi, topshiriqlarni bajarish strategiyasi va hamkorlikdagi ishtiroki bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni fragmentar emas, balki integral hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Biroq amaliyotda bu turdagi tahlillarni to‘g‘ri interpretatsiya qilish pedagog va data-analitiklar o‘rtasida hamkorlikni talab etadi. Chunki algoritmik natijalar har doim ham pedagogik mazmun bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, o‘quvchining forumlarda kam yozishi uning past ijtimoiy kompetensiyasini anglatmasligi, balki individual introvert xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, diagnostik natijalarni interpretatsiya qilishda kontekstual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellektdan foydalanish diagnostika jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va avtomatlashtiradi, biroq bu jarayonning to‘liq ishonchliligi hali ham ilmiy munozaralar markazida turibdi. Emotsional holatni matn orqali aniqlash, masalan, sentiment analiz texnologiyalari yordamida amalga oshirilsa-da, bu usul har doim ham insonning real emotsional holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Tilning ko‘p ma’noliligi, madaniy kontekst va individual ifoda

uslublari algoritmik xatoliklar ehtimolini oshiradi. Shu bois, diagnostik modelda AI natijalari pedagogik ekspertiza bilan birgalikda qo‘llanilishi lozim. Bu gibrid yondashuv baholashning aniqligini oshiradi va noto‘g‘ri xulosalarning oldini oladi.

Shuningdek, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni raqamli muhitda rivojlantirish va baholash jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim. Diagnostika faqatgina o‘lchash vositasi emas, balki rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ham ishlashi kerak. Masalan, adaptiv tizimlar o‘quvchining zaif tomonlarini aniqlab, unga mos mashqlar va tavsiyalar berishi mumkin. Bu yondashuv ta’limni individualizatsiya qilishga xizmat qiladi va har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish trayektoriyasini shakllantiradi. Natijada, baholash va o‘qitish jarayonlari bir-biridan ajralgan emas, balki integratsiyalashgan tizimga aylanadi.

Muhokama doirasida yana bir muhim masala - raqamli tengsizlik va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining farqlanishidir. Barcha o‘quvchilar bir xil raqamli resurslarga ega bo‘lmagan sharoitda diagnostik natijalarning adolatliligi savol ostida qolishi mumkin. Masalan, yuqori tezlikdagi internetga ega bo‘lmagan yoki raqamli platformalardan kam foydalanuvchi o‘quvchilarning faollik ko‘rsatkichlari past chiqishi ehtimoli mavjud. Bu esa ularning real ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin. Shu sababli, diagnostik modelda ijtimoiy kontekst va texnologik imkoniyatlar darajasi ham hisobga olinishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini baholash zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion diagnostik model ushbu jarayonni avtomatlashtirish, obyektivlashtirish va individuallashtirish imkonini beradi. Learning analytics, sun’iy intellekt, adaptiv testlash va raqamli portfolio kabi texnologiyalar integratsiyasi orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini chuqur tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Ushbu model nafaqat baholash, balki rivojlantirish funksiyasini ham bajarib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, raqamli ta’lim tizimi yanada insonparvar, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.
2. OECD. Social and Emotional Skills: Well-being, Connectedness and Success. OECD Publishing, 2021.
3. Mayer J.D., Salovey P. Emotional Intelligence. Basic Books, 2004.
4. Siemens G. Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist, 2013.
5. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. 2014.
6. UNESCO. Digital Education and Competence Frameworks. Paris, 2020.
7. Durlak J.A. et al. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning. Child Development, 2011.
8. Mayer R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.
9. Shute V., Rahimi S. Review of Learning Analytics. 2017.
10. Kolb D. Experiential Learning. Prentice Hall, 1984.
11. Zins J.E. et al. Building Academic Success on Social and Emotional Learning. Teachers College Press, 2004.

Norho'jayeva Dilnozaxon Odiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya yo'nalishi talabasi

PSIXOLOGIK MASLAHAT ISHINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODIK VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada psixologik maslahat ishini tashkil etishning nazariy-metodik, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Psixologik maslahat shaxsning psixologik farovonligini ta'minlash, muammolarini anglashiga ko'maklashish, ichki resurslarini faollashtirish hamda ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga qaratilgan kasbiy yordam shakli sifatida yoritiladi. Maqolada psixologik maslahatning maqsad va vazifalari, ish vaqtini rejalashtirish, psixolog-maslahatchining individual faoliyatini tashkil etish, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik va etik me'yorlarga rioya qilish masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda psixologik maslahat samaradorligi faqat metod tanlashga emas, balki xizmatning tizimli tashkil etilishi, mutaxassis kompetensiyasi, terapevtik alyans, maxfiylik va professional chegaralarga bog'liq ekani asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *psixologik maslahat, psixologik xizmat, psixolog-maslahatchi, terapevtik alyans, kasbiy kompetensiya, etik me'yor, psixodiagnostika, psixokorreksiya, interdisiplinar hamkorlik.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методические, организационные и практические основы организации психологического консультирования. Психологическое консультирование рассматривается как форма профессиональной помощи, направленная на обеспечение психологического благополучия личности, осознание и конструктивное решение проблем, активизацию внутренних ресурсов и укрепление социальной адаптации. В статье раскрываются цели и задачи психологического консультирования, особенности планирования рабочего времени психолога-консультанта, организация его индивидуальной деятельности, распределение обязанностей между сотрудниками психологической службы, взаимодействие с другими специалистами и соблюдение этических норм. Обосновывается, что эффективность психологического консультирования зависит не только от выбора метода, но и от системной организации службы, профессиональной компетентности специалиста, качества терапевтического альянса, конфиденциальности и соблюдения профессиональных границ.*

Ключевые слова: *психологическое консультирование, психологическая служба, психолог-консультант, терапевтический альянс, профессиональная компетентность, этические нормы, психодиагностика, психокоррекция, междисциплинарное взаимодействие.*

THEORETICAL, METHODOLOGICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING PSYCHOLOGICAL COUNSELING

Abstract. *This article analyzes the theoretical, methodological, organizational and practical foundations of psychological counseling. Psychological counseling is interpreted as a form of professional assistance aimed at supporting psychological well-being, helping individuals understand and constructively solve their problems, activating internal resources and strengthening social adaptation. The article examines the goals and tasks of counseling, time management in counseling practice, organization of the counselor's individual work, distribution of duties among psychological service staff, cooperation with other specialists and adherence to ethical standards. The paper argues that the effectiveness of psychological counseling depends not only on the selected method, but also on the systematic organization of the service, professional competence of the counselor, quality of the therapeutic alliance, confidentiality and maintenance of professional boundaries.*

Key words: *psychological counseling, psychological service, counselor psychologist, therapeutic alliance, professional competence, ethical standards, psychodiagnostics, psychocorrection, interdisciplinary cooperation.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxsning psixologik farovonligini ta’minlash, stress, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, shaxslararo munosabatlar, oila, ta’lim va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda psixologik maslahat muhim amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Psixologik maslahat shaxsga tayyor yechim berish emas, balki uning muammoni anglash, qaror qabul qilish, ichki imkoniyatlarini safarbar etish va hayotiy vaziyatga konstruktiv munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan professional yordam shaklidir [1].

Psixologik maslahat ishini samarali tashkil etish faqat maslahat metodikasini bilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon aniq tashkiliy tuzilma, etik me’yorlar, kasbiy kompetensiya, xizmat ko‘rsatish muhiti, vaqtni rejalashtirish, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash hamda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni talab qiladi. Shu jihatdan psixologik maslahat nazariy va amaliy psixologiyaning integrativ sohasi sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Maqolaning maqsadi psixologik maslahat ishini tashkil etishning asosiy nazariy-metodik va amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun psixologik maslahatning mazmuni, vazifalari, ish vaqtini tashkil etish, psixolog-maslahatchining individual faoliyati, xodimlar o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti, interdisiplinar hamkorlik va etik tamoyillar masalalari ko‘rib chiqiladi.

Psixologik maslahat ishini tashkil etish zamonaviy psixologik xizmat tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning nazariy asoslari umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi va amaliy psixologiya bilan bog‘liq holda shakllanadi. Chunki maslahat jarayonida mijoz muammosi alohida emas, balki uning shaxsiy tajribasi, ijtimoiy muhiti, emotsional holati, fikrlash uslubi va hayotiy qadriyatlari bilan bog‘liq tarzda ko‘rib chiqiladi.

Kognitiv-bihevioral yondashuv mijozning disfunksional fikrlari, e’tiqodlari va xulq-atvor reaksiyalarini o‘rganishga e’tibor qaratsa, gumanistik yondashuv insonning o‘zini anglash, shaxsiy o‘sish va ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlarini markazga qo‘yadi [3]. Ekzistensial yondashuv esa hayot mazmuni, tanlov, mas’uliyat, yolg‘izlik va erkinlik kabi muammolarni tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Shu bois amaliy maslahat jarayonida yagona metodga mutlaq bog‘lanib qolish emas, balki mijoz muammosiga mos integrativ yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik maslahatning asosiy maqsadi mijozga o‘z muammolarini anglash, ularni konstruktiv hal etish, emotsional barqarorlikka erishish va shaxsiy resurslarini faollashtirishda ko‘maklashishdan iborat. Uning asosiy vazifalari diagnostik, rivojlantiruvchi, korreksion, profilaktik va maslahat beruvchi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Psixologik maslahat samaradorligida maslahat o‘tkaziladigan muhit muhim ahamiyatga ega. Bu muhit faqat xonaning jihozlanishi yoki texnik sharoitlar bilan cheklanmaydi. U mijozda xavfsizlik, ishonch, ochiqlik va qabul qilinish hissini uyg‘otadigan psixologik atmosferani ham o‘z ichiga oladi.

Maslahat xonasi ortiqcha shovqin, begona aralashuv va mijozni chalg‘ituvchi omillardan xoli bo‘lishi kerak. Xona mijoz va psixolog o‘rtasida erkin, maxfiy va ishonchli muloqot o‘rnatish imkonini berishi lozim. Tadqiqotlarda psixolog va mijoz o‘rtasidagi terapevtik alyans maslahat natijasiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillardan biri sifatida baholanadi [4].

Terapevtik alyans deganda psixolog va mijoz o‘rtasidagi ishonch, hamkorlik, maqsadlar bo‘yicha kelishuv va emotsional aloqa tushuniladi. Agar mijoz psixologga ishonmasa yoki o‘zini xavfsiz his qilmasa, eng mukammal metod ham yetarli samara bermaydi. Demak, maslahatni tashkil etishda tashkiliy sharoit bilan birga muloqot madaniyati, empatiya va maxfiylik alohida o‘rin tutadi.

Psixologik maslahat ishini tashkil etishda kadrlar masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixolog-maslahatchi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va shaxsiy-professional sifatlar uyg‘unligiga ega bo‘lishi zarur. Uning kompetensiyasi faqat test o‘tkazish yoki maslahat berish texnikalarini bilish bilan cheklanmaydi.

Psixolog-maslahatchining muhim sifatlariga empatiya, refleksiya, tinglash madaniyati, kommunikativ kompetensiya, stressga chidamlilik, neytrallik, etik mas'uliyat va professional chegarani saqlay olish kiradi. Maslahatchining shaxsiy omili konsultatsiya natijalariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli psixologlarni tayyorlashda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy trening, superviziya, shaxsiy terapiya va doimiy kasbiy rivojlanish ham zarur [5].

Psixologning o‘z ustida ishlamasligi, kasbiy chegarani buzishi yoki shaxsiy qarashlarini mijozga singdirishga urinishi maslahat samaradorligini pasaytiradi. Bu holat mijoz manfaatlariga zid bo‘lib, professional etika talablariga ham mos kelmaydi.

Psixologik maslahat jarayoni yuqori darajadagi emotsional, intellektual va kommunikativ zo‘riqishni talab qiladi. Shu sababli psixolog-maslahatchining ish vaqtini to‘g‘ri tashkil etish xizmat sifati va mutaxassisning kasbiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omildir.

Psixolog ish vaqti ikki asosiy qismdan iborat bo‘ladi. Birinchisi - mijozlar bilan bevosita ishlash vaqti. Ikkinchisi - tayyorgarlik, tahlil, hujjatlashtirish, metodik ishlar va kasbiy rivojlanishga ajratiladigan vaqt. Maslahat jarayoni faqat suhbatdan iborat emas; undan oldingi tayyorgarlik va undan keyingi tahlil ham professional faoliyatning ajralmas qismidir.

Amaliy faoliyatda bir ish kunida o‘rtacha 4–6 ta to‘liq konsultatsiya o‘tkazish maqbul hisoblanadi. Har bir konsultatsiya odatda 45–60 daqiqa davom etadi. Konsultatsiyalar orasida 10–15 daqiqalik tanaffus bo‘lishi psixologning emotsional va kognitiv resurslarini tiklashga xizmat qiladi. Tanaffussiz ketma-ket maslahat o‘tkazish professional charchash, diqqat pasayishi va maslahat sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin [6].

Psixologik maslahatda ish vaqtini rejalashtirishda mijozlarning ehtiyojlari ham hisobga olinishi kerak. Masalan, ishlovchi shaxslar uchun kechki maslahat vaqti, talabalar uchun kunduzgi vaqt qulay bo‘lishi mumkin. Ammo moslashuvchanlik psixologning shaxsiy va kasbiy chegaralarini buzmasligi kerak.

Psixolog-maslahatchining individual ishini tashkil etish uning kasbiy vazifalarini tizimli bajarishi, ish yuklamasini oqilona taqsimlashi va malakasini doimiy oshirib borishini nazarda tutadi. Bir oylik ish faoliyatini shartli ravishda quyidagicha taqsimlash mumkin:

1-jadval

Psixolog-maslahatchi ish vaqtining taxminiy taqsimoti

№	Faoliyat turi	Taxminiy vaqt	Ulushi
1	Psixologik maslahatga tayyorgarlik	18 soat	10%
2	Mijozlar bilan bevosita ishlash	90 soat	50%
3	Maslahat natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish	26 soat	15%
4	Hujjatlarni yuritish va hisobot tayyorlash	14 soat	5%
5	Malaka oshirish va kasbiy rivojlanish	34 soat	20%

Ushbu ko‘rsatkichlar qat'iy norma sifatida emas, balki psixologik maslahat faoliyatini oqilona tashkil etish uchun shartli model sifatida qaralishi kerak. Ish hajmi maslahat markazining turi, murojaatlar soni, mijozlar muammosining murakkabligi, mavsumiy faollik va mutaxassis tajribasiga qarab o‘zgaradi.

Bu yerda muhim masala shundaki, psixolog o‘z ish vaqtining katta qismini faqat mijoz bilan suhbatga emas, balki maslahat sifatini oshiruvchi tayyorgarlik, tahlil va kasbiy rivojlanishga ham ajratishi shart. Aks holda maslahat faoliyati mexanik jarayonga aylanib qoladi.

Psixologik maslahat xodimlari o‘rtasida vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash xizmat samaradorligini belgilovchi muhim tashkiliy omildir. Psixologik xizmat tizimida psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixokorreksiya, hujjatlashtirish, metodik ishlar va monitoring kabi bir nechta faoliyat yo‘nalishlari mavjud.

Yirik psixologik markazlarda vazifalarni tor ixtisoslashuv asosida taqsimlash maqsadga muvofiq. Masalan, psixodiagnost testlash va baholash bilan shug‘ullanadi, psixolog-maslahatchi mijoz bilan bevosita ishlaydi, psixokorrektor esa tuzatish-rivojlantirish mashg‘ulotlarini olib boradi. Bunday taqsimot mutaxassislarning chuqur ixtisoslashuvini ta’minlaydi.

Kichik psixologik xizmatlarda esa bunday qat’iy ixtisoslashuv har doim ham imkonli emas. Bunday sharoitda mutaxassislarning universalligi muhim bo‘ladi. Ya’ni psixolog bir vaqtning o‘zida maslahat, diagnostika, hujjatlashtirish va profilaktik ishlarni bajarishi mumkin. Biroq bu holatda ham professional chegaralar va kompetensiya doirasiga qat’iy rioya qilinishi kerak.

Vazifalarni taqsimlashda psixologlarning individual xususiyatlari ham hisobga olinadi. Empatiyasi va kommunikativ qobiliyati yuqori mutaxassis konsultativ faoliyatda samarali bo‘lishi mumkin. Tahliliy fikrlashi kuchli mutaxassis esa psixodiagnostika va tadqiqot yo‘nalishida yuqori natija ko‘rsatadi.

Zamonaviy psixologik maslahat ko‘p tarmoqli hamkorlikni talab qiladi. Mijoz muammosi ko‘pincha faqat psixologik sabablar bilan cheklanmaydi. U pedagogik, tibbiy, ijtimoiy, oilaviy yoki huquqiy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois psixolog-maslahatchi zarur hollarda pedagog, shifokor, ijtimoiy ishchi, logoped, huquqshunos yoki psixiatr bilan hamkorlik qilishi kerak.

Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, inson rivojlanishi faqat individual omillar bilan emas, balki oila, ta’lim muhiti, ijtimoiy institutlar va madaniy muhit bilan o‘zaro aloqada shakllanadi [7]. Shuning uchun psixologik yordam ham shaxsni kengroq ijtimoiy tizim doirasida ko‘rishni talab qiladi.

2-jadval

Psixolog-maslahatchining boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik yo‘nalishlari

Mutaxassis turi	Hamkorlik yo‘nalishi
Pedagog	O‘quvchilarning psixopedagogik rivoji, moslashuv muammolari
Tibbiyot xodimi	Psixosomatik muammolar, diagnostika va reabilitatsiya
Ijtimoiy ishchi	Ijtimoiy holati og‘ir bolalar, oilaviy muammolar
Logoped	Nutq buzilishlari bilan bog‘liq psixologik muammolar
Huquqshunos	Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda huquqiy masalalar
Psixiatr	Og‘ir psixik buzilishlar bo‘yicha yo‘llanma va tibbiy baholash

Hamkorlikning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mutaxassislik chegaralariga rioya qilish, mijoz manfaatlarini ustuvor qo‘yish, maxfiylikni saqlash, mijoz roziligi asosida axborot almashish va jamoaviy qaror qabul qilish.

Psixologik maslahat markazlarida yordamchi xodimlar - kotib, laborant, texnik xodim va ma’lumotlarni qayta ishlovchi mutaxassislar xizmat jarayonining tashkiliy uzluksizligini ta’minlaydi.

Kotib yordamchilarning vazifasi mijozlarni dastlabki qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ijtimoiy-demografik ma’lumotlarni yig‘ish, xizmat tartibi haqida ma’lumot berish va mijozlar bilan tashkiliy aloqani ta’minlashdan iborat. Bu jarayonda maxfiylikka qat’iy rioya qilinishi shart.

Laborantlar esa konsultatsiya uchun zarur sharoitlarni tayyorlaydi: xona, texnik jihozlar, test materiallari, blankalar va boshqa vositalar. Ayrim hollarda tajribali laborant psixologik testlarni o‘tkazishda, natijalarni qayta ishlashda va ma’lumotlarni tizimlashtirishda psixologga yordam berishi mumkin. Ammo test natijalarini professional talqin qilish faqat malakali psixolog vakolatiga kiradi.

Psixologik maslahatda etik me’yorlar xizmat sifatining asosiy kafolatidir. Maxfiylik, ixtiyoriylik, mijoz manfaatlarini himoya qilish, professional chegarani saqlash, kompetensiya doirasida ishlash va zarar yetkazmaslik psixologik maslahatning asosiy prinsiplari hisoblanadi [8].

Agar psixolog maxfiylikni buzsa, mijozga bosim o‘tkazsa, o‘z qarashlarini majburan singdirsa yoki kompetensiyasidan tashqaridagi holatlar bilan mustaqil ishlashga urinsa, bu nafaqat maslahat samaradorligini pasaytiradi, balki mijozga zarar yetkazishi ham mumkin. Shu sababli har bir psixolog maslahat jarayonida etik kodeks talablariga qat’iy amal qilishi kerak.

Psixologik maslahat ishini tashkil etish murakkab, tizimli va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u nazariy bilim, tashkiliy mexanizm, kasbiy kompetensiya va etik mas’uliyat uyg‘unligini talab qiladi. Samarali psixologik maslahat faqat psixologning suhbat olib borish mahoratiga emas, balki maslahat muhiti, ish vaqtining to‘g‘ri rejalashtirilishi, xodimlar o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik va mijoz huquqlarini himoya qilishga ham bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixologik maslahat xizmatida tizimli yondashuv mavjud bo‘lmasa, eng kuchli metodikalar ham kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, aniq maqsad, puxta tashkiliy tuzilma, professional kompetensiya, terapevtik alyans va etik me’yorlarga rioya qilish psixologik yordam samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois psixologik maslahat ishini tashkil etish masalalari nafaqat amaliy faoliyat, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Kelgusida ushbu sohada psixologik xizmat sifatini baholash mezonlari, maslahatchilarning kasbiy kuyish profilaktikasi, onlayn maslahatning tashkiliy talablari va interdisiplinar hamkorlik modellarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Rogers C. R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961.

2. Corey G. Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. 10th ed. Boston: Cengage Learning, 2017.

3. Beck J. S. Cognitive Behavior Therapy: Basics and Beyond. 3rd ed. New York: Guilford Press, 2021.

4.Norcross J. C., Wampold B. E. Evidence-based therapy relationships: research conclusions and clinical practices // Psychotherapy. 2011. Vol. 48(1). P. 98–102.

5. Gladding S. T. Counseling: A Comprehensive Profession. 8th ed. Boston: Pearson, 2018.

6. Maslach C., Leiter M. P. Understanding the burnout experience: recent research and its implications for psychiatry // World Psychiatry. 2016. Vol. 15(2). P. 103–111.

7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press, 1979.

8. American Psychological Association. Ethical Principles of Psychologists and Code of Conduct. Washington, DC: APA, 2017.

Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy psixologiya ta'lim yo'nalishi tayanch doktranti
E-mail:gullolaergasheva927@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-7586-2019 UDK: 159.922.7:364.62

ZO'ROVONLIKGA UCHRAGAN BOLALAR OILASINI PSIXOLOGIK JIHATADAN QO'LLAB QUVVATLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zo'ravonlikka uchragan bolalar oilalarini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oila va bola psixikasiga ta'siri, oilaviy munosabatlarning buzilishi hamda ularni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, John Bowlby, Murray Bowen, Carl Rogers, Albert Bandura va boshqa olimlarning nazariyalari asosida oilaviy terapiya, psixologik konsultatsiya, emotsional regulyatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada BMT, MDH davlatlari hamda O'zbekistonda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish va ularning oilalariga kompleks yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, bola, oila, psixologik qo'llab-quvvatlash, oilaviy terapiya, emotsional regulyatsiya, psixologik reabilitatsiya, ijtimoiy himoya, travma, oilaviy munosabatlar, stress, emotsional kuyish, bola huquqlari, ijtimoiy xizmatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА СЕМЕЙ ДЕТЕЙ, ПОСТРАДАВШИХ ОТ НАСИЛИЯ

Аннотация.*В данной статье проанализированы теоретические и практические основы психологической поддержки семей детей, пострадавших от насилия. Рассмотрены влияние насилия на психику ребенка и семейную систему, нарушения семейных отношений, а также психологические механизмы их преодоления. Кроме того, на основе теорий Джона Боулби, Мюррея Боуэна, Карла Роджерса, Альберта Бандуры и других ученых раскрыта значимость семейной терапии, психологического консультирования, эмоциональной регуляции и социальной поддержки. В статье также проанализированы меры, реализуемые ООН, странами СНГ и Республикой Узбекистан по защите детей от насилия и оказанию комплексной помощи семьям, оказавшимся в трудной жизненной ситуации.*

Ключевые слова: *насилие, ребенок, семья, психологическая поддержка, семейная терапия, эмоциональная регуляция, психологическая реабилитация, социальная защита, травма, семейные отношения, стресс, эмоциональное выгорание, права ребенка, социальные услуги.*

PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR FAMILIES OF CHILDREN WHO HAVE EXPERIENCED VIOLENCE

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of psychological support for families of children who have experienced violence. The impact of violence on the child's psyche and family system, the disruption of family relationships, and psychological mechanisms for overcoming these consequences are discussed. Furthermore, based on the theories of John Bowlby, Murray Bowen, Carl Rogers, Albert Bandura, and other scholars, the importance of family therapy, psychological counseling, emotional regulation, and social support is highlighted. The article also examines measures implemented by the United Nations, CIS countries, and the Republic of Uzbekistan to protect children from violence and to provide comprehensive assistance to affected families.*

Key words: *violence, child, family, psychological support, family therapy, emotional regulation, psychological rehabilitation, social protection, trauma, family relationships, stress, emotional burnout, child rights, social services.*

Kirish. Bugungi kunda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zo‘ravonlikka uchragan bolalarda qo‘rquv, xavotir, depressiya, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Bunday holatlar nafaqat bolaning ruhiy salomatligiga, balki uning keyingi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish va ularga sifatli ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-fevraldagi 48-son qarori zo‘ravonlikdan jabrlangan, o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilaydi. Mazkur hujjat har bir bola uchun individual himoya rejalarini ishlab chiqish, kompleks reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etish hamda xavfsiz muhit yaratishni nazarda tutadi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrdagi 893-son qarori esa yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllarini tartibga solish orqali ushbu tizimni yanada takomillashtiradi hamda oilaviy tarbiya va ijtimoiy integratsiyaning ustuvorligini belgilaydi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi bolalar manfaatlarini ta’minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlari, iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy nizolarning ortishi hamda ota-onalarning emotsional zo‘riqishi oiladagi psixologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim oilalarda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat, e’tiborsizlik va zo‘ravonlik holatlari yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning stress, xavotir, depressiya va emotsional kuyish holatlari bolalar bilan munosabatlarning buzilishiga hamda oiladagi ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilasini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, oilada sog‘lom emotsional muhitni shakllantirish hamda bola va ota-ona o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni tiklash masalalari bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoning ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi bolalar farovonligini ta’minlash, oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega.

Psixologiya fanida bolaning sog‘lom rivojlanishi avvalo oiladagi psixologik muhit bilan bog‘liqligi ta'kidlanadi. Zo‘ravonlikka uchragan bolalarda emotsional beqarorlik, xavotir, depressiv holatlar, o‘ziga bahoning pasayishi, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy yakkalanish kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Shu sababli zamonaviy psixologiyada zo‘ravonlikka uchragan bolaga yordam ko‘rsatishda faqat bolaning o‘zi emas, balki uning oilasi bilan ham kompleks ishlash zarurligi e'tirof etiladi.

Amerikalik olim John Bowlby bog‘lanish nazariyasida bolaning ota-onasi bilan o‘rnatgan hissiy aloqasi uning butun keyingi psixologik rivojlanishiga ta'sir qilishini asoslab bergan. Olimning fikricha, ota-onaning mehr-muhabbati va hissiy qo‘llab-quvvatlashi bolaning xavfsizlik hissini shakllantiradi. Zo‘ravonlik mavjud oilalarda esa bu bog‘lanish buziladi va bola dunyoni xavfli muhit sifatida qabul qila boshlaydi.

Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Agar oilada zo‘ravonlik, nizolar va emotsional sovuqlik mavjud bo‘lsa, bu holat bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli psixologik yordamning asosiy maqsadi oiladagi sog‘lom muloqot va emotsional yaqinlikni tiklashdan iborat.

Oilaviy tizim nazariyasi asoschisi Murray Bowen oilani yagona psixologik tizim sifatida ko‘rib, undagi bir a'zoning muammosi butun oilaga ta'sir qilishini ta'kidlagan. Zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilasida kuzatiladigan muammolar ham faqat bolaning emas, balki butun oilaviy tizimning izdan chiqqanligini ko‘rsatadi. Shu sababli oilaviy terapiya va tizimli yondashuv bunday oilalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar.BMT va xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari. BMT tomonidan 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada bolalarni barcha turdagi jismoniy va ruhiy zo‘ravonliklardan himoya qilish davlatlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Mazkur hujjat bolalarning xavfsiz oilaviy muhitda yashash huquqini kafolatlaydi.

UNICEF ekspertlarining fikricha, zo‘ravonlikka uchragan bolalarni reabilitatsiya qilishda travmaga yo‘naltirilgan psixologik yordam, oilaviy maslahatlar va ota-onalarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada bolaning psixologik tiklanishi uchun xavfsiz muhit yaratish, uning hissiy ehtiyojlarini qondirish va oila ichidagi qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida qaraladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlari ham bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oqibatlari uzoq muddat davom etishini ta'kidlaydi. Ular orasida ruhiy buzilishlar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, xavotir va depressiv sindromlarning rivojlanishi alohida o‘rin tutadi. Shu sababli psixologik yordam imkon qadar erta bosqichda ko‘rsatilishi tavsiya etiladi.

MDH davlatlari tajribasida oilani psixologik qo‘llab-quvvatlash.MDH mamlakatlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va jabrlangan oilalarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Rossiya, Belarus va Qozog‘istonda oilaviy inqiroz markazlari faoliyat yuritib, ularda psixologik diagnostika, oilaviy maslahat va reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatiladi.

Rossiyalik olima R.V.Ovcharova oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning psixologik salomatligini belgilovchi eng muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, ota-onaning hissiy beqarorligi, stress va agressiyasi ko‘pincha bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

I.V.Dubrovina esa bolalar bilan ishlashda profilaktik yondashuvning ahamiyatini alohida qayd etadi. Uning tadqiqotlarida psixologik savodxonlikni oshirish, ota-onalarni emotsional boshqaruv ko‘nikmalariga o‘rgatish va oilaviy muloqotni rivojlantirish zo‘ravonlikning oldini olishda samarali vosita sifatida ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonda zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini qo‘llab-quvvatlash tizimi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bolalarni himoya qilish va oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator huquqiy hamda amaliy mexanizmlar yaratildi. Mamlakatimizda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, maktab psixologlari, mahalla tizimi va vasiylik organlari orqali bolalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini psixologik qo‘llab-quvvatlashning amaliy yo‘nalishlari:

Psixologik diagnostika va oilaviy muammolarni aniqlash;
Individual va oilaviy konsultatsiyalar;
Travmadan keyingi psixologik reabilitatsiya;
Ota-onalar uchun psixoedukatsion treninglar;
Emotsional regulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish;
Stress va xavotirni boshqarish texnikalarini o‘rgatish;
Oiladagi qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish;
Ijtimoiy xizmatlar va mahalla bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Psixologik diagnostika va oilaviy muammolarni aniqlash. Zo‘ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlashning dastlabki bosqichi psixologik diagnostika hisoblanadi. Diagnostika orqali bolaning emotsional holati, travmatik tajribasi, oiladagi munosabatlar tizimi hamda zo‘ravonlikning psixologik oqibatlari aniqlanadi. Amerikalik psixolog Carl Rogers insonning ichki kechinmalarini chuqur o‘rganish va shartsiz qabul qilish tamoyili samarali psixologik yordamning asosi ekanligini ta’kidlagan. Uning nazariyasiga ko‘ra, mutaxassis bolaning hissiy holatini baholash jarayonida samimiylik, empatiya va qabul qilish tamoyillariga amal qilishi lozim.

Oilaviy konsultatsiya va oilaviy terapiya. Oilaviy terapiya zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini qo‘llab-quvvatlashning eng samarali usullaridan biridir. Murray Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, oila yagona tizim bo‘lib, undagi bir a’zoning muammosi barcha a’zolarga ta’sir qiladi Shu sababli zo‘ravonlik oqibatlarini bartaraf etishda faqat bola bilan emas, balki ota-onalar va boshqa oila a’zolari bilan ham ishlash zarur.

Travmadan keyingi psixologik reabilitatsiya. Zo‘ravonlik bolaning ruhiy rivojlanishida chuqur travmatik iz qoldiradi. Judith Herman travma nazariyasida xavfsizlik hissini tiklash, travmatik tajribani qayta ishlash va ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklash reabilitatsiyaning asosiy bosqichlari ekanligini ta’kidlaydi. Shu bois zo‘ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlashda psixokorreksion mashg‘ulotlar, art-terapiya, o‘yin terapiyasi va individual konsultatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish. Ko‘plab tadqiqotlar ota-onalarning stress, xavotir va emotsional kuyish holatlari bolaga nisbatan salbiy munosabatlarni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o‘rganadilar. Agar ota-ona agressiv munosabatni namoyish etsa, bola ham kelajakda shu xulq modelini qabul qilishi mumkin.

Shu sababli ota-onalarga ijobiy tarbiya usullari, emotsional nazorat va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish zo‘ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsional regulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish.Daniel Goleman emotsional intellekt nazariyasida insonning hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatini psixologik farovonlikning muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarida ko‘pincha emotsiyalarni boshqarish qiyinchiliklari kuzatiladi.

O‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish.John Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bola uchun eng muhim ehtiyojlardan biri xavfsiz emotsional bog‘lanishdir. Ota-onaning mehr-muhabbati, e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi bolaning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi.

Stress va emotsional kuyishning oldini olish.Amerikalik olim Christina Maslach emotsional kuyish nazariyasida uzoq davom etuvchi stress insonning hissiy va jismoniy resurslarini kamaytirishini asoslagan. Ota-onalarning emotsional kuyishi bolalar bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va oiladagi nizolarni kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasida bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat siyosati.Yangi O‘zbekiston sharoitida bolalar manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tubdan takomillashtirildi. Xususan, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi, bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasidir.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlashda faqat bolaning psixologik holatini tiklash yetarli emas. Amaliyotda oilaning barcha a’zolari bilan kompleks psixologik ish olib borilgandagina barqaror va uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishish mumkin. Chunki bola oilaviy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, undagi har qanday emotsional yoki ijtimoiy o‘zgarish bolaning ruhiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy psixologik xizmatlar oilani yagona psixologik tizim sifatida baholab, barcha a’zolarning emotsional holati va o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, zo‘ravonlikka duch kelgan bolalarda travmadan keyingi stress buzilishi, xavotir, depressiv holatlar, emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik yoki aksincha, ijtimoiy yakkalanish kabi psixologik muammolar tez-tez uchraydi. Ushbu salbiy holatlar ota-onalarning psixologik qo‘llab-quvvatlashi va mutaxassislar tomonidan ko‘rsatiladigan tizimli yordam orqali sezilarli darajada kamayishi mumkin. Ayniqsa, oilaviy terapiya, individual psixologik maslahat, art-terapiya, o‘yin terapiyasi hamda psixoedukatsion mashg‘ulotlarning uyg‘un qo‘llanilishi bolaning emotsional barqarorligini tiklashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini qo‘llab-quvvatlash jarayonida multidissiplinar yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Psixolog, pedagog, ijtimoiy xodim, shifokor, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlik bolaning manfaatlarini kompleks himoya qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik oiladagi muammolarni erta aniqlash, xavf omillarini kamaytirish, ota-onalarga zarur psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish hamda bolani xavfsiz muhit bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ota-onalarning psixologik kompetensiyasini oshirish zo‘ravonlikning takrorlanish xavfini kamaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Psixoedukatsion dasturlar orqali ota-onalarda bolalar psixologiyasi, konstruktiv muloqot, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, stressni boshqarish va emotsional o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Bunday dasturlar oiladagi o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy tarbiya usullarini keng qo‘llashga xizmat qiladi hamda bolalarning xavfsiz rivojlanish muhiti yaratilishiga yordam beradi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi psixologik yordam ko‘rsatishning yangi shakllarini ham kengaytirmoqda. Onlayn psixologik konsultatsiyalar, ishonch telefonlari, mobil ilovalar va masofaviy psixologik maslahat platformalari zo‘ravonlikka uchragan bolalar hamda ularning oilalariga tezkor va malakali yordam ko‘rsatish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi oilalar uchun masofaviy psixologik xizmatlar psixologik yordamning ommabopligini va foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Xulosa va takliflar.Davlat tomonidan oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, ota-onalarning mas’uliyatini oshirish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va jabrlangan bolalarga kompleks yordam ko‘rsatish bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. John Bowlby, Lev Vygotskiy, Murray Bowen, Carl Rogers, Albert Bandura, Daniel Goleman va Christina Maslachlarning ilmiy qarashlari oilaviy munosabatlar, emotsional bog‘lanish, ijtimoiy o‘rganish hamda ruhiy salomatlikning bolaning rivojlanishidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

BMT, UNICEF va MDH davlatlari tajribasi zo‘ravonlikka uchragan bolalarni reabilitatsiya qilishda oilaviy terapiya, psixologik maslahat, emotsional regulyatsiya va ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati va bolalarni himoya qilishga qaratilgan davlat dasturlari zo‘ravonlikning oldini olish hamda bolalar farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, zo‘ravonlikka uchragan bolalar oilalarini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash nafaqat bolaning ruhiy salomatligini tiklash, balki oilada sog‘lom emotsional muhit yaratish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish va kelajak avlodning barkamol rivojlanishini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2024.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 464 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil etishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2023–2025.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
6. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. – New York: Basic Books, 1969. – 401 p.
7. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. – New York: Jason Aronson, 1978. – 584 p.
8. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
9. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

Tohirova Hamidaxon Lutfulla qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 1-kurs magistri
E-mail: hamidatohirova7@gmail.com

EMOTSIONAL INTELLEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI HAMDA UNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada emotsional intellekt tushunchasining psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda bugungi kunda shaxs rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, emotsional intellekt tushunchasining nazariy jihatdan o‘rganilishi hamda emotsional intellektning insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglashi, uni boshqara olishi, boshqalar emotsiyalarini tushunish va samarali muloqot o‘rnatishdagi roli batafsil yoritilgan. Maqolada emotsional intellektning nazariy asoslari, uning to‘rt tarmoqli qobiliyat modeli, turli ilmiy yondashuvlar tahlili hamda shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishidagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqotda Mayer, Salovey, Caruso va Goleman kabi yetakchi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Shu bilan birga maqolada emotsional intellektning ta’lim va mehnat faoliyatidagi amaliy ahamiyati yoritib berildi.*

Kalit so’zlar: *emotsional intellekt, to‘rt tarmoqli model, qobiliyat modeli, shaxs rivojlanishi, emotsiyalarni boshqarish, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy samaradorlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье проводится научно-теоретический анализ психологической сущности понятия эмоционального интеллекта, его структурных компонентов и значения в развитии личности в современных условиях. Наряду с этим детально освещается теоретическое исследование понятия эмоционального интеллекта, а также его роль в осознании человеком собственных эмоций, способности ими управлять, понимании эмоциональных состояний других людей и установлении эффективной межличностной коммуникации. В статье раскрыты теоретические основы эмоционального интеллекта, его четырёхкомпонентная модель способностей, анализ различных научных подходов, а также значение эмоционального интеллекта в социальном и психологическом развитии личности. В ходе исследования сравнительному анализу подвергнуты теоретические взгляды ведущих учёных - Майера, Сэловея, Карузо и Гоулмана. Помимо этого, в статье освещается практическое значение эмоционального интеллекта в образовательной и трудовой деятельности.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, четырёхкомпонентная модель, модель способностей, развитие личности, регуляция эмоций, когнитивные процессы, социальная эффективность.*

THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE AND ITS ROLE IN PERSONALITY DEVELOPMENT

Abstract. *This article provides a scholarly and theoretical analysis of the psychological nature of the concept of emotional intelligence, its structural components, and its significance in personal development in the contemporary context. The study further elaborates on the theoretical examination of emotional intelligence, with particular attention to its role in enabling individuals to recognize and regulate their own emotions, comprehend the emotional states of others, and establish effective interpersonal communication. The article addresses the theoretical foundations of emotional intelligence, its four-branch ability model, a comparative analysis of various scholarly approaches, and the significance of emotional intelligence in the social and psychological development of the individual. The theoretical perspectives of leading scholars - Mayer, Salovey, Caruso, and Goleman - are subjected to comparative analysis throughout the study. In addition, the article illuminates the practical significance of emotional intelligence in educational and professional activity.*

Key words: *emotional intelligence, four-branch model, ability model, personal development, emotion regulation, cognitive processes, social effectiveness.*

Kirish. Bugungi jamiyat taraqqiyotida psixologiya fanining zamonaviy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson shaxsini baholashda yagona intellekt ko‘rsatkichi “IQ” (Intellekt koeffitsienti) yetarli mezon bo‘lib xizmat qila olmaydi. Insonning hayotda muvaffaqiyatga erishishi, atrofdagilar bilan munosib munosabat o‘rnatishi va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishi uchun kognitiv qobiliyatlar bilan bir qatorda emotsional omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida “emotsional intellekt” tushunchasi psixologiyaga faniga kirib keldi va keyinchalik jahon miqyosida katta ilmiy va amaliy qiziqishlarga sabab bo‘ldi.

Emotsional intellekt muammosi bugungi globallashuv davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Madaniyatlari, qadriyatlari turlicha bo‘lgan xalqlar bilan bilan ish yuritish, kelishmovchiliklarni murosa yo‘li orqali hal etish, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash va boshqalarga nisbatan insonparvarlik munosabatini saqlash – bularning barchasi emotsional jihatdan yetuk shaxs siymosini namoyon qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi ham emotsional intellekt tushunchasining psixologik mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda uning asosiy nazariy modellarini qiyosiy tahlil etish hamda shaxs rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Tarixan kognitsiya va emotsiya bir-biriga qarama-qarshi jarayon sifatida talqin qilingan. Mazkur tasavvur Qadimgi Yunoniston stoiklari tomonidan G‘arb dunyoqarashiga singdirilgan edi. Hatto XX asr o‘rtalariga qadar ham ayrim olimlar emotsiyalarni inson psixikasini izdan chiqaruvchi kuch sifatida baholab, ular mantiqiy fikrlashga to‘sqinlik qiladi deb hisoblaganlar [1].

Biroq, 1970-yillarning oxirlarida emotsiya va kognitsiyalarni o‘zaro ta’sir qiluvchi kuchlar sifatida talqin etuvchi yondashuv shakllana boshladi. IQ ko‘rsatkichlari insonlar o‘rtasidagi individual farqlarni to‘liq tushuntirib bera olmasligidan kelib chiqqan ilmiy norozilik “moslashuvchan” intellekt nazariyalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Jumladan, Gardnerning ko‘p komponentli intellekt nazariyasi (1983-1993) hamda Sternbergning triarxik intellekt nazariyasi (1985) shular jumlasidandir.

Emotsional intellekt tushunchasi ilk bor 1990-yilda psixologlar Peter Salovey va John D.Mayer tomonidan ilmiy adabiyotga kiritilgan. Ular emotsional intellektni “insonning o‘zining va boshqalarning hissiyotini hamda emotsiyalarini kuzata olish, ular o‘rtasidagi farqlarni ajrata bilish va ushbu axborotdan tafakkur hamda xatti-harakatlarni boshqarishda foydalanish qobiliyati” sifatida ta’riflaganlar [2]. Shuningdek, ular emotsiyalar kognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashini nazariy jihatdan asoslab, emotsional intellektning ayrim jihatlarini psixik qobiliyat sifatida qanday o‘lchash mumkinligini empirik tarzda namoyish etganlar.

1995- yilda Daniel Golemanning: “Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ” nomli kitobi xalqaro miqyosda katta muvaffaqiyat qozonishi natijasida emotsional intellekt tushunchasi keng jamoatchilikka ma’lum bo‘ldi. Ushbu kitob ta’lim va boshqaruv sohalarida katta qiziqish uyg‘otdi. Biroq, Golemanning emotsional intellektni dastlabki ta’rifdan ancha kengaytirib talqin qilishi, uni optimizm, motivatsiya va stressga bardoshlilik kabi xususiyatlar bilan birlashtirishi keyinchalik ilmiy bahslarga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda emotsional intellektning to‘rtta asosiy modeli mavjud bo‘lib, ular ilmiy nuqtai nazardan ikki asosiy yondashuvga – qobiliyat modellari va aralash modellarga ajratiladi [3].

Mayer-Saloveyning qobiliyat yoki to'rt tarmoqli modeli;

Bar-Onning emotsional-ijtimoiy intellekt modeli;

Boyatzis-Goleman modeli;

Trait emotsional intellekt modeli.

Qobiliyat modellari tarafdorlari emotsional intellektni baholashda faoliyat natijalariga asoslangan diagnostik metodlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlasalar, aralash modellarning tarafdorlari bo‘lsa, o‘z-o‘zini baholash yoki ko‘p manbali ekspert baholash metodlarini afzal ko‘radilar.

Emotsional intellektni o‘rganishda eng keng qo‘llaniladigan va ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv bu – Mayer va Salovey tomonidan ishlab chiqilgan to‘rt tarmoqli qobiliyat modelidir. Mazkur model emotsional intellektni to‘rtta o‘zaro bog‘liq psixik qobiliyat tizimi sifatida ta’riflaydi. Bu qobiliyat ierarxik tarzda joylashtirilgan bo‘lib, oddiydan murakkablik - ketma-ketlikda rivojlanadi.

Emotsiyalarni idrok etish. Birinchi va eng asosiy tarmoq emotsiyalarni noverbal qabul qilish hamda ifodalash bilan bog‘liqdir. Evolutsion biologlar va psixologlarning ta’kidlashicha, emotsional ifoda – hayvonot olamida muhim ijtimoiy kommunikatsiya shakli sifatida evolyutsion rivojlangan. Quvonch, qayg‘u, g‘azab va qo‘rquv kabi yuz ifodalari insonlarda universal tarzda tanib olinadi.

Emotsiyalarni idrok etish qobiliyati yuqori rivojlangan insonlar emotsiyalarni mos va adekvat tarzda ifodalay oladilar hamda o‘z emotsional ehtiyojlarini moslashuvchan shaklda bayon qilishga qodir bo‘ladilar. Bundan tashqari, ular boshqa insonlar tomonidan namoyon qilinayotgan emotsiyalarning samimiy yoki nosamimiy ekanligini ham aniqlay oladilar. Mazkur qobiliyat emotsional intellektning fundamental ko‘nikmasi hisoblanib, uning boshqa tarmoqlari rivojlanishining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Tafakkurni faollashtirishda emotsiyalardan foydalanish. Ikkinchi tarmoq emotsiyalarning kognitiv tizimga kirib borishi, uni yo‘naltirilishi hamda tafakkur faoliyatini rag‘batlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Kognitiv fanlar vakillari emotsiyalar tafakkur ustuvorliklarini belgilashini qayd etadilar: inson emotsional jihatdan monosabat bildirgan hodisa uning diqqat markaziga aylanadi.

Tafakkurni qo‘llab-quvvatlashda emotsiyalardan samarali foydalana oladigan insonlar muayyan emotsiyalar ayrim vazifalar yoki maqsadlar bilan bevosita bog‘liqligini tushunadilar. Shu sababli ular ma’lum turdagi tafakkurni rag‘batlantirish yoki boshqalar bilan samaraliroq muloqot qilish uchun muayyan emotsional holatlarini rag‘batlantirish yoki boshqalar bilan samaraliroq muloqot qilish uchun muayyan emotsional holatlarni ongli ravishda shakllantirishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kayfiyatning o‘zgaruvchanligi hamda ijobiy emotsional holatlar kreativ tafakkurni amalga oshirish qobiliyati bilan bog‘liqligi aniqlangan.

Emotsiyalarni tushunish. Uchinchi tarmoq insonning o‘zida va boshqalarda kuzatilayotgan emotsiyalarni to‘g‘ri nomlay olish hamda ularning bir-biridan farqini anglash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Emotsiyalar muayyan axborotni uzatadi: quvonch, odatda boshqa insonlar bilan yaqinlashish istagini, g‘azab hujum qilish yoki zarar yetkazishga moyillikni, qo‘rquv esa qochish isatgini ifodalaydi.

Emotsiyalarni tushunish qobiliyati shuningdek turli emotsiyalarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish dinamikasi haqida xabardor bo‘lishni ham anglatadi. Masalan, qayg‘u odatda yo‘qotish natijasida yuzaga keladi; nazorat qilinmagan bezovtalik esa vaqt o‘tishi bilan g‘azabga, keyinchalik esa kuchli nafrat yoki qahr holatiga aylanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, salbiy emotsiyalarni aniq va differensial tarzda nomlay olish emotsiyalarni boshqarishning samarali strategiyalarini tanlashga yordam beradi.

Emotsiyalarni boshqarish. To‘rtinchi va eng murakkab tarmoq – emotsiyalarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Emotsiyalarni boshqarish qobiliyati rivojlangan insonlar yoqimli va yoqimsiz emotsional holatlarga nisbatan ochiq munosabatni saqlab qola oladilar. Shuningdek, ular muayyan vaziyatlarda ayrim emotsiyalarni his qilishning ahamiyatini anglaydilar hamda konkret emotsiyalarni kuchaytirish yoki kamaytirishda qisqa va uzoq muddatli strategiyalarning qaysi biri samaraliroq ekanligini tushunadilar.

Emotsional intellekt umuman olganda, shaxsning ijtimoiy samaradorligini oshiradi. Emotsional intellekt darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, insonning ijtimoiy munosabatlari ham shunchalik muvaffaqiyatli shakllanadi. Mayer, Salovey va Carusoning ta’kidlashicha, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan individ, avvalo boshqalarga nisbatan emotsiyalarni yaxshiroq idrok etadi, ulardan tafakkur jarayonida samaraliroq foydalanadi va emotsional ma’nolarni chuqurroq tushunish bilan birga emotsiyalarni boshqarishda yuqori salohiyat namoyon eta oladi. Tadqiqotlarda shuni kuzatish mumkinki, emotsional intellekti yuqori insonlar boshqa odamlarga nisbatan muammoli xulqatvor shakllariga kamroq moyil bo‘ladi hamda chekish, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish, narkotik moddalarni qabul qilish yoki boshqalar bilan zo‘ravonlikka asoslangan nizolarga kirishish kabi o‘ziga zarar yetkazuvchi salbiy xatti-harakatlardan ko‘proq yiroq bo‘ladi [3].

Emotsional intellektning shaxs rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirida shaxsning ruhiy sog‘lig‘i va farovonlikdagi o‘rni ko‘p qirralidir. Birinchidan, emotsional intellekti yuqori shaxslar giyohvand moddalar va alkogolni suiiste’mol qilishga kamroq moyil bo‘ladilar. Ikkinchidan, ular o‘z ijtimoiy aloqalaridan ko‘proq qoniqish hosil qiladilar va ko‘proq ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his qiladilar.

Uchinchidan, bunday shaxslar shaxslararo nizolar va janjallardan muvaffaqiyatliroq qochishga moyillik ko‘rsatadilar.

Emotsional intellektning ta’lim va mehnat faoliyati bo‘yicha ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 1990-yillarning o‘rtalarida emotsional intellekt konsepsiyasining ommalashuvi ortidan ushbu konstruktning real hayotdagi amaliy ahamiyatiga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Tadqiqotchilar emotsional intellekt bilan inson hayotining turli muhim natijalari o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqliklarni aniqlaganlar: mehnat faoliyati samaradorligi, ruhiy va jismoniy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar sifati hamda akademik muvaffaqiyat shular jumlasidandir. Ish muhitida emotsiyalarning ta’siri haqidagi yangi qarash affektning kognitiv faoliyatidagi rolini hamda ushbu bog‘liqlikning mehnat bilan bog‘liq turli natijalarga ta’sirini ko‘rsatib bergan ilmiy tadqiqotlar asosida shakllandi. Tashkiliy xulq-atvor psixologiyasida “affektiv inqilob” yuz berayotgani haqidagi fikr ilgari surilgan [6]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, emotsiyalar tashkilot faoliyatining barcha darajalariga singib ketgan bo‘lib, strategik qarorlar qabul qilish, kreativlik, muvaffaqiyatli muzokaralar olib borish va mehnat unumdorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Ta’lim muhitida ham emotsional intellektning ahamiyati beqiyosdir. O‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati faqat kognitiv qobiliyatlar bilan belgilanmaydi, balki, emotsional barqarorlik, o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, tengdoshlari bilan munosib muloqot qila olish kabi emotsional ko‘nikmalar ham ta’lim jarayonining samarasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Emotsional intellektni o‘rganishda turli nazariy yondashuvlar o‘rtasidagi munozara hali ham davom etib kelmoqda. Qobiliyat modeli - xususan, Mayer va Salovey – emotsional intellekni aniq psixik qobiliyat sifatida ta’riflab, uni boshqa shaxs xususiyatlaridan mustaqil konstrukt sifatida baholashni talab qiladilar. Ularning fikricha, emotsional intellekt konstruktiga eng katta xavf uning tanqidchilaridan emas, balki ushbu atamani tartibsiz va ilmiy asoslanmagan tarzda turli boshqa psixologik o‘zgaruvchilarga nisbatan qo‘llayotgan yondashuvlardan kelib chiqadi.

Aralash model tarafdorlari bo‘lsa, emotsional intellektni kengroq tushunib, unga motivatsiya, moslashuvchanlik, optimizm kabi xususiyatlarni ham kiritadilar. Ushbu yondashuv amaliy jihatdan ayniqsa, tashkiliy psixologiya va liderlik sohasida – ma’lum darajada foydali bo‘lsada, ilmiy aniqlik va o‘lchash validligi nuqtai nazaridan tanqidga uchragan.

Shuni ta’kidlash joizki, emotsional intellektning shaxs faoliyatiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri odatda nozik va bilvosita xarakterga ega bo‘ladi. Shu sababli uni aniqlashda muayyan darajada ilmiy kuzatuv va tahlil talab etiladi. Bundan tashqari, emotsional intellektning bu ta’siri barcha ijtimoiy vaziyatlarda bir xil darajada namoyon bo‘lavermaydi. Shunga qaramay, mavjud empirik ma’lumotlarda emotsional intellektning shaxs rivojlanishi va hayot sifatiga ijobiy hissa qo‘shishni tasdiqlaydi. O‘zbek psixologlari tomonidan emotsional intellekt muammosi yetarlicha o‘rganilmagan va shu boisdan mazkur yo‘nalishda mahalliy sharoit va madaniy kontektsni hisobga olgan holda empirik tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Emotsional intellektni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik istiqbollari

So‘nggi yillarda emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur psixologik konstrukt shaxsning nafaqat emotsional barqarorligini, balki uning kasbiy muvaffaqiyati, liderlik salohiyati, ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligini ham belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlarida emotsional intellektni shakllantirish umumiy kompetensiyalar tarkibiga kiritilib, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik bosqichlarigacha izchil rivojlantirilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan emotsional intellekt tug‘ma sifat emas, balki rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan dinamik psixologik qobiliyat hisoblanadi. Bu esa maxsus psixologik treninglar, refleksiv mashqlar, kommunikativ topshiriqlar hamda ijtimoiy-psixologik treninglar orqali emotsional kompetensiyalarni muntazam takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, o‘z emotsiyalarini anglash, ularni konstruktiv boshqarish, empatiya, faol tinglash va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli ravishda oshiradi.

Bugungi raqamli jamiyat sharoitida emotsional intellektning yangi qirralari ham namoyon bo‘lmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn muloqot va virtual jamoalarda ishlash jarayonida insonning emotsional holatini to‘g‘ri boshqarishi, yozma muloqotda emotsional mazmunni to‘g‘ri ifodalashi

hamda boshqalarning emotsional holatini anglay olishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli zamonaviy psixologiyada “raqamli emotsional kompetensiya” tushunchasi ham shakllanib bormoqda. Bu kompetensiya shaxsning axborot-kommunikatsiya muhitida sog‘lom psixologik munosabatlarni saqlashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, emotsional intellektning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, psixolog, pedagog, shifokor, menejer, ijtimoiy xodim va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun emotsiyalarni boshqarish va empatik muloqot olib borish kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar emotsional intellekti yuqori bo‘lgan mutaxassislar stressga bardoshlilik, qaror qabul qilish sifati, jamoada ishlash samaradorligi hamda kasbiy kuyish sindromining pastligi bilan ajralib turishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham emotsional intellekt muammosini milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda chuqur o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar hamda turli kasb vakillarida emotsional intellektning rivojlanish darajasini aniqlash, uni baholashning milliy psixodiagnostik metodikalarini yaratish hamda psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bu esa milliy psixologiya fanining rivojlanishiga, ta’lim sifati va jamiyatning psixologik salomatligini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional intellekt – shaxsning o‘zi va boshqalarning emotsiyalarini anglash, boshqarish hamda ulardan hayot va shaxs faoliyatida maqsadli foydalanish qobiliyati hisoblanib, zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mayer va Salovey tomonidan taklif etilgan to‘rt tarmoqli model emotsional intellektning nazariy asoslarini izohlashda keng qo‘llaniladigan va ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan yondashuvlardan biri sanaladi. Ushbu model – emotsiyalarni idrok etish, tushunish, ulardan tafakkur jarayonida foydalanish va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili emotsional intellektning shaxslararo munosabatlar, ruhiy salomatlik, ta’lim jarayoni hamda kasbiy faoliyat samaradorligi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010. – 544 б.
2. Давлетшин М.Г., Туйчиева С.М., Нишонова З.Т. Ёш ва педагогик психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004. – 300 б.
3. Нишонова З.Т. Психодиагностика. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – 320 б.
4. Ғозиев Э.Ғ. Психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 352 б.
5. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 240 б.
6. Нишонова З.Т., Алимова Г.К. Психологик хизмат асослари. – Тошкент: Tafakkur-Bo‘stoni, 2014. – 256 б.
7. Каримова В.М. Оила психологияси. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – 192 б.
8. Ўзбекистон Республикаси. Психологик хизмат тўғрисидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Адолат, 2021. – 168 б.
9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти. ПФ–158-сон Фармон. «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида. – Тошкент, 2023.

“BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti “O’quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo’yicha prorektor” psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o’zbek, rus, ingliz)***

https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak. **(3 tilda: o’zbek, rus, ingliz)**
Kalit so’zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o’zbek, rus, ingliz)**
KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)
METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)
NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)
Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O’ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	Muallif va maqola nomi
5	**Xolmatova Saidaxon Voxobjonovna** Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning axloqiy dilemmalari va ularni hal etish mexanizmlari
9	**Атабекова Амина Байрамбековна** Симуляция дипломатических переговоров: роль диалога и интервью в подготовке будущих специалистов при обучении русского языка
13	**Mehmonova Chinora Ro'ziboy qizi** Jadidlar ta'limotida insonparvar pedagog timsoli va uning ijtimoiy reabilitatsiyadagi pedagogik ahamiyati
17	**Sabirova Nasiba Ergashevna, Ro'zmetova Gulhayo Sharif qizi** Zamonaviy ta'limda differensial yondashuv orqali o'quv faoliyatini rivojlantirish
23	**Шарафутдинова Марвар Рашидовна** Основные художественные течения и литературные Направления серебряного века
29	**G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich** Tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlar asosida tuzilgan Intellect xarita yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish
34	**Ражабова Рано, Мусаева Амина Караматовна** Цветообозначения в русском языке и их семантика
39	**Тураева Садокат Алимбаевна, Муродова Дилдора Арабовна** Историко-лингвистический анализ склонения существительных в русском языке
43	**Bekberganov Avazbek, Bekberganova Khilola** The role of pragmatics, pragmalinguistics and media discourse in shaping modern communication
46	**Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich** O'spirinlik davrida depressiv holatlar namoyon bo'lish darajasining o'ziga xos xususiyatlari
52	**Ablyakimova Refide Izmerovna** Ta'lim jarayonida xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari
56	**Komilova Nilufar Abdilkadimovna** The problem of social and cultural factors in the universal linguistic theory of the gender phenomenon
60	**Эшкуватова Мафтуна Одил кизи** Риторические вопросы как средство формирования Психологической напряженности в художественном тексте
65	**Xudoyorova Nigora Nuriddinovna** Navoiy forsiy va turkiy g'azallarining qiyosiy o'rganilishi
70	**Katayev Salaxiddin Valiqul o'g'li** Oliy ta'lim tizimida ingliz tili fanini o'qitishda sun'iy intellektning ahamiyati
74	**Sobirova Subinsoxon Muxsinjon qizi** Ko'zi ojiz bolalarning eshitish idrokini rivojlantirishda maxsus pedagogik texnologiyalarni qo'llash
80	**Ravshanov Xusan Abdiqul o'g'li** Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
86	**Хаитбаева Наима Хабибуллаевна** Речевая задача в проектировании урока рки для студентов с узбекским языком обучения
90	**Xalilov Bekzod** Bo'lajak psixologlarda matematik qobiliyat va analitik fikrlashning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri

96	**Qo'yliyev Ulug'bek Ravshanovich** Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida mantiqiy tafakkurning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar
102	**Кодирова Дилноза Муртазоевна** Педагогико-психологические особенности профессиональной идентичности у студентов-молодежи
108	**Нарзуллаева Шахризода, Мурадова Дилдора Арабовна** Коммуникативное понимание и рефлексия в современном образовательном пространстве
113	**Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna** Mustaqil ta'limni bulutli texnologiyalar yordamida tashkil etishda xorij tajribasi (boshlang'ich ta'lim misolida)
119	**Eshimova Zarnigor Shuhrat qizi** Asar yaratishda muallifning konseptual niyati
123	**Haydarov Shahriyor Shuxrat o'g'li** Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko'rsatish modeli va uning o'ziga xos ilmiy-amaliy asoslari
130	**Berdiyeva Nozima Furqat qizi** Abdulg'oziy Bahodirxonning Shajarayi Turk asaridagi etnonimlarning lisoniy tadqiqi
137	**Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich** Talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi
143	**Gaziyeva Nozima Shoirjon qizi** Oliy ta'limda innovatsion boshqaruv va nizolar profilaktikasi
147	**Mardiyeva Dilorom** O'qituvchilarda kasbiy stress va burnout sindromining namoyon bo'lish xususiyatlari
151	**Boboniyozova Manzura Karim qizi** Istiqlol davri o'zbek romanlari: "Yaldo kechasi" romanida qodiriy an'analari
156	**Jo'raqulova Parizoda Otabek qizi** A comparative analysis of changes in cultural identity during the learning of english and uzbek
161	**Barotov Bahodir** Mashrab she'riyatida tasavvufiy dunyo qarashning badiiy ifodasi
165	**Ziyatov Muhammad Namazovich** Yuqori aqliy yuklama sharoitida talaba qizlarning yurak-qon tomir tizimi funksional holatini korreksiyalashda kardio-fitnes dasturlari
169	**Mashhura Sultonova Rustamboyevna** Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar
174	**Nomozova Latofat Rustamovna** Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetentsiyalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
180	**Kamilova Madina Xamidjanovna** O'zbek oilalarida huquqiy sotsializatsiya huquqiy savodxonlikning psixologik determinantlari sifatida
184	**Muhiddinova Dilrabo Baxriddin qizi** Kichik maktab o'quvchilariga qadriyatli munosabat asosida pozitivlikni shakllantirish
188	**Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich** Rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o'z-o'zini boshqarishning psixologik mexanizmlari
192	**Burxanova Dilnozaxon Ilxomjon qizi** Qarindoshlik atamalarida semantik o'zgarishlarning kognitiv asoslari

196	**Abdunosirova Zarinaxon Anvarjon qizi** Pragmatic features of english advertising discourse
202	**Тангриева Диёра Гани кизи** Морфологическая интерференция в системе падежей русского и узбекского языков
206	**Sabirova Fatimajon Xushnudovna** Mumtoz matnlarda germenevtik yondashuv
211	**Otakulova Dilorom Azimjonovna** O‘spirinlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlari
216	**Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi** Yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining psixologik mohiyati
220	**Suleymanova Nargiza Mardonovna, Amanov Abdugani Telmanovich** Stylistic and pragmatic features of the politeness category in english and uzbek literary works
225	**Xoldarova Irodaxon Valijonovna** Kooperativ ta'lim usuli orqali o‘quvchilar faolligini oshirish
230	**Yangiboyeva Dilnoza Abdurasul qizi** Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari
236	**Saidnazarova Saodat Kurbonboyevna** Zamonaviy mediadiskurs tizimida gazeta diskursining lingvopragmatik xususiyatlari
242	**Abdullayev Shaxboz Solijon o'g'li, Mamatkarimova Saidaxon Mamatvali qiz** Raqamli transformatsiya sharoitida bulutli texnologiyalar va big data asosida ta’lim modeli
249	**Kozimova Nigora Abduqahorovna** Talabalarning oliy ta’limga akademik va psixologik moslashuv mexanizmlari
254	**Isaqova Elvina Dilaverovna** O‘zbek va ingliz tillaridagi flora-fauna konseptiga oid tez aytishlarning semantik-stilistik xususiyatlarini o‘rganish usullari
259	**Tojiyeva Asila Abdimannon qizi** Bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari
264	**Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi** Xalq pedagogikasi asosida milliy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari
270	**G‘ayratov Shaxzodbek Otabek o‘g‘li** The noun (ism) in arabic syntax and the noun Word class in uzbek: a comparative analysis
274	**Ergashev Zoxidjon Xamidulla o‘g‘li** Social criticism, moral responsibility, and human values in said ahmad’s short stories “the burden” and “the stubborn man”
278	**Abduvahobov Shahzodbek Ravshanbek o‘g‘li** The object in arabic grammar (naḥw) and the object in uzbek: a comparative analysis
283	**Arabov Is’hoq** Zamonaviy psixoanalitika va islom psixologiyasida shaxs strukturasi tahlilining o‘ziga xosligi
286	**Nigmanov Bori Botirovich, Abdug‘ofurov Umidjon G‘ayrat o‘g‘li** 10-12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlarning o‘rni
290	**Bobomurotova Mahfuza** Pirimqul Qodirovning “avlodlar dovoni” romanida umumiste’mol leksikaning uslubiy im-koniyatlari
295	**Botirov Zoir Nuriddin o‘g‘li** O‘smirlar ijodiy faoliyatining ilmiy-nazariy tadqiqotlari tahlili
300	**Djuxonova Noxida Xayotjonovna** Qishloq hududida yashovchi bir va ko‘p millatli oilalarda nikoh munosabatlarining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari
305	**Abdurahimova Durdona Tavqkkqljon qizi** Onomastic strategies in john milton's paradise lost

311	**Kabulova Indira Xojabaevna** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy rivojlantirish
314	**Bozorboyeva Marjona Jumaboy qizi** Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati
319	**Mirzajonova Eleonora Topvoldievna** Psixoterapevtik usullarning talabalarda ruhiy tiklanish va xavotirlanish darajasiga ta’siri
323	**Nigmanov Bori Botirovich, Avazov Dilshod Alisher o'g'li** Basketbolchilarga texnik harakatlarni o‘rgatishga harakatli o‘yinlardan foydalanish
327	**Orifova Oqilaxon Javlon qizi** Oilada ekologik madaniyatni rivojlantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida
330	**Babaniyazova Nursulıw Konısbayevna** Qoraqalpoq tilida evfemizmlarning stillarda qo‘llanilish xususiyatlari
334	**Орзиева Шохсанам** Выражение англосаксонского нравственного мировоззрения в английской художественной литературе xix века (на материале романа чарльза диккенса «great expectations»)
342	**Shukurov Uktam Bakhodirovich** Theoretical foundations for forming cognitive-pragmatic competence in future english teachers
347	**Xaitov Zufar Asroralievich** Ajdodlar siymosini ifodalashda amaliy-ijodiy loyiha portfoliosining tahlili
353	**Xujomov Bobomurod Xaytmurodovich** O‘zbek kurashini rivojlantirishning pedagogik va tashkiliy asoslari
357	**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi** Distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning psixologik determinantlari
365	**Ташкулова Зарнигор** Репрезентация персонажных концептов «англичанин» и «восточная женщина» в творчестве с.моэма
370	**Абдукахорова Азиза Кодиржоновна, Азизова Насиба Бахритдиновна** Лингвокультурологические особенности перевода безэквивалентной лексики
377	**Турдикулова Эъзозхон Эркинжон кизи** Эффективность использования интернет-технологий в формировании иноязычной коммуникативной компетенции младших школьников
382	**O‘ktamova Shohida Odilbek qizi** Talabalik davrida tanqidiy fikrlashning rivojlanish xususiyatlari
388	**Muxamadiyeva Laziza Nizomovna** Tarix darslarida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari
392	**Турдиева Зухра Алмаматовна** Интеграция цифровых платформ в процесс формирования лексических навыков на начальном этапе обучения рки
397	**Umarov Lutfillo Murodilloyevich** Uzluksiz kasbiy ta’lim tizimi makonini modellashtirish: umumiy metodologiya
402	**Ganiyeva Gulandon Ibragimovna** Oliy ta’limda psixologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi
406	**Jabborova Feruza Majidovna** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlik omillari
411	**Aslanova Nozima Xakimovna** Ta'limning universal dizayni orqali amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda kollaborativ yondashuv
415	**Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich**

	Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy xizmatchilar shaxsiyatining ko‘p omilli tuzilmasi va axloqiy-irodaviy sifatlar determinatsiyasi
421	**Sattarova Sevara Olimovna** Erkin Vohidov poetik tafakkurining shakllanishida rus poeziyasi tajribalarining o‘rni
425	**Achilova Sevara Djasirkulovna** Rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini bartaraf etish usullari va mustaqil ta’limda o‘rgatish ishlari mazmuni
429	**Гулямова Фатима Мехриддиновна** Проблемы формирования видовых пар у непродуктивных глаголов на начальном этапе обучения рки
435	**Raimdjanova Gulasal Baxtiyor qizi** Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda prokrastinatsiya muammosi: shakllanish sabablari va asosiy turlari
440	**Xolmatova Ziroatxon Anvarovna** O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik diagnostikaning o’rni
445	**Akbarova Feruza Uktamjonovna** Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyor-lashning pedagogik imkoniyatlar
450	**Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi** Experience in enhancing english language teaching methodology through discourse compe-tence development in non-philological programs
455	**Ernazarova Shahnoza Ergash qizi** Ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning taraqqiyot bosqichlari
460	**Khashimova Mokhira Abdusatarovna** Modern civilizational terms in arabic: history, scholars, and standardization challenges
465	**Hojiyeva Nasiba Bahodirovna** Sun’iy intellekt texnologiyalarining talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoni-yatlari
469	**Нарзуллаева Амира, Муродова Дильдора Арабовна** Особенности женской лирики в творчестве анны ахматовой и марины цветаевой
474	**Назарова Муяссархон Рахимжоновна** Современные тенденции развития суффиксального словообразования прилагательных в русском языке
479	**Sidiqova Yulduz Sobirovna** O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion metodlarning ahamiyati
483	**Xamroyeva Nargiza Shavkatovna** Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini baholash-ning innovatsion diagnostik modeli
487	**Norho’jayeva Dilnozaxon Odiljon qizi** Psixologik maslahat ishini tashkil etishning nazariy-metodik va amaliy asoslari
492	**Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi** Zo’rovonlikga uchragan bolalar oilasini psixologik jihatadan qo’llab quvvatlash
497	**Tohirova Hamidaxon Lutfulla qizi** Emotsional intellekt tushunchasining psixologik mohiyati hamda uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
2026-yil, 7-son, 1-qism.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 22-fevral № 064916-sonli guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan 10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан на основании свидетельства № 064916 от 22 февраля 2023 года.

Журнал включён в перечень обязательных научных изданий, в которых должны публиковаться основные результаты диссертационных исследований, решением Президиума ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 29 декабря 2023 года № 347 по следующим научным специальностям: 10.00.00 – филология, 13.00.00 – педагогика, 19.00.00 – психология.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro,
2026-yil, 7-son, 1-qism, 509 b.